

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JISMONIY TARBIYA VA SPORT
VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI

R.NABIULLIN

SPORT MENEJMENTI

ASOSLARI

O'quv qo'llanma

TOSHKENT - 2019

UO'K
KBB
N

Nabiullin R.X. Sport menejmenti asoslari. O'quv qo'llanma. –T., 2019. – 354b.

Taqrizchilar:

Kerimov F.A. –p.f.d., professor

Gulyamov Z.T – t.f.i., professor

Qo'llanmada sport menejmentini paydo bo'lish shart-sharoitlari va asoslari bayon etiladi. Sportni boshqaruv obykti sifatidagi xususiyatlari aniqlangan. Sport tashkilotlarining asosiy unsurlari taqdim etilgan. Sport tashkilotini boshqaruvining tizimi, tuzilmasi, vazifa, uslub va uslubiyati ochib berilgan.

Qo'llanma sportning har xil turlari bo'yicha murabbiy va sportchilar uchun foydali bo'lishi mumkin. Ushbu qo'llanma jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarda shubhasiz qiziqish uyg'otadi hamda Jismoniy tarbiya instituti va Jismoniy tarbiya fakulteti o'qituvchi va talabalari uchun yaxshi dastak bo'ladi.

Qo'llanma "Sport menejmenti" mutaxassisligi bo'yicha o'qiyotganlar uchun ayniqsa, foydalidir. Bundan tashqari, malaka oshirish kurs tinglovchilari uchun ham qimmatli ma'lumotga ega.

ISBN 978-9943-4852-1-1

© NABIULLIN R.X., 2019

© ILMİY-TEXNIKA AXBOROTI-PRESS NASHRIYOTI, 2019

MUNDARIJA:

KIRISH.....	5
I. O'ZBEKISTON SHAROITIDA JAHON MOLIYAVIY INQIROZI VA SPORT MENEJMENTI	
1.1. O'zbekistonda jahon moliyaviy inqirozining ta'sirini bartaraf etishda sport menejmentining o'rni	7
1.2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida sport boshqaruvi	23
1.3. Sport menejmenti fanining predmeti va mazmuni	33
1.4. Menejment nazariyasining evolyutsiyasi va uning sport menejmenti rivojida o'rni	51
1.5. Menejment nazariyasining o'rta asr davridagi evolyutsiyasi.....	55
1.6. Menejment nazariyasining yangi davridagi evolyutsiyasi va uning sport rivojida o'rni.....	60
II. SPORT MENEJMENTINING ASOSIY TUSHUNCHALARI	
2.1. Sport menejmentining boshqaruv printsiplari.....	71
2.2. Sportda menejmentning vazifalari	81
2.3. Menejment usullarining mazmuni, mohiyati	91
2.4. Sport menejmenti asosiy usullarining tavsifi.....	96
2.5. Sport menejmentida ma'muriy – buyruqbozlik usullari	105
2.6. Sport menejmentida iqtisodiy usullar	116
2.7. Menejment ijtimoiy - ruhiy usullar	123
III. O'ZBEKISTONDA SPORTNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TIZIMLARI	
3.1. Sportda hozirgi zamon boshqaruv tizimining shakllanishi.....	131
3.2. Sport menejmenti zamonaviy tizimini belgilovchi omillar	147
3.3. O'zbekistonda sport tashkilotlarining huquqiy asoslari.....	158
3.4. Sport tashkilotlarining bozor iqtisodiyoti sharoitidagi xususiyatlari	168
IV. O'ZBEKISTONDA SPORT MENEJMENTIDA PERSONALNING O'RNI	
4.1. O'zbekistonda sportni rivojida menejmentning o'rni	182
4.2. O'zbekistonda mustaqillik davrida sportning rivoji	192

4.3. Sport menejmentida sport personali	197
4.4. Sport tashkilotining menejeri, sport menejeri modeli	212
V. SPORT MENEJMENTIDA AXBOROT TA'MINOTI VA BOSHQARUV QARORLARI	
5.1. Sport menejmentining axborot ta'minoti	225
5.2. Sport menejmentda jarayonlarni axborot bilan ta'minlash	232
5.3. Boshqaruv qarorlarining mohiyati va ularga qo'yiladigan talablar	236
5.4. Sport menejmentida boshqaruv qarorlarini qabul qilish	241
VI. SPORT TURLARINI RIVOJLANTIRISHDA SPORT MENEJMENTNING ROLI	
6.1. Sport menejmentining maqsadlari	248
6.2. Xalqaro sport aloqalarining rivojlanishida menejment va marketingning o'rni	256
6.3. Olimpiya harakati rivojida sport menejmentining o'rni	270
VII. PROFESSIONAL SPORT MENEJMENTI	
7.1. Professional sportning mazmuni va mohiyati	281
7.2. Professional sporti menejmentida korporativ boshqaruvning xususiyatlari	290
7.3. Professional sport menejmentini rivojlantirish omillari	296
VIII. SPORT MENEJMENTIDA STRATEGIK KONTSEPTSIYALAR	
8.1. Sport menejmentida strategik boshqaruv	301
8.2. Sport menejmentida sportni strategik rejalashtirish kontsepsiyalari	309
IX. XORIJIY MAMLAKATLARDA SPORT TASHKILOTLARINING MENEJMENTI	
9.1. Xorijiy mamlakatlarda sport menejmentining shakllanishi va rivojlanishi	315
9.2. Xorij mamlakatlarida sport marketingining kontsepsiyasi	330
9.3. Xorijda sport aloqalarini rivojlanishda sport menejmentining ahamiyati	337
XULOSA	344
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	347

KIRISH

Iqtisodiyotning izchil va barqaror rivojlanishini ta'minlashda kelgusi davr uchun puxta va har tomonlama asoslangan chora-tadbirlar, muhim vazifa va yo'nalishlar, turli darajalardagi iqtisodiy taraqqiyot dasturlarining ishlab chiqilishi va aniq belgilab olinishi muvaffaqiyat garovi hisoblanadi. Ayni paytda, bosib o'tilgan yo'l - oldingi davrdagi erishilgan yutuq va natijalarni tanqidiy baholash orqali tegishli xulosalar chiqarish, ular asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini yanada takomillashtirib borish ham muhim printsiplial ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda chuqur o'zgarishlar, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha tomonlarini izchil isloh etish va liberallashtirish, jamiyatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlari jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Bunda kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lida belgilab olingan va izchil ravishda amalga oshirilayotgan ulkan vazifalar mustahkam zamin yaratmokda. Jumladan, barkamol avlod Davlat dasturida yoshlarning jismoniy jihatdan sog'lom bo'lib etishlariga katta e'tibor berilgan. Ushbu vazifani amalga oshirish jismoniy tarbiya tashkilotlariga, ayniqsa, shu soha oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlariga juda katta mas'uliyatlarni yuklaydi. Shuning uchun jismoniy tarbiya va sport jarayonlariga rahbarlik qilish, soha uchun etuk mutaxassis - kadrlar tayyorlash, ularni o'qitish, qayta o'qitish, kerak bo'lsa, malakasini oshirib borish o'ta muhim masalalardan hisoblanadi. Hozirgi kunda butun dunyoda yuqorida qayd etilgan masalalarni hal etishda menejment fani, jumladan, "Sport menejmenti" fani aynan qo'l kelishi hech kimda shubha tug'dira olmaydi.

O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, boshqa Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining jismoniy tarbiya va sport fakultet va kafedralari, Olimpiya zahira bilim yurtlari va pedagogika bilim yurtlarining jismoniy tarbiya bo'limlarida katta miqdorda malakali sport mutaxassislari tayyorlanmoqda. Yuqorida nomlari qayd etilgan barcha o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya va sport menejmenti har xil hajmda va har xil ko'rinishda o'qitilmoqda. Menejment xalq xo'jaligining barcha sohalarida bo'lganidek, jismoniy tarbiya va sport sohasida ham nisbatan yangi soha hisoblanadi. Shuning uchun hozirgi kunda jismoniy tarbiya va sport menejmenti fanini rivojlantirish, ayniqsa, yurtimizda birinchilar qatorida Davlat tili - o'zbek tilida darslik yaratilishi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Ushbu o'quv qo'llanma "Sport menejmenti" fani bo'yicha Davlat standarti va Namunaviy dasturga mos ravishda yaratilgan bo'lib, Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya va sport sohasida menejerlar

tayyorlashda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga egadir. Jismoniy tarbiya va sport tashkilotining, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarini rahbarlari, murabbiy, menedjer, maktab direktori, klub prezidentlari menejment fanini o'zlashtirmaganlaricha, ularning faoliyati to'laqonli ravishda amalga oshmoqda, deyish qiyin.

Ushbu predmetning bosh *maqsadi* etib, yurtimizda va xorijda rivojlanib kelayotgan menejment, jumladan, jismoniy tarbiya va sport menejmentining asosiy kategoriyalari, uning printsiplari, funktsiyalari, usullari, axborot texnologiyasi va tashkiliy tizimlarini nazariy va amaliy tomondan chuqur o'rganish tavsiya etiladi.

“Sport menejmenti” fani O'zbekiston sport tashkilotlarida ish yuritishda zarur bo'ladigan ijtimoiy boshqaruvning nazariy asoslarini egallash, bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos keladigan menejmentning amaliy ko'nikmalarini hosil qilish, xo'jalik mexanizmini takomillashtirish, moliyaviy, moddiy, mehnat zaxiralaridan unumli foydalanishda asosli qarorlar qabul qila olishini ta'minlaydi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, sport tashkilotlari o'z oldilariga qo'ygan ommaviy jismoniy tarbiya, sog'lomlashtirishni rivojlantirish va sportda yuksak natijalarga erishishda faqatgina asosli boshqaruv qarorlarigina umumiy va aniq maqsadlarga muvaffaqiyatli erishish imkonini yarata oladi.

Sport menejmenti fanining nazariy va amaliy yutuqlarini zamonaviy bozor iqtisodiyoti va jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida soha mutaxassislari faoliyatiga ilmiy boshqarish, o'z-o'zini boshqarish elementlarini kiritish hamda sport biznesi va tadbirkorligini rivojlantirishga yo'naltirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Sport menejmenti fani o'zining rivojida falsafa, boshqaruv nazariyasi va amaliyoti, kibernetika, psixologiya, shifokorlik, politologiya, marketing, iqtisodiyot, iqtisodiyot nazariyasi, iqtisodiyot ta'limi tarixi, ekonometriya, iqtisodiy - matematik modellar va usullar, matematika, operatsiyalar tahlili va boshqa fanlarga asoslanadi.

Sport sohasiga menejerlar tayyorlashda, eng avvalo, bitiruvchilar qanday sifat belgilarini o'zlarida mujassamlashtirgan bo'lishlari lozim, degan savolni hal etishga to'g'ri keladi. Shundan kelib chiqqan holda, menejment mutaxassisligini bitiruvchilar birinchi navbatda, jismonan va aqlan sog'lom bo'lishlari, menejment va uning yaqinidagi boshqa fanlarni yaxshi o'zlashtirgan bo'lishlari, hamda mustaqil fikrlay oladigan va o'z fikrlarini erkin holda, har xil ko'rinish yozma, og'zaki va boshqalarda ifodalay oladigan bo'lishlari shart. Ayniqsa, mustaqillik ijodiy va mantiqiy fikrlash, oqillik sezgirlikni rivojlangan bo'lishi kabi sifatlar menejer xususiyatlarining ajralmas qismi bo'lishi lozim.

Sport menejmenti o'quv qo'llanmasi quyidagi aniq masalalarni hal etishga mo'ljallangan:

1. Sport tarmog'ini boshqarish tizimining bozor tashkiliy tizimlarini yaxlit holda ta'minlab berish.

2. Ijtimoiy - iqtisodiy sohalarni, sport sohasini samarali o'rganib, boshqarish to'g'risida birlamchi tushunchalarni shakllantirish.

3. Mustaqil boshqaruv dunyoqarash va boshqaruv madaniyatini shakllantirish, sport faoliyatida to'g'ri va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish.

4. O'zbekiston sporti zamonaviy boshqaruv organlari tizimi haqida tasavvurga ega bo'lish, tarmoq boshqaruvi yutuqlari to'g'risidagi axborotni umumlashtirish va undan to'g'ri foydalanish.

5. Zamonaviy axborot texnologiyalari haqida chuqur tasavvurga ega bo'lish va ularni sport tashkilotlarida to'g'ri boshqaruv qarorlarini tayyorlash va qabul qilish, hamda ularning bajarilishini tashkil etish.

6. Bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat ko'rsatayotgan yurtimiz va xorijdagi sport tashkilotlarining zamonaviy boshqaruv tajribasini o'rganish.

Sport menejerining vazifasi ishchi xodimning muhim sifat ko'rsatkichlari haqida tasavvurga ega bo'lish, ulardan sport rivoji uchun unumli foydalanishdan iboratdir.

Bugungi kunda Respublikamizning ko'pchilik iqtisodiyot va biznes bilan bog'liq kadrlar tayyorlashga mas'ul oliy dargohlarida marketing kafedralari tashkil etilib, marketing yo'nalishi bo'yicha ham bakalavriatlar va magistrlar tayyorlanib, marketing muammolari bo'yicha dissertatsiyalar himoya qilinmoqda. Lekin hamon O'zbekiston sharoitiga mos, o'zbekcha ruh bilan sug'orilgan darsliklar va o'quv qo'llanmalari etishmaydi.

Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston sharoitida birinchi marotaba yaratilgan bo'lib, u oliy o'quv yurti va kollejlarda talabalari, magistrlar hamda mutaxassislariga mo'ljallangan bo'lib, unda mustaqil ishlash bo'yicha mavzular, tayanch iboralar va ularning mazmuni, nazorat qiluvchi savollari keltirilgan.

I. O'ZBEKISTON SHAROITIDA JAHON MOLIYAVIY INQIROZI VA SPORT MENEJMENTI

1.1. O'zbekistonda jahon moliyaviy inqirozining ta'sirini bartaraf etishda sport menejmentining o'rni

Reja:

1. Jahon moliyaviy inqirozining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri.
2. O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport menejmentining inqirozni bartaraf etishdagi ahamiyati.
3. Taraqqiy topgan davlatlarning sport menejmenti sohasidagi ish tajribalari.

4. Bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos keladigan menejmentning amaliy ko'nikmalarini hosil qilish.
5. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti o'zining rivojida boshqa fanlarga asoslanishi.
6. Moliyaviy inqiroz sharoitida jismoniy tarbiya va sport boshqaruvini takomillashtirish.
7. Taraqqiy topgan davlatlarning sport menejmenti sohasidagi ish tajribalari.
8. Jahon moliyaviy inqirozi sharoitida jismoniy tarbiya va sport rivoji.

Tayanch so'z va iboralar:

Jahon moliyaviy inqirozi, jismoniy tarbiya va sport rivoji, "Insoniy munosabatlar" maktabi. "Miqdoriy tizimlar yoki zamonaviy menejment" maktabi. Texnokratik nazariya. Vaziyat yondashuv. Jarayonli yondashuv. Sonli yondashuv, falsafa, boshqaruv nazariyasi va amaliyoti, kibernetika, psixologiya, shifokorlik, politologiya, marketing, iqtisodiyot, iqtisodiyot nazariyasi, iqtisodiyot ta'limi tarixi, mikroiqtisod, makroiqtisod, tarmoqlar iqtisodiyoti, ekonometriya, iqtisodiy – matematik modellar va usullar, matematika, operatsiyalar tahlili.

Jahon moliyaviy inqirozini O'zbekistonga ta'sirining jiddiy bo'lmaganligini quyidagi omillar bilan izohlash mumkin:

- ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tishning bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'lini tanlanganligi;
- davlat bosh islohotchi sifatida mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi zarurligini aniq belgilab olinganligi;
- O'zbekistonda moliyaviy-iqtisodiy, byudjet, bank-kredit tizimi, shuningdek, iqtisodiyotning real sektori korxonalari va tarmoqlarining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun etarli darajada mustahkam zaxiralar yaratilganligi va zarur resurslar bazasining mavjudligi;
- oqilona tashqi qarz siyosati olib borilganligi;
- aholining ish haqi va daromadlarini izchil va oldindan oshirib borish hamda iste'mol bozorida narxlar indeksining asossiz tarzda o'sishining oldini olishga doir chora-tadbirlarning izchillik bilan amalga oshirilganligi;
- davlatning moliyaviy-iqtisodiy va bank tizimlarining nechog'liq barqaror va ishonchli ekani, ularning himoya mexanizmlari qanchalik kuchliligi bilan izohlanadi.

Jahon moliyaviy inqirozining mamlakatimiz iqtisodiyotiga ta'siri qanday?

Bunda birinchi prezidentimiz I.Karimovning quyidagi so'zlarini esga olish muhimdir: "...tobora chuqurlashib borayotgan jahon moliyaviy inqirozi mamlakatimizga ta'sir ko'rsatmaydi, bizni chetlab o'tadi, degan xulosa chiqarmaslik kerak. Masalani bunday tushunish o'ta soddalik, aytish mumkinki, kechirib bo'lmas xato bo'lur edi. Barchamiz bir haqiqatni anglab etishimiz lozim, O'zbekiston bugun xalqaro hamjamiyatning va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi".

O'zbekiston Prezidenti SH.M.Mirziyoev O'zbekiston liberal-demokratik partiyasining VIII s'ezdidagi ma'ruzasida O'zbekistonning rivojiga xavf tug'dirish mumkin bo'lgan muammoli masalalardan biriga e'tibor qaratib aytganlar "... jahon iqtisodiy inqirozi, dunyo bozorlaridagi beqarorlik, energiya resurslari narxlarining pasayishi deyarli barcha davlatlarning iqtisodiy rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda". Iqtisodiyotimizda moliyaviy inqirozning salbiy oqibatlari ta'sirini pasaytiradigan omillar:

- mamlakatimiz iqtisodiyotining jahon iqtisodiyotiga yuqori darajada integratsiyalashmaganligi;
- mamlakatimizda katta hajmdagi xorijiy kapitalni ushlab turuvchi kompaniya va moliyaviy institutlarning yo'qligi;
- Jamg'armalar Nizomi korxonalarining real xususiy faollari bilan ta'minlanganligi.

Hozirgi inqiroz biz uchun ijobiy ta'sirlarga ham ega bo'lishi mumkin: xususan, AQSH va Evropadagi investorlar o'z faollarini bo'shatib, kapital kiritishning rivojlanayotgan mamlakatlar bozorlarida muqobil yo'llarini qidiradi.


O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 27 yanvarda bo'lib o'tgan qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish – ustuvor maqsadimizdir" hamda 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 29 yanvarda bo'lib o'tgan majlisidagi "Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish" nomli ma'ruzalari bo'ldi.

Prezidentimizning ushbu ma'ruzasida belgilab berilgan O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishning yuqori va barqaror sur'atlarini, samaradorligini hamda makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlash, bank-moliya tizimining barqarorligini oshirish, strategik ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun faol investitsiya siyosatini olib borish, xalqimizning hayot darajasi va farovonligini yanada oshirish borasidagi vazifalarni to'liq va samarali amalga oshirish, eng

avvalo, jamiyatimiz a'zolari tomonidan ularning mazmun-mohiyatini teran va chuqur anglab etilishini taqozo etadi.

Mazkur inqiroz O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri oqibatlarini oldini olishda menejmentning ahamiyati katta bo'ldi. Ushbu vazifani amalga oshirish doirasida mamlakatimiz korxonalarida tannarxni pasaytirishning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarga alohida e'tibor qaratildi.

1.1 - Sxema.



Iqtisodiyotning izchil va barqaror rivojlanishini ta'minlashda kelgusi davr uchun puxta va har tomonlama asoslangan chora-tadbirlar, muhim vazifa va yo'nalishlar, turli darajalardagi iqtisodiy taraqqiyot dasturlarining ishlab chiqilishi va aniq belgilab olinishi muvaffaqiyat garovi hisoblanadi. Ayni paytda bosib o'tilgan yo'l – oldingi davrdagi erishilgan yutuq va natijalarni tanqidiy baholash orqali tegishli xulosalar chiqarish, ular asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini yanada takomillashtirib borish ham muhim printsiplial ahamiyat kasb etadi.

Natijada 2015 yil mobaynida sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxi 18%ga, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, "O'zmetkombinat" aktsiyadorlik ishlab chiqarish birlashmasi, "O'zeltexsanoat" uyushmasi, "O'zqurilishmateriallari" kompaniyasi singari va boshqa korxonalar va tarmoqlarda 20-25%ga, shu jumladan, sport tovarlarini ishlab chiqarish esa 11,5%ga kamaydi. Jumladan, respublikamizda iqtisodiyot komplekslari

bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxini pasaytirish bo'yicha erishilgan natijalarni quyidagi jadval orqali ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro iqtisodiy maydondagi nufuzi va mavqei sezilarli darajada va muntazam oshib bormoqda. Bunda mamlakatimiz birinchi rahbari Islom Karimov tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining puxta ishlab chiqilganligi, iqtisodiy islohotlar maqsadi va vazifalari, amalga oshirish yo'llarining aniq va to'g'ri ko'rsatib berilganligi bosh maqsad yo'lidagi yutuq va marralarning salmoqli bo'lishiga imkon yaratdi.

Hozirgi davrda dunyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti o'zining ma'no-mazmuni jihatidan oldingi bosqichlardan keskin farq qiladi. Bunda eng asosiy va muhim jihat – milliy iqtisodiyotlarning tobora integratsiyalashuvi va globallashtiruvining kuchayib borishidir. Ayni paytda, bu jarayonlar xalqaro maydondagi raqobatning ham keskinlashuviga, har bir mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'z mavqeini mustahkamlash uchun kurashining kuchayishiga ham ta'sir ko'rsatadi.

1.1.- jadval

O'zbekistonda iqtisodiyot komplekslari bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxini pasaytirish bo'yicha erishilgan natijalar

Komplekslar nomi	Mahsulot tannarxi-ning pasayishi	
	mlrd. so'mda	%
Geologiya, yoqilg'i-energetika, kimyo, neft-kimyo va metallurgiya sanoati kompleksi	1156,3	21,9
Mashinosozlik, elektrotexnika va aviatsiya sanoati hamda mahsulotlarni standartizatsiyalashtirish kompleksi	156,2	18,5
Kommunal soha, transport, kapital qurilish va qurilish industriyasi kompleksi	458,8	21,3
Qishloq va suv xo'jaligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash hamda iste'mol tovarlari kompleksi	295,1	20,0
Ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy muhofaza, shu jumladan sport kompleksi	13,1	20,2
Respublika bo'yicha jami:	2079,5	20,38

Haqiqatan ham, mamlakatimizda barqaror va samarali iqtisodiyotni shakllantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar bugungi kunda o'zining natijalarini namoyon etmoqda. Jumladan, qisqa vaqt ichida iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, aholi daromadlarining o'sishini ta'minlash, samarali tashqi savdo hamda investitsiya jarayonlarini kuchaytirish, qishloq xo'jaligini isloh qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini barqaror rivojlantirish, bank-moliya tizimi faoliyatini mustahkamlashda ahamiyatli yutuqlar qo'lga kiritildi. Iqtisodiyotimizdagi ushbu ijodiy siljishlar yurtimizda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishiga ham katta imkoniyatlar yaratib bermoqda. O'z navbatida, jismoniy tarbiya va sport birinchi navbatda, sog'lom, barkamol avlodni shakllanishiga, qolaversa, ishlab chiqarish va iqtisodni rivojlanishida va yurtimizni jahonga tanilishida yuksak omil vazifasini o'tab kelmoqda.

Biroq, o'z o'rnida ta'kidlash lozimki, jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv va globallashuvning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda ma'lum ziddiyatli jihatlari ham mavjud. Jumladan, turli mamlakatlardagi iqtisodiy rivojlanishning bir tekisda bormasligi, dunyo mamlakatlari o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jihatidan tafovutning, ekologik tahdidlarning kuchayib borishi, turli mamlakatlarda aholi soni o'zgarishining keskin farqlanishi kabi holatlar jahon xo'jaligining yaxlit tizim sifatida barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Shuningdek, mazkur jarayonlarning yana bir xususiyatli jihati – jahonning bir mamlakatida ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy larzalarning muqarrar ravishda boshqa mamlakatlarga ham o'z ta'sirini o'tkazishi hisoblanadi.

Jahon hamjamiyati bugungi kunda boshidan kechirayotgan moliyaviy inqiroz ham aynan shu ma'noda globallashuv jarayonlarining salbiy oqibati sifatida namoyon bo'ladi.

Shunga ko'ra, biz mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining joriy va istiqboldagi chora-tadbirlarini belgilashda jahon moliyaviy inqirozi oqibatlarining ta'sirini har tomonlama hisobga olishimiz, iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ushbu jarayonlar ta'siri nuqtai-nazaridan shakllantirishimiz va ularni izchil amalga oshirishimiz taqozo etiladi. Bu boradagi chora-tadbirlar birinchi Prezidentimiz I.Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" nomli asarida keng va batafsil bayon qilib berilgan. Asarda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining mazmun-mohiyati, namoyon bo'lish shakllari, kelib chiqish sabablari, uni oldini olish va yumshatishga asos bo'lgan omillar bayon qilib berilgan. Shuningdek, mamlakatimiz mehnatkashlari uchun g'oyat murakkab va og'ir bo'lishiga qaramay, 2015 yilda erishilgan ijobiy natija va yutuqlar baholanib, respublikamizdagi iqtisodiy salohiyatdan yanada kengroq foydalanish

imkoniyatlari ko'rsatib berilgan. Asarda O'zbekiston uchun inqirozni bartaraf etish va jahon bozorida yangi marralarga chiqishning ishonchli yo'li sifatida uzoq yillarga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning quyidagi eng muhim ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan:

1) mamlakatimizda qabul qilingan jahon iqtisodiy inqirozi oqibatlarining oldini olish va bartaraf qilish bo'yicha inqirozga qarshi dasturni amalga oshirish, shu asosda iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli barqaror sur'atlarini va iqtisodiyotning muvozanatli rivojlanishini ta'minlash;

2) tarkibiy o'zgartirishlarni davom ettirish va iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, buni birinchi navbatda, xalqaro sifat standartlariga javob beradigan, ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan raqobatbardoshli mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash yo'li bilan amalga oshirish;

3) qishloq turmushi sifatini va qiyofasini tubdan yaxshilashga, qishloq joylarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini jadal rivojlantirishga, mulkdorning, tadbirkorlik va kichik biznesning maqomi, o'rnini va ahamiyatini tubdan qayta ko'rib chiqishga, fermer xo'jaligini rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan uzoq muddatli, o'zaro chuqur bog'langan chora-tadbirlar keng kompleksini amalga oshirish;

4) aholi bandligini ta'minlash, uning turmush sifatini oshirishning eng muhim omili sifatida xizmatlar ko'rsatish sohasi va kichik biznesni jadal rivojlantirish;

5) mamlakatni modernizatsiya qilish va aholi bandligini oshirishning eng muhim omili sifatida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish;

6) banklar ishini yanada takomillashtirish, aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bo'sh mablag'larini tijorat banklaridagi depozitlarga jalb qilishni rag'batlantirish.

Mazkur jahon moliyaviy inqirozi sharoitida sportni rivojlantirish, uni ommaviylashtirish o'ta dolzarb masalaga aylangan deyish mumkin, chunki yurtimizda amalga oshirilayotgan "Barkamol avlod", "Sog'lom avlod uchun" Davlat dasturi, "Alpomish" va "Barchinoy" kabi boshqa maxsus dasturlarini hayotga tatbiq etishda biz haqiqiy sog'lom, jismoniy baquvvat va aqlan teran yoshlarni tarbiyalab etishtirishni ko'zda tutamiz. Har tomonlama etuk yoshlarimizdan jahon moliyaviy inqirozi sharoitidek har qanday qiyin sharoitda ham o'zlarini ijobiy tomondan ko'rsatib, uning qiyinchiliklarini mardonavor eng olishlariga ishonchimiz komil. SHuning uchun ham, O'zbekiston davlat

jismoniy tarbiya institutida yoshlarni har tomonlama etuk avlod qilib bilim va tarbiya berishga katta e'tibor berilmoqda.

Zaruriyat yuzasidan ushbu qo'llanmada O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti, Respublika oliy o'quv yurtlari jismoniy tarbiya fakul'tetlarining talabalari, Olimpiya zaxiralari kollejlari o'quvchilari, shuningdek, malaka oshirish fakul'teti tinglovchilari hamda ushbu fan bo'yicha dars o'tayotgan o'qituvchilar va shu sohaga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo'ljalangan jahon moliyaviy inqirozi sharoitida O'zbekistonda uni oldini olish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar, erishayotgan yutuqlarimiz, ayniqsa, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda sportning ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan.

Alohida ta'kidlash lozimki, kitobda ilk bor sport menejmenti, uning sportni boshqarishdagi ahamiyati, sport tashkilotlarida marketing ishlarini tashkil qilish masalalariga va taraqqiy topgan davlatlarning ish tajribalari va ular erishgan yutuqlariga asoslangan fikrlar ham o'z ifodasini topgan.

Ushbu inqiroz eng masshtabli bo'lib, barcha mamlakatlarga birdek tarqaldi va u mutaxassislar bashoratiga ko'ra, 2010 va undan keyingi yillarda ham davom etadi. Hozirda jahon moliyaviy inqirozining mohiyati, kelib chiqish sabablari va oqibatlarini chuqur o'rganish, undan to'g'ri xulosa chiqarish, ayniqsa, O'zbekiston sharoitida mahalliy xususiyatlarni inobatga olgan holda ish yuritish eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Haqiqatan ham, jahon moliyaviy inqirozining har xil davrdagi, har erdagi kelib chiqish sabablari va oqibatlariga e'tibor qiladigan bo'lsak, turli davlatlarda u o'ziga xos xususiyatlarga va mohiyatga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. 1919 yildan hozirgi kungacha bo'lgan davrni ko'radigan bo'lsak, ushbu jarayon deyarli uzluksiz ravishda turli mamlakatlarda takrorlanib kelgan. Jahon moliyaviy inqirozining asosiy davrlari, sabablari va oqibatlarini quyidagi 1.2.- jadvalidan ko'rishimiz mumkin:

1.2- jadval

Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozning sabab va oqibatlari

Yillar	Sabablari	Oqibatlari
<i>Amerika Qo'shma SHtatlari</i>		
1919-1921	Qurolsizlanish, deflyatsiya	Aktsiya narxlarining tushishi -22,0%
1929-1932	Aktsiya narxlarining sun'iy o'sishi ("ko'pik" hosil bo'lgan)	Aktsiya narxlarining tushishi -73,4%

1936-1938	Qattiq pul siyosati	Aktsiya narxlarining tushishi -25,7%
1939-1942	Jahon urushi	Aktsiya narxlarining tushishi -28,1%
1946-1949	Urushdan so'nggi tushkunlik	Aktsiya narxlarining tushishi -10,8%
1968-1970	Bretton-Vudtizimining tarqalishi	Aktsiya narxlarining tushishi -15,7%
1972-1975 1976-1979	Neftga talabning haddan tashqari oshishi	Aktsiya narxlarining tushishi -24,1% (1,0%)
2000-2002	Axborot texnologiyalari bo'yicha kompaniyalar inqirozi	Aktsiya narxlarining tushishi -27,7%
2007 y.	Faollar sek'yuritizatsiyasi va ipotekaning "qizib ketishi"	Aktsiya narxlarining tushishi -21,2%
2007-2009	Moliya bozorining "qizib ketishi"	Aktsiya narxlarining tushishi -41,3%
<i>Osiyo mamlakatlari (Avstraliya, Gonkong, Yaponiya, Janubiy Koreya, Malayziya, Indoneziya, Tailand)</i>		
1997-1999	Valyuta bozorlaridagi spekulyativ hujumlar, valyuta va aktsiya bozorida ikki tomonlama o'yin, offshor treyding	Bank-moliya tizimining qulashi, kapitalning chiqib ketishi, iqtisodiy pasayish va h.k.
<i>Turkiya Respublikasi</i>		
1994	Qimmatli qog'ozlar bozori va valyuta inqirozining birgalikdagi davlat qarzi inqiroziga ta'siri	Narxlarning keskin oshirilib, muzlatilishi, korporativ sektorga alohida soliq, davlat xarajatlarini qisqartirish, hukumat qarzi majburiyatlarining restrukturizatsiya qilinishi
2000-2002	Valyuta va bank inqirozi (moliyaviy inqiroz)	Iqtisodiy pasayish, milliy valyutaning qadrsizlanishi, inflyatsiyaning oshishi, kapitalning chiqib ketishi, byudjet defitsiti
<i>Janubiy Afrika Respublikasi</i>		

1998	Obligatsiya bozori inqirozining valyuta inqirozini keltirib chiqarishi	Obligatsiya va milliy valyuta kurslarining tushushi
<i>Braziliya</i>		
1998	Rossiyadagi tizimli inqirozning valyuta inqirozini keltirib chiqarishi	Kapital chiqib ketishi, milliy valyutaning deval'vatsiyasi, oltin zaxiralarining kamayishi
<i>Argentina</i>		
2000-2002	Tizimli moliyaviy inqiroz (valyuta, bank, fond bozori, davlat qarzlari)	Kapitalning chetga chiqib ketishi, aktsiya va obligatsiyalar bozorining sinishi, daromad va xarajatlarning kamayishi, davlat xarajatlarining ortishi
<i>Rossiya Federatsiyasi</i>		
1998	Tizimli inqiroz va defolt	Moliya-bank tizimining qulashi
<i>O'zbekiston Respublikasi</i>		
2008-2009	Jahon moliyaviy inqirozi	Iqtisodiyotni inqirozga qarshi kurash rivojlantirish siyosati amalga oshirilmoqda
<i>Buyuk Britaniya</i>		
1909-1920	Jahon urushlari	Aktsiya narxlarining tushishi -49,2%
1928-1931	Jahon urushlari Buyuk depressiya	Aktsiya narxlarining tushishi -60,3%
1936-1940	Uy-joyga talab muammosi, jahon urushi	Aktsiya narxlarining tushishi -50,1%
1944-1949	Jahon urushi va urushdan so'nggi tushkinlik	Aktsiya narxlarining tushishi -31,2%
1968-1970	Bretton-Vudtizimining tarqalishi	Aktsiya narxlarining tushishi -18,9%
1971-1974	Neft shoki	Aktsiya narxlarining tushishi -69,3%
1975-1976	Funt-sterling inqirozi	Aktsiya narxlarining tushishi -19,1%

1980-1982	M.Tetcherning iqtisodiy inqilobi	Aktsiya narxlarining tushishi -11,4%
2000-2002	Axborot texnologiyalari bo'yicha kompaniyalar inqirozi	Aktsiya narxlarining tushishi -24,8%
2007 y.	Faollar sek'yuritizatsiyasi va ipotekaning "qizib ketishi"	Aktsiya narxlarining tushishi -23,4%
2007-2009	Moliya bozorining "qizib ketishi"	Aktsiya narxlarining tushishi -42,2%

I
N

Inqiroz – kutilmagan darajada jamiyatning barcha jabhalariga zarar keltiradigan va yangicha faoliyat yuritishga undaydigan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy voqeelikdir.

Birinchi prezidentimiz Islom Karimovning “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari”ni o'zida aks ettirgan asarini, hamda jahon miqyosidagi olim va mutaxassislarning fikrlarini o'rganishning dolzarbligi aynan muhim masala ekanligini his qilgan holda, biz iqtisodiyotimizning, ayniqsa, jismoniy tarbiya va sport sohasi rivojining kelajakdagi aniq istiqbol rejalarini tuzish, ularni amalga oshirishda muhim omil ekanligini, undan sportni boshqarishda unumli foydalanish mumkin ekanligiga ishonch hosil qilib turibmiz.

Qayd etilgan inqiroz sabablari har bir davlatning iqtisodiy rivojini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi, ularning oqibatlarini iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sishi yoki pasayishida namoyon bo'ladi. Shuningdek, biz jismoniy tarbiya va sport vakillari har doim iqtisodiyotimizning rivojlanishidan manfaatdor ekanligimizni yashirmaymiz, birinchi prezidentimizning barcha tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaymiz va kerak bo'lsa, o'z hissamizni qo'shishga harakat qilamiz. Biz ushbu xayrli ishdagi o'z hissamizni birinchi navbatda, yaxshi bilim olishda va jismonan, aqlan barkamol avlod bo'lib etishishda deb bilamiz.

Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozning sabablarini umumlashtiradigan bo'lsak, ular quyidagilardan iborat bo'ladi:

1. Kredit va qimmatbaho qog'ozlar bozorlarida o'z manfaatlarini ko'zlab turli spekulativ amaliyotlariga berilib ketgan banklar faoliyati ustidan etarli darajada nazorat yo'qligi.

2. Banklar likvidiligi, ya'ni to'lov qobiliyatining zaifligi bilan bog'liq muammoning keskinlashuvi.

3. Kredit bozoridagi tanglik, sodda qilib aytganda, pul mablag'larining etishmasligi.

4. Moliya – bank tizimidagi inqiroz jarayonlari deyarli butun dunyoni qamrab olayotgani, retsessiya va iqtisodiy pasayishning muqarrarligi.

Iqtisodiy inqiroz – bu iqtisodiyotning davriy tebranishlaridagi o'zgarish bo'lib, ular tovar va xizmatlarga bo'lgan yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi nomutanosiblik, makroiqtisodiy muvozanatning buzilishi oqibatida vujudga keladi.

Moliyaviy inqiroz – bu moliyaviy nobarqarorlik davri bo'lib, uning davomida ijtimoiy keskinlik, siyosiy tahlikalar rivojlanishi, iqtisodiy pasayish va vaqtinchalik inqiroziy hodisalar ustidan nazoratni yo'qotilishi yuzaga keladi. SHu bilan bir vaqtda jamiyatning kelajakdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishiga asos solinadigan davrdir.

Retsessiya – bu iqtisodiy yuksalishning cho'qqi nuqtasidan keyingi faza bo'lib, u ishlab chiqarishni, iqtisodiyotda o'sish sur'atlarini, birja indekslarining ommaviy pasayishi hamda ishsizlik darajasining oshishini xarakterlaydi.

“Moliyaviy inqirozni oldindan ko'ra bilish va oldini olish – bu davlatning iqtisodiyotni barqaror rivojlanishi va jamg'armalari uchun sharoitlar yaratish bo'yicha faoliyatidagi eng muhim vazifasi hisoblanadi. Bugungi kunning eng dolzarb muammosi – bu 2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy inqirozi, uning ta'siri va salbiy oqibatlari, yuzaga kelayotgan vaziyatdan chiqish yo'llarini izlashdan iborat”¹.

Prezident asarida jahon moliyaviy inqirozi qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligi aniq ko'rsatib berilgan, bizning vazifamiz ularni chuqur o'rgangan holda, O'zbekistonda barcha salbiy oqibatlarni bartaraf etish ustida faol ishlashdan iboratdir:

Birinchiidan, moliya-bank tizimidagi inqiroz jarayonlari deyarli butun dunyoni qamrab olayotgani, retsessiya va iqtisodiy pasayishning muqarrarligi, investitsiyaviy faollik ko'lamining cheklanishi, talab va xalqaro savdo hajmining kamayishi, shuningdek, jahonning ko'plab mamlakatlariga ta'sir ko'rsatadigan jiddiy ijtimoiy talofatlar sodir bo'lishi mumkinligi o'z tasdig'ini topmoqda.

Ikkinchiidan, avj olib borayotgan global moliyaviy inqiroz jahon moliya-bank tizimida jiddiy nuqsonlar mavjudligi va ushbu tizimni tubdan isloh qilish zarurligini ko'rsatdi. Ayni vaqtda bu inqiroz asosan, o'z korporativ

¹ Karimov I. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. –T.: O'zbekiston, 2009. –56 b.

manfaatlarini ko'zlab ish yuritib kelgan, kredit va qimmatli qog'ozlar bozorlarida turli spekulyativ amaliyotlarga berilib ketgan banklar faoliyati ustidan etarli darajada nazorat yo'qligini ham tasdiqladi.

Uchinchidan, moliyaviy-iqtisodiy inqirozning har qaysi davlatdagi miqyosi, ko'lami va oqibatlari qanday bo'lishi ko'p jihatdan bir qancha omillardan kelib chiqadi. Ya'ni, bu avvalo, ana shu davlatning moliya-valyuta tizimi nechog'li mustahkam ekaniga, milliy kredit institutlarining qay darajada kapitallashuvi va likvidligi, ularning chet el va korporativ bank tuzilmalariga qanchalik qaram ekanligi, shuningdek, oltin-valyuta zaxirasining hajmi, xorijiy kreditlarni qaytarish qobiliyati va pirovard natijada mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi, diversifikatsiya va raqobatga bardoshlik darajasiga bog'liq.

To'rtinchidan, jahon moliyaviy inqirozidan imkon qadar tez chiqish, uning oqibatlarini engillashtirish ko'p jihatdan har qaysi davlat doirasida va umuman, dunyo hamjamiyati miqyosida qabul qilinayotgan chora-tadbirlarning qanchalik samaradorligiga, ularning bir-biri bilan uyg'unligiga bog'liq.

Shuni ta'kidlash lozimki, ushbu bobda ilk bor sport menejmenti, uning jismoniy tarbiya va sportni boshqarishdagi ahamiyati, sport tashkilotlarida marketing ishlarini tashkil qilish masalalarida taraqqiy topgan davlatlarning ish tajribalari va ular erishgan yutuqlariga asoslangan fikrlar ham o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti, boshqa oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining jismoniy tarbiya va sport fakultet va kafedralari, Olimpiya zaxiralari bilim yurtlari va pedagogika bilim yurtlarining jismoniy tarbiya bo'limlarida katta miqdorda malakali sport mutaxassislari tayyorlanib kelinmoqda.

“Sport menejmenti” fani oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya va sport sohasida menejerlar tayyorlashda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga egadir. Jismoniy tarbiya va sport tashkilotining, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining rahbarlari, trener, menejer, maktab direktori, klub prezidenti, boshliqlari va hokazolar menejment asoslarini puxta o'zlashtirmaganlaricha takrorlab aytish kerak, ularning faoliyati to'laqonli ravishda amalga oshayapti deyish qiyin. Ushbu predmetning bosh maqsadi etib, yurtimizda va xorijda rivojlanib kelayotgan menejment, jumladan, jismoniy tarbiya va sport menejmentining asosiy kategoriyalari, ya'ni uning printsiplari, funktsiyalari, usullari, axborot texnologiyasi va tashkiliy tizimlarini nazariy va amaliy tomondan chuqur o'rganish va hayotga joriy etish qabul qilingan.

“Sport menejmenti” fanini o’qitishdan maqsad talabalarda O’zbekiston jismoniy tarbiya va sport muassasalarida ish yuritishda zarur bo’ladigan ijtimoiy boshqaruvning nazariy asoslarini egallash, bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos keladigan menejmentning amaliy ko’nikmalarini hosil qilish, xo’jalik mexanizmini takomillashtirish, moliyaviy, moddiy, mehnat zaxiralaridan unumli foydalanishda asosli qarorlar qabul qila olishdan iborat. Amaliyot shuni ko’rsatadiki, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari o’z oldilariga qo’ygan ommaviy jismoniy tarbiya, sog’lomlashtirishni rivojlantirish va sportda yuksak natijalarga erishishda faqatgina boshqaruvning umumiy va aniq asoslangan qarorlarigina maqsadlarga muvaffaqiyatli erishish imkonini yarata oladi.

“Sport menejmenti” fanining nazariy va amaliy yutuqlarini zamonaviy bozor iqtisodiyoti va jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi sharoitida soha mutaxassislari faoliyatiga ilmiy boshqarish, o’z-o’zini boshqarish elementlarini kiritish hamda sport biznesi va tadbirkorligini rivojlantirishga yo’naltirish maqsadga muvofiq bo’ladi.

Sport sohasiga menejerlar tayyorlashda eng avval oliy va o’rta maxsus o’quv yurtlari bitiruvchilari insonlarning qanday sifat belgilarini o’zlarida mujassamlashtirgan bo’lishlari lozim, degan savolga to’g’ri va asosli javob topish maqsadga muvofiqdir. YUqorida aytilganidek, menejment mutaxassisligini bitiruvchilar birinchidan, jismonan va aqlan sog’lom bo’lishlari, ikkinchidan menejment va uning atrofidagi boshqa turdosh fanlarni yaxshi o’zlashtirgan hamda mustaqil fikrlay oladigan; uchinchidan o’z fikrlarini erkin holda, ifodalay oladigan bo’lishlari shart; to’rtinchidan, ijodiy va mantiqiy fikrlash, kabi sifatlar menejer xususiyatlarining ajralmas qismi bo’lishi lozim.

Komil inson ruhan tetik, aqlan etuk, jismonan baquvvat bo’lmog’i kerak. Insonning aqliy, axloqiy va jismoniy sifatlarini rivojlantirish, salomatligini mustahkamlash, ish qobiliyatini oshirish, jamoalarda qulay sog’lom muhitni yaratishning ko’p qirrali jarayonini jismoniy tarbiya va sportsiz tasavvur qilib bo’lmaydi.

Vatan va jamiyat rivoji sog’lom insonlarning ongli faoliyati natijasida ravnaq topadi. Ayniqsa, Vatan taraqqiyotining kelajagi yosh avlod zimmasiga tushadi. Sog’lom avlodni shakllantirish va tarbiyalashning yo’l-yo’riqlari, usul va uslubiyatlari mavjud bo’lib, uning omillari ham ko’p. Jumladan, O’zbekiston davlat jismoniy tarbiya institutida talabalarning aqliy, axloqiy va jismoniy sifatlarini rivojlantirish, salomatligini mustahkamlash, ish qobiliyatini oshirish, jamoalarda qulay sog’lom muhitni yaratishning ko’p qirrali jarayonida jismoniy tarbiya va sportning ahamiyatini oshirish borasida olib borilayotgan qator ijobiy ishlar ko’zga tashlanib turadi.

Yuqorida kayd etilganidek, ishlab chiqarishni, jumladan, jismoniy tarbiya va sportni boshqarish jarayoni bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy munosabatlarga asoslangan bo'ladi, ularning asosida esa iqtisodiyot qonunlaridan foydalanish yotadi. Ushbu qonun va qonuniyatlar menejmentga ta'sir ko'rsatadi va uning e'tiborini birinchi navbatda, iqtisodiy usullarga tortadi.

Ko'pgina tinglovchilar menejment boshqaruvida, jumladan, jismoniy tarbiya va sport boshqaruvida iqtisodiy usullarning asosida narx, foyda, ish haqi, rag'batlantirish kabi iqtisodiy kategoriyalardan foydalanishni puxta o'rganadilar.

Bu erda shunga e'tibor berish lozimki, masalan, rejalashtirish, biznes reja tuzish kabi faoliyat turlari menejment boshqaruvining, jumladan, jismoniy tarbiya va sport boshqaruvining usuli bo'lib qololmaydi, aksincha, uning funksiyasi ham bo'lib qoladi. Menejment boshqaruvining, jumladan, jismoniy tarbiya va sport boshqaruvining usullari bu faqatgina pirovad natijaga iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi hamda foyda, narx va kredit kabi iqtisodiy instrumentlar vositasida ta'sir etishning muhim variantlaridir.

Bozor iqtisodiyotiga o'tgunga qadar iqtisodiy usuldan etarli darajada foydalanilmagan. U siyosat va mafkuraga bo'ysundirilgan bo'lib, birinchi navbatda, ijtimoiizmning asosiy masalalarini amalga oshirishga mo'ljallangan edi. Ushbu masalalar xuddi xalq xo'jaligining mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojini e'tiborga oluvchi "ilmiy asoslangan rejalar"ni tuzishni aks ettiradi. Bunday rejalar topshiriqlarni optimal darajada echish, shu bilan bir qatorda, ixtisoslashtirishni rivojlantirish, ishlab chiqarishni kooperatsiyalash va kombinatsiyalash, barcha mavjud zaxiralarni to'g'ridan-to'g'ri unumli taqsimlash, reja topshiriqlarining bajarilishini iqtisodiy rag'batlantirish kabi masalalarni hal etishni ko'zda tutishi lozim edi. Lekin hayot shuni isbotladiki, tovarlarga bo'lgan talab va taklif, xizmatlarni inobatga olinmaganligi uchun mamlakat masshtabidagi yirik sanoat ishlab chiqarish komplekslarining rejalarida juda katta kamchiliklar yuzaga chiqqan.

Haqiqatan ham, faqatgina tijorat hisobi menejmentning iqtisodiy usuli bo'la oladi. U mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni taqsimotida ekvivalent o'rin qoplash munosabatlarining saqlanishini ko'zda tutadi. Shu bilan bir qatorda, daromadni xarajatlar bilan va tegishli foydaga erishilganayotganini solishtirishni ko'zda tutadi.

Menejmentda, jumladan, jismoniy tarbiya va sport menejmentida echiladigan masalalarning samarasini oshirishda iqtisodiy usullar jamoa va individual rag'batlantirishga suyanadi. Ular har bir ijrochini o'zining borgan sari ortib borayotgan moddiy va ma'naviy ehtiyojini qondirishga intilishini eng katta aniqlik bilan inobatga oladi. Ulardan foydalanish ishlab chiqarishning

zaxiralarini aniqlash va foydalanishdagi ishchilarning tashabbusini oshiradi. Shu bilan bir qatorda, ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishda ma'muriy formada ta'sir o'tkazishning zaruriyati yuksak darajada kamayadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" nomli asarlarini O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya institutining barcha professor-o'qituvchilari, talabalar, bakalavr, magistr, aspirantlar va malaka oshiruvchilari tomonidan chuqur o'rganilishi va undagi ko'rsatmalarga amal qilinishi birinchi navbatda, ongimizda yurtimiz taraqqiyoti va iqtisodiyotining rivoji haqida to'g'ri tasavvur hosil bo'lishiga yordam beradi, barkamol, yetuk avlodni shakllanishiga asos bo'ladi, ikkinchidan, yurtimiz rivojida erishilgan yutuqlar, ijobiy siljishimizdagi mavjud qiyinchiliklar va yangi sharoitda ularni bartaraf etish yo'llarini aniq ko'rsatib beradi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Jahon moliyaviy inqirozi haqidagi tushunchalarni ayting?
2. Maxsus davlat dasturlarining ahamiyati nimada?
3. I.Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" nomli asarining mohiyati nimada?
4. Jahon moliyaviy inqirozining tarixi va mazmunini izohlang.
5. Sport rivojining jahon moliyaviy inqirozini bartaraf etishdagi ahamiyati nimada?
6. Jahon moliyaviy inqirozi sharoitida sportni rivojlantirish omillari nimalardan iborat?
7. Taraqqiy topgan davlatlarning sport menejmenti sohasidagi ish tajribalarini izohlang.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. –T.: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –T.: O'zbekiston, 2017. – 45 b.
3. G'ulomov Z.T., Nabiullin R.X., Kamilova G.Z. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti. Darslik. –T.: O'zDJTI, 2015.
4. Gulyamov Z.T., Akbarov F.S. Основы менежмента и его особенности в условиях формирования рынка в Узбекистане. –T.: TGAI, 2006.
5. Meskon M., Al'bert M., Xedouri F. Osnovi menejmenta. –M.: ANX, 1995.

Elektron ta'lim resurslari:

Internet saytlari

1. www.bilim.uz
2. www.ekonomika.ru
3. www.menejment.com
4. **Ошибка! Недопустимый объект гиперссылки.** sayti.
5. www.performance.edu.uz - Vazirlik sayti.

1.2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida sport boshqaruvi

Reja:

1. O'zbekistonda sport boshqaruvining hozirgi davrdagi rivoji.
2. Jamoatchilik sporti tarmoqning birlamchi bosqichi sifatida o'z mavqeini yo'qotib borayotgani.
3. Ishlab chiqarish korxonalaridagi ish vaqtida bajariladigan jismoniy tarbiyaning o'zini - o'zi yo'qotib borayotgani.
4. Fitnes sanoatining paydo bo'lishi va tez rivojlanishi.

Tayanch so'z va iboralar:

Bozor iqtisodiyoti, sport menejmenti, sport menejmentining shakllanishi, jismoniy tarbiya va sport menejmenti, jamoatchilik jismoniy tarbiya va sporti, fitnes sanoati, tijorat sport tashkilotlari, jamoatchilik sport tashkilotlari, status, professional tijorat sporti, davlat roli.

O'zbekistondagi bozor iqtisodiyoti sharoitida sport menejmentining shakllanish jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega. Birinchidan, mustaqillik davrigacha bo'lgan davrda shakllangan jismoniy tarbiya va sport boshqaruvi usullariga faol moslashuv jarayoni davom etmoqda. Ikkinchidan, hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti, jahon moliyaviy – iqtisodiyoti inqirozining O'zbekiston sharoitidagi oqibatlar holatida jismoniy tarbiya va sport boshqaruvining yangi shakllari va mexanizmlari yaratib borilmoqda. So'nggi davrlarda ushbu holatning professional sport sohasida borgan sari o'z aksini topib borayotganini aniq kuzatish mumkin. Masalan, jamoa sport tashkilotlarida tadbirkorlikni rivojlantirish borasida fitnes - klub va uning tarmoqlari yaratilib, rivojlanib borayotgani fikrimizning dalilidir.

O'zbekistonda sport menejmentining hozirgi davrdagi rivoji quyidagi omillarga bog'liqdir:

– jamoatchilik jismoniy tarbiya va sportini tarmoqning birlamchi bosqichi sifatida o'z mavqeini yo'qotib borayotgani;

- ishlab chiqarish korxonalaridagi ish vaqtida bajariladigan jismoniy tarbiyaning o'zini - o'zi yo'qotib borayotgani;
- fitnes - sanoatining paydo bo'lishi va tez rivojlanishi;
- tijorat sport tashkilotlarining paydo bo'lishi, ayniqsa, aholiga jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish hamda "katta" sport sohasida xizmatlarini ko'rsatish;
- tijorat sport tashkilotlari toifalarining paydo bo'lishi va ular turlarining ko'payib borishi;
- jamoatchilik tashkilotlarining ahamiyati va statusini tubdan oshib borishi;
- professional tijorat sporti va u bilan bog'liq bo'lgan musobaqalar tuzilmasining intensiv rivojlanishi;
- sport boshqaruvida davlat rolini susayib borishi;
- sport boshqaruvining barcha bosqichlarida maqsadli dasturlarning ishlanishi va amaliyotga joriy etilishi.

Sportda alohida xodimlar yoki insonlar guruhi, tashkilotlar o'zlarining birgalikdagi mehnat faoliyatlari jarayonida ma'lum munosabatlarga kirishadilar. Jarayon ishtirokchilari qanchalik ko'p bo'lsa, ularning o'zaro munosabatlari shunchalik murakkablashib boradi. Bunday sharoitda boshqaruv, insoniyatning o'ziga xos faoliyati sifatida birgalikda faoliyat ko'rsatishga jalb etilgan ishtirokchilar orasida boshqaruv munosabatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Sport sohasida boshqaruv munosabatlari ushbu jarayon bilan ma'lum bir darajada bog'liq bo'lgan tarmoq xodimlari, sport tashkilotlari va boshqa ishlab chiqarish tashkilotlari orasida amalga oshiriladi. Jismoniy tarbiya va sportda boshqaruv munosabatlarining quyidagi toifalarini ajratish mumkin:

- boshqaradigan va boshqariladigan tuzilmalar orasida;
- subyekt va obyekt boshqaruvi orasida, masalan, jismoniy tarbiya va sport hamda sport tashkilotlari ijrochi xukumron organlari (sport maktablari, klublar va boshqalar);
- boshqaruv tuzilmasining o'z ichida, bunday holatlarda boshqaruv munosabatlari gorizontaal va vertikal ko'rinishlarga bo'linadi. Gorizontaal holatda har xil bo'linmalar va zvenolar orasidagi bog'liqlik ko'zda tutiladi (masalan, jismoniy tarbiya va sport oliy o'quv yurtlaridagi kafedralar orasidagi bog'liqlik). Vertikal holatda boshqaruvning har bir ierarxik pog'onalaridagi bog'lanish (masalan, sport klublarida: rais, sport klubi kengashi, murabbiylar kengashi, katta murabbiy, murabbiy va boshqalar);
- har bir ierarxik pog'onalaridagi rahbar va ijrochi orasida (masalan, murabbiy va sportchi). Sport sohasidagi ushbu boshqaruv munosabatlari "subordinatsiya munosabatlari" deb ataladi;

– har xil bo'linmalar rahbarlari va ushbu bo'linmalar ijrochilari orasida. Sport sohasidagi ushbu boshqaruv munosabatlari “yo'naltirish (koordinatsiya) munosabatlari” deb ataladi.

– tarmoq munosabatlari (tarmoq ichidagi boshqaruv munosabatlari);

– hududiy (bir hudud doirasida);

– tarmoqlararo (har xil tarmoqlar ichidagi tashkilotlar orasidagi boshqaruv munosabatlari);

– hududlararo, ya'ni har xil hududlardagi jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari orasidagi boshqaruv munosabatlari;

– aralash (masalan, hudud, tarmoq).

Aniq sport tashkilotlari nuqtai nazaridan boshqaruv munosabatlari tashqi va ichki ko'rinishlarga bo'linadi.

Boshqa sport tashkilotlari ichidagi yoki boshqa sport tashkilotlari orasidagi o'zaro bog'lovchi aloqalarning soniga qarab boshqaruv munosabatlari “oddiy va murakkab” bo'lishi mumkin. Masalan, oddiy munosabatga maktab jismoniy tarbiya o'qituvchisi va o'quvchi, murabbiy va sportchi orasidagi munosabat kiradi. Murakkab boshqaruv munosabatlarida yana qo'shimcha boshqa zvenolarning ishtiroki xarakterli hisoblanadi: sport maktabining direktori, murabbiy, sportchi. Murakkab boshqaruv munosabatlarining tashkiliy aloqalar xarakteriga qarab, ular chiziqli, funktsional va aralash ko'rinishlarga bo'linadi. Jismoniy tarbiya va sport boshqaruv munosabatlarining amaliy davriga qarab, ular doimiy va vaqtincha guruhlariga bo'linadi.

Jismoniy tarbiya va sport xodimlari bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida va umuman, uning tumanlarida amaldagi mavjud 51152 sport inshootlarida sport instruktorlarining soni 179 nafarni tashkil etgan bo'lib, ulardan 91 nafari oliy ma'lumotga, 69 nafari esa o'rta maxsus ma'lumotiga ega, ya'ni ushbu toifadagi xodimlarning faqatgina 50,8% gina oliy ma'lumotlidir. Andijon, Buxoro, Jizzax, Namangan va Samarqand tumanlarida sport inshootlarining instruktorlari umuman mavjud emasligini ko'rish mumkin.

Jismoniy tarbiya va sport xodimlarining aksariyati jismoniy tarbiya va sport ta'lim xizmatini bajaradi, chunki ular asosan, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatadilar. Umuman olganda, tarmoqda eng katta miqdor umumta'lim muassasalarining o'qituvchilariga to'g'ri keladi (53%) va sport murabbiylari 22% ni tashkil etadi, ulardan oliy ma'lumotli o'qituvchilar 57,6% va murabbiylar 44% ni tashkil etadi.

Eng ma'qul holat oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari orasida ko'zga tashlanadi, ularda oliy ta'limga xodimlar 99,8% tashkil etadi, shunga e'tibor qilish lozimki, boshqaruv ishchi xodimining professional holati yuksak

darajadadir. 69,6% ni, Toshkent shahri bo'yicha 45,5% ni tashkil etadi. Demak, ushbu toifadagi xodimlar uchun tarmoq mehnat bozorida doimiy ravishda oliy ma'lumotli jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini yangilab turish talab etiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, barcha jismoniy tarbiya va sport mutaxassislaridan 71,3% qishloq joylarga to'g'ri keladi, chunki u yerlarda oliy ma'lumotli jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari soni 67% ni tashkil etadi.

Viloyatlar miqyosida oliy ma'lumotli jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari nisbati quyidagicha: O'zbekiston bo'yicha 60,2%, Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha 7,9%, Andijon – 7,3%, Qashqadaryo – 8,9%, Farg'ona – 12,6%, Samarqand – 8%, Toshkent – 8,6% ni tashkil etadi, ya'ni tumanlarda deyarli bir xil holatni kuzatish mumkin. SHu bilan eng past ko'rsatkichlarni Sirdaryo – 3,4%, Navoiy – 5,4%, Jizzax – 4,5% va Surxandaryo – 5,8% ni ko'rish mumkin.

Shunday qilib, yurtimizda 60,2% mehnat bozorida xizmat qilayotgan oliy ma'lumotli jismoniy tarbiya va sport mutaxassislaridan iboratdir, 36% o'rta maxsus va 3% dan biroz ko'prog'i jismoniy tarbiya va sport ma'lumotiga ega emas.

Sport menejmentida jamoa va guruhlarni boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi, ayniqsa, ularga rahbar tayinlash mas'ul vazifaga kiradi.

Rahbarni to'g'ri tayinlash bevosita ishlab chiqarishda, jismoniy tarbiya va sportda ishchi xodimning yagona rahbar qarorlariga, ko'rsatmalariga, buyruqlariga va kerak bo'lsa, uning maslahatlariga tizimdagi barcha ishchi xodimning qat'iy bo'ysunishini talab qiladi. Menejment tizimining eng yuqori pog'onasida o'tirgan rahbar quyi bo'g'in rahbari vakolatiga kiruvchi masalalarni hal etmasligi lozim. Ushbu printsipti amalga oshirishning asosiy sharti har bir ijrochining huquq, burch, majburiyatlarini qat'iy belgilab qo'yishdir. Yagona boshchilik hamkasblilik, qabul qilinadigan qarorlar oshkoraligi bilan qo'shib olib borilishini talab qiladi. Hamkasblilik intizomi har doim rahbarning yagona shaxs sifatidagi irodasiga ishchi xodimning so'zsiz bo'ysunishini amalga oshirishni talab qiladi. Demokratiya, oshkoralik har bir kishiga o'z fuqarolik qarashlarini namoyon qilish, boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilishda faol qatnashish uchun imkon yaratadi.

Rahbarlik munosabati deganda, har bir sportchi yoki jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchi yoki biron-bir jamoa, guruhga bir vaqtning o'zida faqatgina bitta rahbar boshchilik qilishi lozimligi tushuniladi. Rahbarlik munosabati nazariy va amaliy tomonlari hayot tajribasidan o'tib, menejmentda mustahkam, qat'iy turkumga aylangan. Katta-kichik korxonalar bo'ladimi, ishlab chiqarish birlashmasimi, ilmiy-o'quv yurtimi yoki oilami, shu jumladan,

jismoniy tarbiya va sport tashkiloti bo'ladimi, qo'yingchi, har qanday tizim yoki guruh tepasida bitta rahbar turganining guvohi bo'lamiz. Agarda ushbu qoida buzilib, yuqorida sanab o'tilgan obyektlarning birortasiga ikki yoki undan ortiq rahbar boshchilik qiladigan bo'lsa, ish buziladi, ya'ni menejmentning boshqaruv qarorlari o'z kuchini yo'qotadi. "Ikki boyga bir malak" holati yuzaga kelib, boylar o'rniga malak ish yurituvchiga aylanishi mumkin. Bunday holatlarda ijrochi ikki rahbarning har biriga ularning "muhim topshiriqlarini" ro'koch qilgan holda, ustalik bilan o'z manfaatiga mos, boshqa faoliyat bilan shug'ullanishi ham mumkin bo'ladi. Masalan, musobaqalar oldidan o'tkazilayotgan mashg'ulotlarda bir vaqtning o'zida guruh boshlig'i sheriklar (murabbiylar) bilan kelishmagan holda shug'ullanuvchilarga o'zining fikricha yo'l-yo'riqlar ko'rsatganini, shu vaqtning o'zida murabbiy o'z hamkasblari (guruh boshlig'i va murabbiy) bilan kelishmagan holda butunlay boshqacha ko'rsatmalar berishini tasavvur qilaylik, ijrochi - sportchi oldida variantlar imkoniyati paydo bo'ladi. Ushbu holat ikki rahbar tomonidan bir vaqtning o'zida berilayotgani ikkita har xil topshiriqlarning birortasini ham bajarilmasligiga olib kelishi turgan gap, yoki ijrochilar o'zlariga qulay variantni tanlab, ikki rahbarga ham chap berib, ularni chalg'ituvchi baxonalarni ko'rsatishlari mumkin, natijada rahbariyat tomonidan ko'zlangan topshiriq to'liq holda amalga oshmay qoladi. Bunday kelishmovchiliklarga yo'l qo'ymaslik uchun guruh boshlig'i ijrochilarga beradigan topshirig'ini murabbiy orqali amalga oshirsa, yakkaboshchilik printsipi kuchga kirgan bo'ladi va ishni bajarish to'g'ri yo'ldan boradi.

Ishchi jamoalarda, jumladan, jismoniy tarbiya va sport jamoalarida guruh hamkorligini ta'minlash munosabatlari jismoniy tarbiya va sport guruhlarida, ya'ni guruhlarda tarkibni ishtirokchilarning bir-birlariga mos kelishlarini hisobga olgan holda shakllantirilmasa, kerakli ruhiy muhitga erishib bo'lmaydi va guruhda hamkorlik yuzaga kelmaydi. Biz yuqorida qayd qilganimizdek, har bir shaxs turli xildagi shijoat (temperament)ga mansub bo'lgan holda, turlicha ruhiy holatda, kayfiyatda bo'ladi. Bunday insonlarni guruh jamoalarida o'z o'rinlarini topishlari, hamjihat bo'lib ishlay olishlari va boshqa guruhlar bilan hamkorligini ta'minlash uchun menejerlar o'ta murakkab, katta masalalarni hal etishlariga to'g'ri keladi. Menejment nazariyasi va amaliyotida har qanday guruh a'zolarini bir-birlariga mos ravishda oldindan tanlay bilish masalasi katta o'rin olgan va ularni hal etishning ma'lum echimlari ham mavjud.

Sport menejmentida guruh hamkorligini ta'minlash o'ta muhim masala hisoblanadi, chunki jamoaga birlashgan sportchilar musobaqa vaqtida qanchalik bir-birlarini yaxshi tushungan holda, yakdillik va yaxlitlikni tashkil qilsalar,

musobaqa natijalari ham shunchalik samarali bo'ladi. Hozircha kitobimizning quyi boblarida ushbu masalalarga alohida o'rin berilganini qayd etishimiz darkor.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishni, jismoniy tarbiya va sportni rejali boshqarish - biznes va strategik rejasini tuzish - iqtisodiy siyosatlarini amalga oshirishning muhim shartidir. Bu printsip ishlab chiqarish rivojlanishining uzoq muddatga mo'ljallangan yo'nalishlari, sur'atlari va nisbatlarini belgilashni ifodalaydi.

Ishlab chiqarishni rejalashtirish boshqarishning asosiy vazifalaridan biridir. U iqtisodiy qonun, ishlab chiqarishning hozirgi holatini ilmiy tahlil etish, ehtiyojlarning istiqbolini aniqlash, texnikaviy va tashkiliy qarorlarni qabul qilish asosida amalga oshiriladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida, ayniqsa, strategik rejalashtirish - u yoki bu tarmoq rivojlanishining maqbul nisbatlarini, eng muhimi resurslardan samarali foydalanish yo'llarini belgilovchi iqtisodiy rivojlanish parametrlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Boshqaruv munosabatlari, shakl va usullarini takomillashtirib borish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruvning uch shakli mavjud: xususiy, jamoa, davlat boshqaruvi. Boshqaruvning xususiy shaklida mulkdor yakka o'zi qaror qabul qiladi va butun ish uchun javobgar bo'ladi. Boshqaruv xususiy shaklining ijobiy tomoni mulk egasi ishlar borishini o'zi to'liq nazorat qilish imkoniyatiga egaligi. Kamchiligi esa, boshqaruv tizimining uncha katta bo'lmasligi va bir kishi boshqaruvning turli vazifalarini bajarishga majburligidir. Mulkdor boshqaruvning barcha vazifalarini amalga oshirishi: rejalashtirish, tashkil etish, rag'batlantirish, yo'qotish, zarar ko'rish va boshqa shunga o'xshash holatlarga shaxsan javobgar bo'lishdadir. Kuchli raqobat sharoitida mulkdor sinmasligi uchun doimo o'z bilimlarini ko'paytirib, boshqaruv usullarini takomillashtirib, ya'ni ishchilarga ta'sir etish yo'llarini bozorda mavjud holatga mos ravishda o'zgartirib borishi kerak.

Davlat boshqaruv shakli asosan, davlat yoki mahalliy mulk bo'lgan korxonalarda amalga oshiriladi. Davlat bu korxonalar faoliyati uchun to'liq javob beradi.

Xodimlar (ishchi xodim)ni tanlash va joylashtirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish printsiplari muhim ahamiyat kasb etadi. Bozor munosabatlari boshqaruv kadrlariga qat'iy talablar qo'yadi, ularning ishbilarmonlik sifatleri, ishlab chiqarish oldida turgan masalalarni belgilaydi. Jismoniy tarbiya va sport sohasida ushbu masala o'ta dolzarb hisoblanadi.

Agentlar mustaqillik va erkinligi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida agentlarsiz ish yuritishni tasavvur qilish qiyin, shuning uchun bozorda agentlar faoliyati iqtisodiy javobgarlik bilan bog'langan holda, birgalikda amalga oshishi

kerak. Keyingi yillarda jismoniy tarbiya va sport sohasida ham agentlarning o'zni kengayib borayapti.

Shaxsiy tashabbus tufayli yuzaga keladigan munosabatlar. Bozorda ishbilarmon, omilkor, shaxsiy foyda uchun harakat kiluvchi, tadbirkor kishilar faoliyat yuritishi kerak. Jismoniy tarbiya va sportda jamoa va jamiyat manfaatlariga shaxsiy manfaat va shaxsiy tashabbusiz erishib bo'lmashligini esdan chiqarish lozim.

Javobgarlik va tavakkalchilikni ta'minlovchi munosabatlar. Tadbirkor o'z faoliyati uchun javobgar bo'lishi, bunda ma'lum tavakkalchilik ham hisobga olinishi, ya'ni tadbirkorning o'z huquq va majburiyatlari bo'lishi kerak. Jismoniy tarbiya va sport sohasida ushbu masala har qadamda uchraydigan o'ta dolzarb mas'uliyat hisoblanadi.

Sport menejmenti ham yuqorida keltirilgan jarayonlarni amalga oshirishda maqsadli ta'sir ko'rsatib boradi, lekin uning boshqaruvdan tubdan farqi shundaki: "Menejment jamoadagi har bir ishchi xodim (shaxs) ning jismonan va aqlan sog'lomligi, bilim, madaniyat, tajriba darajalarini, tashkiliy xulqining qay darajada rivojlanganini, qaysi shijoat (temperament)ga mansub ekanligini, insonga taalluqli barcha individual, ruhiy, tashkilotchilik, jamoada o'zini tuta olish, o'z o'rnini topa olish va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda, unga nisbatan faoliyat turlarini belgilaydi, rasmiy va norasmiy ishchi guruhlarni shakllantirishda uning bo'lajak a'zolarining barcha yutuq va kamchiliklaridan samarali foydalanish masalalarini hal etadi. Menejment har qanday jamoada uning a'zolari orasidagi o'zaro munosabatlar, jamoa bilan boshqa jamoalar orasidagi munosabatlar, jamoa bilan rahbar o'rtasidagi munosabatlar, boshqa korxonalar, hattoki, xorijdagi hamkasblar orasida bo'ladigan ishchi munosabatlarini qanday bo'lishini ilmiy asoslab beradi".

Sport menejmentini jamiyatning iqtisodiy negizi bilan bog'lab, shu bilan birga, boshqaruvning ikki: tashkiliy-texnikaviy va ijtimoiy-iqtisodiy tomonlarini hisobga olgan holda o'rganish lozim.

Tashkiliy-texnikaviy boshqaruv aniq iste'mol qiymatini olish uchun mahsulot (sport tovarlari yoki xizmati) tayyorlashda mehnat taqsimoti va kooperatsiyasi bilan ajralib turadi. Ijtimoiy-iqtisodiy boshqaruv mavjud jismoniy tarbiya va sportda ishlab chiqarish munosabatlari bilan bog'liq bo'lib, menejment maqsadlarini belgilaydi. Tashkiliy-texnikaviy boshqaruv jismoniy tarbiya va sportda mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligini oshishi uchun sharoit yaratishga imkon beruvchi faoliyat turidan iboratdir. Jismoniy tarbiya va sportda ijtimoiy-iqtisodiy boshqaruvning maqsadi ishchi xodim samarali mehnat qilishi uchun sharoit yaratish, ularni ijtimoiy himoya qilishning ishonchli

umumdavlat tizimini shakllantirish uchun bandlikni ta'minlash va aholini kam ta'minlangan qatlamlarini qo'llab-quvvatlashdan iboratdir.

Mamlakatimiz birinchi prezidenti I.Karimov "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarini chuqurlashtirish yo'lida" asarida "Kuchli ijtimoiy siyosat, avvalo, sermahsul mehnat qilish uchun yaxshiroq rag'bat va imkoniyatlar yaratishdan, iqtisodiy yo'l tanlash va faoliyat ko'rsatish erkinligiga bo'lgan kafolatli huquqni qaror toptirishdan, aholining mehnat va ijtimoiy faolligini oshirishdan ham iboratdir", deb ta'kidlagan edi. Ushbu masalalarni amalga oshirishda, jismonan va aqlan sog'lom, barkamol avlodga tayanmasdan iloj yo'q, shuning uchun yurtimizda mustaqilligimizning birinchi yillaridan boshlab, jismoniy tarbiya va sportga katta e'tibor berib kelinmoqda².

Sport menejmentining asosini obyektiv iqtisodiy ijtimoiy va boshqa qonunlarga asoslanuvchi huquqiy-ilmiylik tashkil etadi. Bu qonunlarni o'rganish va ularning aniq vaziyatlardan namoyon bo'lishini hisobga olgan holda, xo'jalik rahbarlari Respublika xalq xo'jaligini boshqarishning strategiya va taktikasini belgilaydilar.

Jamiyat hayotining barcha tomonlari demokratik yangilanishi sharoitida asosiy masala iqtisodiy-ilmiy texnikaviy ijtimoiy taraqqiyotni rag'batlantirish. Boshqariladigan bozor bilan shaxs va jamoa manfaatlarini samarali bog'lash masalalaridan iboratdir. Nazariy va amaliy nuqtai nazardan ishlab chiqarish egalari bo'lgan mehnatkashlar manfaatlari eng muhim omil ekanligi, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni jadallashtiruvchi qudratli hakarakatlantiruvchi kuch ekanligi shubhasizdir. Bundan boshqaruvni isloh qilishning strategik g'oyasi mehnatkash kishining obro'sini ko'tarishdan, chunki iqtisodiyotni sog'lomlashtirishning asosi bo'lib vijdonan va mas'uliyat bilan mehnat qilishga xizmat qiladi; ishchining mehnatdan manfaatdorligini keskin oshirish, o'z qobiliyatini to'liq sarf etish, uni jamiyatni harakatlantiruvchi kuchlarning umumiy tizimiga qo'yishdan iborat.

Sportda bularga faqat ishchi xodim ishlab chiqarishning haqiqiy egasi sifatida mehnat qilgan holdagina erishish mumkin, bu juda murakkab masala, chunki inson faqat ijtimoiy shaxs, ya'ni jamiyatga bog'liq va uning ta'siri ostida bo'lib qolmay, tabiiy mavjudod hamdir. Xuddi shunga bog'liq holda, uning shaxsiy manfaatlarini (unga bog'liq holda xulqi, harakatlari) har doim ham ijtimoiy manfaatlar bilan emas, balki o'z idroki manfaatlari bilan ham mos kelmaydi. Kishilar o'rtasidagi ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar aks etuvchi manfaatlar ular maqsadlari, mehnat intizomi faolligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi va ularning harakatlarini tartibga soladi.

² Karimov I.O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida –T., 2009.

Bozor munosabatlariga o'tish ishlab chiqarish va bozorning samarali o'zaro ta'sirini, davlat boshqaruvi va korxonalar, tashkilotlar, jumladan, sport tashkilotlarini o'z-o'zini boshqarishning muttanosib nisbatda bo'lishini ta'minlovchi takomillashgan xo'jalik mexanizmini yaratishga yo'naltirilgandir.

Davlat menejmentining maqsadi, jumladan, jismoniy tarbiya va sport menejmentining asl maqsadi barqaror ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida kuchli demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurishdan iboratdir.

Har qanday fan, shu jumladan, jismoniy tarbiya va sport menejmenti fani o'z predmeti, nazariyasi va uslublariga egadir. Predmet ushbu fan nima bilan shug'ullanishi, uning qaysi sohaga tegishli ekanligini belgilaydi. Nazariya bu sohada ro'y beradigan jarayon va hodisalarning kelib chiqishi, shakllanish va hayotda o'z o'rnini topish qonuniyatlarini aniqlaydi.

Izlanish usullari nazariyadan kelib chiqqan holda, jismoniy tarbiya va sportda ishchi xodim ilmiy va amaliy faoliyati qanday amalga oshishini ko'rsatib berishi, fanning shu sohasida hodisalarni umumlashtirish va o'rganishning turli vositalari va usullari tizimini ishlab chiqish lozim.

Menejment predmeti xo'jalik yuritishning barcha darajalarida boshqarishning qonunlari, tamoyillari va munosabatlarini o'rganishdan iborat bo'lsa, jismoniy tarbiya va sport menejmenti soha jarayonlarida mavjud barcha boshqaruv turkumlarni mashg'ulot va musobaqa jarayonlariga joriy etishni o'rganadi. Boshqaruv munosabatlari ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarining ajralmas qismi bo'lib, turli iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy, mehnat, ruhiy va boshqa ko'rinishlarda bo'ladi. Boshqaruv munosabatlari rahbar qo'l ostidagi xodimlar o'rtasidagi aloqa va o'zaro ta'sirning murakkab majmuini ifodalaydi, demak jismoniy tarbiya va sport menejmenti bu, eng avvalo, kishi, ishchi xodim, sportchi va trener-murabbiylarni boshqarishdir.

Iqtisodiyotni yurgizishda bevosita boshqaruv obyektini mehnat jamoalari va alohida ishchi xodimlardan iboratdir. Jismoniy tarbiya va sportda faqat ishchi xodimning mehnat faoliyati vositasida sport tovarlari ishlab chiqarishning hamda sport mashg'ulotlarining moddiy unsurlari, ya'ni mehnat qurollari va predmetlariga ta'sir etiladi.

Boshqaruvning eng asosiy bilish uslubi - dialektik uslub bo'lib, u menejmentga o'rganilayotgan ijtimoiy hodisalarning, jismoniy tarbiya va sport jarayonlarining mohiyatini ochishga yordam beradi.

Sport menejmentiga quyidagi boshqa uslublar ham xos, masalan, voqelik hodisalarini o'rganishga aniq tarixiy yondashuv, xo'jalik mexanizmi barcha elementlarini bir vaqtning o'zida tahlil qilish va to'liq boshqaruv qarorlarini

ishlab chiqish imkonini beruvchi tarkibiy yondashuv, tarkibiy tahlil, iqtisodiy – ijtimoiy usullar va boshqalar.

Sport menejmentining mahorati uning barcha uslublarini egallash, ularni jismoniy tarbiya va sportga to'g'ri bog'lab qo'llash, har bir aniq vaziyatda boshqaruvning eng samarali variantini topish qobiliyatiga ega bo'lishdan iboratdir.

Sport menejmenti kursining mazmunini iqtisodiyotni harakatga keltirish, boshqarish tizimlari va ularni tuzishning tashkiliy shakllari, xo'jalik mexanizmi va boshqaruv uslublari, boshqaruv texnika va texnologiyasining nazariy va uslubiy asoslarini o'rgangan holda, ularni jismoniy tarbiya va sport tarmog'iga joriy etishni tashkil etishdan iboratdir. Sport menejmenti boshqaruv faoliyatining umumiy qonunlari va tamoyillari boshqaruv tizimiga ta'sir usullarini shakllantiradi, boshqaruv apparatining aniq vaziyatlardagi harakatlari va o'zini tutish hollarini umumlashtiradi. Jismoniy tarbiya va sportda iqtisodiy jarayonlarni boshqarishning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganadi. Boshqaruv nazariyasi boshqaruv faoliyatining qirralarini butun bir majmua ko'rinishida, nazariy tahlil va mantiqiy uslub asosida boshqarishning asosiy qonuniyatlari va usullarini ajratib o'rganadi.

Takrorlash uchun savollar:

1. O'zbekistonda sport menejmentining hozirgi davrdagi rivoji qanday?
2. Jamoatchilik sportining tarmoqning birlamchi bosqichi ekanligi nimada?
3. Tijorat sport tashkilotlarining paydo bo'lish sabablari va ahamiyati nimada?
4. Professional tijorat sporti va u bilan bog'liq bo'lgan musobaqalar?
5. Sport boshqaruvida davlat rolini susayib borishi nimada?
6. Fitnes - sanoatining paydo bo'lishi va tez rivojlanish sabablari nimada?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. –T.: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
2. G'ulomov Z.T., Nabiullin R.X., Kamilova G.Z. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti. Darslik. –T.: O'zDITI, 2015.
3. Gulyamov Z.T., Akbarov F.S. Osnovi menejmenta i ego osobennosti v usloviyax formirovaniya rinka v Uzbekistane. –T.: TGAI, 2006.
4. Meskon M., Al'bert M., Xedouri F. Osnovy menejmenta. –M.: ANX, 1995.
5. Prchinkin A.V. Menedjment v sfere fizicheskoy kul'turi i sporta. – M.: Sovetskiy sport, 2010.
6. Rixard X., Byome G. Kak rukovodit lyudmi (praktika menejmenta). – Germaniya: Evromenedjment, Bad Gartsburg, 2013.

**Elektron ta'lim resurslari:
Internet saytlari**

1. www.ekonomika.ru
2. www.menejment.com
3. www.performance.edu.uz-Vazirlik sayti.

1.3. Sport menejmenti fanining predmeti va mazmuni

Reja:

1. Sport menejmenti va boshqaruvda umumiylik.
2. Sport menejmenti va boshqaruvning bitta ma'noni bildirishi va bir-biridan tubdan farq qilishi.
3. Sport menejmenti insonlarning faoliyatidagi, shu jumladan, jismoniy tarbiya va sport faoliyatidagi boshqaruv hokimiyati va san'ati.
4. Sport menejmenti – bu zaxiralar va ishchi xodimlar boshqaruvi.
5. Sport menejmenti jarayonlarni amalga oshirishda maqsadli ta'sir ko'rsatib boruvchi faoliyat.
6. Sport menejmentining mashg'ulotlarni tashkil etishdagi o'rni.
7. Sport menejmenti o'rganadigan masalalarning turlari.

Tayanch so'z va iboralar:

Menejment, boshqaruv, ierarxiya, jismoniy tarbiya, sport, funktsiya, tanlov, qaror qabul qilish, nazorat, xarajat, naf, baho, qonun, narxning cheklovchilik samarasi, menejment obyekti, menejment sub'ekti, menejment printsiplari, “4 maqsad”, “Kaban”, “7-s” usullari. Rag'batlantirish, birlamchi va ikkilamchi rag'batlantirish. Boshqarish obyekti va sub'ekti. Menejer reytingi. Menejment tamoyillari. Menejment funktsiyalari. Menejment usullari. Menejment texnologiyalari. Menejment tizimlari.

Sport menejmenti nima degan savolga aksariyat hollarda, bu boshqaruv degan javobni olamiz. Boshqaruv nimani bildiradi, degan savolga esa, bu ish yuritish, korxonalarining ishini tashkil qilish va boshqa shunga o'xshash javoblarni olamiz. Menejment va boshqaruv haqiqatan ham yagona bitta ma'noni bildiradigan tushunchalarga o'xshaydi. Aslida “menejment” va “boshqaruv” tushunchalari bir-biriga o'xshash bo'lsada, lekin bir-biridan tubdan farq qiladigan tushuncha va sohalardir.

Menejment – bu inglizcha so'z bo'lib, ingliz tilining Oksford lug'atida berilgan ta'rifga binoan u:

- insonlarning har qanday faoliyatidagi, shu jumladan, jismoniy tarbiya va sport faoliyatidagi boshqaruv hokimiyati va san'ati har qanday korxonalar, tashkilotlarda shu jumladan, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida resurslarni boshqarish bo'yicha alohida mohirlik va ma'muriy ko'nikmalar tushuniladi.

Boshqaruv tushunchasi turli manbalarda turlicha talqin etiladi, lekin ularning umumiy ma'nosi tabiat, jamiyat, xalq xo'jaligi, korxonalar, tashkilotlar, iqtisodiy-texnikaviy tuzilmalarda, qo'yingki, hayotimizda uchraydigan barcha taraddudlarni amalga oshirishda "tashkilot faoliyatida, shu jumladan, jismoniy tarbiya va sport faoliyatida natijaga samarali erishish uchun undagi barcha jarayonlarga maqsadli ta'sir ko'rsatib borishni bildiradi".

Boshqacha so'z bilan aytganda, menejment – bu boshqaruv, ya'ni resurslar va ishchi xodim (odam)larni boshqarish, samarali faoliyat olib borish va foyda olishni bilish, uni ko'paytirish jarayonidir, shu nuqtai nazardan boshqaruv bu o'ziga xos yuksak san'at va mahoratni talab qiluvchi tanlov, shu tanlov asosida qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilishdir.

Sport menejmentining amaliy tomonlari quyidagi aniq vazifalarni hal etishga: bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tishga, foyda olishga, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga, aholi ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga, kishilar ma'naviy darajalarini o'stirish sharoitida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish va boshqalarga qaratilgandir.

Sport menejmentining bu amaliy qismi faqatgina boshqaruv printsiplarining o'zini emas, balki ularni boshqaruv amaliyotida qo'llash qobiliyati, ya'ni ularning aniq ko'rinishlaridan yorqin vaziyatda foydalana olish qobiliyatini o'rganadi. Uning boshqarish nazariyasidan farqi u iqtisodiyotni, jumladan, jismoniy tarbiya va sportni boshqarish amaliyotida qonuniyatlar, tamoyillari va uslublaridan foydalanish namunalarini ishlab chiqarishdadir.

Sport menejmentining asosiy vazifasi jamiyat rivojlanishining obyektiv qonunlari talablarini hisobga olgan holda va iqtisodiyotni boshqarish amaliyotini umumlashtirish asosida jismoniy tarbiya va sportni samarali boshqarish uchun zarur bir maqsadga yo'naltirilgan harakatlar tamoyillarini ishlab chiqish, rivojlantirish va soha tarmog'iga tatbiq etishdan iborat.

Menejmentning sportga keng tatbiq etilishi ayni muddaodir, chunki biz yuqorida keltirgan menejmentning har bir elementlari sportchilar, murabbiylar, sport guruhlari va ularning rahbarlari, turli boshqa jismoniy tarbiya va sport jamoalari orasida o'z echimini kutayotgan masalalarni hal etishda har doim, har soat va har daqiqada uchrab turishi, mavjudligi, ularni o'z vaqtida to'g'ri hal etish lozimligi hech kimda shubha tug'dirmaydi.

Shuning uchun menejment qoidalarining jismoniy tarbiya va sportga ilmiy asosda joriy etilishidan juda katta samara yutuqlar kutilishi aniq.

Shu borada “Rahbar” va “Menejer” tushunchalariga aniqlik kiritish ham maqsadga muvofiqdir. Boshqaruv va menejment soha, faoliyat yo’nalishlari hisoblanadi, rahbar (boshqaruvchi) va menejer esa ishchi xodim lavozimlarini bildiradi.

Rahbar korxonaga yoki tashkilotning yuridik boshlig’i (prezident, bosh direktor, rektor, direktor va hokazo) bo’lib, u korxonaning barcha funktsional yo’nalishdagi (ishlab chiqarish, texnika va texnologiya ta’minoti, iqtisod, moddiy texnika ta’minoti, mantiq, energetika, tijorat, ishchi xodim va boshqalar faoliyatiga javobgardir va ularni boshqaradi. Eng asosiysi u moliya va uning taqsimotiga javobgar, moliyaviy xarajatni boshqarib boradi, bank tizimida faqat uning imzosi inobatga olinadi. Rahbar o’z faoliyatini amalga oshirishda yozma (og’zaki) buyruq va boshqa ko’rsatmalar orqali ish yuritadi, faqatgina rahbar yuqoridagi hujjatlarga imzo chekish huquqiga ega.

Menejer esa, yuqorida keltirilgan funktsional yo’nalishlar faoliyatini amalga oshirishda ishchi xodimlar ishtirokini ta’minlaydi. Ishchi xodim ishtiroki muhim masala bo’lib, u xodimlarni malakasi va boshqa ko’rsatgichlari bo’yicha tanlash, rasmiy ishchi guruhlar tuzish, ish bilan ta’minlash, xodimlarning tashkiliy faoliyatini to’g’ri yo’lga qo’yish, qayta o’qitish, malakasini oshirish, xizmat pog’onasida ularni yuqoriga ko’tarish, pastga tushirish yoki ishdan chetlatish kabi masalalarni o’z ichiga oladi. Menejer – moliya-bank hujjatlari, buyruqqa imzo chekish huquqiga ega emas, shuning uchun uning faoliyati korxonaga ishining pirovardi samarasi uchun o’ta muhim bo’lishiga qaramay, rahbar uchun tayyorlangan tavsiya bilan cheklanadi. Menejerning har qanday tavsiyasi rahbariyat tomonidan o’rganilib, asosli axborotga tayangan holda tegishli qaror qabul qilinib, rahbar tomonidan buyruqqa imzo chekilgach kuchga kiradi.

Jahon boshqaruv nazariyasi va amaliyotida rahbar shaxsining bilim va malakasi, ish tajribasi, tadbirkorlik xususiyatlari va boshqa xislatlariga nisbatan qanchalik yuksak talablar qo’yilgan bo’lsa, menejerlarga ham ulardan kam mas’uliyat yuklatilmagan.

Quyida rahbar faoliyatidagi xususiyatlar tavsiflagan, keltirilgan jadvalga ko’ra, ularning menejerlarga ham taalluqli ekanini payqash qiyin emas.

1.3.1.- jadval

Sport tashkilotlarida rahbarning tutgan o'ri

Rahbarning tutgan o'ri	Tavsif	Rahbarlarning ish faoliyatidagi xususiyatlari
Rahbarning shaxslararo munosabatlarda, mehnat jamoalari, shu jumladan, jismoniy tarbiya va sport guruhlarida tutgan o'ri		
Bosh rahbar	Ramziy ravishdagi bosh rahbar, uning mas'uliyatiga huquqiy va ijtimoiy masalalarni hal etish vazifalari kiradi. Jismoniy tarbiya va sportda guruh boshlig'i yoki murabbiyni ko'zda tutish mumkin.	Lavozim darajasidan kelib chiqqan harakatlar, udum va tavsiyalar. Jismoniy tarbiya va sportda guruh boshlig'i yoki murabbiy o'z funktsional vazifasini bajaradi.
Sardor	Xodimni tayyorlash, guruhlarini shakllantirish, ularni faollash va sabablarga mas'ul hisoblanadi. Jismoniy tarbiya va sportda o'yinchilarni tarbiyalash va guruhlar tuzish	Ijrochilar ishtirokidagi deyarli barcha amaliy boshqaruv. Jismoniy tarbiya va sportda guruh a'zolarini birlashtirish.
Bog'lovchi zveno	Tashqi aloqalar va axborot manbaalari, xizmatlari bilan ta'minlaydigan va mustaqil rivojlanadigan to'r (set') hisoblanadi. Jismoniy tarbiya va sportda xorijdagi hamkasblar bilan aloqa o'rnatish.	Tashqaridagi tashkilotlar va shaxslar bilan bo'ladigan yozishma va kengashlarda ishtirok etish. Jismoniy tarbiya va sportda xalqaro jamoa va federatsiyalar ishida ishtirok etish.
Rahbarning axborot bilan ta'minlashdagi tutgan o'ri		
Axborotni qabul qiluvchi	Maxsus xarakterga ega bo'lgan axborotni topadi (odatda, joriy davrdagi axborot), ichki va tashqi sharoitni hisobga olgan holda, o'z ishining manfaati uchun unumli foydalanadi. Rahbar tashkilotning miya-markazi hisoblanadi. Jismoniy tarbiya va sportda axborot texnologiyalarini joriy etish.	Axborot to'plash bilan bog'liq pochta, ma'lumot bilan tanishish, hamkorlar bilan aloqa o'rnatish (nashriyot ma'lumotlari, kerak bo'lsa, safarga chiqish yo'li bilan olinadigan ma'lumotlar). Jismoniy tarbiya va sportda axborot tizimini tashkil etish.
Axborotni	Ichki va tashqi manbalardan olingan	Ichki va tashqi jarayon va

tarqauvchi	axborotni tashkilot a'zolariga uzatadi. Axborot amaliy ahamiyatga ega bo'lsada, ular qayta ishlanib, tashkilot munosabatlarini o'rganib, ularni shakllantirishga yo'naltiriladi. Jismoniy tarbiya va sportda axborot xizmatini ta'minlaydi.	manbalardan ma'lumotlar yig'ish maqsadida ularga so'rovlar tarqatadi, ijrochilarga axboroti uzatishda verbal aloqa va munosabatlar (suhbat ma'lumotlari va yakunlari asosida umumlashtirish)dan foydalanadi.
Vakil sifatida	Tashkilotni tashqi muhit bilan bog'lash maqsadida, uning rejasi, siyosati, faoliyati va ish natijalariga tegishli axborotni uzatadi. Tarmoq masalalari bo'yicha ekspert sifatida faoliyat ko'rsatadi. Jismoniy tarbiya va sport anjumanlarida tegishli vakolatni ta'minlaydi.	Kengashlarda qatnashish, aloqa vositalari orqali murojaat qilish, og'zaki chiqishlar, shu jumladan, tashqaridagi boshqa tashkilotlar va shaxslarga axborot uzatish. Jismoniy tarbiya va sport tizimida axborot ta'minoti.
Rahbarning qaror qabul qilishdagi tutgan o'рни		
Tadbirkor	Tashkilotning o'zini ichida va tashqarisida imkoniyatlar qidiradi, o'zgarishlar kirituvchi va takomillashtiruvchi loyihalarni ishlab chiqadi va amalga joriy etadi, boshqa loyihalarning ishlanishini nazorat qiladi. Jismoniy tarbiya va sport rivojiga yangiliklar kiritadi.	Korxonada strategiyasini vaziyat tahlilini yoki barcha faoliyatni takomillashtiradigan loyihalarni ishlab chiqarishni muhokama etuvchi kengashlarda ishtirok etish. Jismoniy tarbiya va sportda yangi, zamonaviy loyihalarni baholaydi.
Kamchiliklarni tuzatuvchi	Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari qiyin ahvolga tushib qolganda, kutilmagan qoida buzilishlarga duch kelganda, zaruriyatga qarab, ish faoliyatida tegishli o'zgarishlar kiritishga javob beradi. Mavjud qarama-qarshiliklarni bartaraf etadi.	Kamchilik, inqiroz va muammolarni inobatga olgan holda, strategik va joriy davr masalalarning muhokamasi. Jismoniy tarbiya va sportda yuzaga kelgan qarama-qarshiliklarning muntazam

		muhokamasi.
Zaxira larni taqsim- lovchi	Barcha zaxiralarini taqsimlashga mas'ul, ya'ni amalda korxonaning barcha muhim qarorlarini qabul qilish va ma'qullashdan iborat. Jismoniy tarbiya va sport jamoalarida tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish.	Grafiklar tuzish, vakolatlarini aniqlash, byudjetni ta'minlash, ijrochilar ishini dasturlash bilan bog'liq bo'lgan har qanday faoliyat. Jismoniy tarbiya va sport jamoalarida menejment funksiyalarining ijrosini ta'minlash.
Muzokaral ar olib boruv chi	Tashkilotning sheriklar bilan bo'ladigan barcha nufuzli va muhim mas'ul vakolatli vakili hisoblanadi. Jismoniy tarbiya va sport jamoalarida murabbiydan tortib, barcha vakolatlar ko'zda tutiladi.	Muzokaralarni boshqarish. Jismoniy tarbiya va sport jamoalaridagi barcha muzokaralarni boshqarish.

Mavjud standart va talablarga ko'ra, menejer birinchidan, jismoniy va aqlan sog'lom, ikkinchidan, o'z sohasi va unga yaqin ilmlarni puxta egallagan, uchinchidan, mustaqil fikrlay oladigan, o'z fikrlarini yozma, og'zaki va boshqa ko'rinishlarda ifodalay oladigan, murakkab holatlarda to'g'ri echimlarni topa oladigan ishchi xodim (shaxs) bo'lishi lozim.

Sobiq Sovet Ittifoqi tizimida markazlashgan boshqaruvning kuchli bo'lishi va boshqa siyosiy sabablarga ko'ra, menejment tanqid qilib kelingan, amaliyotga joriy etilmagan va mutaxassislar tomonidan o'rganilib rivojlantirilmagan.

Menejmentni eslash lozim bo'lgan hollarda, unga tanqidiy munosabat bildirilishi talab qilinadi, shuning uchun "Kapitalizm tuzilmasida ishchilarning bilagidagi kuchi va oxirgi suvini siqib olishga mo'ljallangan mexanizm"- deb tanqid qilib kelingan.

Mustaqillik davriga kelib, menejment hayotimizga jiddiy va jadal ravishda tatbiq qilindi, O'zbekistondagi deyarli barcha oliy o'quv yurtlarida menejment fani o'qitilmoqda, korxonatashkilotlar shtat jadvallarida menejer lavozimlari paydo bo'ldi. Shu o'rinda, O'zbekistonda menejerlar tayyorlashga tegishli bir misolni eslash joiz deb bilamiz.

Mustaqilligimizning dastlabki yillarida, aniqrog'i 1992 yilda Toshkent davlat sharqshunoslik instituti tarkibida birinchilar qatorida professor, hozirda akademik Baxtiyor Muhammadjonovich Tursunov rahbarligida "Xalqaro

menejment va marketing” kafedresi tashkil qilindi. Ko’pgina hamkasb, mutaxassislar ushbu tashabbusni ma’qullab, uni o’z vaqtida, zarur holatda tug’ilgani ta’kidlandi, qisman tanqidchilar ham bo’ldi. Mana hozirda barcha oliy va o’rta maxsus o’quv yurtlarida ushbu yo’nalishda mutaxassislar tayyorlanyotganini ko’rish mumkin.

Lekin O’zbekistondagi ko’pgina korxonalar va tashkilotlarda menejment masalalari hali to’liq yo’lga qo’yilmaganligi, shtat jadvallariga menejer lavozimlari kiritilmaganligi tufayli an’anaviy ravishda vazifani idora rahbarlari yoki xodimlar boshqarmasi bo’lim boshliqlari o’z zimmlarida bajarib kelmoqda. Hozir shunday zamon keldiki, korxonalar-tashkilotlar, shu jumladan, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari faoliyatlarini menejmentsiz tasavvur qilish qiyin, kuchli raqobat sharoitida g’alaba qozonish, muvaffaqiyatlarga erishish uchun joylarda faqatgina menejerlarning ilmiy asoslangan tavsiyalari asosida ish yuritish talab qilinadi.

Sport tashkilotlarida ham rahbar va menejerlar tomonidan masalalarning to’g’ri hal etilishi katta ahamiyat kasb etadi. Hozirda, haqiqatan ham ko’pgina jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining rahbarlari bir vaqtning o’zida ham boshqaruvchi, ham menejer vazifalarini bajarib kelmoqda. Shu bilan bir qatorda, ba’zi murabbiylar, guruh boshliqlarining muvoinlari, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari xodimlar boshqarmasi bo’limi boshliqlarining faoliyatlarini menejerlar faoliyati bilan taqqoslash mumkin.

Sport menejmenti qanday masalalarni hal qila olishini tasavvur etish uchun taniqli olimlar tomonidan yaratilgan va jahon amaliyotida keng qo’llanib kelinayotgan ba’zi nazariyalarga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, menejment nuqtai nazaridan insonlarni biron-bir foydali mehnatga, faoliyatga undovchi omil - ularning o’z hayotlaridagi ehtiyojlarini qondirish zaruriyatidir. Menejment iqtisodiyot va boshqa fanlar bilan birgalikda “Tabiat, jamiyat, korxonalar, tashkilot, oilalar va boshqa barcha tizimlardagi zaxiralarning cheklangan sharoitida insonlarning cheksiz ehtiyojlarini qondirish”ga xizmat qiladigan fandır. Haqiqatan ham, hayotimizning farovonligini ta’minlovchi moddiy boylikmi, tabiiy boylikmi, pul mablag’lari va boshqa har qanday zaxiralar barcha mavjud tizimlarda cheklangan holda bo’ladi. Demak, menejmentning eng asosiy vazifalarini umumlashtiradigan bo’lsak, u jismoniy tarbiya va sport tizimlarida sarflanayotgan xarajat zaxiralarni (cheklangan zaxiralar sharoitida) minimallashtirish va erishish lozim bo’lgan natija - yutuqlarni (cheksiz ehtiyojlarga intilish sharoitida) maksimallashtirishdan iborat bo’ladi.

Insonlarning o’z hayotlari davomida qondirishlari lozim bo’lgan yoki qondirishga intilayotgan ehtiyojlari shu darajada cheksizki, ularni sanab, tagiga etib bo’lmaydi.

Amerikalik olim Abraxam Maslou, boshqa olimlar tomonidan yaratilgan inson ehtiyojlarini aks ettiruvchi ko'pgina modellarni inkor etmagan holda, o'zining "Inson ehtiyojlarini ierarxik model"ini tavsiya etgan. Ushbu modelning xususiyatlari shundan iboratki, u birinchidan, juda oddiy, ikkinchidan, insonlarning cheksiz hisoblangan ehtiyojlarini besh guruhlariga bo'lib, zaruriyatlik darajasiga qarab, ierarxik pog'onalarga joylashtirgan. Ehtiyojlarning joylanish tartibi pastdan yuqoriga yo'naltirilgan bo'lib, hayot uchun eng zaruri pastdan birinchi pog'onalardan boshlab joylashtirilgan. Birinchi rasmga e'tibor qiladigan bo'lsak, pastdagi eng birinchi va ikkinchi pog'onalarga oziqlanish va himoyalaniish ehtiyojlari joylashtirilgan, ushbu ikki ehtiyoj insonlarning fiziologik –moddiy ehtiyojlari hisoblanadi. Uchinchi, to'rtinchi va beshinchi pog'onalardagi muloqot, hurmat va o'z imkoniyatlarini namoyish qilish ehtiyojlari esa ijtimoiy hisoblanadi.

Inson hayotida o'z ehtiyojlarini qondirish uchun u biron-bir foydali mehnat faoliyati bilan shug'ullanishi zarur, aks holda, u boqimandachilik ahvoriga tushib qolib, doimo shu kayfiyatda bo'ladi va boshqalar hisobiga o'z ehtiyojlarini qondirishga harakat qiladi, natijada jamoa, jamiyat a'zolari orasida nosog'lom muhit yuzaga keladi. Jismoniy tarbiya va sport sohalarida ham foydali mehnatni inkor qilib yoki o'z ustida etarli darajada ishlamasdan, boqimandachilik kayfiyatida bo'lib, boshqalar hisobiga yutuqlarga erishishni maqsad qilib qo'ygan shaxslar uchraganda qanday ko'ngilsiz oqibatlar yuzaga kelishi barchaga ayondir.



1.3.1.-rasm. A. Maslouning inson ehtiyojlari ierarxiyasi (pog'onalari) modeli.

A.Maslou ehtiyojlar modelining sport mashg'ulotlarida qanchalik ahamiyatli ekanini tasavvur qilish qiyin emas. Darhaqiqat, sport bilan

shug'ullanuvchilar birinchi navbatda, o'zlarining oziqlanish ehtiyojlarini me'yor darajasida qondirgan bo'lishlari shart.

Ikkinchi bosqichda, ularning himoyalani ehtiyojlarini qondirilishi deganda, o'zlariga jismoniy tarbiya va sport turiga mos liboslar, tegishli inshoot va inventarlar, boshqa shart-sharoitlarni yaratib, ularga bo'lgan ehtiyojni to'liq qondirilganligini tushunamiz.

Uchinchi bosqichda, muloqat ehtiyojini qondirilishi deganda, ularning sheriklar, guruh a'zolari, murabbiy (rahbar), jismoniy tarbiya va sport turlari bo'yicha axborot bilan ta'minlanganlik va ulardan samarali foydalanishni tushinamiz.

To'rtinchi bosqichda, hurmat ehtiyojini qondirish uchun har bir jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchi o'zining ustida jiddiy ishlashi, murabbiy ko'rsatmalarini aniq va to'liq, kerak bo'lsa, ortig'i bilan bajarish lozim bo'ladi, xullas o'z mashg'ulotlariga ijodiy yondashgan holda ko'p mehnat qilishga to'g'ri keladi.

Beshinchi bosqich, ya'ni o'z imkoniyatlarini namoyish etish ehtiyoji jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilar uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Oddiy fuqarolik hayotida o'zlarining faqatgina birinchi va ikkinchi bosqichdagi ehtiyojlarini qondirish bilan chegaralangan holda, uchinchi, to'rtinchi va beshinchi bosqichdagi ehtiyojlarini asosli ravishda to'liq qondirishni kam o'ylaydigan insonlarni talaygina uchratish mumkin. Lekin jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilarning barchasi o'z sohalari bo'yicha beshinchi pog'onadagi o'z imkoniyatlarini namoyish etish ehtiyojlarini qondirib, musobaqalarda "Hurmat shohsupasi"dan o'rin olishga intiladilar, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu holat jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilarning hayotda o'z ehtiyojlarini to'liq qondirib borishlari qanchalik zarur ekanligini yana bir bor namoyish etadi.

Sport mashg'ulotlarini foydali mehnat asosida tashkil etishda menejment juda katta imkoniyatlarga egadir. Insonlarni moddiy rag'batlantirish orqali muvaffaqiyatlarga erishtirish mumkin, degan an'anaviy to'g'ri tushunchalarni tan olgan holda, menejment xarajat talab qilmaydigan, quyida batafsil o'rganiladigan ijtimoiy-ruhiy, vakolat va mas'uliyatni uzatish, huquqiy usullar va ko'pgina asoslangan modellarni tavsiya eta oladi. Jismoniy tarbiya va sport sohalarida katta yutuqlarga faqatgina moddiy rag'batlantirish orqali erishish mumkin bo'ladi, degan tushunchalarni inkor etmagan holda, menejmentning yangi, zamonaviy usullaridan foydalanish dolzarb masala hisoblanadi.

Haqiqatan ham, insonlarni, shu jumladan, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilarni intensiv harakatga, foydali mehnatga jalb etishda, yuksak

natijalarga undashda faqatgina moddiy rag'batlantirish asosiy omil bo'la oladi, degan tushunchaning to'g'ri bo'lishiga qaramay, undan boshqa nomoddiy-ma'naviy omillar juda ko'pligini allaqachon mutaxassis va olimlar tomonidan tan olingan. Biron-bir faoliyatni boshlashda inson ongida zamonaviy dunyoqarash asoslari shakllangan bo'lishi, ya'ni uni intensiv mehnatga jalb etishda asoslangan omil bo'lib hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, insonning o'z ichidan intilishiga uyg'otish, unda kelajakka umid tuyg'ularini shakllantirish va ishonch hosil qildirish kabi omillardan keng foydalanish asosiy yo'nalishlardan ekanligini inobatga olgan holda, menejmentning jismoniy tarbiya va sport rivojiga katta hissa qo'sha olishi hech kimda shubha tug'dirmasa kerak.

Fanni o'qitishdan maqsad talabalarda jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida uchraydigan boshqarish muammolariga nisbatan qiziqish, amaliy tashkilotchilik faoliyatiga ishtiyoq uyg'otishdan iborat. Chunki hozir kunda boshqarish asoslarini o'rganayotgan talabalar kelgusida jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida boshqarish tizimining xodimlari, kichik, o'rta va katta jamoalarning rahbarlari, korxonalar va firmalar iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy-texnik faoliyatining turli tomonlarini boshqarish bo'yicha loyihalar, tadbirlar ishlab chiqarishga jalb etilgan mutaxassislar bo'lib etishadilar.

Bugungi kunda menejment va boshqaruv masalalarida asrlar davomida shakllanib va rivojlanib kelgan, ilmiy tomondan sinov va tajribalardan o'tgan, mutaxassislar tomonidan qabul qilingan va hozirgi kunda ikki fan, ya'ni menejment va boshqaruv fanlari orasidagi umumiylikni ifodalaydigan hamda jismoniy tarbiya va sport sohasiga bevosita aloqador hisoblangan quyidagi fikrlarni uchratish mumkin:

1.3.2 -jadval

Sport menejmenti va sport boshqaruvidagi umumiylik

Boshqaruv	<p>Sport bilan shug'ullanuvchilardan professionalizm, yuksak san'at va mahoratni talab qiluvchi tanlov.</p> <p>Sportda menejment va boshqaruvni mustaqil fan deb qabul qilinishi.</p> <p>Sport-faoliyat turi, boshqaruv funktsiyalari.</p> <p>Sport –ishchi xodimning mehnat jarayoni.</p> <p>Sport tashkilotlari boshqaruvchilar va ijrochilardan iborat bo'lib, uning ishchi xodim (shaxs)i hisoblanadi.</p> <p>Sport tashkilotlaridagi boshqaruv apparati yoki organi menejmentning asosiy tizimi hisoblanadi.</p>	Menejment
-----------	---	-----------

Sport tashkilotlarida menejment rahbar (boshqaruvchi)ga yuzaga kelgan holat haqidagi axborot asosida mumkin bo'lgan qarorni qabul qilish variantlari ichidan to'g'ri va oqil tanlovni amalga oshirishni o'rgatadi. Uning asosiy maqsadi bozor munosabatlari sharoitida barcha bo'g'inlarda samarali ishlay oladigan yuqori malakali boshqaruvchilarni tayyorlashdan iborat. SHundan kelib chiqib, jismoniy tarbiya va sport menejmenti quyidagilarni o'rganadi:


- Sportda boshqarish nazariyasi va amaliyoti.
- Sport tashkilotlarida boshqarish obyekti va sub'ekti.
- Sportda boshqarish tamoyil va usullari.
- Sportda boshqarish madaniyati.
- Sportda menejer va uning fazilatlari.
- Sportda menejer reytingi.
- Sport boshqaruvida kirishuvchanlik va qaror qabul qilish.
- Sportda boshqarish funktsiyalari.
- Sportda xodimlarni boshqarish.
- Jismoniy tarbiya va sportda ishlab chiqarishni boshqarish.
- Sportda samaradorlikni boshqarish.
- Sportda o'z-o'zini boshqarish.
- Sportda hududiy boshqarish va hokazolar.

Sport menejmenti fanining mazmuni boshqaruv tizimi va boshqaruv obyekti va sub'ekti orasidagi o'zaro munosabat bo'lib, uning asosiy vazifasi kitobxonlarga boshqaruvning zamonaviy usullarini rahbarlik san'ati sirlarini o'rgatishdan iborat.

Yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan ko'plab jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining boshqarish tizimlarini takomillashtirish yuzasidan tadbirlar ishlab chiqarish va menejerlar zimmasida bo'ladi.

Boshqaruv tizimi to'g'risida gap ketganda, birinchi o'rinda, har doim obyekt va subyekt haqida fikr yuritish maqsadga muvofiq bo'ladi. SHuning uchun jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari boshqarish tizimining obyekt va subyekt elementlariga alohida e'tibor berishni maqsadga muvofiq deb bilamiz, o'z navbatida, obyekt-sub'ektlarning o'zaro bog'lanishi boshqaruv pog'onalarini shakllantiradi:

Obyekt tushunchasi boshqaruv tizimining har bir bosqichida uchraydigan, ierarxik pog'onaning pastki qismini tashkil etuvchi boshqariladigan elementni bildiradi. U mikro voqelikdan, ishchi xodim (shaxs) va uning faoliyatidan tortib, to makro voqelik, moddiy dunyo, jamiyat darajasigacha bo'lgan ma'noni o'z ichiga oladi.



1.3.2 -rasm. Menejmentda boshqaruv pog'onalari

Boshqarish faoliyatini bajaruvchi idoralar va ularning rahbarlari menejmentning subyekti, ya'ni boshqaruvchilar bo'lib hisoblanadi. Menejment sub'ektlari ham boshqaruv tizimining har bir pog'onasida mavjud bo'lib, ular har doim obyektning tepasida bo'ladi, ya'ni o'ziga tegishli obyektga boshqaruv ta'sirini o'tkazib keladi. Sport menejmentida boshqaruv nazariyasi va amaliyoti ijtimoiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, kibernetika, tibbiyot, ruhiy va boshqa fanlar bilan aloqada bo'lib, sport yo'nalishlaridagi alohida xususiyatlarni inobatga olgan holda rahbarlikni tashkil etadi.

Shunday qilib, sport tashkilotlarida har qanday hodisa yoki jarayon negizi boshqariladigan obyekt va subyekt tizimlarida tashkil topadi. Sport menejmenti fani boshqarish to'g'risidagi nazariy va amaliy bilimlar majmuidir. Shu nuqtai nazardan obyekt va subyektlarni quyidagicha tavsiflash mumkin.

Shuni eslatib o'tish joizki, obyekt bilan subyekt har qanday boshqaruv tizimida juftlikni tashkil etadi, yana muhimi shundaki, juftliklarning har bir vaqtning o'zida ham obyekt, ham subyekt vazifasini o'tashi mumkin. Masalan, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya institutining boshqaruv tizimi misolida quyidagilarni kuzatish mumkin:

1.3.3-jadval

Sport tashkilotlarida menejment obyekti va sub'ekti

№	Sport menejment	
	Obyekt (boshqariluvchi)	Sub'ekti (rahbarlik)
1.	2.	3.
1.	I. Makrodarajada	
	Mamlakat (respublika)	Qonun chiqaruvchi hokimiyat (Oliy majlis.) Ijro etuvchi hokimiyat (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi). O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport

		qo'mitasi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
2.	Viloyat	QQR Joqarg'i kengesi va viloyat deputatlari. QQR vazirlar kengashi, viloyatlar hokimiyatlari. QQR viloyatlar jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining filiallari. Tuman (shahar)lar hokimliklari, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining filiallari.
3.		Tuman (shahar)lar jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining filiallari.
II. Megodarajada		
4.	Kontsern	Sport qo'mitalari va ularning raislari.
5.	Sektor (tarmoq)	Vazirliklar va vazirlar (O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi).
III. Mikrodejarada		
6.	Sport tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalar Personal (xodimlar)	Jamoa kengashi va raislar, prezident (jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida menejment sub'ektlarining rahbarlari).
7.	Ishlab chiqarish	Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida menejment sub'ektlarining ishchi xodimi (rahbarlari).
8.	Samaradorlik	Jismoniy tarbiya va sport korxonalar (firma) rahbarlari bo'lim boshliqlari
9.	O'z-o'zini boshqarish	Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida menejment sub'ektlari (rahbarlari)ning faoliyati samaradorligi.
10.		Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida menejment sub'ektlarining rahbarlari (fuqarolar yig'ini, rais (oqsoqol) lar).
11.	Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari xodimlarini bilim darajalarini ta'minlash.	Jismoniy tarbiya va sport Oliy o'quv yurtlari. Jismoniy tarbiya va sport kollejlari. Jismoniy tarbiya va sport maxsus maktablari.

Institut kafedra mudirlari fakul'tet dekanlariga nisbatan obyekt hisoblanadi va fakul'tet dekanlari subyekt vazifasini bajaradilar, o'z navbatida, fakul'tet dekanlari prorektorlarga nisbatan obyekt hisoblanadilar va prorektorlar subyekt vazifasini o'taydilar. Ushbu yo'nalishda yuqoriga ko'tariladigan

bo'lsak, prorektorlar rektorga nisbatan obyekt roliga o'tadilar va rektor prorektorlarga va tizimdagi boshqa bo'g'in rahbarlariga nisbatan subyekt darajasida ish olib boradi. Institut rasmiy ravishda huquqshunos shaxs bo'lishiga qaramasdan, uning rektori sub'ektligicha qolavermaydi, chunki uning ustidan ham rahbarlik qiluvchi sub'ektlar (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va boshqalar) hisobiga u obyektga aylanadi.

Menejment, dastavval, iqtisodiyot fanining barcha yo'nalishlari, jumladan, iqtisodiy nazariya bilan yaqindan bog'liqdir. U iqtisodiy qonunlarni bilib olishga va ularga mos ravishda boshqarish jarayonida iqtisodiy usullarni qo'llab, har bir xodimga ta'sir ko'rsatishga asoslanadi.

Sport menejmentida boshqaruvning sir-asrorlarini ilmiy asosda o'rganish, tahlil qilish maqsadida quyidagi usublardan foydalanadi:

1.3.4 -jadval

Sport menejmenti tahlil usullari

№	Tahlil usullari	Mazmuni
1	Sportga tizimli yondashuv	Sportda boshqariluvchi obyekt yaxlit tizim olib qaraladi. Bu yondashuv turlicha bo'lishi mumkin: Sportga tizimli-kompleks yondashuv. Sportga tizimli-funksional yondashuv Sportga tizimli –tarkibiy yondashuv Sportga tizimli- kommunikatsion yondashuv.
2	Sportga kompleks yondashuv	Sportga boshqariluvchi obyekt boshqa obyektlar bilan o'zaro bog'lanishda va alaqadorlikda qaraladi.
3	Sportga tarkibiy yondashuv	Sportga boshqariluvchi obyekt tarkibiy qismlarga bo'lib o'rganiladi.
4	Sportga vaziyatli yondashuv	Sportga boshqariluvchi obyektning konkret sharoitdagi ichki va tashqi vaziyatiga qarab boshqarishning ma'qul uslubi qo'llaniladi.
5	Sportda integratsion yondashuv	Sportga boshqariluvchi obyekt yuqoridagi uslublar (vaziyatli, kompleks, tarkibiy yondashuvlarni birgalikda qo'llash yordamida boshqariladi.
6	Sportda modellashtirish	Sportda boshqariluvchi obyektни boshqarish bo'yicha turli sxema, grafik va chizmalar,

	usullari	iqtisodiy-matematik modellar, eskizlar (homaki materiallar) tayyorlanadi
7	Sportga modellashtirish usuli	Sportda optimal qaror qabul qilish maqsadida iqtisodiy-matematik uslublar va ishchi xodim (shaxsiy) elektron hisoblash mashinalarini (SHEXM) keng miqyosda qo'llash
8	Sportda kuzatish usuli	Sportda boshqariluvchi obyekt to'g'risidagi ma'lumotlarni rejali, ilmiy, uyushtirilgan asosda to'plash va nazorat qilish usuli
9	Sportda tajriba usuli	Sportga boshqarish jarayonida boshqariluvchi obyektga nisbatan namunaviy tajribadan o'tgan usullarni qo'lla
10	Sportda ijtimoiy kuzatuv usuli	Sportda boshqarish maqsadida turli anketali so'rovlar, suhbatlar, testlar, infratuzilmaviy tahlillarni o'tkazish

Sport menejmenti, birinchi navbatda, yuridik fanlar va huquqshunoslikka asoslangan holda ish yuritadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.Karimov tomonidan ilgari surilgan iqtisodiyotni boshqarishni isloh etishning beshta tamoyili ushbu jarayonning huquqiy asosini tashkil etadi. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti bilan huquqshunoslik fanlar orasidagi bog'liqlik, huquqshunoslik fanlarning boshqaruv faoliyatida qanday doirada ishtirok etishi, huquqiy me'yorlarni qanday qo'llash ish jarayonida boshqaruv organlari, rahbarlari va ayrim kishilarning me'yoriy hujjatlardan, qonunlardan foydalanishini belgilab beradi.

Mamlakatimizda chuqur o'zgarishlar, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha tomonlarini izchil isloh etish va liberallashtirish, jamiyatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlari jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Bunda kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lida belgilab olingan va izchil ravishda amalga oshirilayotgan ulkan vazifalar mustahkam zamin yaratmoqda.

Iqtisodiyotning izchil va barqaror rivojlanishini ta'minlashda kelgusi davr uchun puxta va har tomonlama asoslangan chora-tadbirlar, muhim vazifa va yo'nalishlar, turli darajalardagi iqtisodiy taraqqiyot dasturlarning ishlab chiqilishi va aniq belgilab olinishi muvaffaqiyat garovi hisoblanadi. Ayni paytda, bosib o'tilgan yo'l - oldingi davrdagi erishilgan yutuq va natijalarni tanqidiy baholash orqali tegishli xulosalar chiqarish, ular asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini yanada takomillashtirib borish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Respublikamiz birinchi prezidenti Islom Karimovning “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi” ma’ruzasida³ belgilab berilgan O’zbekiston iqtisodiy rivojlanishning yuqori va barqaror sur’atlarini, samaradorligini hamda makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlash, bank-moliya tizimining barqarorligini oshirish, strategik ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun faol investitsiya siyosatini olib borish, xalqimizning hayot darajasi va farovonligini yanada oshirish borasidagi vazifalarni to’liq va samarali amalga oshirish, eng avvalo, jamiyatimiz a’zolari tomonidan ularning mazmun-mohiyatini teran va chuqur anglab etilishini taqozo etadi. Ayniqsa, 2010 yilni “Barkamol avlod yili” deb nomlanishi hamda bu boradagi maxsus Davlat dasturining ishlab chiqilishi yoshlarning jismoniy va ma’naviy sog’lom o’sishi, ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo’lgan, uyg’un rivojlangan insonlar bo’lib etishi yo’lida barchamizdan aniq maqsadga yo’naltirilgan say’-harakatlar talab etadi.

“Sport menejmenti” fanini o’qitishdan maqsad talabalarda O’zbekiston jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining ish yuritishida zarur bo’ladigan ijtimoiy boshqaruvning nazariy asoslarini egallash, bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos keladigan menejmentning amaliy ko’nikmalarini hosil qilish, xo’jalik mexanizmini takomillashtirish, moliyaviy, moddiy, mehnat zaxiralaridan unumli foydalanishda asosli qarorlar qabul qila olishdan iborat. Amaliyot shuni ko’rsatadiki, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari o’z oldilariga qo’ygan ommaviy jismoniy tarbiya, sog’lomlashtirishni rivojlantirish va sportda yuksak natijalarga erishishda faqatgina asosli boshqaruv qarorlarigina umumiy va aniq maqsadlarga muvaffaqiyatli erishish imkonini yarata oladi.

“Sport menejmenti” fani o’zining rivojida falsafa, boshqaruv nazariyasi va amaliyoti, kibernetika, psixologiya, shifokorlik, politologiya, marketing, iqtisodiyot, iqtisodiyot nazariyasi, iqtisodiyot ta’limi tarixi, ekonometriya, iqtisodiy-matematik modellar va usullar, matematika, operatsiyalar tahlili va boshqa fanlarga asoslanadi.

Sport sohasiga menejerlar tayyorlashda eng avval, bitiruvchilar qanday sifat belgilarini o’zlarida mujassamlashtirgan bo’lishlari lozim, degan savolni hal etishga to’g’ri keladi. Shundan kelib chiqqan holda, menejment mutaxassisligini bitiruvchilar birinchi navbatda, jismonan va aqlan sog’lom bo’lishlari, menejment va uning yaqinidagi boshqa fanlarni yaxshi o’zlashtirgan bo’lishlari hamda mustaqil fikrlay oladigan va o’z fikrlarini erkin holda, har xil

³ O’zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma’ruzasi//Xalq so’zi, 2009 yil 14 fevral.

ko'rinish (yozma, og'zaki va boshqa)larda ifodalay oladigan bo'lishlari shart. Ayniqsa, mustaqillik, ijodiy va mantiqiy fikrlash, oqillik, sezgirlikni rivojlangan bo'lishi kabi sifatlar menejer xususiyatlarining ajralmas qismi bo'lishi lozim.

Sport menejmentida talabalarni quyidagi masalalarni hal etishga o'rgatish ko'zda tutiladi:

1. Sport menejmentida zamonaviy nazariy bilimlar asosini shakllanitirish va ularni rahbarning amaliy faoliyatida qo'llay olish.

2. Talabalarni sport tashkilotlaridagi moliya menejmenti, jismoniy tarbiya sohasidagi tadbirkorlik va biznes asoslarining asosiy xususiyatlari bilan tanishtirish.

3. Sport menejmentining nazariyasi va amaliyotidagi asosiy qoidalarni o'zlashtirish, bozor sharoitida jismoniy tarbiya sohasi haqida ijobiy tasavvurni shakllantirish.

4. Sport tashkilotlaridagi insonlar o'rtasida ruhiy muhit va o'zaro munosabatlarni yaxshilash usullariga talabalarni o'rgatish va jismoniy tarbiya sohasidagi boshqaruvning asosiy jabhalari bilan tanishtirish.

Sport menejerining vazifasi ishchi xodimning muhim sifat ko'rsatkichlari haqida tasavvurga ega bo'lish, ulardan jismoniy tarbiya va sport rivoji uchun unumli foydalanishdan iboratdir.

Ma'lumki, biror ashyo (zaxira yoki tovar) qancha kamyob bo'lsa, uning narxi shuncha baland bo'ladi va binobarin, uni sotib olmoqchi bo'lganlar shuncha kam bo'ladi. Iqtisodchilar buni narxning cheklovchilik *samarasi* deb ataydilar.

Naf – bu mahsulotning iste'molchilarga qanchalik ijobiy natija keltirishidir. Xaridor xarid qobiliyati doirasida eng nafli molni tanlashga intiladi. SHundagina u qoniqadi, ammo tovarning nafliligi qancha yuqori bo'lsa, uning narxi ham shuncha baland bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, xaridorning sotib olish qobiliyatini pasaytiradi.

Xarajat – bu mahsulotni ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) va uni sotish hamda ish haqi to'lashga sarflanadigan mablag'lar yig'indisidir. Xarajat tarkibiga:

1. Mahsulot (xizmat) yoki sport tashkilotlarida ma'muriy xarajatlar;
2. Sport korxonalarida ijara va foiz to'lovlari;
3. Sport korxonalaridagi ishchi xodimning ish haqi;
4. Sport tashkilotlaridan olinadigan barcha soliqlar kiradi.

Bozor iqtisodiyotida sport korxonalari ishlab chiqargan tovarlarni tanlash qoidasi yanada jiddiylashadi. Zero, jismoniy tarbiya va sport korxonalari ishlab

chiqargan tovarlar turlarini to'g'ri tanlanib, ulardan samarali foydalangandagina xarajatlar o'z qiymatini qoplab, yuqori foyda keltirishi mumkin.

Narxning oshishi ishlab chiqaruvchilar safining kengayishiga, narxning tushishi esa, ishlab chiqaruvchilar safining kamayishiga, ularning bir qismini bozordan bezdirishga olib keladi. Iqtisodchilar bunday ta'sirni narxning ishlab chiqarishiga turtki vazifasi deb ataydilar.

Foydaga ta'sir etuvchi bu uch unurning mohiyatini anglagan boshqaruvchigina tanlovni to'g'ri amalga oshirishi va oqil qarorni qabul qila olishi mumkin.

Boshqarish san'ati va mahorati, ya'ni menejment, shundagina namoyon bo'lishi, pirovard natijada esa yuqori foyda olishga erishilishi mumkin.

Takrorlash uchun savollar:

1. Sport menejmenti fanining mazmuni va tarkibi nimalardan iborat?
2. Sport menejmenti fanining predmeti nimalardan iborat?
3. Sport menejmenti fanining obyeksi va sub'ekti nimani bildiradi, ular orasidagi bog'liqlik qanday shakllanadi?
4. Sport menejmentida "Rahbar" va "Menejer"ning o'rni qanday?
5. Menejment va boshqaruv yagona bitta ma'noni bildiradimi?
6. Menejment va boshqaruv bir-biridan tubdan farq qiladimi?
7. Sport menejmentining mashg'ulotlarni tashkil etishdagi o'rni qanday?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. –T.: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
2. Gulyamov Z.T., Akbarov F.S. Osnovi menejmenta i ego osobennosti v usloviyax formirovaniya rinka v Uzbekistane. –T.: TGAI, 2006.
3. G'ulomov Z.T., Nabiullin R.X., Kamilova G.Z. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti. Darslik. –T.: O'zDJTI, 2015.

Elektron ta'lim resurslari:

Internet saytlari

1. www.bilim.uz
2. www.ekonomika.ru
3. www.menejment.com
4. www.performance.edu.uz-Vazirlik sayti.

1.4 .Menejment nazariyasining evolyutsiyasi va uning sport menejmenti rivojidadagi o'рни

Reja:

1. Menejment qadimiy fan.
2. Menejmentning qadim va hozirgi zamon funktsiyalari.
3. Eramizdan oldingi - 400 yildagi menejment rivoji.
4. Eramizdan oldingi -1660 yildagi menejmentning shakllanishi.
5. Eramizdan oldingi -1100 yildagi menejmentning holati.
6. Menejmentda yangi kategoriyalarni shakllanishi.
7. Zamonaviy menejment xususiyatlari.


Tayanch so'z va iboralar:

Menejment funktsiyalari, rejalashtirish, tashkillash, nazorat, motivatsiya, boshqaruvni markazlashtirish, rahbarlik, funktsional vazifalar, universallik, boshqaruvchanlik, fors-mojor.

Boshqarish nazariyasining dastlabki kurtaklari qadim zamonlarga borib taqalib, Yu.Sezar', A.Makedonskiy, Turkistonda esa, o'rta asr davrida Amir Temur hukumronligi vaqtidan boshlab shakllana boshlagan. Dastlabki paytlarda u oddiy bo'lib, asosan harbiy tavsifga ega bo'lgan. Shuni e'tiborga olish lozimki, menejmentning barcha davrlardagi rivojlanib borishi hamda uning xususiyatlari sport menejmentining shakllanishida o'z aksini topgan, shuning uchun biz quyida o'rganadigan menejment fanining rivojidadagi o'zgarishlar bevosita sport menejmentiga ham tegishli ekanligini ko'rish mumkin.


Eramizdan oldingi 4000 yilda misrliklar menejment boshqaruvning uchta funktsiyasini tan olishgan:

- menejmentda ishchi xodim faoliyatini rejalashtirish;
- menejmentda ishchi xodim faoliyatini tashkillash;
- menejmentda ishchi xodim ish natijasini nazorat qilish.



Menejmentning qadim zamondagi funktsiyalari (eramizdan avvalgi-4000 yildan 1927 yilgacha)

Ko'rinib turibdiki, menejment haqiqatan ham qadimiy fan hisoblanadi, birgina uning qadim zamon va hozirgi zamon funktsiyalariga nazar tashlaydigan bo'lsak, olti ming yilga yaqin davr ichida menejment funktsiyalariga birorta o'zgarish kiritilmagan. Faqatgina XX asrga kelib, ular qatoriga mehnatni "motivatsiyalash" va ish rejasi "tartibga solish" funktsiyalari kiritildi.



Menejmentning hozirgi zamon funktsiyalari (1927 yildan hozirgi kungacha)

Ushbu holat hozirgi kunda jadal sur'atlar bilan rivojlanib kelayotgan sport menejmentiga ham bevosita taalluqlidir, chunki har qanday sport tashkilotini oladigan bo'lsak, uning ishini rejalashtirish, tashkillash, motivatsiyalash, nazorat qilish va uchrab turadigan o'zgarish (kamchilik)larni tartibga solish orqali o'ylagan natijalarga erishish mumkin.

Eramizdan oldingi 1660 yilda misrliklar menejment sohasida yana quyidagi yangi o'zgarishlarni tan olishgan:

- menejment faoliyatida boshqaruvni markazlashtirish;
- menejment faoliyatida boshqaruvni tashkillash.

Ushbu tushunchalardan shuni ko'rish mumkinki, birinchidan, menejment masalalari bevosita boshqaruv orqali amalga oshiriladi, ikkinchidan, boshqaruvda "markazlashtirish" va "tashkillash" masalalari ko'ndalang qilib qo'yiladi. Hozirgi zamon sport menejmentida ham ushbu masalalarni hal etib borish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Hayot tajribasi shuni ko'rsatadiki, boshqaruvda haddan tashqari markazlashtirishga intilish ma'lum yutuqlarni ta'minlaydi. Masalan, topshiriqlar tez va aniq bajariladi.

Hozirgi zamon sport menejmentida markazlashtirilgan boshqaruv bilan demokratlashtirilgan boshqaruvni birligini ta'minlagan holda ish yuritish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu masala umuman, menejmentda, xususan, jismoniy tarbiya va sport menejmentida ham o'ta dolzarb muammolardan hisoblanadi, shuning uchun ular haqida quyida biz batafsil to'xtalamiz.

Eramizdan oldingi 1100 yilga kelib, xitoyliklar ham menejment sohasida quyidagilarni tan olishgan:

- menejment faoliyatini rejalashtirish;
- menejment faoliyatini tashkillash;
- menejmentda jamoa faoliyatiga rahbarlik;
- menejmentda ish natijasini nazorat qilish.

Ushbu holat shuni ko'rsatadiki, birinchidan, menejment sohasidagi shakllanib kelayotgan tushunchalarni boshqa davlat, ya'ni Xitoy vakillari ham tan ola boshladilar, ikkinchidan, menejment funktsiyalari tarkibiga "rahbarlik" va "nazorat" tushunchalarini kiritishga harakat qilindi. Lekin "rahbarlik" tushunchasi menejment funktsiyalari qatoridan o'rin olmagan bo'lsa ham, alohida menejment toifasi sifatida mustahkam o'rin egallab rivojlana boshladi. "Nazorat" tushunchasi esa, menejment funktsiyalari qatoridan yuqorida aytganimizdek, hozirgi zamonga kelib o'z o'rnini egalladi.

Hozirgi zamon sport menejmentini "rahbarlik" tushunchasi "nazorat" funktsiyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi, chunki har qanday faoliyatda rahbariyat tomondan yuqoridan pastga tushirilgan vazifalarni bajara olish natijalari qayta aloqa vositalari orqali pastdan yuqoriga hisobot ko'rinishida uzatilib turilishi shart.

Eramizdan oldingi 400 yilda Gretsiyada Sokrat boshqaruvida univerrallikni, ya'ni rahbar bir necha xil funktsional vazifalarni bajara olishi lozimligini taklif qilgan.

Ushbu takliflar ishlab chiqarish munosabatlarining o'sha davrdagi rivojidan kelib chiqqan bo'lib, korxonalarni boshqarishda undagi mavjud funktsional vazifalar to'liq ta'minlanishini taqozo etardi. Hali boshqaruv tizimlari etarli darajada shakllangan va rivojlanmagan holatda har bir funktsional vazifani amalga oshirish rahbardan katta mahorat talab qilardi, bu esa, unga albatta, yangi katta mas'uliyatlarni yuklay boshladi. Menejmentdagi univerrallik bir tomondan, funktsional vazifalarni to'liq ta'minlashga imkon yaratgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, boshqaruv tizimlarida ham umumiylikni targ'ib qila boshladi. Ushbu nazariya asosida mutaxassislar tomonidan korxonalarining tarmoqlarga mansubligini hisobga olgan holda, univerral tizimlar taklif qilina boshladi va ular menejmentda samarali ish yuritish imkonini yaratdi.

Univerral boshqaruv tizimlari ayniqsa, sobiq ittifoq davrida ma'muriy-buyruqbozchilik usullaridan keng foydalanishda juda ham qo'l kelgan.

Hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti biz, borgan sari ma'muriy-buyruqbozchilik usullaridan uzoqlashib boryapmiz, mulkchilikning barcha turlarini joriy qilgan holda korxonalarining turlari ko'payib boryapti va demokratik tamoyillarga asoslangan yangidan-yangi zamonaviy boshqaruv tizimlaridan foydalanish qo'l kelyapti. Shuning uchun hozirgi zamon menejmentida Sokratning boshqaruvdagi "univerrallik" usullari ma'lum darajada o'z dolzarbligini yo'qotib boryapti deyish ham mumkin, lekin hayotimiz uchun juda zarur bo'lgan harbiy, tashqi-ichki mudofaa, fors-major

holatlari kabi sharoitlarda qo'llanib kelinayotgan ma'muriy buyruqbozchilik usullari so'zsiz qo'l kelayotganini tan olishimiz lozim.

Bugungi kunda sport menejmentida Sokratning boshqaruvdagi "universallik" usullari ikki xil yo'nalishda qo'llanib kelinayotganini qayd etish mumkin.

- sport menejmentida funktsional vazifalar deganda, ma'lum darajada mashg'ulot va musobaqalarni sport inventarlari, sport anjomlari, shart-sharoitlar kabi barcha imkoniyatlarni yaratib berish tushuniladi. Rahbarning ushbu funktsional vazifalarning barchasini idrok qila olishi va ularni tegishli darajada hal eta olishini "universallik" desa bo'ladi. Sport menejmentida boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik usuli bilan demokratik usullarini bir vaqtning o'zida joriy etilgani "universallik"dan foydalangan holda zamonaviy tizimlar ham shakllanib borayotganini ko'rsatadi.

Eramizdan oldingi 20 yilga kelib, Gretsiyada I.Xristos boshqaruvida menejment tamoyillaridan foydalanish lozimligini taklif qilgan. Jumladan, "yakkahokimlik" tamoyili menejment nazariyasi va amaliyotida juda katta o'rin egalladi, chunki har qanday jamoa samarali mehnat qila olishi uchun u yagona bir rahbar tomonidan boshqarilishi zarur. Tarixdan bunday boshqaruv "O'nboshi", "Yuzboshi", "Mingboshi" va boshqa ko'rinishlarda mavjud bo'lganligi barchamizga ma'lum. Jamoalar faoliyat ko'rsatadigan har qanday boshqaruv tizimiga nazar tashlasak, katta-kichikligiga qaramasdan, bitta jamoaga bitta boshliq rahbarlik qilayotganini ko'ramiz. Amaliyotdan ma'lumki, agarda bitta jamoaga bir vaqtning o'zida ikkita boshliq rahbarlik qiladigan bo'lsa, ish tartibini buzilishi aniq.

Sport menejmentida ham ushbu qoida istisno emas, har qanday sport jamoasini olaylik, unga bitta kapitani, bitta treneri yoki bitta jamoa boshlig'i rahbarlik qilayotganini ko'ramiz.

Biron-bir jamoada ikkitadan kapitan, ikkitadan murabbiy yoki ikkitadan jamoa boshlig'i yuritayotganini hech kim tasdiqlay olmasa kerak.

Takrorlash uchun savollar:

1. Menejment qadimiy fanmi?
2. Menejmentning qadimgi va hozirgi zamon funktsiyalari nima?
3. Sport menejmentining qadimiyligi qanday?
4. Eramizdan oldingi 1660 yildagi menejment xususiyatlari nimalardan iborat?
5. Hozirgi zamon sport menejmentida markazlashtirilgan va demokratlashtirilgan boshqaruv nima?
6. Eramizdan oldingi 1100 yildagi menejment xususiyatlari nimalardan iborat?

7. Eramizdan oldingi 400 yilda universallik nimani bildiradi?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
2. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T.: O'zbekiston, 2009. – 24 b.
3. G'ulomov Z.T., Nabiullin R.X., Kamilova G.Z. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti. Darslik. –T.: O'zDJTI, 2015.
4. Meskon M., Al'bert M., Xedouri F. Основы менежмента. – M.: ANX, 1995.
5. Prchinkin A.V. Menedjment v sfere fizicheskoy kulturi i sporta. – M.: Sovetskiy sport, 2010.
6. Rixard X., Byome G. Kak rukovodit lyudmi (praktika menejmenta). – Germaniya: Evromenedjment, Bad Gartsburg, 2013.

Elektron ta'lim resurslari:

Internet saytlari

1. www.ekonomika.ru
2. www.menejment.com
3. www.edu.uz-Vazirlik sayti
4. www.ziyo.edu.uz-Vazirlik sayti
5. www.performance.edu.uz-Vazirlik sayti

1.5. Menejment nazariyasining o'rta asr davridagi evolyutsiyasi

Reja:

1. Yaqin Sharq allomalarining menejment nazariyasi va sport menejmentiga qo'shgan hissalarini.
2. 1100 yildagi sanoat menejmenti va sport menejmentidagi yangiliklar.
3. 1340-1400 yillarda Amir Temurning tomonidan saltanatni boshqarish uslublarini kiritilgani.
4. 1404-1499 yillarda Ulug'bek tomonidan menejmentning ilmiylik tamoyiliga asos solishi.
5. 1450-1501yillarda Alisher Navoiyning adolatli boshqarish ta'limoti.
6. 1490-1530 yillarda Zahiriddin Muhammad Boburning birlashgan davlat boshqaruviga asos solishi.
7. 1500 yilda Amerikada D.Morning menejmentda jarayonlarini ixtisoslashtirishga asos solgani.

Tayanch so'z va iboralar:

Ilmiy menejment, islomiy diniy ta'limot, davlat boshqaruvi, ibodat amallari, barkamol avlod, boshqaruv uslubi, boshqaruv strategiyasi, boshqaruv etikasi, menejment uslubi, adolatlilik, oqillik.

Yuqorida biz sport menejmentida boshqaruvchilarga qo'yilgan talablar ichida ularning jismonan va aqlan sog'lom bo'lishlari, etarli darajada bilimga ega bo'lgan holda halol, pok ish yuritishlari va bir qancha insoniy xususiyatlarni o'zlarida mujassamlashtirilgan bo'lishlari lozim degan edik.

Yurtimiz birinchi prezidenti I.Karimov tashabbusi bilan amalga oshirilgan jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, ayniqsa, barkamol avlodni tarbiyalash va shakllantirishda tegishli ta'limotlarga ham tayanish xalqimizning qadimiy orzu-umidi bo'lib kelgani va hozirgi mustaqillik davrida ro'yobga chiqayotganidan dalolat beradi.

1100 yilda Italiyada Gazeli menejmentda korxonalar boshqaruviga tegishli bo'lgan yangi talablarni ishlab chiqdi. Menejmentning shakllanishidagi yangi davrda uning boshqarish masalalari bilan chambarchas bog'liqligi va bir vaqtning o'zida tubdan farq qiladigan tafovutlar ham mavjudligi qayd etildi.

Biz yuqorida ko'rgan hozirgi zamon sport menejmentida ham "boshqaruv" va "menejment" hamda "rahbar" va "menejer" tushunchalari orasida ko'pgina o'xshashlik va tafovutlarning mavjudligi, o'sha zamondagi g'oyalarning hozirgi kunda ham dolzarb bo'lib qolayotgani va rivojlanib borayotganini bildiradi. SHuning uchun hozirgi zamon menejmentida, jumladan, jismoniy tarbiya va sport menejmentida ham mavjud atamalarning har biri alohida o'rganilib, ilmiy tomondan talqin etilib, ulardan samarali foydalanishga harakat qilinmoqda.

1340-1400 yillarda Amir Temur mamlakatni idora qilish va saltanatni boshqarish uslubi, strategiyasi va taktikasini joriy qildi. Birinchi marotaba ish yuritishda boshqaruv tizimlarini joriy etgan. Amir Temur tomonidan ishlab chiqilgan, ham menejmet sohasida misli ko'rilmagan tarkibiy qismlarini shakllanishiga olib keladi. Hozirgi zamon menejmentida o'z vaqtida Amir Temur tomonidan kiritilgan "usul", "uslub", "strategiya", "taktika", "boshqaruv tizimi" va shunga o'xshash boshqa tushunchalarning har biri menejment toifalari nomi bilan jahon miqyosida alohida yirik-yirik ilmiy yo'nalishlar hisobida rivojlanib kelmoqda. O'sha davr menejerlari harbiy intizomini o'rnatish maqsadida odamlarni jazo bilan qo'rqitish, har qanday buyruq va farmonlarga so'zsiz itoat etish kabi usullarini qo'llaganlar. Bunday boshqaruvga mehnat resurslaridan foydalanish, ulardan iloji boricha ko'proq qo'shimcha qiymat undirishning g'oyatda samarali usuli, deb qaralgan. Amir Temur davrida markazlashgan, intizomli davlatning barpo etilganligiga ham Sohibqironning

o'z qo'l ostidagilarni "qo'rquv bilan umid o'rtasida ushlab" bo'yicha boshqargani asos bo'lgan.

U mamlakatni idora qilish va saltanatni boshqarish usuli, strategiyasi va taktikasini joriy qiladi.

XIV-XV asrlar voqealari va ijtimoiy hayotni o'zida aks ettirgan qimmatli asar "Temur tuzuklari"ni yaratdi. Mazkur asarda bayon etilgan boshqarish yo'riqlari, qonun-qoidalari, pand-nasihatlari O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlash yo'lida xizmat qiladi.

Kuchli davlatni barpo etish, davlat hokimiyatining qaysi ijtimoiy toifalarga tayanishi, mansabdor shaxslarni ularning sifatlariga ko'ra, tanlash va vazifalariga tayinlash borasida amaliy jihatdan mukammal bo'lgan ta'limotni yaratdi.

Buyuk davlat arbobi, dunyoviy bilimlarning sohibi bo'lgan Sohibqiron markazlashgan davlatni barpo etishi orqali o'rta asrlarda buyuk shaxslar etishib chiqishi uchun moddiy, siyosiy, g'oyaviy zaminni yaratdi.

1404-1499 yillar Ulug'bek Muhammad Tarag'ay fan va madaniyatga e'tiborni kuchaytirdi va menejmentning ilmiylik tamoyiliga asos soldi.

Hozirgi zamon menejmentining, shu jumladan, jismoniy tarbiya va sport menejmentining beshta muhim toifalaridan birinchisi, uning boshqarish tamoyillaridir. Menejmentning, shu jumladan, jismoniy tarbiya va sport menejmentining boshqaruv tamoyillari uning asosiy elementlaridan hisoblanib, boshqaruv masalalarining o'ndan ortiq barcha o'zaklarini o'z ichiga qamrab olgan. Jismoniy tarbiya va sport menejmentning boshqaruv tamoyillarining eng birinchisi, bu ilmiylik tamoyili hisoblanadi. 39 yillik sultonlik davrida:

Ulug'bek Muhammad Tarag'ay fanning juda ko'p sohalari, xususan, matematika, falakiyot, musiqashunoslik, tarix va boshqarish ilmlari bo'yicha zabardast olim, madaniyatning ulkan homiyi sifatida tanildi.

Uning ilmiy merosi, u ta'sis etgan va rahnamolik qilgan Samarqand munajjimlik maktabi, uning ko'p yillik izlanishlarining asosiy mahsuli bo'lmish "Ziji jadidi Quragoniy ("Ulug'bek Ko'ragoniyning astronomik jadvali)" asari bilan tarixda o'chmas iz qoldirdi. Butun jahon olim va mutaxassislari tan olgan bu tamoyilga o'z davrida bobokalonimiz Ulug'bek Muhammad Tarag'ay asos solganligidan faxrlanamiz va muntazam ravishda jismoniy tarbiya va sport menejmentining ilmiy asoslarini rivojlantirib borish ustida mas'uliyat bilan faoliyat ko'rsatishimiz lozimligini his qilamiz.

Haqiqatan ham, yuqorida biz jismoniy tarbiya va sport menejerlari o'z faoliyatlarini ilmiy asosda olib borishlari zarurligini ta'kidlagan edik. Menejerdan haqiqatan ham, o'z sohasini va unga yaqin bo'lgan fanlarpsixologiya, meditsina, matematika, iqtisod, boshqaruv nazariyasi va amaliyoti, jismoniy tarbiya va sport boshqaruvi, jismoniy tarbiya va sport nazariyasi,

ekonometriya, iqtisodiy-matematik modellash usullari kabi keng ilmiy yo'nalishlarni o'zlashtirgan bo'lishi talab qilinadi.

1450-1501 yillar Alisher Navoiy adolatli boshqarishning sir- sinoatlari haqidagi ta'limotni yaratgan.

Menejmentda rahbar tomonidan boshqaruv, boshqaruv qarorlari qabul qilish, ishchi xodim bilan ishlash masalalarida adolatli, oqillikda bo'lish hozirgi kungacha etarli darajada hal bo'lgan emas, chunki bu murakkab masala bo'lib, birinchi navbatda, demokratiya sohasida o'ta ustunlikni talab etadi. Husayn Bayqaro davrida, ya'ni ma'muriy-buyruqbozchilik o'ta hukm surgan sharoitda Mir Alisher Navoiy tomonidan adolatli boshqarishni ta'minlashga intilish, uning nazariy va amaliy ta'limotini yaratishini qahramonlik darajasidagi shijoat deyish mumkin. Mir Alisher Navoiy siyosiy davlatni idora qilish usullari, tartib-qoidalari bilan bog'liq bo'lgan xilma-xil muammolari bo'yicha o'z qarashlariga ega bo'lgan siyosiy arbob. U o'z faoliyatida davlat ishlarini boshqarish, muzokaralar olib borish, mamlakat tinchligi va obodligi uchun kurashgan.

Mir Alisher Navoiy "Vaqfiya", "Ixlosiya", "Saddi Iskandariy", "Tarixi mulki Ajam" kabi asarlarida adolatli boshqarishning sir-sinoatlari haqidagi ta'limotni yaratgan. U eng oddiy siyosiy masalalardan (adolatli shohni tanlash, tarbiyalash, davlat nazorati kabi) to eng murakkab masalalar sanalmish davlatlararo munosabat, janglar masalasi, davlatni idora etishda shoh, omma va fanning roli kabi masalalarni amaliyotga tatbiq qilgan.

Hozirgi kunda menejmentda, shu jumladan, jismoniy tarbiya va sport menejmentida boshqarish qarorlarini qabul qilish nazariyasi va amaliyoti ustida katta ishlar olib borilyapti, hal etilishi lozim bo'lgan muammolar ko'p, shuning uchun ushbu masala uzoq yillar davomida dolzarbligini yo'qotmayapti. Rahbar qanchalik to'g'ri, adolatli va oqil qaror qabul qilsa, jamoa shunchalik o'z ishiga to'g'ri munosabat o'rnatadi va shunga yarasha katta yutuqlarga erishadi, aks holda jamoa rahbar qarorini to'g'ri qabul qila olmaydi va singdira olmaydi, natijada ish buziladi, natija yomon bo'ladi.

1490-1530 yillarda Zahiriddin Muhammad Bobur Birlashgan davlat boshqaruviga asos soldi. Menejment boshqaruvida shunday masalalar ko'ndalang turadiki, ularni yakka rahbar, yakka korxonalar, yakka tarmoq, hatto yakka davlat tomonidan hal etilishi juda qiyin, hatto mumkin bo'lmay ham qoldi. Demak, o'z-o'zidan birlashgan holda boshqaruv muammolarini hal etish ehtiyoji tug'iladi. Zahiriddin Muhammad Bobur o'sha, hali menejment, boshqaruv nazariyasi va amaliyoti rivojlanmagan bir davrda Birlashgan davlat boshqaruviga asos soldi. Buyuk Boburiylar saltanatini tuzib, o'zaro janglar, mayda xonliklarga barham berdi, markazlashgan davlat boshqaruviga asos soldi.

Zahiriddin Muhammad Bobur mashhur “Boburnoma” asarini yaratdi. U o‘z asarida boshqarishga oid bo‘lgan tamoyillar, xususan, odillik va tadbirkorlik, jasurlik va mohirlik, iste’dod va ma’rifat maslalarini yoritdi.

Boburiylar tomonidan ma’muriy boshqaruv sohasini isloh etish, xazina masalalari borasida – kurruriya (viloyat va tuman hokimlari) deb ataladigan hukumat amaldorligi mansabi joriy etildi va h.k.

Zahiriddin Muhammad Bobur hozirgi zamon boshqaruviga mos keladigan quyidagi takliflarni kiritdi:

- Vazifani bajarishning maqbul usullarini topish maqsadida ilmiy tahlilni qo‘llash.

- Vazifani bajaruvchi eng maqbul xodimni tanlash va uning o‘qitilishini ta’minlash.

- Vazifani samarali bajarilishini ta’minlovchi xodimlarni zarur zaxiralar bilan ta’minlash.

- Yuqori mehnat unumdorligini ta’minlash maqsadida xodimlarni muntazam rag‘batlantirib turish.

1500 yilda Amerikada D.Mor. menejmentda boshqaruvni ixtisoslashtirishga chaqirdi.

Uzoq yillar mobaynida boshqaruv masalalariga etarli e’tibor berilmagani tufayli joylarda menejment va boshqaruv masalalari bilan shug‘ullanadigan rahbarlar oldida jiddiy muammolar paydo bo‘la boshladi. Jumladan, jismoniy mehnat bilan shug‘ullanuvchi ishchilar ishga oq ko‘ylak kiyib qora galstuk taqib, rahbarlik qilayotgan menejmentlarni tan olmay qo‘ydilar va ularga quloq solmaydigan bo‘lib qoldilar, hatto ularga qarshi chiqish holatlari ham uchrab turadigan bo‘lib qoldi.

Ishchilarning fikricha, oq ko‘ylak kiyib, qora galstuk taqib yurgan xizmatchilar hech qanday ish bajarmagan holda, og‘zaki ko‘rsatmalari hisobiga juda katta oylik ish haqi olar ekanlar. Ishchilar “oq ko‘ylak, qora galstuklar” o‘zlari bilan yonma-yon turib jismoniy mehnat qilishlari shart degan g‘oyalarni ilgari sura boshladilar. Ushbu holat korxonalarni boshqarishda jiddiy qiyinchiliklar tug‘dira boshladi.

D.Mor birinchilardan bo‘lib rahbarlik va menejer bo‘lish juda murakkab soha ekanligi, aqliy mehnat hammaning ham qo‘lidan kelavermasligini asoslab berdi. Aqliy mehnat namoyandalari, rahbar va menejerlar alohida xususiyatlarga ega bo‘lgan yuksak tabaqali insonlar ekanligini ilmiy ravishda asoslab berdi. Ular bajarayotgan boshqaruv ishlarini uncha-muncha ishchilar uddasidan chiqa olmasligini isbotlab berdi, shuning uchun bunday insonlarni hurmat qilish, qadriga etish va ularga haqiqatan ham, katta oylik to‘lab borish lozim, degan fikrlarni ilgari surdi.

Jismoniy tarbiya va sport ham keltirilgan muammolarda istisno emas, mashqlar, musobaqalar vaqtida sportchilar va murabbiy, rahbarlar, menejerlar orasida ham har xil muammo va ziddiyatlar tez-tez kelib chiqishi mumkinligini hisobga olgan holda ish yuritish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Yƣqin sharq allomalarining menejment rivojiga qo'shgan hissalarini nimalardan iborat?
2. 1100 yilda menejmentda qanday o'zgarishlar bo'lgan?
3. Amir Temurning saltanatni boshqarish uslubi qanday bo'lgan?
4. Ulug'bek Muhammad Tarag'ay menejmentga qanday yangiliklar kiritgan?
5. Alisher Navoiy menejmentga qanday yangiliklar kiritgan?
6. Zahiriddin Muhammad Bobur menejmentga qanday yangiliklar kiritgan?
7. D.Mor menejmentga qanday yangiliklar kiritgan?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. –T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
2. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T.: O'zbekiston, 2009. – 24 b.
3. G'ulomov Z.T., Nabiullin R.X., Kamilova G.Z. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti. Darslik. –T.: O'zDJTI, 2015.

Elektron ta'lim resurslari:

Internet saytlari

1. www.ekonomika.ru
2. www.menejment.com
3. www.performance.edu.uz-Vazirlik sayti

1.6. Menejment nazariyasining yangi davridagi evolyutsiyasi va uning sport rivojidadagi o'rni

Reja:

1. E.Uitnining menejment boshqaruvini, ilmiy usullarini va uni sifat ko'rsatkichlarini ishlab chiqishi.
2. AQSHda ilmiy va mumtoz menejmentlarga muqobil "Insonga munosabatlar" maktabining paydo bo'lishi.
3. Yƣngi "ilmiy menejment" maktablarining shakllanishi.
4. G.Emersonning menejmentning yangi boshqaruv tamoyillari "mehnat unumdorligining 12 tamoyili".

5. X va Y nazariyalari va ularning boshqaruv tizimlaridagi o'ri.
6. Sanoat ishlab chiqarish menejmentini shakllanishi.

Tayanch so'z va iboralar:

“Ilmiy menejment” maktabi, “Mumtoz yoki ma'muriy” menejment, “Insoniy munosabatlar” maktabi, “Miqdoriy tizimlar yoki zamonaviy menejment” maktabi, texnokratik nazariya, vaziyat yondashuv, jarayonli yondashuv, sonli yondashuv.

1779 yilda Angliyada E.Uitni menejment boshqaruvining ilmiy usullarini uning sifat ko'rsatkichlarini ishlab chiqdi. Kapitalizm tuzumining boshlang'ich davrida tadbirkor-mulk egasi ishlab chiqarishni o'zining shaxsiy tajribasiga tayanib boshqargan. XVIII asrning oxirlarida Angliyada bo'lgan sanoat inqilobi boshqaruvga bo'lgan qiziqishni yanada kuchaytiradi. Boshqaruv xodimlarini tayyorlashga alohida e'tibor berila boshlandi.

Ammo XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr chegarasida texnika va texnologiyaning takomillashuvi ishlab chiqarishning keskin o'sishi boshqarishni murakkablashtirib yuboradi va uni maxsus bilimlarni talab etuvchi, faoliyatini maxsus sohasiga yo'naltiradi. Ushbu muammolarni hal etish uchun boshqaruv sohasidagi tajribani umumlashtirish va ishlab chiqarish xodimlarni boshqarishning samarali usullarini izlashga olib keladi. Natijada boshqaruv to'g'risidagi ilm fan vujudga keladi.

1820-1830 yillari AQSHda ilmiy va mumtoz menejmentlarga muqobil harakat sifatida “Teylorizm”ga ma'lum darajada qarshi turuvchi yangi nazariya - “Insonga munosabatlar” maktabi paydo bo'ldi. Bu maktabga Amerikalik jamiyatshunos va ruhshunos E.Mayo (1880-1949) asos soldi. Ushbu davrga kelib menejment boshqaruv sistemasi turli xildagi “Menejment maktab”lari ko'rinishida rivojlana boshladi. Demak, menejment evolyutsiyasida yangi davr boshlandi, ya'ni menejment maktablari bosqichiga tamal yasaldi deyish mumkin.

1856-1915 yillar. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Amerikada “ilmiy menejment” maktabi shakllana boshlagan. Bu maktab boshqacha nom bilan, ya'ni “Boshqaruvning mumtoz maktabi” deb ham yuritilgan. Bu maktab ibtidosida amerikalik muhandis va ixtirochi F. Teylor turgan edi. Uning nazariyasi keyinchalik “teylorizm” degan nom olgan. U yaratgan tizim esa ishchilarning “siqib suvini olish”ning ilmiy tizimi deb ham atalgan.

F.Teylor ta'limotining asosiy mazmuni – yollanma ishchilarning mehnat unumdorligini oshirishda g'oyatda samarador va maqbul usullarni izlash, ular asosida mehnatni ilmiy asosda tashkil etish bo'lib, quyidagi yo'nalishlarni o'zida mujassamlashtirgan edi. Mumtoz, mamuriy menejment asosida ish

yuritish. Menejmentda boshqaruv tamoyillarini shakllantirish va rivojlantirish. Menejment asosida shakllarni yalpi boshqarishda tizimli yondashuvni asoslash va undan foydalanish.

Teylorning zamondoshi va ishning davomchisi Amerikalik iqtisodchi G.Emerson mehnatni ilmiy tashkil qilish bo'yicha yirik mutaxassislardan bo'lib, u menejment boshqaruvida mehnatni tashkil qilishning kompleks, sistemali tizimini ishlab chiqqan. Uning tomonidan ishlab chiqilgan va amaliyotda qo'llashga taklif qilingan menejmentning yangi boshqaruv tamoyillari "Mehnat unumdorligining 12 tamoyili" nomli asarida yoritilgan. G.Emersonning diqqat e'tiborida, eng avvalo, ikki yo'nalish ya'ni menejment boshqaruvida mehnatni tashkil qilishning kompleks, tizimli tizimini ishlab chiqqan. Uning tomonidan ishlab chiqilgan va amaliyotda qo'llashga taklif qilingan menejmentning yangi boshqaruv printsiplari "Mehnat unumdorligining 12 printsiplari" ya'ni menejment boshqaruvida mehnatni tashkil qilishning aniq qo'yilgan maqsadi va g'oyasi, shuningdek menejment boshqaruvida doimo oqilona fikr yuritish masalasi turgan.

"Ilmiy menejment" namoyandalari o'z ilmiy ishlarini asosan korxonalar, tashkilot boshqaruvini takomillashtirishga bag'ishlashgan.

Sport menejmentida ham sportchilarni musobaqalarga tayyorlashda yuqorida keltirilgan "Teylorizm" nazariyasini rivojlantirish va undan tegishli darajada foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylaymiz.

1906-1964 yillar. Amerikalik olim D.Mak - Gregor "Inson munosabatlari" maktabiga asos soldi va ushbu maktabni rivojlantirish orqali ishlab chiqarish korxonalarida inson xulq-atvorini o'rganishga kirishdi va menejmentda yangi yo'nalishning atoqli namoyandalardan biriga aylandi. U inson xulq-atvorining ikki modeli, xodimning o'z mehnatiga ikki xil munosabatda bo'lishi mumkinligini inobatga olib X (iks) va Y (igrik) nazariyasini yaratdi.

X (iks) nazariyasiga ko'ra, yollanma ishga jalb qilingan inson tabiatan yalqov kishi bo'ladi, shu sababli u topshirilgan ishdan bo'yin tovlashga urinadi. Bunday toifadagi kishilarda izzatlablik kuchli bo'lgan holda, mas'uliyatni sezish, javobgarlikni xis etish va fahm-farosat etishmaydi. Bunday holatda xodimni doimo majburlash, nazorat qilish, jazolash, hatto jarima solish bilan qo'rqitib turishga to'g'ri keladi.

X (iks) nazariyasidan unumli foydalanish uchun menejment boshqaruvidagi ma'muriy-buyruqbozlik usullarini, hamda chiziqli (lineynaya) tizimlarni joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Y (igrik) nazariyasi X (iks) nazariyasiga butunlay qarama-qarshi bo'lgan holda, yollanma ishchilarning tabiatan faol, ulardagi tashabbuskorlik va uddaburonlik, o'z zimmasiga jiddiy mas'uliyat olish xususiyatlarini inobatga olgan holda boshqaruvni tashkil etishga mo'ljallangan. Bunday holatda

menejerning vazifasi kishilar o'z maqsadi va manfaatlariga g'oyat maqbul tarzda erishadigan shart-sharoitni yaratishdan iborat. Y (igrik) nazariyasidan unumli foydalanish uchun menejment boshqaruvidagi demokratik usullarini, hamda funktsional tizim (struktura)larni joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Sport bilan shug'ullanuvchi shaxslar ham X (iks) yoki Y (igrik) nazariyasiga mos keluvchi shaxslarning mavjudligi ehtimoldan holi emas, shuning uchun ularni mashqlar, musobaqalarga tayyorlashda individual ravishda shug'ullanish murabbiy-rahbarlarimizga qulay sharoit yaratish mumkin.

1886 yilda Amerikada R.Taun tashkilotning funktsionalligini taklif qildi. XIX asr bo'sag'alarida sanoat ishlab chiqarishi kuchli rivojlana boshladi, ayniqsa, texnika va texnologiyaning takomillashuvi, ishlab chiqarishning keskin o'sishi boshqarishni murakkablashtirib yuboradi va uni maxsus tarmoqlarga bo'lib boshqarishni, yangi bilimlarni talab etuvchi, faoliyatning maxsus sohasiga aylantirdi. Ushbu muammolarni hal etish uchun boshqaruv sohasidagi umumiy yo'nalishdan lokal (tarmoqlashgan) yo'nalishga o'tishga majbur bo'lindi. Natijada korxonalar boshqaruvida o'ndan ortiq maxsus funktsional ta'minlovchi yo'nalishlar vujudga keldi:

- ishlab chiqarishni ishchi xodim (xodimlar) bilan ta'minlash xizmati (xodimlar va ijtimoiy masalalar bo'yicha muovini);
- ishlab chiqarishni texnika bilan ta'minlash xizmati (bosh muhandis);
- ishlab chiqarishni texnologiya bilan ta'minlash xizmati (bosh texnolog);
- ishlab chiqarishdagi tijorat (tijorat ishlari bo'yicha muovini);
- ishlab chiqarishni moddiy-texnika bilan ta'minlash xizmati (MTT, logistika);
- ishlab chiqarishni energiya bilan ta'minlash xizmati (bosh energetik);
- ishlab chiqarishning iqtisodiyot xizmati (bosh iqtisodchi);
- ishlab chiqarishdagi tashqi iqtisodiy aloqa (TIA) xizmati;
- ishlab chiqarishdagi umumiy ishlar xizmati (umumiy ishlar bo'yicha muovini);
- ishlab chiqarishdagi marketing xizmati (marketing bo'yicha muovun);
- ishlab chiqarishdagi marketing xizmati (marketing bo'yicha muovun) va boshqa xizmat yo'nalishlari.

Sport tashkilotlarida ham yuqorida keltirilgan barcha funktsional yo'nalishlar jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga, musobaqalarga xizmat qiladi. Faqatgina jismoniy tarbiya va sport menejmentida ushbu xizmatlarning nomi soha xususiyatlariga mos ravishda boshqacharoq bo'lishi va jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarning katta-kichikligiga qarab, alohida ko'rinishda yoki bir nechta funktsional yo'nalishlarning birlashgan holdagi tizimidan iborat bo'lishi mumkin. Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining hajmi qanchalik katta bo'lib, ish qanchalik keng doirada olib borilsa, uning boshqaruv va

menejment tizimida funktsional xizmatlar shunchalik to'liq aks ettirilgan bo'ladi. Yoki jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining hajmi qanchalik kichik bo'lib, ishi ham nisbatan torroq doirada olib borilsa, funktsional vazifalarni barchasi saqlanib qolgan holda, uning boshqaruv va menejment tizimida aks ettirilgan funktsional xizmatlari birlashtirilgan bo'ladi, ya'ni soni kamroq bo'ladi.

Masalan, kichginagina jismoniy tarbiya va sport klublarini, jamoalarni yoki sport tovarlari ishlab chiqaradigan kichik korxonani oladigan bo'lsak, ular o'z faoliyatlarida barcha funktsional vazifalarni qondirmasdan ish yurita olmaydilar, lekin ish bajaruvchilar tashkilotning ichamlashtirilgan, birlashtirilgan holdagi boshqaruv tizimida faoliyat ko'rsatadilar. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ushbu masalani O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti misolida ko'radigan bo'lsak, moliya va iqtisodiyot ishlari bo'yicha prorektor bir vaqtning o'zida funktsional vazifalaridan iqtisod, moliya, ho'jalik, marketing, moddiy-texnika ta'minoti va shunga o'xshash barcha ishlarni amalga oshirib boradi. Institutning boshqaruv tizimiga har bir funktsional vazifa uchun alohida –alohida prorektor lavozimi kiritiladigan bo'lsa, iqtisodiy jihatdan o'zini oqlamaydigan, samarasiz ishlaydigan funktsional xizmatlar strukturasi uchun kelgan bo'lardik.

1991 yilda Amerikada D.Dunkan kollejlarda uchun boshqaruv darsligini yozdi. Ushbu davrda ishlab chiqarish korxonalarining ilmiy-texnik, boshqaruv masalalari bilan asosan kollejlarda shug'ullanib kelgan. Shuning uchun amerikalik olim D.Dunkan o'zining boshqaruv va menejment nazariyalari va amaliyotiga bag'ishlagan darsligini kollejlarda uchun yozdi. U birinchi marotaba o'zining kitobida o'sha davrdagi ishlab chiqarish korxonalaridagi muammolarni boshqaruv va menejment nazariyalarini amaliyotga joriy etish orqali hal etishni taklif qildi. D.Dunkan birinchilar qatorida yirik-yirik korxonalarda mahsus boshqaruv tizimlari tuzib, rahbar va menejerlar xizmatini alohida toifaga ko'tarish lozimligini asoslab berdi.

D.Dunkanning yana bir yirik xizmatlaridan biri boshqaruv va menejment masalalarida kategoriyalar muhim rol' o'ynashni asoslab berdi. O'sha davrga yarasha menejmentda ma'lum bo'lgan boshqaruv kategoriyalaridan “boshqaruv printsiplari”, “boshqaruv funktsiyalari”, “boshqaruv usullari”, “boshqaruv strukturasi (tizimi)” va boshqalarni ishlab chiqarishga joriy etish yuqori samara berishligini isbotlab berdi. Uning navbatdagi xizmatlaridan biri boshqaruv va menejmentni korxonada rahbarlari, mutaxassislar tomonidan tan olinadigan darajaga keltirdi. Shu davrdan boshlab boshqaruv va menejment masalalari bo'yicha darsliklar, ilmiy va maqolalar yozila boshladi, ushbu soha bo'yicha ilmiy izlanishlar kuchaya boshladi.

Hozirgi kunda Rossiya, Ukraina va O'zbekistonda ham sportni boshqarish bo'yicha bir muncha darslik, o'quv qo'llanma monografiyalar chop etilgan. Masalan: Akramov R.S. Veroy v iskrenniy futbol. –T.: “YAngi asr avlodi”, 2012; Axmatov M.S. Uzluksiz ta'lim tizimida ommaviy sport sog'lomlashtirish ishlarini samarali boshqarish. – T., 2005; Gulyamov Z.T. Osnovi menejmenta i ego osobennosti v usloviyax perexoda k rinochnoy ekonomike v Uzbekistane. –T.: TGAI, 2006; Gulyamov Z.T., Nabiullin R.X., Kamilova G.Z. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti. Darslik. –T.: O'zDJTI, 2015; YArashev K.D. Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish. –T.: Abu Ali ibn Sino, 2002; Prchinkin A.V. Menedjment v sfere fizicheskoy kultury i sporta. –M.: Sovetskiy sport, 2010; Rixard X., Byome G. Kak rukovodit' lyud'mi (praktika menejmenta). –Germaniya: Evromenejment, Bad Gartsburg, 2013; O'R OO'MTV. Maktab, akademik litsey, kasb - hunar kollejlariga jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash muammolari (ilmiy - nazariy anjuman to'plami), –T.: TDPU, 2013 va boshqalar chop etilgan. Kelajakda jismoniy tarbiya va sport menejmenti uni boshqarish va iqtisodiyoti bo'yicha ko'plab ilmiy-darslik adabiyotlarni chop etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

1916 yilda Shveysariyada G.Fayol va A. CHerg boshqaruv fanining rivojlanishiga salmoqli xissa qo'shgan frantsuz olimlaridandir. U Fransiyadagi ko'mir qazib oluvchi yirik kompaniyani boshqargan. A.Fayol o'zining boy amaliy tajribasini “Umumiy va sanoat boshqaruvi” (1916) nomli kitobida umumlashtirgan.

Fayol boshqarish va menejment: “Rahbarlar tomonidan kelajakni ko'ruvchi ishchi xodim (xodimlar) faoliyatini tashkillashtiruvchi, tashkilotni rahbarlar tomonidan idora qiluvchi, korxonaning faoliyat turlarini muvofiqlashtiruvchi, rahbariyat qaror va buyruqlarning bajarilishini nazorat qiluvchi kuchli qurol”- deb ataydi.

“Ilmiy menejment” va “mumtoz menejment” namoyandalari mehnatni ilmiy tashkil qilish usullarini ishlab chiqishdi va mehnatni texnokratik boshqarilishiga asos solishdi.

A.Fayol tomonidan kiritilgan yangiliklar joylarda oldiniga ishchilar tomonidan ma'lum noroziliklarga duch keldi, lekin keyinchalik mehnat unumi oshib, ishchi xodimning oylik ish haqlari ko'tarilib borgach, noroziliklar susaya boshladi, hatto tushungan holda qiziqishlar kuchaya boshladi.

Sport menejmenti va uni boshqarishdagi rahbar va ishchi xodim orasidagi iqtisodiy munosabatlarni bozor iqtisodiyoti talablariga mos ravishda takomillashtirib borish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

1927 yilda Amerikada E.Mayo boshqaruvning ijtimoiy kontsepsiyasini ishlab chiqdi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning quyidagi eng muhim ustivor vazifalari va yo'nalishlari belgilab berildi:

- ishlab chiqarish korxonalari menejmentining boshqaruv rejasida ishchi xodimining iqtisodiy-ijtimoiy darajasini ko'tarib borishga bag'ishlangan maxsus kontseptsiya o'rin olgan bo'lishi shart.

- aholi bandligini ta'minlash, shu tariqa odamlarning daromadini yanada oshirish va hayot sifatini yuksaltirish masalalarini hal etish.

- ishlab chiqarish korxonalari iqtisodiy rivojlanishning yuqori va barqaror sur'atlarini, samardorligini ta'minlash;

- ishlab chiqarish korxonalari ishchi xodimning hayot darajasi va farovonligini ta'minlash borasida menejmentning rolini oshirish;

- ishlab chiqarish korxonalari iqtisodiyotning izchil va barqaror rivojlanishini ta'minlashda kelgusi davr uchun puxta va asoslangan chora-tadbirlar rejasi asosida faoliyat ko'rsatish;

- oldingi davrdagi erishilgan natijalarni baholash orqali tegishli hulosalar chiqarish, ular asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini menejment funksiyalari asosida takomillashtirib borish;

- ishlab chiqarish korxonalarida har tomonlama o'ylangan va asoslangan, iqtisodiy-ijtimoiy dasturlarni bosqichma - bosqich amalga oshirish.

O'zbekistonda birinchi prezidentimiz I.Karimov tashabbusi bilan sportni rivojlantirish, juda band bo'lgan barcha rahbar, xodim va ishchi xodimning iqtisodiy-ijtimoiy ahvolini doimiy ravishda yaxshilab borishga bag'ishlangan dasturlar, jamg'armalar yaratilgan.

1935 yilda Amerikada A.Maslou inson ehtiyojlari pog'onalarini (ieraxiyasini) yaratdi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek amerikalik olim Abraxam Maslou o'sha davrgacha boshqa olimlar tomonidan yaratilgan inson ehtiyojlarini aks ettiruvchi ko'pgina modellar qatorida o'zining "Inson ehtiyojlarining ierarxik model"ini yaratdi.

Haqiqatdan ham insonlarning o'z hayotlari davomida qondirishlari lozim bo'lgan shu darajada cheksizki, ularning barchasini deyarli amalga oshirib bo'lmaydi. Bekorga aytilmagan bo'lsa kerak : "Bir kam dunyo!"-deb. Abraxam Maslouning xizmatlari shundaki, o'z modelida keltirilgan holatini hisobga olgan holda ishlab chiqarish korxonalarida ishchi xodimni mehnat unumdorligini oshirishda cheksiz izlanishlar olib borish mumkinligini isbotlab berdi.

Inson hayotida o'z ehtiyojlarini qondirish uchun u biron-bir foydali mehnat faoliyati bilan shug'ullanishi zarur ekan, u doimo izlanishda bo'lishi, boqimandachilik kayfiyatidan holi bo'lishi lozim, boshqalar hisobiga o'z ehtiyojlarini qondirishga harakat qilinsa, natijada yaxshi bo'lmaydi. Jismoniy tarbiya va sport sohalarida bu o'ta muhim masala hisoblanadi. A. Maslou ehtiyojlar modelini jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida qanchalik ahamiyatli ekanini tasavvur qilish qiyin emas. Darhaqiqat ushbu modelga jiddiy e'tibor qaratadigan bo'lsak, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilar

faqatgina ushbu modelning yuqori-beshinchi pog'onasiga bosqichma-bosqich, har bir bosqichdagi ehtiyojlarni qondirib chiqqandagina o'zlarini qoniqqan, baxtli hisoblashlari mumkin.

Haqiqatan ham, beshinchi bosqich, ya'ni "o'z imkoniyatlarini namoyish etish ehtiyoji" jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilar uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Oddiy fuqarolik hayotida o'zlarining faqatgina birinchi va ikkinchi bosqichdagi ehtiyojlarini qondirish bilan chegaralangan holda, uchinchi, to'rtinchi va beshinchi bosqichdagi ehtiyojlarini asosli ravishda qondirishni kam o'ylaydigan insonlardan jismoniy tarbiya va sport vakillari tubdan farq qiladilar.

Sport bilan shug'ullanuvchilarning barchasi o'z sohalari bo'yicha beshinchi pog'onadagi o'z imkoniyatlarini namoyish etish ehtiyojlarini qondirib, musobaqalarda "Hurmat shohsupasi"dan o'rin olishga intiladilar, shuning uchun menejerlar ularga o'zlarining ilmiy asoslangan tavsiyalari bilan hamroh bo'lishlari maqsadga muvofiq deb bilamiz.

1938 yilda CH.Bernard boshqaruvda tashkilot nazariyasini ishlab chiqdi. Menejment evolyutsiyasining muhim mahsullaridan biri CH.Bernard tomonidan ishlab chiqilgan "Tashkilot nazariyasi" bo'ldi. CH.Bernardning "Tashkilot nazariyasi"ga ko'ra, insonlar jamlangan holda birgalikda faoliyat ko'rsatadigan tashkilotlarning xilma-xilligi qayd etiladi. Korxonalarni boshqarishda ularning bir-birlariga o'xshashliklari yoki tafovutlarini hisobga olgan holda boshqaruvni to'g'ri tashkil qilish ma'lum ilmiy asoslangan nazariyaga suyanishni taqozo qiladi. O'sha davrda yuzaga kelgan va hozir ham o'z mazmuni, mohiyati va dolzarbligini yo'qotmagan "Korxonalarni ma'lum belgilari, xususiyatlariga qarab, ularni boshqarishdagi umumiylik va tafovutlar tomonlarini asoslash" ehtiyoji tug'ildi.

Er yuzida yirik ishlab chiqarish korxonalar shakllanib, jadal rivojlanib borishiga G'arb boshqaruv taraqqiyotining zamonaviy bosqichi deb qarala boshlandi. Shunday bo'lsa ham vaqt o'tishi bilan, ilmiy-texnik taraqqiyotning jadal o'sishi natijasida, unga o'z tuzatishlarini kiritib, doimiy ravishda ishlab chiqarish munosabatlaridan tortib, menejment va boshqarish ishlab chiqarish munosabatlaridan tortib, menejment va boshqarish tizimini takomillashtirib borishni taqozo qilardi. O'sha vaqtlarda ishlab chiqarishda, xususan, menejmentda ma'lum darajada bo'lib o'tgan katta o'zgarishlar xuddi hozirgi zamon menejmentida bo'layotgan yirik takomillashuvlarni aks ettirgandek tuyuladi. Shu ma'noda XX asrni menejment evolyutsiyasining tarixiy bosqichi deb hisoblash mumkin.

CH.Bernard yagona umumiy maqsadni ko'zlab insonlar jamlangan holda, birgalikda faoliyat ko'rsatadigan har xil mahsulot ishlab chiqaruvchi yoki har xil xizmat ko'rsatuvchi korxonalarni "tashkilot" – deb atash taklifini kiritdi. Ishlab chiqarish korxonalari o'z mahsulotlarining turiga qarab, tarmoqlarga bo'lina boshladi. Hozirgi kunda ham deyarli o'zgarmagan sanoat, og'ir sanoat, engil

sanoat, qishloq xo'jaligi kabi ko'pgina tarmoqlar shakllana boshladi. Tarmoqlar tarkibida faoliyat ko'rsatuvchi korxonalar boshqaruv va menejment nuqtai nazardan tashkilot deb ataladigan bo'ldi. Bunday yondashuvning yutug'i shundaki, korxonalar qaysi tarmoqqa mansub bo'lishlaridan qat'iy nazar, ularda doimiy ravishda davom etadigan boshqaruv va menejment jarayonlarining bir xillik yoki umumiylik tomonlarini hisobga olgan holda ish yuritish osonlashadi. Ushbu nazariya va amaliyot nuqtai nazaridan tashkilotlar o'z faoliyatiga qarab ikki guruhga bo'linadi:

1. Moddiy mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar, bunday tashkilotlarda tarmoqqa mansubligidan qat'iy nazar "moddiy mahsulot" ishlab chiqariladi.

2. Moddiy mahsulot ishlab chiqarmaydigan korxonalar, bunday tashkilotlarda tarmoqqa mansubligidan qat'iy nazar "moddiy mahsulot" ishlab chiqarilmaydi, shuning uchun bunday faoliyat ko'rsatadigan tashkilotlarning nomi xizmat ko'rsatuvchi korxonalar deb ataladi.

CH. Bernard tashkilot nazariyasining xususiyatlaridan yana biri, unda xizmat ko'rsatadigan ishchi xodimning bir xil darajada guruhlariga bo'linishi edi. Korxonalarda hozirgi kunda ham amalda qo'llanilib kelinayotgan ishchi xodim tarkibining quyidagicha guruhlariga bo'linishi yuzaga keldi:

Ma'muriy boshqaruv ishchi xodim (MBP xodimlari) guruhi. Ushbu guruh korxonaning rahbaridan boshlab, uning funktsional muovinlari (yuqorida ta'kidlaganimizdek texnika, texnologiya, energetika, logistika, iqtisod va h.k. yo'nalishlar bo'yicha), funktsional bo'limlar rahbarlari va uning ishchi xodim (xodim)laridan tashkil topgan bo'ladi. Ma'muriy boshqaruv ishchi xodimi guruhi korxonalarda tarixda birinchi marotaba alohida tizim sifatida faoliyat ko'rsata boshladi.

Ishlab chiqaruvchi ishchi xodim (ICHP xodimlari) guruhi. Ushbu guruh korxonalarda asosiy ishlab chiqarish jarayoni bilan shug'ullanadigan ishchi xodim hisoblanadi va sex, bo'lim, guruh, ishchi o'rinlarida faoliyat ko'rsatuvchi xodimlardan tarkib topgan bo'ladi. Ular tsex boshlig'i, tsex boshlig'ining muovini, bo'lim boshlig'i, usta, guruh boshlig'i, ishchi deb ataladigan bo'ldi.

Yordamchi boshqaruv ishchi xodim (YOBP xodimlari) guruhi. Ushbu guruh vakillari tarkibiga korxonaning umumiy to'liq xodimlari sonidan ma'muriy boshqaruv ishchi xodimi va ishlab chiqaruvchi ishchi xodim yig'indisini ayirganda qolgan xodimlar guruhi kiradi.

UPq# MBP+ICHP+YOBP

Yordamchi boshqaruv ishchi xodimi guruhi korxonada asosiy ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilish uchun kerak bo'ladigan yordamchi xizmat bilan shug'ullanadilar, ya'ni moddiy texnika ta'minoti, santexnika xizmati, farroshlik, qorovulchilik va boshqalar.

Tashkilot nazariyasi rivojlanib borib, A.Fayol, R.Laukert va boshqalar 1950 yildan hozirgacha qo'llanib kelinayotgan "Inson munosabatlari" maktabini yaratdilar. E.Meyo, R.Laykert va boshqalar mehnat unumdorligini oshirish maqsadida o'zaro munosabatlardan qoniqish hosil qiluvchi yangi usullarni qo'llashni taklif qildilar.

Kompaniyalar va korxonalarining siyosati va istiqbolini xodimlarning xulq-atvoriga asoslangan holda tashkil etish ham muhim ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda. Tashkilot nazariyasi va undagi barcha usullarning jismoniy tarbiya va sport menejmentida qanday muhimligini mutaxassislar juda yaxshi tushunadilar, deb o'ylaymiz.

Albatta, jismoniy tarbiya va sport tizimlarida o'ziga xos muhim xususiyatlar, jamoa o'rtasidagi munosabatlar va muammolar mavjud, ularning echimini topish soha mutaxassislarining vazifasidir.

Shunday qilib, XX asrdan boshlab, insonlar faoliyat ko'rsatadigan korxonalar yoki shunga o'xshash uyushmaga tashkilot rusumi berilib, ularni boshqarishda menejmentning barcha qoida, toifat va boshqa tushunchalaridan universal va to'liq darajada foydalanish imkoniyati tug'ildi. Shuning uchun ishonch bilan aytish mumkinki, sport menejmenti o'zining shakllanishi va rivojlanishida bimalol korxonalar va tashkilotlar menejmentiga tayangan holda ish yuritishi mumkin.

Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilarning faoliyatlarini ham ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. Bevosita jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilar faoliyati, ya'ni moddiy mahsulot ishlab chiqarmaydigan korxonalar.

2. Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilarni forma bilan ta'minlovchi faoliyat, ya'ni moddiy ishlab chiqaruvchi korxonalar.

Takrorlash uchun savollar:

1. E.Uitni menejment boshqaruvining ilmiy usullari qanday?
2. Menejmentning ilmiy usullari va sifat ko'rsatkichlarining o'lchamlari qanday?
3. "Insonga munosabatlar" maktabining paydo bo'lishi?
4. E.Mayo maktabining xususiyatlari qanday?
5. "Ilmiy menejment" maktabi nima?
6. "Boshqaruvning mumtoz maktabi" nima?
7. F.Teylorning "teylorizm" maktabi nima?
8. G.Emersonning mehnatni ilmiy tashkil qilish maktabi nima?
9. X va Y nazariyalari nima?

10. A.Fayol, R.Laukert va D.Dunkanlarning boshqaruv menejment rivojiga qo'shgan hissasini izohlab bering.
11. A.Maslou - "inson ehtiyojlarining ierarxik modeli"ni izohlab bering.
12. CH.Bernard - "boshqaruvda tashkilot nazariyasi"ni izohlab bering.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
2. G'ulomov Z.T., Nabiullin R.X., Kamilova G.Z. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti. Darslik. – T.: O'zDJTI, 2015.
3. Rixard X., Byome G. Kak rukovodit lyudmi (praktika menej-menta). – Germaniya: Evromenedjment, 2013.

Elektron ta'lim resurslari:

Internet saytlari

1. www.bilim.uz
2. www.ekonomika.ru
3. www.menejment.com
4. www.edu.uz-Vazirlik sayti
5. www.ziyo.edu.uz-Vazirlik sayti
6. www.performance.edu.uz-Vazirlik sayti

II. SPORT MENEJMENTINING ASOSIY TUSHUNCHALARI

2.1. Sport menejmentining boshqaruv printsiplari

Reja:

1. Printsip tushunchasi lotincha “pricium” so’zidan olinganligi.
2. Sport menejmenti printsiplarining mohiyati.
3. Printsip so’zining ma’nosini har xil talqin qilib kelinishi.
4. Sport menejmenti printsiplarining o’zaro bog’liqligi.
5. O’zbekistonda sport menejment printsiplarining ijrosi.
6. Menejmentda mavjud har bir printsipting nazariy asoslari.
7. Sport menejmenti printsiplari majmuasining yaxlitligi.

Tayanch so’z va iboralar:

Printsip, boshlanish, asos, etakchi g’oya, ilmiylik printsipi, yakkaboshlik printsipi, markazlashgan boshqaruv printsipi, demokratlashgan boshqaruv printsipi, birlik, yaxlitlik printsipi, tizimli boshqaruv printsipi.

Printsip tushunchasi lotincha “pricium” so’zidan olingan bo’lib, “boshlanish”, “asos” degan ma’noni bildiradi. Hozirgacha bu so’zning ma’nosi har xil talqin qilib kelinmokda, jumladan, ba’zi manbalarda asosiy yoki qandaydir nazariya va fanning boshlanish nuqtasi sifatida ma’no berilayapti, boshqa manbalarda esa, ishchi xodim, xodimlar xulqining boshlang’ich yoki asosiy qoidasi sifatida va guruh a’zolarining o’zaro munosabatlariga qo’yilgan asosiy talab sifatida ifodalangan. Demak, *printsip* - *bu faoliyat* yuritish, boshqaruvning asosiy qoidasi, etakchi g’oyadir. Ilmiy adabiyotlarda odatda, boshqaruv printsiplari deganda iqtisodiyotga rahbarlik qilishda asoslaniladigan asosiy qoida, yo’l-yo’riq, xulq me’yorlari tushuniladi. Boshqaruv printsiplari iqtisodiyot qonunlari ta’siri natijasida boshqaruv usullariga bog’liq hodisalar mohiyatini aks ettiradi.

Jismoniy tarbiya va sport menejmentida boshqaruv mexanizmi sxemasini quyidagicha ifodalash mumkin:

Printsiplar → usullar → uslublar → hodisalar

Sport menejmentining boshqaruv printsiplari o’zaro bog’liq va birgalikda qo’llanilishi lozim.

O’zbekistonda menejment printsiplari yurtimizdagi barcha sohalarida, jumladan, jismoniy tarbiya va sport sohalarida amalga oshirilayotgan ijtimoiy - iqtisodiy va siyosiy tub o’zgarishlarni aks ettiradi. Ular davlat tizimi, mulkchilik formalari, infratuzilma, huquqiy normalarni aks ettirgan holda ijtimoiy-iqtisodiy yo’nalishga egadir.

Menejmentda, xususan, jismoniy tarbiya va sport menejmentida rahbarlar o'zlarining amaliy faoliyatlarida umumiy printsiplardan ko'p foydalanadilar. Menejment printsiplari rahbarlar o'zlarining boshqaruv faoliyatlari va xo'jalik masalalarini echishlarida foydalaniladigan asosiy qoida va yo'riqnomalar majmuasidan iboratdir.

Menejmentda mavjud har bir printsipting nazariy asoslarini birma - bir o'rganib, ulardan alohida foydalanish mumkin, lekin amalda ular yagona, butun bir majmua sifatida qo'llanilib va rivojlanib borayapti. *Jismoniy tarbiya va sport* menejmenti printsiplarining majmuasi jismoniy tarbiya va sport boshqaruvi amaliyoti bilan bevosita aloqadordir. Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining menejment printsiplariga mos bo'lmagan harakatlari amaldagi sistema qonuniyatlariga zid keladi va boshqaruvda uzulishlarga olib keladi, pirovardida uning samaradorligi pasayadi.

Sport menejmenti printsiplari majmuasi o'z tabiatiga ko'ra, yaxlit bo'lsada, ahamiyat darajasiga ko'ra, har xildir. Ular qo'llanayotgan joyiga, tizim, tashkiliy va funktsional ko'rinishiga qarab bir-biridan farq qiladi. Iqtisodiy munosabatlarning har xilligi printsiplarning turli tumanligini taqozo etadi.

Menejment printsiplari sport boshqaruvidagi loyihalash jarayoni, joriy etish, ishlash, rivojlantirish va boshqarish tizimini takomillashtirishning ajralmas qismidir. Ishlab chiqarish munosabatlari, iqtisodiy munosabatlar, jumladan, jismoniy tarbiya va sport menejmentini rivojlanib borishi, ularning boshqaruv tizimini ham shakllanib, rivojlanib, takomillashib borishini taqozo etadi. SHuning uchun amaldagi barcha o'zgarishlar, sharoitlarni hisobga olgan holda, menejment boshqaruvining uzluksiz jarayonda doimiy joriy etishi, bevosita ishtirokini ta'minlab, printsiplar haqidagi tasavvurga ham shunga yarasha tizimli ravishda yangiliklar va aniqlik kiritilib va chuqurlashtirib borish lozim.

Printsiplar umumlashgan xarakterga ega bo'ladi, shuning uchun sport menejmentidagi o'zgarishlar va rivojlanib borishlarni har doim ham to'liq hisobga ololmaydi. Ularning ro'yxati optimal bo'lishi, bir tomondan, jismoniy tarbiya va sportni boshqarishda erkinlik yaratib, ijodiy tashabbus muhitini yaratib berishi, ikkinchi tomondan, sohani boshqarish faoliyatidagi barcha o'zgarishlarni mujassamlashtirib borishi maqsadga muvofiqdir.

Sport menejmentining eng muhim, birlamchi va ish yuritishda asosiy hisoblanadigan kategoriyalaridan biri uning boshqaruv printsiplaridir. Printsiplar asosida menejmentning navbatdagi kategoriyalari, ya'ni uning funktsiyalari, usullari, texnologiyasi va boshqaruv tizimlari shakllanib, rivojlanib boradi.

Sport menejmentining an'anaviy ravishda shakllangan va hozirgi zamon mutaxassis-olimlari tomonidan tan olinib, rivojlantirib kelinayotgan boshqaruv printsiplari quyidagilardan iborat:

1. Menejment xizmati o'zining mohiyatiga ko'ra, jismoniy tarbiya va sport faoliyatidagi ko'pgina umumiy printsiplarga amal qilgan holda rivojlanib boradi. Ulardan eng muhimi ilmiylik printsiptir, u har doim nazariyaning amaliyotdan ilgari borishini hisobga olgan holda, jismoniy tarbiya va sport menejmentini boshqaruvdagi zamon talablariga javob bera oladigan bo'lishiga xizmat qiladi. Ilmiylik printsipti jamiyatdagi ijtimoiy - siyosiy siljishlarni oldindan fan asosida ko'ra bilgan holda, amaldagi aniq sharoitga qarab boshqarish tizimini to'liq nazoratda ushlab tura oladigan darajada menejmentning asosiy zvenosini topa olishga xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ilmiylik printsiptining ahamiyati yanada ortib boradi, chunki u iqtisodni, xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlarini, jumladan, jismoniy tarbiya va sportni boshqarishni isloh qilishga asos bo'ladi. Boshqacha so'z bilan aytganda, O'zbekistonning xususiyatlarini hisobga olganda, jismoniy tarbiya va sport menejmenti nazariyasini ijodiy rivojlantirib borish susaymaydi, qaytanga yanada kuchayib, dolzarb masalaga aylanib boradi.

O'z faoliyatida ilmiylik printsiptiga rioya qilib, valyuntarizmni inkor qila oladigan har bir rahbar iqtisodiy qonunlar, jamiyat rivojlanishining obyektiv yo'nalishlari va boshqaruv printsiplari orasida o'z sohasiga taalluqli barcha milliy va jahon tajribasi yutuqlarini qo'llay olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ilmiylik printsipti birinchi navbatda, iqtisodiyotning umumiy nazariyasi, boshqaruv nazariyasi va amaliyotidan foydalanishni taqozo etadi. U har bir ierarxik bosqichda menejment obyekti sifatida boshqarish jarayonining kompleks elementi, sub'ekti sifatida esa mas'uliyat va huquq bilan qurollangan boshqaruv organlari, zvenolari va bo'g'inlar majmuasidan iborat ekanligini aks ettiruvchi muhim element sifatida namoyon bo'ladi. Personal, insonlar, xodimlar va ularning amaliy faoliyatlari orqali jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining barcha tarkibiy qismlarida ilmiylik printsipti boshqaruv tizimining faol elementiga aylanadi:

Sport menejmentining ilmiylik printsipti menejmentda har qanday tavsiya, qabul qilinadigan boshqaruv qarorlarini ilmiy tomondan asoslangan bo'lishini taqozo etadi. Jismoniy tarbiya va sport menejmentining ilmiy asosini boshqaruv nazariyasi va amaliyoti, sport nazariyasi va amaliyoti, menejment, psixologiya, tibbiyot, biologiya, iqtisod nazariyasi, iqtisodiy ta'lim tarixi, mikroiqtisodiyot, makroiqtisodiyot, tarmoq iqtisodiyoti, jumladan, sport iqtisodiyoti, bozor iqtisodiyoti, kibernetika, iqtisodiy – matematik usullar, ekonometriya, ergonomika, operatsiyalar tahlili kabi fanlar tashkil etadi.

2. Sport menejmentida boshqaruvning barcha ierarxik pog'onalarida, ya'ni, davlat, tarmoqlararo, tarmoq va korxonalar doiralarida boshqaruvning birlik (yaxlitlik) printsiplari doimiy ravishda qo'llanib kelinadi. Ushbu printsiplari yurtimizda ma'muriy-boshqaruv sub'ektlari, har xil ijtimoiy hayot va xalq xo'jaligi tarmoqlari, shu jumladan, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari doirasidagi tizimlar mavjudligiga asoslangan. Menejmentning yaxlitlik printsiplari iqtisodni, jumladan, jismoniy tarbiya va sportni boshqarishdagi tarmoq va hududiy yaxlitlik printsiplari bilan chambarchas bog'lanib ketgan.

Menejment, jumladan, sport menejmenti jarayonlari har doim murakkab sharoitlarda amalga oshiriladi, u ichki va tashqi omillar, bozor iqtisodiyoti talablarining o'zgarishi, hatto, tabiat hodisalari, siyosiy voqealar, urushlar, ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlari va boshqalar ta'sirida amalga oshiriladi. Hozirgi kunda menejmentga ta'sir qiluvchi omillarni ko'pligi boshqaruv masalalarida ularning yaxlitligini ta'minlashni o'ta murakkablashtirib yuboradi, shuning uchun ushbu muammoni echimini kibernetik usullar, elektron hisoblash mashinalari va axborot texnologiyalari yordamida har xil modellarni joriy etish orqali qidirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yurtimizda sportning barcha turlarini jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotganiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularning boshqaruvida menejment nuqtai nazaridan barcha umumiy qonunlar, printsiplar, funktsiyalar, usullar va tizimlar asosida, hamda ularning yaxlitligi ta'minlangan holda ish yuritilayotganini ko'rish mumkin.

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya institutida axborot texnologiyalari, elektron hisoblash mashinalarini dars jarayoniga va jismoniy tarbiya sport mashg'ulotlariga keng ko'lamda joriy etilayotgani fikrimizning dalili bo'lishi bilan bir qatorda kelajakda ushbu yo'nalishni yanada ham rivojlanishiga umid bog'laydi.

3. Jismoniy tarbiya va sportda markazlashgan boshqaruv bilan demokratik boshqaruvning yaxlitlik printsiplari. Markazlashgan boshqaruv bilan demokratik boshqaruvning yutuq kamchiliklari menejmentda yorqin namoyon bo'lib turadi. Shuning uchun ulardan rahbarlar o'z davrida, o'z foydalarini ko'zlagan holda juda unumli foydalanib kelganlar. Masalan, sobiq ittifoq rahbarlari uchun markazlashgan boshqaruv qo'l kelgan bo'lsa, O'zbekistonda mustaqillik, bozor iqtisodiyoti sharoitida aksincha, demokratik boshqaruvning o'rni kengayib borayotganini ko'rayapmiz. Lekin, hayot shuni ko'rsatdiki, bozor iqtisodiyoti talablariga sof ravishda, alohida na markazlashgan boshqaruv, na demokratik boshqaruvi to'liq javob bera oladi. Sportda markazlashgan boshqaruv bilan demokratik boshqaruvning yaxlitlik printsiplari, masalan, jamoa, guruhlarning mashg'uloti yoki musobaqalar vaqtida murabbiyning topshiriqlarini

(markazlashgan boshqaruv) sardor orqali o'yinchilar tomonidan, sharoitga qarab, ijodiy ravishda ijro etilishida (demokrativ boshqaruv) namoyon bo'ladi.

O'zbekistonda mustaqillik bozor iqtisodiyoti sharoitida butun iqtisodiyotimizda, ayniqsa, jismoniy tarbiya va sportda markazlashgan boshqaruv bilan demokrativ boshqaruvning yaxlitlik printsipini rivojlanishiga Prezidentimiz tomonidan keng yo'l ochib berilgan. Haqiqatan ham Prezidentimiz I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi (Xalq so'zi, 2010 yil 28 yanvar) "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir" mavzuidagi ma'ruzasida va 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir" ma'ruzasida (Xalq so'zi, 2010 yil 30 yanvar) ushbu masalani hal etishning yo'llari aniq ko'rsatilgan.

4. Sport menejmentining muhim elementlaridan biri **tizimli boshqarish printsipidir**. Menejmentning tizimli boshqarish printsipi ko'rilyotgan har qanday muammoda masalalar echimini optimizatsiyalashga qodir, har tomonlama, ko'p qirrali yondashuvni ko'zda tutadi. Tizimli yondashuv qator-qator ilmiy-texnik, ijtimoiy-siyosiy, ruhiy masalalarni oqilona (kompromiss) echimini o'z ichiga oladi. U boshqaruv jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi ichki va tashqi bog'lanishlarni, barcha omillar majmuasini inobatga olishni talab qiladi.

Sportni boshqarishda tizimli yondashuvga erishish ayni muddaodir, chunki ushbu jarayon doimiy ravishda o'z ta'sirini ko'rsatib turadigan juda ko'p ichki va tashqi omillar ta'sirida rivojlanib boradi. Katta hajmdagi, o'zgarib turadigan barcha omillarning birortasini ham e'tibordan qoldirmasdan, menejmentda boshqaruv jarayonini ta'minlab borish, albatta, tizimli yondashuv orqali amalga oshiriladi.

Sport menejmentining tizimli boshqarish printsipini shakllantirish, ilmiy asoslash va rivojlantirish ustida yuqorida nomlari zikr etilgan ko'pgina dunyoga tanilgan olim va mutaxassislar izlanishlar olib borishgan. O'zbekistonda menejmentning tizimli boshqarish printsiplari ustida zamonaviy elektron hisoblash mashinalari va axborot texnologiyalari yordamida har xil matematik modellar va usullarni joriy etish bo'yicha ilmiy izlanishlarga akademik V.Q.Qobulov asos solgan.

5. Sportni boshqarishda **standartlashtirish printsipi** bosh rolni o'ynaydi. Uning amalga oshirilishi sport inshootlarini qurish, sport inventarlarini yaratishda samaradorlikka erishish masalalarini hal etishda qulayliklar tug'diradi. U jismoniy tarbiya va sportda o'zaro bog'liq standartlar va boshqa

me'yoriy xujjalarni ishlab chiqish va joriy etishda yagona davlat siyosatini olib borishni ko'zda tutadi. Standartlashtirish printsipining joriy etilishi barcha standartlarning nisbatan mo'tadilligini optimal ta'minlagan holda, texnik shartlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni o'z vaqtida, tegishli me'yor darajasida o'zgartirib borishga xizmat qiladi.

Standartlar menejment tizimining tashkiliy-texnik asosiga aylangan. Ular amaldagi asoslanmagan ko'pchilik qarorlar, qoida, yo'l-yo'riq va boshqalarni minimallashtirishga imkon beradi. Standartlar texnik, iqtisodiy va ijtimoiy taraddudlarni o'zaro bog'laydi va muvofiqlashtiradi, ular o'z navbatida, menejment tizimi shakllanishining barcha bosqichlariga yanada faol va samarali ta'sir ko'rsatish imkonini beradi.

6. O'zbekistonda ko'p millatli aholi yashaydigan sharoitda, bozor munosabatlarining hozirgi zamon bosqichida barcha tarmoqlardagi kabi sport menejmentida ham boshqaruvning **baynalminal va milliy xususiyatlarini muvofiqlashtirish printsipi** qo'l keladi. Menejment, umuman olganda, millat tanlamaydigan soha hisoblanadi, O'zbekiston sharoitida an'anaviy ravishda yuzdan ortiq millatlar yashab kelayotgan holatda biron-bir millat vakilining kamsitilmasligi ayni haqiqat, ularning barchasiga hukumatimiz, xalqimiz tomonidan teng sharoit yaratib berilgan. Lekin biz quyida ko'rmoqchi bo'lgan boblarimizda menejmentdagi milliy xususiyatlarning zamonaviy boshqaruv tizimida juda katta ahamiyat kasb etishiga e'tibor qilmoqchimiz. Menejment nazariyasi va amaliyotida katta o'rin egallagan Evromenejment, AQSH, Yaponiya menejmentining xususiyatlari, qolaversa, sharqoniy menejmentning alohidagilini aynan boshqaruvning baynalminal usullari orqali birlashtirish mumkin.

Hozirda yurtimizda turli xil musobaqalarda ayniqsa, jahon birinchiliklarida katta-katta yutuqlarga erishayotgan sportchilarimiz orasida turli millat vakillarini ko'ramiz. Kelajakda ulardan yana ham ulkan natijalarni kutishimizda menejmentning baynalminal usullari bilan milliylikni muvofiqlashtirib olib borish printsipini keng joriy etilishi qo'shimcha katta omil hisoblanadi.

7. Jismoniy tarbiya va sportda eng oqil printsiplardan biri ishchi xodimning **moddiy va ma'naviy rag'batlantirish** printsipi bo'lib, u juda katta ahamiyatga egadir. U shuni ko'rsatadiki, jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlar, eng avvalo, manfaatlar ko'rinishida yuzaga keladi, bu esa bozor iqtisodiyotiga o'tish buyruq bilan emas, balki xizmatchilarning shaxsiy qiziqishlari orqali amalga oshiriladi. Jismoniy tarbiya va sportda ham menejmentning motivatsiyalash modellari orqali juda ko'p rag'batlantirish usullarini topish mumkin. Yuqorida keltirganimizdek, motivatsion modellar kam xarajatsiz, yoki

umuman, xarajatsiz insonlarni o'z ich-ichlaridan misli ko'rilmagan intilishlarga olib kelishi mumkin. Jismoniy tarbiya va sportda albatta, moddiy rag'batlantirish o'z samarasini ko'rsatib kelayapti, lekin hali oxirigacha to'liq o'rganilmagan va mavjud motivatsiyalash modellaridan foydalanish hamda ularning yangilarini yaratish orqali misli ko'rilmagan natijalarga erishish mumkin.

8. Xalq xo'jaligida, jumladan, jismoniy tarbiya va sportda ham **iqtisodning birlamchilik, siyosatning ikkilamchilik printsiplari** katta ahamiyatga ega. Tarixdan siyosatni birinchi o'ringa qo'yib, iqtisodni unga bo'ysindirilganda qanday salbiy oqibatlariga, iqtisodiyot qonunlarini buzilishiga olib borgani barchamizga ma'lum. Respublikamiz iqtisodiyoti rivojini to'g'ri yo'lga qo'yish maqsadida Prezidentimiz I.A.Karimov "Iqtisod boshqaruvini isloh qilish" ning beshta printsiptan eng birinchi o'ringa iqtisod ustuvorligini qo'ydi. YUqoridagi A.Maslouning "Inson ehtiyojlari modeli"da keltirilgandek, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilarning ehtiyojlarini bosqichma-bosqich qondirishda iqtisodning birinchi o'rinda turishi ayni haqiqatdir. Aslini olganda, motivatsion modellardagi har qanday omildan foydalanishni tashkil etishning o'zi birinchi navbatda, katta iqtisodiy masaladir.

9. Sportda amaldagi mashg'ulotlar, natijalarning **so'nggi yutuqqa qaratilgan bo'lishi printsiplari**. A.Maslouning "Inson ehtiyojlari modeli"ning so'nggi bosqichlarida keltirilgan, "Hurmat va o'z imkoniyatlarini namoyish qilish" ehtiyojlariga ko'ra, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilarning maqsadlari tor doiradagi masalalar bilan cheklanmagan bo'lmog'i lozim. Har bir sportchi o'zining jismoniy tayyorgarligida ma'lum ko'rsatkichlarga erishgach, kelajakda ulardan unumli foydalanishni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'yishi musobaqalarda yuksak marralarga erishishga undaydi. Ushbu masalalarni hal etishda A.Maslouning "Inson ehtiyojlari modeli"da keltirilgandek, jismoniy tarbiya va sport menejmenti ham katta imkoniyatlarga ega, jumladan, quyida biz batafsil tahlil qiladigan motivatsiyadagi "Kutish nazariyasi" modeli va boshqalar misol bo'la oladi. Sportda birgina "Kutish nazariyasi"ni joriy qilish orqali sportchilarni kelajakdagi yutuqlariga ishonitirish orqali amalda ularni katta yutuqlarga undash va eng yuqori shohsupaga olib chiqish mumkin.

10. Sport menejmentida **mo'tadillik printsiplari**. Sport bilan shug'ullanuvchilarning uzoq muddat davomida jismoniy va ruhiy holatlarini tegishli darajada ta'minlab borish menejment oldida turgan dolzarb masalalardan hisoblanadi. Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilar uchun doimo "Yuksak sport forma"sida bo'lish eng dolzarb masalalardan hisoblanadi, ushbu masalani hal etishda menejment ortiqcha xarajatlarsiz, kerak bo'lsa, katta mablag' talab qiladigan texnik-texnologik vositalarsiz o'zining

kategoriyalari, usullari va motivatsion modellari yordamida katta hissa qo'shishi mumkin.

Sportchilarning yuksak ko'rsatkichlarga intilishlarini ta'minlashda ularning jismoniy va ruhiy holatlarini talab darajasida shakllantirib, yuksaltirib borishda, ayniqsa, ushbu masalada mo'tadillikka erishishda menejment o'zining mavjud barcha motivatsion modellarini, kerak bo'lsa, maxsus yaratilgan modellarni ishga solib, misli ko'rilmagan imkoniyatlar yarata oladi. Ushbu jarayonni amalga oshirishda menejmentning boshqa mavjud kategoriyalari, ya'ni uning funktsiyalari, usullari, texnologiyalari va tizimlari o'z vazifalarini amalga oshirishlari lozim bo'ladi. Boshqacha so'z bilan aytganda, guruh rahbarlari va murabbiylar menejmentning barcha nazariy va amaliy sirlarini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishlari va ularni amalda qo'llay olishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

11. Ishchi jamoalarida, jumladan, jismoniy tarbiya va sport jamoalarida guruh hamkorligini ta'minlash printsipti. Jismoniy tarbiya va sport guruhlarida, ya'ni guruhlarda tarkibni ishtirokchilarning bir-birlariga mos kelishlarini hisobga olgan holda shakllantirilmasa, kerakli ruhiy muhitga erishib bo'lmaydi va guruhda hamkorlik yuzaga kelmaydi. Biz yuqorida qayd qilganimizdek, har bir shaxs turli xildagi shijoatga mansub bo'lgan holda, turlicha ruhiy holatda, kayfiyatda bo'ladi. Bunday insonlarni guruh jamoalarida o'z o'rinlarini topishlari, hamjihat bo'lib ishlay olishlari va boshqa guruhlar bilan hamkorligini ta'minlash uchun menejerlar o'ta murakkab, katta masalalarni hal etishlariga to'g'ri keladi. Menejment nazariyasi va amaliyotida har qanday guruh a'zolarini bir-birlariga mos ravishda oldindan tanlay bilish masalasi katta o'rin olgan va ularni hal etishning ma'lum echimlari ham mavjud.

Sport menejmentida guruh hamkorligini ta'minlash o'ta muhim masala hisoblanadi, chunki jamoaga birlashgan sportchilar musobaqa vaqtida qanchalik bir-birlarini yaxshi tushungan holda, yakdillik va yaxlitlikni tashkil qilsalar, musobaqa natijalari ham shunchalik samarali bo'ladi. Hozircha kitobimizning quyi boblarida ushbu masalalarga alohida o'rin berilganini qayd etishimiz darkor.

Rejalilik printsipti. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishni, jismoniy tarbiya va sportni rejali boshqarish - biznes va strategik rejasini tuzish - iqtisodiy siyosatlarni amalga oshirishning muhim shartidir. Bu printsipt ishlab chiqarish rivojlanishining uzoq muddatga mo'ljallangan yo'nalishlari, sur'atlari va nisbatlarini belgilashni ifodalaydi.

Ishlab chiqarishni rejalashtirish boshqarishning asosiy vazifalaridan biridir. U iqtisodiy qonun, ishlab chiqarishning hozirgi holatini ilmiy tahlil etish, ehtiyojlarni istiqbolini aniqlash, texnikaviy va tashkiliy qarorlarni qabul qilish

asosida amalga oshiriladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ayniqsa, strategik rejalashtirish - u yoki bu tarmoq rivojlanishining maqbul nisbatlarini, eng muhimi resurslardan samarali foydalanish yo'llarini belgilovchi iqtisodiy rivojlanish parametrlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

12. Boshqaruv shakl va usullarini takomillashtirib borish printsiplari. Bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruvning uch shakli mavjud: xususiy, jamoa, davlat boshqaruvi. Boshqaruvning xususiy shaklida mulkdor yakka o'zi qaror qabul qiladi va butun ish uchun javobgar bo'ladi. Boshqaruv xususiy shaklining ijobiy tomoni mulk egasi ishlar borishini o'zi to'liq nazorat qilish imkoniyatiga egaligi. Kamchiligi esa, boshqaruv tizimining uncha katta bo'lmasligi va bir kishi boshqaruvning turli vazifalarini bajarishga majburligidir. Mulkdor boshqaruvning barcha vazifalarini amalga oshirishi: rejalashtirish, tashkil etish, rag'batlantirish, yo'qotish, zarar ko'rish va boshqa shunga o'xshash holatlarga shaxsan javobgar bo'lishdadir. Kuchli raqobat sharoitida mulkdor sinmasligi uchun doimo o'z bilimlarini ko'paytirib, boshqaruv usullarini takomillashtirib, ya'ni ishchilarga ta'sir etish yo'llarini bozorda mavjud holatga mos ravishda o'zgartirib borishi kerak.

Ish yuritishning jamoa shaklida ikki yoki undan ko'p jismoniy va huquqiy shaxslar boshqaruv qarorlarini birgalikda qabul qiladilar va korxonalar yoki aksionerlar jamiyati faoliyati uchun javobgar bo'ladilar. Sherikchilik nisbatan malakali boshqaruv qarorlarini qabul qilish, boshqaruvning xususiy shakli kamchiliklarini bartaraf etishga imkon yaratadi. Boshqaruvning jamoa shaklining afzalligi sheriklar aktsiya sotish yo'li bilan qo'shimcha sarmoya jalb qilish imkoniyatiga ega bo'lishidadir. Boshqaruvning jamoa shakli direktorlar kengashi tomonidan amalga oshirilib, u asosiy boshqaruv siyosatini va boshqaruvning mavjud vaziyatga mos iqtisodiy, tashkiliy-boshqaruvchilik, ijtimoiy-ruhiy, huquqiy usullarini tanlaydilar. Boshqaruvning jamoa shaklining asosiy kamchiligi barcha sheriklar - aktsiya egalari boshqaruvda va korxonalar faoliyatini nazorat qilishda to'liq qatnasha olmaydi. Uning yana bir kamchiligi - korporatsiya, aksionerlar jamiyati yoki korxonalar aksionerlaridan "ikki yoqlama" soliq olinishidadir, chunki korxonalar foydadan, aksionerlar esa qo'shimcha ravishda dividenddan soliq to'laydilar.

Davlat boshqaruv shakli asosan, davlat yoki mahalliy mulk bo'lgan korxonalarda amalga oshiriladi. Davlat bu korxonalar faoliyati uchun to'liq javob beradi.

Xodimlar (ishchi xodim)ni tanlash va joylashtirish printsiplari. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish printsiplari muhim ahamiyat kasb etadi. Bozor munosabatlari boshqaruv kadrlariga qat'iy talablar qo'yadi, ularning ishbilarmonlik sifatleri, ishlab chiqarish oldida turgan

masalalarni belgilaydi. Jismoniy tarbiya va sport sohasida ushbu masala o'ta dolzarb hisoblanadi.

Agentlar mustaqillik va erkinligi printsipti. Bozor iqtisodiyoti sharoitida agentlarsiz ish yuritishni tasavvur qilish qiyin, shuning uchun bozorda agentlar faoliyati iqtisodiy javobgarlik bilan bog'langan holda, birgalikda amalga oshishi kerak. Keyingi yillarda jismoniy tarbiya va sport sohasida ham agentlarning o'rni kengayib borayapti.

Shaxsiy tashabbus printsipti. Bozorda ishbilarmon, omilkor, shaxsiy foyda uchun harakat qiluvchi, tadbirkor kishilar faoliyat yuritishi kerak. Jismoniy tarbiya va sportda jamoa va jamiyat manfaatlariga shaxsiy manfaat va shaxsiy tashabbusiz erishib bo'lmasligini esdan chiqarmaslik lozim.

Javobgarlik va tavakkalchilik printsipti. Tadbirkor o'z faoliyati uchun javobgar bo'lishi, bunda ma'lum tavakkalchilik ham hisobga olinishi, ya'ni tadbirkorning o'z huquq va majburiyatlari bo'lishi kerak. Jismoniy tarbiya va sport sohasida ushbu masala har qadamda uchraydigan o'ta dolzarb mas'uliyat hisoblanadi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Printsipt tushunchasi qanday ma'noni bildiradi?
2. Sport menejmentida boshqaruv mexanizmi tizimi qanday?
3. Sport menejmentining boshqaruv printsiplari o'zaro bog'liq deganda nimani tushunasiz?
4. O'zbekistonda menejment printsiplarining sport sohalarida amalga oshirilishi
5. Sport menejmentda mavjud printsiplarning nazariy asoslari nimada?
6. Sport menejmenti printsiplarining majmuasi nima uchun kerak?
7. Printsiplarning alohida va umumlashgan xususiyatlari bir- biriga mosmi?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyovning Oliy Majlisiga murojaatnomasi. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishining ustuvor yo'nalishlari. // Xalq so'zi, 23 dekabr', 2017 yil.
3. G'ulomov Z.T., Nabiullin R.X., Kamilova G.Z. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti. Darslik. –T.: O'zDJTI, 2015.
4. Gulyamov Z.T., Akbarov F.S. Osnovi menejmenta i ego osobennosti v usloviyax formirovaniya rinka v Uzbekistane. – T.: TGAI, 2006.
5. Meskon M., Al'bert M., Xedouri F. Osnovi menejmenta. –M.: ANX, 1995.

Elektron ta'lim resurslari:

Internet saytlari

1. www.bilim.uz.
2. www.ekonomika.ru.
3. www.menejment.com.

2.2. Sportda menejmentning vazifalari

Reja:

1. Boshqarish funktsiyasi tushunchasi.
2. Boshqaruvni muayyan funktsiyalar orqali amalga oshirilishi.
3. Sport menejmentning asosiy funktsiyalari.
4. Sport menejmentida asosiy ustuvor funktsiyalar: muvofiqlashtirish va tartibga solish, yoki ishchi xodimni o'z xohishi bilan faoliyatga uyg'otish;

Tayanch so'z va iboralar:

Funktsiya, vazifa, rejalashtirish funktsiyasi, tashkillash funktsiyasi, motivatsiya funktsiyasi, nazorat funktsiyasi, iqtisodiy funktsiyalar, ijtimoiy funktsiyalar, obyekt, majmua, muayyan funktsiyalar, sport tovarlari, jarayon, boshlash, uzluksiz davom ettirish, vosita, ishchi xodim, texnika, xom-ashyo, energiya, transport, zaxira, faoliyat turlari, sub'ekt, ko'p qirrali, turkumlanish, miqyos, iqtisodiy funktsiyalar, ma'naviy-ma'rifiy funktsiyalar, tashkiliy funktsiyalar, qamrab olishi, hududiy funktsiyalar, tarmoq funktsiyalari, rahbarning funktsiyalari.

“Funktsiya” – bu lotincha so'z bo'lib, biror kimsa yoki predmet, narsa (ish quroli)ning mehnat, faoliyat doirasi, vazifasi degan ma'nolarni bildiradi. Menejment funktsiyasi faqat o'z boshqaruv faoliyat doirasidagi vazifalarni o'z ichiga oladi.

“Vazifa” – esa menejment boshqaruv faoliyati doirasida bo'lgan va uning doirasidan tashqarida ham uchraydigan, amalga oshirilishi, hal qilinishi lozim bo'lgan masala, erishilishi lozim bo'lgan maqsadni ko'zda tutadi.

Shuning uchun boshqarish funktsiyasi deganda, u yoki bu obyektни boshqarishga oid aniq vazifalarni hal etishga qaratilgan bir turdagi ishlar majmui tushuniladi. Demak, boshqaruv muayyan funktsiyalar orqali amalga oshiriladi. Masalan, ishlab chiqarish jarayonini boshlash, uni uzluksiz davom

ettirish va ko'zlangan natijaga erishish uchun: ishchi xodim (xodim)lar; ishlab chiqarish vositalari, texnika; xom-ashyo; energiya; transport kabi ishlab chiqarishning boshqa moddiy ta'minot vositalari zurrur bo'ladi.

Korxonadagi barcha turdagi zaxiralarni bir-birlariga bog'lab, ularni harakatga keltirib, maqsadga yo'naltirish jarayonida menejmentning funktsiyalari kelib chiqadi.

Funktsiyalar faoliyat turlarini, subyektning boshqarish obyektiga aniq ta'sir qilish yo'nalishlarini aks ettiradi.

Boshqaruv funktsiyalari – ko'p qirrali tushunchadir. Shu sababli ularni muhim belgilar bo'yicha turkumlarga ajratib o'rganish zaruriyati tug'iladi.

Boshqaruv funktsiyalarini quyidagicha turkumlash mumkin:

1. Qo'llanish va foydalanish miqyosiga qarab: umumiy (asosiy) funktsiyalar; aniq funktsiyalar.

2. Boshqarish faoliyati turlariga qarab:

2.2.1. - jadval

Sport menejmenti funktsiyalarining asosiy mazmuni

№	Asosiy funktsiyalar	Funktsiyalarning mazmuni va o'rni
1.	Rejalashtirish	<p>1. Boshqarishning asosiy va dastlabki funksiyasidir. Har qanday boshqarish reja tuzishdan boshlanadi.</p> <p>2. Boshqaruv maqsadlari va vazifalari, ularni amalga oshirish muddatlari belgilanadi;</p> <p>3. Vazifalarni amalga oshirish usullarini ishlab chiqiladi;</p> <p>4. Bo'g'inlarda o'zaro aloqalar o'rnatiladi.</p> <p>Rejalashtirishning umumiylik xususiyati shundaki, bunda har bir boshqaruv xodimi o'zining shaxsiy ishini rejalashtiradi, o'z ish joyidagi faoliyati ko'rsatkichlarini ishlab chiqadi, rejalarni qanday bajarayotganini nazorat qilishni uyushtiradi.</p>
2.	Tashkil qilish	<p>Bu funktsiya boshqaruv objekti doirasida barcha boshqariluvchi va boshqaruvchi jarayonlarning uyushqoqligini ta'minlaydi.</p> <p>Shu nuqtai nazardan tashkil qilish ichki va tashqi shart-sharoitlarning o'zgarib turishiga qarab, amaldagi tizim tarkibini takomillashtirish yoki yangisini tuzish</p>

		demakdir. Bu funksiya joriy va strategik rejalarning ijrosini ta'minlash bo'yicha birinchi qadamdir.
3.	Muvofiqlashtirish va tartibga solish (motivatsiya)	1.Rejalashtirish boshqarishning strategiyasi hisoblansa, muvofiqlashtirish boshqarishning taktik masalalarini hal qiladi. 2.Bu funksiyaning asosiy vazifasi oqilona aloqalar o'rnatish yo'li bilan boshqariladigan tizimning turli qismlari o'rtasida kelishib ish olib borishni ta'minlashdir. 3. Tartibga solish muvofiqlashtirishning davomi bo'lib, u sodir bo'lib turadigan og'ishlarni bartaraf qiladi. Uning yordami bilan vujudga kelishi ehtimol tutilgan og'ishlarning oldi olinadi.
4.	Nazorat	1. Bu funksiyaning maqsadi "tutib olish", "aybini ochish", "ilintirish" emas, balki boshqaruv obyektida sodir bo'layotgan jarayonlarni hisobga olish, tekshirish, tahlil qilish va ma'lum tartibda shu obyekt faoliyatini o'z vaqtida sozlab turishdir. 2. Nazorat o'rnatilgan me'yoriy hujjatlardan, rejalardan og'ishlari, ularning joyi, vaqti, sababi va xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi. 3.Ta'sirchan nazoratni tashkil qilish har bir rahbarning funksional ishidir. Muntazam nazorat yo'q joyda u ko'zlangan pirovard natijalarga erishib bo'lmaydi.

- iqtisodiy funksiyalar;
 - ijtimoiy funksiyalar;
 - ma'naviy –ma'rifiy funksiyalar;
 - tashkiliy funksiyalar.
3. Obyektni qamrab olishga qarab:
- hududiy funksiyalar;
 - tarmoq funksiyalari.
4. Mehnat taqsimoti belgisiga qarab:
- rahbarning funksiyalari;
 - ijrochining funksiyalari.

Demak, boshqarish rejalashtirishdan boshlanib, faoliyatni tashkil qilish, uni rag'batlantirish bilan davom ettirilib, nazorat bilan tugaydi. Bu erda muvofiqlashtirish barcha funktsiyalar jarayonida o'z aksini topadi.

Bu funktsiyalar boshqaruvning hamma bosqichlariga xos bo'lgan umumiy xususiyatlarga ega bo'lib, boshqaruv apparatining barcha rahbarlari va mutaxassislari faoliyatida mavjud bo'ladi.

Boshqarish faoliyatining turlariga ko'ra, funktsiyalar quyidagicha bo'ladi:

Boshqarishning iqtisodiy funktsiyalari, ya'ni mablag'larning doiraviy aylanishini amalga oshirish, mahsulot ishlab chiqarish xizmatlar ko'rsatish marketing xizmatini uyushtirish va h.k.

Boshqaruv funktsiyalarining mohiyati, tasnifi va mazmunini o'rganish boshqaruvning butun jarayonini tartibga solib turish uchun zarurdir, chunki yuqorida ta'kidlaganimizdek, boshqaruv mazmuni jarayon sifatida uning funktsiyalarida namoyon bo'ladi. Menejmentda, jumladan, jismoniy tarbiya va sport menejmentida ham quyidagi asosiy (umumiy) funktsiyalarga ustuvorlik beriladi: rejalashtirish; tashkil etish; muvofiqlashtirish va tartibga solish, yoki ishchi xodimni o'z xohishi bilan faoliyatga uyg'otish; nazorat.

Boshqarishning ijtimoiy funktsiyalari, mehnat sharoitini yaxshilash, xodimlarning uy-joyga ehtiyojini qondirishga yordam berish, moddiy rag'batlantirishni ta'minlash, ijtimoiy himoyani ta'minlash va h.k.

Boshqarishning ma'naviy funktsiyalari-ma'rifiy funktsiyalari: xodimlarni insoniylik, yaxshilik, mehr-shafqatli va o'zaro munosabatlarda sabr toqatli bo'lish ruhida tarbiyalash va h.k.

Boshqarishning tashkiliy funktsiyalari, ya'ni ta'lim jarayonini tashkil qilish, o'zaro aloqalarni o'rnatish va muvofiqlashtirish, vazifalar taqsimlash, boshqarish apparati xodimlari o'rtasida mas'uliyatlarini belgilash va h.k.

Qayd qilingan funktsiyalar bir-biri bilan bog'liq va ma'lum darajada tartibga solingan ko'p elementlardan, tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, ular yaxlitlikka ega, shuning uchun ham boshqarish jarayonida ularning birortasini e'tibordan chetda qoldirilsa, menejmentda to'laqonlik ta'minlanmaydi.

Boshqarishning funktsiyalaridan yana biri – bu tarmoqli boshqarish bilan hududiy boshqarishning mutanosibligini ta'minlashdir. Har qanday korxonada xalq xo'jaligining qandaydir bir tarmoq tarkibida bo'ladi, ayni vaqtda u bir tuman hududida joylashgan bo'lib, o'sha hududga xos, mahalliy sharoitlarni inobatga olgan ishlab chiqarish – hududiy majmuiga kiradi. Boshqarish jarayonida bu funktsiya ham hududiy, ham tarmoq manfaatini ko'zda tutish lozim. Tarmoqqa doir bo'lgan boshqaruv funktsiyalari uning soha xususiyatlarini ta'minlaydi, masalan, sanoat ishlab chiqarishi, sport tovarlari ishlab chiqarish, sport o'yinlarini uning turlari bo'yicha tashkil qilish va h.k. Har bir xo'jalikning o'z

xususiyatlariga mos ravishda ish yuritilmasa, tarmoq “yo’qoladi”, ya’ni yagona texnik va texnologiya siyosatini amalga oshirish va butun tarmoqqa taalluqli boshqa xususiy masalalarini hal etish qiyin bo’ladi.

Boshqarishning hududiy funksiyalari ham zarur. Bu funktsiya muayyan tuman, viloyat hududida joylashgan turli tuman tarmoqlarga qarashli korxonalar faoliyatini mahalliy sharoitga muvofiqlashtiradi, ratsional aloqalarni o’rnatilishini ta’minlaydi.

Qayd qilingan funksiyalardan tashqari boshqarishning o’ziga xos aniq funktsiyalari ham bor. Boshqarishning o’ziga xos aniq funktsiyalari deganda, muayyan organiga va uning boshqaruvchisiga aniq birlashtirilgan ishlar mas’uliyat, maqsad va unga erishish vositalari majmui tushuniladi.

Tegishli funktsiyalarning to’la - to’kis va sifatli bajarilishiga umumiy rahbarlar - direktor, uning o’rinbosarlari, bo’g’im va bo’limlar boshliqlari shuningdek, xizmat ko’rsatish bo’limlari rahbarlari va boshqalar mas’uldirlar.

Menejment, sport menejmentida har qanday boshqaruvning mohiyati uning funktsiyalari (vazifalari)da namoyon bo’ladi. Jismoniy tarbiya va sport sistemasida boshqaruv funktsiyalarisiz menejmentning jarayon va mazmun – mohiyatini tasavvur qilib bo’lmaydi. Jismoniy tarbiya va sportning rivojlanib va takomillashib borishi, uning ixtisoslashuvi hamda umumiylashuvi (kooperirovanie) so’zsiz ravishda boshqaruv funktsiyalarining mohiyatini yuksalishiga olib keladi, keyinchalik ular borgan sari murakkablashib boradi va mutaxassislarning maxsus ilmiy faoliyatiga aylanadi.

Sport menejmenti tizimida ishlarning funktsiyalar bo’yicha maxsus guruhlarga bo’linishi va ixtisoslashib borishi – bu obyektiv jarayondir. U bozor munosabatlari hamda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanib borayotgani va ushbu jarayonni boshqarishning murakkabligi bilan bog’liq. Sport menejmenti funktsiyalarining mohiyati jamoadagi asosiy zaxiralarning unumli shakllanishida, individual ishchi xodim orasidagi hamjihatlikda namoyon bo’ladi. Ular har xil texnik va tashkiliy omillar yordamida bevosita ishchi xodim tomonidan amalga oshiriladi.

Sportda boshqaruv funktsiyalarining har tomonlama, batafsil tahlili menejmentning har bir elementini unumli shakllantirishga, ularning kompetentlik darajasini aniqlash va konkretlashtirishga imkon beradi. Shu bilan bir qatorda, obyektlarga yana ham mazmunli ta’sir o’tkazish, ilmiy – texnik taraqqiyot yutuqlaridan to’liq foydalanish va bozorning omillarini hisobga olish maqsadida menejment faoliyat doirasini to’g’ri belgilashga imkon beradi.

Sportda har bir boshqaruv funktsiyalarining mohiyati to’g’risida aniq tasavvurga ega bo’lmasdan turib, ishchi xodimni to’g’ri tanlash, uni o’qitish, qayta o’qitish va malakasini oshirishni yaxshi tashkil etish mumkin emas.

Personal, ijrochilar orasida funktsiyalarini amalga oshirish har doim maxsus kvalifikatsiyani talab etadi.

Menejment bilan shug'ullanadigan olim – mutaxassislar uchun jahonda taniqli tadqiqotchilar F.Teylor, G.Gerch va A.Fayol asarlari katta qiziqish tug'diradi. Amalda "Ilmiy menejment"ning turli xil kontseptsiyalari, aynan shu tadqiqotchilarning boshqaruvning funktsional tahlillari asosida yuzaga kelgan. Frantsuz muhandisi Anri Fayol menejmentda ishlab chiqarish birlashmasi funktsiyalari nazariyasiga katta hissa qo'shgan. Uning ilmiy qarashlari menejment amaliyotida o'z aksini topdi va korxonalaridagi zaxiralardan samarali foydalanish masalalarini hal etishdagi ma'muriy ishlarni yaxshilanishiga hissa ko'shdi. A.Fayolning "Boshqarish haqida ta'limot" kitobchasida birinchi marotaba ma'muriy doktrina e'lon qilindi. Aniqrog'i, u korxonani boshqarish – bu o'rnatilgan menejment funktsiyalarini to'g'ri bajarilishini ta'minlash ekanligini tasdiqladi.

Boshqaruvda har xil funktsiyalarning alohidaligini o'rganish va ularning tahlili, so'zsiz, menejment muammolarini ilmiy tadqiq etishda muhim bosqich bo'ldi. F.Teylor, G.Gerch va A.Fayol davridan boshlab, funktsiyalar muammosi menejmentdagi eng dolzarb va eng qarama-qarshi masalalardan bo'lib kelmokda.

Amerikalik G.Gerch menejmentning funktsional asoslarini o'rganib, uning funktsiyalarini obyektiv xarakterga ega ekanligini ta'kidladi. U xususan shunday yozadi: "Ma'lum tushunchalarni boshqachasiga aytadigan bo'lsak, insonlar keladi va ketadi, lekin funktsiyalar o'zgarmasdan qolaveradi". Funktsiyalar menejment maqsadlarining tarkibiy qismini tashkil etganligi sababli, haqiqatan ham boshqaruvning ma'lum darajadagi mo'tadilligi, ularning eng asosiy belgilaridan hisoblanadi. Lekin, shuni ham esda tutish lozimki, menejment funktsiyalari o'zgaruvchanlikka moyildir, hatto vaqt o'tishi bilan ba'zilar o'z borlig'ini yo'qotishi ham mumkin. Bunday hollarda ularning o'rniga yangi boshqaruv "funktsiya"lari keladi.

Har qanday menejment funktsiyalari boshqaruv ishchi xodimining o'ziga xos faoliyat turini ifodalaydi. Ushbu faoliyatning xususiyati shundan iboratki, har bir funktsiya o'sha maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan, shuning uchun u o'zining aniq rolini o'ynaydi va umumiy boshqarish faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi.

Sportda menejment funktsiyalarining mazmuni mashg'ulot, musobaqa turlari, ulardagi turli jarayonlarining u yoki bu masalalari bilan belgilanadi. Ushbu jarayon uzluksiz harakatda bo'lganligi tufayli, uning sifat o'zgarishlari boshqaruv usullarining sifat o'zgarishlarini taqozo etadi va ular asosida menejment funktsiyalarini ham o'zgartirishga olib keladi.

Sport menejmentining funksiyalari boshqaruvchi va boshqariladigan tizimiga chambarchas bog'langan bo'lib, aniq vazifalar bilan xarakterlanadi. Ularni bajarmasdan turib menejmentda samaradorlikka erishish mumkin emas, yoki erishilganda ham natija past bo'ladi. Ushbu jarayon aniq maqsadlarga erishish borasida boshqaruv sub'ektining boshqaruv obyektiga yo'naltirilganini ifodalaydi. Aynan menejment funksiyalari jismoniy tarbiya va sportni boshqarish uchun nimalar qilish kerak degan savolga javob berishi lozim.

Amalda sportni boshqaruv tizim bo'linmalarining tarkib va funksiyalarining hajmi ko'p jihatdan menejment funksiyalarining o'z hajm va mazmuniga bog'liq bo'ladi.

Odatda ushbu holat quyidagi obyektiv va sub'ektiv xarakterga ega bo'lgan omillarga bog'liq bo'ladi:

- sportni mashg'ulotlari va musobaqalarning hajmi va qay darajada qamrab olinganligi;
- sportdagi bir-biriga yaqin sohalarining ixtisoslashganlik darajasi va masshtabi;
- sport mashg'ulotlarini tashkil qilish usullari, boshqaruvni texnikasi bilan jihozlanganligi va avtomatlashtirilganlik darajasi;
- ishchi xodim (xodimlar)ning malakasi, ularning mustaqillik;
- darajasi, mavjud ijtimoiy mehnat taqsimoti tizimida tutgan o'rni;
- xorijdagi jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari bilan o'rnatilgan aloqalarining hajmi.

Shunday qilib, sport boshqaruvining funksiyalari mashg'ulotlar va musobaqalarni boshqaradigan va boshqariladigan tizimlarini chambarchas bog'laydigan aniq mas'uliyatlar bilan xarakterlanadi. Ushbu tizimlarsiz jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari va musobaqalaridagi menejment jarayoni samarasiz yoki o'ta past samarada bo'ladi.

Yuqorida qayd etilgan sport menejmenti funksiyalarining xususiyatlarini inobatga olgan holda, O'zbekiston sharoitida yuzaga kelgan sohani boshqarish funksiyalarini quyidagicha ifodalash mumkin:

- sportda ishchi xodim faoliyatini rejalashtirish va istiqbol rejalar tuzish;
- sportda ishchi xodim faoliyatini tashkillash va uyushtirish;
- sportda ishchi xodim faoliyatini motivatsiyalash (jonlantirish);
- sportda ishchi xodim faoliyatini nazorat qilish.
- sportda atrof-muhitni o'rganish va bozor dinamikasini tahlil qilish.
- sport mahsulining talabgorlarini taklif va talab nuqtai nazardan tahlil qilish, ularning ehtiyojlarini qondirish.
- sportda tovarlar ishlab chiqarishni rejalashtirish.
- sportda tovarlar ishlab chiqarishni tashkil qilish.

Demak, menejment jarayoni mazmuni uni funksiyalarda ko'rinadi. Menejment funksiyasi deyilganda, boshqaruvga doir ma'lum masalalarni yechishga yo'naltirilgan bir turli ishlar yig'indisi tushuniladi. Boshqaruv organlari va ijrochilar mas'uliyatli boshqarish funksiyasini belgilaydi. Bu vazifalar funktsional bo'lim to'g'risidagi Nizom va mansabdor boshqaruvchilar uchun ko'rsatmalarda o'z ifodasini topadi. Boshqaruv jarayonining funktsional tahlili har bir funktsiya uchun ish hajmi asoslarini tashkil etadi, boshqaruvchilar sonini belgilaydi va boshqaruv tizimini loyihalashtiradi.

Menejmentda korxonalarining boshqaruv organlari ularning asosiy va aniq funksiyalarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Asosiy funksiyalar ham moddiy ishlab chiqarish jarayonida, ham xizmat, muomala va nomoddiy ishlab chiqarishda amalga oshiriladi.

Keyingi yillarda menejment funksiyalariga kuchli ta'sir o'tkazayotgan omillardan boshqaruvning muhim yangi funktsional yo'nalishi bo'lgan marketing xizmati ham katta o'rin egallamoqda. Marketing - bu inson ehtiyoji va talablarini ta'minlash va foyda olish maqsadida bozor bilan amalga oshadigan, tovarlar sotilishini ta'minlash, ayriboshlashni tezlashtirishga qaratilgan faoliyat. Masalan, marketing korxonaning asosiy funktsional tizimi sifatida tovarni qayta ishlash, bozorni tahlil etish, kommunikatsiyani yo'lga qo'yishni, taqsimlashni tashkil etish, baholarni belgilash, servis xizmatini rivojlantirish bilan shug'ullanadi, bular o'z navbatida, albatta, boshqaruv funksiyalariga ta'sir etadi.

Menejmentning rejalashtirish funksiyasi - bu ijodiy loyihalashtirish, korxonaning istiqbolini, iqtisodiy tizimini belgilash hamda barcha zaxiralarni bir-biriga bog'lagan holda ish tartibini aniqlash. Rejalashtirish barcha xo'jalik sub'ektlari strategiyasida o'z aksini topadi.

Menejmentning tashkil etish funksiyasi - bu texnik, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqarish tizimlarini tartibga va harakatga keltirish. Menejmentda tashkil etish funksiyasi, avvalo, eng maqbul tashkiliy tuzilmalar qurish, moddiy, mehnat, moliyaviy zaxiralardan samarali foydalanish, boshqarish tizimlari orasidagi munosabatlarni uyushtirish.

Menejmentning muvofiqashtirish funksiyasi - ishchi xodim, texnik, iqtisodiy, ijtimoiy masalalarni hal etishda barcha boshqaruv funksiyalarining birga mos kelishini ta'minlash. Muvofiqlashtirishning eng yuksak omili rag'batlantirish bo'lib, u inson omilini keng demokratiya asosida faollashtirish, uning manfaatlari yo'lida g'amxo'rlik qilishni bildiradi.

Menejmentning hisob va nazorat funksiyasi - bu boshqariluvchi tizimi holatining nazorat qilish va hisobga olish, ishni bir me'yorda ta'minlashni amalga oshirish.

Agar boshqariluvchi obyekt o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsa, boshqaruv funktsiyalari ham ularga moslashib boraveradi. Biroq, korxonada timsolida quyidagi xususiy funktsiyalarni ajratish mumkin:

- a) asosiy ishlab chiqarishni boshqarish;
- b) yordamchi ishlab chiqarishni boshqarish;
- v) mahsulot sifatini boshqarish;
- g) mehnat va ish haqini boshqarish va boshqalar.

Har bir aniq funktsiya menejment umumiy funktsiyalarining tarkibiy qismi bo'lib, ular o'z navbatida, yana bir necha tegishli qismga bo'linishi mumkin. Masalan, asosiy ishlab chiqarishning umumiy funktsiyalari menejment boshqaruvi, marketing, rejalashtirish, rag'batlantirish va kerak bo'lsa, boshqa funktsional ta'minlashlarni ham o'z ichiga oladi. Lekin bir vaqtning o'zida hamma funktsiyalar va funktsional ta'minotlar o'zaro aloqada bo'ladi.

Bozor muhitining tez o'zgarishi, ya'ni aholi daromadini o'sishi yoki pasayishi, harid qilish qobiliyatining ortishi yoki kamayishi, mahsulot va xizmatlarga bo'lgan talabning o'sishi yoki pasayishi, demografik sharoitning barqarorligi yoki o'zgaruvchanligi korxonalar oldiga doim "yangi muammolar" keltirib turadi.

Masalan, aholi turmush darajasining o'sishi qimmat tovarlarga ehtiyojni oshiradi. Shunday tovarlarga talabni qondirgan korxonada katta foyda oladi. Bozor munosabatlarining o'zgarishi ishlab chiqarish va boshqarishni o'zgarishini talab etadi, menejment funktsiyalarini o'zgartirishga ehtiyoj tug'iladi.

Bozor munosabatlarini rivojlanib, takomillashib borishi, barcha nizom, yo'riqnomalar, eskirgan qonunga zid me'yoriy huquqiy hujjatlarni qayta ko'rishni talab etadi. Boshqarish, lizing, moliya va kredit, narx belgilash va rejalashtirishda yangi nizomlar qabul qilinadi. Quyi va yuqori tashkilotlar o'rtasida oshkoralik kengayadi, boshqaruv organlari funktsiyasi o'zgaradi. Menejment funktsiyasining "boshqarish" roli ham tubdan o'zgaradi. Xalq xo'jaligining barcha bo'g'inlari, jumladan, huquqiy boshqarish tizimlari boshqatdan ko'riladi.

Asosiy e'tibor ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi zaruriy munosabatni o'rnatishga qaratiladi. Ishlab chiqarish va ta'minot, mehnat va ish haqi, ishchi o'rni, soni va mehnat zaxiralari, talab va taklif o'rtasidagi ziddiyatlar bartaraf etiladi.

Boshqaruv organlarining nihoyatda samarali ishlashi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va unga erishish vositalarini muvofiqlashtirishni ko'zda tutadi. Pirovard natijasiga qarab, xodimlarni mehnatiga yarasha rag'batlantirish ko'ndalang turadi. Bunda moddiy rag'batlantirish bilan birga xodimlarni ma'naviy rag'batlantirish usuli qo'llaniladiki, aksariyat hollarda u katta samara beradi.

Shunday qilib, menejment funksiyalari hech qachon soʻnmaydi, u doimo bozor muhitini, aholining harid qila olish darajasini va boshqa holatlarni ayniqsa, ularning iqtisodiy-ijtimoiy intilishlari va ruhiy holatlarini hisobga olgan holda oʻzgaradi, rivojlanadi va takomillashadi.

Oʻzbekistonda amalga oshiralayotgan bozor iqtisodiyoti munosobatlari sharoitida, qayd etilgan funksiyalar, maqsadlar va vazifalarni tijorat va tadbirkorlik sohasidagi faoliyatga qiyoslash, ularni muhit sharoitiga qarab tahlil qilish hamda qoʻllash yoʻllarini oʻrganish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, bozor iqtisodiyoti sharoitida jismoniy tarbiya va sport sohasida ham katta tarkibiy oʻzgarishlar amalga oshirilayotganini koʻrish mumkin. Demak, Oʻzbekistonda izchillik bilan amalga oshiralayotgan bozor iqtisodiyoti munosobatlari asosida futbol, kurash, tennis, sharqona yakka kurash kabi sportning boshqa barcha turlari boʻyicha jismoniy tarbiya va sport menejmentini shakllantirib borib, uning funksiyalarini takomillashtirib borish maqsadga muvofiq boʻladi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Sport menejmentning boshqaruv funksiyalari nimalardan iborat?
2. Sport menejmentida rejalashtirish funksiyasining oʻrni qanday?
3. Sport menejmentida tashkillash funksiyasi kerakmi?
4. Sport menejmentida motivatsiya funksiyasining oʻrni qanday?
5. Sport menejmentida nazorat funksiyasi nechanchi oʻrinda turadi?
6. Vazifa – sport menejment faoliyati doirasida nimani bildiradi?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, Oʻzbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yoʻllari va choralari. – T: Oʻzbekiston, 2009. – 56 b.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyovning Oliy majlisiga murojaatnomasi. III Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yoʻnalishlari. // Xalq soʻzi, 23 dekabr, 2017 yil.
3. Gʻulomov Z.T., Nabiullin R.X., Kamilova G.Z. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti. Darslik. –T.: OʻzDJTI, 2015.
4. Gulyamov Z.T., Akbarov F.S. Osnovi menejmenta i ego osobennosti v usloviyax formirovaniya rinka v Uzbekistane. – T.: TGAI, 2006.
5. Meskon M., Alʼbert M., Xedouri F. Osnovi menejmenta. – M.: ANX, 1995.

Elektron taʼlim resurslari:

Internet saytlari

1. www.bilim.uz
2. www.ekonomika.ru

3. www.menejment.com
4. www.performance.edu.uz-Vazirlik sayti

2.3. Menejment usullarining mazmuni, mohiyati

Reja:

1. Sport menejment faoliyatini tegishli usullar orqali amalga oshirilishi.
2. Sport menejment usuli sport boshqaruvidagi abstrakt holat va rahbar faoliyatining turli tomonlarini ifodalovchi omil.
3. Ierarxik pog'onaning yuqori qismidan pastki pog'onalarga tushgan sari sport menejment usullariga aniqlik kirib borishi.
4. Sport menejmenti usullari – ma'lum harakat yo'nalishi.

Tayanch so'z va iboralar:

Jismoniy harakat, faoliyat, boshqarish, jarayon, ongli ravishda, amalga oshirish, faol, uzluksiz, mujassamlashgan, mehnat faoliyati, ta'minlash, tegishli usullar, amalga oshirilishi, usullarining muammosi, "Boshqarish usuli", faoliyat uslubi, qaror qabul qilish, maqsadlar, vazifalar, ro'yobga chiqarish, kategoriyalar, ifodalanish, umumlashgan nazariya, abstraktsiya, abstrakt holat, rahbar, ierarxik, pog'ona, harakat yo'nalishi, ta'sir ko'rsatish yo'li, kuchsiz ta'sir.

Boshqaruv usullari bu boshqaruv sub'ektining boshqaruv obyektiga maqsadli yo'naltirilgan ta'sir o'tkazishning usullari, ya'ni boshqaruvchining u boshqarayotgan ishlab chiqarish jamoatchiligiga qo'yilgan maqsadlarga erishish jarayonida uning faoliyati koordinatsiyasini ta'minlashdir.

Boshqaruv usullari vositasida iqtisodiy jarayonlarga va ishlab chiqarish qatnashchilariga moddiy, moliyaviy, energiya, mehnat resurslarini imkoni boricha kam sarf qilib yuqori natijalarga erishish maqsadida ta'sir etiladi. Ishlab chiqarish samaradorligi ko'p jihatdan boshqaruv usullari mukammalligi va to'g'ri shakllanganligi bilan uzviy bog'likdir.

Boshqaruv usullari boshqaruv fanida muhim o'rinni egallab, boshqaruv qonun va tamoyillari bilan uzviy bog'likdir. Mehnat jamoasiga ta'sir etish usullari orasida boshqaruv mexanizmi uchun bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruv obyektiv qonunlari talablariga muvofiq keluvchilarigina eng maqbul va maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Buning mohiyati shundaki, boshqaruv usullari bozor iqtisodiyotiga mansub qonunlar tizimi bilan uzviy bog'liqdir.

Boshqaruv usullari tashqi va ichki omillar ta'sirida o'zgaradi. Tashqi omillarga: tashqi va ichki sharoit o'zgarishi, iqtisodiyotni boshqarishda tub

islohatlarni amalga oshirish, xalq xo'jaligining texnikaviy qurollanganlik darajasini boshqarish tizimida o'zgarishlar (iqtisodiy islohatlar, iqtisodiyotni boshqarishning tarmoq tizimidan hududiy tizimiga o'tish va x.k.) kiradi. Ichki omillarga: yirik ishlab chiqarish birlashmalarining tashkil etish asosida ishlab kontsentratsiyasini amalga oshirish; korxonalar kattaligi o'zgarishi natijasida uning bir guruhdan ikkinchisiga o'tkazilishi; ishlab chiqarish ixtisoslashish darajasi o'zgarishi; mehnatning texnika bilan ta'minlanish darajasi yaxshilanishi; ishlab chiqarishni rejalashtirish va jadal tartibga solishning mavjud usullarini takomillashtirish va yangilarini joriy qilish (tarmoqli rejalashtirish va boshqarish; ishlab chiqarishni uzluksiz tezkor rejalashtirish, ishlab chiqarishni boshqarishni avtomatlashtirilgan tizimini qo'llash va h.k.) kiritish mumkin.

Boshqaruv usullari bevosita ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga ta'sir etuvchi ishlab chiqarish usuli rivojlanishi va jamiyat ishlab chiqarish kuchlari usishi bilan o'zgarib boradi. Iqtisodiyot muvaffaqiyatli rivojlanishda boshqaruv usullarini to'g'ri tanlash ham muhim ahamiyatga ega.

Boshqaruv usullarini iqtisodiyotning ma'lum aniq sohalarida amal qilishning turli yo'llari orasidagi umumiy hodisa sifatida ajratish mumkin. Masalan, boshqaruv darajalari bo'yicha boshqaruv usullari (davlat sektorini boshqarish usullari, tsex, korxonalar, birlashmalar, mintaqani boshqarish usullari), yoki tarmoqlarni boshqarish usullari (sanoat, transport, qishloq xo'jaligini boshqarish usullari) haqida so'z yuritish mumkin. Shuningdek, turli sub'ektlari tomonidan qo'llaniladigan boshqaruv usullarini ajratib ko'rsatish mumkin. Davlat boshqaruv usullari jamoat tashkilotlarini boshqarish usullari. YOki iqtisodiyotning ayrim sohalarida qo'llaniladigan boshqaruv usullarini (ishlab chiqarishni, moliyaviy sohani, fan va maorifni boshqarish usullari)ni ham ko'zda tutish lozim.

Boshqaruv tashkilotlari tizimi bilan turli-tumanligi bu tashkilotlar faoliyati usullarini ajratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bu erda so'z vazirliklar, assotsiatsiyalar, aksionerlar jamiyati, davlat qo'mitalarini boshqarish usullari haqida so'z boradi.

Va nihoyat, turli turkumga kiruvchi ishlovchilar boshqaruv faoliyatida menejerlar, direktorlar, bo'lim boshliqlari tomonidan qo'llaniladigan boshqaruv usullarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Demak, boshqaruv nazariya va amaliyotida turli boshqaruv usullari mavjuddir. Ular boshqaruv usullarining har bir guruhi o'z xususiyatlariga ega bo'lgan tizimni tashkil etgan.

Xalq xo'jaligini boshqarishda quyidagi usullardan foydalaniladi: iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy, ruhiy va huquqiy. Boshqaruvning bu usullari o'zaro uzviy bog'liqdir, shu sababli ularning birortasiga ortiqcha ahamiyat berish butun ishlab chiqarishning normal borishi buzilishiga olib keladi. Hozirgi

davrda bozor iqtisodiyotini boshqarishning iqtisodiy usullari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yuqorida qayd etilgandek, sport menejmenti – bu eng avvalo, jismoniy harakat faoliyatini boshqarish uchun zarur hisoblangan, ongli ravishda amalga oshiriladigan, faol, uzluksiz, mujassamlashgan mehnat faoliyatidir. Ularning hamjihatlik va maqsadli faoliyatini ta'minlash tegishli usullar orqali amalga oshiriladi. Menejment usullarining muammosi jismoniy tarbiya va sportni boshqaruv nazariyasining bir qismi hisoblanadi. “Boshqarish usuli” tushunchasi hozirgi davrda amaliy faoliyat uslubi, qaror qabul qilish, maqsad va vazifalarni ro'yobga chiqarish kabi kategoriyalar orqali ifodalanadi.

Menejmentni boshqaruvning umumlashgan nazariyasi deb qaraydigan bo'lsak, usul tushunchasi ham uning ajralmas qismi ekanligini, ya'ni abstraktsiya ekanligini ko'ramiz. Demak, menejment usuli va sport boshqaruvi nazariyasida uchraydigan abstrakt holat va rahbar faoliyatining turli tomonlarini ifodalaydi. Ierarxik pog'onaning yuqori qismidan pastki pog'onalarga tushgan sari menejment usullariga aniqlik kirib boradi.

Ko'pchilik mutaxassislarning fikricha, menejment usullari – bu eng avvalo, ma'lum harakat uslubi (yo'nalishi)dir.

Menejment usuli eng avvalo, ma'lum ta'sir ko'rsatish yo'li bo'lganligi uchun kuchsiz ta'sir ko'rsatayotganini albatta ko'rsatish lozim bo'ladi. Har qanday ta'sir, birinchi navbatda, qo'yilgan maqsadga erishish yo'lidir. Menejmentning maqsadi tegishli usullarni tanlashga aniqlik kiritadi.

Demak, menejment usuli albatta, ta'sir o'tkazishning asosiy maqsadini ifodalashi lozim. Ushbu maqsadning mohiyati bozor iqtisodiyoti sharoitida sportchilarning sport tovarlariga va xizmatlariga bo'lgan ehtiyojini qondira oladigan jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining aniq masalalari bilan belgilanadi.

Qayd etilgan xususiyatlari ularning boshqaruv printsiplaridan tubdan farq qilishini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Menejment printsiplari amalda mustahkam o'rin egallagan usullar bo'lib, ular boshqaruvning barcha qism va bo'g'inlarida o'rin egallagan menejment usullariga yanada mo'tadilroq toifadir. Obyekt faoliyatining boshqaruv sharoitlarini o'zgarib borishi qo'llaniladigan usullarni yangilab borish ehtiyojini tug'diradi. Boshqacha aytganda, menejment usullari uning printsiplariga qaraganda ko'proq o'zgaruvchandir.

Bir tomondan, menejment printsiplari o'zining boshqaruv masalalariga kirib borishida, mustahkam o'rin egallashida tegishli usullar orqali harakat qiladi, ikkinchi tomondan, ularning o'zi shu usullarning obyektiv asosini tashkil qiladi. Har qanday menejment printsiplarining samaradorligi usulning to'g'ri tanlanganligi, undan qanday foydalanishga va ularni doimiy ravishda

takomillashtirib borishga bog'liq. Lekin menejment usullari printsiplarga qaraganda, amaldagi jismoniy tarbiya va sport boshqaruvi bilan yaqinroq bog'langandir. Ular jismoniy tarbiya va sport boshqaruvidagi o'zgarishlarga har doim tezroq va jadalroq ta'sir ko'rsata oladilar.

Sport menejmentining har xil usullari printsiplarga o'xshab har doim rivojlanish va o'zgarishda bo'ladi, natijada obyektga nisbatan ta'sir o'tkazish imkoniyatlarining variantlari paydo bo'ladi. Bunday imkoniyatlarning ko'payish darajasi menejmentning har xil usullari shakllanib borishini tavsiflaydi. Menejment usullarining variantlari kamayib borgan sari, ularning ta'sir omili xukumronlik darajasida yuksalib boraveradi. Pirovard natijada, menejment usuli yagona va asosiy bo'lib qolishi ham mumkin.

Menejment usullarining dinamikasi jismoniy tarbiya va sport boshqaruvidagi rivojlanish va o'zgarishlar bilan chamcharchas bog'langandir. Menejment usullarining samaradorlik darajasi bozor sharoitida jismoniy tarbiya va sport boshqaruvidagi rivojlanish va o'zgarishlarning aniq shartlariga qanchalik mos kelishiga bog'liq.

Shunday qilib, bozor iqtisodiyoti hukumronlik qiladigan, borgan sari murakkab maqsad va vazifalarni nazariya va amaliyotda foydalaniladigan menejment usullarining tan olingan, faol, uzluksiz, jamlangan ko'rinishidagi insonlarning mehnat faoliyati tasavvur qilinadi.

Nazariya va amaliyotda foydalanib kelinayotgan jismoniy tarbiya va sport menejment usullari o'zining ko'p qirraligi bilan ajralib turadi, chop etilgan manbalarda o'nlab boshqaruv usullari keltirilgan. Boshqaruv usullari qanchalik ko'p bo'lmasin, ularning ro'yxati to'liq bo'ldi, deyishga asos yo'q. Masalan, iqtisodiy adabiyotlarda menejment usullarining quyidagi nomlarini uchratish mumkin: ma'muriy, ma'muriy – buyruqbozlik, tashkiliy – buyruqbozlik, direktiv, buyruqbozlik va hokazo. Ko'pincha sanab o'tilgan usullar ma'muriy usullarning sinonimi sifatida talqin qilinadi.

Ko'pchilik mualliflar menejmentning, jumladan, jismoniy tarbiya va sport menejmentning har xil usullari orasida ularni ma'muriy va tashkiliy usullarga bog'lagan holda, birinchi navbatda, iqtisodiy usullarga e'tiborlarini qaratadilar, lekin shu erda ularning birligi tugaydi deyish mumkin. Agarda, masalan, ba'zilar menejmentning iqtisodiy usullarini ma'muriy (ma'muriy – buyruqbozlik va ijtimoiy–ruhiy) bilan bog'lasalar, boshqalari ma'muriy, tarbiyaviy va ijtimoiy-ruhiy va uchinchilari ijtimoiy, huquqiy va tashkiliy (ma'muriy) usullar bilan bog'laydilar.

Menejment usullari nomlarining bunday ko'p har xil bo'lishi, ba'zi usullarning boshqa usullarga qarshi qo'yilishi va ularda aniq va bir xil tushunchalarning mavjud emasligi, shunday hulosaga olib keladiki, hozircha

ularning klassifikatsion belgilari shakllanmagan. Bu o'z navbatida, menejment, jumladan, jismoniy tarbiya va sport menejmenti muammolarini, ayniqsa, boshqaruvni tashkil etishning uslubiy asoslarini hal etishda ma'lum qiyinchiliklar tug'diradi.

Ko'rilayotgan menejment, jumladan, jismoniy tarbiya va sport menejmenti usullarining ko'p qirrali va ko'p aspektli bo'lishi sababli, ularni biron-bir turkumlash yo'li bilan qamrab olish juda qiyin masaladir. SHunig uchun ularni ma'lum belgilar asosida turkumlashga intilish maqsadga muvofiqdir.

Agarda menejment, jumladan, jismoniy tarbiya va sport menejmenti usullarini eng umumlashgan ko'rinishda tizimlashtiradigan bo'lsak, ya'ni boshqaruv faoliyatining masshtabiga qarab, unda ularni ikki katta sinfga taqsimlash mumkin: umumiy va xususiy. Ishlab chiqarishni, jumladan, jismoniy tarbiya va sportni boshqarishda umumiy usullar birinchi navbatdagi ahamiyatga ega bo'lib, ular yordamida butun boshqaruv tizimining olamshumul va takomillashtirish masalalarini hal etish mumkin. Aynan menejment nazariyasi asosan, shunday usullarni o'rganishga, tahlil etishga va yangilarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Xususiy usullar tizimning ayrim qismiga tegishli bo'lgan holda menejmentning, jumladan, jismoniy tarbiya va sport menejmentining umumiy usullari doirasida amalga oshiriladi. Odatda, ular kundalik amaliyotdagi, hayotimizdagi yanada ham aniqroq masalalarni hal etishda foydalaniladi.

Menejmentning, jumladan, jismoniy tarbiya va sport menejmenti usullarini turkumlashdagi hisobga olinishi lozim bo'lgan eng muhim belgilarga ularning mazmuni va ta'sir yo'nalishi kiradi. Real sharoitda qayd etilgan jismoniy tarbiya va sport menejmentini usullarining har bir aniq belgilari juda yaqin jipslashgan o'zaro birlashgan harakatda bo'ladilar, shuning uchun ularni alohida-alohida o'rganish ma'lum qiyinchiliklar tug'diradi.

Menejment, jumladan, sport menejmenti usullarining mazmuni - uni turkumlashdagi asosiy mezon hisoblanadi. Ishlab chiqarish tizimi, jumladan, jismoniy tarbiya va sportda menejment – bu bozor iqtisodiyoti sharoitidagi axborotdan ongli ravishda foydalanadigan mehnat faoliyatining ko'rinishi hisoblanadi.

Menejment, jumladan, sport menejmentining boshqaruv usullarini ularning yo'naltirilganligi nuqtai nazaridan o'rganish, turkumlashning boshlang'ich holati hisoblanadi.

Ko'pgina mualliflar menejment boshqaruvida, jumladan, jismoniy tarbiya va sportni boshqaruvida iqtisodiy usullarning asosida narx, foyda, ish haqi, rag'batlantirish, sanatsiya kabi iqtisodiy toifalardan foydalanishni ko'radilar.

Bu erda shuni eslash kerakki, masalan, rejalashtirish, biznes reja tuzish kabi faoliyat turlari menejment boshqaruvining, jumladan, jismoniy tarbiya va sport boshqaruvining usuli bo'lib qololmaydi, aksincha, uning funktsiyasi bo'lib qoladi. Menejment boshqaruvining, jumladan, jismoniy tarbiya va sport boshqaruvining usullari bu faqatgina pirovard natijaga iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi, hamda foyda, narx va kredit kabi iqtisodiy instrumentlar vositasida ta'sir etishning mumkin variantlaridir.

Takrorlash uchun savollar:

1. Sport menejmenti usullari nima?
2. Sport menejmenti usullari faol, uzluksiz, mujassamlashgan mehnat faoliyatini ta'minlaydimi?
3. Sport menejmenti usullari sportni boshqaruv nazariyasiga qanday aloqador?
4. Sport menejmenti usullariga qanday aniqlik kiritiladi?
5. Sport menejment usullari orqali maqsadli boshqarishga erishish mumkinmi ?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
2. Gulyamov Z.T., Akbarov F.S. Основы менеджмента и его особенности в usloviyax formirovaniya rinka v Uzbekistane. –T.: TGAI, 2006.
3. Gulyamov Z.T., Nabiullin R.X., Kamilova G.Z. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti. Darslik. –T.: O'zDJTI, 2015.
4. Meskon M., Al'bert M., Xedouri F. Osnovi menejmenta. –M.: ANX, 1995.

Elektron ta'lim resurslari:

Internet saytlari

1. www.bilim.uz
2. www.ekonomika.ru
3. www.menejment.com
4. www.edu.uz-Vazirlik sayti
5. www.ziyo.edu.uz-Vazirlik sayti
6. www.performance.edu.uz-Vazirlik sayti

2.4. Sport menejmenti asosiy usullarining tavsifi

Reja:

1. Sport menejmentining boshqaruv usullari to'g'risida tushuncha.
2. Iqtisodiy usullarning jamoa va individual rag'batlantirishga suyanishi.
3. Sportchilarga har xil usullar bilan ta'sir ko'rsatish orqali ma'muriy usullarni to'ldirish.
4. Menejmentning ma'muriy usullarini boshqaruv nazariyasidan kelib chiqishi.
5. Sport menejmentida boshqarishning tashkiliy-ma'muriy usullari.
6. Sport menejmentida boshqarishning iqtisodiy usullari.
7. Sport menejmentida boshqarishning ijtimoiy-ruhiy usullari.

Tayanch so'z va iboralar:

Boshqaruv usullari, samarasini oshirish, iqtisodiy usullar, jamoa, individual, rag'batlantirish, suyanish, moddiy va ma'naviy ehtiyoj, qondirish, intilish, inobatga olish, ta'sir o'tkazish, zaruriyat, yuksak daraja, kamaytirish, tafovutlar, boshqaruv bo'linmalari, xizmat tizimlari, jamoalar, uslublar, namoyon bo'lishi, ma'muriy usullar, to'ldirish, bir xil toifa, boshqaruv nazariyasi, amaliyoti, tabiati, tashkiliy-ma'muriy usullar, ijtimoiy-ruhiy usullar.

Menejmentda, jumladan, sport menejmentida echiladigan masalalarning samarasini oshirishda iqtisodiy usullar jamoa va individual rag'batlantirishga suyanadi. Ular har bir ijrochini o'zining borgan sari ortib borayotgan moddiy va ma'naviy ehtiyojini qondirishga intilishini eng katta aniqlik bilan inobatga oladi. Ulardan foydalanish ishlab chiqarishning zaxiralarini aniqlash va foydalanishdagi ishchilarning taashabbusini oshiradi. Shu bilan bir qatorda ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishda ma'muriy formada ta'sir o'tkazish zaruriyati yuksak darajada kamayadi.

Menejmentning iqtisodiy usullarining o'z mazmunini ma'muriy shakldagi ijro bilan birligi tufayli, ularni takomillashtirish nafaqat iqtisodiy mafaatlar talablarini to'liq hisobga olish, balki ma'muriy qarorlarni bajarilishi bilan bog'liq. Bir so'z bilan aytganda, amalda menejmentning iqtisodiy usullari bilan ma'muriy usullarining ijrosi bir-birlari bilan o'zaro jipslashib ketgan bo'ladi, chunki ular har doim yagona bir boshqaruv masalasini hal etadilar. Lekin ushbu usullar orasidagi asosiy tafovutlar har xil boshqaruv bo'linmalarining va shunga o'xshash xizmat tizimlarining jamoalarga ta'sir ko'rsatish uslublarida namoyon bo'ladi.

Menejmentning iqtisodiy usullari ishlab chiqarish samaradorligi muammolarini hal etishda yordam qiluvchi butun iqtisodiy mexanizmning alohida bo'g'ini sifatida tasavvur qilinadi. Ushbu usullar insonlarni iqtisodiy rag'batlantirish asosida ma'lum muhitni yaratish orqali menejmentga ta'sir

ko'rsatadi. Lekin ular odamlarga har xil usullar bilan ta'sir ko'rsatish orqali ma'muriy usullarni to'ldiradilar.

Bir xil toifadagi masalalarni echish bilan bir qatorda, menejmentning iqtisodiy usullari ma'muriy usullardan ajralib turadi:

Birinchi, amaliy ta'sir ko'rsatish shakllarida katta erkinlik darajasi;

Ikkinchi, qaror qabul qilish va uning oqibatlari mas'uliyatining jiddiy darajada ortishi.

Menejmentning ma'muriy usullari boshqaruv nazariyasi va amaliyotining tabiatidan kelib chiqadi. Boshqaruvda pastki bo'g'inni xo'jalikning hamma bosqichlaridagi boshqaruvning mas'uliyat va huquqlari bilan qurollangan yuqori bo'g'inga bo'ysunishi. Ushbu qoidasiz hech qanday menejment, jumladan, jismoniy tarbiya va sport menejmenti bo'lishi mumkin emas.

Shuni ta'kidlash muhimki, menejment, jumladan, jismoniy tarbiya va sport menejmentida ma'muriy usullarning ta'sir doirasiga aniqlik kiritish, ularni bozor iqtisodiyotining har bir bosqichida foydalanishning majburiy shartlaridan hisoblanadi. Jismoniy tarbiya va sport menejmentida ma'muriy usullardan foydalanishni kengaytirish, joriy etilayotgan iqtisodiy usullarning ahamiyatini kuchaytiradi.

Ushbu usullar har doim bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik masalalari echimiga umumiy munosabatning har tomoni sifatida, bir-birini to'ldirgan holda birgalikda joriy etib kelingan. Bir-birlaridan farq qilgan holda, menejment, jumladan, jismoniy tarbiya va sport menejmentining yagona maqsadga erishishiga yo'naltirilgan.

Hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti sharoitida menejment samaradorligi ma'muriy va iqtisodiy usullarning kompleks ravishda joriy etilish zarurligini ko'zda tutar ekan, ishlab chiqarishni boshqarishning har bir pog'onasida aniq sharoitlarni hisobga olgan holda ularni optimal birlashtirish ehtiyoji tug'iladi. Ushbu dolzarb masalaning echimi menejment, jumladan, jismoniy tarbiya va sport menejmenti nazariyasi va amaliyoti uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Ishlab chiqarishni boshqarishda ma'muriy usullarning ahamiyati qanchalik yuksak bo'lmasin, ular boshqariladigan tizimning harakatiga faqatgina birinchi turtkinigina bera olishini doimo ko'zda tutish lozim. Ushbu harakat keyinchalik iqtisodiy usullar bilan qo'llanadi va kuchaytiriladi, hal qiluvchi bosqichda esa, yuqori tashkilotlar ko'rsatmalarini bajarilishini rag'batlantiradi.

Hozirgi zamon xo'jalik yurgazishda menejment, jumladan, jismoniy tarbiya va sport menejmenti ijtimoiy-ruhiy usullarining mohiyati oshib bormoqda. Ular ushbu jamoaning ham butun guruhlariga, ham har bir ishchi xodimiga ta'sir ko'rsatib boradi. Ularga ishontirish, tarbiya, ma'naviy rag'batlantirish, ishchi xodimning maishiy ehtiyojlarini qondirib borish,

ijrochilarning mansabga intilishlarini inobatga olish, o'zlarining ijtimoiy mavqelarini ko'tarish va hokazolarni kiritadilar.

Menejment, jumladan, jismoniy tarbiya va sport menejmentining ijtimoiy-ruhiy usullari asosan, jamoada yaxshi ijtimoiy va ruhiy muhit yaratishga yo'naltirilgan. Bu usullar asosan, eng avvalo, ishchi xodimning malakaviy – professional tizimiga, ularning mehnat sharoiti, psixologiyasi kabi belgilari va xususiyatlariga ta'sir ko'rsatadi. Ular har bir ishchi xodimning uddaburonligi, manfaati, tavsifining xususiyatlari, hurmati va hokazolarga ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi zamon sharoitida menejment, jumladan, jismoniy tarbiya va sport menejmentining butun usullar tizimida takomillashtirish jarayoni davom etmoqda. Endi boshqaruvning an'anaviy ma'muriy usullaridan iqtisodiyga o'tish jarayonida birinchi o'ringa muammolarni, hamda ijtimoiy-iqtisodiy usullarni bashorat qilish chiqib borayapti. Lekin qayd etilayotgan usullardan birortasi ham yakka holda foydalanilishi mumkin emasligini nazarda tutish lozim. Usullar alohida, boshqalaridan ajralgan holda faqatgina nazariy ko'rinishda mavjud bo'lishi mumkin, amalda, ya'ni tijora, ishlab chiqarish, jumladan, jismoniy tarbiya va sport menejmentida usullar bir-birlari bilan aloqador va bir-birini to'ldirgan holda bo'ladilar. Demak, amalda qo'llanilayotgan menejment usullari har doim kompleks ravishda ishlatiladi, unda bir vaqtning o'zida ma'muriy, iqtisodiy, ruhiy, tashkiliy va boshqa usullar optimal ravishda o'z o'rnini topib boradi.

Sport menejmenti usullarini tanlash san'ati – bu murakkab muammodir. Ular eng avvalo, alohida ijrochilarning xususiyatlarini hisobga olgan holda, butun jamoa manfaatlarining optimal usullarini tanlay bilishdan iboratdir. Bu erda har xil toifadagi ishchi xodim xulqinning motivlarini topib, ularni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Menejment san'ati nafaqat ishchi xodim xulqinning motivlarini topib, ularni hisobga olish muhimligidan ta'minlashdan iborat bo'lmay, balki ijrochilarning tanlangan usullar majmuasiga ma'lum munosabatlarini oldindan ko'ra bilishni talab qiladi.

Har bir rahbarning jismoniy tarbiya va sport menejmentining barcha usullari bilan qurollanishi va ulardan amalda foydalanishi jamoaning hamjihatlik bilan harakat qilishini yaxshi tashkil eta oladi va kuchaytiradi, jamoa faoliyatida yangidan – yangi marralarni egallashga imkon beradi.

Sport menejmentining mavjud barcha usullaridan foydalanishning samarasini oshirish uchun quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Menejment usullari boshqaruv mexanizmining barcha muhim elementlarini o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi;

2. Menejment amaliyotida boshqaruv usullarining faqat to'plam – yig'indisidan foydalaniladi.

Usul – bu tadqiqot qilish yoki ta'sir ko'rsatish yo'lidir. Tadqiqot qilish nuqtai nazaridan uslub deganda boshqaruv obyektini o'rganish jarayonida qo'llaniladigan usullar, ya'ni: sport menejmentiga tizimli yondashuv; sport menejmentiga kompleks yondashuv; sport menejmentiga tarkibiy yondashuv; sport menejmentiga integratsion yondashuv; sport menejmentida modellashtirish; sport menejmentiga iqtisodiy - matematik usullar orqali yondashuv; sport menejmentida kuzatishni tashkil etish; sport menejmentida eksperimentlardan foydalanish; jismoniy tarbiya va sport menejmentida ijtimoiy - kuzatuv kabi tahlil - ilmiy usullardan foydalanish.

Ta'sir ko'rsatish nuqtai nazardan esa uslub deganda boshqarish funktsiyalarini amalga oshirish uchun boshqaruv obyektiga ta'sir o'tkazish usullari tushuniladi. Bunday usullarga quyidagilar kiradi: funksional tizim osti obyektlarini boshqarish usuli; boshqarish funktsiyalarini bajarish usullari; boshqaruv qarorlarini qabul qilish usullari.

Har xil yondashuvlar, yo'sinlar, yo'llar yordamida amalga oshiriladigan turli-tuman boshqaruv ishlarining mvjmui – boshqaruvning aniq va o'ziga xos usullari deb yuritiladi. SHunday qilib:

Boshqaruv usullari – bu xodimlarga va umuman, ishlab chiqarish jamoalariga ta'sir ko'rsatish usullari bo'lib, ular qo'yilgan maqsadlarga erishish jarayonida mazkur xodimlar va jamoalarning faoliyatini uyg'unlashtirishni nazarda tutadi.

Boshqarish usullari obyektiv tarzda ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonidagi mavjud munosabatlardan kelib chiqadi. Funksional tizim osti obyektlarini boshqarish usuli boshqariladigan obyektning tuzilishi bilan bog'liq bo'lib, uning tarkibidagi bo'limlarni boshqarishda qo'llaniladigan o'ziga xos usullarni o'z ichiga oladi. Menejment boshqaruvida ishlab chiqarishning funksional ta'minoti asosida shakllangan tizim osti bo'limlar o'ziga xos funktsiyalarni bajaradi. Demak, menejment faoliyatida uning barcha toifalari (qonunlar, printsiplar, funktsiyalar, texnologiyalar, tizimlar va ishlab chiqarish jarayonining funksional yo'nalishlari) har doim bir-birlari bilan bog'liq holda bo'lib, umumiy maqsadga xizmat qiladilar.

Sport menejmentining boshqaruv tizimlari, tizim osti bo'limlari ham o'z faoliyatlarida mavjud barcha kategoriyalardan har doim bir-birlari bilan bog'liq holda umumiy maqsadga xizmat qiladilar. Ko'rinib turibdiki, usullarni qo'llash yordamida boshqariladigan obyekt tarkibidagi bo'limlarning maqsadlari va ularni echimi bo'yicha zarur tadbirlar aniqlab olinadi. Haqiqatan ham, menejment usullarini uning funktsiyalaridan ajratish mumkin emas, chunki har

qanday usul mavjud funktsiyalarni va funksional taminlash jarayonini amalga oshirishga xizmat qiladi. Boshqarishning rejalashtirish, tashkil qilish, motivatsiyalash va nazorat qilish funktsiyalarining har birining ijrosiga o'ziga xos usullardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Menejmentdagi, jumladan, jismoniy tarbiya va sport menejmentidagi hakr xil tizim osti bo'limlarning xususiyatlarini quyida keltirilgan jadvaldan ko'rish mumkin:

2.4.1. - jadval.

Menejmentda tizim osti bo'limlarning xususiyatlari

	Tizim osti bo'limlar	Boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari
1.	<p>“Ishlab chiqarish” bo'limi</p> <p>“Sport tovarlari ishlab chiqarish”</p>	<p>Mahsulotning ishonchliligini tahlil qilish; Mahsulot sifatini nazorat qilish; Umumiy tahlil; Funksional tahlil; Ishchi kuchi, uskuna va materiallardan foydalanishni nazorat qilish; Ishlab chiqarish operatsiyalarini o'rganish. Ishlab chiqarishni dasturlash, rejalashtirish va nazorat qilish; Xarajatlarni hisob kitob qilish va boshqalar.</p> <p>Sport tovarlarini ishonchliligini tahlil qilish; Sport tovarlari sifatini nazorat qilish; Umumiy tahlil; Funksional tahlil; Ishchi kuchi, uskuna va materiallardan foydalanishni nazorat qilish; Ishlab chiqarish operatsiyalarini o'rganish. Ishlab chiqarishni dasturlash, rejalashtirish va nazorat qilish; Xarajatlarni hisob - kitob qilish va boshqalar.</p>
2.	<p>“Marketing” bo'limi</p> <p>Jismoniy tarbiya</p>	<p>Tovarlar bozorida korxonaning mavqeini diagnostika qilish; Korxonaning bozorga chiqish imkoniyatlarini tahlil qilish; Yangi mahsulot va yangi bozorga chiqish bo'yicha talab va ehtiyojlarni aniqlash; Marketing kontseptsiyasini ishlab chiqish va h. k.</p> <p>Sport tovarlari bozorida korxonaning mavqeini diagnostika qilish;</p>

		Sport tovarlari korxonasining bozorga chiqish imkoniyatlarini tahlil qilish; Yangi sport tovarlari va yangi bozorga chiqish bo'yicha talab va ehtiyojlarni aniqlash; Marketing kontseptsiyasini ishlab chiqish va h. k.
3.	“Xodimlar” bo’limi Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida “Xodimlar” bo’limi	Ishchi kuchini rivojlantirish; Xodimlar mehnatini va ish haqini tashkil qilish; Xodimlar va ularni martabalarini boshqarish; Xodimlarni boshqarish tizimini shakllantirish, tahlil qilish va boshqalar. Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida ishchi kuchini rivojlantirish, ularning mehnatini va ish hakini tashkil qilish; Xodimlar va ularning martabalarini boshqarish; Xodimlarni boshqarish tizimini shakllantirish, tahlil qilish va boshqalar.

Yuqorida keltirilgan tushunchalardan shunday natija kutish mumkinki, masalan, rejalashtirish funksiyalarini amalga oshirishda mutaxassislar quyidagi usullardan foydalanadilar: bashorat qilish; ekstrapolyatsiya va interpolyatsiya, regression tahlil, modellashtirish, hujum, del’fa, omilli tahlil, maqsadlar shajarasi va uni echish kabilar.

Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida har qanday faoliyat rejalashtirishdan boshlanadi, shuning uchun rejalashtirish o’ta mas’uliyatli bosqich hisoblanadi. Reja qanchalik aniq va puxta tuzilgan bo’lsa menejment funksiyalarining keyingi bosqichlarini ham shunchalik muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyati yaratilgan bo’ladi. Rejalashtirish funksiyasini amalga oshirishda menejmentning ma’muriy buyruqbozlik, iqtisodiy va huquqiy usullari qo’l keladi.

Tashkil qilish funksiyasini *bajarishda qo’llaniladigan boshqaruv usullarini ishlab chiqarishdagi mavjud munosabatlarni va xodimlarning faoliyat motivlarini hisobga olish zarur*. Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida ushbu funktsiyani amalga oshirish, ya’ni mashg’ulotlarni, musobaqalarni tashkil etish murabbiy va rahbarlardan alohida mahorat talab qiladi, shuning uchun menejmentning mavjud barcha usullaridan *mahorat bilan foydalanish maqsadga muvofiqdir*.

Motivatsiya funksiyasining ijrosini ishlab chiqarish korxonalaridagi ishchi xodim (xodimlar)ni, vajlar, isbotlar keltirish, kelajakka ishontirish kabi usullardan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Sport tashkilotlarida esa sportchilarni, murabbiylarni va barcha ishchi xodimni mehnatga, mashg'ulotlarga va yutuqlarga undaydigan barcha usullarni sharoitga qarab qo'llashni taqozo qiladi, ya'ni: personal (murabbiy, sportchi va boshqalar)ning o'z faoliyatiga maksimal darajada qiziqish uyg'otish, ish haqi to'lashni tashkil qilish, rag'batlantirish tizimini yaratish, foyda taqsimotida jamoaning qatnashishi va oqillikka erishish, ma'naviy rag'batlantirishni motivatsiya modellari asosida kuchaytirish, lavozim ierarxik pog'onalariga ko'tarib turish, personalning malakasini muntazam ravishda oshirish kabilarni o'z ichiga oladi.

Boshqarishning nazorat funksiyasini bajarishda qo'llaniladigan usullar tezkor buxgalteriya hisobi, statistika holatiga bog'liq va ayniqsa, operativ ko'rsatkichlarga asoslanadi. Ushbu bosqichda aniq axborotga tayanish katta ahamiyat kasb etadi.

Sport tashkilotlarida boshqaruv qarorlarini qabul qilish axborot texnologiyalari asosida axborotni topib, yig'ib, saralab, qayta ishlab, uzatib va saqlagan holda quyidagi uslublarga asoslanib amalga oshiriladi: muammoni aniqlash, tahlil qilish va qo'yish; muammoni hal qilish yo'llarini qidirish va boshqaruv qarorlari bo'yicha al'ternativ variantlar tayyorlash; al'ternativ variantlardan tegishli, asoslangan qarorni tanlash; qabul kilingan qarorlarning bajarilishini ta'minlash.

Muammoni qo'yish bosqichida qo'llaniladigan uslublar ularni batafsil yoritish, muammoga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillarni aniqlash, vaziyatni baholash va shu asosda muammoli vaziyatni ifodalashga imkon yaratadi. Bu usullar tarkibiga: ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, ularni qayta ishlash, saralash, uzatish va tahlil qilish hamda boshqarish qarorlarini tanlash kabi texnologik jarayonlar amalga oshiriladi.

Ushbu jarayonlarni amalga oshirishda quyidagi usullardan foydalaniladi: muhim voqealarni qayd qilish usullari, qiyoslash usullari, dekompozitsiya va modellashtirish usullariga muhim o'rin beriladi.

Muammolarni hal qilish, ya'ni echim variantlarini tanlab, ishlab chiqish bosqichida ham axborot texnologiyasi usullaridan foydalaniladi. Ammo bu usullarni qo'llashga "nima sabab bo'ldi" va "qaysi sabab yoki omil ta'siri ostida bo'ldi" degan savolga javob qidirish bilan bir qatorda, "muammoni qay tarzda hal qilish, qanday boshqaruv qarorini qo'llash lozim va qanday boshqaruv usullari samarali bo'ladi" degan savolga javob topish lozim bo'ladi.

Qarorni tanlash bosqichida eng avvalo, tanlash me'yorlarini tanlash va shakllantirishga e'tibor beriladi. Bu erda so'z ko'pincha, maksimum-lashtiradigan yoki minimallashtiradigan maqsadli funktsiya to'g'risida boradi. Odatda, bunday tanlovni optimallashtirish deb ataladi. Optimallashtirish me'yorlariga

quyidagilar misol bo'la oladi: ortiqcha xarajatni, zaxiralardan unumsiz foydalanishni bartaraf qilish, ish vaqtdan unumli foydalanish, foyda, daromad, mehnat unumdorligi, samaradorlikni maksimallashtirish. Qabul qilingan qarorlarning bajarilishini ta'minlash tadbirlar qabul qilinib, tasdiqlangandan so'ng amalga oshiriladi. Bu bosqichda qarorlar shajarasi tuzilib, unda maqsadga erishishning barcha yo'nalish va yo'llari iker-chikirigacha aniqlab olinadi.

Delfa usuli aksariyat hollarda qaror qabul qilish jarayonida qatnashuvchi a'zolari to'plash imkoniyati bo'lmagan hollarda, ya'ni boshqaruvning markaziy apparatidan uzoqda yashaydigan, filial va bo'limlarda ishlayotgan xodimlarni yig'ish maqsadga muvofiq bo'lmagan hollarda qo'llaniladi. Bu usulga binoan, echilishi lozim bo'lgan muammo bo'yicha qaror qabul qilish jarayonida qatnashuvchi guruh a'zolariga bir-biri bilan uchrashish va fikr almashishga ruxsat etilmaydi.

Delfa usulini qo'llash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- muammo yuzasidan tuzilgan savollarga javob berilishi uchun qatnashchilarga tarqatiladi;

- har bir qatnashchi savollarga mustaqil va maxfiy tarzda javob beradi;

- javoblar markaziy apparatda yig'iladi va ulardagi takliflar asosida umumlashgan hujjat tayyorlanadi;

- tayyorlangan hujjatning nusxasi har bir qatnashchiga jo'natiladi;

- har bir qatnashchining umumlashgan hujjatga nisbatan bildirgan fikri yana markaziy apparatda to'planadi. U ko'rilayotgan muammo echimiga o'zgartirish kiritishga asos bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, ushbu jarayon qoniqish hosil qilib, umumiy qarorga kelinmaguncha takrorlanaveradi. Bu usulning o'ziga xos xususiyati shundaki, unda har bir qatnashchi fikrining mustaqilligi va qabul qilinadigan qarorning oqilonaligi ta'minlanadi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Sport menejmentining boshqaruv usullari nimalardan iborat?
2. Sport menejmentida echiladigan masalalarning samarasi qanday oshiriladi?
3. Moddiy va ma'naviy ehtiyojini qondirishga intilishini qanday inobatga olish kerak?
4. Menejmentning ma'muriy usullari boshqaruv nazariyasiga aloqadormi?
5. Sport menejmentida boshqarishning tashkiliy-ma'muriy usullarining ishtiroki qanday?
6. Sport menejmentida boshqarishning iqtisodiy usullari ahamiyatlimi?
7. Sport menejmentida ijtimoiy-ruhiy usullari nima?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
2. Gulyamov Z.T., Nabiullin R.X., Kamilova G.Z. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti. Darslik. –T.: O'zDJTI, 2015.
3. Meskon M., Al'bert M., Xedouri F. Osnovi menejmenta. – M.: ANX, 1995.
4. Prchinkin A.V. Menedjment v sfere fizicheskoy kulturi i sporta. –M.: Sovetskiy sport, 2010.

Elektron ta'lim resurslari:

Internet saytlari

1. www.bilim.uz
2. www.ekonomika.ru
3. www.menejment.com
4. www.edu.uz-Vazirlik sayti
5. www.ziyo.edu.uz-Vazirlik sayti
6. www.performance.edu.uz-Vazirlik sayti

2.5. Sport menejmentida ma'muriy – buyruqbozlik usullari

Reja:

1. Sport menejmentida ma'muriy-buyruqbozlik usullari.
2. Sport menejmentida ma'muriy-buyruqbozlik usullarini joriy etishda bajariladigan amallar.
3. Sport menejmentida ma'muriy-buyruqbozlik usullarining ichki aloqalarga ta'siri.
4. Sport menejmentida ma'muriy-buyruqbozlik usullarining, boshqariluvchi obyektlarga ta'sir ko'rsatishi.
5. Sport menejmentida ma'muriy-buyruqbozlik usullarining fors – major holatlaridagi yutuqlari.

Tayanch so'z va iboralar:

Sport menejmentida ma'muriy-buyruqbozlik, boshqaruv usullari, joriy etish amallari, boshqarish apparati, muayyan tizim, tuzilma, tuzish, bo'g'in, funktsiyalar, belgilash, ishchi xodim, tanlash, buyruq, farmoyish, qo'llanma, nazorat, topshiriq, direktiv ko'rsatmalar, bajarmayotgan bo'linma shaxslar, majburiy, choralar, hokimiyat, quyi organlar, bo'ysunish, ma'muriy organlar, obyekt, boshqarish tizimi, barqarorlik, intizomlilik, muvofiqlik, uzluksizlik, fors-major holatlar, Ichki ishlar, Mudofaa vazirligi.

Sport menejmentida ma'muriy-buyruqbozlik usullari boshqa usullar ichida alohida o'rin tutadi. Ushbu usullarni joriy etishda quyidagi amallarni bajarish tavsiya etiladi: boshqarish apparatining muayyan tizimni tuzish, har bir boshqaruv bo'g'inining funktsiyalarini belgilash, personal (xodim)larni to'g'ri tanlash, buyruqlar, farmoyishlar hamda qo'llanmalar chiqarish va ularning bajarilishini nazorat qilish, topshiriqlar va direktiv ko'rsatmalarni bajarmayotgan bo'linma va shaxslarga nisbatan majburiy choralarni qo'llash kiradi.

Ma'muriy-buyruqbozlik usullar yuqori organlar hokimiyatiga va quyi organlarning bo'ysunishiga asoslanadi. Shuning uchun ularni ko'pincha ma'muriy usullar deb yuritiladi. Yuqori ma'muriy organlar boshqariluvchi obyektning bajarishi majburiy bo'lgan tartib qoidalarni ishlab chiqadi, shuningdek, bo'ysunuvchi organlarga farmoyishlar beradi.

Ma'muriy - buyruqbozlik usullar shu yo'l bilan boshqarish tizimida ichki ongli aloqalarning tarkib topishiga yordam beradi. Bu usullar ham biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, boshqarishning asosiy funktsiyalaridan tashkiliy barqarorlikni, intizomlilikni, muvofiqlikni va uzluksizlikni bajarilishini ta'minlaydi.

Ma'muriy usullar boshqaruv organlarining o'zaro aloqada ishlashini, boshqaruv munosabatlarini aks ettirib, boshqariluvchi obyektlarga ma'muriy ta'sir ko'rsatishning butun mexanizmini ifodalaydi. Shu bilan bir qatorda, ma'muriy yoki to'g'ridan - to'g'ri buyruqbozlik usuli xo'jalik yurituvchi sub'ektning tanlash erkinligini cheklab qo'yadi, muayyan huquqiy chegaralarini belgilaydi. O'z mohiyatiga ko'ra, ma'muriy boshqarish bozorga xos bo'lgan erkin tartibga solish harakatiga to'sqinlik qiladi. Ma'muriy – buyruqbozlik usullarining fors - major holatlarida, Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi va shunga o'xshash davlat tomonidan boshqariladigan ba'zi tizimlardagi yutug'ini hech kim inkor eta olmasa kerak.

Biroq, rivojlangan bozor sharoitida ham boshqarishning ma'muriy - buyruqbozlik usullari o'z ahamiyatini saqlab qoladi va zarur bo'lganda ulardan samarali foydalaniladi. Xususan, bozor iqtisodiyoti rivojlangan hamma mamlakatlarda ham ma'muriy usullar vositasida monopoliyaga qarshi siyosat amalga oshiriladi. Davlat bozorning monopoliyalashtirilishiga to'sqinlik qiladigan ma'muriy cheklovlar tizimini belgilaydi, monopol kompaniyalar faoliyatini samarali boshqarishga harakat qilinadi.

O'zbekistonda amaldagi rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida ma'muriy - buyruqbozlik usullaridan: iste'molchilar huquqlarini himoya qilish,

atrof-muhitni muhofaza qilish, xavfli texnologiyalardan foydalanish, zararli ishlab chiqarish chiqitlarini tabiat qo'yniga, aholi yashaydigan joylarga chiqarib tashlashni ta'qiqlash, insonlar sog'lig'iga zararli mahsulotni reklama qilishni taqiqlash kabi sohalarda faol foydalaniladi.

Menejmentning ma'muriy-buyruqbozlik usullarining ijrosi ikki shaklda namoyon bo'ladi: ma'muriy ta'sir ko'rsatish orqali va farmoyish berish shakllarida.

Menejment ma'muriy - buyruqbozlik usullarida bu ikki shaklning birgalikda qo'llanilishidan ularni bir - birlarini to'ldirishga va rivojlantirishga erishiladi. Har ikkala shaklning uyg'unlashuvi ishlab chiqarish sharoitlarini hisobga olgan holda, menejment boshqaruvini optimallashtirish imkonini beradi.

Ma'muriy - buyruqbozlik usullarida boshqarish orqali menejmentning quyidagi muhim vazifalarini amalga oshirish imkoni tug'iladi:

- ishlab chiqarish va boshqarishning tashkiliy tizimini belgilash;
- Ichki tartib-qoidalarni o'rnatish;
- Boshqariluvchi va boshqaruv tizimlar o'rtasida optimallik va oqilona nisbatni o'rnatish va boshqalar.

Farmoyish, buyruq berish yo'li bilan ta'sir ko'rsatish orqali barcha boshqaruv bo'limlari va organlarining uyg'un ishlashi ta'minlab turiladi. Tegishli buyruq va farmoyishlarning to'g'ri tayyorlanishi va ularning ijrosida menejerlarning roli katta bo'ladi.

Sportda ham ma'muriy - buyruqbozlik usullarining ahamiyati katta ekanligini tan olish lozim, bozor iqtisodiyoti sharoitida qanchalik demokratik boshqaruv usullari rivojlanib bormasin, ushbu tarmoqning asosiy qismini yana ko'p yillar davomida davlat tasavvurida qolish ehtiyoji markazlashgan boshqaruvni taqozo etadi. Lekin hech qachon jismoniy tarbiya va sport davlat tasavvurida qolib ketadi va unda ma'muriy - buyruqbozlik usullari hukm suradi, degan fikrga bormaslik lozim, soha jarayonlarida doimo tez -tez uchraydigan o'zgaruvchanlikni kuzatish mumkin. Bulardan tashqari yurtimizda mulkchilikning barcha turlari (davlat, shaxsiy, jamoatchilik va boshqalar)ning teng huquqligi allaqachon qonun doirasida tan olinganligi, yildan-yilga jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining turli zamonaviy boshqaruv shakllarini ko'payib borayotgani fikrimizning dalili bo'la oladi.

Ma'muriy-buyruqbozlik usullarini joriy etilishi boshqariladigan obyekt va subyekt tizimlarini loyihalashdan boshlanadi, so'ngra reglamentlash, me'yorlash va boshqa hujjatlarni tayyorlash ishlari olib boriladi.

Loyihalash, reglamentlash va me'yorlash tadbirlari yaxshi tashkil etilgan bo'lsa, boshqarishga juda katta yordam beradi, buning uchun eng avvalo, menejment boshqaruv tizimida, uning barcha tizimlarida muntazamlilik,

obyektivlik, reglamentlash, me'yorlash va barcha boshqaruv qarorlari asoslangan bo'lishi lozim. Me'yor hujjatlar boshqaruvning mavjud tizimlarida, bo'limlarida ishchi xodim (shaxslar) faoliyatini amaliy jihatdan tushunib olishga, motivatsiyaga, nuqson va kamchiliklarni bartaraf qilishga yordam beradi.

Umuman olganda, korxonalaridagi reglamentlash va me'yorlash ishlarining holati va ularning mukammalligi menejmentdagi boshqarish madaniyatini belgilaydi.

Ma'muriy - buyruqbozlik usullarini joriy etilishi asosan, farmoyishlar vositasida olib boriladi. Ma'lumki, har qanday mehnat jarayoni xoh u kichik doirada, xoh u katta doirada bo'lsin, boshqaruvni taqozo qiladi va ma'muriy ko'rsatmalar bo'lishiga ehtiyoj sezadi.

“Yakka skripkachi musiqa nota asosida chalganda, o'zini-o'zi idora qila oladi va kuyni aniq, yaxshi chalishga erishadi”, lekin skripkachilar guruhi birgalikda kuy chalmoqchi bo'lsalar aniqlikni yo'qotib, notadagi kuyni bir xilda ijro eta olmaydilar, orkestr uchun dirijyor zarur bo'lib qoladi. Shunga o'xshash holat insonlar jamoa bo'lib faoliyat olib boradigan har qanday tashkilotda, jumladan, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida ham uchraydi va biz yuqorida qayd etganimizdek, menejmentning yakkaboshlik printsipiga binoan, rahbar kerak bo'lib qoladi. Ushbu faoliyatni boshqarib borishda yakka rahbar tomonidan farmoyishli ta'sir ko'rsatish vositasi qo'l keladi.

2.5.1. – jadval

Tashkiliy ta'sir ko'rsatish shakllarining bosqichlari va ularni amalga oshirish yo'llari

	Tashkiliy ta'sir ko'rsatish shakllari	Izoh
1.	Loyihalash: boshqarish tuzilmasini loyihalash, Boshqarish jarayonini loyihalash, boshqarish apparati xodimlari mehnatini uyushtirishni loyihalash, hujjatlashtirish va hujjat aylanishini loyihalash, boshqarish texnikasini jihozlashni loyihalash,	Boshqarish apparash tizimli; SHTatlar jadvali, bo'limlar to'g'risida Nizom; Lavozimlar to'g'risida Nizom; Binolarning joylashuvi; Ish o'rinlarini jihozlash; Ish sharoitini yaratish; Nazortni tashkil qilish; Hujjatlarni qayta ishlash. Nusxalar ko'paytirish; Joylarga yetkazish; Hujjatlarni saqlash; Aloqa tizimi; Boshqarish ishlarini mexanizatsiyalash va kompyuterlash.
2.	Reglamentlash	Bu boshqarish organlari faoliyatini yo'lga

		solib turuvchi va tartib-qoidalarni belgilashdir. Masalan, korxonalar to'g'risida Nizom, mehnat to'g'risida qonun, Sudlar to'g'risida qonun va h.k. Tashkiliy reglamentlash hujjatlari huquqiy me'yorlari xususiyatini kasb etadi va ijrochilar uchun majburiy hisoblanadi.
3.	Normalash	Boshqarishda ma'lum jarayonlarning amal qilish chegaralari (senz)ni aniqlash uchun zarur. Masalan: standartlar, normalar, chizmalar, shuningdek, texnologik normativlar ishlab chiqiladi; bular mahsulot tayyorlash, ularga ishlov berish usuli va rejimlarni hamda operatsiyalar davomiyligini belgilab beradi; Mehnatni tashkil etish uchun turli toifadagi xodimlar nisbatini, tarif razryadlarini rag'batlantirish tizimi, mehnat va dam olish rejimini belgilaydigan me'yorlarni talab etadi va h.k.
4.	Qo'llanma tayyorlash	Qo'llanmalarda ishni bajarish yo'llari ko'rsatiladi va tushuntiriladi. Sir reglamentlash nima qilish mumkin, nimani qilish mumkin emasligini belgilab oladi, qo'llanma aniq bir operatsiya (ish)ni qanday izchillikda bajarish lozimligini ko'rsatadi. Qo'llanma normativ hujjat kuchiga eta bo'lmaydi. Uning yordamida umumiy tartib va qoidalar belgilanadi. Qo'llanmalar: mahalliy; Tarmoq; Lavoziy; Uslubiy va ish qo'llanmalariga bo'linadi.

Shunday qilib, boshqarishning farmoyishli ta'sir o'tkazish usuli yakkaboshchilik munosabatlari, intizom va mas'uliyatga asoslanadi. Mantiqan bu usulni quyidagi ibora bilan izohlash mumkin: **“Rahbar buyrug'i uning qo'l ostida ishlayotganlar uchun qonundir”**. Farmoyishli ta'sir ko'rsatish tartibi 2.5.2.- jadvalda keltirildi.

2.3.2. – jadval

Ma'muriy - buyruqbozlik usullarining ta'sir o'tkazish shakllari

T/R	Farmoyishli ta'sir o'tkazish shakllari	Izoh
1.	Direktiva	Bu usul har bir rahbar, ijrochi va boshqaruvchi organning burchlari, huquqlari va mas'uliyatini aniq belgilashga asoslanadi. Bular lavozim qo'llanmalari turli boshqarish bo'g'inlarining funktsiyalari va vazifalari to'g'risidagi nizomlar bilan qonunlashtiriladi. Direktivalar ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchilarining yuqori boshqaruv organlarining qarorlari, buyruqlari, farmoyishlarini bajarish uchun shaxsan javobgar bo'lishini ta'minlaydi.
2.	Buyruq	Bu korxonada rahbari, u bo'lmaganda uning o'rinbosari chiqaradigan davlat boshqaruvi hujjatidir. Buyruq mazkur tashkilot vakolati doirasida, amaldagi qonunlar, yuqori organlar qaror va farmoyishlari asosida shu qaror va farmoyishlarni ijro etish uchun chiqariladi. Buyruq yuridik hujjat bo'lib, uni ijro etish majburiydir. Agar buyruq umumiy qoidalarni belgilasa, me'yoriy xarakterda bo'lsa, unga asoslanib, lavozimiga tayinlansa, tashakkur e'lon qilinsa, u holda buyruq individual xarakterda bo'ladi.
3.	Ko'rsatma	Aniq ijrochilarga yoki aniq ish yuzasidan beriladigan boshqarish qarorlarining tashkiliy huquqiy shaklidir. Ko'rsatmalarda shaxsga buyruqni amalga oshirish uchun qanday olib borish, qanday natijalarga erishish zarurligi tushuntiriladi va maslahat beriladi.
4.	Farmoyish	Bu barcha boshqaruv organlari ma'muriyati tomonidan tezkor joriy masalalar bo'yicha beriladigan boshqaruv hujjatidir. Farmoyishning buyruqlardan farqi shundaki, u xususiy masalalarni hal etishga qaratiladi va direktor, uning o'rinbosarlari, bo'lim boshlig'i, usta, funktsional xizmatlar boshliqlari tomonidan o'z vakolati doirasida chiqariladi.

5.	Rezolyutsiya	Bu yig'ilish, majlis, konferentsiya va hokazolarda muhokama qilingan masalalar yuzasidan qabul qilingan qarordir. Hujjatga mansabdor shaxs tomonidan ijro etish yoki ijro etmaslik to'g'risida yozilgan yozuv xam rezolyutsiya hisoblanadi va boshqaruvning quyi bo'g'inlari tomonidan bajarilishi majburiydir.
6.	Yo'l-yo'riq	Bu me'yoriy huquqiy hujjat bo'lib, u tashkilot va fuqorolarga ularning funktsional vazifalarini kelib chiqadigan xatti-harakatlarini tayinlab beradi.

Farmoyishli ta'sir o'tkazish usulidan foydalanish ma'lum talablarga javob berishi kerak, buyruqlar, farmoyishlar va boshqa hujjatlar xoh yozma, xoh og'zaki tarzda berilgan bo'lishidan qat'i nazar ular quyidagi talablarga javob berishlari lozim:

Birinchidan, farmoyish nimaga asoslanib chiqarilganligi aniq ko'rsatilishi shart;

Ikkinchidan, qabul qilingan qaror mohiyati qisqa va ravshan bayon etilishi lozim;

Uchinchidan, ijroni nazorat qilish shakli, farmoyishning kuchga kirish va bajarilish muddati ko'rsatilishi lozim;

To'rtinchidan, buyruq va farmoyishlar qisqa, tushunarli va aniq bo'lishi kerak. Mo'ljal topshiriqlar ijrochilarning buyruq bandlarini to'liq va o'z muddatida bajarishga da'vat eta olmaydi;

Beshinchidan, buyruq va farmoyishlarni eng qulay muddatlarga chiqarish va ijrochilarga etkazish kerak. Kechikish ijrochilarga buyruq mazmunini to'liq anglata olmaydi, uni bajarish uchun zarur bo'lgan hamma ishlarni qilish imkonini bermaydi, bunday holatda ijroning sifati puxta bo'lmaydi va aksincha, buyruqni juda barvaqt chiqarish ham maqsadga muvofiq kelmaydi. Chunki uni bajarish muddati etib kelguncha ijrochining mas'uliyati, ishtiyoqi pasayishi mumkin.

Oltinchidan, buyruq va farmoyishlar imkon qadar kamroq bo'lishi kerak. Buyruqbozlik, bo'lar-bo'lmasga buyruq, farmoyish va ko'rsatmalar chiqara berish ishga naf keltirmaydi. Boshqarish sifati buyruqlarning ko'pligi bilan belgilanmaydi. Yaxshi tashkil etilgan boshqaruv jarayonlari o'rnatilgan tartib va an'analar tufayli normal kechadi. Shuni ta'kidlash joizki, buyruq va farmoyishlar bajarish uchun chiqariladi, bu esa ularning bajarilishini nazorat qilishni talab qiladi. Ijroni tekshirish bo'yicha nazorat tizimi yo'lga qo'yilmasa, har qanday buyruqlarning bajarilishi, hatto u yaxshi ijrochilar zimmasiga

yuklangan bo'lsa ham, orzu istak bo'lib qolaveradi, bajarilganda ham sifatsiz va kechiktirib bajariladi.

Ma'muriy - buyruqbozlik usullarini joriy etishdagi farmoyishli ta'sir o'tkazish ma'lum qonun, qoida va huquqiy vositalarga asoslangan bo'lishi lozim. Boshqarishning huquqiy vositalari deganda, ijtimoiy munosabatlarga yuridik, qonuniy ta'sir o'tkazish jarayonida qo'llaniladigan huquqiy me'yorlar majmui tushuniladi. Xuquqiy me'yorlar davlat (turli tashkilotlar orqali) yoki jamoat tashkilotlari tomonidan chiqariladi va tasdiqlanadi, ularga turli qonuniy hujjatlar, nizomlar, buyruqlar kiradi.

Boshqarish amaliyotida teng huquqli boshqaruv sub'ektlari o'rtasida, masalan, korxonalar, birlashmalar o'rtasida vujudga keladigan munosabatlar huquqiy bo'ladi. Bunday hollarda huquqiy muvofiqlashtiruvchi (koordinatsion) hujjatlar yoki boshqa hujjatlardan foydalaniladi. Teng huquqli tomonlarning xo'jalik sohasidagi o'zaro aloqalari xo'jalik shartnomalarini tuzish yo'li bilan tartibga solib turiladi.

Huquqiy me'yorlar muayyan sanksiyalarni nazarda tutadi. Qo'llaniladigan ta'sir choralarining xarakteriga qarab, ular moddiy, ijtimoiy, jinoiy-huquqiy sanksiyalarga bo'linadi. Ma'muriy – buyruqbozlik usullarini joriy etishda farmoyishli ta'sir o'tkazish to'liq ravishda jismoniy tarbiya va sport tashkilotlariga ham taalluqlidir.

Ma'muriy - buyruqbozlik usullarini joriy etishdagi farmoyishli ta'sir o'tkazish korxonalaridagi moddiy javobgarlikni ta'minlashda ham katta rol o'ynaydi. Moddiy javobgarlik bu korxonalar, jumladan, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarning, shuningdek, ayrim mansabdor shaxslarning zimmlaridagi xo'jalik faoliyatining natijalari uchun yuklatilgan ma'suliyatdir.

Ma'muriy - buyruqbozlik usullarini joriy etishdagi farmoyishli ta'sir o'tkazish korxonalaridagi, jumladan jismoniy tarbiya va sport tashkilotlaridagi intizomiy javobgarlikni ta'minlashda ham katta rol o'ynaydi. Intizomiy javobgarlik bu xizmat burchlarini buzish, suiste'mol qilish natijasida kelib chiqadigan holat. Intizomiy javobgarlik quyidagi jazo choralarini ko'zda tutadi: tanbeh, hayfsan, muayyan muhlatga maoshi pastroq ishga o'tkazish, muayyan muhlatga pastroq lavozimli vazifaga o'tkazish va hokazolar.

Ma'muriy javobgarlik - bu yuridik javobgarlik turi bo'lib, vakil qilingan organ yoki mansabdor shaxsning qonunbuzarlik qilgan shaxsga nisbatan majburiy jazo chorasini qo'llashda ifodalanadi. Bunday jazolar turli-tuman sanksiyalarda - naxetlar (qaytarib olinishi lozim bo'lgan xarajat), jarimalar va hokazolar ko'rinishida bo'ladi.

Shunday qilib, menejmentning ma'muriy - buyruqbozlik usullarini joriy etishdagi farmoyishli ta'sir o'tkazish korxonalaridagi, jumladan, jismoniy

tarbiya va sport *tashkilotlarida boshqaruvning turli tuman usullaridan foydalanishdan bir qatorda*, javobgarlikni ham ta'minlab beruvchi chora tadbirlarni ko'zda tutgan bo'ladi

Menejmentda ma'muriy - buyruqbozlik usullarining tashkiliy farmoyishli shakllari korxonalarda, jumladan, jismoniy tarbiya va sport *tashkilotlarida keng qo'llanilinadi*. Xo'jalik tashkilotlarining ishlab chiqarishni boshqarish bo'yicha faoliyati menejmentning turli tashkiliy-farmoyishli usullarini qo'llash orqali amalga oshiriladi. Menejmentning tashkiliy-farmoyish usullari boshqaruvchi va boshqariluvchi tizimlarning samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi ta'sir boshqaruv tizimidan iboratdir. Boshqaruvning tashkiliy-farmoyish usullari iqtisodiy usullarni to'ldirib, bozor iqtisodiyoti konunlari, huquqiy aktlarni hisobga olish va bajarishga asoslanadi.

Davlat maxsus tuzilgan boshqaruv apparatlari vositasida boshqariladigan barcha tizimlarga ma'muriy va tashkiliy jihatdan ta'sir o'tkazadi. Menejment tizimida tashkiliy usullar umumiy maqsadga erishish uchun ishlab chiqaruvchilarning hamkorlikdagi harakatini tartibga solib turadigan ma'muriy hujjatlar asosida amalga oshadi. Menejmentda, jumladan jismoniy tarbiya va sport menejmentida tashkiliy-farmoyish usulini qo'llash asosini boshqaruvning barcha tamoyillariga amal qilish tashkil etadi.

“Nima sababdan boshqaruvning ma'muriy-farmoyish usullari ma'muriy shakllar bilan qo'shib olib boriladi?” - degan savol tug'iladi. Bu ko'p hollarda tashkiliy ta'sir, ma'muriy huquqni qo'llash, ya'ni qaror va farmoyishlarni amalga oshirishga asoslanadi. Lekin “boshqaruvning tashkiliy-farmoyish usuli” tushunchasi “ma'muriy boshqaruv usuli” tushunchasidan bir muncha kengroqdir, chunki tashkiliy-farmoyish usullari boshqaruvning turli darajalariga turli ko'lamda va shaklda tashkiliy ta'sir eta oladi, uning ishini doimiy ravishda o'rganib borishni, kerakli o'zgarishlar kiritish masalalarini ham qamrab oladi. Tashkiliy-farmoyish usullari tashkiliy aniqlikni ta'minlaydilar, tashkiliy tizim, boshqaruvning har bir amaldagi vazifalarini belgilab beradi, boshqaruv apparati intizomni va faoliyat samaradorligini ta'minlaydi, ishda tartib o'rnatadi va tegishli qarorlarni qabul qilishga imkon yaratadi. Farmoyishlarni bajaradi, ishchi xodim (xodimlar)ni tanlaydi va joy-joyiga qo'yadi va h.k. Boshqaruvning tashkiliy farmoyish usullari ularning ishlab chiqaruvchilarga ta'sir etish manbalari va yo'nalishlari bo'yicha turlarga ajratiladi. Bunga bog'liq holda ta'sir etishning tashkiliy-farmoyish usullari uch guruhga bo'linadi: tashkiliy-barqarorlashtiruvchi, farmoyish va intizom usullari.

Ta'sir etishning tashkiliy - barqarorlashtirish usullarining asosiy maqsadi hamkorlikda ishlash uchun tashkiliy asos yaratishdir, ya'ni vazifa, majburiyatga aniqlik kiritib, ularni amalda qo'llab borish. Javobgarlik va vakolatlarni

taqsimlash, tartib o'rnatish va h.k. Ma'muriy ta'sirning tashkiliy shakllarining ikki tashkiliy reglamentlash va tashkiliy me'yorlash turlari mavjud. Tashkiliy reglamentlash vositasida davlat boshqaruvchi va boshqariladigan tizimga ularning maqbul nisbatini, tashkiliy tizimini va har bir darajada boshqaruv chegaralarini aniqlash maqsadida ta'sir etadi. Tashkiliy reglamentlashga misol qilib lavozimlar haqidagi Nizomni ko'rsatish mumkin. Tashkiliy me'yorlash hujjatlari vositasida hom-ashyo, materiallar sarfini me'yorlash, mahsulotlar ishlab chiqarishga mehnat sarfi, ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish, texnikaviy va texnologik me'yorlar (standartlar, me'yorlar, qayta ishlov berish usuli, tartibi va h.k.) ishlab chiqarishini tashkil etish me'yorlari (maqbul ishlanma ko'lami).

Ta'sir etishning farmoyish usullari cheklovchi hujjatlarda ko'zda tutilmagan mavjud vaziyatdan kelib chiqqan holda, kundalik jadal boshqarish maqsadida qo'llaniladi. Farmoyish ta'sirining asosiy maqsadi boshqaruv apparatining aniq harakati, boshqaruvning barcha bo'linma va xizmatlari barqaror ishlashini ta'minlab berishdan iborat. Ta'sir etishning farmoyish usullari buyruq, farmoyish, ko'rsatma va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Buyruq - bu rahbarning qo'l ostidagi xodimlardan ma'lum vazifani bajarishni yozma yoki og'zaki ravishda talab qilishidir. Buyruq faqat chiziqli boshqaruv tizimi rahbari tomonidan beriladi. Farmoyish, esa xodimlardan ayrim ishlab chiqarish va xo'jalik masalalarini hal etishni talab qilishdir. Farmoyish boshliq o'rinbosarlari, xizmatlar boshliqlari, ular ega bo'lgan vakolatlari doirasida beriladi. Boshqaruv amaliyotida qo'llaniladigan ta'sir qilish usullaridan biri - og'zaki ko'rsatmadir. Ta'sir etishning bunday shaklini, odatda, barcha darajadagi rahbarlar, lekin ko'pincha quyi darajadagi guruh rahbarlari, jamoa boshliqlari, ustalar qo'llaydilar.

Farmoyish vositasida ta'sir etish topshiriqlarni bajarish muddatlari bilan farq qiladi, buyruq va farmoyishlar uzoq yoki qisqa muddatga mo'ljallangan bo'ladi.

Har bir buyruq yoki farmoyishda qanday vazifa bajarilishi, qachon bajarilishi kerakligi belgilanadi. Ta'sir etishning farmoyish usuli tashkiliy ta'sirga nisbatan uning bajarilishini nazorat qilishni ko'prok talab etadi. Ijro etishning borishi nazorat qilingandan so'ng yana farmoyish bilan ta'sir etishga ehtiyoj tug'iladi. Farmoyish usulining qo'llanish ko'lami boshqaruv xodimlari malakasi, tashabbuskorligi va qobiliyatiga bog'liqdir.

Korxonani boshqarishda farmoyish bilan ta'sir etish faqat qonunga zid bo'lmagan holdagina bajarilishi qat'iy bo'lgan huquqiy kuchga ega bo'ladi. SHu sababli barcha tizimdagi tashkiliy-farmoyish faoliyati mavjud qonunchilikka

bo'ysungan holda amalga oshishi lozim. Intizomiy ta'sir usullari tashkiliy barqarorlashtiruvchi va farmoyish vositasida ta'sir etish usullarini to'ldirib, intizomiy talablar va majburiyatlar tizimi vositasida tashkiliy aloqalar barqarorligini ta'minlashga qaratilgandir.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan usullarning barchasi jismoniy tarbiya va sport boshqaruvida katta ahamiyat kasb etadi, chunki jismoniy tarbiya mashqlarini tashkil etishmi yoki sport musobaqalarini o'tkazishmi, ularning barchasida ma'muriy – buyruqbozlik usulidan tortib, buyruqli, farmoyishli va tashkiliy vositalarsiz to'laonlik menejment faoliyatini tasavvur etib bo'lmaydi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Ma'muriy buyruqbozlik usullari nima?
2. Sport menejmentining boshqaruv usullari qandy?
3. Ma'muriy buyruqbozlik usullarni joriy etishdagi amallar nimadan iborat?
4. Boshqarish apparatining muayyan tizimni qanday tuziladi?
5. Xodimni to'g'ri tanlash nimadan iborat?
6. Buyruq, farmoyish va qo'llanmalar chiqarish va ularning bajarilishini qanday nazorat qilinadi?
7. Ma'muriy - buyruqbozlik usullar boshqarish tizimida ichki aloqalarni tarkib topishiga yordam berishi mumkinmi?
8. Ma'muriy - buyruqbozlik usullarining fors - major holatlaridagi yutug'i nimada?
9. Rivojlangan bozor sharoitida ham boshqarishning ma'muriy- buyruqbozlik usullari o'z ahamiyatini saqlab kolishi mumkinmi?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
2. Gulyamov Z.T., Nabiullin R.X., Kamilova G.Z. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti. Darslik. –T.: O'zDJTI, 2015.
3. Meskon M., Al'bert M., Xedouri F. Osnovi menejmenta. –M.: ANX, 1995.

**Elektron ta'lim resurslari:
Internet saytlari**

7. www.bilim.uz
8. www.ekonomika.ru
9. www.menejment.com
10. www.edu.uz-Vazirlik sayti
11. www.ziyo.edu.uz-Vazirlik sayti
12. www.performance.edu.uz-Vazirlik sayti

2.6. Sport menejmentida iqtisodiy usullar

Reja:

1. Sport menejmentining iqtisodiy usullari.
2. Sport menejmentida o'zaro iqtisodiy munosabatlar.
3. Sport menejmentida o'zaro iqtisodiy munosabatlarning uch ierarxik pog'onalari.
4. Sport tashkilotlarida iqtisodiy munosabatlar.
5. Sport menejmentida iqtisodiy boshqaruv usullarining asosiy vazifalari.
6. Sport tashkilotlariga iqtisodiy usullar orqali ta'sir ko'rsatish.

Tayanch so'z va iboralar:

Sport menejmentida iqtisodiy vositalar, boshqarish usullari, sotsiologiya, psixologiya, tarbiyaviy usullar, huquqiy usullar, litsenziya, nomarkazlashtirish printsiipi, ijtimoiy javobgarlik, nizo, asabni buzish, kredit qo'yilmasi, soliq va soliqqa tortish, boj to'lovlari, subsidiya va sanatsiya, transport to'lovlari, narxnavo, boshqaruv organlarining sarf xarajatlari.

Menejment boshqaruvining iqtisodiy usullari insonlarning iqtisodiy, ijtimoiy manfaatlarini ko'zlab ish yuritishga asoslanadi. Zero, jamiyat a'zolarining iqtisodiy manfaatlari eng avvalo ularning o'zaro iqtisodiy munosabatlarida namoyon bo'ladi. Har qanday jamiyatda manfaatlarni o'zaro bir-biri bilan bevosita bog'liq bo'lgan uch ierarxik pog'onalarda ko'rish mumkin:

- yuqori pog'onadagi umumjamiyat manfaatlari;
- o'rta pog'onadagi jamoa manfaatlari;
- pastki pog'onadagi shaxsiy manfaatlar.

Bu manfaatlarni uyg'un sur'atda o'zaro bog'liq ravishda amalda bo'lishi doimo bir qator muammolarni hal etib borishni taqozo qiladi, chunki har bir

davr sharoitlariga muvofiq keladigan ichki va tashqi omillar ta'sirida munosabatlar o'ziga xos ravishda shakllangan bo'ladi.

Masalan, bozor iqtisodiyoti sharoitida umumjamiyat manfaatlarini ro'yobga chiqarish maqsadida quyidagi iqtisodiy boshqaruv usullariga, ya'ni:

- korxonalar va xo'jaliklarga, shu jumladan, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlariga faoliyat yurgazishlarida erkinlik va mustaqillik berish.

- xo'jaliklarni, sport tashkilotlarining pirovard natijalariga binoan moddiy rag'batlantirish, soliq imtiyozlarini berish.

- korxonalar va xo'jaliklar, shu jumladan, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro shartnomalarning bajarilish intizomini mustahkamlash va ularning rolini oshirish.

- moliya va kredit munosabatlarida oqillikka erishish va uni doimo takomillashtirib borish.

Bozor munosabatlari mexanizmlaridan narx – navo, baho, daromad, foyda, soliq, rentabellik, raqobat va hokazolarga katta e'tibor berish.

Iqtisodiy boshqaruv usullarining asosiy vazifasi ishlab chiqariladigan mahsulot (xizmat) birligiga sarflanadigan xarajatni kamaytirishga imkon beruvchi xo'jalik mexanizmlarining yangi usullarini, manfaatdorlik muhitini vujudga keltirish va ulardan samarali foydalanishdir.

Bu usulda kishilarning shaxsiy va guruhviy manfaatlarini yuzaga chiqarish orqali ularning samarali ishlashi ta'minlanadi. Ushbu maqsad yo'lida qo'shimcha ish haki to'lash, mukofotlar berish, bir yo'la katta pul bilan taqdirlash kabilar muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy usullar boshqarishning barcha kategoriyalari ichida etakchi o'rinni egallaydi. Har qanday darajadagi rahbar bu usulning mazmun, mohiyatini yaxshi bilishi va ulardan samarali foydalana olishi lozim. Korxonalarda, jumladan jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida boshqariluvchi obyektarga iqtisodiy usullar orqali ta'sir ko'rsatilinganda quyidagi natijalarga erishishga imkon tug'iladi:

- jiddiy istiqbol rejalar qabul qilishga;
- mehnat va moliya zaxiralaridan yanada unumliroq foydalanishga;
- yangi texnologiyalarni joriy qilishga;
- mehnat unumdorligini oshirishga;
- raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishga rag'batlantiruvchi omillarni kuchaytiradi.

Shu bilan bir qatorda, iqtisodiy usullar shunday tanlanishi va qo'llanilishi kerakki, bunda jamoalar va har bir xodimning manfaatlarini qondirgan holda, butun jamiyat manfaatlariga zid kelmaydigan, hatto ularni to'laqonlik darajasida qoniqtiradigan natijalarga intilish lozim bo'ladi, bir korxonalar uchun foydali bo'lgan tadbir davlatga, jamiyatga ham naf keltirishi lozim.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida menejment boshqaruvining iqtisodiy usullari quyidagi vositalar yordamida amalga oshiriladi: kredit stavkasi, soliq va soliqqa tortish, boj to'lovlari, subsidiya va sanatsiya, litsenziya, transport to'lovlari, narx- navo va hokazolar.

Boshqaruv organlarining sarf xarajatlari. Xususan, davlat ushbu vositalardan foydalangan holda, bozorni shakllantirish chog'ida ham, uning o'zini-o'zi boshqarish bosqichiga o'tish davrida ham ushbu jarayonga o'zining rahbarlik, nazorat va bosh boshqaruvchilik funksiyalarini saqlab turadi.

Agar menejmentdagi ma'muriy boshqaruv usullari o'zini o'zi boshqaradigan bozor mexanizmlariga ma'lum darajada to'siq hisoblansa, iqtisodiy usullar esa aksincha, ulardan foydalanishga tayanadi, xo'jalikni boshqarishga davlatning ta'siri ham tubdan o'zgaradi. Binobarin, ma'muriy boshqarish usulida davlat korxonalariga, jumladan, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlariga o'z ta'sirini kat'iy belgilangan reja va ma'muriy tizimlar orqali o'tkazadi, menejmentning iqtisodiy usullari esa, bozor yordamida ta'sir o'tkazadi. Natijada bozor korxonalar va jumladan, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari faoliyatini davlat bozorning konun - qoidalaridan kelib chiqqan holda makroiqtisodiyot boshqaruvini amalga oshiradi, demak bozor sharoitida korxonalar, jumladan, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari faoliyatiga davlatning aralashuvi minimal darajaga tushadi.

Davlatning bozor iqtisodiyotga faol ta'sir etuvchi vositalaridan biri kredit mexanizmidir, davlat korxonalar, jumladan, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlariga qarzga beradigan pul miqdorini o'zgartirishi uchun qaytim foiz stavksidan foydalaniladi. Bozor qoidasiga ko'ra, qaytim foizi kamaysa, qarzga pul olish imkoniyati ortadi, binobarin, kredit ko'proq olinadi va ishlab chiqarishga keladigan investitsiya hajmi ortadi.

Kreditning korxonalar, jumladan, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining iqtisodiy o'sishiga aloqadorligini hisobga olgan holda davlat doimo uni arzonlashtirish choralarini ko'radi. Davlatning ixtiyoridagi katta hajmdagi pul mablag'i banklarda saqlanadi va ishlatilishiga qadar kredit zaxiralarini tashkil etadi. SHu tariqa davlat bo'sh turgan pul mablag'i tarkibini o'zgartirish orqali bozordagi pulga bo'lgan talab va taklifni sharoitga qarab, doimiy ravishda o'zgartirish va boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi:

Banklardagi zaxirada mablag'ining kamayishi bozorga taklif etilgan pulning ko'payganini bildiradi va aksincha, uning banklardagi zaxirasini ortib borishi bozorga nisbatan pul taklifini kamayganini bildiradi Davlat bosh boshqaruvchi sifatida ushbu nisbatga o'z ta'sirini o'tkazib turadi. U pul zaxirasini qisqartirish hisobidan uning kredit qismini, kredit taklifini oshirib borishi mumkin, natijada kredit foizi pasayib, mijozlarga arzonlashgan kreditni ko'proq

sotib olish imkoniyati tug'iladi, investitsiyani o'sishiga qulay sharoit tug'iladi va iqtisodiy rivojlanish kuchayadi. Kredit foizning ko'tarilishi uning qimmatlashtiradi, unta qiziqish pasayadi, binobarin, investitsiyaning hajmi qisqarishi mumkin, natijada iqtisodiy o'sish ham sustlashadi.

Davlat soliq tizimi orqali iqtisodiyotga ta'sir o'tkazadi va boshqarish jarayonida qatnashadi. Soliqlar hamma mamlakatlarda mavjud bo'lib, majburiy to'lov shaklida formalar, tashkilotlar va aholi tomonidan faqat davlatga to'lanadi. Davlat jamiyat a'zolariga ular kim bo'lishidan qat'i nazar, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatadi. Bu xizmatlar jumlasiga: mudofaa, tinchlik xotirjamlikni, ijtimoiy tartibni ta'minlash, obodonchilik va sanitariya- gigiena ishlarini bajarish, davlatni idora qilish, davlat xavfsizligi ta'minlash, ekalogik muhitni asrash, tabiiy boyliklarni himoya qilish, ommaviy savodxonlikni ta'minlash, nochorlarga yordam berish, ularni ijtimoiy himoya qilish kabi ishlar kiradi.

Shunday qilib, soliqlar davlatning ijtimoiy xizmatlari haqi bo'lib, uni firmalar, kompaniyalar, jamoat tashkilotlari va aholi to'laydi. Demak, soliqlar tekinga berilmaydi, ular davlat ko'rsatgan xizmatlar sarf xarajatini qoplash uchun to'lanadi.

Soliqlar boshqarish jarayoniga quyidagi uch vazifani bajarish orqali o'z ta'sirini ko'rsatadi: fiskal vazifa, ya'ni davlat xazinasini (byudjet)ga pul tushirish; Iqtisodiy faollikni rag'batlantirish. Aholining ayrim toifalariga imtiyoz berib, ularni ijtimoiy himoyalash;

Undirilgan soliq summasini obyektga summasi (hajmi)ga nisbatan hisoblangan miqdori soliq yuki (stavkasi) deyiladi. Qat'iy, progressiv, regressiv, mutanosib soliq stavkalari mavjud. Undiriladigan boj stavkasining me'yori bor. Shu sababli uni cheksiz oshirib bo'lmaydi.

Masalan, optimal variantga muvofiq bo'lmasin progressiv soliqqa tortish: yuqori daromad olishga qiziqishni; yuqori sur'atda unum bilan mehnat qilishni; investitsiyalarga bo'lgan intilishni yo'qqa chiqaradi.

Daromadlarni soliqlardan yashirin usullarini izlash yo'llari muqarrar sur'atda paydo bo'lib, bunday vaziyatda ular jamiyatda salbiy baholanmaydi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, iqtisodiyoti bozorga yo'naltirilgan davlatlarda daromadlar xaddan tashqari yuqori progressiv soliqqa tortilishi bilan kapitallar chet elga chiqib keta boshlaydi.

Sohibqiron Amir Temur o'z davrida soliq undirishda adolatni talab qilgan, chunki uning kelajakka ta'sirini ko'ra bilgan. Uning yozishicha: "Jamiyatdan mol - xiroj yig'ishga ularni og'ir ahvolga solishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo'yishdan saqlash kerak. Negaki, raiyatni xonavayron qilish (davlat) xazinasining kambag'allashishiga olib keladi".

Haddan tashqari, katta soliq to'lovchini og'ir ahvolga soladi, natijada u bo'lg'usi soliqni to'lay olmaydi oqibatda byudjetga pul tushishi qisqaradi.

Iqtisodiyot bir me'yorda rivojlanib borishi uchun soliqlar firma topgan foydaning 40 foizidan oshmasligi kerak. Aks holda firma rivojlana olmaydi.

Subsidiya va sanatsiya davlatning iqtisodiyotini boshqarishdagi kuchli moliyaviy vositalaridan hisoblanadi.

Subsidiya – bu davlat tomonidan aniq maqsad yo'lida ishlatish uchun qaytarib olmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'i.

Subsidiyalar:

- Iqtisodiyotni diversifektsiyalash (tarkiban o'zgartirish);
- Eksport- importni muvozanatlashtirib turish;
- Novatsiya (yangilikni o'zgartirish) ishlarini yo'lga qo'yish;
- Ayrim hududlarga yordam berish;

Konversiya (harbiy ishlab chiqarishdan xalqqa kerakli tovar ishlab chiqarishga o'tish) maqsadida ajratiladi.

Qayd qilingan ishlar serxarajat bo'lganidan subsidiya xarajatlarni butunlay yoki qisman qoplash uchun beriladi. Subsidiya davlatning moliyaviy yordam berib, byudjetga qaytarib berilmaydi.

Subsidiya:

- Jahon bozorida milliy manfaatni himoya qilish.
- Dunyo bozorida narx pasaygan sharoitda tovar eksporti to'xtatib turgan firmalarga madad berish;
- Zarur ish bilan shug'ullanuvchi, lekin yangi, hali moliyaviy zaif firmalarni qo'llab-quvvatlash;

Davlat dasturlari va tavsiyalariga binoan, ish yuritayotgan firmalarni siylash uchun beriladi. Xullas, subsidiya iqtisodiyotni tartiblashga boshqarishga xizmat qiluvchi kuchli iqtisodiy usuldir.

Davlat tomonidan iqtisodiyotning boshqarishning tartiblashning yana bir muhim vositasi – bu moliyaviy sanatsiya (qayta o'rnatish)dir.

Sanatsiya - iqtisodiyot uchun ahamiyati katta korxonalarini tang holatidan chiqarib, ularning normal ishlab turishini ta'minlash hamda korxonalarini ommaviy bankrot bo'lishiga alohida yo'l bermasdan, raqobatchi korxonalar soni me'yorda saqlab turish maqsadida amalga oshiriladi.

Sanatsiyalash quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

- Korxonaga qarzini kechikib yuborish yoki uni o'zgaralar hisobidan to'lash;
- Qarzni to'llash muddatini kechiktirish;
- Qarz uchun beriladigan foizni kamaytirish yoki umuman foiz olmaslik;
- Korxonaga soliqdan engillik berish;
- Soliqni kreditga aylantirish;

- Korxonaga buyurtma berib uning xaqqini oldindan to'lash;
- Subsidiya ajratish;
- Korxonaga eksport yuzasidan imtiyozlar berish;

Davlatning sanatsiyadagi ishtiroki ikki shartni hisobga olgan.

Birinchisi, korxonaning milliy yoki hududiy iqtisodiyot uchun ahamiyati katta bo'lishi kerak;

Ikkinchidan, korxonaning tang ahvolga tushib qolishiga uning o'ziga bog'liq bo'lmagan boshqa obyektiv sabablar bo'lishi lozim.

Davlatning korxonaga yordami bozor talabiga zid kelmagan taqdirdagina unga qo'l uradi. YOmon ishlagan bozor talabiga moslasha olmasdan moliyaviy inqirozga yuz tutgan korxonaga davlat yordam bermaydi, chunki u bozor qoidalariga zid keladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish daromadlarning keskin farqlanishi, aholining turmush darajasi bo'yicha tabaqalashuvi bilan birga yuz beradi. Jamiyatning haddan tashqari boylari va haddan tashqari kambag'allaridan iborat qutblariga ajralishiga yo'l qo'ymaslik uchun davlat daromadlarni qayta taqsimlash vazifasini o'z zimmasiga olishga majbur bo'ladi.

Bunday taqsimlash shaxsiy daromadlarni progressiv soliqqa tortishga va tranfert to'lovlar orqali amalga oshiriladi.

Transfert to'lovlar – bu o'tkazma to'lovlar, davlat byudjeti vositalarini qayta taqsimlash shakllaridan biri.

Bu to'lovlar:

- Xususiy tadbirkorlarga subsidiyalar berish;
- Davlat qarzlari bo'yicha foiz to'lovlari;
- Ijtimoiy ehtiyojlarga davlat tomonidan to'lanadigan pul mablag'lari ko'rinishida bo'lishi mumkin;

Ijtimoiy ehtiyojlarga ajratilgan tranfert to'lovlar kam ta'minlangan aholi guruhlariga, nogironlarga, qariyalar va bironing boquvidagi kishilarga hamda ishsizlarga nafaqa to'lash ko'rinishida bo'ladi.

Boshqaruvning iqtisodiy usullari kishilarga iqtisodiy manfaatlar orqali ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiy usullarning mohiyati xodimlar va ishlab chiqarish jamoasiga ular manfaati bo'lishini ta'minlovchi iqtisodiy sharoit yaratishdan iboratdir. Boshqaruv usullari tizimida iqtisodiy usullar etakchi o'rinni egalaydi.

Iqtisodiy usullar iqtisodiy ta'sir vositalari yig'indisidan (narx, kredit, biznes-reja, foyda, soliqlar, ish haqi, iqtisodiy rag'batlantirish va h.k.), ya'ni xo'jalik faoliyatiga ta'sir etishning har bir jamoa mos xo'jalik bo'g'ini bilan uzviy aloqada amal qilishini ta'minlovchi tadbirlaridan iboratdir.

Bozor mexanizmining muhim vazifalaridan biri biznes reja va bozorning uzviy bog'liq bo'lishiga imkon yaratuvchi pul va tovar resurslari to'g'ri nisbatini ta'minlashdir.

Bozor - bu tovar-pul munosabatlarining doimo saqlanuvchi balansidir. Bozor munosabatlari sharoitida rejali iqtisodiyotga nisbatan qat'iy boshqaruv tizimi o'rnatiladi. Bozor tamoyillari xo'jalik rahbarlaridan tashabbuskorlik, korxonalar faoliyati masalalari bo'yicha yuqori natijalarga erishish maqsadida qayishqoqlik, tavakkalchilikni talab etadi.

Bozor iqtisodiyoti ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga nisbatan qarama-qarshi tizim bo'lib, bozorda narx, soliq, kredit vositasida tartibga solish eng avvalo ijtimoiy maqsadda amalga oshiriladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida narx va ish haqi o'zgarishni qat'iy tartibga solmay barqarorlikka erishib bo'lmaydi.

Shunday qilib, boshqaruvning iqtisodiy usullari juda keng imkoniyatlarga ega bo'lib, ular mohirona va o'z vaqtida tashkiliy-farmoyish, ijtimoiy-ruhiy va huquqiy usullar bilan qo'shib olib borilgan taqdirda yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Korxonalar, aksioner jamiyatlari, firmalarda muhim boshqaruv usullaridan biri - biznes-rejalardir. U iqtisodiy jarayonlarni umummilliy manfaatlarni ko'zlab, xo'jalik amaliyotida obyektiv iqtisodiy qonunlardan foydalanish asosida, ongli ravishda, bir maqsadga intilgan holda boshqarishning o'zaro uzviy bog'lik tizimidan iboratdir.

Biznes-reja vositasida hal etiladigan asosiy vazifalar quyidagilardan iborat: iqtisodiyot rivojlanishi yo'nalishlari va maqsadlarni amalga oshirish yo'llarini ko'rsatish, iqtisodiyotning barqaror, mutanosib o'sishini ta'minlash, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarni tarmoqlar va ishlab chiqarishlar o'rtasida taqsimlash va qayta taqsimlash, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini joriy etishni ta'minlash; tarmoqlararo integratsiya, tarmoq ichida ixtisoslashuv va sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish; xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini tezkor tartibga solish va koordinatsiya qilish.

Biznes-reja korxonalar, aksionerlar jamiyati, kontsernlar faoliyatining hamma tomonlarini: mahsulot ishlab chiqarish va sotish; moddiy-texnikaviy ta'minot va ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish, mehnat va ish haqi, jamoada ijtimoiy jarayonlar va x.k.larni qamrab oladi. Bozor munosabatlari sharoitida ularga rejalashtirish borasida keng huquqlar beriladi.

Shunday qilib, boshqaruvning iqtisodiy usullari juda keng imkoniyatlarga ega bo'lib, ular mohirona va o'z vaqtida tashkiliy-farmoyish, ijtimoiy-ruhiy va huquqiy usullar bilan qo'shib olib borilgan taqdirda yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Takrorlash uchun savollar:

1. Sport menejmentida iqtisodiy usullar nima?
2. Sport tashkilotlarida iqtisodiy usullarning xususiyatlari qanday?
3. Sport tashkilotlarini moddiy rag'batlantirishda iqtisodiy usullarning o'rni qanday?
4. Sport menejmentida iqtisodiy usullarning boshqa usullardan farqi nimada?
5. Sport tashkilotlarida qanday iqtisodiy usullar samara beradi?
6. Sport menejmentida iqtisodiy usullarining qanday yutuq va kamchiliklarini bilasiz?
7. Ma'naviy rag'batlantirish deganda nimani tushunasiz?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
2. Gulyamov Z.T., Nabiullin R.X., Kamilova G.Z. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti. Darslik. –T.: O'zDJTI, 2015.
3. Meskon M., Al'bert M., Xedouri F. Osnovi menejmenta. – M.: ANX, 1995.

Elektron ta'lim resurslari:

Internet saytlari

1. www.bilim.uz
2. www.ekonomika.ru
3. www.menejment.com

2.7. Menejment ijtimoiy - ruhiy usullar

Reja:

1. Sport menejmentining ijtimoiy-ruhiy usullari.
2. Sport menejmentida personal kayfiyatiga ta'sir etuvchi ruhiy omillar.
3. Sport guruhlarini psixologiyasining xususiyatlari.
4. Sport menejmentida ijtimoiy - ruhiy usullarning shaxs ongi va xulqiga ta'siri.
5. Sport menejmentida shaxs psixologiyasi, inson temperamenti, xarakteri, irodasi, qobiliyati, hissiyoti, xotirasi, anglash va his etish qobiliyati.
6. Ijtimoiy-ruhiy usullarning sportda mavjud ijtimoiy mexanizmni qo'llashi.
7. Ijtimoiy usullar jamoani tartibga solish vositasi hisoblanadi.

Tayanch so'z va iboralar:

Ijtimoiy-ruhiy usullar, ishchi xodim, ijtimoiy ehtiyojlar, ruhiy xususiyatlar, ta'sir etish, ijtimoiy hodisalar, chuqur o'rganish, ishchi xodim, kayfiyat, ruhiy omillar, sotsiologiya, ijtimoiy aloqa, ijtimoiy tizimlar, qonuniyatlar, turli qatlam, xulq-atvor, qonuniyat, guruh, omma ruhiyati,

xususiyatlar, ong, xulq ta'siri, omillar, kayfiyat, ijtimoiy fikr, inson temperamenti, xarakteri, irodasi, qobiliyati, hissiyoti, xotirasi, anglash va his etish qobiliyati, fikrlash, ijtimoiy mexanizm, ijtimoiy tartib, maqbul ruhiy holat, kichik guruh, ish, mehnatni insoniylashtirish, maqbul miqdoriy-sifat nisbatini aniqlash.

Menejment boshqaruvining ijtimoiy-ruhiy usullari - bu ishlab chiqaruvchi va ayrim shaxslarga ularning ijtimoiy ehtiyojlari va ruhiy xususiyatlariga ta'sir etish bilan boshqarish vositasidir. Boshqaruvning ijtimoiy-ruhiy usullarini qo'llash korxonada yuz berayotgan ijtimoiy hodisalarni chuqur o'rganish xodimlar nerv tizimi kayfiyatiga ta'sir etuvchi ruhiy omillarni bilishni talab etadi.

Ishlab chiqarish sharoitida ijtimoiy kishilar ijtimoiy aloqasi shakllanishining asosi bo'lgan mehnat omillarini o'rganadi, ijtimoiy tizimlar, shu jumladan, ishlab chiqarish tizimi rivojlanishi va amal qilish qonuniyatlari, kishilarning jamiyatning turli qatlamidagi xulq-atvori qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Ijtimoiy ruhiy guruh va omma ruhiyatning xususiyatlari, ularning shaxsning ongi va xulqiga ta'siri, kishilar faoliyatini rag'batlantiruvchi omillar, kayfiyat, ijtimoiy fikrni shakllantiruvchi omillarni o'rganadi. SHaxs psixologiyasi oliy nerv faoliyati turlari va inson temperamenti, xarakteri, shaxsning irodasi, qobiliyati, hissiyoti, xotirasi, anglash va his etish qobiliyatini o'rganadi, mehnat psixologiyasi mehnat faoliyatlari, shu jumladan, rahbar va mutaxassislar (kasbiy xususiyat va qobiliyatlari, kadrlarni o'qitish usullari, ish va dam olish tartibi, kadrlarni tanlash va baholash usullari, mehnat jarayonining ruhiy jihatlari) faoliyatini o'rganadi.

Kishilar fikrlash usulida o'zgarish yuz berishi va ular madaniy hamda bilim darajasi ortib borishi bilan ijtimoiy-ruhiy usullar ahamiyati ham ortib boradi. Bunday sharoitda shaxsning ehtiyoj va manfaatlari ma'naviy soha tomon o'zgarib boradi. O'z mehnatidan qoniqishning muhim omili bo'lib, ishlab chiqaruvchilarning rahbar bilan o'zaro yaxshi munosabati ishlab chiqarishdagi qulay ijtimoiy-ruhiy vaziyat xizmat qiladi.

Boshqaruvning ijtimoiy-ruhiy usullari ishlab chiqarishda mavjud ijtimoiy mexanizmni (o'zaro munosabat tizimi, ijtimoiy ehtiyojlar) qo'llashga asoslanadi. Boshqaruvning ijtimoiy usullari ijtimoiy tartibga solish vositasida amalga oshiriladi.

Ijtimoiy tartibga solish usullari turli guruhlar va shaxslar maqsadi va manfaatlarini aniqlash va rostdash yo'li bilan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va uyg'unlashtirish maqsadida qo'llaniladi.

Ular jumlasiga ijtimoiy tashkilotlar nizomlari, shartnomalar, o'zaro majburiyatlar, ishchilarni tanlash, taqsimlash va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish tizimi kiradi. Ijtimoiy tartibga solish usullari inson omili faolligini oshirish, boshqaruvni demokratlashtirish maqsadida ham qo'llaniladi.

Boshqaruvning ruhiy usullari jamoada maqbul ruhiy holat tashkil etish yo'li bilan kishilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgandir. Psixologik usullarga kichik guruh va jamoalarni tashkil etish, mehnatni insoniylashtirish, malakali kadrlar tanlash va ularni o'qitish va h.k.lar kiradi.

Kichik guruh va jamoalarni tashkil etish usulini qo'llash kichik guruhdagi ishchilar o'rtasidagi maqbul miqdoriy-sifat nisbatini aniqlash imkonini beradi.

Mehnat faoliyatini insoniylashtirish deganda, ranglar, musiqaning ruhiy ta'siridan foydalanish, bir xil, o'zgarmas mehnatni bartaraf etish, ijodiy yondashuvni kengaytirish tushuniladi.

Kasbiy tanlashning mohiyati - kishilarning ruhiy xususiyatlari ular bajaruvchi ishlariga eng mos bo'ladigan qilib tanlashdan iborat. SHaxsning ruhiy xususiyatlari jumlasiga uning qiziqish va mayllari, qobiliyati, temperament va xarakteri kiradi. Shu sababli, rahbar shaxsga rahbarlik qilganda, o'z oldiga inson ruhiy xususiyatlari shakllanishi va rivojlanishini o'rganishi, uning qiziqish va qobiliyati, temperament va fe'lini bilish vazifasini qo'yishi kerak.

Shaxsning ruhiy xususiyatlarini inson faoliyatida ajratib tushunib bo'lmaydi, chunki kishi qobiliyati va fe'li xususiyatlari uning faoliyati va xulqida namoyon bo'ladi. Inson hayoti va ommaviy faoliyati uning ruhiy holatini shakllantiradi. Insonning qanday hayot kechirishi, nima bilan shug'ulanishini bilmay vujudga kelganligi, u yoki bu narsaga qobiliyat rivojlanganligi, fe'li shakllanganligini anglab bo'lmaydi.

Inson avvalo, o'zini ijodiy shaxs sifatida baholaydi. Ishchi mehnatga bunday nuqtai nazardan qarashga darrov kelmaydi: moddiy ehtiyojlar birlamchi bo'lib, ular qoniqqandan so'ng nisbatan yuksak insoniy ehtiyojlar ilgari suriladi.

Inson faoliyati ma'lum rag'batlantiruvchi omillarga asoslangan bo'lib, ma'lum maqsadga erishishga qaratilgandir. Rag'batlantiruvchi omil - maqsad munosabati inson faoliyati o'zagidir. Umumiy ma'noda rag'batlantiruvchi omil - bu insonni faoliyat yuritish uchun undovchi omil bo'lib, maqsad esa inson uni amalga oshirish natijasida erishishni xohlagan narsadir. Rag'batlantiruvchi omil kishi xulqining ichki kuchidir. Psixologiyada uzoq va qisqa rag'batlantiruvchi omil ajratiladi. Agar inson faoliyatini rag'batlantiruvchi omil va o'z oldiga qo'ygan maqsad yaqin kelajakka mo'ljallangan bo'lsa, u qisqa muddatli, agar ular uzoq istiqbolni qamrab olsa, uzoq muddatli deyiladi. Rag'batlantiruvchi omil darajasi bilan insonning mehnatga, yutuq va muvaffaqiyatsizlikka nisbatan

bo'lgan munosabati uzviy bog'liqdir. Faqat uzoq muddatli rag'batlantiruvchi omil mehnatga ijodiy munosabatda bo'lish manbaidir.

Rahbarga xos bo'lgan muhim xususiyat kishilar faoliyatini rag'batlantiruvchi omillarni yaxshi bilish, har bir kishini u yoki bu vazifani bajarishga qiziqтира olishdir. Bu ayniqsa, u yoki bu korxonaga ishga kirib, ularni kelajakda nima kutishini bilish lozim bo'lgan yoshlar bilan ishlashda muhimdir. Rahbar ishini kim va qachon qaysi skripkani chalishi, qaysi asbobda musiqa chalishini o'rgangan, kim noto'g'ri chalishi mumkinligi, kimni qaysi erga qo'yish kerakligini bilishi lozim bo'lgan dirijyor mehnati bilan solishtirish mumkin.

Kishi ruhiy xususiyatlarning u bajaruvchi ish talablariga mos kelmasligi o'z kasbidan qoniqmaslik uni o'zgartirishga harakat qilishga, xato qilish ehtimoli ortishiga va natijada mehnat unumdorligi pasayishiga olib keladi, aksincha, agar inson o'z qobiliyatini to'liq namoyon qila oluvchi ish bilan band bo'lsa, u o'z mehnatidan mamnun bo'ladi, kasbni tez egallaydi va mehnat unumdorligi yuqori bo'ladi.

Inson uchun faqat moddiy rag'bat muhim deb hisoblash noto'g'ri. Unga juda ko'p narsa katta umumiy ishda o'z hissasi borligini his etish, o'zini mehnat orqali namoyon etish, o'z malakasi bilan g'ururlanishi, o'rtoqlari hurmatiga sazovor bo'lish va h.k.lar ham muhimdir. Ko'pchilik kishilar shaxsiy farovonlikka boshqalar hisobiga erishilgan shaxsiy muvaffaqiyat orqali emas, mamlakat iqtisodiyotiga qo'shgan mehnati hisobiga erishish lozimligini ta'kidlaydilar.

Izlanishlar mehnat mehnatga nisbatan munosabatga ta'sir etuvchi rag'batlantiruvchi omillar quyidagi tartibda taqsimlanishini ko'rsatdi: mehnat mohiyati, ish haqi, yuqori lavozimga ega bo'lish imkoniyati, ishning tashkil etish, ma'muriyatning ishchiga nisbatan munosabati.

Ijtimoiy-ruhiy - bu kishilar va jamoa faoliyati ruhiy va ijtimoiy omillarning o'zaro aloqasi qonunlarini, turli ijtimoiy guruhlar xususiyatlarini, jamoa muloqati va o'zaro ta'sir ko'rsatish shakllarini o'rganadigan ruhiy fanining sohasidir.

Psixologiya insonning ruhiyatini o'rganuvchi fandır. Inson ruhiyatiga esa sezish, idrok qilish, tasavvur, tafakkur, taassuf jarayonlari xotira, diqqat, e'tibor, iroda shuningdek, inson shaxsning ruhiy xususiyatlari, chunonchi, qiziqish, qobiliyat, xarakter va mijoz kiradi.

Boshqarishning ijtimoiy-ruhiy usullari quyidagi muammolarini hal qilishga qaratilgan:

	Sportchilarning ijtimoiy-ruhiy xususiyatlari, chunonchi, qobiliyatlari, mijozlari harakatlari va hokazolarni hisobga olgan holda mehnat jamoalarini tashkil toptirish. Buning natijasida jamoani rivojlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida hamkorlikda ishlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi.
	Ijtimoiy yurish-turish me'yorlarini o'rnatish va rivojlantirishga yaxshi va namunali an'analarni qo'llab-quvvatlash va milliy urf- odatlarni joriy etish va hamda jamoa ongini o'stirishga yordam beradi.
	Ijtimoiy rivojlantirish va kishilarning intilishini, tashabbusini rag'batlantirish, umumiy ta'lim darajasini oshirish, madaniy, ma'naviy va ma'rifiy o'sish, malaka oshirish, estetik ravnaq va mehnatga ijodiy munosabatni ta'minlaydi.
	Kishilarning madaniy va ijtimoiy - maishiy ehtiyojlarini qondirish, chunonchi, uy-joylar, bolalar bog'chalari, klublar, profilaktoriyalar, sport inshootlari va hokazolarni ko'rishga sharoit tug'dirish.
	Mehnat jamolarida talabchanlik o'zaro yordam intzomni buzuvchilarga murosasizlikdan iborat sog'lom ijtimoiy-ruhiy muhitni vujudga keltirish va uni qo'llab-quvvatlashga sharoit tug'diradi.
	Odamlarning o'z mehnatidan, tanlagan mutaxassisligi va kasbidan qoniqishlari uchun, ishlab chiqarish samaradorligi va ish sifatini oshirish uchun shart - sharoitlarini vujudga keltiradi.

Bu muammolarning echimi boshqalarning yanada uyushqoq, samarali bo'lganini talab qiladi.

Amaliy boshqarishda ijtimoiy-ruhiy metodlardan samarali foydalanish uchun boshqarish obyektining holati to'g'risida keng axborotga eta bo'lishi kerak. Bunday axborot olish uchun jamoada bevosita ijtimoiy tadqiqotlar o'tkazish lozim.

Ijtimoiy tadqiqotlar juda xilma-xil axborotlar olish imkonini beradi, chunonchi: jamoa a'zolarining mehnat va rahbarlarga munosabati; boshqarish usullarining bir-biri bilan o'zaro munosabati; jamoaning ehtiyojlari va qiziqishlari; xodimlarning shaxsiyati;

Transfert to'lovlarga to'lashning ham optimal chegaralari mavjud. Gap faqat ushbu maqsadlar yo'lida foydalanish mumkin bo'lgan byudjet mablag'larining mavjudligida emas.

Agar jamiyatda o'rta hollar salmog'i kichik bo'lib, badavlat kishilar salmog'i katta bo'lsa, salbiy ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar ham yuz berishi muqarrardir. Davlat bunday tabaqalarni qarshi transfert qurishi zarurdir.

Ikkinchi tomondan, nafaqalarning aholining ko'p sonli toifalarga katta miqdorda va xilma-xil shakllarda berilishi bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan mehnat qilishga undashni barbod etishga, oldingi davlat–tekischilik taqsimotidan qolib kelayotgan tayyorgarlik psixologiyasini mustahkamlab, uni yangi bozor sharoitlariga moslashtirishga olib kelishi mumkin.

Shunday qilib, bu o'rinda ham transfert boshqaruvi amalga oshirilayotgan konkret sharoitlarni hisobga olib optimal variantni izlash zarur.

Boshqarishning ko'rib chiqilgan iqtisodiy usullari o'zaro bog'liqlik qismlar tizimidir. Xo'jalik mexanizmining optimal ishlashi uchun bu qismlarning boshqaruv obyektiga bo'lgan ta'sirini doimo oshirib borish va faollashtirish lozim bo'ladi.

Ijtimoiy – ruhiy usullarning asosiy maqsadi jamoalarda sog'lom ijtimoiy-ruhiy muhitni yaratishdir. Bu usul ijtimoiy-ma'naviy vaziyatga ta'sir etish yo'li bilan kishilarning fe'l-atvori, ruhiyatini hisobga olib ularning ijtimoiy talablarini qondirish orqali boshqarishni bildiradi.

Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy-ruhiy usullar bu ishlab chiqarish jamoalarini, ulardagi “ruhiy vaziyatni, har bir xodimning shaxsiy xususiyatlarini o'rganishga asoslangan usullardir. O'z mohiyatiga ko'ra, boshqarish usullarining bu guruhi jamoaning shakllanish va yuksalish jarayoniga, kishilarning ongiga, ma'naviy manfaatlariga hisobga olgan holda ta'sir qiluvchi vositalarning majmuidir.

Ijtimoiy-ruhiy usullar “boshqarish sotsiologiya”si va “boshqarish psixologiyasi”ga asoslanadi.

Boshqarish ijtimoiy insonning ishlab chiqarish omillari bilan o'zaro aloqasi jamoaning ijtimoiy rivojlanishini rejalashtirish, mehnat jamoasini tarkib toptirish xodimlarning tashabbusini va ijodiy faolligini oshirish kabi muhim muammolarni ko'rib chiqadi.

Boshqarish psixologiyasi sportchilarning boshqarish faoliyatlarini va natijalarni aniqlashga xizmat qiladigan hodisalarni o'rganadi. U funktsiyalarni taqsimlashda xodimlarni rag'batlantirishda, intizomni mustahkamlashda va hakazolarda qo'llaniladi.

Jamoa a'zolarining ma'naviy va jismoniy ravnaqi; ehtiyojlarining qondirilish darajasi va hokazo to'g'risidagi axborotlar.

Bu axborotlar jamoalarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga va xilma-xil ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan tadbirlar ishlab chiqish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy tadqiqotlar olib borishga jamoaning o'z sotsiologik xizmatlari, shuningdek, xo'jalik shartnomasi asosida ilmiy muassasalar va o'quv yurtlarining xodimlari jalb qilinishi mumkin.

Ijtimoiy tadqiqotlarni uyushtirish yo'llari

	USULLAR	IZOH
1.	Hujjatli usul	Bunda zarur ma'lumotlar statistik to'xtamlardan, boshlang'ich hisobga olish hujjatlaridan olinadi.
	Shaxsiy xarakterdagi hujjatlar dan foydalanish usuli	Turli masalalar yuzasidan kishilarning o'z qo'llari bilan yozilgan narsalar: ariza shikoyat, qarindosh-urug' va tanishlarga yozilgan xatlar, tarjimai xol tushuntirish xatlari va hakazolar; Turli guruhdagi kishilarning hayotiy maqsadi, yurish-turish sabablari, talablari, ehtiyojlari, tashvishlari to'g'risidagi fikr yuritish imkoniyatini beruvchi muhim sotsiologik axborot bo'lishi mumkin.
	Ilmiy Konferen tsiyalar o'tkazish usuli	Bunday konferentsiyalar tayyorlash va uni o'tkazishda odatda ayrim masalalar yuzasidan material to'planadi. Amaliy tavsiyanomalar ishlab chiquvchi bir qancha xodimlar ishggirok etadi. Bu metodning ijobiy tomoni shundaki, muammolarni o'rganishga keng jamoatchilik jalb etiladi va jamoa fikridan foydalaniladi.
4.	Anketali usul	Oldindan tayyorlangan dastur bo'yicha yozma ravishda savollar beriladi va yozma javoblar olinadi.
5.	Interv'yu olish usuli	Bunda muammoni o'rganish uchun xodim bilan bevosita suhbat o'tkaziladi. Rahbar yoki tadqiqotchi suhbat davomida masalalarni aniqlashlari, chuqurlashtirishlari va shu yo'l bilan ishonchli va mukammal ma'lumotlar olishlari mumkin.
6.	Kuzatish usuli	Jamoa faoliyatini shaxsan kuzatish, odamlar bilan uchrashish va muloqatda bo'lib, obyektiv va batafsil axborot yig'ish, shuningdek har bir jamoa rolini baholash imkonini beradi.
7.	Ijtimoiy eksperiment o'tkazish usuli	Bir usulda sun'iy ravishda ijtimoiy vaziyatni vujudga keltirish yo'li bilan ijtimoiy hodisalar to'g'risidagi ilmiy xulosalar va mavjud bilimlar tekshirib ko'riladi. Buning uchun maxsus guruh uyushtirib, shu guruh faoliyati umumlashtiriladi va amaliy xulosalar chiqariladi.

Qayd qilingan ijtimoiy tadqiqotlarining ham ijobiy jihatlari, ham kamchiliklari bor. SHuni hisobga olgan holda, u yoki bu usulni voqeilikni real aks ettirishi va ko'proq samara berishiga qarab tanlash lozim. Tajribalar esa bu usullarini ma'lum darajada birga qo'shib qo'llanishi maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatadi.

Mehnat jamoalaridagi ijtimoiy-ruhiy vaziyat yuzaga kelgan nizolar soni bilan belgilanadi. Nizo-bu rahbar, ishchi va boshqa xodimlar orasida muayyon masalalarni hal qilishda tomonlarning bir-biri bilan bir echimga kela olmaganligini bildiradi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Sport menejmentining ijtimoiy-ruhiy usullari nima?
2. Sport menejmentining ijtimoiy-ruhiy guruh va omma psixologiyasiga ta'siri qanday?
3. Sportchiilar faoliyatini rag'batlantiruvchi omillar, kayfiyat, ijti-moiy fikrni shakllantirishda sport menejmentining roli?
4. Sport menejmentining sportchi psixologiyasi, uning shijoati, xarakteri, irodasiga ta'siri qanday?
5. Sportchilarning fikrlash usulida o'zgarish hosil qilish, ijtimoiy-ruhiy usullarning ahamiyati qanday?
6. Ijtimoiy-ruhiy usullarning sportda mavjud ijtimoiy mexanizmni takomillashtirishga ta'siri qanday ?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
2. Gulyamov Z.T., Nabiullin R.X., Kamilova G.Z. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti. Darslik. –T.: O'zDJTI, 2015.
3. Meskon M., Al'bert M., Xedouri F. Osnovi menejmenta. – M.: ANX, 1995.

Elektron ta'lim resurslari:

Internet saytlari

1. www.bilim.uz.
2. www.ekonomika.ru.
3. www.menejment.com.
4. **Ошибка! Недопустимый объект гиперссылки.** sayti.
5. **Ошибка! Недопустимый объект гиперссылки.** sayti.
6. www.performance.edu.uz - Vazirlik sayt.

III. O'ZBEKISTONDA SPORTNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TIZIMLARI

3.1. Sportda hozirgi zamon boshqaruv tizimining shakllanishi

Reja:

1. Boshqaruv tizimlari to'g'risida tushuncha va ularning klassifikatsiyasi.
2. Sport menejmentida tizimli yondashuv.
3. Sport menejmentida vaziyatli yondashuv.
4. Yangi sharoitda zamonaviy sport tizimlarini shakllanishi.
5. G'arbda zamonaviy ijtimoiy tizimlar maktabini yaratilgani.
6. Sport menejmentida tizimli yondashuv asoslarini ishlab chiqilishi.
7. Sport menejmentida boshqaruvning zamonaviy tashkiliy tizimlari.
8. Gorizontalar (funktsonal) tizim (funktsonal tuzilmasi).
9. Tik chizikli-gorizontalar (funktsonal) tizim (chizikli – funktsonal tuzilmasi).

Tayanch so'z va iboralar:

Tizim, vaziyat, egiluvchan tizim, boshqarishga yondashish, tizimli yondashish, vaziyatli yondashish, strategik yondashish, ishlab chiqarish vaziyatlari, tizim kontseptsiyalari, boshqaruv tizimlari, klassifikatsiya, ijtimoiy-iqtisodiy tizim, tizimli yondashuv, vaziyatli yondashuv, tizimli, vaziyatli, funktsonal (protssessual) va miqdoriy yoki sonli, nazariya, amaliyot, tashkiliy tizimlar, tik chizikli tizim, gorizontalar (funktsonal) tizim, tik chizikli-gorizontalar (funktsonal) tizim, yutuq va kamchiliklar, aloqa, faoliyat, ma'muriy ta'sir, universal tizim, texnikaviy tizim, texnologik tizim, qonun-qoida, me'yor, standartlar, marketing, tashkiliy tizimlar, ijtimoiy-iqtisodiy tizim.

Zamonaviy menejmentning maqsadi hozirgi zamon axborot texnologiyalari asosida boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish, jumladan, qaror qabul qilish jarayonini elektron hisoblash texnikasi hamda eng yangi matematik usul va vositalarni qo'llagan holda amalga oshirishdir. Yangi zamonaviy usullarning rivojlanib borishi tizimli menejmenti shakllanishiga olib keldi va o'z navbatida, boshqaruv qarorlarining oqilonaligini ta'minlashga imkon yaratdi.

1950 yildan boshlab N.Vinner, G.Saymon, P. Duruker, E.Deyl va boshqalar miqdoriy, tizimli yoki zamonaviy menejmentning murakkab boshqaruv muammolarini chuqurroq tushunish maqsadida turli iqtisodiy – matematik modellarini ishlab chiqib, ularni boshqaruv jarayoniga tatbiq etish ustida katta ishlar olib borishdi. Natijada murakkab vaziyatlarning echimi bo'yicha

boshqaruv xodimlariga yordam beruvchi miqdoriy usullar keng miqyosda ishlab chiqildi.

XX asrning 60-80 yillarida G'arbda zamonaviy menejment rivojlana boshlandi. G'arb nazariyotchilari boshqaruvning ijtimoiy tizimlar maktabini yaratish maqsadida quyidagi ilmiy masalalarga o'z e'tiborlarini qaratishdi:

- menejmentda tizimli yondashuv asoslarini ishlab chiqishdi;
- menejmentda yaxlit (integral) tizim bilan uning (differentsial) qismlari munosabatlari masalalarini ko'rib chiqishdi;
- bir qancha o'zgaruvchi (dinamik) omillarning ta'sirini o'rganishdi.

Menejment nazariyasini rivojlantirishga sobiq ittifoqning A.K. Gastev, P.M. Kerjentsev, V.G.Afnas'ev, D.V. Gvishiani, S.E. Kaminitser, O.V. Kozlova, D.M. Kruk, A.M. Omarov, G.X. Popov, V.Q.Qobulov kabi olimlari ham o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shganlar. Sobiq ittifoqda mehnatni ilmiy tashkil qilish va boshqarish sohasini ilmiy tatbiq qilish 1920 yillarda boshlangan. O'sha yillari Markaziy mehnat instituti (MMI) tashkil etilib, mehnatni ilmiy tashkil qilish bo'yicha qator konferentsiyalar o'tkazildi. Maxsus jurnallar chop etilishi yo'lga qo'yildi. O'quv yurtlarida "Mehnatni ilmiy tashkil qilish" fani o'qitila boshlandi.

Markaziy Osiyoda esa menejmentning nazariy asoslari va uning asosiy printsiplari qadim zamonlarda ham u yoki bu ko'rinishda mavjud bo'lgan. Ammo ular Amir Temur hukumronligi davriga kelib, ma'lum shaklni kasb etgan, bunga Amir Temurning "Temur tuzuklari" asari yorqin misol bo'la oladi.

O'zbekistonda mustaqillik davriga kelib, menejmentning nazariy va amaliy asoslarini, ularning barcha toifalarini takomillashtirishga katta e'tibor berilyapti. Ayniqsa, yoshlar o'rtasida menejmentga, shu jumladan, jismoniy tarbiya va sport menejmentiga qiziqishni ortib borayotgani fikrimizning dalilidir.

Ko'rib chiqilayotgan davr boshqaruviga bir necha yondashuvlarning bir vaqtda taraqqiy topganini, ularning ichida o'zlariga yarasha ta'lim va nazariyalar bunyod bo'lganini tasdiqladi. Shu bilan bir qatorda, G'arb nazariyachilarining tizimli, vaziyatli, funksional va miqdoriy yoki sonli kabi to'rtta yondashuvi ajratib ko'rsatganliklarini shohidi bo'ldik.

Sport menejmentga tizimli yondashuv turlari

	Yondashuv turlari	Izoh
1.	Tizimli yondashuv	Tizim-bu bir-biri bilan o'zaro bog'langan qismlar majmuidir. Har bir qism yaxlit tizimining o'zgarishiga o'z hissasini qo'shadi. Tashkilot – bu yaxlit ochiq tizimdir. Uning taqdiri tashqi va ichki muhitga bog'liq. Tashkilotni boshqarishga tizimli yondashuvda asosan, uning ichki muhitiga (iqtisodiy, ilmiy-texnik, ijtimoiy siyosiy), e'tibor beriladi. O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni boshqaruv tizimi shakllangan va uni takomillashib borishiga e'tibor berib kelinyapti.
2.	Vaziyatli yondashuv	Garchi tizimli yondashuvda “Yaxlit tashkilot qanday qismlardan tashkil topgan?” degan javob topa olsakda, bu o'rinda qismlarning qaysi biri muhim, qaysi biri ikkinchi yoki uchinchi darajali degan savol ko'ndalang turmaydi. Yaxlit tizimining qaysi biri o'ta muhim, degan savolga vaziyatli tahlil javob beradi. Bunda tashkilotning ichki tarkibidagi o'zgarishlar tashqi muhitning ta'siri bilan bog'lab o'rganiladi, ammo turli darajadagi vaziyat turli darajadagi bilimni talab qiladi. Jismoniy tarbiya va sportni boshqaruv tizimlarida vaziyatning o'zgarib turishi boshqa sohalarga qaraganda jadallroq uchrab turadi deyish mumkin.
3.	Funksional yondashuv asosida menejment funksiyalarini amalga oshirish	Funksional yondashuv asosini texnika-texnologiya, moddiy-texnik ta'minot, xodimlar, moliya ta'minoti va boshqalarni o'zaro mujassamlashtirgan tizim tashkil etadi. Funksional vazifalarning ijrosi menejmentning quyidagi funktsiyalari orqali amalga oshiriladi. Funksional faoliyatni rejalashtirish; Funksional faoliyatni tashkil etish; Funksional faoliyat a'zolari ishini motivatsiyalash; Funksional faoliyat natijalarini nazorat qilish.
4	Miqdorli yondashuv	Miqdorli yondashuv orqali mavjud tizim doirasida asosan quyidagi masalalar amalga oshiriladi: - Menejment boshqaruvida operatsion printsiplarga amal qilish.

		<ul style="list-style-type: none"> - Menejment boshqaruvida qaror qabul qilish nazariyasi printsiplariga amal qilish. - Iqtisodiy-matematik modellar va usullar menejment amaliyotiga keng joriy etiladi. - Miqdorli yondashuvdagi boshqarish jarayonida matematik, statistika, kibernetika, muhandislikfanlari bilan bir qatorda sotsiologiya, ruhshunoslik, tizimlar nazariyasi kabi fanlardan xam keng foydalaniladi.
--	--	---

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bu yondashuvlar bir-biriga o’zaro qarama-qarshi emas. Ular ma’lum darajada erkindirlar, chunki ular qandaydir yo’nalish bo’yicha bir-birini to’ldirish yoki taraqqiy toptirish maqsadida ba’zi bir g’oyalar bilan bog’langandirlar. Shu davrlarda menejment nazariyasi bo’yicha paydo bo’lgan bir qator izlanuvchilar maktablarini e’tibor bilan o’rganiladigan bo’lsak, ularning tadqiqotlarini umumiy “Boshqarish nazariyasi va amaliyoti” yoki “Boshqaruv fani ta’lim” nomlari bilan birlashtirish mumkin bo’ladi.

Shu borada amerikalik Ch.Barnard, G.Saymon tomonidan zamonaviy menejmentga qaratilgan va ilmiy tomondan asoslab berilgan boshqaruvga yangicha yondashuvning quyidagi to’rt (tizimli, vaziyatli, funktsional va miqdoriy) yo’nalishga e’tiborni qaratadigan bo’lsak, haqiqatdan ham menejment fani asrlar davomida shakllanib, rivojlanib borishi natijasida zamonamizning eng ilg’or va dolzarb sohasiga aylanganini ko’rish mumkin.

Jadvaldan ko’rinib turibdiki, menejment yondashuvlarini jismoniy tarbiya va sportga tadbiq etadigan bo’lsak, eng avvalo, barcha yondashuvlar tizimli usullarga bevosita bog’liq ekanligi va ularning amaldagi ijrosi maxsus boshqaruv tizimlari orqali amalga oshirilishi mumkinligini ko’rish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, jismoniy tarbiya va sportni boshqarish har doim ma’lum tizim orqali amalga oshirilishi va ushbu tizimning zamon talablari asosida takomillashib borishi qonuniyat darajasida ekanligini tan olmasdan, iloj yo’q.

O’zbekistonda ham Kibernetika fanining shakllanishi davridan boshlab, ayniqsa, mustaqillik davriga kelib, “Boshqarish nazariyasi va amaliyoti” fani jadal sur’atlar bilan rivojlanib kelayapti. Fandagi ushbu yo’nalishning rivojlanishi jismoniy tarbiya va sport menejmentining nazariy va amaliy asoslarini takomillashuviga qo’shilgan katta hissa bo’layapti deyish mumkin.

Menejment nazariyasi va amaliyotida XX asr 50-60 yillarning oxiriga kelib, tizimli yondashuv keng taraqqiy topa boshladi. Avvalgi menejment nazariyalari ko’pgina yutuqlarga ega bo’lishiga qaramasdan, ba’zi kamchiliklari ham namoyon bo’la boshladi. Asosiy kamchilik shundan iborat ediki,

menejment masalalarining keng doirali bo'lishiga qaramay, asosiy diqqat-e'tibor boshqaruvning faqatgina ba'zi bir tor elementlariga qaratilgan. Jumladan, ularga boshqaruvdan kutilgan natijaga umumiy samaradorlik deb qaralmadi, natijada menejment faoliyatida pirovardi natijalarga erishishda umumiylikni ta'minlash muammolari yuzaga kelib chiqq boshladi.

Menejmentda umumiylikni ta'minlashni boshqaruv tizimi orqali amalga oshirilishi mumkinligi oydinlashib qoldi. Boshqaruvda tizimli nazariyasining shakllanishi va rivojlanib borishi rahbarlarga tashkilotni to'laligicha bir butun hisoblab, ularni tashkil qiluvchi qism (element)larini o'zaro bog'langan holda ko'rish imkonini yaratadi. Menejmentga tizimli yondashish boshqaruv faniga salmoqli hissa qo'shdi.

Boshqaruvga tizimli yondashuv nazariyasi menejment tarixida birinchi marotaba uning barcha kategoriyalarini birlashtirgan, yaxlit holatda ko'rish, tasavvur qilish va undan unumli foydalanish imkonini yaratdi. Haqiqatan ham, shu davrgacha menejmentning asosiy kategoriyalari bo'lmish, uning printsipi, funktsiyalari, usullari va texnologiyalari alohida talqin etib kelinib, yaxlitlikni ta'minlash imkoniyati bo'lmagan. Menejmentga tizimli yondashish nazariyasi uning tarqoq holdagi toifalarini birlashtirib, ko'zga ko'rinadigan darajada ularni birlashtirish va bir-birlarini to'ldirish imkoniyatini yaratgan holda umumiy maqsad sari yo'naltirdi.

Tizim, yoki tizim grekcha so'z bo'lib, menejment nuqtai - nazaridan bir biriga bog'langan ko'plab elementlarning ma'lum bir yaxlitligini ifodalaydi. Elementlar murakkab yaxlit tizimning tarkibiy qismi hisoblanadi. Jismoniy tarbiya va sportda boshqaruv tizimi oddiy sportchi bilan shu sohadagi eng yuqori lavozimdagi rahbar orasidagi mavjud barcha elementlarning bir-biri bilan majmuasi tushiniladi.

Boshqaruv tizimlari o'zlarining mohiyati, vazifasiga ko'ra, turli shakllarga ega bo'ladi, ularni shartli ravishda quyidagi turlarga ajratish mumkin: texnikaviy, texnologik, biologik, tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy, mashg'ulot, musobaqa va boshqa tizimlar.

Tizimning har bir turi o'zining aniq vazifalariga ega:

Boshqaruv tizimlari ichida asosiy va tayanch tizim vazifasini o'tab kelayotgan tarkib-tashkiliy tizim hisoblanadi, u ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish, mehnat zaxiralaridan maqbul ravishda foydalanish, boshqaruvning turli-tuman tizimlarini yaratish uchun imkon beradi. Jismoniy tarbiya va sportda boshqaruvning tashkiliy tizimlari sport turiga, boshqaruvning ierarxik pog'onasiga qarab shakllangan bo'ladi.

1. Respublikada jismoniy tarbiya va sportni boshqarish shakllari, umumiy va maxsus vakolatli organlar.

2. O'zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya Qo'mitasi boshqaruv tashkilotlari tizimida.

3. O'zbekiston Respublikasida sport sanoatini rivojlantirishning maqsadli kompleks dasturi.

4. Jismoniy tarbiya va sport sohasida mehnat munosabatlari.

5. Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha faoliyatning moddiy texnik ta'minoti.

6. Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari xodimlarini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish shakllari.

Menejmentning boshqaruv tizimlari orqali O'zbekistonda, uning yirik shaharlari, viloyatlarining markazlarida sport majmualari, stadionlar, tennis kortlari, suv havzalari, o'tkazilayotgan rasmiy musobaqa jarayonida turli xil reklamalar tashkil etilgan, televidenie-radio orqali sport sohasidagi yangiliklar, sport jihozlari va boshqalarni targ'ib qilish odat tusiga aylangan. Bunday faoliyatlar sport menejmentining yurtimizda dadil qadamlar bilan rivojlanib borayotganidan darak beradi. Ommaviy axborot vositalari orqali jismoniy tarbiya va sportni targ'ib qilish bilan birgalikda uning taraqqiyotidagi asosiy bosqichlar, omillar ham yoritib borilmoqda.

Sport menejmenti faoliyatlarini rejalashtirishni asosan, ikki yo'lini ko'rish mumkin, ya'ni sport tovarlarini ishlab chiqarish rejasi va sport faoliyatlarini harakatga solish rejasi. Ularning tarkibida o'ta murakkab ish faoliyatlari, xizmatlar va boshqa sohalar mazmun topadi. Bunga oddiy bir misol qilib quyidagini keltirish mumkin.

Sportchilar oyoq kiyimini (keta, butsi, botinka va boshqalar) tayyorlash, teri yoki sun'iy terini tanlash, ranglarni belgilash turli hajmlarda bichish-tikish, belgi qo'yish, bog'ich yoki oyoqqa mahkamlovchi moslamalarni joylashtirish, maxsus joylarda ularni saqlash, jo'natishga tayorlash, markalar qo'yish, narxlarni belgilash va h.k. Boshqa sport asbob uskunalari, buyumlari, jihozlarini ham shu tarzda tayyorlashning xayolan tasavvur qilishning o'zi menejment haqidagi tushunchalarni to'ldiradi. Bunday holatlarni avvaldan belgilab olish ishning aniq maqsad yo'lida borishi va yaxshi samaralarga erishishini ta'minlaydi.

Ishlab chiqarilgan sport mahsulotlarini xaridorlarga etkazish maxsus "sport marketingi" tizimi orqali amalga oshiriladi, ya'ni bozor iqtisodiyoti sharoitidagi talab va taklif qoidalari ishga tushadi. Bu jihatlarni ham avvaldan maqsad yo'lida rejalashtirish talab etiladi, boshqaruv tizimini shakllantiruvchi quyidagi eng muhim bo'lgan omillar va shakllar ishtirok etishi mumkin:

- sport tovarlari korxonasiga murojaat qilish;
- iste'molchiga xabar qilish;

- iste'molchini ishontirish;
- sport mahsulotlari haqida ma'lumotlar berish;
- marketing xizmat turlarini amalga oshirish;
- yangi marketing g'oyalari taklif etish va h.k.

Mahsulotlarni o'tkazish (sotish) uchun ehtiyojlarni kuchaytirish rag'batlantirish hamda tashkilotlar, kompaniyalar ramzini yaxshilash maqsadlari qo'yiladi.

Sport menejmentidagi asosiy maqsad, vazifalar va g'oyalarni amalga oshirish uchun rejalashtirilgan tadbirlar asosida quyidagi faoliyatlarni o'tkazish lozim bo'ladi.

1. Faoliyatarni harakatlanturuvchi targ'ibot manbalari (matbuot, teleradio, sport inshootlari, ko'rgazma reklama, uchrashuv, xatlar yuborish va h.k).
2. Doimiy nashr etiladigan vositalarda (jurnal, serial qo'llanmalar, xabarlar va h.k.) nashr qilish.
3. Matbuot anjumanlar, prezentatsiyalar.
4. Maxsus nashrlar.

Shuni ham ta'kilash lozimki, mahsulotlarni o'tkazish (sotish) faoliyati shaxsiy sotish yo'li bilan ham amalga oshiriladi. Bunda sotuvchi va boshqa xizmatchilarning qiyofalari, kiyinishlari, zeb-ziynatlari (taroq, atir-upa va hokazolar), o'zini tutishi (ochiq chehra) qo'llar bilan ko'rsatish kabi harakatlar muhim ahamiyatga ega.

Menejment faolitada turli-tuman qiyinchiliklar sun'iy to'siqlar uchrashi mumkin. Ayniqsa, "qiyin" xaridorlar bilan muomala qilish san'ati ancha ustun turishi lozim.

Menejment faoliyatida mahsulotlarini baholash bir muncha ustuvor mas'uliyat hamda tadbirlardan biridir. Mahsulotlarga narx qo'yishning umumiy strategiyasi mavjud bo'lib, ular juda ko'p omillardan iboratdir. Bunda quyidagi jihatlarni ko'rish mumkin:

- Narx-navo talabgorlik aloqasi. Bu asosan, ehtiyoj va uning o'zgarib turuvchi qonuniyatlarini belgilovchi iqtisodiy holatlardir. Talabgorlik (ehtiyoj) qonuni narx o'rnatadi (belgilaydi), xaridorlar esa ularni eng arzon narxda oladi.
- Narx iqtisodiy vosita sifatida tez-tez o'zgarib turadi. Ishlab chiqaruvchilar (sotuvchilar) ham, istemolchilar (xaridorlar) ham narxni mo'ljalga olib ish ko'radilar.
- Narxlarning shakllanishi bosqichma-bosqich, g'oyat murakkab kechadi. Uning o'z qonun-qoidalari mavjud. Asosiy omillarga tovarning qiymati, tovarga talab va taklif, tovarning nafligi va nihoyat, raqobatni kiritish mumkin.


- Narxni yuzaga keltiruvchi eng muhim omil talab va taklifning nisbati hisoblanadi. Agar talab taklifdan ustun kelsa, narx oshadi, agar taklif talabdan ko'p bo'lsa, aksincha, narx pasayadi. Talab narxni oshirgan chog'da unga javoban taklif ko'payadi, chunki yuqori narx sharoitida foydani ko'proq olish mumkin.

Bu holatlar narxlarning bir zayilda turishi va mahsulot xaridorlarining ko'payishi bilan bog'lanib ketadi. Natijada, menejment faoliyati to'g'ri ekanligi ayon bo'ladi.


Sport menejmenti faoliyatida izlanish, tadqiqot ishlari muhim ro'l o'ynaydi, ya'ni mahsulot turlarini tanlash, talabgorlarni topish, narx-navolarni me'yorida saqlash qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirishning asosiy omilidir. Bu ish usullari aholining, ayniqsa,, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning talab va ehtiyojlarini qondirishda asosiy tadbirdir. Shu jihatdan olganda, O'zbekiston sharoitida mavjud bo'lgan sport buyumlari va jihozlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar, eng avvalo, aholining ehtiyojini e'tiborga olishlari zarur. Iste'mol uchun zarur bo'lgan Mahsulotlarning sifatini yaxshilash, ularni xorijdan keltirayotgan sport mahsulotlari darajasidan oshirish yo'llarini izlash va maqsadga erishish kerak. Shunda mahalliy menejment faoliyati sport jamoalari orasida ham keng yoyilishiga erishgan bo'lamiz.

Sport menejmenti nazariyasi va amaliyoti nuqtai nazaridan boshqaruvning tashkiliy tizimlari asosan quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi:


1. Tik chiziqli tizim.
2. Gorizontal (funktsional) tizim.
3. Tik chiziqli-gorizontal (funktsional) tizim.



1. Tik chiziqli tizim



2. Gorizontal (funktsional) tizim



3. Tik chiziqli-gorizontol (funktSIONAL) tizim.

Sport boshqaruvning ushbu tashkiliy tizimlari asosan, menejment nazariyasining rivojlanib borishi va amaliyot tajribasi orqali yuzaga kelgan, ularning har biri ma'lum yutuq va kamchiliklarga ega. Masalan, tik chiziqli tizimning yutuqli tomonini ko'radigan bo'lsak, u rahbar topshiriqlarini aniq va jadal sur'atlarda ijrochilarga etkazib berish imkoniyatiga ega, xuddi shu yo'sinda nazorat ham amalga oshiriladi. Ushbu tizimning kamchiliklari ijrochilarning ijodiy izlanishlariga, tashabbus ko'rsatishlariga imkon bermaydi, demak boshqaruvda demokratik usulga yo'l to'siladi.

Tik chiziqli tizimning kamchiliklarini bartaraf etish maqsadida funktsional shakldagi tizim joriy etilgan va gorizontol yo'nalishdagi aloqalar orqali ijrochilarga o'z faoliyatlarida ijodiy izlanish va tashabbuskorlikka imkon yaratilgan, ya'ni boshqaruvda demokratiyaga erishilgan. Lekin boshqaruvdagi rahbar tomonidan ijrochilarga nisbatan qo'llaniladigan ma'muriy ta'sir o'z kuchini susaytirgan, natijada boshqaruv jilovi qo'ldan ketgan deyish mumkin.

Ko'rinib turibdiki, sport boshqaruv tizimining ushbu ikki shakllarida birinchisining (ya'ni, chiziqli tizimning) yutuqlari ikkinchi shaklda (funktSIONAL tizimda) kamchilikka aylanyapti va aksincha, kamchiliklari yutuqqa aylanyapti. Xuddi shuning aksi sifatida ikkinchisining (ya'ni, funktsional tizimning) yutuqlari birinchi shaklda (chiziqli tizimda) kamchilikka aylanyapti va aksincha, kamchiliklari yutuqqa aylanyapti.

Yuzaga kelgan nomutanosiblikni bartaraf etishning qulay yo'li ikki shaklni birlashtirib, universal tizim yaratish bo'ldi, ya'ni boshqaruvda chiziqli – funktsional tizim paydo bo'ldi. Ushbu tizim orqali birinchi va ikkinchi shakllardagi boshqaruvning yutuqlari o'z o'rnida qoldi va kamchiliklari yo'qolib, yutuq darajasiga ko'tarildi. Hozirgi kunda xalq xo'jaligining barcha


sohalarida, jumladan, jismoniy tarbiya va sport boshqaruvlarida ham chiziqli – funktsional tizimlardan keng foydalanildi, deyish mumkin.

Masalan, O'zbekistonda ot sportini boshqaruviga nazar tashlasak, har qanday boshqaruvdagi kabi, ot sportini boshqaruvida ham texnikaviy tizim mavjud bo'lib, u uskunalar majmuining o'zaro yig'indisidan, shu jumladan, orgtexnika, EHM dan iborat (bu korxonaning ishlab chiqarish quvvatidir). Texnologik tizim esa qonun-qoida, me'yor, standartlar yig'indisi, marketing xizmati jarayonlarining ma'lum tartibdagi ketma-ketligidan iborat.


Texnikaviy, texnologik va tashkiliy tizimlar birgalikda jismoniy tarbiya va sportda tashkilotlarining iqtisodiyotni boshqarishning tashkiliy-texnikaviy jihatlarini ta'minlaydi.

Ot sportida ham, boshqa sport turlariga o'xshab, birinchidan, davlat tomonidan, ikkinchidan, jamoatchilik asosida boshqarilishini ko'rish mumkin, boshqaruv tizimida bir vaqtning o'zida tik va gorizontalar chiziqlarning mavjudligi, hozirgi kunda jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida eng ommalashgan chiziqli – funktsional tizimlardan keng foydalanilayotganini ko'rish mumkin:

DAVLAT BOSHQARUVI



JAMOATCHILIK BOSHQARUVI



Iqtisodiyotdagi kabi, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining iqtisodiy tizimi ham ishlab chiqarish, ham ayriboshlashda yuz beruvchi barcha xo'jalik, moliyaviy, tashkiliy jarayonlar birligini ifodalaydi. Iqtisodiy tizim boshqaruv tizimini qayta qurishda uzluksiz va maqsadli jarayonni aks ettirib, barcha boshqa tizimlar faoliyati samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatadi. SHu bilan bir qatorda, boshqa tizimlar ham iqtisodiy tizimga o'z ta'sirini o'tkazish mumkin. (masalan, ijtimoiy tizim).

Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida ijtimoiy tizim iqtisodiy tizim bilan birga iqtisodiyot maqsadlarini belgilaydi, boshqaruvning tamoyil va uslublarini shakllantiradi, ya'ni iqtisodiyotni boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini ifodalaydi. Hozirgi davrda iqtisodiyotda ijtimoiy o'zgarishlar amalga oshishi, boshqaruvda demokratiyaning asoslarini kengayishi, hamkorlikning yangi shakllari yaratilishi, bozor munosabatlariga o'tish, butun xalq xo'jaligi tarkibini qayta qurish bilan bog'liq ravishda ijtimoiy tizim ahamiyati ortib bormoqda.

Ijtimoiy-iqtisodiy tizimi ikki mustaqil funktsional tizimlardan tashkil topgan bo'ladi, ular boshqariladigan va boshqariluvchi tizimlardir.

Funktsional tizim - bu umumiy tizimning aniq belgilari bo'yicha ajralib turuvchi, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan holda, ijtimoiy -iqtisodiy tizimning boshqa elementlari bilan bog'liq qismidir. Funktsional tizimni butun tizim qo'lami va tarkibiga bog'liq ravishda mustaqil tizim sifatida ham o'rganish mumkin. Demak, biz yuqorida obyekt va sub'ektlar orasidagi munosabatlarni qayd etganimizdek, boshqariladigan tizim bir vaqtning o'zida boshqaruvchi tizim ham bo'la olishini doimo e'tiborda tutish lozim bo'ladi.

Boshqaruvchi tizimga korxonalar, kontsernlar, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining boshqaruv jarayonini, ya'ni kishilar jamoasida ochiq maqsadga qaratilgan ta'sir etish jarayonini ta'minlovchi element va kichik tizimlar kiradi. Boshqariladigan tizimga korxonalar, kontsernlar, jismoniy tarbiya va sport

tashkilotlarining bevosita moddiy boyliklar yaratish va xizmat ko'rsatish jarayonini ta'minlovchi elementlari va kichik tizimlari kiradi.

Moddiy tizim sifatida o'rganiladigan ishlab chiqarish vositalari, shuningdek, mehnat predmetlarini tayyor mahsulotga aylantiruvchi ishlab chiqarish jarayonlari yig'indisidan iborat. Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarini, uning iqtisodiyotni boshqarish tizimi boshqaruv obyekti va sub'ektidan iborat yaxlit tizimni ifodalaydi.

Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlaridagi menejment tizimida subyektlar boshqaruv maqsadlarini aniqlaydi va boshqaruv obyektiga bir maqsadga yo'naltirilgan ta'sir ko'rsatadi, shuningdek, o'zaro ta'sir natijalariga baho beradi (boshqaruvchi ta'sir). Obyekt o'ziga o'tkazilgan boshqaruvchi ta'sirini qabul qiladi va boshqaruv sub'ektiga natijalar haqida axborot beradi (aks ta'sir). Iqtisodiyotni boshqarishda boshqaruv obyektlari – bevosita ishlab chiqarish jamoalari va alohida ishlovchi ishchi xodimdir. Ular mehnat faoliyati natijasida ishlab chiqarish moddiy elementlari, mehnat qurollari va predmetlariga ta'sir ko'rsatadi.

Tizimli boshqaruvning ahamiyati yana shundaki, menejment toifalaridan uning printsiplari, funktsiyalari, usullari va texnologiyalarining har birini alohida uchraydigan kamchiliklarini yo'qotib, ularning yagona tizimga mujassamlashgan holda samaradorligini oshirishga imkon yaratdi. Hozirgi kunda zamondoshlarimiz tizimli yondashuvni menejmentni tashkil qilish sxemasi va boshqaruvga nisbatan fikr yuritish usulim deb baholamoqdalar.

Tizimli boshqaruv tarafdorlarining fikrlaricha, uning asosiy va umumiy tushunchalari, atamalari va mazmuni quyidagilardan iboratdir:

1. Tizim – bu qandaydir butunlik bo'lib, bir-biri bilan bog'liq elementlar (qism)lardan tashkil topgan. Tizimning har bir elementi bir butun sistemaning tavsifiga o'z hissasini qo'shadi.

2. Tashkilot (korxonalar, firma, korporatsiya) yuridik shaxs sifatida o'zining boshqaruv tizimiga ega. Biologik organizm kabi tashkilotda xam uning barcha elementlari (qismlari) o'zaro bir-biri bilan chambarchas bog'langandir.

3. Menejment boshqaruvdagi eng muhim tushuncha–boshqaruv tizimidir. Tashkilotda (korxonalar, firmalar, korporatsiyalar) uning kichik tizimlari bo'limlardan iborat bo'ladi. Kengroq ma'noda esa, kichik tizim-bu ishlab chiqarish va ijtimoiy qo'shilmalardan iboratdir.

4. Tashkilot (korxonalar, firma, korporatsiya)ni ochiq tizim deb hisoblash mumkin, chunki u har doim tashqi muhit bilan bog'langan bo'ladi. Ayrim hollarda tashkilotning mo''tadil hayot kechira olish qobiliyati ko'proq tashqi muhitga bog'liq bo'ladi.

Avval ko'rib chiqilgan boshqaruv nazariyasidagi barcha izlanishlar AQSHda boshlangan bo'lsa, keyinchalik ushbu yo'nalishning tarafdorlari G'arb davlatlarida ko'paya boshladi. Evropa davlatlarida boshqaruv nazariyasi va amaliyotiga katta hissa qo'shgan mualliflardan K.Levit, CH. Bernard, G. Saymon, F. Selznik, J. Xoll, L. Bertalanfi va boshqalarni keltirish mumkin.

Shu davrda tizimli boshqaruvning rivoji sifatida "Tashkiliy xulq (yoki tashkiliy ahloq)" nomli ilmiy nazariya va amaliyot shakllana boshladi, ushbu yo'nalishning mualliflaridan biri D.Karnegi va uning instituti edi.

"Tashkiliy xulq (yoki tashkiliy ahloq)" nomli ilmiy nazariya va amaliyot negizida ishchi xodimning jamoa bo'lib ishlashida ularning qanday ijobiy va salbiy xususiyatlari namoyon bo'lishi mumkin va ularni boshqarishda nimalarga e'tibor berish kerak, degan savol turardi. Gap shundaki, ishchi xodim xulqi, axloqi - bu tashkilot, jamoa va inson o'rtasidagi o'zaro munosabatning mahsulidir. Tashkilotning boshqaruv tizim shunday tuzilgan bo'lishi kerakki, u jamoaning barcha elementlarini muvofiqlashtirgan holda har bir ishchi xodimning o'zining ijobiy tomonlarini ko'rsata olishiga imkon berishi lozim. Jamoa bilan shaxs o'rtasidagi u shu bog'liqlikni ta'minlashda boshqaruv tizimining quyidagi uchta xususiyatlarini e'tiborga olish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Texnik va texnologik xususiyatlar. U jamoa va ishchi xodim ishini tashkil qilishda qanday texnik vositalarni joriy etish va qanday tartibda ish yurgazish, ya'ni qanday texnologiyalardan foydalanish lozimligini ifodalaydi.

2. Boshqaruv tizimi o'zida jamoaning tashkiliy tarkibini, uning vazifaviy tarkibini, qonun-qoida va hokazolar ijrosini o'zida aks ettira olishi lozim.

3. Boshqaruv tizimi o'zida jamoaning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondira olish imkonlarini yarata olgan bo'lishi kerak.

O'z navbatida, ijtimoiy tizim vakillari tashkilot to'g'risida o'zlarining yangicha fikrlarini ilgari surdilar, ular boshqaruv tizimini ishchi xodim birgalikda mehnat qiluvchi ittifoq deb tasavvur qilar edilar. Ular o'zlari tasavvur qilgan ittifoqning har xil turdagi modellarini yaratib, ularni amalda sinab ko'rdilar.

Ular barcha kichik tizimlarni bir-biriga ta'sirini, hamda muammolar majmuasi sifatidagi sirtqi omillar bo'yicha izlanishlar olib boradilar. Ushbu izlanishlarning mohiyati pravardi natijaning samarali bo'lishini ta'minlashdan iborat bo'ladi.

Keyingi yillar davomida ushbu yo'nalish yanada ham rivojlanib bordi, uning vakillari menejmentda nazariya bilan amaliyotni bir-birga yaqinlashtirishga katta ahamiyat berdilar. K.Levit rahbarligida bar guruh olimlar tomonidan AQSH ning Massachusetes texnologik institutida yuqori malakali

boshqaruv xodimlarini tayyorlovchi, qayta tayyorlovchi va malakasini oshiruvchi maxsus tizim yaratildi. U o'z tarkibiga bir qancha aniq masalalar bilan ishlaydigan kichik tizimlarni kiritdi, ulardan eng e'tiborga sazovorligi OD nomi bilan mashhur bo'lgan "Tashkiliy takomillashuv" nomli kichik tizim, ya'ni inglizchadagi "organization development" dan olingan so'zlarning bosh harflari bo'ldi. Ushbu tizim orqali menejmentni takomillashuviga imkon yaratuvchi, keng doiradagi muammolarni hal eta oluvchi izlanishlar avjiga chiqdi, natijada tashkiliy takomillashuv tizimi asosida strategik boshqaruv tizimiga o'tishga imkoniyat tug'ila boshladi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini boshqarishdagi tizimli yondashuvning xususiyatlarini o'rganib, ularni jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari boshqaruviga tadbiq etish katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi xalq xo'jaligi, korxonalar, birlashmalar, tashkilot, tarmoqlar, mintaqalar, shu jumladan jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari murakkab, o'zgaruvchan, yaxlit ijtimoiy iqtisodiy tizim bo'lib, uning har bir bo'g'ini ijtimoiy ishlab chiqarish va takror ishlab chiqarish, taqsimot va iste'molning turli jarayonlarini amalga oshiradi, bir-biri bilan uzviy bog'liq va bir-birini to'ldiradi. O'zbekiston Respublikasi xalq xo'jaligi iqtisodiy tizimdir, chunki mehnat va moddiy zaxiralar qo'shilishi natijasida moddiy boyliklar, shu jumladan, milliy daromad yaratiladi, hamda jamiyat ishlab chiqarish kuchlarining kengaytirilgan takror ishlab chiqarilish jarayoni yuz beradi.

Shu bilan birga, Respublika xalq xo'jaligi ijtimoiy tizim hamdir, chunki u kishilar tomonidan yaratilgan tashkilotdir. Mehnat jarayonida kishilar bir-birlari bilan o'zaro ijtimoiy munosabat ta'sirida bo'ladilar, o'z faoliyatlari natijalarini ayirboshlaydilar. Demak, ijtimoiy munosabatlar sub'ektlari menejmentning boshqaruv tizimidan, obyektlari esa ishchi xodimning turli sohalaridagi ko'p qirralai faoliyatlaridan (ishlab chiqarish, fan, madaniyat, san'at va h.k.) iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi xalq xo'jaligini boshqarish tizimi iqtisodiy, siyosiy, g'oyaviy, ahloqiy, ruhiy va boshqa munosabatlar yig'indisidan iboratdir. Ular orasida eng muhimi iqtisodiy munosabatlar bo'lib, ularning to'g'ri tashkil qilinishi va samarali natijalarga erishilishi ko'p jihatdan boshqa munosabatlarni ijobiy hal etishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Prezidentimiz tomonidan O'zbekiston iqtisodiyotini isloh qilishda "iqtisodiyotni birlamchi va siyosatni ikkilamchi"-deb e'lon qilingani ma'lum darajada aynan shuni bildiradi.

Iqtisodiy ishlab chiqarish munosabatlari - bu barcha ustqurma munosabatlar asosida turuvchi va o'z salmog'i jihatidan munosabatlar tizimida etakchi

bo'lgan, asosiy munosabatlardir. Shu sababli, Respublika iqtisodiyotini qayta qurishning mohiyati ma'muriy munosabatlar ustunligidan iqtisodiy munosabatlarga boshqaruvning barcha darajalarida manfaatlarini boshqarish va kishilar manfaatlari vositasida boshqarishga o'tishdan iborat. Lekin mehnat jamoalari faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy, huquqiy vazifalarni ham bajaradilar. Demak, xalq xo'jaligiga boshqaruv obyekti sifatida murakkab, o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy tizim nuqtai nazaridan qarash to'g'ri bo'ladi.

Tarkibiy jihatdan Respublika iqtisodiyot tarmog'i turli xil ishlab chiqarish unsurlaridan (ish joyi, sex, korxonalar, kontsernlar, tarmoqlar va h.k.) iborat. Iqtisodiyotning asosiy bo'g'ini-korxonalar bo'lib, u o'z ish natijalari bo'yicha davlat, jamiyat a'zolari oldida to'liq javobgardir.

Shunday qilib, O'zbekiston xalq xo'jaligi yaxlit yirik boshqaruv tizimi bo'lib, barcha tarmoqlarni xo'jalik yuritishning murakkab mexanizmiga biriktiradi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini boshqarishda tizimli yondashuvning xususiyatlari avvalo, boshqaruv obyektlarining murakkab ijtimoiy-iqtisodiy, o'zgaruvchan tizim, ichki tartib va o'zaro aloqaga ega bo'lgan bir butun yaxlitlikni tashkil etuvchi elementlar yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Tizimli yondashuv boshqariladigan obyektlarning barcha tarkibiy qismlarini uzviy bog'laydi va ma'lum qonun-qoidalarga amal qilishini ta'minlaydi. U bir tomonlama yondashuvni inkor etadi, tizimning turli elementlari o'rtasida nomutunosiblik va qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga yordam beradi va shu sababli faqat boshqaruv obyektiga nisbatan emas, balki boshqaruvning o'ziga nisbatan ham ma'lum talabalarini qo'yadi.

Yurtimizda iqtisodiyotni boshqarishda tizimli yondashuv orqali murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o'rganib borish, ularga o'z vaqtida ijobiy ta'sir ko'rsatish vositalari orqali samarali natijalarga erishish mexanizmi yaratilgan, ular quyidagilardan iborat:

- boshqaruvga tizimli yondashuv orqali maqsadlarini yaratish;
- qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirishda eng kam xarajat hisobiga maksimal samaraga erishish;
- maqsad va ularga erishish vositalariga miqdoriy va sifat baholarini berish orqali faoliyatning rejalashtirilgan samarali natijalariga erishish.

Menejmentda, jumladan, jismoniy tarbiya va sport menejmentida tizimli yondashuv ko'plab muammolarni samarali hal etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Uni xalq xo'jaligiga joriy etish maqsadlarini aniq bayon qilish, vazifalar ko'lamini va ularning bajarilishi lozim bo'lgan ish xususiyatlari haqida tasavvurga

ega bo'lish, tizim doirasida bo'ysunish tartibini o'rnatish, qaror qabul qilish va uni bajarish borasida majburiyat va javobgarlikni ta'minlash imkonini beradi.

Jismoniy tarbiya va sportda tizimli yondashuvni qo'llash orqali vaziyatga baho berish, barcha holat va oqibatlarni hisobga olgan holda boshqaruv qarorlarini qabul qilish har bir sport rahbari uchun kuchli omil hisoblanadi.

Boshqaruvda tizimli yondashuvni qo'llash rahbardan mantiqiy fikr yuritishni ya'ni, har bir qarorga kelish va asoslash jarayonida tizimning umumiy maqsadni aniqlash va barcha kichik tizimlar faoliyatini bu maqsadga yo'naltirishni talab etadi. Bunda har bir tizim undan yirikroq tizimning tarkibiy qismi sifatida o'rganiladi, uni rivojlantirishning umumiy maqsadi ushbu yirik tizim rivojlanishi maqsadi bilan muvofiqlashtiriladi.

Tizimli yondashuvda vazifalar tashkilotga moslashtirilmaydi, aksincha, tashkilot qo'yilgan maqsadlar va ularni hal etish usullariga muvofiq holda tashkil etiladi yoki qayta tuziladi.

Bilimlarning hozirgi darajasi murakkab tizim bo'lgan iqtisodiyotni boshqarishda chiziqli va dinamik dasturlash, yoppasiga xizmat ko'rsatish, o'yinlar nazariyasini qo'llash, statistik ma'lumotlarni o'rganish jarayonida har tomonlama korrelyatsiya usulidan foydalanish imkonini beradi.

Tizimli yondashuvning kom'pyuterlarni qo'llash natijasida rivojlanishi ma'lumotlarning aniqlashtirilgan, kengaygan bazasidan samarali foydalanish imkonini beradi va o'z navbatida axborot yig'ish va uni qayta ishlashni talab etadi. Iqtisodiyot tarkibi o'zgarishi haqida ilmiy asoslangan, aniq axborotga ega bo'lmay turib, uning samaradorligini oshirish yo'llarini aniqlab bo'lmaydi.

Shunday qilib, respublika iqtisodiyotiga menejment nuqtai nazaridan o'zaro bog'liq jarayonlar tizimi sifatida qarash mumkin. Iqtisodiyotni boshqarish orqali ma'lum bir jarayon natijasida tegishli mahsulot yaratiladi va bu mahsulot o'zida ishlab chiqarish jarayonida sarflangan zaxira va xarajatlar yig'indisini aks ettiradi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Sport boshqaruv tizimlari to'g'risida qanday tushunchalar mavjud?
2. Sport menejmentida tizimli yondashuv nima?
3. Sport menejmentida vaziyatli yondashuv nima ?
4. G'arbda qanday zamonaviy ijtimoiy sport tizimlar maktabi yaratilgan?
5. Sport menejmentida tizimli yondashuv nimani bildiradi?
6. Sport menejmentida boshqaruvning tashkiliy tizimlari qanday ?
7. Tik chiziqli tizim nima?
8. Gorizonttal (funktsional) tizim nima?
9. Tik chiziqli-gorizonttal (funktsional) tizim?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
2. Gulyamov Z.T., Nabiullin R.X., Kamilova G.Z. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti. Darslik. –T.: O'zDJTI, 2015.
3. Meskon M., Al'bert M., Xedouri F. Osnovy menejmenta. –M.: ANX, 1995.
4. Prchinkin A.V. Menedjment v sfere fizicheskoy kulturi i sporta. – M.: Sovetskiy sport, 2010.

Elektron ta'lim resurslari:

Internet saytlari

1. www.bilim.uz
2. www.ekonomika.ru
3. www.menejment.com
4. www.edu.uz-Vazirlik sayti
5. www.ziyo.edu.uz-Vazirlik sayti
6. www.performance.edu.uz-Vazirlik sayti

3.2. Sport menejmenti zamonaviy tizimini belgilovchi omillar

Reja:

1. Omillar sifatida sport menejmentda vaziyatli yondashuvlar.
2. Samarali sport menejment sifatiga “Tizimli fikr yuritish”, “Vaziyatli fikr yuritish”larning ta'siri.
3. Sport menejmenti vakillarining samarali menejment haqidagi fikrlari.
4. Sportda ichki va tashqi muhitlarning sport tashkiloti faoliyatiga ta'siri.
5. Omillarning sport tashkiloti muvaffaqiyatiga ta'siri.
6. Sport menejmentining zamonaviy tizimlari to'g'risida tushuncha va ularning klassifikatsiyasi.

Tayanch so'z va iboralar:

Zamonaviy tizim, omil, vaziyatli yondashuv, nazariy, amaliy, tizimli yondashuv, tizimlar nazariyasi, sport tashkiloti (firma, korporatsiya), element, samarali menejment, “Tizimli fikr yuritish”, “Vaziyatli fikr yuritish, yondash fanlar, vaziyat ta'limi, shakllanish, samarali boshqaruv, inkor etish, tarmoq, vaziyat o'zgarishlari, farqlar, ichki o'zgarish, ichki muhit, vertikal, gorizantal, mehnat taqsimoti, tashqi o'zgarishlar, muhit omillari, tashqi muhit, tashqi

o'zgarishlar, boshqaruv qarorlari, turli tuman vaziyat, integratsiya, tizim, vaziyat, egiluvchan tizim, zamonaviy boshqaruv tizimlari, tizimli yondashish, vaziyatli yondashish, strategik yondashish, ishlab chiqarish vaziyatlari, tizim kontsepsiyalari.

Jismoniy tarbiya va sportni boshqarishning zamonaviy tizimini belgilovchi omillardan biri sifatida menejmentdagi vaziyatli yondashuvini ko'rish mumkin.

XX asrning 60-yillarida nazariy va amaliy menejmentga tizimli yondashuv bilan birga uni to'ldiruvchi va rivojlantiruvchi yana bir vaziyat yondashuvi kirdi. Tizimlar nazariyasi tashkilotiga (firma, korporatsiyaga) qanday elementlarning kirishini aniqlaydi, ammo ushbu elementlarning qaysi biri ko'proq muhimroq degan savolga javob beradi. Bu kabi izlanishlarning diqqat markazi vaziyatdir, ya'ni ma'lum bir holat to'plami, qaysiki, tashkilotga hozirgi aniq bir vaqtga ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Samarali menejment sifatiga "Tizimli fikir yuritish"ga "vaziyatli fikir yuritish" qobiliyati qo'shimcha qilinadi.

Boshqaruv nazariyasida vaziyatni muhim bir hodisa deb qarash yangilik hisoblanmaydi. Masalan, inson zaxiralari ta'limi yoki imperik talimlarni misol qilib olish mumkin. Shu bilan birga XX asrning 60-70 yillariga kelib, boshqaruv haqida yondosh fanlar etarli darajada o'z ta'sirini o'tkazishi natijasida menejment fani yanada taraqqiy eta boshladi. Boshqaruv samaradorligiga har xil vaziyatda ta'sir ko'rsatib turuvchi o'zgaruvchan omillarni uddalash kerak. Xuddi shu yillarda izlanuvchilar maktabi paydo bo'ldi va u vaziyatning tashkilot faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi bosh belgilarni aniqlab berdi. Bu maktab boshqaruvining vaziyat ta'limi degan nomni oldi.

Menejment vakillarining fikricha, samarali menejment quyidagi belgilarga ega bo'lishi kerak: harakatchanlik va ushbu korxonada ishlayotgan muhitga (vaziyatga) moslasha olish qobiliyati. Menejmentga tizimli yondashuv tarafdorlarining bosh negiz: barcha vaziyatlarga turli vazifani bajaruvchi samarali boshqaruv bo'lishi mumkin emas.

Boshqaruv vazifalarini bajarishda korxonada va tarmoqlar o'rtasida vaziyat o'zgarishlari deb ataladigan farqlarga e'tibor berish lozim. Ular ikki xil bo'ladi: tashqi va ichki. Ichki o'zgarishlar aniq korxonada, tarmoqni tavsiflaydi. Ichki muhitga korxonada mahsulotlari, zaxiralari kattaligi vertikal va gorizontal mehnat taqsimoti va h.k kiradi. Korxonalar o'rtasidagi ichki farqlari binolar o'rtasidagi farqga o'xshaydi. Masalan, binolar arxitekturasi, materiali kattaligi bilan farq qilib, bu farq natijasida ularning biri klub, boshqasi kishilar yashaydigan uy-joy

bo'lishi mumkin. Xuddi shu tarzda korxonalarining ichki farqlari ularning vazifalarini belgilaydi. Bu o'zgarishlarni ma'lum darajada nazorat qilish mumkin va ular boshqaruv qarorlari natijasida vujudga keladi. Rahbariyat tomonidan ichki o'zgarishlar borasida qabul qilinadigan qarorlar qanchalik samarali va unumdor faoliyat yuritishini belgilaydi.

Korxonada kattaligi ichki farqlar korxonani boshqarishga qanday ta'sir etishning yorqin namoyon qiladi. Yirik aksionerlar jamiyatini boshqarish bilan kichik korxonada, do'konni boshqarish o'rtasida katta farq mavjud. Korxonada qancha katta bo'lsa, uni boshqarish ham shunchalik qiyin bo'ladi.

Tashqi o'zgarishlar korxonadan tashqaridagi muhit omillaridir. Ular qatoriga yirik raqobatchi korxonalar texnika va texnologiyani olishi manbalari ijtimoiy omillar, davlat boshqaruvi kiradi. Tashqi muhit, tashqi o'zgarishlar korxonada faoliyatiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli boshqaruv qarorlarini qabul qilishda vaziyatni hisobga olish zarur. Qaysi o'zgarishlar korxonada muvaffaqiyatiga kuchliroq ta'sir qilish ko'rsatishi etarli emas. Turli tuman vaziyat ko'rsatkichlari va boshqarish jarayonining barcha vazifalari o'zaro bog'liq, hamda ularni bir-biridan ajratib ko'rib chiqish mumkin emasligi ma'lum qiyinchiliklarga olib keladi. Suvga tashlangan tosh butun ko'l bo'ylab tarqaluvchi to'lqinlarni hosil qilgani kabi biror muhim omilning o'zgarishi butun korxonada faoliyatida aks etadi.

Korxonada faoliyati samaradorligiga ichki va tashqi omillar ta'sir etishi sababli uni boshqarishning eng yaxshi usuli aniq vaziyatni hisobga olgan holda belgilanadi. Shu vaziyatga eng mos bo'lgan usul eng samarali usul bo'ladi. Shu sababli muvaffaqiyatli boshqaruv integratsiya qilingan yondashuvni talab etadi.

Vaziyat yondashuv bilan uzviy bog'liq tizimli yondashuvda turli xususiy yondashuvlar, boshqaruv vazifalari uzviy bog'liq bo'lib, korxonada qator o'zaro bog'liq kichik tizimdan iborat tizim sifatida o'rganiladi; tizim nazariyasi rahbarlariga tizimning alohida qismlari o'rtasidagi tizim va uni o'rab turgan muhit o'rtasidagi bog'liqlikni tushunishga imkon beradi. Vaziyat yondashuvi tizim nazariyasini amalda qo'llashni korxonada ta'sir etuvchi asosiy ichki va tashqi o'zgarishlarni aniqlash yo'li bilan kengaytiriladi, qo'yilgan maqsadga erishish uchun boshqaruvning aniq usullarini tegishli vaziyat bilan bog'lab amalga oshirish imkonini beradi.

Jismoniy tarbiya va sportni boshqarishning zamonaviy tizimini belgilovchi yana muhim omillari sifatida menejmentdagi jarayonli yoki vazifaviy yondashuvlarni ko'rish mumkin.

Menejmentdagi vazifaviy yondashuv aslida biz yuqorida ko'rgan boshqaruv funksiyalarining qadim zamondagi shakllanishi bilan bog'liq holda paydo bo'lgan deyish mumkin, chunki ishlab chiqarishni yoki jismoniy tarbiya

va sport jarayonlarini rejalashtirish, tashkillash, motivatsiya va nazorat qilish funktsiyalarini amalda qo'llanishi aslida menejment vazifalarini bajarilishidan boshqa narsa emas. Menejmentning ushbu funktsiyalarining amalda korxonalar yoki jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari rahbarlari, mutaxassislar tomonidan to'liq ravishda, mo'tadil joriy etilmasligi joylarda ko'zlangan marraga chiqish imkoniyatini pasaytirib yubordi.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida amerikalik muhandis va ixtirochi F.Teylorning bizga ma'lum bo'lgan yollanma ishchilarning mehnat unumdorligini oshirishda g'oyatda samarador va maqbul usullarni izlash, ular asosida mehnatni ilmiy asosda tashkil etish kabi muhim ta'limotlari qatorida quyidagi yo'nalishlarni ham alohida ilgari surganini ko'ramiz:

Menejmentda boshqaruv funktsiyalarini to'liq joriy etilishini ta'minlash, ularni takomillashtirish, bayon etish va nazorat qilib borish.

Menejment asosida jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarini yalpi boshqarishda sistemali yondashuvni asoslash va undan samarali foydalanish.

F. Teylorning boshqaruv funktsiyalariga bo'lgan yangicha munosabati XX asrning o'rtalarida menejmentda vazifaviy yondashuv nomini oladi. Ushbu vazifaviy yondashuvning asosiy mohiyati menejerlar, rahbarlar o'z boshqaruv faoliyatlarida ishlab chiqarishni rejalashtirish, tashkillash, motivatsiya va nazorat qilish funktsiyalarini amalda ketma-ketligini saqlagan holda to'liq joriy etilishini taqozo etadi.

Menejment boshqaruvida biz yuqorida qisman qayd etgan funktsional ta'minot tushunchasi ham mavjud. Ushbu tushuncha nomi bo'yicha menejmentning funktsiyalariga o'xshab ketsada, amalda butunlay boshqa ma'noni bildiradi va boshqa vazifalarini ko'zlaydi. Amerikalik R.Taun tomonidan kiritilgan tashkilotning funktsionalligini ta'minlash nazariyasi sanoat ishlab chiqarishi kuchli rivojlana boshlagan, ayniqsa, texnika va texnologiyaning takomillashgan, ishlab chiqarishning keskin o'sgan boshqaruvning murakkablashgan holatida uning maxsus tarmoqlarga bo'lib, boshqarishni tavsiya etgan. Haqiqatan ham, menejmentda tashkilotning funktsionalligining ta'minlash nazariyasi rahbarlardan yangi bilimlarni talab etuvchi faoliyatning maxsus sohasiga aylantirdi. Endi rahbar, o'z korxonasiidagi ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishda to'laqonlikka erishmoqchi bo'ldi, barcha funktsional yo'nalishlarni to'g'ri tasavvur qilishi va ularni ta'minlab borishi talab etiladigan bo'ldi. Ya'ni, korxonalar ishini ishchi xodim (xodimlar), texnika, texnologiya, moddiy texnika, logistika, energiya, iqtisodiyot, tashqi iqtisodiy aloqa, umumiy ishlar xizmati, marketing xizmati va boshqa xizmat yo'nalishlari bilan ta'minlash jarayon yoki vazifali yondashuvning asosini tashkil qiladi.

Sport tashkilotlarida ham yuqorida keltirilgan barcha funktsional yo'nalishlar sport mashg'ulotlariga, musobaqalarga xizmat qilishini qayd etgan edik. Xaqiqatan ham, jismoniy tarbiya va sport menejmentida ushbu xizmatlarning nomi soha xususiyatlariga mos ravishda boshqacharoq bo'lishi va jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining katta kichikligiga qarab alohida ko'rinishga yoki bir nechta funktsional yo'nalishlarning birlashgan holdagi tizimidan iborat bo'lishi mumkin. Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining hajmi qanchalik katta bo'lib ish qanchalik keng doirada olib borilsa, uning boshqaruv va menejment tizimida funktsional xizmatlari shunchalik to'liq aks ettirilgan bo'ladi. Yoki jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining hajmi qanchalik kichik bo'lib, ishi ham nisbatan torroq doirada olib borilsa funktsional vazifalarning barchasi saqlanib qolgan holda uning boshqaruv va menejment tizimida aks ettirilgan funktsional xizmatlari birlashtirilgan bo'ladi, ya'ni soni ham kamroq bo'ladi.

Korxonada faoliyati samaradorligiga ko'plab ham ichki ham tashqi omillar ta'sir etishi sababli uni boshqarishning eng yaxshi usuli aniq vaziyatni hisobga olgan holda belgilanadi. Shu vaziyatga eng mos bo'lgan usul eng samarali usul bo'ladi. Shu sababli muvafaqqiyatli boshqaruv integratsiya qilingan yondashuvni talab etadi.

Jismoniy tarbiya va sportni boshqarishning zamonaviy tizimini belgilovchi navbatdagi yana muhim omillari sifatida menejmentdagi miqdoriy yoki sonli yondashuvlarni ko'rish mumkin. Bu boshqaruvdagi barcha usullarni umumiy lashtirgan, matematika, statistika, muhandislik va kibernetika fanlarini birgalikda joriy etish bilan bog'liq maxsus soha yo'nalishidir.

Miqdoriy yoki sonli yondashuv ishlab chiqarish yoki jismoniy tarbiya va sport sohasida, texnikadan foydalangan holda ko'pgina murakkab savollarga tez ijobiy javob qaytarishga xizmat qiluvchi va u boshqaruv mehnatini takomillashtirish asosida yuzaga kelgan. XX asr 60-80 yillari G'arb menejmentida tahlilning miqdor, son va statistik usullari keng tarqaldi. Menejmentni har tomonlama qamrab olgan komp'yuterlashtirish ishchi xodimni boshqaruvdagi katta sondagi qo'l mehnati bilan hisoblashdan, texnik operatsiyalaridan ozod qilishga imkon yaratdi.

Keyingi yillarda keng ko'lamdagi ilmiy-texnik taraqqiyot mahsuli sifatida shaxsiy elektron mashinalarining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi, boshqaruv jarayonlariga matematik, iqtisodiy-matematik modellar va usullar, jarayonlar operatsiyasi, menejment operatsiyasi, algoritmizatsiya, adaptatsiya kibernetika kabi ko'pgina yangi usullarning kirib kelishi menejment rivojida alohida miqdoriy yoki sonli yondashuvni shakllantirdi.

Hozirgi zamon axborot texnologiyalarining paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanib borishi aynan menejmentdagi miqdoriy yoki sonli yondashuv asosida amalga oshirilyapti. O'z navbatida, axborot texnologiyalari ham fanning alohida maxsus yo'nalishiga aylandi, yurtimizda uning rivojini ta'minlovchi ko'plab oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari va tashkilotlar paydo bo'ldi. Axborot texnologiyalarini xalq xo'jaligining barcha sohalariga, jumladan, jismoniy tarbiya va sportga kirib kelishi o'z samarasini beryapti.

Sport menejmentida ham miqdoriy yoki sonli yondashuv va axborot texnologiyalarini joriy etilishi dolzarb masalalardan hisoblanadi, jumladan, uning ko'plab oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida zamonaviy pedagogik axborot texnologiyalari shaklida rivojlanib borayotgani fikrimizning dalilidir. Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida, ulardagi hisoblash bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni aniq hal etishda ham miqdoriy yoki sonli yondashuv va axborot texnologiyalarining qo'l kelishi hech kimda shubha tug'dirmasa kerak.

Sport tashkilotlarining moliyaviy ahvolini, marketing monitoringini o'tkazish, ish faoliyatini rejalashtirish, ayniqsa, istiqbol rejalarini, strategik rejalarini tuzish va ularning ijrosini tashkil qilish masalalarini samarali hal etishda faqatgina miqdoriy yoki sonli yondashuv va axborot texnologiyalaridan najot kutish mumkin. Jismoniy tarbiya va sport mashqlari va musobaqalaridagi jarayonlarga zamonaviy boshqaruv tizimlari miqdoriy yoki sonli yondashuv va axborot texnologiyalarini joriy etishi yuksak natijalarni qo'lga kiritishda kuchli omil hisoblanadi va misli ko'rilmagan natijalarni berishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik davriga kelib sport boshqaruvining zamonaviy tizimlarini shakllantirishga alohida ahamiyat berib kelinayapti, chunki yuqorida keltirilgan menejment nazariyasiga binoan, har qanday sport musobaqasi yoki sport mashg'uloti bo'ladimi, ularni aniq, zamonaviy boshqaruv tizimisiz amalga oshirish mumkin emas. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, yurtimizda hukumatimiz tomonidan jismoniy tarbiya va sportning rivojiga qanchalik katta e'tibor berilishiga qaramasdan, mavjud jismoniy tarbiya – sog'lomlashtirish inshootlarini tegishli me'yor va talablar asosida yanada rivojlantirish va zamonaviylashtirish zarurligi ma'lum bo'ldi.

Xalqaro me'yor va standartlari asosida O'zbekiston Respublikasida hisoblab chiqilgan va hukumat tomonidan tasdiqlangan amaldagi me'yor va ko'rsatkichlar asosida yurtimizda aholining turli qatlamlari orasida jismoniy tarbiya va sportning mo'tadil ravishda rivoj topishining asosiy yo'nalishlari ta'minlab kelinayapti.

Masalan, kuchlanishli tayyorgarlik mashqlari uchun zarur bo'lgan binoning me'yoriy hajmi har bir sportchi uchun 4 kv. metrni tashkil etadi, gimnastika mashqlari uchun ushbu ko'rsatkich binoning umumiy hajmi 20 kv.

metrni tashkil etgan holda mashqlar o'tkaziladigan maydon 5kv. metrdan kam bo'lmasligi lozim, umumta'lim mashqlari va suvdagi mashg'ulotlar uchun esa har bir sportchiga me'yor (suvning oyna qismi) 5,5 kv. metrni tashkil etadi, bunda albatta basseyn suvining umumiy oyna sathi 90 kv. metrdan kam bo'lmasligi lozim.

Jismoniy tarbiya – sog'lomlashtirish inshootlarining har bir toifasi uchun (sport zallari, basseynlar, maydoncha qurilmalari va boshqalar) tegishli me'yor va talablar tegishli maydonchalar yig'indisi sifatida belgilangan. Ushbu ko'rsatkich jismoniy tarbiya – sog'lomlashtirish inshootlarining samarali nisbiy maydonini tegishli aholi toifalarini hisobga olgan holda uning soniga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

Jismoniy tarbiya - sog'lomlashtirish inshootlarining har bir toifasi uchun bir vaqtning o'zida shug'ullana oladigan sportchilar soni, ya'ni inshootning quvvati, aholi guruhlarining tegishli me'yoriy sonini sport inshootining o'rtacha o'lchamiga taqsimlash va uni bir vaqtning o'zida shug'ullanadigan sportchilar soniga ko'paytirish orqali aniqlanadi. Hisoblar shuni ko'rsatadiki, sport zallari bo'yicha ta'minlanish me'yori 10 ming aholi soniga nisbatan olganda, 3473,3 kv. metr va bir vaqtning o'zida shug'ullanuvchilar me'yori 210,5 nafar sportchini, basseynlar bo'yicha esa 10 ming aholi soniga nisbatan 742,14 kv.metr, hamda bir vaqtning o'zida shug'ullanuvchilar me'yori 92,5 nafar sportchini tashkil etadi. Tekis sport maydonchalari (inshootlari) bo'yicha ushbu ko'rsatkichlar 10 ming aholi soniga nisbatan 19494,4 kv. metr va 1517,5 nafar sportchini tashkil etadi.

Hammasi bo'lib jismoniy tarbiya – sog'lomlashtirish inshootlarining 10 ming aholi soniga nisbatan olganda bir vaqtning o'zida shug'ullanuvchilar soni 1820 nafar sportchini tashkil etadi.

Sportning uch turdagi yo'nalishi, ya'ni sport zallari, basseynlar tekis sport maydonchalari (inshootlari) bo'yicha ehtiyojlar quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$N = (n \cdot C/1000) : S \quad (1)$$

bunda: N - jismoniy tarbiya – sog'lomlashtirish inshootlariga bo'lgan ehtiyoj, dona;

n - 10 ming aholi soniga nisbatan jismoniy tarbiya – sog'lomlashtirish inshootlariga bo'lgan ehtiyojning ta'minlanish me'yori, protsent;

C – aholining soni;

S - jismoniy tarbiya – sog'lomlashtirish inshootlarining o'rtacha o'lchami, (sport zalining supa maydonchasi 400 kv. metr, basseynning suv oynasi 200 kv. metr, tekis sport maydonchalari 540 kv. metr).

Aholining soni va jismoniy tarbiya – sog'lomlashtirish inshootlarida bir vaqtning o'zida shug'ullanuvchilar me'yori asosida har bir tuman (region)

uchun sport inshootlarining bir vaqtning o'zida sportchilarni qabul qila olish imkoniyatini aniqlash mumkin:

$$E = C \cdot E_n = 1820 / 10000 = 0,182S \quad (2)$$

bunda: E - sport inshootlarining bir vaqtning o'zida sportchilarni qabul qila olish imkoniyati;

C – hudud (region) aholisining soni;

E_n - sog'lomlashtirish inshootlarida bir vaqtning o'zida shug'ullanuvchilar me'yori.

Aniq bir hudud (region) aholisining sport inshootlari bilan etarli darajada ta'minlanganligini hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$K = E_c / E \cdot 100\% \quad (3)$$

bunda: K - aholining sport inshootlari bilan ta'minlanganlik darajasi;

E_s – barcha jismoniy tarbiya – sog'lomlashtirish inshootlarining bir vaqtning o'zida shug'ullanuvchilarni qabul qilish imkoniyati;

E - aniq bir hudud (region)dagi jismoniy tarbiya – sog'lomlashtirish inshootlarining bir vaqtning o'zida shug'ullanuvchilarni zarur darajada qabul qilish imkoniyati.

Jahon tajribasiga murojat qiladigan bo'lsak, sportda katta yutuqlarga erishib kelayotgan barcha davlatlarda uzoq yillar davomida birinchi navbatda, uning moddiy, texnikaviy, tashkiliy, iqtisodiy, moliyaviy va boshqaruv tizimlariga katta e'tibor berib kelingan. Ayniqsa, sport tashkilotining ilmiy asoslarini yaratilganligi, yuqori malakali sportchilar va murabbiylar tayyorlashga katta e'tibor berib kelinayotganligi diqqatga sazovordir.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik davriga kelib, jismoniy tarbiya va sport boshqaruvining zamonaviy tizimlarini shakllantirishga alohida ahamiyat berib kelinayotgan ekan, albatta, bunday ulkan ishlarni jismoniy tarbiya va sport kadrlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi, chunki yuqorida keltirilgan menejment nazariyasi va amaliyotiga binoan, har qanday sport musobaqasi yoki sport mashg'ulotlarining samarasi pirovardida kadrlarga bog'liq bo'lib qoladi. Bizning yurtimizda ayollar orasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish masalasi alohida ahamiyatga egadir, ayniqsa, qishloq xotin – qizlari orasida olib borilayotgan ishlar alohida tahsinga sazovordir.

O'zbekiston Respublikasida hisoblab chiqilgan va hukumat tomonidan tasdiqlangan amaldagi me'yor va ko'rsatkichlar asosida - aniq bir hududda jismoniy tarbiya – sog'lomlashtirish inshootlari bilan ta'minlanganlik darajasini hisoblab chiqish mumkin. Aholining hududlar bo'yicha sport inshootlari bilan ta'minlanganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma quyidagi jadvalda keltirilgan:

3.2.1- jadval

Sport inshootlari bilan ta'minlanganlik

Viloyatlar nomi	2011 yil holatiga xoli soni (ming odam)	2012 yilda topshirilgan sport inshootlar soni	Quvvati (sport inshootini kunlik odam qabul qilishi)	Aholini sport inshootlari bilan ta'minlanganligi %da
Jami Respublikada	28001,4	51152	1954978	38,3
Qoraqolpog'iston Respublikasi	1650,6	3131	126071	42
Andijon viloyati	2549,4	4109	180492	38,9
Buxoro viloyati	1612	3739	144491	49,2
Jizzax viloyati	1117	2741	92912	45
Qashqadaryo viloyati	2615	5074	188241	39,5
Navoiy viloyati	851	1880	72899	47
Namangan viloyati	2259	3334	139119	33,8
Samarqand viloyati	3119	5226	186383	32,9
Surxandaryo viloyati	2074	4376	143998	38
Sirdaryo viloyati	713	1501	65708	50,9
Toshkent viloyati	2585	4251	175987	37,4
Farg'ona viloyati	3075	5622	203214	36,3
Xorazm viloyati	1561	3286	127194	44,7
Toshkent shahri	2234,4	2207	108269	26,6

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, hududlarda hududlar bo'yicha sport inshootlari bilan ta'minlanganlik darajasi Toshkent shahri - 26,6 %, Jizzah - 45%, Navoiy - 47%, Buxoro - 49,2%, Sirdaryo - 50,9% ni tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi hududlarda joylashgan amaldagi sport inshootlari va ularning quvvati haqidagi ma'lumotlarni quyidagi jadvaldan ko'rish mumkin:

3.2.2. -jadval

Amaldagi sport inshootlari va ularning quvvati

Sport inshootlarining nomi	Sport inshootlari soni		O'sish %da
	2003	2012	
Stadionlar	362	382	5,3

Sport zallari	6364	9378	32,5
Suzish havzalari	214	236	9,4
Otish tirlari	1370	401	-30,6
Sport maydonchalari va dalalari	40979	40731	-0,6
Manejlar	8	15	53,3

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2003 – yilga nisbatan 2012 – yilga kelib, sport inshootlari va ularning quvvatini, ayniqsa, sport zallarining o'sishi sezilarli darajada bo'lgan, masalan, sport zallari 32,5% ga, menejlar 53,3% ga, suzish havzalari 9,4% ga o'sgan. SHunga yarasha jimoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanadiganlarning ham soni oshib borgan, masalan, o'tgan 10 yil ichida jami o'sish 11% ni tashkil etgan, ayollar soni esa 19,7% ga oshgan.

Jadvaldagi ko'rsatkichlarga ko'ra, 2002 yildan to 2012 yilgacha jismoniy tarbiya va sport sohasidagi sportchi va xodimlarning o'sish soni 37.485 tadan 50.868 nafar kishiga oshdi, ya'ni 73,6% ni tashkil etdi. Oliy va o'rta maxsus jismoniy tarbiya va sport ta'limiga ega bo'lganlar soni 2002 yildagi jismoniy 37.485 tadan 2012 yilga kelib, 50.868 nafar kishiga etdi, ya'ni 65,5% ni tashkil etdi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi sportchi va xodimlarning o'sishini hududlararo tahlil qiladigan bo'lsak, 2012 yilga kelib, eng katta o'sish Farg'ona va Samarqand viloyatlariga to'g'ri kelgan, ya'ni umumiy sportchilar soniga nisbatan o'sish 10% dan ko'pni tashkil etgan, ulardan oliy ma'lumotliklari 2002 yildagi 10,6% dan 2012 yilga kelib 12% ga oshgan. Qishloq joylardagi jismoniy tarbiya va sport sohasidagi sportchi va xodimlarning o'sishi ularning umumiy soniga nisbatan olganda, 2002 yildagi 62,5% dan 2012 yilga kelib 171,3% ga oshgan.

3.2.3 - jadval

Hududlar bo'yicha sportchilar tarkibi

Viloyatlar nomi	2002				2012				2002 yilga nisbatan o'sish %da
	Jami xodimlar	SHu jumladan ayollar	Jami fizkul'tur ma'lumot bilan		Jami xodimlar	SHu jumladan	Jami fizkul'tur ma'lumot bilan		
			Oliy	O'rta			Oliy	O'rta	
Jami Respublikada	37485	3899	20113	13881	50868	11933	30670	20198	73,6
Qoraqolpog'iston	2989	297	1660	1033	3684	615	2433	1251	81

Respublikasi									
Andijon viloyati	2956	315	1608	1296	3796	905	2245	1551	77,8
Buxoro viloyati	2440	222	1554	435	3686	915	2330	1356	66
Jizzax viloyati	1418	77	800	322	2034	283	1381	653	69,7
Qashqadaryo viloyati	3250	100	1846	1218	4876	718	2756	2120	56,6
Navoiy viloyati	1428	182	682	517	2498	705	1676	822	57,1
Namangan viloyati	3022	249	1356	1610	3723	864	2123	1600	81
Samarqand viloyati	4082	411	1671	2197	5484	1490	2476	3008	74,2
Surxandaryo viloyati	2986	198	1216	1622	4133	724	1804	2329	72,2
Sirdaryo viloyati	1015	61	523	288	1558	321	1058	500	65,1
Toshkent viloyati	2858	370	1567	1071	3479	945	1998	1481	82,1
Farg'ona viloyati	3768	254	2147	949	5499	1221	3864	1635	68,5
Xorazm viloyati	2213	189	1172	873	2984	855	1869	1115	74,1
Toshkent shaxri	3060	974	2211	450	3734	1372	2657	777	89,1

3.2.4. - jadval

Hududlarda joylashgan amaldagi sport inshootlari

Viloyatlar nomi	2002		2012		O'sish %da	
	Sport inshootlarining soni	Quvvati (sport inshootini kunlik odam qabul qilishi)	Sport inshootlarining soni	Quvvati (sport inshootini kunlik odam qabul qilishi)	Sport inshootlarining soni	Quvvati (sport inshootini kunlik odam qabul qilishi)
Jami Respublikada	48204	1699802	51152	1954978	6,1	15
Qoraqolpog'iston Respublikasi	3595	120613	3131	126071	-13	4,5
Andijon viloyati	4390	148403	4784	180492	8,9	7,8
Buxoro viloyati	2678	99517	3739	144491	21,6	45,2
Jizzax viloyati	2240	67493	2741	92912	21	37,6
Qashqadaryo viloyati	4418	142780	5074	188241	14,5	31,8
Navoiy viloyati	1564	51557	1880	72899	20,2	41,4
Namangan viloyati	4683	177511	3334	139119	-29	-21,6
Samarqand viloyati	4915	157221	5226	186383	6,3	18,5
Surxandaryo viloyati	3734	107148	4376	143998	17,7	34,6
Sirdaryo viloyati	1490	59528	1501	65708	0,8	0,3
Toshkent viloyati	4000	155287	4251	175987	6,2	12,3
Farg'ona viloyati	4908	194805	5622	203214	14,5	4,3
Xorazm viloyati	3218	113665	3286	127194	12,1	12

Toshkent shaxri	2351	104274	2207	108269	-6,1	3,7
-----------------	------	--------	------	--------	------	-----

Hududlarda joylashgan amaldagi sport inshootlari va ularning quvvati to'g'risidagi tahlil ham yurtimizdagi jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish borasida olib borilayotgan ishlar alohida tahsinga ega ekanligini tasdiqlaydi, masalan, jadvaldan ko'rinib turibdiki, sport inshootlarining soni 2002 – yilga nisbatan 2012 – yilga kelib, 2948 donaga oshgan, uning bir vaqtning o'zida sportchilarni qabul qila olish imkoniyati 255.176 nafar kishiga etgan. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi sport inshootlarining o'sishini hududlararo tahlil qiladigan bo'lsak, 2012 yilga kelib eng katta o'sish Navoiy, Buxoro, Jizzax va Surxondaryo viloyatlariga to'g'ri kelgan, eng kam o'sish Sirdaryo, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahriga to'g'ri kelgan, Namangan viloyatida esa ushbu ko'rsatkichning pasaygani ham kuzatilindi.

Ba'zi hududlarda joylashgan amaldagi sport inshootlari sonining oshmasligi, albatta, ularning quvvatini ham kamayishiga olib kelgan.

Takrorlash uchun savollar:

1. Sportni boshqarishning zamonaviy tizimi nima?
2. Omillar sifatida menejmentdagi vaziyatli yondashuvlar nima?
3. Sport menejmenti vakillarining samarali menejment haqidagi fikrlari qanday?
4. Ichki o'zgarishlar aniq korxonalar, tarmoqni tavsiflaydimi?
5. Tashqi o'zgarishlar sport tashkilotidan tashqaridagi muhit omillarimi?
6. Tashqi muhit, tashqi o'zgarishlar sport tashkiloti faoliyatiga turlicha ta'sir ko'rsatishi nima?
7. Qaysi omillar sport tashkiloti muvaffaqiyatiga kuchliroq ta'sir qiladi?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
2. Gulyamov Z.T., Nabiullin R.X., Kamilova G.Z. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti. Darslik. –T.: O'zDJTI, 2015.
3. Meskon M., Al'bert M., Xedouri F. Osnovi menejmenta. –M., 1995.
4. Prchinkin A.V. Menedjment v sfere fizicheskoy kulturi i sporta. – M.: Sovetskiy sport, 2010.

Elektron ta'lim resurslari:

Internet saytlari

1. www.bilim.uz
2. www.ekonomika.ru
3. www.menejment.com

3.3.O'zbekistonda sport tashkilotlarining huquqiy asoslari

Reja:

1. O'zbekiston Respublikasida sport rivojiga bag'ishlangan qonun va qarorlar.
2. Sport sohasidagi davlat siyosatining asosiy printsiplari.
3. Sport tashkilotlari: mohiyati, tashkiliy-huquqiy shakllari.
4. Sport tashkilotining menejeri va menejer modeli.
5. Sport tizimida tashkilotlar turlari.
6. Sport tashkilotlarida boshqaruv munosabatlari.

Tayanch so'z va iboralar:

Sport tashkilotlari, huquqiy shakllar, qonun-qoidalar sport tashkilotlari mohiyati, tashkiliy-huquqiy shakllari sport tashkilotining menejeri, jismoniy tarbiya va sportda menejer modeli, inson va sport tashkiloti orasidagi o'zaro harakat, tashkilotlar turlari, boshqaruv munosabatlari.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab, jismoniy tarbiya va sport rivojiga bag'ishlangan qator qonun va qarorlar qabul qilingan, jumladan:

Ulardan eng so'nggisi, eng takomillashgani va eng zamon talablariga javob bera oladigani 2015 yil 4 sentyabrda qabul qilingan "Jismoniy tarbiya va sport haqidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni" (yangi tahriri) hisoblanadi. Ushbu qonunga ko'ra, O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport rivoji aynan shu qonunchilik asosida amalga oshiriladi.

1. Jismoniy tarbiya va sport qonunchiligi ushbu qonun va boshqa qonunchilik dalolatnomalaridan iborat.

Qoraqalpog'iston Respublikasida jismoniy tarbiya va sport "Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunchiligi" asosida boshqariladi. Agarda O'zbekiston Respublikasining xalqaro kelishuviga binoan, O'zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport qonunchiligida ko'zda tutilmagan qoidalar ko'rsatilgan bo'lsa, amalda xalqaro kelishuv qoidalari qo'llaniladi.

2. Qonunda sport sohasidagi fuqarolarning ham huquqlari belgilab berilgan. Qonunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jinsi, tabaqasi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, ishonchi, shaxsiy va jamoaviy holatidan qat'iy nazar jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga, jamoa jismoniy tarbiya va sport birlashmalari tuzish, jismoniy tarbiya va sport harakatini boshqarish huquqiga egadirlar. Xorijlik fuqorolar va fuqarolikka ega bo'lmagan shaxslar ham jismoniy tarbiya va sport sohasida O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqqa egadirlar.

3. Qonunda sport menejment nazariyasidagi boshqaruv printsiplariga qo'shimcha quyidagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat siyosatining asosiy printsiplari" qayd etilgan, bularga quyidagilar kiradi: insonparvarlik; demokratizm; fuqarolar jismoniy tarbiyasining uzluksizligi va davomiyligi; sport tizimida davlat va jamoat boshqaruvining yaxlitligi.

4. Jismoniy tarbiya va sport sohasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakolatlari alohida qayd etilgan. Qonunga ko'ra Vazirlar Mahkamasi quyidagilarni amalga oshiradi:

- jismoniy tarbiya va sport rivojiga bag'ishlangan qator davlat dasturlarini ishlab chiqadi va amalga joriy etadi;

- jismoniy tarbiya va sportni boshqaruvchi davlat organlarini tuzish, ularni qaytadan tashkil etish va faoliyatini tugatish tartiblarini belgilaydi;

- jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorlash, malakasini oshirish va attestatsiya tartiblarini belgilaydi;

- jismoniy tarbiya va sport rivojini moliyaviy ta'minlashni o'rnatilgan tartibda amalga oshiradi;

- qonunchilikka mos ravishda boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

5. O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport menejmentining faoliyati qonundagi jismoniy tarbiya va sportni davlat boshqaruvidagi vakolatida namoyon bo'ladi. Bunday organ O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi vazirligi quyidagilarni amalga oshiradi:

- jismoniy tarbiya va sport rivojiga bag'ishlangan maqsadli dasturlarni ishlab chiqadi va amalga joriy etadi;

- jismoniy tarbiya va sport jamoalari birlashmalari bilan hamkorlikda O'zbekiston sportchilarini Olimpiya o'yinlari va boshqa Xalqaro musobaqalarga tayyorlash maqsadli dasturlarini bajarishni ishlab chiqadi va amalga joriy etadi;

- sport turlari bo'yicha O'zbekiston terma jamoalari tarkibini vaqtida tasdiqlaydi va Xalqaro sport musobaqalarida qatnashishga yuksak darajada tayyorgarligini ta'minlaydi;

- har xil toifadagi aholi qatlamlarining jismoniy rivojlanganlik darajasini aniqlash uchun kerak bo'ladigan sport me'yorlarini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

- jismoniy tarbiya va sport xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish va attestatsiyadan o'tkazishni tashkil qiladi;

- jismoniy tarbiya va sport sohasida sportchilarni tayyorlash markazlari, ta'lim muassasalari va ilmiy tashkilotlar yaratadi;

- jismoniy tarbiya va sportning barcha yo'nalishdagi muammolari bo'yicha ilmiy, uslubiy va ommabop adabiyotlarni ishlab chiqish va chop etish;
- o'z vakolati doirasida jismoniy tarbiya va sport, shu bilan bir qatorda, jismoniy tarbiya sog'lomlashtirish va sport inshootlari me'yor va qoidalar me'yoriy dalolatnomalarini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;
- jismoniy tarbiya va sportni ilmiy-axborot ta'minlash sistemasini tashkil qilish;
- qonunchilikka mos ravishda boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

6. Sport menejmenti joylarda davlat organlari tomonidan boshqaruvni tashkil etishda ham katta ahamiyat kasb etadi. Joylarda davlat organlari tomonidan boshqaruvni tashkil etishda quyidagi vazifalar bajariladi:

- o'z hududi doirasida sport rivojiga rahbarlikni amalga oshiradi;
- sport rivojini mahalliy byudjetdan moliyalaydi;
- jamoat jismoniy tarbiya va bolalar sport birlashmalarini yaratishga ko'maklashadi;
- mahalliy korxonalarda jismoniy tarbiya sog'lomlashtirish, sport va turistik ahamiyatga ega tovarlarni ishlab chiqarishga xissasini qo'shadi;
- sportning moddiy bazasini kengaytirishga, jismoniy tarbiya va sport marosimlarini o'tkazishga yuridik va jismoniy shaxslar, ko'ngilliklar tomonidan ajratilgan mablag'larni jamlash;
- fuqorolar orasida sport me'yorlarini topshirish ishlarini tashkil etish;
- mustaqil jismoniy tarbiya va sport harakatini rivojlantirish uchun fuqorolarning yashash va dam olish joylarida sharoitlar yaratadi;
- bolalar va o'smirlar sport maktablari, jismoniy tarbiya va sport muassasalarini kerakli o'quv moddiy baza va boshqalar bilan ta'minlashda moliyalashtirishni tashkil etadi;
- qonunchilik doirasida boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

7. Mustaqillik davriga kelib, O'zbekistonda jamoatchilik jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari rivojiga katta e'tibor berila boshladi va qator birlashmalar yuzaga keldi, bu esa o'z navbatida sport menejmenti oldiga yangi vazifalarni qo'ydi. Jumladan, jamoatchilik jismoniy tarbiya va sport birlashmalari qatoriga kiruvchi O'zbekiston Respublikasi Milliy olimpiya qo'mitasini misol qilish mumkin. Yana jamoatchilik jismoniy tarbiya va sport birlashmalari qatoriga jismoniy tarbiya va sport jamiyatlar, federatsiyalar assotsiatsiyalar, sport turlari bo'yicha jamg'armalar, jismoniy tarbiya sog'lomlashtirish va sport klublari va boshqa jamoat birlashmalari kiradi. Ularning asosiy maqsadlari jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, O'zbekiston Respublikasi "Vatanparvar" himoya jamiyati, texnik amaliy sport turlarini rivojini ta'minlovchi sport texnik klublariga ko'mak uyushtirishdan iboratdir.

Jamoatchilik sport birlashmalari o'z nizomlariga ko'ra, fuqarolar bilan jismoniy tarbiya - sog'lomlashtirish va sport ishlarini tashkil etadi va sportchilar zaxiralarini tayyorlashni amalga oshiradi.

8. O'zbekiston Respublikasida olimpiya harakatini rivojlanib borishi sport menejmentidan boshqaruvning tashkiliy masalalariga e'tibor berishni talab qila boshladi. O'zbekiston Respublikasidagi olimpiya harakati Xalqaro olimpiya harakatining bir qismi hisoblanadi va o'z oldiga olimpiya g'oyalari va printsiplarini targ'ibot qilish, xalq orasida ommalashtirish, O'zbekiston Respublikasidagi sportchilarni Olimpiya o'yinlarida ishtirok etishlarini ta'minlashni maqsad qilib qo'ygan.

O'zbekiston Respublikasi Milliy olimpiya qo'mitasi tomonidan boshqarilayotgan O'zbekiston Respublikasi olimpiya harakatiga ko'ngillik asosida sportchilar, jismoniy tarbiya va sport jamiyatlar, federatsiyalar sport turlari bo'yicha assotsiatsiyalar, jismoniy tarbiya - sog'lomlashtirish va sport klublari va boshqa birlashmalar kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Milliy olimpiya qo'mitasi nodavlat tijorat tashkiloti hisoblanadi va o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida yurgizadi. Qo'mita o'z navbatida, Xalqaro olimpiya qo'mitasining O'zbekistondagi Olimpiya xartiyasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi hududidagi olimpiya ramzlaridan, shior, bayroq, madhiya, "olimpiyachi" "Olimpiada" nomlaridan foydalanishdagi mulkchilik huquqini huquqiy himoyalash bo'yicha chora-tadbirlar ko'radi.

9. Jismoniy tarbiya va sport, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish.

Menejment yordamida jismoniy tarbiya va sport davlat boshqaruv organlari, sog'liqni saqlash organlari, ta'lim muassasalari va jamoat jismoniy tarbiya va sport birlashmalari jismoniy tarbiya va sport, hamda sog'lom turmush tarzi yo'llarini tashkil qiladilar.

Sportda johillikka sig'inish va zo'ravonlik, inson manfaatlarni kamsitish, sportda inson salomatligiga ziyon keltiruvchi kimyoviy va boshqa rag'batlantiruvchilardan foydalanish man etiladi.

10. Ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya.

Ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya uning barcha bosqichlarda uzluksiz ta'lim tizimining eng muhim ta'lim qismi hisoblanadi, u yuqori malakali mutaxassislar tomonidan davlat standartlari, o'quv rejalari va o'quv dasturlari asosida olib boriladi. Barcha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sportdan majburiy darslar, darsdan tashqari mashg'ulotlar talabalarning fiziologik imkoniyalaridan kelib chiqqan holda olib boriladi. Ta'lim muassasalari yoshlarning harbiy xizmatga chaqirgungacha bo'lgan jismoniy tarbiya tayyorgarligini ham olib boradi.

11. Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va boshqa fuqarolar o'z o'zini boshqaruv organlarining jismoniy tarbiya va sport rivojidagi ishtiroki.

Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar uchun fuqarolarning jismoniy tarbiyasini muhim davlat ijtimoiy siyosatidir, ular fuqarolarining o'z-o'zini boshqarish organlari, jamoat jismoniy tarbiya va sport klublari, birlashmalari, kasaba uyushmalari, yoshlar, o'smirlar va boshqa tashkilotlar ishtirokida davlat jismoniy tarbiya va sport rivoji dasturlarini amalga oshiradilar. Shular asosida ular jismoniy tarbiya va sport boshqaruvi davlat mahalliy organlari bilan birgalikda o'zlarining jismoniy tarbiya va sport rivoji dasturlarini amalga oshiradilar.

Aholining yashash joylarida, fuqarolarning ommaviy dam olish joylarida jismoniy tarbiya va sport rivoji dasturlarini amalga oshirishni tashkil qilish, sharoitlar yaratish joylardagi jismoniy tarbiya va sport boshqaruvi davlat mahalliy organlari va fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari orqali amalga oshiriladi.

12. Sanatoriya-kurort muassasalari, dam olish uylari va sayohlik bazalarda jismoniy tarbiya sog'lomlashtirish ishlari.

Barcha sanatoriya – dam olish maskan muassasalari, dam olish uylari va sayohlik bazalarda jismoniy tarbiya va sportning moddiy bazasi hamda individual va guruhli jismoniy tarbiya sog'lomlashtirish darslari o'tkazish uchun tegishli sharoitlar yaratiladi.

Sanatoriya-dam olish maskan muassasalari, dam olish uylari va sayohlik bazalarning ma'muriyati dam oluvchilarning salomatligini mustahkamlash, sportning boshqa komponentlarini, kasalliklarni oldini olish va davolash uchun mavjud jismoniy muassasalarni, jismoniy tarbiya va sport inshootlarini foydalanishlari shart.

13. Nogironlar (invalidlar) uchun jismoniy tarbiya va sport.

O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanib borishi nogironlar uchun butun bir ijtimoiy integratsiya va jismoniy ma'naviy tiklanishga asos bo'lib, qonunchilik asosida amalga oshirib kelinadi.

Davlat hukumat organlari joylarda maxsus jismoniy tarbiya va sport, sog'lomlashtirish ishlarini boshqarish, sport inshootlaridan hamda mavjud umum sport inshootlaridan nogironlarning jismoniy tarbiya mashg'ulotlari uchun foydalanilishga tegishli, maxsus shart-sharoitlar yaratishni ta'minlaydilar.

Sog'liqni saqlash organlari va muassasalarining jismoniy tarbiya va sport rivojidagi ishtiroki.

Sog'liqni saqlash organlari va muassasalarining jismoniy tarbiya va sport rivojidagi ishtiroki quyidagilardan iborat:

- jismoniy tarbiya va sportdan insonlarning salomatliklarini mustahkamlash, ular kasalliklarini oldini olish va davolash sifatida foydalanadi;
- aholi har xil ijtimoiy guruhlarining jismoniy rivoji holati va dinamikasini tahlil qilish va tegishli davlat boshqaruv organlariga takliflar kiritish;
- sport guruhlarini Xalqaro sport musobaqalariga tayyorlash davridagi meditsina ta'minotida ishtirok etadi;
- jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchi shaxslar ustidan tibbiy nazorat olib boradi;
- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi sog'liqni saqlash mutaxassislarini o'z vaqtida tayyorlash, malakasini oshirish va attestatsiyadan o'tkazishni amalga oshiradi;
- jismoniy mashqlar maxsus dasturini ishlab chiqadi, sog'lomlashtirish markazlari, shifokor jismoniy tarbiya dispanserlar yaratadi, ularni maxsus apparatura va qurilmalar bilan jihozlaydi.

Jismoniy tarbiya va sport mashqlari, sport musobaqalari va sport tamoshabop marosimlar o'tkazish vaqtlarida xavfsizlik me'yor qoidalarini, salomatlikni muhofaza qilish, fuqarolar faxri va nomusini saqlash.

Jismoniy tarbiya sog'lomlashtirish va sport mashqlari, sport musobaqalariga tegishli inshootlarining ma'muriyati mashqlar, sport musobaqalari o'tkaziladigan joylarda jismoniy tarbiya va sportni boshqaruvchi davlat organlari tomonidan ta'xis etilgan barcha texnik anjomlarning tegishli holatini, hamda texnik xavfsizlik qoidalari va sanitar gigiena me'yorlarini ta'minlaydi.

Jismoniy tarbiya sog'lomlashtirish va sport mashqlari hamda sport musobaqalari ishtirokchilar va tamoshabinlar salomatligiga, g'ururi va nafsigazarar etkazmaydigan holatda o'tkazilishi lozim.

Sport musobaqalari hakamligiga o'rnatilgan tartibda attestatsiyadan o'tgan shaxslar tayinlanadi.

16. Jismoniy tarbiya va sportda taqiqlangan va man etilgan vositalar.

Jismoniy tarbiya va sport mashqlarida Xalqaro sport tashkilotlari, jismoniy tarbiya va sport boshqaruv organlari tomonidan taqiqlangan vositalardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Yuqori sport natijalariga erish maqsadida stimulyatorlar, doping mahsulotlari va Xalqaro olimpiya qo'mitasi tomonidan ta'qiqlangan boshqa vositalardan foydalangan sportchilar musobaqalardan chetlashtiriladi (diskvalifitsiruetsya).

Bilib turgan holda rag'batlantiruvchilar, doping mahsulotlari va Xalqaro olimpiya qo'mitasi tomonidan taqiqlangan boshqa vositalarni tarqatish yoki qo'llashga hayrxohlik qilgan shaxslar qonun oldida javobgarlikka tortiladilar.

17. O'zbekistonda havaskorlik va professional sporti.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari sportchi, murabbiy va hakam sifatida havaskorlik va professional sporti bilan shug'ullanishlari mumkin.

Professional sporti sohasidagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarining yaratilish tartiblari va faoliyat ko'rsatish shartlari qonunchilik bilan belgilangan.

Professional sportchi, sport turlari bo'yicha murabbiy va hakamlarga bo'lgan malakaviy talablar jismoniy tarbiya va sportni boshqaruvchi davlat organlari tomonidan aniqlanadi.

18. O'zbekistonda yuksak malakali sportchilarni tayyorlash.

O'zbekistonda yuksak malakali sportchilarni tayyorlash ixtisoslashgan oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida (O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti, Olimpiya zaxiralari kolleji, Oliy mahorat maktablari, Olimpiya tayyorgarlik markazlari va boshqalar) amalga oshiriladi. Ularning faoliyat tartibi vakolatlangan jismoniy tarbiya va sportni boshqaruvchi davlat organlari tomonidan belgilanadi.

O'zbekistondagi jismoniy tarbiya va sportni boshqaruvchi davlat organlari sport terma jamoalari a'zolariga tegishli shart-sharoitlarni yaratish maqsadida, sport mashg'ulotlarini o'qish, mehnat faoliyati va harbiy xizmat bilan muvaffaqiyatli darajada birga olib borish uchun korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va harbiy qismlar o'rtasida tegishli shartnomalar tuzadilar.

19. O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni moliyalashtirish:

O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni moliyalashtirish asosan, respublika va mahalliy byudjet hisobidan amalga oshiriladi. Shu bilan bir qatorda, jismoniy tarbiya va sportni moliyalashtirish manbalariga quyidagilar ham kiradi:

- tadbirkorlik va boshqa xo'jalik faoliyatlari daromadlari;
- aholiga ko'rsatilgan pulli jismoniy tarbiya sog'lomlashtirish va sport mashqlari hamda sport musobaqalaridan tushgan mablag'lar;
- o'rnatilgan tartibda o'tkazilgan sport lotereyalaridan tushgan mablag'lar;
- aholining korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning hayrxohlik mablag'lari, jamoatchilik jismoniy tarbiya va sport birlashmalari ishtirokchilarning a'zolik badallari;
- sport turlari bo'yicha maxsus jamg'armalarning mablag'lari;
- sport tamoshabop marosimlardan tushgan daromadlar;
- homiylik qo'llab quvvatlash;
- korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning sport ramzlari va timsollarini foydalanishdan ajratgan ulushlari;
- xorij investitsiyalari va Xalqaro jamg'armalar mablag'lari;
- Xalqaro tashkilotlar kelgan tushumlar;
- qonunchilikka mos boshqa manbalar.

20. Jismoniy tarbiya sog'lomlashtirish va sport inshootlari.

Jismoniy tarbiya sog'lomlashtirish va sport inshootlari davlat, hissadaorlik, xususiy va boshqa mulkchilik tasarrufida bo'lishi mumkin.

Davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish dasturini ishlab chiqarish va amalga oshirish bo'yicha hukumat va boshqaruv organlari tomonidan jismoniy tarbiya sog'lomlashtirish va sport inshootlarining funktsional xususiyatlarini saqlashni ta'minlagan holda boshqa yangi egalari o'tkazish shartlarini ta'minlash tartibi o'rnatiladi.

Joylardagi davlat boshqaruv organlari barcha jismoniy tarbiya sog'lomlashtirish va sport ahamiyatiga ega bo'lgan inshootlarni rejalashtirish, loyihalash, qurish va ekspluatatsiyaga kiritish ustidan nazorat qiladi.

Ta'lim muassasalarini, yashash mikrorayonlarini qurish va qayta qurish tegishli jismoniy tarbiya sog'lomlashtirish va sport inshootlari majmuasisiz, hamda ularni ta'mirlash, yangilash yoki tugatishni hisobga olmasdan amalga oshirilmaydi.

Hududlarda mavjud jismoniy tarbiya - sog'lomlashtirish va sport inshootlariga teng keladigan sport majmualarini qurmasdan turib, ularni tugatish man etiladi.

Ta'lim muassasalari, korxonalar, tashkilotlar, asosiy jismoniy tarbiya sog'lomlashtirish va sport inshootlariga ega bo'lgan yashash mikrorayonlarning minimal ta'minot me'yorlari vakolatlangan jismoniy tarbiya va sportni boshqaruvchi davlat organlari tomonidan belgilanadi.

21. O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasida pedagogik faoliyat.

O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasida pedagogik faoliyatga tegishli ma'lumoti va kasbiy tayyorgarligi bo'lgan shaxslarga ruxsat beriladi.

Davolash jismoniy tarbiya va sport sohasida pedagogik faoliyatga qonunchilikda ko'zda tutilgan tartibda tegishli ma'lumoti va kasbiy tayyorgarligi bo'lgan shaxslarga ruxsat beriladi.

22. O'zbekistonda aholiga pullik xizmat ko'rsatish.

Aholiga pullik jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish xizmati jismoniy tarbiya va sport hamda jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Pullik jismoniy tarbiya sog'lomlashtirish xizmatlari ro'yxati O'zbekiston Respublikasi madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

23. Imtiyozli jismoniy tarbiya sog'lomlashtirish va sport xizmati.

16 yoshgacha bo'lgan bolalar, invalidlar, etim qolgan bolalar, nafaqaxo'rlar, 1941-1945 yillar urush qatnashchilari va invalidlari, hamda ularga tenglashtirilgan shaxslarga jismoniy tarbiya sog'lomlashtirish va sport xizmati bepul amalga oshiriladi.

Jismoniy tarbiya sog'lomlashtirish va sport xizmati bepul amalga oshiriladigan imtiyozlardan foydalanuvchi boshqa toifadagi fuqarolar ro'yxati va imtiyozlar asosida hamda imtiyozlar qiymati, ularni taqsimlash tartibi va tegishli xarajatlarni yopish manbalari qonunchilik asosida amalga oshiriladi.

24. Sportchilarni ijtimoiy himoyalanihi.

O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi, sport turlari bo'yicha federatsiyalar, jamoat birlashmalari, hamda jismoniy shaxslar sportchilarga moliyaviy yordam ko'rsatishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi, sport turlari bo'yicha federatsiyalar, jamoat birlashmalari, sport markazlari, boshqa ixtisoslashgan sport tashkilotlari va muassasalar sportchilarga tegishli ijtimoiy-maishiy sharoitlar yaratishlari va ularni himoya qilishlari, salomatliklarni ta'minlashlari majburiydir.

Alohida toifadagi sportchilar qonunchilikda o'rnatilgan tartibda imtiyozli pensiyaga ega bo'ladilar.

Sport musobaqalarida ishtirok etgan shaxslar sug'urta poliyasiga ega bo'lishlari shart.

25. Xalqaro hamkorlik.

O'zbekiston Respublikasidagi Jismoniy tarbiya sog'lomlashtirish va sportni boshqarishga vakolatli davlat mutasaddi organlari, O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi, sport turlari bo'yicha federatsiyalar, jamoat birlashmalari, sport markazlari, boshqa ixtisoslashgan sport tashkilotlari va muassasalar jismoniy tarbiya va sport muammolari bo'yicha xalqaro hamkorlikda qatnashadilar.

Ular xorij mamlakatlarining tegishli sport tashkilotlari bilan bevosita aloqa o'rnatish huquqiga egadirlar, ular bilan jismoniy tarbiya va sport bo'yicha qo'shma korxonalar tuzish, birgalikda jismoniy tarbiya- sog'lomlashtirish va sport musobaqalari, uchrashuvlar, qonunchilikda o'rnatilgan tartib doirasida o'yinlar o'tkazish huquqiga egadirlar.

26. Kelishmovchiliklarni hal etish.

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha yuzaga kelgan kelishmovchiliklar qonunchilikda o'rnatilgan tartib doirasida hal etiladi.

27. Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha qonunchilikni buzilishidagi mas'uliyat.

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha qonunchilikni buzgan shaxslar o'rnatilgan tartibda javobgarlikka tortiladilar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida jismoniy tarbiya va sportni boshqarishga davlat tomonidan katta e'tibor beriladi, ushbu faoliyat orqali yurtning

genofondini saqlashga qulay imkoniyatlar tug'iladi, aholi sog'lom turmush tarziga jalb etiladi, Xalqaro musobaqalaridagi sportchilarimizning yutuqlarini vatanimizning ijobiy obro'-e'tiborini (imidj) yaratish va rivojlanishga foydalaniladi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Sport menejmenti nuqtai nazaridan O'zbekistonda sport rivojiga bag'ishlangan qonun va qarorlar etarlimi?
2. Sport sohasidagi fuqarolarning huquqlari?
3. Sport sohasidagi davlat siyosatining asosiy printsiplari?
4. Sport tashkilotlarining mohiyati nimalardan iborat?
5. Sport tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy shakllarining xususiyatlari qanday?
6. Sport tashkilotlarida boshqaruv munosabatlari qanday?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
2. Gulyamov Z.T., Nabiullin R.X., Kamilova G.Z. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti. Darslik. –T.: O'zDJTI, 2015.

Elektron ta'lim resurslari:

Internet saytlari

1. www.bilim.uz
2. www.ekonomika.ru
3. www.menejment.com
4. www.edu.uz-Vazirlik sayti
5. www.ziyo.edu.uz-Vazirlik sayti

3.4. Sport tashkilotlarining bozor iqtisodiyoti sharoitidagi xususiyatlari

Reja:

1. "Sport tashkiloti" tushunchasi.
2. Sport yo'nalishidagi tashkilotlar turkimi.
2. Sport tashkilotlari birlamchi tarkibiy qism.
3. "Sport tashkiloti" ning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi vazifalari.
4. Sport tashkilotining faoliyat yo'nalishi, asosiy xususiyatlari.
5. Rasmiy va norasmiy tashkilotlar tizimi.

6. Sport menejmenti obyektini o'rganish

Tayanch so'z va iboralar:

Iqtisodiyot tarmog'i, sport menejmenti obyektini, sport yo'nalishidagi tashkilot, tizimda sport tashkilotlari, tarkibiy qism, tashkilotlarning turlari, "Sport tashkiloti" tushunchasi, davlat va xususiy muassasalari, firmalar, birlashmalar va filiallari, musobaqalar, mashqlar, marosimlar, shanbalik, mitinglar, bayramlar, "tashkilot", jarayon, bosqich, funktsiya.

Iqtisodiyot tarmog'i va boshqaruv fanining muhim tarmog'i hisoblangan sport menejmenti obyektini o'rganish jismoniy tarbiya va sport yo'nalishidagi tashkilot hisoblanadi. Jismoniy tarbiya va sport tizimida sport tashkilotlari birlamchi tarkibiy qism hisoblanadi.

O'zbekistonda bunday tashkilotlarning soni 100 ga yaqinlashib qolgan.

"Sport tashkiloti" degan tushuncha bir necha ma'noli mazmunga egadir. Sport tashkilotlari deb davlat va xususiy muassasalarini, firma, birlashma, ularning bo'linmalari va filiallarini tushunish mumkin. Lekin tashkilot deb musobaqalar, mashqlar o'tkazish, har xil marosimlarni tashkil etish, shanbalik, mitinglar, bayramlar o'tkazishni tushunish mumkin. Ushbu holatda "tashkilot" so'zi amalga oshirilayotgan biron-bir jarayonni bildiradi. Bizga yana shu narsa ma'lumki, "tashkilot" boshqaruvning alohida bosqichi bo'lib, uning muhim funktsiyasini ifodalaydi.

Boshqarish nazariyasida "tashkilot" birinchi navbatda, umumiy - pirovardi natijaga erishish yo'lida guruhga jamlangan insonlarning ish faoliyatini maqsad bilan yo'naltirish hisoblanadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, bu birga ishlayotgan, umumiy maqsadga intilgan va ma'lum funktsiyalarni bajarishga ixtisoslashgan ikki va undan ortiq kishilarning faoliyatidir. Sportning ko'p turlarida ikki kishi guruh hisoblanadi, ularning bir-birlarini qo'llab, bajargan o'zaro harakatlari, vakolatlarni to'g'ri taqsimlanganligiga qarab, tashkilot yutuqlarga erishishi mumkin (yaxmalakda sirg'anish, parus sporti, bobsley, tennis va boshqalar).

Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida, tashkilotning ta'sir doirasidan, faoliyat yo'nalishidan qat'iy nazar, uning asosiy xususiyatini belgilash mumkin. Umumiy maqsad yo'lida birlashgan ikki kishidan kam bo'lmagan insonlar guruhi, ularning ushbu maqsad sari intiltiruvchi va yo'naltiruvchi omil – boshqarish. Albatta, insonlarning maqsad sari guruhlariga birlashuvi tushunarli va o'zini oqlashi turgan gap, chunki hamkorlikda amalga oshirilgan faoliyat

odatda, o'zining ijobiy samarasini beradi. Lekin bunday holatlarda har bir guruh ishtirokchisi umumiy maqsadga erishish yo'lida o'z xohishi bilan o'zining shaxsiy erkinligi va shaxsiy mustaqilligining bir qismini yo'qotadi. Menejerlarning tashkilotchiligini, funktsiyalarini o'rganishda va har bir rasmiy tashkilotda norasmiy tizimlar (etakchilar) ham borligi ishchi xodim xulqiy omilining muhimligini ko'rsatadi. Insonlar orasidagi guruhlar odatda, quyidagi holatlarda yuzaga keladi: uchrashuvlar, umumiy manfaatlar, muloqot ehtiyojlari, o'zining ma'naviy, ruhiy va ijodiy sohadagi, qolaversa, rasmiy tashkilot miqyosida erishib bo'lmaydigan holatlarda. Norasmiy tashkilot o'zining tizimiga ega bo'lishi mumkin, shu jumladan, sardor-rahbar, maqsadlar va faoliyat yo'nalishlari.

Tashkilot har xil, ayniqsa, murakkab maqsadlarga ega bo'lishiga qaramasdan, o'z o'rnida umumiy tavsifnoma va belgilarga egadir. Ular quyidagilardan iborat:

- zaxiralardan foydalanish;
- tashqi muhit bilan bevosita aloqa va bog'liqlik;
- tashkilotning ichki muhiti;
- boshqaruvning zaruriyatligi.

Umuman olganda, tashkilotning maqsadi pirovardi natijaga erishish uchun zaxiralarni qayta ishlash yoki ularga tegishli ta'sir ko'rsatishdan iborat. Zaxiralar – bular odamlar (yoki inson resurslari deb ataladi), kapital, materiallar, texnologiya, axborot va boshqalar. Bunday jarayonni ko'proq ishlab chiqarish (sport tovarlari ishlab chiqarish) tashkilotlarida yaqqolroq ko'rish mumkin. Jismoniy tarbiya va sport sohasida ham yuqorida keltirilgan zaxiralar turlari keng ishlatiladi. Tashkilotning eng nazarga tashlanadigan tavsifnomalaridan biri uning tashqi muhit bilan bo'lgan aloqasidir. Tashkilot bir vaqtning o'zida ham o'zining ichki zaxiralari, ham iste'molchilari, ham foydalanuvchilari va boshqalar bilan bo'lgan munosabatlarida tashqi muhit bilan to'liq munosabatda bo'ladi. "Tashqi muhit" deganda inobatga olinishi lozim bo'lgan va amaliy faoliyatda tashkilotga nisbatan chetda bo'lgan kuchlar tushuniladi.

"Tashqi muhit" tarkibiga iqtisodiy sharoitlar, hukumat dalolatnomalari va qonunchilik, iste'molchilar va jamoat tashkilotlari (kasaba uyushmalari, xotinqizlar jamoalari va boshqalar), raqobatchilik tashkilotlari, jamiyatda mavjud qadriyat tizimi, umumjamiyat qarashlari (munosabatlar), an'analar, texnika va texnologiyalar, Xalqaro ahvol va boshqalar. Ushbu o'zaro bog'liqlikda bo'lgan omillar tizimi sport tashkilotlari ichida yoki orasida bo'ladigan barcha jarayonlarga o'zining jiddiy ta'sirini ko'rsatadi. Tashqi omillarni ikki asosiy guruhlariga ajratish mumkin:

- bevosita ta'sir ko'rsatuvchi;

- bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi.

Bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar – bu sport tashkilotlari faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etuvchi va o'z navbatida, ushbu faoliyatga o'zining zarur ehtiyojini his etadigan omillardir. Bular qatoriga qonunlar, mehnat va boshqa zaxiralar bilan ta'minlovchi tashkilotlarni, davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi muassasalarni, iste'molchi va raqobatchilarni kiritish mumkin.

Bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar qatoriga esa tashkilot faoliyatiga zudlik bilan ta'sir ko'rsata olmaydigan, lekin shu bilan bir qatorda, muhim ahamiyatga ega bo'lgan ko'rsatkichlar kiradi. Bular qatoriga iqtisodiyot holati, ilmiy-texnika taraqqiyoti, ijtimoiy-madaniy va siyosiy o'zgarishlar, guruhlar manfaatlarining ta'siri, Xalqaro munosabatlar va boshqalarni kiritish mumkin. Tashqi muhit quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi: tashqi muhit omillarining o'zaro bog'liqligi, tashqi omillarning murakkabliligi, tashqi muhitning harakatsizligi va ma'lum darajadagi noaniqligi, noma'lumligi.

Sport tashkilotlari tashqi muhitga bevosita bog'liq bo'lishiga qaramasdan, odatda, ular tashqi omillarga ta'sir ko'rsata olmaydilar. Hatto gullayotgan, eng jadal darajada rivojlanayotgan kompaniyalar ham o'z sohalaridagi yangilik taraqqiyotiga qarshi hech nima qila olmaydilar, buning ustiga o'zlari uchun imkoniyatlar topish yo'lida ushbu progressiv yo'nalish doirasida faol ish olib boradilar. Har qanday pog'onadagi rahbar o'z faoliyatida yutuqlarga erishish uchun ko'pdan - ko'p tashqi muhit omillarini inobatga olgan holda ish yuritishi lozim. Sport bo'linmalari, butun bir tashkilot kabi o'z faoliyatlarida umumiy maqsadga erishish sari yo'naltirilgan va boshqarib boriladigan xodimlar guruhlarini tashkil etadilar. Sport tashkilotlarida faoliyatlar soha bo'yicha tarkibiy qismlarga taqsimlangan bo'lganligi uchun ishda yutuqlarga erishish uchun kimdir guruh ishini yo'naltirib, boshqarib borishi lozim. Misol, sport klublarida muvaffaqiyatli ishlash uchun uning alohida bo'linmalarining faoliyati yo'naltirib borilishi, ya'ni sportchilarni (yoki guruhni) samarali tayyorlash va belgilangan muddatda ko'zlangan natijalarga erishishi talab etiladi. Barcha bo'linmalarining kuchanib harakat qilishlarini yo'naltirmasdan turib, ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. Boshqaruv faoliyati ikki shaklga bo'linadi:

Birinchi, mehnatni tarkibiy qismlarga taqsimlash, ya'ni umumiy faoliyatning tarkibiy qismlarini belgilash, boshqacha so'z bilan aytganda, mehnatning gorizontaal taqsimoti ko'zda tutilyapti. Ushbu jarayon sport tashkilotlarida maxsus bo'linmalar tashkil qilish orqali amalga oshiriladi.

Ikkinchi, tik chiziqli deb ataladi va sport tashkilotlarida ishni rahbar tomonidan yo'naltirilishini va boshqarilishini ta'minlaydi.

Sport tashkilotlarining tashqi muhitdan bog'liqligi uni ochiq tizimi holatida faoliyat yurgizishini ta'minlaydi. Tizim deganda, jismoniy tarbiya sport

tashkilotlaridagi barcha elementlarning majmuasi ko'zda tutiladi. Sport tashkilotlarining ichidagi va tashqarisidagi elementlarning bir-birlari bilan bog'liqligi, aloqa va munosabatda bo'lishi, ularning ma'lum darajada yaxlitligini va birgaligini bildiradi. YA'ni, tizimlarni moddiy va abstrakt turkumlarga bo'linadi. Moddiysi organik tabiatli bo'lmagan tizim (jismoniy, geologik, kimyoviy va boshqalar) va tirik tizim (biologik tizim, tirik tanalar, ekotizimlar va boshqalar); moddiy tirik tizimning alohida turkimi – ijtimoiy tizim (oddiy ijtimoiy birlashmadan tortib, to jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar)dan iboratdir. Abstrakt tizim – tushunchalar, gipotezalar, nazariyalar va boshqalardan iboratdir.

Har qanday sport tashkiloti ochiq tizim sifatida ikki xil xususiyatga egadir – chegaralanish va atrof-muhit, shu bilan bir qatorda, nisbatan alohidalik va o'zaro bog'langanlik asosida har xil boshqaruv pog'onalariga to'g'ri keladigan tizimning alohida bo'lakchalaridan iborat bo'ladi. O'z navbatida, tizimning alohida bo'lakchalari alohida mustaqil tizim deb qaralishi ham mumkin. Demak, sport tashkiloti ochiq tizim sifatida o'z tarkibiga quyidagi tarkibiy qismlarni kiritishi mumkin: ma'muriy apparat, murabbiylar tarkibi, xizmat qiluvchi yoki texnik ishchi xodim, sportchilar jamoasi va boshqalar, shu bilan bir qatorda, o'z navbatida, har sanab o'tilgan qismlar boshqa bir ochiq tizim sifatida ko'rilishi mumkin, lekin uning ierarxik pog'onasi boshqa bo'ladi.

Sport tashkilotlarini boshqarishdagi murakkab masalalardan biri umumiy tizimning chegaralarini belgilashdan iboratdir. Sport tashkilotlarini boshqarishdagi murakkab masalalardan biri umumiy tizimning chegaralarini belgilashdan iboratdir.

Tizimning chegaralarini belgilashning murakkabligi sport tashkilotlarini boshqarishdagi masalalarga qaysi nuqtai nazardan qaralishiga bog'liq. Masalan, sport inshootlari, sport klublari menejeri nuqtai nazaridan ochiq tizim sifatida, birinchi navbatda, chegarasining joylanishi, uning tarkibiga kiruvchi qurilmalarning xususiyatlari, yordamchi inshootlar obyektlari hamda tomoshabinlarga ajratilgan o'rindiqlar soni va boshqalar bilan belgilanadi.

Sport inshootlari qurilishi menejeri nuqtai nazaridan qaralganda, sport klublari chegarasi sifatida ularni kengaytirish, qayta qurish yoki qayta ta'mirlash ko'zda tutiladi. Bunday ishlarning barchasi sistemaning tashqarisida joylashgan bo'lib, uning atrof muhiti hisoblanadi (ya'ni tashqi muhit).

SHunday qilib, sport tashkilotlari, ochiq tizim hisobida atrof muhiti bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Ushbu o'zaro munosabatlar juda bo'lmaganda quyidagi uchta tushunchalar orqali tavsiflanadi:

- iste'mol qilish (xom-ashyo va zaxiralarni tashqi muhitdan qabul qilish);

- tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish maqsadida zaxiralarni qayta ishlash va transformatsiyalash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar;

- mahsulot ishlab chiqarish (sport tovarlari va sport xizmatlari).

Boshqacha so'z bilan aytganda, har qanday sport tashkiloti o'z faoliyatida uchta o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni amalga oshiradi:

- xom-ashyo va zaxiralarni tashqi muhitdan oshish;

- xom-ashyo va zaxiralarni qayta ishlab (qayta o'zgartirib), mahsulotga (sport tovari va sport xizmatiga) aylantirish;

- mahsulotni (sport tovarlari va sport xizmatlarini) tashqi muhitga uzatish.

Har qanday sport tashkiloti insonlar tomonidan o'zlarining umumiy maqsadlarini amalga oshirish uchun yaratilgan obyekt bo'lganligi sababli, uning ichki muhit faoliyati, asosan, boshqaruv qarorlari va boshqaruv harakatlari orqali amalga oshiriladi. Rahbariyatning e'tiborini tortadigan eng zarur narsalar maqsad, tizim, masalalar, texnologiya, xodimlar va sport tashkilotining boshqaruvidagi tashkiliy madaniyat hisoblanadi. Ushbu omillar har qanday sport tashkilotining ichki o'zgaruvchan parametrlaridir.

Maqsad guruh tomonidan birgalikda ishlash orqali erishishga intilgan aniq yakuniy holat yoki erishilishi lozim bo'lgan natija.

Tashkilot tizimi qo'yilgan maqsadga erishishni ta'minlaydigan, har qanday sport tashkilotining funksional elementlar boshqaruv tizimi ierarxiya (pog'onalar)sining mantiqiy o'zaro bog'liqligidir.

Masalalar mo'ljalda ko'zlangan muddatda, oldindan belgilangan usulda bajarilishi lozim bo'lgan ish rejasi, ishlar seriyasi yoki ishlarning biron bir qismi. Tashkilotning maqsadi an'anaviy ravishda uch toifaga bo'linadi: odamlar (ishchi xodim) bilan ishlash, buyumlar bilan ishlash va axborot bilan ishlash. Sport menejmentidagi boshqaruv faoliyati bu asosan, xodimlar (ishchi xodim) va axborot bilan ishlashdir.

Texnologiya bu xom-ashyo, zaxira va axborotni qayta ishlash tartibidir (algoritm), bunga ishchi xodim, axborot, jismoniy materiallar va mahsulot, xizmatlar kiradi. Personal har qanday tashkilotning asosi hisoblanadi, u pirovardi mahsulotni yaratadi, sifat ham insonlarga bog'liq, ular sport tashkilotining madaniyatini va muhitini yaratadilar.

Tashkiliy madaniyat xulq me'yori, sport tashkiloti rahbariyati foydalanadigan menejment printsiplari, uning faoliyat mohiyatiga bog'liq. Sport tashkilotida tashkiliy madaniyat va xulq namoyondalari bo'lib insonlar (xodim, ishchi xodim) hisoblanadi.

Sport tashkilotlarining ichki muhit tarkibi parametrlari missiya, maqsad va tashkiliy tizimdan iborat bo'ladi.

Sport tashkiloti mavjudligini aniq belgilovchi sabab uning vazifasi hisoblanadi. Odatda, maqsad missiyani amalga oshirish maqsadida shakllantiriladi va navbatdagi boshqaruv qarorini qabul qilishga mezon sifatida xizmat qiladi. Missiya tashkilot huquqiy o'rnini oydinlashtiradi, har xil boshqaruv ierarxiyalarida maqsad va strategiyani aniqlashda yo'nalish va mo'ljalni belgilaydi. Masalan, sport klubining asosiy vazifasi jamiyatning sportchilar tayyorlashdagi ehtiyojini qondirishdan iborat bo'lishi mumkin. Ushbu vazifasini bajarish uchun rahbariyat, eng birinchi navbatda, malakali murabbiylar tarkibini to'plashi, yuksak klassdagi sportchilarni tayyorlashga sharoit yaratish va ularni tayyorlash jarayonini ta'minlashi lozim.

Vazifani tanlash sport tashkilotining imkoniyatlari, uning zaxiralari va tashqi omillarga bevosita bog'liqdir. Sport tashkilotlari, ayniqsa, kichik klublar oldidagi havf shundan iboratki, haddan tashqari murakkab vazifani tanlashdir. Sport tashkilotlarining bosh maqsadini yuqori rahbarlar belgilashini inobatga olgan holda, ularning shaxs sifatidagi qadriyatlari va maqsadlari missiyani tanlash va shakllantirishga ma'lum ta'sir o'tkazadi. Sport tashkilotlarining umumiy maqsadlari sport jamoalarining vazifasi va rahbariyat ko'zlagan ma'lum qadriyatlarga asoslanadi. Ushbu maqsadlar sport tashkilotining yutuqlariga tegishli hissa qo'sha oladigan darajadagi qator tavsifnoma va qadriyatlarga ega bo'lishi lozim.

Birinchiidan, ular aniq va o'lchash darajasida bo'lishi lozim. Jismoniy tarbiya va sport doirasida ushbu faoliyatning ko'pgina ko'rsatkichlari javob beradi: sport turlarining soni va mashqlarning hajmi, mashq jarayonining hajm va sifat tavsifnomasining dinamikasi, sport ko'rsatkichlari, murabbiylar, sportchilarning moddiy va ijtimoiy ta'minlanganligi va boshqalar.

Ikkinchiidan, maqsadlar vaqt birligida mo'ljallangan bo'lishi lozim. Ular uzoq muddatli (sportda bu odatda, 4 yillik muddatni o'z ichiga oladi), o'rta muddatli 1 yildan - 4 yilgacha va qisqa muddatli 1 yilgacha.

Uchinchiidan, maqsad erisha oladigan darajada bo'lishi lozim, chunki sport tashkilotining samaradorligini oshirilishiga imkon yaratilishi kerak. Sport tashkilotlarining imkoniyat darajasidan yuqori keladigan maqsadlarni ilgari surish kutilmagan nohush holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, sport tashkilotlari (guruhlar), sportchilar oldiga asoslanmagan yuqori reytingni qo'yilishi, ularning yutuqqa intilishlariga to'siq bo'lishi mumkin, natijada ularning motivatsiyasi juda ham tushib ketadi.

Odatda, oldindan ochiq ma'lum qilinmaydigan, qator kundalik va jadal maqsadlarni hal etmasdan turib, sport tashkilotlarining asosiy maqsadiga erishib bo'lmaydi. Ularning shakllanishi quyidagilarni ko'zda tutadi: birinchiidan, ularning mujassamlashuvi sport tashkilotining asosiy maqsadini tashkil etishi va

ularning birortasi ham so'nggisiga qarama-qarshi turmasligi lozim; ikkinchidan, kundalik va jadal maqsadlarning bir-birlariga o'xshaganligi bilan ularning ba'zilar boshqalariga nisbatan nizo holatiga o'tishi mumkin; uchinchidan, jadal maqsadlarni hal etishga qabul qilingan qarorlar sport tashkilotining mohiyatiga ta'sir ko'rsatadi va uni o'zinikiga o'xshagan missiyali va maqsadli tashkilotdan tafovutlaydi.

Sport tashkiloti o'z oldiga qo'yilgan maqsadni amalga oshirishi uchun u ma'lum darajada tizimlangan bo'lishi, ya'ni har qanday tizimining ichki shaklini ifodalaydigan tashkiliy tizimga ega bo'lishi lozim. Elementlari orasida bog'liqlik o'rnatilgan, oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun xizmat qiladigan tizim, tashkiliy tizim deb ataladi. Sport tashkilotining tashkiliy tizimini shakllanishidagi hal etuvchi omil mehnat taqsimoti hisoblanadi. Sport tashkilotining tashkiliy tizimi asosan, uning strategiyasi asosida aniqlanadi, vaqt o'tishi bilan strategiyaning o'zgarib borishi o'z navbatida, tashkiliy tizimning ham o'zgartirish zaruriyatini tug'diradi.

Hozirgi zamon menejmentida an'anaviy tizimlarga quyidagilar kiradi: ma'muriy, funktsional, divizion, loyihali, matritsali, konglomerant, ma'muriy funktsional va boshqalar. Nomi keltirilgan tashkiliy tizimlarga xos xususiyatlar, jismoniy tarbiya va sportni tashkil etishda o'z aksini topgan. Sport menejmenti nazariyasida tashkilotning yana boshqa tizimlari mavjud. Masalan, ular qatoriga chiziqli tashkiliy tizimni kiritish mumkin, u "rahbar va ijrochi" munosabatlariga asoslangan. Yana funktsional tashkiliy tizimni ko'rish mumkin, u yuqori rahbar bilan pastdagi ijrochi orasida tik chizmalı munosabatlarni yo'qligi va faqat kesishgan gorizontaal funktsional aloqalarning shakllanganini bildiradi. Funktsional boshqaruvda chiziqli boshqaruv tizimiga malakali, aniq funktsiyalarni va ishlarning yo'nalishlarini biladigan mutaxassislar kiradi. Masalan, sport guruhi murabbiy, shifokor, massajchi, ma'muriy guruh va boshqalardan tashkil topgan. Bunday tashkiliy tizim ma'muriy rahbarlarning ishini osonlashtiradi, boshqaruv jarayonini yanada sifatli olib borishga yordam beradi. Shu bilan bir qatorda, funktsional tizim boshqaruvdagi birinchi rahbar rolini susaytiradi, chunki ijrochi o'z faoliyatida bir necha o'rta pog'onadagi rahbarlardan topshiriq olib ishlaydi.

Chiziqli shtabli tashkiliy tizilarning xususiyati shundaki, rahbarlar ixtiyorida shtab funktsiyalarini bajaruvchi ijrochilar tashkil etiladi. Bunday holatlarda ham shtab, ham ijrochilar yuqori rahbarga bo'ysunadilar. Bunga misol qilib federatsiyalar tarkibidagi ba'zi faoliyat yo'nalishlariga xizmat qiluvchi har xil komitet (komissiya)larni ko'rish mumkin.

Umumlashgan tashkiliy tizim sifatida chiziqli funktsional tizimni ko'rish mumkin. Uning mohiyati shundaki, maqsadlarni belgilash va zaxiralarga

taqsimot rahbarlik qilish chiziqli rahbarlar (menejerlar) vakolatiga kiradi, qo'yilgan maqsadga erishish esa ajratilgan zaxiralar doirasida funktsional bo'linmalar zimmasiga yuklatiladi. Hozirgi davrda ushbu tashkiliy tizim barcha sohalarda keng qo'llanib kelinmoqda. Uning yana bir zamonaviy shakllaridan biri divizion toifasidagi tizimdir, bunda boshqaruv apparati boshqaruv funktsiyalari asosida tizimlanadi va diferentsatsiyalanadi, faqat boshqaruv funktsiyasi asosida emas, balki boshqaruv organiga mustaqil bo'linmalarni ajratish asosida tuziladi. Divizion tizimning xususiyati shundaki, har bir bo'linma ichidagi o'zining funktsional boshqaruv apparati markaziy rahbariyat bilan bog'langan. Masalan, kompleks sport maktabida umumiy rahbarlik, moliya va boshqa zaxiralar taqsimoti, maqsadli vazifalarni maktab ma'muriyati amalga oshiradi, sport bo'linmalari (gimnastika, sport o'yinlari va boshqalar) faoliyatini boshqarishni bosh murabbiy yoki bo'linma o'quv rahbarligida murabbiylar tarkibi bajaradi. Ushbu toifadagi tizim muammolarni har tomonlama o'rganib, qo'zlangan maqsadga erishish imkonini beradigan qaror qabul qilish imkonini beradi.

Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari va ularning rang-barang faoliyati yurtimizdagi jismoniy tarbiya va sport sistemasini tashkil etadi. Insonlar manfaatlari va jismoniy tarbiya va sport faoliyatining rang-barangligi ko'p miqdordagi sport tashkilotlarini paydo bo'lishiga olib keldi. Jismoniy tarbiya va sport tizimidagi tashkilotlarni turlashda shunga e'tibor berish lozimki, ular yurtimizdagi katta iqtisod tarmog'ining bir qismi bo'lib, xizmat ko'rsatish tarmog'iga kiradi, boshqa tashkilotlar esa rang-barang va o'ziga xos shakldagi mahsulot ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi hisoblanadilar. Birinchi guruh tashkilotlari sport tovarlari (sport inventarlari, oyoq kiyim, ustki va ichki kiyimlar, aslahalar) ishlab chiqaradilar va sotadilar, sport tashkilotlarini ta'mirlash va qurish bilan shug'ullanadilar. Ikkinchi guruh tashkilotlari jismoniy tarbiya sog'lomlashtirish, sport, axborot kabi servis xizmatlari bilan shug'ullanadilar, Ushbu xizmat turining xususiyatlari va alohidaliklarini belgilaymiz:

- ular saqlanmaydigan va bir vaqtli ma'lum vaqtda foydalanilmagan xizmatdan keyinchalik foydalanib bo'lmaydi, chunki uni qaytarib bo'lmaydi (sport musobaqalarining va mashg'ulotlarning vaqti va boshqalar);

- ular sezilmaydigan bo'ladi, chunki foydalanilmaguncha xizmat sifatini aniqlab bo'lmaydi;

- ular turli tumandir, chunki xizmat darajasi, uning bahosi va sifati har xil paytda har xil bo'lishi mumkin, uning ustiga ko'p narsalar mijozning psixologiyasi, individual sifatlari va boshqa xususiyatlariga bog'liq.

Uchinchi guruh tashkilotlar boshqarish bo'yicha xizmat ko'rsatadilar. Ushbu guruh tashkilotlari o'zining vakolati, o'lchami, sport ixtisosligi va boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha turkumlanadi, bu esa o'z navbatida, ularni klassifikatsiyalashga asos bo'ladi. Klassifikatsiyalashni usullarini aniqlashda real holatni, an'analarni va oldingi davrdagi tajribalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Mustaqillikkacha Davlat tashkilotlari bosh rolni o'ynagan, ya'ni jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi, uning bo'linmalari barcha mintaqalarda faoliyat ko'rsatgan. Unga qanday muassasaga tegishli bo'lishidan qat'iy nazar, barcha jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari bo'ysungan. YUrtimizda ijtimoiy-iqtisodiy tizimni o'zgarishi tarkibiy qayta qurilishga olib keldi. Prezidentimizning qator farmonlari va hukumat qarorlari jismoniy tarbiya va sport sohasida tub islohatlarga olib keldi va yangi boshqaruv munosabatlari shakllana boshladi, natijada noan'anaviy munosabatlar bilan yangi sport tashkilotlari paydo bo'la boshladi.

Mustaqillik davrida jismoniy tarbiya va sport boshqaruvining o'ziga xos funksiyalari amal topdi, ulardan eng muhimlari rejalashtirish va ishni yo'naltirish bo'ldi. Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari kasaba uyushmalari sistemasi o'zlarining mavqelarini saqlab qoldilar, davlat tomonidan dotatsiya olish imkoniyatiga ham ega boshldilar. Sport federatsiyalari, O'zbekiston Respublikasi Olimpiya qo'mitasi mustaqillikka ega bo'lib, bir vaqtning o'zida ham Davlat ko'magiga, ham sportni tijoratlashtirish imkoniyatiga erishdilar. Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari tizimida yangi tashkiliy-huquqiy status bilan tijorat tashkilotlari paydo bo'ldi, bular hissadorlik jamiyatlari, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar, hususiy tashkilotlar va boshqalar.

Hozirgi zamon sharoitida jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarini turkumlash me'yoriga quyidagilar xizmat qilishi mumkin: tegishlilik, boshqaruv munosabatlarining tavsifi, foyda va mablag' olish usullari.

Tegishlilik bo'yicha quyidagicha ajratish mumkin:

a) davlat tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi turizm milliy kompaniyasi, tumanlardagi jismoniy tarbiya va sport boshqaruvi organlari va boshqalar;

b) vazirlikning muassasa tashkilotlari (qurolli kuch vazirliklari, ta'lim vazirliklari, sog'liqni saqlash vazirligi va boshqalar);

v) jamoatchilik sport turlari bo'yicha federatsiyalar, O'zbekiston Respublikasi Olimpiya qo'mitasi, sport klublari va ittifoqlar, jamiyatlar;

g) jamoatchilik davlat (ko'ngillilar sport jamiyatlari);

d) xususiy tashkilotlar professional klublar, sport tovarlari ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bo'yicha firmalar.

Davlat va muassasa jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari ko'p jihatdan an'anaviy boshqaruv funktsiyalarini (rejalashtirish, tashkillash, motivatsiya va nazorat) saqlab qoldilar, lekin yangi qonunchilik sharoitini hisobga olgan holda, ularning maqsadi, ta'sir doirasi, faoliyat hajmi va malakaviy darajasi tubdan o'zgardi. Ular shunday status va boshqaruv tizimini tanladilarki, yangi tashqi muhit sharoitiga moslashish imkoniyati tug'ildi.

Sport klublari va tijorat sport klublari amalga oshiradigan asosiy faoliyat turlari quyidagilardan iborat: fuqarolar bilan jismoniy tarbiya va sport, sog'lomlashtirish ishlarini tashkil qilish, shu bilan bir qatorda ta'lim maskanida o'qiyotgan bolalar bilan, veteranlar va invalidlar bilan; sportchi zaxiralarini, sport guruhlarini va yuqori malakali sportchilarni tayyorlash. Fuqarolarni jismoniy tarbiyalash, har xil sport turlari bo'yicha istiqbolli va iqtidorli sportchilarni topib tarbiyalash bilan bog'liq sport tashkilotlarining faoliyati havaskorlar sporti toifasiga to'g'ri keladi notijorat sport turi hisoblanadi. SHu bilan bir qatorda, hozirgi kundagi qonunchilik sport tashkilotlari tomonidan tijorat (tadbirkorlik) faoliyatini ta'qiqlamaydi, aksincha uni yurgazish imkoniyatini ko'zda tutadi.

Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari o'zlarining asosiy faoliyat ko'rsatish doiralarida aholiga pulli xizmat ko'rsatadilar, undan tushgan daromad sport tashkiloti faoliti moliyalashtirish manbalaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari o'zlarining tavsifi munosabatlariga ko'ra professional va havaskorlikka ajraladi.

Professional sport tashkilotlariga, odatda, o'zlarining doimiy maqsadlariga, professional boshqaruv xodimlariga ega bo'lgan va ish hajmiga ko'ra, boshqaruv funktsiyalari bo'lingan, xarakteri, vakolati va mas'uliyati mos ishchi xodimli jamoalar kiradi. Faoliyat reglamenti me'yoriy hujjat va boshqa tashkiliy-huquqiy dalolatnoma orqali puxtalanadi. Xodimlarning tutgan yo'llari va ularning rollari kontrakt, shartnoma, buyruq va instruktsiyalar orqali aniqlanadi.

Professional sport tashkilotlariga qaraganda, havaskor tashkilotlar jamoatchilik asosida boshqariladi. Boshqaruvchilik funktsiyalari va huquqlarga ega bo'lgan professional xodimlar ishtirok etishlari mumkin. Ularning asosiy funktsiyalariga, tashkillash, rejalashtirish, ish yuritish, rag'batlantirish kiradi. Rahbar xodim ishida ishtirokchilarni rag'batlantira oladigan, yuqori darajada tashabbus, mas'uliyat, sardorlik sifatleri zarur. Bunday shakldagi tashkilotchilik muassasalar, korxonalar, o'quv maskanlari, bolalar tashkilotlaridagi birlamchi jismoniy tarbiya va sport jamoalariga xosdir. Vaqtinchalik omili har doim har xil bo'lishi mumkin, chunki barcha umumiy faoliyat doimiylik xarakteriga ega.

4. Sport tashkilotlari o'zlarining asosiy mablag' olish manbalariga ko'ra, tijoratchilik, notijoratchilik va aralash ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Tijorat tashkilotlariga sport tovarlari sotadigan magazinlar, sport qurollari va inventarlari ishlab chiqaradigan fabrikalarni kiritish mumkin. Ularning o'z faoliyatlaridan asosiy maqsadi insonlar va jamiyat ehtiyojlarini qondirgan holda foyda olishdan iboratdir. Ushbu guruhdagi jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarini moliyalashtirishning ba'zi manbalari o'ziga xos xususiyatga ega. Masalan, dasturli maqsadli moliyalashtirish tashkilotlarining maxsus dasturlari (mintaqa, tuman, shahar, tarmoq va tarmoqlarao) jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga xizmat qiladi. Manzilli moliyalashtirish esa qandaydir tashabbuslarni qo'llash, masalan bayram, tarixiy sana kunlari biron bir jismoniy tarbiya va sport marosimlarini o'tkazish bilan bog'liq. Notijorat sport tashkilotlari guruhiga kasaba uyushmalaridan mablag' oluvchi birlamchi jismoniy tarbiya sport jamoalari ham kiradi. Bularga jismoniy tarbiya jamoalari, korxonalar sport klublari, sektsiyalar, guruhlar, sport turlari bo'yicha guruhlar, turizm va boshqalar.

Subventsiya davlat tomonidan hokimiyatlar orqali ma'lum muddatga, aniq maqsadga berilgan yordamga berilgan pul mablag'i. Dotatsiyadan farqli o'laroq, u aniq maqsadlarga yoki o'z vaqtida ishlatilmagan holatlarda qaytarib olinadi. Asosiy faoliyat hisoblanmagan manb'alardan olingan daromadlarga bank depozitlari, xonalarni, asosiy faoliyatda foydalanilmaydigan jismoniy tarbiya va sport sog'lomlashtirish inshootlarini ijaraga berishdan tushgan mablag'lar va boshqalar.

Aralash jismoniy tarbiya sport tashkilotlari guruhiga byudjeti dotatsiyadan tashkil topgan, davlat, muassasa subsidiyasi va marketing orqali o'zining xo'jalik faoliyatidan ishlab topilgan boshqa tashkilotlar mablag'lari kiradi, masalan, ushbu guruhga O'zbekiston Respublikasi Olimpiya qo'mitasi, sport federatsiyalarining bir qismi, ittifoq, kasaba uyushmalari assotsiatsiyasi, tijorat sport va professional klublari kiradi.

Notijorat tashkilotlariga o'z faoliyatlarini yurgizish uchun davlatdan dotatsiya yoki boshqa mablag' oluvchilar kiradi. Bularga davlat tashkilotlari, muassasalar kiradi, masalan, jismoniy tarbiya va sport qo'mitalari, kuch ishlatuvchi tizimlarning muassasa tashkilotlari, ta'lim vazirliklari, sportchilar tayyorlash markazlari va boshqa tarmoqlar. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi notijorat sport tashkilotlarining mumkin bo'lgan moliyalashtirish manba'lari quyidagi jalvalda keltirilgan:

3.4.1. - jadval

Notijorat sport tashkilotlarida moliyalashtirish

Davlat tomonidan	Xususiylik	Jalb etilgan
To'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish	A'zolik badallari	mablag'lari
Dastur maqsadli moliyalashtirish	Asosiy faoliyatdan olingan daromadlar	Homiylar mablag'lari
Manzilli moliyalashtirish	Asosiy mas faoliyatdan olingan daromadlar	Grantlar
Davlat subsidiyasi		Zayom mablag'lari
Davlat dotatsiyasi		Kreditlar
Davlat subvensiyalari		
Qo'shimcha moliyalashtirish (soliq va boshqa imtiyozlari)		

Jismoniy tarbiya sport yo'nalishidagi jamoalar Fuqarolar kodeksi tomonidan o'rnatilgan tashkiliy huquqiy shakllarda faoliyat ko'rsatishi mumkin. YUqorida keltirilgan tashkiliy tizim toifalari jismoniy tarbiya va sport tizimida turli tarkiblarda qo'llanib kelinadi.

Takrorlash uchun savallar:

1. Sport menejmentida obyekt va subyekt nima?
2. Sport yo'nalishidagi tashkilot qanday?
3. Birlamchi tarkibiy qism nima?
4. O'zbekistonda sport tashkilotlarning turlari qaysilar?
5. "Sport tashkiloti" tushunchasini aytib bering?
6. Sport tashkilotlari, davlat va xususiy muassasalari, firmalar, birlashmalar, ularning bo'linmalari va filiallari haqida nima bilasiz?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
2. Gulyamov Z.T., Nabiullin R.X., Kamilova G.Z. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti. Darslik. –T.: O'zDJTI, 2015.

Elektron ta'lim resurslari:

Internet saytlari

1. www.bilim.uz.
2. www.ekonomika.ru.
3. www.menejment.com.

4. www.edu.uz-Vazirlik sayti.
5. www.ziyo.edu.uz-Vazirlik sayti.
6. www.performance.edu.uz-Vazirlik sayti.

IV. O'ZBEKISTONDA SPORT MENEJMENTIDA PERSONALNING O'RNI

4.1. O'zbekistonda sportni rivojida menejmentning o'rni

Reja:

1. O'zbekistonda sportni rivojidadagi asosiy omillar.
2. O'zbekistonda sportni rivojida sport menejmentning o'rni.
3. O'zbekistonda mustaqillik davrida sport tashkilotlari, sportni va uning turlarini rivojlanishiga yaratilgan sharoitlar.
4. Sport menejmenti obyekt va sub'ektlari haqida tushuncha
5. Sport yo'nalishidagi tashkilotlarning vazifalari
6. Sport turlarining rivojlanishi: bolalar sporti, milliy sport turlari va xalq o'yinlari, katta sport holatlari haqida

Tayanch so'z va iboralar:

Omil, sport menejmenti, sport tashkilotlari, sport turlari, sharoit, sport menejmenti obyektlari, sport menejmenti sub'ektlari, sport turlari, bolalar sporti, milliy sport turlari xalq o'yinlari, katta sport, olimpiada, Olimpiya o'yinlari, sport inshootlari.

Ma'lumki, mamlakatimiz sporti 1991 yilgacha sobiq Ittifoq bo'yicha amal qilgan hukmron tizimning bir qismi bo'lib, yurtimiz bu masalada xalqaro maydonga mustaqil chiqish va o'z imkoniyatlarini namoyon etish huquqiga ega bo'lmagan. Respublikamizning sanoqli sportchilarigina Olimpiya O'yinlari, jahon va Yevropa miqyosidagi nufuzli musobaqalarda qatnasha olardi. Asosiy e'tibor mahalliy aholi o'rtasidan malakali sportchilar tayyorlash, jismoniy tarbiyani ommalashtirishga emas, balki boshqa respublikalardan tayyor sportchilarni taklif qilib, ho'jako'rsinga muayyan natijalar olishga qaratilar edi. SHu bois, respublikaning faqat markaziy shaharlarida birmuncha ishlar qilinib, chekka hududlarida sportni rivojlantirishga etarli ahamiyat berilmadi. 1991 yilgacha O'zbekistonda jahon andozalari talablariga javob beradigan birorta ham yirik sport inshooti bunyod etilmagani, hatto Toshkent shahrida ushbu talablarga mos sport majmuasi bo'lmaganini o'ziyoq, bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi.

Mustaqillikka qadar O'zbekiston xalqaro sport jamoatchiligi uchun qariyb yopiq edi. Futbol va tennis bo'yicha o'smirlar o'rtasida sobiq ijtimoiy davlatlar sportchilari ishtirokida o'tkazilgan turnirlarni hisobga olmaganda, mamlakatimizda boshqa xalqaro musobaqalar deyarli o'tkazilmadi.

Mustabid siyosat jismoniy tarbiya va sport sohasida ham o'z asoratlarini qoldirib, bular ayniqsa, quyidagilarda namoyon bo'ldi:

1. O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport ishlari markaziy respublikalarga nisbatan past darajada yo'lga qo'yildi, sport harakatiga mahalliy aholi ommaviy ravishda jalb qilinmadi, ular orasidan yuqori malakali sportchilarni tayyorlash borasida esa, aniq va maqsadli ishlar olib borilmadi, oqibatda aksariyat yoshlarning jismonan sog'lomligi talab darajasida bo'lmay, ular orasidan katta sportga sanoqli sportchilar chiqa oldilar;

2. Sport tarmoqlarini rivojlantirish, sport inshootlarini qurish, umuman sportning moddiy-texnikaviy bazasini kengaytirish va moliyalashtirish ishlari faqat markaz roziligi bilan, cheklangan tarzda amalga oshirildi;

3. Soha uchun oliy va o'rta ma'lumotli kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilgan bo'lsada, musobaqalarda milliy sportchi kadrlar turli sun'iy to'siq va saralashlardan o'tishga majbur edi. Milliy kadrlarni tayyorlash va mahalliy sportchilar iqtidorini ro'yobga chiqarishdagi bunday noholis siyosat asorati mustaqillikning birinchi yillarida ko'pchilik sportchi va murabbiylarning boshqa joylarga ketib qolishida o'z aksini topdi;

4. O'zbekiston sportiga adolatsiz munosabat tufayli juda ko'p sportchilarimiz Evropa, Jahon va Olimpiya musobaqalarida ishtirok etish imkoniyatidan mahrum etilgan;

5. O'zbekiston sportchilarining jahon miqyosiga mustaqil chiqa olmaganligi mazkur sohaning zamon talablariga mos ravishda rivojlanib borishiga ham katta to'sqinlik qildi.

O'zbekistonda mavjud muammolarni bartaraf qilish maqsadida Mustaqillikning birinchi kunlaridanoq mamlakat rahbarining tashabbusi bilan jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishga qaratilgan tegishli qonunlar, Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari bosqichma-bosqich qabul qilinib, ular joriy etildi, qisqa muddat ichida:

- jismoniy tarbiya va sportni boshqarishning tashkiliy asoslari takomillashtirildi;

- O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi, sport turlari bo'yicha federatsiyalar tashkil qilindi;

- ommaviy-sport ishlari va sportning milliy turlari rivojlantirildi;

- jismoniy tarbiya va sport sohasini mablag' bilan ta'minlash tizimi takomillashtirildi, nodavlat sektor rivojlantirildi;

- sportning moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi;

- milliy ta'lim dasturiga binoan jismoniy-tarbiya va sport sohasiga kadrlarni tayyorlash va qayta o'qitish ishlari amalga oshirilmoqda.

1992 yilning yanvar' oyida mamlakatda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning huquqiy asosi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonun qabul qilindi.

Respublikada jismoniy tarbiya va sportni boshqaruv tizimini muvofiqlashtirish maqsadida, qo'mitaga sport sohasida davlat siyosatini amalga oshiruvchi, o'z vakolati doirasida vazirliklar, idoralar, Milliy Olimpiya qo'mitasi (MOQ), sport turlari bo'yicha milliy federatsiyalar hamda mulkchilik shakllari va idoraviy bo'ysunishidan qat'iy nazar, turli tashkilotlar ishini muvofiqlashtirish, shuningdek, barcha jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari ustidan nazorat qiluvchi organ maqomi berildi.

Sport sohasida o'quvchilarning iste'dodlarini namoyon etish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan "O'zbekiston o'quvchi-yoshlarini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni va Vazirlar Mahkamasining qarori muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Xususan, 1993 yildan iqtidorli yosh sportchilar jismoniy tarbiya instituti va fakul'tetlariga imtiyozli ravishda o'qishga kirish huquqiga ega bo'ldilar.

YUrtni bitta maqsad atrofida birlashtira oladigan, xalqning g'urur va tuyg'usini oshiradigan, yoshlarni o'ziga jalb qila oladigan sportning ommaviy o'yin turi-futbolni yanada rivojlantirish maqsadida 1993 yilda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" va 1995 yilda "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishning tashkiliy asoslari va printsiplarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindi. Natijada mamlakatda sportni keng miqyosda ommaviy ravishda rivojlantirish harakatlari jonlanib, respublikamizning barcha o'quv muassasalarida futbol maydonchalari tashkil etildi, Qoraqolpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri markazlaridagi barcha stadionlar qayta ta'mirlandi, joylardagi futbol maydonlari Xalqaro standartlar darajasida rekonstruktsiya qilindi, barcha viloyatlarda futbol maktab-internatlari tashkil etildi va tegishli mutaxassis kadrlar bilan to'ldirildi hamda katta futbolni professional klublar tizimiga o'tkazilishiga asos bo'ldi.

Mamlakat sportchilari Olimpiya O'yinlarida ilk marotaba mustaqil jamoa sifatida Amerikaning Atlanta shahrida 1996 yilda ishtirok etdilar. O'zbekiston hukumati sportchilarimizni xalqaro musobaqalar, Olimpiya, Osiyo O'yinlarida muvaffaqiyatli qatnashishlari uchun barcha sharoitlarni yaratib bermoqda. Mustabid tuzum davrida, O'zbekistondan yozgi Olimpiya O'yinlarida atigi 40 nafar sportchi ishtirok etgan bo'lsa, mustaqillikdan keyin birgina AQSHning Atlanta shahrida bo'lib o'tgan Olimpiya O'yinlarida mamlakatimizning 76 nafar sportchisi qatnashdi.

Qisqa davrda sport sohasida amalga oshirilgan ishlar ko'lamini, O'zbekistonning bu boradagi tajribasi jahonda e'tirof etilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga hamda Xalqaro olimpiya harakatiga qo'shgan katta hissasi uchun 1996 yilda Xalqaro Olimpiya qo'mitasining oliy mukofoti – Oltin Olimpiya ordeni bilan taqdirlandi. O'zbekiston Prezidentining tashabbusi bilan 1996 yilda Toshkent shahrida “Olimpiya shon-shuhrati” muzeyi tashkil etilib, uning ochilish marosimida Xalqaro Olimpiya qo'mitasining Prezidenti X.A.Samaranch qatnashdi.

Respublika Prezidentining tashabbusi tufayli sportning O'yin turlari bilan birgalikda, taraqqiy etgan davlatlardagina rivoj topgan katta tennis mamlakatimizning barcha hududlarida ommaviy ravishda, tez sur'atlar bilan o'sdi. Bir necha yilda jahon andozalari talablariga javob beradigan tennis saroylari va kortlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarda bunyod etildi, ular negizida turli darajadagi xalqaro musobaqalar o'tkazib kelinmoqda.

1994 yildan Toshkentda ATR tasnifidan joy olgan “Prezident Kubogi” Xalqaro turniri, “Toshkent Open” Xalqaro ayollar turniri, shuningdek, Farg'ona, Samarqand, Guliston, Buxoro, Qarshi va boshqa shaharlarda “Challenjer”, “F'yuchers” va “Satellit” turkumidagi xalqaro tennis turnirlari o'tkazilib kelinmoqda. 1997 yilda mamlakatimizda tennisni rivojlantirish va uni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan maxsus jamg'arma tashkil etildi. Mamlakat aholisi o'rtasida tennisni targ'ib etish va jalb qilish, shug'ullanuvchilarga tegishli sharoitlar yaratish maqsadida 1998 yili. “O'zbekiston Respublikasida tennisni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilindi. Unga muvofiq, viloyatlarda tennis federatsiyalari, klublari tashkil etildi, ushbu sport turi yuqori bosqichga olib chiqildi.

Mamlakatda Olimpiya O'yinlari dasturidan o'rin olgan sport turlarini mamlakatda rivojlantirish bilan birga milliy sport turi “Kurash”ning jahon sport arenalariga olib chiqish borasida mislsiz ishlar amalga oshirildi. O'zbek milliy sporti-kurashni yanada rivojlantirish, uning xalqaro maydonda mustahkam o'rin egallashi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 1999 yilda “Xalqaro Kurash Assotsiatsiyasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida”gi farmoni imzoladi. Unga ko'ra, yurtimizda Xalqaro kurashni rivojlantirish jamg'armasi tuzildi. Xalqaro kurash assotsiatsiyasi hamda Xalqaro kurash akademiyasiga davlat tomonidan huquqiy va amaliy jihatdan katta e'tibor ko'rsatildi. Mamlakat Prezidenti I.A.Karimov Xalqaro Kurash Assotsiatsiyasining faxriy prezidenti etib saylandi.

O'zbekistonning sport sohasida erishgan eng katta yutuqlaridan biri milliy kurashning dunyo miqyosiga chiqishi bilan bog'liqdir. Hozirda jahonning 76 mamlakatida kurash federatsiyalari tuzildi. Bu milliy sport turi bo'yicha dastlabki Osiyo, Evropa, Afrika, Amerika qit'alari va jahon chempionatlari o'tkazildi.

Mamlakatda jismoniy tarbiya va sportni kompleks rivojlantirish maqsadida "O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining qarori 1999 yilda qabul qilindi. Unga binoan, "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish Davlat dasturi kontseptsiyasi" tasdiqlanib, unga asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilar qabul qilindi:

1. Jismoniy tarbiya va sportni tashkil etish va boshqarish tizimini takomillashtirish;

2. Jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish, ommaviy-sport ishlarini va sportning milliy turlarini rivojlantirish;

3. Jismoniy tarbiya hamda sportni ilmiy-uslubiy va tibbiy ta'minlash;

4. Jismoniy tarbiya va sport tizimi imkoniyatlarini rivojlantirish;

5. Jismoniy tarbiya va sportni targ'ib qilish;

6. Jismoniy tarbiya va sport sohasida mablag' bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish, nodavlat sektorini rivojlantirish.

Dastur tadbirlari asosida "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonunning yangi tahrirdagi loyihasi ishlab chiqilib, 2000 yilda Oliy Majlis sessiyasida qabul qilindi:

- Toshkent shahrida boksni, milliy sport turlarini rivojlantirish, SHahrisabzda esa, kurashni rivojlantirish respublika markazlari tashkil etildi;

- aholining jismoniy tayyorgarlik va salomatlik darajasini belgilab beradigan "Alpomish" va "Barchinoy" testlari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi;

- mamlakatimizdagi barcha sport inshootlari ro'yxatdan o'tkazildi;

- viloyat markazlarida olimpiya zaxiralari kollejlari ishga tushirila boshlandi.

O'zbekistonda sportchi va murabbiylar mehnatini ma'naviy va moddiy rag'batlantirishga katta e'tibor berilib, "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sport ustozlari" va "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi" faxriy unvonlari 1992 yili ta'sis etildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan Olimpiya O'yinlari va jahon chempionatlarida sovrinli o'rinlarni egallagan sportchilarga beriladigan "O'zbekiston iftixori" faxriy unvoni (1998 yilda) ta'sis etildi.

O'zbekiston sportchilari nufuzli xalqaro musobaqalarda qatnashib, barcha qiymatdagi medallarni qo'lga kiritdilar (1-ilova). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari bilan Norvegiyaning Lillexammer, AQSHning Atlanta, Avstraliyaning Sidney va Gretsiya mamlakatining Afina, Xitoyning Pekin, Buyuk Britaniyaning London, Braziliyaning Rio-de Janeyro shaharlarida bo'lib o'tgan Olimpiya va Osiyo O'yinlarida hamda jahon chempionatlarida muvaffaqiyatli qatnashgan respublika sportchilari va ularning ustozlari davlat mukofotlari bilan taqdirlandilar (2-ilova).

Xalqaro musobaqalarda O'zbekiston sportchilari qo'lga kiritgan medallar

Musobaqa turlari	Medallar	Yillar																Jami
		1991	1992	1993	1994	1995	1996	1997	1998	1999	2000	2001	2002	2003	2004	2005	2006	
Olimpiya O'yinlari	Oltin	-	3	-	1	-	-	-	-	-	1				2	-	-	7
	Kumush	-	2	-	-	-	1	-	-	-	1				1	-	-	5
	Bronza	-	1	-	-	-	1	-	-	-	2				2	-	-	6
	jami	-	6 MDH	-	1	-	2	-	-	-	4				5	-	-	18
Jahon va Osiyo CHempionat-lari Osiyo O'yinlari	Oltin	7	10	13	22	12	15	23	31	42	44	36	44	25	32	68	10	434
	Kumush	3	11	14	17	14	10	19	28	28	43	37	59	32	41	87	11	454
	Bronza	8	10	11	28	9	19	19	33	26	81	48	82	46	40	63	23	531
	jami	18	31	38	67	35	44	61	92	96	168	121	185	103	113	218	44	1434
Jahon kuboklari boshqa xalqaro	Oltin	2	1	1	3	5	5	3	5	14	26	19	18	16	17	14	4	153
	oltin	8	3	49	51	78	62	57	54	61	131	102	129	140	53	-	-	978
	Kumush	1	8	47	61	72	70	72	68	69	134	125	133	142	51	112	104	1269

musobaqalar	Bronza	5	0	57	77	89	88	105	64	111	129	115	128	125	48	123	94	1358
	jami	16	11	154	192	244	225	237	191	255	420	361	408	423	169	149	202	3657
Jami medallar		34	42	192	259	279	269	298	283	351	588	482	593	526	282	367	246	5091

2-ilova

Davlat mukofotlari bilan taqdirlangan sportchi va murabbiylar

Davlat mukofotlari	Yillar															jami
	1992	1993	1994	1995	1996	1997	1998	1999	2000	2001	2002	2003	2004	2005		
“O‘zbekiston iftixori” faxriy unvoni	-	-	-	-	-	-	8	5	3	7	8	2	2	-	35	
“O‘zR.da xizmat ko‘rsatgan sportchi” faxriy unvoni	8	-	32	-	-	-	1	2	18	10	5	2	3	1	81	
“O‘zR.da xizmat ko‘rsatgan sport ustozlari” faxriy unvoni	1	-	9	-	-	-	17	14	21	5	7	5	2	2	81	
“O‘zbekiston belgisi” ko‘krak nishoni	-	-	-	-	-	3	16	-	-	-	-	6	4	2	29	
Ja‘mi	9		41			3	42	21	42	22	20	15	11	5	231	

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Olimpiya O'yinlarida, jahon chempionatlarida yuqori natijalarga erishgan mamlakat sportchilarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash yuzasidan qator chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Jumladan, 2016 yil Rio-de-Janeyro Olimpiya O'yinlarida birinchi o'rinni egallagan sportchiga 200 ming, ikkinchi o'rin uchun 100 ming va uchinchi o'rin uchun 75 ming AQSH dollari miqdorida mukofotlar beriladi hamda har biriga "Molibu" avtomashinasi sovg'a qilindi. Mamlakat terma jamoa a'zolariga jahonning nufuzli musobaqalariga sifatli tayyorgarlik ko'rishi uchun istalgan sport inshootlaridan bepul foydalanish huquqi, shuningdek, boshqa shart-sharoitlar yaratib berildi. Ana shunday imkoniyatlar O'zbekiston sportchilarining Olimpiadalarida muvaffaqiyatli qatnashishini ta'minladi.

Mamlakatda yosh avlodning jismoniy va ma'naviy barkamolligini ta'minlash, sog'lom turmush tarziga intilish va sportga mehr-muhabbatni rivojlantirish, joylarda bolalar sportining moddiy bazasini yaratish, aholi yashaydigan joylarda zamonaviy bolalar sport komplekslari tarmog'ini barpo etish hamda sport uskunalari va jihozlari bilan ta'minlash ishlarini yanada faollashtirish maqsadida, 2002 yilda "O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi" tuzildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Jamg'arma homiylik kengashining raisi etib saylandi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qori Kenges raisi viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari mintaqaviy filiallar homiylik kengashlarining raislari etib tayinlandilar.

Sport mashg'ulotlariga o'quvchilarni ommaviy ravishda, uzluksiz jalb qilishni tashkil etish maqsadida, "O'quvchi va talaba yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzluksiz sport musobaqalari tizimini tashkil etish to'g'risida" 2003 yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi. Mazkur qaror asosida mamlakatda umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari hamda oliy ta'lim muassasalari talabalarining "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada" musobaqalarining hududlarda respublika final bosqichlarini o'tkazish rejasi belgilandi.

Bolalar uchun sport mahsulotlari turlarini ko'paytirish hamda mintaqalar, maktabgacha bolalar muassasalari, maktablar, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgan "Bolalar sportini targ'ib qilish va bolalar uchun sport mahsulotlari ishlab chiqarish turlarini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2003 yili Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilinib, uning asosida mamlakatda sport kiyimlari va anjomlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Jismoniy tarbiya va sportni ommaviy axborot vositalari orqali keng targ'ib qilish, uning mohiyatini mamlakat aholisiga keng etkazish maqsadida, Vazirlar Mahkamasining 2003

yilda “Ommaviy sport targ’ibotini yanada kuchaytirish chora tadbirlari to’g’risida”gi qarori qabul qilinib, unga binoan, O’zbekiston televideniesida maxsus “Sport” kanali tashkil etildi.

Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga doir qonun, farmon va qarorlar bu sohaning tez sur’atlar bilan taraqqiy etishiga, Xalqaro maydonda O’zbekiston nufuzi va obro’sining oshishiga, qolaversa, aholining, ayniqsa, o’quvchi-yoshlarning sportga bo’lgan munosabatini o’zgartirishga olib keldi. Mamlakatda sog’lomlashtirish ishlari barcha ijtimoiy va ishlab chiqarish soha muassasalarida jonlandi, boshlang’ich sport jamoalarining ishlari faollasha boshladi.

Mamlakatda faoliyat yuritayotgan 525ta bolalar va o’smirlar sport maktablari, 12 ta olimpiya zaxiralari kollejlari hamda 8 ta Respublika oliy sport mahorati maktabida yuqori malakali, iste’dodli sportchilar tayyorlanmoqda. Malakali sportchilarni tayyorlash bilan birga, ommaviy sportni rivojlantirishda sport jamoalari, federatsiyalar va boshlang’ich sport jamoalari tomonidan sezilarli ishlar amalga oshirildi. 1991 yilda yurtimizda faoliyat ko’rsatuvchi 52 sport turi mavjud bo’lsa, 2006 yilga kelib, ularning soni 70 taga etdi. Bugungi kunda amalda bo’lgan 70 ta sport turidan 25 dan ortig’i barcha hududlarda keng rivoj topib, ularni ommalashtirish uchun tegishli sharoitlar yaratilmoqda. Mazkur ishlar evaziga sport bilan shug’ullanayotganlarning soni yildan-yilga ortib bormoqda.

Futbol, tennis, kurash, voleybol, basketbol, gandbol, engil atletika bilan shug’ullanuvchilar soni yildan-yilga tez sur’atlar bilan, ayniqsa, yoshlar orasida, ommaviylashib bormoqda. Jumladan, 2006 yilda futbol bilan shug’ullanuvchilarning soni 1991 yildagiga nisbatan 50,6 %, kurash bilan shug’ullanuvchilar esa 39,8% barobariga ko’paygan. Ta’kidlash joizki, barcha hududlarda ana shunday o’sish holati kuzatilmoqda.

Takrorlash uchun savollar:

1. O’zbekistonda sportni rivojida sport menejmentning o’rni?
2. O’zbekistonda mustaqillik davrida sport tashkilotlari, sportni va uning turlarini rivojlanishiga yaratilgan sharoitlar nimada?
3. Sport menejmenti obyekt va sub’ektlari nimalardan iborat?
4. Sport yo’nalishidagi tashkilotlar nimalardan iborat?
5. Sport turlarining rivojlanishi: bolalar sporti, milliy sport turlari va xalq o’yinlari, katta sport holatlari qanday?
6. Qaysi omillar sport tashkiloti muvaffaqiyatiga kuchliroq ta’sir qiladi?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari. – T: O’zbekiston, 2009. – 56 b.

2. Gulyamov Z.T., Nabiullin R.X., Kamilova G.Z. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti. Darslik. – T.: O’zDJTI, 2015.
3. Meskon M., Al’bert M., Xedouri F. Osnovy menejmenta. – M., 1995.
4. Prchinkin A.V. Menedjment v sfere fizicheskoy kulturi i sporta. – M.: Sovetskiy sport, 2010.

Elektron ta’lim resurslari:

Internet saytlari

1. www.bilim.uz
2. www.ekonomika.ru
3. www.menejment.com
4. www.edu.uz-Vazirlik sayti.
5. www.ziyo.edu.uz-Vazirlik sayti.
6. www.performance. edu.uz-Vazirlik sayti.

4.2. O’zbekistonda mustaqillik davrida sportning rivoji

Reja:

1. O’zbekistonda bolalar sportining rivojlanishi.
2. Milliy sport turlari va xalq o’yinlari.
3. O’zbekiston katta sport turlari.
4. O’zbekistonda sport inshootlari.

Tayanch so’z va iboralar:

O’zbekistonda bolalar sportining rivojlanishi, milliy sport turlari va xalq o’yinlari, O’zbekiston katta sport turlari, O’zbekistonda sport inshootlari, “O’zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamharmasi”, belbog’li kurash, turon yakka kurashi, ko’pkari-uloq, sport inshootlari.

Joylarda sport turlarining jadal rivojlanishi shug’ullanuvchilar sonining muntazam oshishiga va aholini ommaviy tarzda qamrab oladigan turli musobaqalarning tashkil etilishiga zamin yaratmoqda. Bu musobaqalar orqali o’quvchi-yoshlar, nogironlar, ishchi va xizmatchilar, barcha ijtimoiy qatlamga mansub aholi vakillari sportga jalb qilindi. Har yili umumta’lim maktabi, kasb-hunar kolleji, akademik litsey o’quvchilari, talabalar, ishchi va xizmatchilar, huquq-tartibot, mudofaa xodimlari o’rtasida basketbol va voleybol bo’yicha “Kamolot kubogi”, milliy sport o’yinlari musobaqalari, harbiy xizmatga chaqiriladigan yoshlar o’rtasida “Shunqorlar” harbiy sport musobaqalari, nogironlar o’rtasida “Jasorat–iroda g’alaba” musobaqalari, shuningdek, ayollar,

qishloq xotin - qizlari spartakiadalari va boshqalar muntazam o'tkazib kelinyapti. 2000 yildan boshlab uzluksiz sport musobaqalari tizimi asosida talabalar o'rtasida "Universiada", o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida "Barkamol avlod" va o'quvchilarning "Umid nihollari" sport musobaqalari o'tkazila boshlandi.

Bolalar sporti

Yosh avlodni sport bilan shug'ullanish, sog'lom turmush tarziga amal qilish, ma'naviy va jismoniy kamolga intilish, Vatanga mehr-muhabbat, o'z yurti bilan g'ururlanish ruhida tarbiyalash ishlari asosiy yo'nalish sifatida belgilandi. O'zbekistonda bolalar ommaviy sportini rivojlantirishning ta'minlash maqsadida, joylarda sport muassasalarining barpo etilishi, yangi-yangi sport turlaridan to'garaklar faoliyatining yo'lga qo'yilishi, ularning tegishli jihozlar va malakali sport murabbiylari bilan ta'minlanishi, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanayotgan bolalar va o'smirlar soni yildan-yilga ortib borishiga asos bo'lmoqda.

Mamlakat Prezidenti boshchiligidagi "O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi" Jamg'armaning homiylik kengashi o'z faoliyatini joylarda bolalar jismoniy tarbiya va sportining moddiy bazasini shakllantirish, aholi manzilgohlarida zamonaviy bolalar sport majmualari tarmog'ini barpo etishdan boshladi. Bolalar sportini har tomonlama rivojlantirish maqsadida, mamlakat va hududlar miqyosida sport bilan shug'ullanayotgan bolalar va o'smirlar soni aniqlanib, ilmiy va tibbiy asoslar hamda hududlarning tabiiy sharoitlari hisobga olingan holda, istiqbolli sport turlari rivojlantirila boshlandi. Jamg'arma orqali sport ishooti qurilishi va ta'mirlanish ishlari yo'lga qo'yildi. Respublikada tibbiy va ilmiy asoslangan 3.8 mingdan ortiq sport to'garaklari tashkil qilinib, ularga 290 mingdan ortiq bolalar jalb qilindi.

Bolalar ommaviy sport mahorati bo'g'inidagi tadbirlar, ommaviy razryadlar ko'rsatkichidan ikkinchi-sportning yuqori mahorati bo'g'iniga, o'smir-yoshlar sporti orqali tayyorlanadigan 1-razryadli, sport ustasi nomzodi va sport ustasi darajasiga chiqish imkoniyatlarini yaratadi. Mamlakatda ommaviy va yuqori sport tizimi doirasidagi Bolalar va o'smirlar sport maktablari, olimpiya o'rinbosarlari kollejlari, Respublika oliy sport mahorati maktablarida yuqori malakali va iste'dodli, o'z Vatani shon-shuhrati uchun kurasha oladigan sportchilar tayyorlanishi yo'lga qo'yildi.

Malakali sportchilarni tayyorlashdagi birlamchi chora-tadbirlar Davlat sport qo'mitasi, Xalq ta'limi vazirligi va Kasaba uyushmalari tizimida faoliyat ko'rsatayotgan 525 bolalar va o'smirlar sport maktablarida (BO'SM) amalga oshirilmoqda. Yoshlar, bolalar va o'smirlar sport maktablarida malakali sport ustozlari qo'l ostida o'qishdan tashqari vaqtda sport bilan shug'ullanib, yuqori bilim va sport mahoratiga ega bo'lganlar esa, sport kollejlariga o'qishga qabul qilinadilar. Zamonaviy o'quv va sport bazasiga ega bo'lgan ana shunday

kollejlari Jizzax, Xorazm, Andijon, Farg'ona shaharlarida foydalanishga topshirildi.

Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 17 yanvardagi "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishning tashkiliy asoslari va printsiplarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 27-sonli qaroriga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida futbol maktab-internatlari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1999 yil 27 maydagi 271-sonli qaroriga asosan, viloyatlar markazlarida olimpiya o'rinbosarlari kollejlari tashkil etilmoqda.

Bolalar va o'smirlar o'rtasida ommaviy uch bosqichli musobaqalardan tashqari, har yili 60dan ortiq sport turlari bo'yicha mamlakat, viloyat, tuman birinchiliklari o'tkazib kelinmoqda.

Milliy sport turlari va xalq o'yinlari

Mustaqillik xalqimizning milliy sport o'yinlarini qayta tiklash va xalqaro maydonga olib chiqish imkoniyatini berdi. Mamlakatda 1992 yildan buyon milliy sport turlari va xalq o'yinlari festivali o'tkazilib, 1999 yildan ayollar o'rtasida ham "To'maris" milliy sport musobaqalari va xalq o'yinlari festivali o'tkazila boshlandi.

Mamlakatimiz rahbariyatining doimiy e'tibori tufayli xalqimizning faxri bo'lgan O'zbek kurashi xalqaro maydonda tan olindi. 1992 yildan Termiz, Buxoro, Urganch, Shahrisabz, Toshkent va boshqa shaharlarda O'zbek kurashi bo'yicha Amir Temur, At-Termiziy, Bahovuddin Naqshband, Bobur Mirzo, Pahlavon Mahmud xotiralariga bag'ishlangan xalqaro turnirlar o'tkazib kelinyapti. O'zbek kurashining yangi qoidalari, yangi kiyimi tasdiqlanib, 1992 yilda Janubiy Koreyada, 1993 yilda Kanadada, 1994 yilda Yaponiyada, 1995 yilda Hindistonda, 1996 yilda Atlantada, 1998 yilda Monako va Moskvada o'tgan xalqaro turnirlarda targ'ib qilinib, ilmiy tizimga asoslangan tarzda dunyo miqyosiga olib chiqildi.

1998 yilda Xalqaro kurash assotsiatsiyasi tashkil etilib, 1999 yilda Toshkent shahrida kurash bo'yicha birinchi, 2000 yilda Turkiyaning Antaliya shahrida ikkinchi, 2001 yilda Vengriyaning Budapesht shahrida uchinchi, 2002 yilda esa Jahon chempionatlari o'tkazildi.

Shu bilan birga, belbog'li kurash, turon yakka kurashi, ko'pkari-uloq kabi milliy sport turlari ham xalqaro sport maydonlarida munosib o'rin egallay boshladi. Mazkur sport turlari bo'yicha ham mamlakatda muntazam ravishda xalqaro musobaqalar tashkil etilmoqda.

2000 yilda Toshkent shahrida Milliy sport turlarini rivojlantirish markazi tashkil etilgani bu boradagi ishlarni muvfiqlashtirish imkonini bermoqda.

Uzoq tarixga ega bo'lgan milliy kurashimiz umuminsoniy qadriyatlarni o'zida aks ettirishi, usullarining boyligi bilan qisqa vaqt ichida ko'pgina mamlakatlar sport jamoatchiligi e'tiborini tortdi. Mamlakatimiz Prezidenti va sport faollari sa'yi-harakati tufayli Xalqaro miqyosda tobora ommalashib borayotgan sportning bu turi yaqin kelajakda Olimpiya O'yinlari dasturiga kiritilishi, shubhasiz.

Katta sport

O'zbekiston sportchilari eng yirik xalqaro musobaqalarda - Olimpiada va Osiyo O'yinlarida, jahon va Osiyo chempionatlarida mustaqil davlat vakili sifatida qatnashishdek ulkan va ma'suliyatli sharafiga muyassar bo'ldilar.

Mamlakat sportchilari Xalqaro sport maydonlarida O'zbekiston sportchilari MDH tarkibida 1992 yilda Barselonada o'tkazilgan Olimpia O'yinlarida qatnashdilar. O'sha yilning o'zidayoq 17 nafar vakillarimiz 3 ta oltin, 2 ta kumush va 1 ta bronza medallarini qo'lga kiritib, sport dunyosida katta imkoniyatlarga ega bo'lgan yangi davlatning salohiyatini namoyish etdilar. 1992 yilda Manila (Filippin)da bo'lib o'tgan Butunjahon shaxmat olimpiadasida O'zbekiston erkaklar terma jamoasi 100 dan ortiq mamlakat vakillarini ortda qoldirib, jahon chempioni G.Kasparov boshchiligidagi Rossiya terma jamoasidan so'ng fahrli ikkinchi o'rinni egallagani katta voqea bo'lgan edi. 1991 yilgacha mamlakatimizdan faqat bitta Xalqaro grossmeyster - Georgiy A'zamov etishib chiqqan bo'lsa, mustaqillik davrida esa 10 nafar grossmeyster etishib chiqdi. SHuningdek, o'smirlar o'rtasida Jahon chempioni degan sharafiga musharraf bo'lgan I. Hamroqulov, dunyo reytingida yuqori o'rinni egallab turgan 2004 yil Tripolida o'tgan jahon chempionati g'olibi sifatida shaxmat tojini kiygan R.Qosimjonov kabi iste'dodli shaxmatchilar ham etishib chiqdilar.

O'zbekiston sportchilari Yozgi va Qishki Olimpiya, Osiyo va Butunjahon o'smirlar O'yinlarida hamda eng yirik Xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etib, birgina bokschilarimiz orasidan 4 ta Olimpiya chempioni, 10 ta Olimpiya O'yinlari sovrindori, 14 ta jahon chempioni, 30 ta jahon chempionati sovrindori, 31ta Osiyo O'yinlari g'olibi, 198 ta Osiyo chempioni, 3 ta jahon Kubogi g'olibi, 1 ta "YAxshi niyat" o'yinlari g'olibi etishib chiqqani ham bu fikrning tasdig'idir.

O'zbekistonda xalqaro sport tadbirlari Mustaqillikka qadar qariyb o'tkazilmagan bo'lsa, so'nggi yillarda respublikamiz eng yirik Xalqaro musobaqalarni yuksak tashkiliy darajada o'tkazishga qodir bo'lgan mamlakat sifatida shuhrat topdi. Zamonaviy sport inshootlarining bunyod etilishi diyorumizda eng yirik xalqaro musobaqalarni o'tkazish imkoniyatini bermoqda. 1995 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov tashabbusi bilan

Toshkentda birinchi marta Markaziy Osiyo o'yinlari tashkil qilinib musobaqalar Xalqaro Olimpiya qo'mitasi prezidenti X.A.Samaranch ishtirokida o'tkazildi.

Bundan tashqari, yurtimizda O'zbek kurashi bo'yicha birinchi Jahon chempionati, boks, erkin kurash, yunon-rim kurashi, shaxmat, pauerlifting va sambo bo'yicha Osiyo chempionatlari, tennis, kurash, karate, erkin va yunon-rim kurashi, shaxmat va boshqa ko'plab sport turlari bo'yicha an'naviy yirik xalqaro turnirlar o'tkazilmoqda.

Sport inshootlari

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish yuzasidan katta ishlar amalga oshirildi. Xususan, Toshkent, Namangan, Jizzax, Farg'ona, Buxoro, Xorazm, Andijon, Samarqand, Guliston va boshqa shaharlarda xalqaro standartlarga javob beradigan qator sport majmualari qurildi. Toshkent shahridagi "Yunusobod", "Jar", Milliy bank, Namangan shahrida "Pahlavon", Jizzax shahridagi olimpiya zaxiralari kolleji sport majmualari va boshqalar shular jumlasidandir. 2005 yilga kelib mamlakatimizda yangi barpo etilgan sport inshootlari soni 7981 taga etdi, ya'ni 1991 yildagiga nisbatan 17,5 %ga ko'paydi. Ularni bunyod etishda, ayniqsa, murakkab sport inshootlari-stadionlar, suzish havzalari, sport zallariga alohida e'tibor berilyapti. 2005 yilda 1991 yilga nisbatan stadionlar soni 257 taga yoki 58,2 %ga, sport zallari 2264 taga yoki 44 %ga, suzish havzalari 82 taga yoki 41,9 %ga oshdi. Bundan tashqari, futbol maydonlari soni 2619 taga yoki 31,7 %ga, tennis kortlari esa, 863 taga yoki qariyb 82,5 % barobarga ko'paydi. Asosiysi, yangidan barpo etilgan yoki rekonstruktsiya yo'li bilan qayta tiklangan barcha sport sog'lomlashtirish maskanlari zamonaviy loyihalar, sharqona uslub va yuqori samaradorlik asosida tashkil etilayotgani, barcha sport turlari bo'yicha texnik malakalarni egallash imkonini beruvchi vositalar bilan jihozlanayotgani tahsinga loyiqdir.

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi bunday amaliy ishlar yaqin kelajakda yanada ko'proq natijalar berishi shubhasiz.

Takrorlash uchun savollar:

1. O'zbekistonda bolalar sportining rivojlanish holati qanday?
2. O'zbekistonda Milliy sport turlari va xalq o'yinlari?
3. O'zbekistonda katta sport turlari?
4. O'zbekistonda sport inshootlarining holati?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.

2. Gulyamov Z.T., Nabiullin R.X., Kamilova G.Z. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti. Darslik. – T.: O’zDJTI, 2015.
3. Meskon M., Al’bert M., Xedouri F. Osnovi menejmenta. – M., 1995.
4. Prchinkin A.V. Menedjment v sfere fizicheskoy kulturi i sporta. – M.: Sovetskiy sport, 2010.

Elektron ta’lim resurslari:

Internet saytlari

1. www.bilim.uz
2. www.ekonomika.ru
3. www.menejment.com
4. www.edu.uz-Vazirlik sayti.
5. www.ziyo.edu.uz-Vazirlik sayti.
6. www.performance.edu.uz-Vazirlik sayti.

4.3. Sport menejmentida sport personali

Reja:

1. Sport menejmentining sport personali rivojidadagi o’rni.
2. Sport turlari bo’yicha federatsiyalarning tashkil qilinishi.
3. Ommaviy-sport ishlari va sportning milliy turlarini rivojlantirilishi.
4. Sport sohasini mablag’ bilan ta’minlash tizimini takomillashtirilishi.
5. Nodavlat sektorlarining rivojlantirilishi.

Tayanch so’z va iboralar:

Boshqarishning tashkiliy asoslari, takomillashtirish, Milliy Olimpiya qo’mitasi, sport federatsiyalari, jismoniy tarbiya-sog’lomlashtirish, ommaviy-sport ishlari, sportning milliy turlari, mablag’ bilan ta’minlash tizimi, nodavlat sektorlari, moddiy-texnik baza, milliy ta’lim dasturi, kadrlar tayyorlash, mutaxassislar malakasini oshirish, qayta tayyorlash ishlari.

O’zbekiston Respublikasi Mustaqillikka erishgandan so’ng qisqa davr mobaynida sport sohasining rivojlanishida davlat siyosati darajasida qator ishlar amalga oshirildi.

Mustaqillikning birinchi kunlaridanoq mamlakat rahbarining tashabbusi bilan jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishga qaratilgan tegishli qonunlar, Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari bosqichma-bosqich qabul qilinib, hayotga joriy etildi. Qisqa muddatda:

- sportni boshqarishning tashkiliy asoslari takomillashtirildi;
- O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi, sport turlari bo'yicha federatsiyalar tashkil qilindi;
- jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish, ommaviy-sport ishlari va sportning milliy turlari rivojlantirildi;
- sport sohasini mablag' bilan ta'minlash tizimi takomillashtirildi, nodavlat sektorlari rivojlantirildi;
- sportning moddiy-texnik bazasi mutahkamlandi; milliy ta'lim dasturiga binoan jismoniy tarbiya va sport sohasiga kadrlar tayyorlash, mutaxassislar malakasini oshirish va qayta tayyorlash ishlari amalga oshirildi.

SHu jumladan, mamlakat aholisining 7 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan shaxslarning jismoniy tayyorgarligini beliglab beruvchi "Alpomish" va "Barchinoy" maxsus test sinovlarining me'yorlari ishlab chiqildi va joriy etildi. Ayniqsa, shunisi e'tiborliki, mamlakatimizda 2000 yildan boshlab yosh-o'smirlar sport harakatini rivojlantirishga qaratilgan uzluksiz ommaviy sport musobaqalari joriy etilgan: shu jumladan, umumiy o'rta maxsus ta'lim, maktab o'quvchilari o'rtasida "Umid nihollari", akademik litseylar va O'rta maxsus kasb-hunar kollejlari o'quvchilari o'rtasida "Barkamol avlod", Oliy o'quv yurtlari talabalari o'rtasida "Universiada" sport musobaqalari bosqichma-bosqich respublika miqyosida o'tkazilmoqda.

Shu bilan bir qatorda, ta'lim milliy tizimini isloh qilishning sifat bosqichida ushbu sohada yangi printsiplial yo'nalishlarni shakllantirish uchun shart sharoitlar yaratilgan bo'lib, ta'limni boshqarishga ilmiy yondashuvni takomillashtirish, uning moddiy-texnikaviy, texnologik, axborot, ilmiy-uslubiy va kadrlar bazasini mustahkamlash borasida jismoniy tarbiya va sport sohasi bo'yicha mutaxassislar tayyorlash borasida ham katta ahamiyat berilmoqda. SHu jumladan, respublikada sport sohasida malakali sportchilar va murabbiy mutaxassislarni tayyorlaydigan 12 ta Olimpiya va sport zaxiralari kollejlari, O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti va oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya fakul'tetlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Respublikamizda ommaviy sportni rivojlantirishga, shuning bilan bir qatorda, ayollar sport harakatini rivojlantirishga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Shu jumladan, ayollar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish maqsadida "Respublika ayollar spartakiadasi" sport musobaqalari tashkil etildi va har yili o'tkazilmoqda. Oiladagi ota-ona va farzand o'rtasida bo'lgan mehr oqibatni kuchaytirish, qolaversa, ularda jismoniy tarbiya va sport orqali sog'lom turmush kechirish ko'nikmalarini hosil qilishga qaratilgan "Sog'lom oila", "Otam, onam va men", "Eng va kuchli sportchi oila" kabi sport musobaqalari

joriy etilgan bo'lib, respublika miqyosida bosqichma-bosqich o'tkazib kelinmoqda.

Mustaqilligimizning ilk yillaridan boshlab ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan milliy sport turlari va xalq o'yinlarini rivojlantirish maqsadida ikki yilda bir marotaba "Milliy sport turlari va xalq o'yinlarining Respublika festivali" o'tkazib kelinmoqda.

Respublikada sport sohasida malakali sportchilarning sport tayyorgarligi faoliyatini keyingi 15 yil davrni taqqoslaydigan bo'lsak, O'zbekiston sportchilari eng yirik xalqaro musobaqalarda – Olimpiyada va Osiyo o'yinlarida, jahon va Osiyo chempionatlarida mustaqil davlat vakili sifatida qatnashishdek ulkan va mas'uliyatli sharafiga muyassar bo'ldilar.

Mamlakatimiz sportchilari xalqaro sport maydonlarida mustaqil O'zbekiston bayrog'i ostida ilk bor 1992 yili Barselonada o'tkazilgan Olimpiya O'yinlarida qatnashdilar. 1996 yili Atlantada o'tkazilgan XXVI Olimpiya o'yinlarida yurtimiz sportchilari 197 davlat jamoalari o'rtasida ishtirok etib, bitta kumush va bitta bronza medallarining sohibi bo'lib, 58-o'rinni egallagan bo'lsa, 2004 yili Afinada bo'lib o'tgan XXVIII Olimpiya o'yinlarida ishtirok etgan 202 ta davlatning sport jamoalari bilan bellashgan yurtimiz sportchilari ikkita Oltin, bitta Kumush, ikkita bronza medallarining sohibi bo'lib, 34-o'rinni egalladilar. Ushbu o'tkazilgan olimpiya o'yinlarida yurtimizning taniqli sportchilaridan Atlantada o'tkazilgan Olimpiya o'yinlarida dzyudochi Armen Bagdasarov kumush medal, bokschi Karim Tulaganov esa bronza medallarini qo'lga kiritdilar. 1994 yilda Lillixammerda o'tkazilgan qishki Olimpiya o'yinlarida Lina CHeryazova Oltin medalga sazovor bo'ldi. 2000 yilda Sidneyda o'tkazilgan Olimpiya o'yinlarida esa Vatanimiz sharafini himoya qilgan sportchilardan bokschi Muhammadqodir Abdullaev oltin medal, Rustam Saidov bronza medali, Erkin kurashchi Artur Taymazov kumush medallar sohibi bo'ldilar. 2004 yilda Afinada o'tkazilgan Olimpiya o'yinlarida yunon-rim kurashi bo'yicha Aleksandr Doktorishivili oltin medal, erkin kurash bo'yicha Magomet Ibragimov kumush medal va bokschilarimizdan O'tkir Haydarov hamda Bahodir Sultanovlar bronza medallarini qo'lga kiritdilar.

2008 yilda Pekinda o'tkazilgan XXIX o'yinlarida 1 oltin, 2 kumush, 3 bronza medallarini qo'lga kiritdilar: bular erkin kurash bo'yicha –Artur Taymazov, Soslan Tagiev, dyuzdo bo'yicha – Abdulla Tangriev va Rishod Sobirov, gimnastikachilar Anton Fokin hamda Ekaterina Xil'ko.

2012 yilda XXX Olimpiya o'yinlari Londonda 1 oltin erkin kurash bo'yicha – Artur Taymazov, dyuzdo bo'yicha – Rishod Sobirov bronza medali va boskchi Abbos Ataev bronza medali.

2016 yilda Rio-de-Janeyro 4 oltin: bular Ruslan Nuridinov – og'ir atletika, bokschildan – Hasanboy Do'smatov, Shaxobitdin Zoirov, Fazlitdin Gayibnazarov, kumush medallar bokschildar – Shaxram Giyasov, Bektemir Melikuziev, bronza medallar boks bo'yicha – Rustam To'lagoanov, Murodjon Axmadaliev, dyuzdo bo'yicha – Diyorbek O'razboev, Rishod Sobirov, erkin kurash bo'yicha – Ixtiyor Navro'zov, Magomed Ibragimov va yunon-rim kurashi bo'yicha – Elmurod Tasmurodov.

Bundan tashqari, shaxmat sport turi bo'yicha dunyo reytingida yuqori o'rinni egallab turgan 2004 yil Tripolida o'tgan jahon chempionati g'olibi tojini kiygan Rustam Qosimjonov kabi iste'dodli shaxmatchilar ham etishib chiqdilar.

Mustaqillik yillarida nogironlar sportiga ham alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. O'zbekiston sportchilari 1999 yildan boshlab Maxsus Olimpiya o'yinlarida ishtirok etib, turli darajadagi medallarni qo'lga kiritmoqdalar.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish yuzasidan katta ishlar amalga oshirildi. Xususan, Toshkent, Namangan, Jizzax, Farg'ona, Buxoro, Xorazm, Andijon, Samarqanda, Guliston va boshqa shaharlarda xalqaro standartlarga javob beradigan qator sport majmualari qurildi. Toshkent shahrida "O'zbekiston", "YUnusobod", "Jar", Milliy bank, Namangan shahrida "Pahlavon", Jizzax, Samarqand, Andijon Farg'ona, Urgench, Qarshi, CHirchiq shaharlarida olimpiya zaxiralari kollejlari sport majmualari va boshqalar shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2017 yil 15 fevraldagi "Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va 2017 yil 3 iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni milliy sportni rivojlantirishni yangi bosqichning boshlanishi bo'ldi.

O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasining ijro etuvchi apparati Davlat jismoniy tarbiya va sport qo'mitasiga topshirildi va O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti 21 gektardan ortiq maydonda zamonaviy sport shaharchasini qurish imkoniga ega bo'lgan Chirchiq shahriga ko'chdi, 2017-2018 o'quv yilidan boshlab, institutda terma jamoa a'zolari uchun o'qishning sirtqi bo'limi ochildi.

2018-2020 yillarga mo'ljallangan dastur Jismoniy tarbiya institutini zamonaviy oliy o'quv yurtlariga aylantirish, ilg'or ilmiy yutuqlar asosida ta'lim dasturlarini tashkil etish uchun ishlab chiqildi.

2012-2017 yillarda mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish uchun 995,2 mlrd so'mdan ortiq mablag' yo'naltiriladi. 167 ta sport inshootini qurish, rekonstruktsiya qilish va kapital ta'mirlash rejalashtirilmoqda.

**Olimpiya sport turlari bo'yicha O'zbekiston sportchilarining
1992-2016 yillarda ko'rsatgan natijalari**

Sport turlari bo'yicha Olimpiada o'yinlari g'olib va sovrindorlari				
№	FIO	Sport turi	Shahri	Medallar
1992 yil				
1	Chusovitina Oksana	Sport gimnastikasi	Barselona	Oltin
2	Galieva Roza	Sport gimnastikasi	Barselona	Oltin
3	Sergey So'rtsov	Og'ir atletika	Barselona	Kumush
1994 yil				
1	Cheryazova Lina	Fristayl	Lilliexamer, Narvegiya	Oltin
1996 yil				
1	To'laganov Karim	Boks	Atlanta SSHA	Bronza
2	Bagdasarov Armen	Dzyudo	Atlanta SSHA	Kumush
2000 yil				
1	Abdullaev Muhammadqodir	Boks	Avstraliya Sidney	Oltin
2	Mixaylov Sergey	Boks	Avstraliya Sidney	Bronza
3	Saidov Rustam	Boks	Avstraliya Sidney	Bronza
4	Taymazov Artur	Erkin kurash	Avstraliya Sidney	Kumush
2004 yil				
1	Dokturishivili Aleksandr	YUnon-rim kurashi	Gretsiya Afina	Oltin
2	Taymazov Artur	Erkin kurash	Gretsiya Afina	Oltin

3	Ibragimov Magomet	Erkin kurash	Gretsiya Afina	Kumush
4	Xaydarov O'tkir	Boks	Gretsiya Afina	Bronza
5	SultanovBahodir	Boks	Gretsiya Afina	Bronza
2008 yil				
1	Artur Tagiev	Erkin kurash	Xitoy-Pekin	Oltin
2	Soslan Tagiev	Erkin kurash	Xitoy-Pekin	Kumush
3	Abdulla Tangriev	Dyuzdo	Xitoy-Pekin	Kumush
4	Rishod Sobirov	Dyuzdo	Xitoy-Pekin	Bronza
5	Anton Fokin	Gimnastika	Xitoy-Pekin	Bronza
6	Ekaterina Xil'ko	Gimnastika (batut)	Xitoy-Pekin	Bronza
2012 yil				
1	Artur Taymazov	Erkin kurash	Buyuk Britaniya- London	Oltin
2	Rishod Sobirov	Dyuzdo	Buyuk Britaniya- London	Bronza
3	Abbos Ataev	Boks	Buyuk Britaniya- London	Bronza
2016 yil				
1	Hasanboy Do'smatov	Boks	Rio-de-Janeyro	Oltin
2	Ruslan Nuridinov	Og'ir atletika	Rio-de-Janeyro	Oltin
3	Shaxobitdin Zoirov	Boks	Rio-de-Janeyro	Oltin
4	Fazlitdin Goyibnazarov	Boks	Rio-de-Janeyro	Oltin
5	SHaxram Giyasov	Boks	Rio-de-Janeyro	Kumush
6	Bektemir Meliqo'zief	Boks	Rio-de-Janeyro	Kumush
7	Rustam Tulyaganov	Boks	Rio-de-Janeyro	Bronza
8	Diyorbek O'razboev	Dyuzdo	Rio-de-Janeyro	Bronza
9	Rishod Sobirov	Dyuzdo	Rio-de-Janeyro	Bronza
10	Elmurod Tasmurodov	YUnon-rim kurashi	Rio-de-Janeyro	Bronza
11	Ixtiyor Navro'zov	Erkin kurash	Rio-de-Janeyro	Bronza

12	Muratjon Amadaliev	Boks	Rio-de-Janeyro	Bronza
13	Magomed Ibragimov	Erkin kurash	Rio-de-Janeyro	Bronza
Sport turlari bo'yicha Osiyo o'yinlari g'olib va sovrindorlari				
1994 yil				
1	O'zbekiston terma jamoasi	Futbol	Xirosima (Yaponiya)	Oltin
2	Ganiev Ramil'	Desyatibor'e	Xirosima (Yaponiya)	Oltin
3	Ruban Sveta	Uzoqqa sakrash	Xirosima (Yaponiya)	Oltin
4	Yaro'gina Oksana	Metanie kop'ya	Xirosima (Yaponiya)	Oltin
5	Veretel'nikov Oleg	Desyatibor'e	Xirosima (Yaponiya)	Kumush
6	Parfenov Vladimir	Metanie kop'ya	Xirosima (Yaponiya)	Kumush
7	Popov Vadim	Metanie diska	Xirosima (Yaponiya)	Bronza
8	Zaytsev Viktor	Metanie kop'ya	Xirosima (Yaponiya)	Bronza
9	Sarnatskiy Konstantin	Uzoqqa sakrash	Xirosima (Yaponiya)	Bronza
10	Popov Vadim	Metanie diska	Xirosima (Yaponiya)	Bronza
11	Pulyaev Grigoriy	YUnon-rim kurashi	YAponiya Xirosima	Kumush
12	Xudayberdiev Asliddin	YUnon-rim kurashi	YAponiya Xirosima	Bronza
13	Qurbonov Bahodir	YUnon-rim kurashi	YAponiya Xirosima	Bronza
14	Avezbaev Alisher	Boks	YAponiya Xirosima	Oltin
15	Maskaev Oleg	Boks	YAponiya Xirosima	Oltin
16	Ataev Norimon	Boks	YAponiya Xirosima	Bronza
17	Yarbekov Dilshod	Boks	YAponiya	Bronza

			Xirosima	
18	Islamov Ramil'	Erkin kurash	YAponiya Xirosima	Kumush
19	Xinchagov Ruslan	Erkin kurash	YAponiya Xirosima	Kumush
20	Shmakov Vladimir	Dzyudo	YAponiya Xirosima	Bronza
21	Solov'ev Dmitriy	Dzyudo	YAponiya Xirosima	Bronza
22	Xalilov Igor'	Og'ir atletika	YAponiya Xirosima	Bronza
23	Frolov Dmitriy	Og'ir atletika	YAponiya Xirosima	Bronza
24	Axmedov Shuxrat	O'q otish	YAponiya Xirosima	Oltin
25	Osmanov Enver	O'q otish	YAponiya Xirosima	Kumush
26	Repichev A	O'q otish	YAponiya Xirosima	Bronza
27	Kireev Ivan	Baydarkada eshkak eshish va kanoeda suzish	Xerasima	3 ta Oltin
28	Tyurin Anatoliy	Baydarkada eshkak eshish va kanoeda suzish	Xerasima	2 ta Oltin 3 ta Kumush
29	Astanin Evgeniy	Baydarkada eshkak eshish va kanoeda suzish	Xerasima	1 ta Oltin 1 ta Kumush
30	Lyagina Irina	Baydarkada eshkak eshish va kanoeda suzish	Xerasima	1 ta Zoloto 1 ta Kumush
31	Isakova Inna	Baydarkada eshkak eshish va kanoeda suzish	Xerasima	1 ta Kumush 1 ta bronza

32	Kolchanov Andrey	Baydarkada eshkak eshish va kanoeda suzish	Xerasima	1 ta Oltin 1 ta Kumush
33	Juravleva Irina	Baydarkada eshkak eshish va kanoeda suzish	Xerasima	1 ta Kumush 1 ta bronza
34	Lvina Tat'yana	Baydarkada eshkak eshish va kanoeda suzish	Xerasima	1 ta Kumush
35	Gorelov Andrey Lyalin Igor'	Baydarkada eshkak eshish va kanoeda	Xerasima	3-mesto
1.	Veretel'nikov Oleg	O'n kurash	Bangkok (Tailand)	Oltin
2.	Voynov Sergey	Nayza otish	Bangkok (Tailand)	Oltin
3	Abduvaliev Andrey	Metanie molot	Bangkok (Tailand)	Kumush
4	Ganiev Ramil'	O'n kurash	Bangkok (Tailand)	Kumush
5	Kvyatkovskaya Elena	4x100 estafeta	Bangkok (Tailand)	Kumush
6	Xubbieva Go'zal	4x100 estafeta	Bangkok (Tailand)	Kumush
7	Dmitriadi Lyudmila	4x100 estafeta	Bangkok (Tailand)	Kumush
8	Perepelova Lyubov'	4x100 estafeta	Bangkok (Tailand)	Kumush
9	Kuziev Shermuhammad	YUnon-rim kurashi	Tailand Bangkok	Kumush
10	Xudayberdiev Asliddin	YUnon-rim kurashi	Tailand Bangkok	Kumush
11	Qurbonov Bahodir	YUnon-rim	Tailand Bangkok	Kumush

		kurashi		
12	Puryaev Grigoriy	Yunon-rim kurashi	Tailand Bankok	Bronza
13	Abdullaev Muhammadqodir	Boks	Tailand Bankok	Oltin
14	Mixaylov Sergey	Boks	Tailand Bankok	Oltin
15	Chagaev Ruslan	Boks	Tailand Bankok	Oltin
16	Tulyakov Timur	Boks	Tailand Bankok	Kumush
17	Turgunov Tulkun	Boks	Tailand Bankok	Kumush
18	Sulaymanov Timur	Boks	Tailand Bankok	Kumush
19	Yarbekov Dilshod	Boks	Tailand Bankok	Kumush
20	Ataev Nariman	Boks	Tailand Bankok	Bronza
21	Zakirov Laziz	Boks	Tailand Bankok	Bronza
22	Katinovasov Sagid	Erkin kurash	Tailand Bankok	Kumush
23	Kaysinov Gergiy	Erkin kurash	Tailand Bankok	Kumush
24	Islamov Ramil	Erkin kurash	Tailand Bankok	Kumush
25	Fraev Saslan	Erkin kurash	Tailand Bankok	Kumush
26	Islamov Rafael	Baydarkada eshkak eshish va kanoeda suzish	Tailand Bankok	1-mesto
27	Yashin Kostya	Baydarkada eshkak eshish va kanoeda suzish	Tailand Bankok	1-mesto
28	Kazantsev Vladimir	Baydarkada eshkak eshish va kanoeda suzish	Tailand Bankok	1-mesto
29	Shilin Andrey	Baydarkada eshkak eshish va kanoeda suzish	Tailand Bankok	1-mesto
30	Ryaxov Anton	Baydarkada eshkak eshish va kanoeda suzish	Tailand Bankok	2-mesto
31	Isakova Inna	Baydarkada eshkak eshish	Tailand Bankok	2-mesto

		va kanoeda suzish		
32	Levina Tat'yana	Baydarkada eshkak eshish va kanoeda suzish	Tailand Bankok	2-mesto
33	Lyalina Ira	Baydarkada eshkak eshish va kanoeda suzish	Tailand Bankok	2-mesto
34	Moskoleva Antanina	Baydarkada eshkak eshish va kanoeda suzish	Tailand Bankok	2-mesto
35	Shpiganovich' Aksana	Baydarkada eshkak eshish va kanoeda suzish	Tailand Bankok	2-mesto
36	Muxtarov Dilshod	O'q otish	Tailand Bankok	Kumush
37	Shaxova Yuliya	O'q otish	Tailand Bankok	Bronza
38	Dolbilina Natal'ya	O'q otish	Tailand Bankok	Bronza
39	Aksenova Alena	O'q otish	Tailand Bankok	Bronza
40	Erkaklar jamoasi	O'q otish	Tailand Bankok	2- mesto
41	Kovalenko Dmitriy	Baydarkada eshkak eshish va kanoeda suzish	Tailand Bankok	2-mesto
2002 yil				
1	Perepelova Lyubov'	100 m	Pusan (Koreya)	Kumush
2	Amirova Zamira	800 m	Pusan (Koreya)	Kumush
3	Voynov Sergey	Metanie kop'ya	Pusan (Koreya)	Kumush
4	Kazakova Anna	4x100 estafeta	Pusan (Koreya)	Kumush
5	Xubbieva Guzal,	4x100 estafeta	Pusan (Koreya)	Kumush
6	Dmitriadi Lyudmila	4x100	Pusan (Koreya)	Kumush

		estafeta		
7	Perepelova Lyubov'	4x100 estafeta	Pusan (Koreya)	Kumush
8	Cheglakov Aleksey	YUnon-rim kurashi	Pusan (Koreya)	Oltin
9	Aripov Dilshod	YUnon-rim kurashi	Pusan (Koreya)	Kumush
10	Mahmudov Dilshod	Boks	Pusan (Koreya)	Oltin
11	Xaydarov Utkirbek	Boks	Pusan (Koreya)	Oltin
12	Berdiev Ikrom	Boks	Pusan (Koreya)	Oltin
13	Saidov Rustam	Boks	Pusan (Koreya)	Oltin
14	Mixaylov Sergey	Boks	Pusan (Koreya)	Oltin
15	Xidirov Bekzod	Boks	Pusan (Koreya)	Kumush
16	Sarsekbaev Baxit	Boks	Pusan (Koreya)	Bronza
17	Xusanov SHERzod	Boks	Pusan (Koreya)	Bronza
18	Naimov Sirojiddin	Boks	Pusan (Koreya)	Bronza
19	Mansurov Dilshod	Erkin kurash	Pusan (Koreya)	Oltin
20	Taymazov Artur	Erkin kurash	Pusan (Koreya)	Oltin
21	Ibragimov Magamed	Erkin kurash	Pusan (Koreya)	Bronza
22	Tangriev Abdullo	Dzyudo	Pusan (Koreya)	Kumush
23	Akbarov Egamnazar	Dzyudo	Pusan (Koreya)	Bronza
24	Turaev Farxod	Dzyudo	Pusan (Koreya)	Bronza
25	Pereteykov Vyacheslav	Dzyudo	Pusan (Koreya)	Bronza
26	Xalilov Igor'	Og'ir atletika	Pusan (Koreya)	Kumush
27	Nurullaev Baxtiyor	Og'ir atletika	Pusan (Koreya)	Bronza
28	Ryaxov Anton	Baydarkada eshkak eshish	Pusan (Koreya)	1- o'rin 3- o'rin
29	Levina T. Moskaleva A. Borzova YU. Pihulina N.	Baydarkada eshkak eshish va kanoeda suzish	Pusan (Koreya)	1- o'rin 2- o'rin
30	Ganieva S. Kuznetsova A.	Akadem eshkak eshish	Pusan (Koreya)	2- o'rin
31	Ganieva S. Ganieva Z. Kuznetsova A. Axmerova A.	Akadem eshkak eshish	Pusan (Koreya)	3- o'rin

32	Davletyarov B. Tremasov V. Bechurin R. Nazarov N.	Akadem eshkak eshish	Pusan (Koreya)	2- o'rin
33	Davletyarov B. Tremasov V. Bichurin R. Nazarov N. Silaev V., Yakubov S., Krivo D. Tixonov D., Makshov S.	Akadem eshkak eshish	Pusan (Koreya)	3- o'rin
34	Nachaev Ravil	Suzish	Pusan (Koreya)	50 v/s – 1- o'rin
Sport turlari bo'yicha Jahon chempionatlari g'olib va sovrindorlari:				
1991 yil				
1	Semechuk Vasilina	Fristayl	Leyk-Plesit, AKSH	Oltin
2	Chusovitina Oksana	Sport gimnastikasi	SSHA	Oltin, Bronza
3	Galieva Roza	Sport gimnastikasi	SSHA	Oltin
4	Sqdikov Igor'	Og'ir atletika	Germaniya	Oltin
5	Sirtsov Sergey	Og'ir atletika	Germaniya	Oltin
1993 yil				
1	Cheryazova Lina	Fristayl	Al'tsimarkt, Avstriya	Oltin
2	Axmedov Xikmatilla	Boks	Xelsinkiy	Kumush
3	Manushov Aleksandr	Og'ir atletika	CHexiya	Oltin
4	Islamov. R	Erkin kurash	Gretsiya Afina	Oltin
5	Urusov.T	Erkin kurash	Gretsiya Afina	Oltin
6	Chusovitina Oksana	Sport gimnastikasi	Bel'giya	Oltin Bronza
1995 yil				
1	Yarbekov Dilshod	Boks	Germaniya	Bronza
2	Urazumbetov Foziljan	Og'ir atletika	Pol'sha	Bronza
3	Xinchagov R	Erkin kurash	Atlanta	Bronza

1996 yil				
1	Voynov Sergey	Engil atletika	Avstraliya	Oltin
1997 yil				
1	Chagaev Ruslan	Boks	Budapesht Belfast	Oltin
2	Imamov R	Erkin kurash		Kumush
3	Galiulina Fatma	Velosport	Malayziya	Oltin
4	Seytmemetov Enver	Velosport	Malayziya	Bronza
5	Tuychiev Andrey	Velosport	Malayziya	Bronza
1998 yil				
1	Saidxodjaeva Saida	Stol tennis	Budapesht	Bronza
2	Inayatova Manzura	Stol tennis	Budapesht	Bronza
1999 yil				
1	Haydarov O'tkir	Boks	X'yuston Bel'fast Manyan	Oltin
2	Abdullaev Muhammadqodir	Boks	X'yuston	Oltin
3	Turganov To'lqin	Boks	SSHA x'yuston	Kumush
4	Turaev Farhod	Dzyudo	Angliya	Kumush
2000 yil				
1	Andreev Leonid	Engil atletika	Yamayka	Oltin
2001 yil				
1	Chagaev Ruslan	Boks	Irlandiya Belfast	Oltin
2	Haydarov O'tkir	Boks	Irlandiya Belfast	Kumush
3	Husanov SHerzod	Boks	Irlandiya Belfast	Kumush
4	Taymazov Artur	Erkin kurash	Bolgariya	Kumush
5	Oripov Dilshod	YUnon-rim kurashi	Gretsiya	Oltin
6	Ryaxov Anton	Baydarkada eshkak eshish va kanoeda suzish	Poznan	Kumush, Bronza
7	Chusovitina Oksana	Sport gimnastikasi	Angliya	Oltin, Bronza
8	Saidxodjaeva Saida	Stol tennis	Budapesht	Oltin

9	Inayatova Manzura	Stol tennisi	Budapesht	Oltin
2002 yil				
1	Chusovitina Oksana	Sport gimnastikasi	Angliya Bel'giya	Oltin, Bronzo
2003 yil				
1	Xusanov SHERZOD	Boks	Bankok	Kumush
2	Sultanov Bahodir	Boks	Bankok	Bronza
3	Saidov Rustam	Boks	Bankok	Bronza
4	Taymazov Artur	Erkin kurash	SSHA	Oltin
5	Mansurov Dilshod	Erkin kurash	SSHA	Oltin
6	Lagutin Sergey	Velosport	Kanada	Oltin
7	Ryaxov Anton	Baydarkada eshkak eshish va kanoeda suzish	Germaniya	Bronza
8	Chusovitina Oksana	Sport gimnastikasi	Bel'giya	Kumush
2004 yil				
1	Saidxodjaeva Nodira	Stol tennisi	Bel'giya	Bronza
2005 yil				
1	Tangriev Abdullo	Dzyudo	Osaka	Bronza
2	Maxmudov Dilshod	Boks	Kitay	Kumush
3	Haydarov O'tkir	Boks	Kitay	Bronza
4	Matchanov Jasur	Boks	Kitay	Bronza
5	Chusovitina Oksana	Sport gimnastikasi	SSHA	Kumush

Takrorlash uchun savollar:

1. Sport turlari bo'yicha federatsiyalarning tashkil qilinishi qanday?
2. Jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish ishlarini qanday tashkil etilgan?
3. Sportning milliy turlari qaysilar?
4. Sport sohasini mablag' bilan ta'minlash qanday?
5. Nodavlat sektorlar qaysilar?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.

2. Gulyamov Z.T., Nabiullin R.X., Kamilova G.Z. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti. Darslik. –T.: O’zDJTI, 2015.
3. Meskon M., Al’bert M., Xedouri F. Osnovi menejmenta. – M.: ANX, 1995.

Elektron ta’lim resurslari:

Internet saytlari

1. www.bilim.uz
2. www.ekonomika.ru
3. www.menejment.com
4. www.performance. edu.uz-Vazirlik sayti

4.4. Sport tashkilotining menejeri, sport menejeri modeli

Reja:

1. Sport menejerlari – tashkilotning a’zosi.
2. Menejerning asosiy vazifalari.
3. Menejrlarning turlari va xususiyatlari.
4. Menejerlar – mutaxassislar.
5. Menejer va sport jamoalari orasidagi munosabatlar.

Tayanch so’z va iboralar:

Sport menejerlarining turlari, sport tashkilotlari menejerlari, mutaxassislar, butun jamoa munosabati, tashkilot maqsadini aniqlash, maqsad zanjiri, qaror qabul qiluvchi, jamoadagi insonlarga rahbarlik qiluvchi, ijodiy rang-baranglik, qisqa muddatlik, aniqlilik.

Menejerlar bular – mutaxassislar bo’lib, ular sport tashkilotlari ishini boshqa insonlar hisobidan ta’minlab beradilar. Odatda, menejerning ishiga uning qanday ishlaganiga qarab emas, balki uning ishtirokidagi butun jamoada ishiga qarab baho beriladi. Menejer sport tashkilotining a’zosi, u ishning maqsadini aniqlovchi, “insonlar maqsad” zanjirida qaror qabul qiluvchi jamoadagi insonlarga rahbarlik qiladi. Bunday faoliyat bir xillikdan holi, ijodiy hisoblanadi, unga rang-baranglik, qisqa muddatlik va aniqlik xususiyatlari xosdir. Menejer quyidagi vazifalarni amalga oshirishi lozim:

- xodimlar oldida nutq so’zlay olishi;
- qaror qabul qila olishi;
- og’zaki va yozma ko’rsatmalar bera olishi;
- ishchan suhbat olib borish;
- suhbatdoshni e’tibor bilan tinglash va boshqalar.

Shu munosabat bilan menejning 10 ta vazifasini ajratish mumkin, ularni uchta katta guruhlariga birlashtirish mumkin: shaxslararo munosabatlar, axborotli va hal etuvchi. Menejning vazifasi deganda, ma'lum xulqiy qoidalar yig'indisini tushunish mumkin, ular aniq bir sport tashkilotiga yoki lavozimga tegishli bo'ladi.

Shaxslararo munosabatlar sardor, yuqoridagi rahbar, birinchi rahbar va o'zaro bog'lovchini o'z ichiga oladi. Sardor vazifasi odatda, nodavlat sport tashkilotlariga tegishlidir, u qo'l ostidagi xodimlar bilan bo'ladigan alohida toifadagi munosabatni ko'zda tutadi va rahbarlik usuli ham boshqacha bo'ladi. Menejerlar uchun yirik sport tashkilotlaridagi yuqori rahbar (masalan, sport klubining prezidenti yoki sport birlashmasining boshlig'i)ning roli yirik. Yirik rasmiy qabullar, marosimlar va boshqalarda vakillik qilishdan iborat bo'ladi. Menejer rahbarlik rolida xodimlar ishtirokidagi deyarli barcha boshqaruv harakatlarini amalga oshiradi va asosan, xodimlarni rag'batlantirishga harakat qiladi.

Menejning o'zaro bog'lash roli tashqi ishchi aloqalarni (sport tashkilotlarida tashqi aloqalar menejeri, sport klubi, guruhining bosh menejeri va boshqalar) o'rnatish va qo'llab borish faoliyatidan iborat bo'ladi.

Menejning axborotdagi vazifasi ma'lumotni iste'molchi va tarqatuvchisini bir-biri bilan bog'lashdan iboratdir. Menejer ushbu vazifani bajararkan, u ham tashqi muhitdan, tashkilot (bo'linmalari) xodimlaridan va maxsus xarakterga ega bo'lgan axborotni yig'adi. Menejer axborot tarqatuvchi sifatida tashqi muhitdan, tashkilot (bo'linmalari) xodimlaridan to'plangan va maxsus xarakterga ega bo'lgan axborotni sport tashkiloti a'zolariga tarqatadi. Menejning vakolatchi sifatidagi roli uning kengashlarda qatnashish, o'zining sport tashkilotidagi (hamda tashqi sport tashkilotlaridagi) har xil axborot vositalari orqali yozma va og'zaki chaqiriqlar berishdan iboratdir.

Menejning hal etuvchi roli, odatda, sport tashkilotlarida qaror qabul qilish bilan bog'liqdir. Ushbu rolning to'rt xil turini ajratish mumkin: tadbirkor, qoida buzulishlarni boshqaruvchi, zaxiralarni taqsimlovchi va vositachi. Menejer tadbirkor sifatida innovatsiyalar va tashkilot faoliyati samaradorligi bo'yicha sport tashkilotining ichida imkoniyatlar qidiradi va uning tashqari ishida o'zaro aloqalar o'rnatadi, boshqaruvni takomillashtirish bo'yicha loyihalar joriy etadi va ularni nazorat qiladi. Qoida buzilishlarini boshqaruvchi sifatida, u o'zining faoliyatidan tashqarida ro'y berayotgan noo'rin o'zgarishlarga qarshi turishi mumkin; sport tashkiloti oldida muhim qaror qabul qilish zaruriyati turgan hollarda o'zgarish kiritish bilan bog'liq harakatlarga javobgarlik qiladi.

Menejer taqsimlovchi sifatida sport tashkiloti zaxiralarini va uning mablag'larini taqsimlashga javob beradi. Vositachi sifatida menejer sport tashkiloti vakolatchiligiga va har xil kelishmovchiliklarni hal etishga mas'uldir.

Keyingi yillarda menejerda yana bir aniq belgilangan mas'uliyat paydo bo'ldi, u ham bo'lsa sportchi vazifasi. Aholining boshqa guruhleri orasida yirik sport tashkilotlarining rahbarlari, oliy va o'rta pog'onadagi menejerlar o'zlarining keskin sport faolliklari bilan ajralib turadigan bo'ldilar. Tabiiyki, jismoniy tarbiya va sport menejmenti sohasida ishlayotgan menejerlarga jismoniy tayyorgarlik borasida yuksak talablar qo'yiladi.

Shaxslararo munosabat va axborotlik rolini bajarayotgan rahbar boshqaruv qarorlarini qabul qilish roliga ham egadir: zaxiralarni taqsimlash, kelishmovchiliklarni bartaraf etish, sport tashkilotiga yangi imkoniyatlar qidirish. Yuqorida keltirilgan rollar, qanday sport tashkiloti bo'lishidan qat'iy nazar, uning menejer ish hajmini va mazmunini belgilaydi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda ham jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida faol ish olib borayotgan menejerlarning yorqin namoyandalarini ko'rish mumkin, masalan, prof. Kerimov Fikrat Azizovich, prof. Akramov Rustam Akramovich, prof. Yarashev Komiljon Dexqanovich prof. G'ulomov Ziyoviddin Tohirovich, prof. Xolmuhamedov R.D. va boshqalar.

Rossiyada Kushenko S.V. Permning "Ural Greyt" basketbol klubini Rossiya chempioniga aylantirdi, Evropaning kuchli guruhleri safiga kiritdi, MASKni hukmronlikdan chetlatdi. SHundan keyin uni Moskvaga taklif qilib, MASKning ilgarigi mavqeini tiklashga erishildi. Kushenko S.V. sportning boshqa turlarida ham menejer sifatida katta yutuqlarga erishdi.

Professor G'ulomov Z.T. 1992 yilda O'zbekistonda birinchilar qatorida prof. Tursunov Baxtiyor Muhammadjonovich bilan birgalikda Toshkent sharqshunoslik institutida "Xalqaro menejment va marketing" kafedrasini ochib, unda faoliyat ko'rsatgan. Keyinchalik u 1994 yilda Kiev fuqaro aviatsiyasi xalqaro universitetining Toshkent filialida "Aviatsiya menejmenti" fanini o'qitishni yo'lga qo'ygan. 1995 yilda G'ulomov Z.T. Toshkent davlat aviatsiya institutida "Aviatsiya menejmenti" kafedrasini ochgan va 1999 yilda "Menejment asoslari va O'zbekiston bozor iqtisodiyoti sharoitida uning xususiyatlari" darsligini chop etgan. Shu yilning o'zida u O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Ustoz" jamg'armasining sovrindori bo'lgan va o'zining menejment sohasidagi ishlariga AQSH, Evropa, Xitoy, Malayziya va boshqa ko'pgina davlatlardagi hamkasblaridan ijobiy baholar olgan. Nihoyat, 2010 yilda G'ulomov Z.T. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya institutida "Sport menejmenti" kafedrasiga asos soldi va jismoniy tarbiya va sport sohasida bir nechta o'quv rejalari, o'quv dasturlari, o'quv-uslubiy majmualar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratdi. 2011 yilda u O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya institutida Sport menejmenti sohasida olib borgan ishlari uchun Frantsiyaning

AFNOR, “Ta’lim sifati Xalqaro menejerlar assotsiatsiyasi” (MAMAK) a’zosi va grant sohibi bo’ldi.

Menejrlarning professional darajada ish olib borishi uning bilimi hamda ikki asosiy yo’nalishda doimiy ravishda faoliyat ko’rsata olishida ma’lum bo’ladi: texnologik va ijtimoiy-ruhiy.

Texnologik yo’nalish boshqarish funktsiyalarini (rejalashtirish, tashkillash, motivatsiya va nazorat) amalga oshirishdagi boshqaruv qarorlarini tayyorlash va ularni qabul qilish bilan bog’liqdir. Menejer o’z ishida keng doiradagi insonlar bilan o’zaro aloqada bo’ladi. U o’zi munosabatda bo’lgan insonlar oldida o’z ishonchini va hurmatini oshirishga imkon beradigan shaxsiy sifatlarga ega bo’lishi lozim. Ayniqsa, uning xotirjamlik xususiyatlarini saqlash, tiniq fikrlash, jismoniy va ruhiy kuchlarini tezda tiklay olish, o’z faoliyatini tanqidiy baholay olish, aybdor shaxslarni qidirmaslik va holatni har doim tuzatib borish imkoniyatlariga ega bo’lishi zarurdir. Menejerning sport tashkilotidagi eng qimmatli va nozik zaxiralar-insonlar bilan ishlash xususiyatini inobatga olganda, insonlarning tashkilotdagi o’zaro munosabatlarini yaxshi bilishi zarur hisoblanadi.

Menejerning ijtimoiy-ruhiy sohadagi professional faoliyati uning odamlar bilan ishlay olish xususiyatlari, boshqaruv qarorlarini bajarish va amalga oshirishda ularni yo’lga sola bilish xususiyatlari bilan bog’liq.

Menejerning muhim vazifalaridan biri jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga hissa qo’shishdir. Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida tadbirkorlik faoliyati deganda – ishni tashkil etishga ta’sir ko’rsatadigan shart – sharoitlar va omillar borligi tushuniladi. Tadbirkorlik faoliyatining maqsadlari va vazifalari bevosita bozor tamoyillaridan kelib chiqadi. Ma’lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitlarida sotuvchilar o’z tovarlarini imkoni boricha ko’proq foyda beradigan qilib sotishga, xaridorlar esa bu tovarlarni imkoni boricha arzonroq qilib xarid qilishga intiladi. Ularning manfaatlari bozordagi baholar mexanizmi orqali muvozanatlashadi. Shu munosabat bilan bozor iqtisodiyotining qanday tamoyillari tadbirkorlarga xos bo’lib hisoblanadi, degan savol tug’iladi. Avvalo, xususiy mustaqillik, ya’ni avtonomiya tamoyili. Iqtisodiyotdagi hamma erkin harakat qiladigan iqtisodiy sub’ektlardan kelib chiqadi. Shuning uchun tadbirkor kishi amaldagi qonunlar doirasida o’z istagiga qarab ish yuritishi mumkin.

Erkinlik tamoyili, birinchidan, tadbirkorlar uchun muayyan imkoniyatlar bo’lishini, xo’jalik faoliyati erkinligini va qanday bo’lmasin biror ish bilan shug’ullanish erkinligini ko’zda tutadi.

Ikkinchidan, boshqa imkoniyatlar ham nazarda tutiladi: shartnomalar tuzish erkinligi, birlashish va raqobat qilish erkinligi bor. Uchinchidan, tadbirkor

ishi o'z mulkidan o'z xohishiga qarab, foydalanish huquqiga ega bo'ladi. Umumiy vaqtda tadbirkor qonun bilan belgilab qo'yilgan haq – huquqlarini e'tiborga olish kerak.

Zamonaviy menejer jamoa ishlab chiqarishda: a) boshqaruvchi, b) diplomat, v) etakchi, g) murabbiy, d) inovator, e) inson sifatida maydonga chiqadi.

Boshqaruvchi – menejer. Menejerning bu xususiyati unga azaldan xos bo'lgan an'anaviy funktsiya hisoblanadi. Boshqaruvchilik vazifasini ado etar ekan, menejer hokimlikka ega shaxs bo'lib qoldi. Hozirgi sharoitda hokimiyat tanho bir kishiga tegishli bo'lmay qolishi uchun hokimiyatni qo'lda tutuvchi kishidan bugungi kunda ham qat'iyat, ham ma'lum darajada muloyimlik ko'rsatish talab etiladi. Boshqaruvchi - bu menejer, xolos, o'z lavzida turadigan, yuksak kasb mahoratiga ega, ish yuzasidan mezoni o'zlashtirilgan, notiq, maslahatchi, pedagog va ruhshunos mahoratiga erishgan bo'lishi kerak.

Diplomat - menejer. So'nggi o'n yilliklar davomida, ayniqsa, keng yoyilgan menejerlik malakalari va ko'nikmalari orasida bularning avvalo, muzokaralar olib borish bilan bog'liq xillarini tilga olib o'tish lozim. O'rta va oliy darajadagi bugungi menejerlar hozirgi kunda o'zlarining ish vaqtlarini asosan, odamlar bilan aloqalar bog'lash va bu aloqalarni kengaytirishga, ish sohasidagi aloqalarni chuqurlashtirish, shartnomalar, bitimlar tuzish, hukumat bilan o'rnatiladigan munosabatlarni yo'lga qo'yishga sarflaydilar. Har xil vositachilik ishlarida menejerlarning ishtirok etishi tobora ko'proq zarur bo'lib qoldi. Mana shularning hammasi uchun kishida alohida, ya'ni diplomatlarga xos qobiliyatlar bo'lishi kerak.

Etakchi - menejer. Zamonaviy menejer, menejerlik ishlaridan tashqari etakchilik ishlarini ham olib boradi. Menejment xususidagi Amerika nashriyotchilari "har bir menejer etakchi bo'lishi lozim" degan ishorani allaqachon o'rtaga tashlashgan. Menejerlik vazifasi bir ma'noni anglatmaydi. Bizda menejerlik vazifasi deganda, ko'pincha biznesning moddiy tizimi faoliyatini quvvatlab borish uchun zarur bo'lgan professional harakatlar tushuniladi, bu albatta, o'tmishdan qolgan tushunchadir. Biznesning insonga xos bo'lgan boshqa avlod tizimi, ya'ni boshqarishning asosiy obyektini bu o'rinda go'yo chetda qolib ketgandek. Lekin bu vazifani yaxshi uddalash uchun menejer odamlarni o'ziga ergashtirib borish qobiliyatiga ega, ya'ni u etakchi bo'lishi lozim. Zamonaviy nuqtai nazarga muvofiq etakchilik funktsiyalari ikki qismdan: professional-texnokratik va emotsional-shaxsga oid qismlardan tarkib topgan.

Murabbiy – menejer. Ishlab chiqarish jarayonlari murakkablashib borgani sari xodimlarga qo'yiladigan talablar ortadi. Bir tomondan, xodimlarning texnologik bilimlarini oshirish ehtiyoji paydo bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularda

hayot faoliyatining ma'naviy tomonlarini kamolotga etkazish zaruriyati tug'iladi.

Murakkablashib borayotgan texnika, texnologiya mutaxassislariga uzluksiz kasb ta'limi berib borish zaruriyatini tug'dirishi hech kimda shubha uyg'otmaydi. Bu ravshan, shunga ko'ra, biz ko'p surishtirmasdan, bu ishga talaygina mablag'larni sarflaymiz. Lekin xodimlarni ma'naviy tomondan kamolotga etkazish borasida sustkashlik qilmoqdamiz va shuning uchun ishlab chiqarishda zarar ham ko'ramiz. Vaholanki, xodimlarning yaxshi tarbiya ko'rganligi yuksak ma'naviy axloqqa ega ekanligi taraqqiyot cho'qqisiga chiqqan iqtisodiyotning mintaqadan mintaqaga o'tib borishi uchun hal qiluvchi shart bo'lib hisoblanadi.

Muvaffaqiyat qozonishni mo'ljallaydigan menejer xodimlarni odob-axloq, his-hayajon tomonidan tarbiyalab borish barcha menejerlik ishlarining muhim tomonidir, degan tegishli xulosaga kelish lozim.

Innovator - menejer. Fan-texnika taraqqiyotining informatsion yuksalish sharoitlarida (birinchi, yuksalish qishloq xo'jalik ekinlarini joriy etish bilan, ikkinchi, sanoatning tubdan o'zgarishi bilan bog'langan). Menejerlik ishining eng muhim tomonlaridan biri innovatsiyalar bo'yicha faoliyat olib borishdir. SHiddat bilan davom etayotgan fan-texnika inqilobi sharoitlarida innovatsiyalar xususida kimki sustkashlik qiladigan bo'lsa, u tez orada orqaga o'tib qoladi. Innovatsiyalarning zarurligini tushuntirish juda oson. Eskirib qolgan asbob-uskunalarni tiklash, yangiliklarni joriy etishdan mablag' tejab qolishdan ko'ra, yangi texnika va texnologiya bazasida mehnat unumdorligi va mahsulot sifatini ko'tarish ancha oson va tezroq bo'ladi.

Menejer avvalo, insondir. Menejer tashqi energiya manbalaridan ishlaydigan mashina emas. SHuning uchun ham insonga xos bo'lgan xususiyatlardan hech biri unga begona emas. Menejer tor bilim natijasida etishtirilgan ijtimoiy sifatlarning murakkab bir tizimi, ya'ni shaxsiyatli kishidir. Har bir menejerning o'z xulq atvori bilan belgilanadigan o'z tabiati bor. Lekin odam tabiatining har qaysi tomoni ham menejerlik vazifalarini ado etishga yordam beravermaydi. Yaponiyada firmaning menejerlari ishchilar mehnatining samarasini oshirish va ularni mahsulot sifatini tinmay takomillashtirib borishga undash uchun mana quyidagi qoidaga amal qilib borishadi: bizning tamoyillarimiz – jamiyatimizni rivojlantirish va farovonligini oshirish borasida o'z mas'uliyatlarini anglab etish. Jahon madaniyatini chindan taraqqiy ettirishga o'z-o'zini bag'ishlash. Bizning kredo-madaniyat taraqqiyoti mavhum bir narsa emas. Bizning hammamiz birgalikda harakat qilib, madaniyat taraqqiyotiga o'z ulushimizni qo'shib boramiz Bizning har birimiz buni doimo yodda tutmog'imiz kerak. Har ishda firmaga sadoqatli bo'lish muvaffaqiyat keltiradi.

Ma'naviy qadriyatlarimiz: a) ishlab chiqarishni takomillashtirish yo'li bilan millatga xizmat qilish; b) halollik; v) uy; v) o'nlik va hamkorlik; g) sifat uchun kurash; d) o'z qadrini bilish va bo'ysunish; e) firma bilan payvasta bo'lib yashash; j) firmaga minnatdorchilik.

Boshqaruv tsikli to'rtta vazifani ado etadi, bular – rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiya va nazoratidir. Bu vazifalar moddiy boyliklar yaratish mablag' bilan ta'minlash, marketing va boshqalarga doir boshqaruv faoliyatining hamma turlarini o'z ichiga oladi.

Sportda menejer modelini yoritishdan avval, menejer u avval, shaxs ekanligi ta'kidlanib, uning mehnati jamiyatdagi barcha insonlar kabi jumladan, sport tovarlari ishlab chiqaruvchilar (moddiy ishlab chiqarish soha vakillari) va jismoniy tarbiya va sportda xizmat ko'rsatayotganlar (nomoddiy ishlab chiqarish soha vakillari) mehnatining ajralmas qismi ekanligini inobatga olish lozim. Jismoniy tarbiya va sport menejeri mehnatining farqi shundaki, uning mehnati aqliy, jismoniy, ijodiy, uzluksiz va sertashvish faoliyatidir. Garchand jismoniy tarbiya va sport menejeri bevosita moddiy boylik yaratmasada, lekin uning mehnati ishlab chiqarishga kiradi.

Boshqaruv faoliyati nazariyasi va amaliyoti jismoniy tarbiya va sport menejeri modelini yuzaga keltiradi. U pedagogik mohirlikka ega bo'lgan istarasi issiqlik, ochiq ko'ngillik, oqillik va irodalilik kabi tizim tashkil etuvchi biologik sifatlarga ega bo'lishi lozim.

Sport menejeri jismonan barkamol bo'lishi kerak: ochiq ko'ngillilikni jismoniy tarbiya va sport menejeri achinish va hamdardlik qilish kabi hislatlarda namoyon eta bilishligi, vijdon amriga quloq solishi kerak. Sport menejeri farqlay oladigan o'z aqliy qobiliyatini nimalarga qodirligini bilishi va idroklay olishi lozim.

Sport menejerida albatta, mustahkam iroda bo'lishi shart, chunki boshqaruv bu hamisha hokimlikdir. Jismoniy tarbiya va sport menejerining madaniyatlilik darajasi - inson tafakkuri va badiiy ijodiyoti eng yaxshi natijalari darajasida bo'lishlik xususidagi doimiy ehtiyoj, bu uning etika, siyosatshunoslik, sotsiologiya va psixologiya bo'yicha bilimlarga ega bo'lishini taqozo etadi. Boshqaruv faoliyatiga antropologik yondashish menejer keng kulturologik tayyorgarlikka ega bo'lishi zarurligiga olib keladi.

Sport menejerining insoniylik jihati bu menejering boshqaruv faoliyatida tizimlashtirilgan va moslashtirilgan antropologik bilimlardan foydalana olishdagi nazariy-amaliy tayyorgarligidir.

Antropologik bilimlar jismoniy tarbiya va sport menejeriga o'z kasb vazifasini bajarish jarayonida odamlar bilan muloqotda bo'lish va birgalikda harakat qilish, shaxsiy ishbilarmonlik sifatlarini namoyon eta bilish va eng

yaxshi kasbiy natijalarga erishish uchun zarurdir. Bular ayniqsa, jismoniy tarbiya va sport ta'limi, servis, tibbiyot, savdo va tadbirkorlik kabi faoliyat sohalarda katta ahamiyat kasb etadi.

Ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarning oliy ta'lim muassasalarida va biznes bilan bog'liq barcha biznes-maktablarda ixtisoslashtirilgan insonshunoslik fanlari o'qitiladi: sanoat psixologiyasi, ishlab chiqarish sotsiologiyasi, tadbirkorlik odobi, ishbilarmonlik iqtidori va boshqalar. Ko'pchilik universitetlarda shoirlar, rassomlar, madaniyat arboblarning ma'ruzalari rejalashtirilgan.

Menejrlarni insonshunoslik bo'yicha tayyorlashda Evropa Ma'muriy boshqaruv instituti (Fransiya)da, boshqaruv xalqaro instituti (Shveytsariya) va Barselona oliy boshqaruv ta'limi institutida qiziqarli tajriba to'plangan. Menejrlar tayyorlash bo'yicha Tokiodagi markaz jahonga ma'lum, unda: insonshunoslik ta'limi va insonshunoslik texnologiyaviyligidan iborat insonshunoslik vakolati kontseptsiyasi ko'rib chiqilgan. Ushbu ilmiy izlanishlarning jismoniy tarbiya va sport menejrlariga bevosita aloqadorligini inkor etib bo'lmaydi.

Sport menejrlarining insonshunoslik ma'lumoti, bu – antropologik bilimlar tizimi bo'lib, uning mentaliteti faoliyatining so'zlar yordamida obraz yaratish negizi hisoblanadi. Jismoniy tarbiya va sport menejmentida quyidagilar mana shu negizga taalluqlidir.

- sport menejrlarining boshqaruv psixologiyasi;
- sport menejmentining boshqaruv pedagogikasi;
- sport menejrlarining boshqaruv odobi;
- sport menejrlarining boshqaruv sotsiologiyasi;
- sport menejrlarining boshqaruv kelishmovshunosligi;
- sport menejrlarining boshqaruv ritorikasi;
- sport menejrlarining boshqaruv ortobiotikasi;
- sport menejrlarining boshqaruv imijshunosligi;

Sport menejrlarining insonshunoslik texnologiyaviyligi, bu- o'quvlar majmui, shu tufayli antropologik bo'limlar uning amaliy xatti-harakatlari (axborot to'plash, boshqaruv qarorlari qabul qilish, futurologik loyihalash, ishbilarmonlik salohiyati va h.k.lar)da amalga oshiriladi. Insonshunoslik texnologiyalaridan to'g'ri foydalana bilishlik o'quvi jismoniy tarbiya va sport menejrlariga antropologik bilimlarni tadbiiq etishlik muvaffaqiyatini kafolatlaydi. Quyidagilar mazkur texnologiyalarga taalluqli:

- sportda maqsadni mo'ljallash texnologiyasi;
- sportda etik taalluqlash texnologiyasi;
- sportda o'z-o'zini faol belgishlash texnologiyasi;

- sportda o'zini abadiylashtirish va boshqa texnologiyalar;

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jismoniy tarbiya va sport menejmentida boshqaruv faoliyati o'z mohiyati va xususiyati bo'yicha jamiyat hayotida aqliy tartibga solish ahamiyatiga ega. Insoniy tomonidan va ijtimoiy muvaffaqiyatlar tobora oshirilib borishiga ko'ra, boshqaruv faoliyatining ilmga bo'lgan talabi ham to'xtovsiz o'sib boradi. Boshqaruvning mohiyati obyektiv va sub'ektiv shart-sharoitlarni shunday nisbatda uyg'unlashtirishni ta'minlashdan iboratdir, bu mo'ljallangan maqsadga erishish imkonini beradi. SHuning uchun yaxshi rahbar kamroq buyruq beradi, buning o'rniga ularning mehnat faoliyati uchun zarur bo'lgan samarali sharoit yaratadi. Boshqaruv, bu hamisha hukmronlik, har qanday tashkilotning samarali faoliyat ko'rsatishi, uni to'g'ri taqsimlashga bog'liq. Lavozim vakolatidan (hokimyatning taqsimlanishidan) qat'iy nazar boshqaruv xulqining umumiy tamoyillari-vakolatlilik, insonparvarlik, innovatsiyalik, programmatika va ortobiotiklik mavjud. Boshqaruv uslubiga kelsak, u avtokratik, byurokratik, demokratik va aristokratik bo'lishi mumkin.

Sport menejerining insonshunoslik vakolati uning boshqaruv faoliyatida antropologik bilimlardan foydalanishdagi nazariy-amaliy tayyorgarligiga bog'liq. Bu vakolatlik insonshunoslik ma'lumoti va menejerning insonshunoslik texnologiyasi bilan tavsiflanadi.

Sport tashkiloti o'z xodimlarining salohiyatidan tegishli sharoit yaratgan holda maksimal samarali foydalanishga intiladi. Lekin insonning sport tashkilotiga bo'lgan munosabatini belgilaydigan boshqa xususiyatlar ham bor: sport tashkiloti uning hayotida qanday rol o'ynaydi, uning jamoa bilan bo'lgan munosabatga qanday mazmun bag'ishlaydi. Ushbu muammoni tizimli o'rganilganda ikki yo'nalishga to'g'ri kelishi mumkin:

1. Menejer va sport tashkiloti orasidagi o'zaro harakatda markaziy o'rinda inson turadi.

2. Menejer va sport tashkiloti orasidagi o'zaro harakatda markaziy o'rinda tashkilot turadi.

Inson va sport tashkiloti orasidagi o'zaro harakatda na tashkilot, na inson ish joyidagi faoliyatda o'z e'tiborlarini aniq bir ishni bajarishga yo'naltira olishlari mumkin bo'ladi. Ushbu o'zaro harakat har doim kengroq doirada bo'ladi, chunki inson mashina emas, ish joyi inson uchun faqatgina atrofidagi tashkiliy qismgina, xolos. Ko'pchilik insonlar uchun bu quyida keltirilgan juda keng tushuncha: qurol aslaha, inventar', predmetlar, mehnat sharoiti, hamkasblarning munosabati, muloqot me'yorlari, ish haqi, xulqiy qoidalar, ichki tartib-qoidalar, sport tashkilotining katta-kichikligi, uning mavqei va boshqalar. Bularning hammasi inson tomonidan individual ravishda ko'riladi va qabul qilinadi. Insonni tashkiliy muhitga kirib borishi menejmentda "sotsializatsiya"

deb ataladi. Sotsializatsiya jarayoni aniq ravishda insonga va tashkiliy muhitga bog'liq va har doim ham bir tekisda o'ta bermaydi. Ko'p sabablar asosida yotuvchi, nizo va kelishmovchiliklar keltirib chiqaradigan ikki holat mavjud: kutish, tasavvur qilish va insonning tashkiliy muhit haqidagi tushunchasi hamda undagi o'zining o'rni va ishchi munosabatidagi tashkilotning kutishi, uning roli va undagi o'rni.

O'z imkoniyatlarini bilgan holda, bilimga ega bo'lib, sport tashkilotiga nisbatan aniq mo'ljal va maqsad bilan inson u bilan o'zaro harakatga kirishadi. Inson tashkilotda aniq o'rinni (vazifani) egallash, aniq ishni bajarishni va aniq rag'batlantirilishga erishishni ko'zlaydi. O'z navbatida, sport tashkiloti, o'z maqsadi yo'lida ishchidan foydalanishni ko'zlaydi. Ishchi o'zining tegishli malakasi va shaxsiy sifatlariga ega bo'lgan holda, jamoada ma'lum aniq rolni o'ynab, ishni bajarib, tegishli natijani berib, aniq rag'batlantirilishga erishadi. Menejerning san'ati shundaki, u insonni tashkilot bilan bir-biriga mos keluvchi tegishli natijani kutishiga va tashkilotning ham kutishiga erishishdir.

Har bir inson uchun kutish kombinatsiyalari har xil bo'lishi mumkin. Sport tashkilotining insondan kutayotgan natijalari rang-baranglikda undan kam emas, u inson quyidagi yo'nalishlarda o'zini ko'rsatadi, deb o'ylaydi:

- tegishli malaka va bilimga ega bo'lgan mutaxassis;
- ma'lum shaxsiy va ma'naviy sifatlarga ega bo'lgan inson;
- hamkasblari bilan yaxshi munosabat ushlab turishga loyiq, o'z loyiqqligini rivojlantirib borishga intiluvchan, qadriyatlarni tan oluvchi va ularni himoya qiluvchi, tegishli mas'uliyat va javobgarliklarni o'z zimmasiga oluvchi jamoa a'zosi.

Inson va tashkilot orasidagi moslashuvni kutish muammosini hal etish inson qanday o'ringa o'zini mo'ljallayotgani, u qanday rolni o'ynashga tayyorligi va tashkilot unga nimani taklif qilishiga bog'liq bo'ladi. Xodimning tashkilotdagi roli deganda, unga bajarish uchun birlashtirilgan masalalar to'plami, funktsiyalar, ishlar tushiniladi. Birinchidan, zamonaviy menejmentda keng tarqalgan va an'anaviy hisoblangan, inson tashkilotda ma'lum ishni bajarish uchun lavozimga qabul qilishga asoslangan. Ikkinchidan, ish inson uchun shunday tanlanadiki, u optimal darajada xodimning imkoniyatlariga va e'tirozlariga mos keladi. Ikkinchi yo'nalishni amalga oshirishning o'ziga yarasha qiyinchiliklari bo'lishiga qaramasdan, jahon menejmentida uning keng ko'lamda foydalanilayotgan an'anasi ko'zga tashlanib turadi.

Rejalashtirish. Bu vazifa mohiyat e'tibori bilan qarorlar tayyorlash jarayonidir. Rejalashtirish bosqichlari: a) maqsadni o'rtaga qo'yish, b) mavjud imkoniyatlar shart-sharoitlarni aniqlash, v) muqobil shartlarni belgilab olish, g) eng yaxshi yo'lni tanlash, d) rejani ishga solish va bajarish.

Tashkil etish – tashkil etish vazifasi menejer va ijrochilar faoliyatini tartibga solishga qaratilgan. Bu avvalo, menejerning o'z imkoniyatlariga baho berishi, o'ziga bo'ysunadigan xodimlarni o'rganib chiqish, har bir xodimning salohiyati, nimalarga qodirligini aniqlab olish, kuchlarni joy-joyiga qo'ya bilishdir va hokazo. Mana shu tashkilotchilik boshidan oxirigacha korxonaning juda aniq tuzulmalari doirasida o'tadi.

Motivatsiya – tayyorgarlik choralari ko'rib bo'lganidan keyin menejer ta'minlash kerak. SHu maqsadda quyidagilardan foydalaniladi: a) rag'batlantirishdan, ya'ni tashqi omillar (moddiy va ma'naviy), xodimni jo'shqin faoliyatga undashdan, b) asl motivatsiya, ya'ni xodimda mehnatga ichki (ruhiy) rag'batlar hosil qilishdan. Bu o'rinda quyidagilar muhim bo'lib hisoblanadi: mehnatda manfaatdorlik, mehnat faoliyatiga ehtiyoj sezish, mehnat faoliyatidan qanoat tuyg'usini his qilish muhimdir. Mana shu boshqaruv vazifasini muvaffaqiyat bilan ado etish uchun menejer muloqot olib borish, aloqalar bog'lashning turli jihatlarining yaxshi bilimi, o'zida tegishli malaka va ko'nikmalarni rivojlantirib borishi shart. Boshqaruv tsiklining aylanib turishi, ma'lumki, menejer doimo boshqaruv vazifalarini ado etib borish bilan band bo'ladi. Agar o'z korxonasi istiqbolni ta'minlab berishni istasa, boshqaruv ishining hamma tafsilotlariga jiddiy kirishmog'i lozim.

Zamonaviy tariflarga ko'ra, biznes tijorat ishi, tadbirkorlik faoliyatidir. Biznes so'zini yaqinda ham mutaxassislardan tashqari hech kim tan olmasdi. Xususiy mulkdan odamlar qo'rqishar edi. Inqirozlar, raqobat, ishsizlik degan narsalar asosan, kapitalistik mamlakatlarga xos xususiyat edi. Kishini o'z manfaatlari davlat manfaatlaridan keyin turishi kerak, degan tamoyil odamlar qulog'iga singdirilgan edi.

80-90-yillarda G'arb mamlakatlari sharqni bir qancha davlatlari tadbirkorlik va biznesni bozor iqtisodiyotiga olib kirdi va shu tufayli iqtisodiyot va texnika ulkan muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritgani mamlakatlar tajribasini ko'rsatib berdi. Lekin biznesni faqatgina shaxsiy boylik daromad orttirish manbaidir, degan xato ta'riflar bor. Haqiqiy biznesni asosi tadbirkorlikdir. Tadbirkor bo'lish, degan so'zni tagida biror ishni boshlash, bajarish, uddalash, ya'ni aniq tayinli ish bilan shug'ullanish degan ma'no yotadi. Biroq biznes "sehrli tayoqcha" yoki "ochil dasturxon" degani ekan deganlar yanglishadilar. Biznes o'z holicha muvaffaqiyatga olib bormaydi. Uning zaminida hamisha mehnat, uddaburonlik, mohirlik, bilimdonlik va tashabbus yotadi. Bu xususiyatlarning hammasi menejmentga xos xususiyatlar hisoblanadi. Haqiqiy tadbirkor talab va taklifni, pul sanog'iga etishgina emas, zamonaviy menejment sir asrorlarini ham bilishi, hisobotlar tizimini baho siyosatini tushunadigan, kelajakni ko'ra biladigan bo'lishi kerak.

Biznes hozirgi kunda xalqaro tus ortib borayotganligi sababli yuqorida aytilganlardan tashqari, chet tillarini ham bilishi zarur. Har bir tadbirkor o'z faoliyatini boshlar ekan, bozor talab va taklif qonunlarini yaxshi bilishi, moliyaviy, aqliy hamda mehnat resurslariga kelgusida qanday tasavvurga ega bo'lishi, shuningdek, ish zaxiralaridan samarali foydalana bilishi kerak. Biznesni strategiya va taktikasi bor. Uning strategik maqsadi foydani eng ko'p darajasiga etkazishdir. Taktik maqsad har bir kontragent o'z vaqtida va mavjud shart-sharoitlaridan foydalangan holda muomalada bo'lib shu strategiyani amalga oshirishdir.

Biznesning maqsadi, odatda, foydani oshirib borish yoki barqaror holga keltirish. Tadbirkorning ham o'y-fikrlari harakatlari va sarf xarajatlari aynan foyda olishga qaratilgan bo'ladi. Zarar ko'rishga, foydani yo'qotishga qaratilgan biznes bo'lmaydi, odatda, har ishda bo'lgani kabi biznesda ham muvaffaqiyat o'z-o'zidan kelavermaydi. Biznesda muvaffaqiyatga erishish uning g'oya, maqsadi va vazifalariga, zaxiralar investitsiyalar bilan nechog'lik ta'minlangani, shuningdek, boshlangan ish natijalari ro'yobga chiqarish usullariga ko'p jihatdan bog'liq.

Tadbirkorlik to'g'risidagi Respublika qonuniga asosan, O'zbekistonda quyidagilar biznes sub'ektlari bo'la oladi:

- Aqlli, xushi raso bo'lib, o'z ishi yuzasidan qonun oldida javob bera oladigan fuqaro;

Fuqarolar guruhi, jumladan, davlatga, kooperativga qarashli va boshqa turdagi korxonalar – jamoa biznesi;

Chet el fuqarosi yoki yuridik shaxsi shuningdek, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, bular respublika qonunlarida ko'zda tutilgan vakolatlar doirasida faoliyat olib borishlari mumkin;

Aralash mulk sub'ektlari.

Tadbirkorlik shaklini biznes obyektlari belgilaydi.

Yuqorida aytilganlardan shuni xulosa qilish mumkinki, biznes sub'ektlari bu siz bilan biz, biznes ob'ektlari gugurt, sigaret, saqichlardan tortib samolyot dengiz kemalarigacha bo'lgan narsalarni hammasi. Mana shu narsalarni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish ishlab chiqarish shaklidagi biznesni tashkil etadi, ishlab chiqaruvchilardan olib sotish bu tijorat biznesidir.

Biznes obyektini va sub'ektni tizim sifatida faoliyat ko'rsatib borishida mulkchilik va mulkka bo'lgan munosabat katta rol o'ynaydi.

Biznes bu shunchaki bir ishtiyoq emas, erklik yoki boylik keltiradigan manba ham emas, avvalo, tinimsiz mehnat, mashaqqatli ishdir.

Inson olim, konstruktor, shifokor, yozuvchi va hokazo bo'lib tug'ilganidek, hech kim ham tadbirkor bo'lib tug'ilmaydi, balki tadbirkor bo'lib

etishib chiqadi. Lekin buning uchun men falonchi bo'laman, degan niyat qilishi, o'qishi, o'rganishi, maqsadi sari intilishi, o'z ustida ishlashi va atrofidagi muhit qulay va unda imkon bo'lishi kerak.

Takrorlash uchun savollar:

1. Sport menejerlarining turlari qanday?
2. Sport menejeri kim?
3. Sport tashkilotlari menejerlari vazifalari nima?
4. Menejer sport tashkilotining a'zosimi?
5. Menejerlar mutaxassis tashkilotlar maqsadini qanday aniqlaydi?
6. Sport menejerining modeli nima?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
2. Gulyamov Z.T., Akbarov F.S. Основы менеджмента и его особенности в условиях формирования рынка в Узбекистане. – T.: TGAI, 2006.
3. Gulyamov Z.T., Nabiullin R.X., Kamilova G.Z. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti. Darslik. –T.: O'zDJTI, 2015.
4. Meskon M., Al'bert M., Xedouri F. Основы менеджмента. – M., 1995.
5. Prchinkin A.V. Menedjment v sfere fizicheskoy kultur i sporta. – M.: Sovetskiy sport, 2010.

Elektron ta'lim resurslari:

Internet saytlari

1. www.bilim.uz.
2. www.ekonomika.ru.
3. www.menejment.com.
4. www.edu.uz-Vazirlik sayti.

V. SPORT MENEJMENTIDA AXBOROT TA'MINOTI VA BOSHQARUV QARORLARI

5.1. Sport menejmentining axborot ta'minoti

Reja:

1. Sport menejmentida axborot ta'minotning ahamiyati.
2. Axborot ta'minotning mazmuni.
3. Sport informatsiyasi, statistik axborot, hisobot ma'lumotlar.
4. Innovatorlik holati, boshqaruv tsikllari.
5. Qaror qabul qilish tamoyillari va motivatsiya haqida axborot ta'minot
6. Kommunikatsiya – ikki yoki undan ortiq kishilar o'rtasidagi axborot ayriboshlash jarayoni.
7. Sport menejeri faoliyatida axborot texnologiyalar.
8. “Axborot” - atamasi lotincha so'z (xabardorlik).

Tayanch so'z va iboralar:

Menejer, faoliyat, axborot ta'minot, sport axboroti, statistik axborot, hisobot ma'lumotlar, innovatorlik holati, boshqaruv tsikllari, tamoyillar, motivatsiya, axborot ta'minot, kommunikatsiya, axborot ayriboshlash, jarayon, sport menejeri, faoliyat, axborot texnologiyalar, “Axborot”, xabardorlik.

Sport menejeri faoliyatida axborot texnologiyalar va kommunikatsiya tizimi alohida ahamiyatga ega. Mavhum g'oyalarni berish qobiliyati insoniyatning muhim o'ziga xos jihatlaridan biri hisoblanadi. Kommunikatsiya – bu ikki yoki undan ortiq kishilar o'rtasida axborot ayriboshlash jarayonidir. Kishilar – ular xoh do'stlar bo'lsin, oila a'zolari yoki kasbdoshlar bo'lsin - o'rtasidagi munosabatlarning mustahkamligi va sifati ularning shaxslararo munosabatlari qanchalik aniq va adolatli ekanligini namoyon etadi. Tashkilot kishilar o'rtasidagi munosabatlarning strukturalashtirilgan ko'rinishini namoyon etganligi sababli, u samarali faoliyat ko'rsatishni ta'minlash uchun muhim darajada kommunikatsiyalar sifatiga bog'liq bo'ladi.

Agar kishilar o'rtasidagi kommunikatsiya samarali bo'lmasa, u holda kishilar tashkilotning faoliyat ko'rsatishi uchun asos bo'lgan umumiy maqsad haqida kelishmasliklari mumkin. Kommunikatsiya jarayonida axborotlar nafaqat to'g'ri qarorlarning qabul qilinishi uchun, balki ularning bajarila olishi uchun ham uzatiladi. Masalan, agar rejalar ularni bajarishi kerak bo'lgan kishilarga uzatilmasa, u holda ularni bajarish mumkin emas. Agar rahbariyat o'z

qarorlarining asoslanganligini bo'ysunuvchilargacha etkazsa, u holda bu qarorlarning muvaffaqiyatli bajarilishi imkoniyatlarini muhim darajada oshiradi. Agar ishchilar yaxshi bajariladigan ish uchun tashkilot tomonidan ularga taqdim etilishi mumkin bo'lgan mukofotlarni tushunmasalar, u holda ular etarli darajada sabablanmaydi va yaxshi ishlamaydi. Kommunikatsiya nazorat funksiyasida ham juda muhimdir. Rahbarlar tashkilot maqsadlarigi erishilganligini to'g'ri baholash uchun bajarilgan ish to'g'risidagi axborotlarga muhtojdirlar.

1979 yildan buyon "X'yulett - Pakkard" kompaniyasi o'n yillik maqsad sifatida qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida harakat qiladi: *ishlab chiqarishdagi yo'qotishlar foizini o'n barobarga qisqartirish*. Buni ta'minlash uchun rahbariyat dastlab rejani ishlab chiqishi kerak bo'ldi. So'ngra kompaniyada sifat uchun kurashadigan kishilarning kichkina guruhi tashkil qilindi. Bu guruhni "sifat guruhi" yoki "birinchi talabdanoq mahsulotni berish guruhi" deb nomlashdi. Guruhning Yaponiyaga tashrifi sifat uchun harakatning yanada keng ko'lamga ega bo'lishiga olib keldi. Endi bunday harakat sifat uchun salb yurishiga o'xshab ketdi, unda kompaniyaning deyarli barcha darajalardagi barcha ishchilari ishtirok etishi mumkin bo'ldi. Butun bir kompaniyadagi entuziazmni qamrab olish maqsadida bunday harakatning ahamiyatini targ'ib etishning bir necha usullari sinab ko'rildi. Muhokama qilish, o'qitish va yozma axborotlarni tarqatish kabilar bunday usullar jumlasiga kiradi. Qahva ichish uchun qisqa tanaffuslarda sifat va unumdorlik asosiy suhbat mavzuiga aylandi. Ishlab chiqarishdagi yo'qotishlarni qisqartirish bo'yicha dastur natijalari ijobiy bo'ldi. Kompaniyaning o'n yillikka mo'ljallangan maqsadiga erishish jarayonida zarur axborotlardan zamonaviy tarzda foydalanishni ta'minlash kabi boshqa o'zgarishlar o'z o'rniga egadir. Boshqaruv jarayoni boshqaruv funksiyalarining o'zaro bog'liqligini ta'kidlaydi. Bu tashkilotning alohida qismlari o'rtasidagi, shuningdek, tashkilot bilan atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'kidlaydigan tizimli yondashuvdan farq qiladi.

"Informatsiya" axborot - atamasi lotincha so'z bo'lib, xabardorlik, biror hodisa yoki biror kishi faoliyati haqida xabarga ega bo'lish ma'nosini bildiradi. Axborot boshqaruv tizimiga uni rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida faol ta'sir etish uchun zarur ma'lumotlar yig'indisidan iboratdir. Etarli va aniq axborotga ega bo'lmay boshqarish mumkin emas.

Ishlab chiqarish axboroti boshqaruvchi va boshqariluvchi tizimlar o'rtasida aloqa usulidir. Boshqaruvchi tizim boshqariladigan tizimdan ishlab chiqarish holati va uning xo'jalik faoliyati to'g'risida axborot oladi. Boshqaruvchi tizim olingan axborot asosida boshqariluvchi tizim faoliyatiga baho beradi, boshqarishni yanada takomillashtirish maqsadida ko'rsatma, farmoyishlar chiqarib, boshqariluvchi tizimga ijro uchun yuboradi.

Axborot boshqaruv tizimida alohida bo'g'in bo'lib hisoblanadi. Unga qator o'ziga xos xususiyatlar mansub bo'lib, ular axborot boshqaruvining barcha bo'g'inlari, barcha vazifalarini qamrab olishiga bog'liqdir. Axborot - bu boshqaruv apparati faoliyatining ham dastlabki nuqtasi, ham natijasidir, shuningdek, amalga oshirilayotgan harakatlar mavjudligi sharti, mustahkamlash usulidir. Axborot hajmi ortishi bilan boshqaruv axborotining sifat ko'rsatkichlariga bo'lgan talab ham ortib boradi.

Boshqarish jarayoni boshqaruv qarorlarini qabul qilish maqsadida axborot to'plash, uzatish va qayta ishlash, boshqaruv buyruqlari ko'rinishida axborot berish va uni ijrochilarga etkazishdan iborat.

Axborotning quyidagi turlari mavjud: statistik, operativ, iqtisodiy, hisob, moliya, ta'minot, kadrlar bo'yicha, texnologik, konstruktorlik, marketing, ijtimoiy va boshqalar.

Ishlab chiqarishni boshqarishda iqtisodiy axborot alohida o'rin egallaydi, chunki u kishilarning moddiy boyliklarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonidagi munosabatlarini aks ettiradi. SHu bilan birga fan-texnika taraqqiyoti asosida ishlab chiqarish rivojlanishini aks ettiruvchi ilmiy-texnikaviy axborot ahamiyatini ham ta'kidlab o'tish lozim.

Kelib chiqish manbasiga bog'liq ravishda axborot tashqi va ichki axborot turlariga bo'linadi. Tashqi axborot tashqi muhitdan olinadigan xabarlardan iborat bo'ladi. Bular jumlasiga, yuqori tashkilotlar farmoyishlari, reja topshiriqlari, mahsulotni sotish shartlari haqida axborotlar kiradi. Ichki axborot korxonaga yoki uning boshqaruv bo'g'inida shakllanib, iste'mol qilinadi. Korxonaga miqyosida ular jumlasiga tseklar tomonidan rejaning bajarilishi, moddiy-texnikaviy ta'minot, mahsulot tannarxi, kadrlar, mehnat unumdorligi haqida axborotlar kiritilishi mumkin.

Yo'nalishi bo'yicha axborot – boshlang'ich va boshqaruvchi (rahbarlik) axboroti turlariga bo'linadi. Rahbarlik axboroti boshlang'ich axborotni qayta ishlash asosida qaror qabul qilish natijasidir. Boshlang'ich axborot doimo boshqaruv tizimining quyi darajasidan yuqoriroq darajaga qarab harakat qiladi, rahbarlik axboroti esa teskari yo'nalishda harakatlanadi.

Axborot vaqt o'tishi bilan turli ahamiyat kasb etadi. Barqarorlik darajasi bo'yicha uni barqaror shartli-barqaror, o'zgaruvchan turlarga bo'lish mumkin. Barqaror axborot uzoq muddat davomida o'z ahamiyatini o'zgartirmaydi (korxonaga, uning bo'linmalari nomi, mahsulot turi). Shartli-barqaror axborot ahamiyati ma'lum muddat davomida saqlanib turadi. Korxonaga miqyosida bunday axborotga turli me'yor va me'yoriy hujjatlarni (moddiy, mehnat sarfi, tariflar me'yori)ni kiritish mumkin. Axborotning bunday turi korxonaga bo'yicha umumiy axborotning 35%dan ko'pini tashkil etadi. O'zgaruvchan

axborot boshqaruv obyekti faoliyati va unga mos holda boshqaruv jarayonlari o'zgaruvchanligini aks ettirib, qaror qabul qilish uchun tez qayta ishlashni talab etadi.

Boshqaruv faoliyatida shuningdek, boshlang'ich axborotni qayta ishlash natijasida olingan hosila (ikkilamchi) axborotdan ham foydalaniladi.

Axborotni ro'yxatga olish va saqlash maqsadida uni saqlovchi turli vositalar inson xotirasi, hujjat, perforatsiya kartalari, magnit lentalar, baraban disk, elektr impul'slar kombinatsiyasidan foydalaniladi.

Axborot yig'indisi boshqaruvning axborot tizimini tashkil etib, u boshqaruv jarayonini axborot bilan ta'minlash shaklida namoyon bo'ladi. Axborot to'g'ri, aniq, o'z navbatida, obyektiv. Mazmunli va qarorlarni qabul qilish uchun tushunarli bo'lishi kerak. Axborot hajmi jihatidan kichik, mazmun jihatidan chuqur, uning matni tushunarli va sodda bo'lishi lozim. Korxonani axborot bilan to'g'ri aloqalar ko'rinishidagi turli-tuman axborot oqimlari vositasida ta'minlanib, ular aniq ishlab chiqarish vazifasini hal etish imkonini beradi.

Zamonaviy yirik korxonalarda axborot hajmi million hujjat satrigacha etadi, bu o'rinda barcha axborot tez qayta ishlanishi zarurligini ham inobatga olish zarur. Masalan, sobiq Toshkent aviatsiya zavodida kundalik birlamchi axborot million ko'rsatkichni tashkil etar edi. Bunday sharoitda axborot bilan ishlashni tashkil etish bo'yicha quyidagi qator muammolarni hal etish lozim bo'ladi:

- 1) maqbul axborot tizimini ishlab chiqishi;
- 2) axborot oqimlarini shakllantirish usullarini ishlab chiqish;
- 3) axborot qabul qilish va yuborishning maqbul usullarini tanlash;
- 4) axborotni saqlash va izlashni tashkil etish;
- 5) axborotni qayta ishlash jarayonini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish.

Bu yo'nalishda olib boriladigan barcha ishlar axborotni yig'ish va qayta ishlashning yagona umumdavlat tizimini yaratishni ta'minlashi zarur. Axborotlar yig'indisi boshqaruvning axborot tizimini tashkil etadi. Axborot tizimi - hujjatlar axborot oqimlari, aloqa kanallari va boshqaruv obyektining texnikaviy vositalarini qamrab oluvchi murakkab axborot majmuidir. Boshqaruv obyektining qandaydir bir qismi bo'yicha axborot yig'indisi kichik tizimni tashkil etadi. Maqbul axborot tizimini tashkil etish boshqaruvning u yoki bu tashkiliy tizimini loyihalashtirish va uning samarali faoliyat yuritishining muhim shartlaridan bo'lib hisoblanadi.

Axborot tizimlari oddiy va murakkab tizim bo'lishi mumkin. Oddiy axborot tizimi uni qayta ishlashni talab etmaydi, axborot manbasidan u iste'mol

qilinish joyigacha etkazishda o'zgarish yuz bermaydi. Bunday axborot telefon yoki boshqa xabar berish vositalari yordamida bir marta beriluvchi xabar sifatida etkaziladi. Murakkab axborot tizimlari axborotni qayta ishlashning mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish darajasi bo'yicha turlarga ajratiladi. Birinchi guruhga qo'lda yoki eng oddiy mexanizmlar yordamida qayta ishlanuvchi axborot tizimlari kiradi. Ikkinchi guruhga axborotni to'plash, qabul qilish va qayta ishlashda mexanizatsiya keng qo'llaniladigan axborot tizimlari kiradi. Uchinchi guruhga ma'lumotlarni kompleks mexanizatsiya vositasi bilan birga avtomatlashtirish elementlarini qo'llab qayta ishlash va to'plash qo'llanilgan axborot tizimlari kiradi.

Axborot qabul qilish, uzatish va qayta ishlash tsikli avtomatlashtirilgan axborot tizimi to'rtinchi guruhni tashkil etadi.

Axborotni qayta ishlashda EHMlar qo'llaniladigan boshqaruv tizimlari avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi (ABT) nomini olgan. ABT quyidagi vazifalarni bajaradi:

- axborot qabul qilish;
- axborotni qayta ishlash;
- axborotni saqlash va yig'ish;
- boshqaruv tashkilotiga axborot berish;
- ijrochilarga buyruq uzatish.

Ilg'or axborot tizimini loyihalashtirish jarayoni quyidagi vazifalarni amalga oshirishga asoslanishi lozim:

- korxonada mavjud axborot tizimini tahlil qilish, axborotning asosiy yo'nalishlarini o'rganish;
- axborot tizimining iqtisodiy modelini ishlab chiqish;
- zarur axborot hajmi va mazmunini aniqlash;
- axborot to'plash va qayta ishlash uchun texnikaviy vositalarni aniqlash;
- axborotni qayta ishlash texnologiyasini yaratish;
- axborot vujudga kelishi va foydalanish davriyligini belgilash;
- korxonada qo'llaniladigan axborot uchun shifrlar tizimini yaratish;
- axborotni uzatish va qayta ishlashni avtomatlashtirish va mexanizatsiyalashtirish qulay bo'lishi uchun standart ma'lumotlarni loyihalashtirish;
- loyihalashtirish jarayonida olingan barcha materiallarni tartibga solish va rasmiylashtirish.

Bozor sharoitida ishlab chiqarish axborot tizimlarini ular rivojlanishi va loyihalashtirishga tizimiy yondashish asosida kompleks tashkil etishni talab etadi. Bu talablarga ma'lumotlarni qayta ishlashning integratsion tizimi javob beradi. Uni turli darajadagi zamonaviy hisob mashinalari, EHM, inson mashina tizimini har tomonlama qo'llash asosida loyihalashtirish mumkin.

Kommunikatsiya - bu axborot almashishdir. Ana shu axborot negizida rahbar ma'lumotlar olib, samarali qarorlar qabul qiladi va ishchi xodimlarga etkazadi.

Rahbarlik faoliyati samarali axborot almashinuvni talab qiladi. Agar insonlar o'zaro axborot almashinmasa, ular birgalikda ishlay olmaydilar va oldilariga qo'ygan maqsadning shakllanishi, unga erishishi qiyin bo'ladi.

Boshqaruv faoliyatida axborot almashuv muhim ahamiyatligi uchun rahbar o'zining vaqtini 50% - 90%ni kommunikatsiyaga sarflaydi. Axborot almashishning sifati boshqaruv qarorlariga ta'sir ko'rsatadi.

Kommunikatsiyaning majlislar, xizmat yozuv-chizuvlari, telefon orqali muloqotlar, hisobotlar, videotasmalar va yuzma-yuz suhbatlar orqali ko'pgina muammolarni hal qilishda yordam beradi.

Korxonada tashqi muhit bilan aloqa bog'lashda, turli-tuman vositalardan foydalanadi. Mavjud xaridorlar bilan ular reklama orqali bog'lanibgina qolmay, mahsulotni bozorga olib kiradigan boshqa dasturlardan ham foydalanadi.

Axborotlar korxonada ichida bosqichma-bosqich, ya'ni vertikal kommunikatsiyalar orqali o'tadi. Axborotlar yuqori boshqaruv organlaridan, pastki organlarga o'tadi. SHuningdek, pastki organlardan yuqori boshqaruv bo'limlariga axborotlar oqimi keladi. Aynan ikkinchi jarayon korxonalarda ijobiy o'zgarishlarga olib keladi.

Korxonada vertikal kommunikatsiyalardan tashqari, gorizontal kommunikatsiyalar ham mavjud. Ma'lumki korxonalarda turli-xil funktsional bo'limlar, tseklar va boshqa bo'limlarning mavjudligi ular orasidagi axborot oqimining kerakligini anglatadi. Masalan, fundamental texnologiya asosida, korxonada turli-xil mahsulotlar ishlab-chiqarishi mumkin, shuning uchun ham marketing bo'limining axborot ahamiyatligini saqlab qoladi va uning talablarini o'z vaqtida qondirilishini ta'minlaydi.

Axborot texnologiyalari mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli bo'lib, quyidagilar hisoblanadi: mazkur fan mavzulari bo'yicha tarqatma materiallar tayyorlash: tegishli mavzular bo'yicha referatlar yozish; fan mazmunini boyitish va uning ma'lumotlarini yangilab borishda axborot zaxiralaridan foydalanishni yo'lga qo'yish; fanning mazmunini yanada takomillashtirish maqsadida tavsiya etilgan chet el adabiyotlari ma'lumotlarini tarjima qilish va fanga tatbiq etish, talabalar fanni mukammal o'zlashtirish maqsadida mazkur fanga oid muammolarni hal qilish yo'llarini izlab topish va muammolarni maqolalar orqali yoritish.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni: talabalarning mustaqil ishlari mavzulari kelgusida bajariladigan kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlari mavzulari bilan uzviylikda bajariladi.

Axborot texnologiyalari mustaqil ta'limni tashkil etishda muhim rol o'ynab, quyidagi omillarga asoslanishni tavsiya etadi:

1. Sport menejment xodimlarining kasbiy faoliyati.
2. Sport menejmentining asosiy va aniq funktsiyalari.
3. Sport menejmentining funktsional tarmoqlari va ularni boshqaruv usullari.
4. Menejerlikning soha faoliyati bo'yicha alohida ko'rsatkichlariga mos rahbarlik uslublari.
5. Respublikada jismoniy tarbiya va sportni boshqarish shakllari, umumiy va maxsus vakolatli organlar.
6. O'zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya Qo'mitasi boshqaruv tashkilotlari tizimida.
7. O'zbekiston Respublikasida sport sanoatini rivojlantirishning maqsadli kompleks dasturi.
8. Jismoniy tarbiya va sport sohasida mehnat munosabatlari.
9. Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha faoliyatning moddiy texnik ta'minoti.
10. Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari xodimlarini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish shakllari.
11. Boshqaruv qarorlari tasnifi. Sport menejmentida qaror qabul qilish texnologiyasi.
12. Sport menejmentida qaror qabul qilish texnologiyasi va uslublari.
13. Sport tashkilotlarini tashkil etish texnologiyasi va faoliyatni litsenziyalash.
14. Sport tashkilotining biznes-rejasi, maqsadi, strukturasi va tuzilishi.
15. Sport musobaqalarining turi, vazifalari va tamoyillari.
16. Sport musobaqalarini o'tkazish tizimi va boshqarish.
17. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi maqsadli kompleks dasturlar.
18. Xorijiy mamlakatlarda sport klublarining menejmenti.
19. Sport sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan xususiy klublar.
20. O'zbekistonda professional sportni boshqarishning tashkiliy shakllari.
21. Xorijiy mamlakatlar va Respublikadagi professional sportchining ijtimoiy-huquqiy mavqei.
22. Menejer faoliyatida axborot ta'minotning ahamiyati.
23. Innovatorlik holati, boshqaruv tsikli, qaror qabul qilish tamoyillari va motivatsiya haqida axborot ta'minoti.

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy (xususan, interfaol) uslublari, pedagogik va axborot kommunikatsiya (mediata'lim, amaliy

dastur paketlari, taqdimot, elektron didaktik) texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan.

Takrorlash uchun savollar:

1. Menejer faoliyatida axborot ta'minotning ahamiyati qanday?
2. Axborot ta'minotning mazmuni: sport axboroti, statistik axborot, hisobot ma'lumotlar nima?
3. Innovatorlik holati, boshqaruv tsikllari nima?
4. Qaror qabul qilishda axborot ta'minotining ahamiyati qanday?
5. Sport menejmentida kommunikatsiya nima?
6. Sport menejeri faoliyatida axborot texnologiyalar nima?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
2. Gulyamov Z.T., Akbarov F.S. Osnovi menejmenta i ego osobennosti v usloviyax formirovaniya rinka v Uzbekistane. – T.: TGAI, 2006.
3. Gulyamov Z.T., Nabiullin R.X., Kamilova G.Z. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti. Darslik. –T.: O'zDJTI, 2015.
4. Meskon M., Al'bert M., Xedouri F. Osnovi menejmenta. – M., 1995.

Elektron ta'lim resurslari:

Internet saytlari

1. www.bilim.uz
2. www.ekonomika.ru
3. www.menejment.com
4. **Ошибка! Недопустимый объект гиперссылки.** sayti
5. **Ошибка! Недопустимый объект гиперссылки.** sayti
6. www.performance.edu.uz - Vazirlik sayti

5.2. Sport menejmentda jarayonlarni axborot bilan ta'minlash

Reja:

1. Sport menejmentda axborot.
2. "Informatsiya" axborot - atamasi, xabardorlik, biror hodisa yoki biror kishi faoliyati haqida ma'lumot.
3. Sport tovarlarini ishlab chiqarish axboroti.
4. Sportda boshqaruvchi va boshqariluvchi tizimlar o'rtasida aloqa.
5. Boshqaruvchi tizimning boshqariladigan tizimdan axborot olishi.

6. Boshqaruvchi tizimning olingan axborot asosida boshqariluvchi tizimni takomillashtirishi.
7. Boshqarish jarayoni, boshqaruv qarorlarini qabul qilish.

Tayanch so'z va iboralar:

Axborot, kommunikatsiya, kommunikatsion jarayon, boshqarish texnikasi, vertikal kommunikatsiya, gorizontal kommunikatsiya, axborotni almashish jarayoni, axborotni uzatish kanallari, fil'tratsiya, qayta aloqa, semantika.

Sport boshqaruv jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirishda uni axborot bilan ta'minlash katta ahamiyat kasb etadi. "Informatsiya" axborot - atamasi lotincha so'z bo'lib, xabardorlik, biror hodisa yoki biror kishi faoliyati haqida xabarga ega bo'lish ma'nosini bildiradi. Axborot boshqaruv tizimini rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida faol ta'sir etish uchun zarur ma'lumotlar yig'indisidan iboratdir. Etarli va aniq axborotga ega bo'lmay turib uni boshqarish mumkin emas.

Ishlab chiqarish axboroti boshqaruvchi va boshqariluvchi tizimlar o'rtasidagi aloqa usulidir. Boshqaruvchi tizim boshqariladigan tizimdan ishlab chiqarish holati va uning ho'jalik faoliyati to'g'risida axborot oladi. Boshqaruvchi tizim - olingan axborot asosida boshqariluvchi tizim faoliyatiga baho beradi. Boshqarishni yanada takomillashtirish maqsadida ko'rsatma, farmoyishlar chiqarilib, boshqariluvchi tizimga ijro uchun yuboradi.

Axborot boshqaruv tizimi alohida bo'g'in bo'lib hisoblanadi. Unga qator o'ziga xos xususiyatlar mansub bo'lib, ular axborot boshqaruvining barcha bo'g'inlari va vazifalarini qamrab olishiga bog'liqdir. Axborot - bu boshqaruv apparati faoliyatining ham dastlabki nuqtasi, ham natijasidir. Shuningdek, amalga oshirilayotgan harakatlar mavjudligi sharti, mustahkamlash usulidir. Axborot hajmining ortishi bilan boshqaruv axborotining sifat ko'rsatkichlariga bo'lgan talab ham ortib boradi.

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy (xususan, interfaol) metodlari, pedagogik va axborot kommunikatsiya (mediata'lim, amaliy dastur paketlari, taqdimot, elektron didaktik) texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan.

Boshqaruv texnikasi - bu aqliy mehnat texnikasi, boshqaruv tizimida axborotni qayta ishlash texnikasi. Texnika vositalari qanchalik takomillashgan bo'lsa boshqaruv texnologiyasi, boshqaruv mehnatini tashkil etish va butun boshqaruv jarayoni shunchalik samarali bo'ladi. Hisoblarga asosan mamlakat iqtisodiyotini maqbul boshqarish uchun yil davomida 10 ta elementar arifmetik

operatsiya bajarishi zarur bo'lsa, boshqaruv apparati xodimlari 10 ta, ya'ni 10 ming marta kam operatsiya bajarish qobiliyatiga ega ekanlar. Bu muammoni muvaffaqiyatli hal etish uchun boshqaruv mehnatini takomillashtirish, axborot to'plash va qayta ishlashni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish zarur. Boshqaruv texnikasini faqat hisoblash mashinalari bilangina bog'lash noto'g'ridir. Dastlabki texnika vositalari 100 yil burun paydo bo'lgan ruchka, chizg'ichdan tortib, EXM va komp'yutergacha bo'lgan texnika vositalarini quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin: orgtexnika va hisoblash mashinalari.

Orgtexnika vositalariga turli-tuman uskuna va qurollar (oddiy qurol va vosita, axborot olish va qayta ishlash, ko'chirish, ko'paytirish, aloqa vositalari va axborot uzatish, xizmat ko'rsatish, xizmat xonalari uskunalari) kiradi. Boshqaruv mehnati turli oddiy qurol va uskunalaridan (qalam, ruchka, idora daftarlari, jadval, grafik va boshqalar) foydalanishga asoslanadi. Eng so'nggi avlodagi EHM va komp'yuterlar oddiy texnika vositalari (qalam va chizg'ich) o'rnini to'liq bosa olmaydi. Qulay, oddiy chidamli bu vositalar texnika vositalari singari juda muhimdir. Oddiy qurol va uskunalarni axborotni qayta ishlash bosqichlari bo'yicha guruhlariga ajratish mumkin. Bu avvalo, yozuv vositalari (qalam, ruchka, mo'yqalam, trafaret), tasvir vositalari (grafik, diagramma, nazorat va nozirlik oynalari, marshrut sxemalari), hujjatlar saqlash vositalari (tokcha, konvert, kartoteka, pefokarta va h.k.), axborot qabul qilish va mustahkamlash vositalari (tarozi, soat, hisob mashinasi, o'lchov vositalari, ko'chiruvchi mashinalar), aloqa vositalari (telefon, ATS, rahbar va dispecher kommutatori, radio aloqa, radiofon, signal uskunalari, ovoz berish uskunalari), axborot uzatuvchilar (ovoz, nur, kartochna, oyna, metall), boshqaruv mashinalarida qo'llaniladigan axborot uzatuvchilar (magnit lentalar, disklar, kog'oz).

Kommunikatsiya - bu axborot almashishdir. Ana shu axborot negizida rahbar ma'lumotlar olib, samarali qarorlar qabul qiladi va ishchi xodimlarga etkazadi.

Rahbarlik faoliyati samarali axborot almashinuvni talab qiladi. Agar insonlar o'zaro axborot almashinmasa, ular birgalikda ishlay olmaydilar va oldilariga qo'ygan maqsadning shakllanishi, unga erishishi qiyin bo'ladi.

Boshqaruv faoliyatida axborot almashuv muhim ahamiyatligi uchun rahbar o'zining vaqtini 50% - 90%ni kommunikatsiyaga sarflaydi. Axborot almashishning sifati boshqaruv qarorlariga ta'sir ko'rsatadi.

Kommunikatsiyaning majlislar, xizmat yozuv-chizuvlari, telefon orqali muloqotlar, hisobotlar, videotasmalar va yuzma-yuz suxbatlar orqali ko'pgina muammolarni hal qilishda yordam beradi.

Korxonada tashqi muhit bilan aloqa bog'lashda, turli-tuman vositalardan foydalanadi. Mavjud xaridorlar bilan ular reklama orqali bog'lanibgina qolmay, mahsulotni bozorga olib kiradigan boshqa dasturlardan ham foydalanadi.

Axborotlar korxonada ichida bosqichma-bosqich, ya'ni vertikal kommunikatsiyalar orqali o'tadi. Axborotlar yuqori boshqaruv organlaridan, pastki organlarga o'tadi. Shuningdek pastki organlardan yuqori boshqaruv bo'limlariga axborotlar oqimi keladi. Aynan ikkinchi jarayon korxonalarda ijobiy o'zgarishlarga olib keladi.

Korxonada vertikal kommunikatsiyalardan tashqari, gorizontal kommunikatsiyalar ham mavjud. Ma'lumki korxonalarda turli-xil funksional bo'limlar, tsexlar va boshqa bo'limlarning mavjudligi ular orasidagi axborot oqimining kerakligini anglatadi. Masalan, fundamental texnologiya asosida, korxonada turli-xil mahsulotlar ishlab-chiqarishi mumkin, shuning uchun ham marketing bo'limining axborot ahamiyatligini saqlab qoladi va uning talablarini o'z vaqtida qondirilishini ta'minlaydi.

Axborot boshqaruv tizimida alohida bo'g'in bo'lib hisoblanadi. Unga qator o'ziga xos xususiyatlar mansub bo'lib, ular axborot boshqaruvining barcha bo'g'inlari, barcha vazifalarini qamrab olishiga bog'liqdir. Axborot - bu boshqaruv apparati faoliyatining ham dastlabki nuqtasi, ham natijasidir, shuningdek, amalga oshirilayotgan harakatlar mavjudligi sharti, mustahkamlash usulidir. Axborot hajmi ortishi bilan boshqaruv axborotining sifat ko'rsatkichlariga bo'lgan talab ham ortib boradi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Sport menejmentida axborotlarning ko'rinishi qanday?
2. Iqtisodiy axborotni qanday tushunasiz?
3. Sport menejmentida axborotlarning roli qanday?
4. Ichki va tashqi axborotlar mohiyati nimada?
5. Rahbar ishida axborot qanday rol' o'ynaydi?
6. Menejmentda kommunikatsiya roli qanday?
7. Boshqaruv texnikasi - bu aqliy mehnat texnikasimi?
8. Boshqaruv tizimida axborotni qayta ishlash texnikasimi?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. –T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
2. Gulyamov Z.T., Nabiullin R.X., Kamilova G.Z. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti. Darslik. –T.: O'zDJTI, 2015.
3. Meskon M., Al'bert M., Xedouri F. Osnovi menejmenta. – M.: ANX, 1995.

4. Prchinkin A.V. Menedjment v sfere fizicheskoy kulturi i sporta. –M.: Sovetskiy sport, 2010.

Elektron ta'lim resurslari:

Internet saytlari

1. www.bilim.uz
2. www.ekonomika.ru
3. www.menejment.com
4. www.edu.uz-Vazirlik sayti
5. www.ziyo.edu.uz-Vazirlik sayti
6. www.performance.edu.uz-Vazirlik sayti.

5.3. Boshqaruv qarorlarining mohiyati va ularga qo'yiladigan talablar

Reja:

1. Boshqaruv qarorlari tasnifi.
2. Sport menejmentida qaror qabul qilish texnologiyasi.
3. Sport menejmentida qaror qabul qilish texnologiyasi va uslublari.
4. Qarorlarning bajarilishini nazorat qilish.
5. Biznes reja va uni bajarilish nazoratini tashkillashtirish.
6. Tadbirkorlik faoliyatini yuritish va samarali ko'rsatkichlarni ommaviylashtirish.

Tayanch so'z va iboralar:

Boshqaruv qarorlari, sinf, qaror qabul qilish texnologiyasi, menejmentida qaror qabul qilish uslublari, qarorlarning bajarilishi, nazorat, biznes reja, nazoratini tashkillashtirish. Tadbirkorlik faoliyati, samarali ko'rsatkichlar, ommaviylashtirish.


Sportni boshqaruv jarayon sifatida talqin etiladi, chunki boshqalar yordamida maqsadlarga erishish uchun qilinadigan ish – bu qandaydir bir vaqtda qilinadigan harakatlar emas, balki muntazam o'zaro bog'liq harakatlar seriyasidir. Har biri o'ziga xos jarayon hisoblangan ushbu harakatlar tashkilotning muvaffaqiyati uchun juda muhimdir. Har bir boshqaruv funktsiyasi ham jarayonni namoyon etadi. Chunki ularning har biri o'zaro bog'liq harakatlar seriyasidan iboratdir. Boshqaruv jarayoni barcha funktsiyalarning umumiy yig'indisi hisoblanadi.

Ushbu kontseptsiyaning dastlabki ishlab chiquvchisi hisoblangan Anri Fayol beshta asosiy funktsiya mavjud deb hisoblaydi. Uning aytishicha: “boshqarish degani - oldindan bashorat qilish va rejalashtirish, tashkil etish, buyruq berish, muvofiqlashtirish va nazorat qilishni bildiradi”. Boshqa mualliflar tomonidan boshqacha funktsiyalar ro'yxati ishlab chiqilgan. Zamonaviy adabiyotlarda quyidagi funktsiyalar o'z ifodasini topadi: rejalashtirish, tashkil etish, buyruq berish, motivatsiya, rahbarlik, muvofiqlashtirish, nazorat, kommunikatsiya, tadqiq qilish, baholash, qaror qabul qilish, ishchi xodimni tanlash, vakillik va muzokaralarni olib borish yoki bitimlar tuzish.

M.Meskon, A.Meskon va F.Xedourilarning fikriga ko'ra, boshqaruv jarayoni rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiya va nazorat kabi funktsiyalardan iborat. Boshqaruvning ushbu to'rtta funktsiyasi kommunikatsiya va qaror qabul qilish kabi bog'lovchi jarayonlar bilan birlashtiriladi. Rahbarlik mustaqil faoliyat sifatida e'tirof etiladi. Rahbarlik alohida ishchilar va ishchilar guruhiga ta'sir ko'rsatish imkoniyatini shunday tarzda nazarda tutadiki, bunga ko'ra ular tashkilotning muvaffaqiyati uchun nihoyat darajada muhim bo'lgan maqsadlarga erishish yo'lida ishlashadi.

5.3.1 - rasm

Boshqaruv jarayoni funktsiyalarining tizimi




Menejment jamiyat qonunlari tizimiga asoslanadi. Nazariy jihatdan tushunmay va asoslanmagan holda birorta yirik amaliy masala hal etilishi mumkin emas. Nazariya yangilanishning muhim usulidir. Fan esa voqelik haqida obyektiv bilimlarni o'rganish va tartibga solishga qaratilgandir. Bilimlarni tartibga solinishi qonunlarda ifodalanadi.

Qonun - falsafiy kategoriya bo'lib, borliq voqealarning barqaror, takrorlanuvchan aloqasi va munosabatini, hodisalar yuz berishining aniq tartibda bo'lishiga olib keluvchi tomonlarini aks ettiradi. Qonunlarni bilish rivojlanishning obyektiv yo'nalishlarini aniqlash, amaliy vazifalarni hal etish imkonini beradi. Shu sababli iqtisodiyotni boshqarish qonunlarni bilish, ularni amalda ustalik bilan qo'llay olishga asoslanishi kerak.

Umumiy falsafiy qonunlar materiya, harakat, makon, zamon, miqdor, sifat, sabab, oqibat, shakl, mazmun kabi toifalar vositasida ifodalanadi. Iqtisodiy nazariya qonunlari iqtisodiy toifalar vositasida (mulk, ishlab chiqarish, talab, taklif, taqsimot, ayirboshlash, qiymat, narx, foyda, tovar, pul, muvozanatlanish) ifodalanadi.

5.3.2 – rasm

Iqtisodiy qonunlar tizimidan foydalanishning asosiy unsurlari va bosqichlarining sxemasi



Iqtisodiyotni boshqarishda qonunlardan qanchalik to'liq va izchil foydalanilsa, mehnat sarfi shunchalik samarali bo'ladi. Va aksincha, boshqarish jarayonida iqtisodiy qonunlarni hisobga olmaslik jamiyat uchun kutilmagan, salbiy oqibatlarga olib keladi. Shu sababli boshqaruv qonunlarini o'rganishda faqat amal qilishni emas, balki boshqaruv jarayonida ongli ravishda qo'llanilishni ham ko'zda tutish lozim. Boshqaruv qonunlaridan ongli ravishda foydalanishning ko'p jihatdan ularni o'rganish bilan bog'liq. Qonunlar qanchalik chuqur o'rganilsa, ulardan amalda to'g'ri foydalanish imkoniyatlari ortadi.

Lekin boshqaruv qonunlarini bilish ularni aniq amaliyotda muvaffaqiyatli qo'llash uchun kafolat bo'lolmaydi. Qonunlarni bilishda nazariya amaliyotdan ajralib qolishi foydasizdir. Demak, qonunlardan foydalanish ularni bilish, tushunish, amalda o'z vaqtida va to'g'ri qo'llay olishga bog'liq ekan. Bu boshqaruv samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omildir.

Ko'rsatilgan sxemani tahlil etish jarayonida uchta o'zaro bog'liq va ketma-ket, iqtisodiy qonunlar tizimidan foydalanilgan holda echiladigan masalalarni ko'rib o'tish zarur:

- mavjud qonunlarni, ularning u yoki bu bosqichda namoyon bo'lish xususiyatlarini hisobga olgan holda chuqur va har tomonlama bilish;
- iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish maqsadlarini belgilash va ularni hal etish yo'llarini aniqlash;
- xo'jalik yuritishning bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlantirish va unga mos shakl va uslublarini qo'llash.

Boshqaruv qarori - keng ma'noda jamiyatdagi moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni real qondirilish imkoniyatlari bilan bir nuqtada kesishuvi xalq xo'jaligidagi bir nuqtada kesishuvi. Xalq xo'jaligidagi bu muammoning echimi mavjud qonunlar, farmonlarning bizga bog'liq bo'lmagan qonuniyatlarning bir-biriga muvofiq kelishishidir. Boshqaruv qarori – shuningdek, korxonada oldida turgan maqsadlar va vazifasini amalga oshirish demakdir. Aynan shu jarayonda yuzlab, minglab insonlar o'z ehtiyojlarini qondiradi, mavqega ega bo'ladi, har tomonlama o'sadi va umuman jamiyat o'sadi.

Qarorlarni ishlab chiqarish va amalda qo'llash rahbarning keyingi faoliyatidagi siljishlariga bog'liq. Bitta muammo bo'yicha bir necha qarorlar ishlab chiqiladi va ulardan bittasi amalda qo'llaniladi. Bu qarorlar tasnifi muhim nazariy va hayotiy ahamiyatga ega.

Boshqaruv faoliyatining samaradorligi nuqtai nazaridan qarorlar quyidagi turlarga bo'linadi: strategik va operativ.

Strategik qaror - bu korxonaning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan maqsad va vazifalarning shakllanishi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida bu qarorlar korxonaning faoliyatidagi yangicha yondashuvlar, keskin burilishlarni silliq o'tishini ta'minlaydi. Strategik qarorlar korxonada, hudud, soha darajasida qarorlar jamiyatdagi yangi manbalar hisobiga butun iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni echishga yordam beradi.

Operativ qarorlar – bu mohiyati bo'yicha xo'jalik boshqaruv qarorlaridir. Ular boshqariladigan obyektning uzluksiz ishlash jarayonini qo'llab-quvvatlashi uchun joriy shaxsiy muammolar bo'yicha qabul qilinadi. YA'ni, uning murakkab mexanizmini struktura va o'zaro aloqalarni o'zgartirishdan ushlab turishdir. Bu qarorlarni rahbar maxsus tayyorgarliksiz etarlicha tez qabul qiladi. Bunday qarorlarga xodimlarni ishga olish va bo'shatish, ularning ish haqlarini o'zgarishi, korxonani qishga tayyorlash haqidagi va shu kabi hujjatlarni kiritish mumkin.

Harakat doirasi bo'yicha boshqaruv qarorlarini iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy, texnik va texnologik qarorlarga bo'lish mumkin.

Shuningdek, boshqaruv qarorlari boshqaruv darajasi bo'yicha ham quyidagi bosqichda bo'linadi: usta, uchastka boshlig'i, sex boshlig'i, ishlab chiqarish boshlig'i, korxonada va birlashma rahbari, vazir va h.k.

Qarorlar ta'sir qilish yo'nalishi bo'yicha tashqi va ichki guruhda bo'ladi. Tashqi qarorlar boshqa darajaga qaratiladi, ichki qarorlar esa alohida bo'limlar yoki korxonani qamrab oladi.

Boshqaruv qarorlari funktsional mazmuni bo'yicha iqtisodiy, tashkiliy, koordinatsion, rag'batlantiruvchi, boshqaruvchi va nazorat qarorlarga bo'linadi.

Qayta ishlashni tashkillashtirish bo'yicha shaxsiy, hamkasbiy va malakaviylarga bo'linadi. Shaxsiy qarorlar rahbarning jamoadagi kelishuvsiz va muhokamasiz yoki alohida shaxslar tomonidan ishlab chiqariladi. Ko'pincha bular korxonada taraqqiyoti yo'lidagi printsipial muammolarga daxli bo'lmagan operativ qarorlardir. Qarorlar asosan moddiy tayyorgarlik talab qiladigan, bir guruh mutaxassislar va rahbarlar tomonidan ishlab chiqariladigan va qabul qilinadigan qarorlardir. Ular har tomonlama mazmunga egadirlar. Jamoa qarorlari mansab yoki xodimlardan qat'iy nazar butun ishtirokchilar tomonidan umumiy majlisda ishlab chiqariladi. Bunday qarorlar ishlab chiqarishning baholi savollarini ko'rib chiqishda qabul qilinadi.

Mehnat turi bo'yicha qarorlar standart va nostandart qarorlarga bo'linadi. Standart, ba'zan dasturiy qarorlar - bu qarorlarning o'zini ishlab chiqish va uni qabul qilish jarayonidagi qarorlardir. Dasturlash va uni qabul qilish jarayonidagi qarorlardir. Dasturlash mumkin bo'lgan qarorlar orasida shunday standart bosqichga etdiki, ularni matematik model shaklida tasvirlash mumkin. Ya'ni, EHMning texnik ishiga ahamiyatli qismni kiritish imkoniyati tug'iladi. Ijodiy qarorlar har doim jadallik va yangilikda namoyon bo'ladi. Biroq nostandartlikning xarakterini diqqat bilan tahlil qilish zarur. Chuqur, keng tahlilda bu hollarni unchalik va yangi emasligini ko'rish mumkin, agarda uni bir qator alohida muammolarga bo'lib chiqsa.

Shu tariqa boshqaruv qarorlari inson faoliyatining har qanday doirasida tashkiliy boshlanishi bo'lib hisoblanadi. Uning asosida qonunlar tasdiqlanadi. Material-texnik, moliyaviy va mehnat zaxiralari ishlatishni rejalashtirish, ijrochilar va rahbarlar mas'uliyati oshiriladi va maqsadga etishish yo'lida ularning o'rnini belgilanadi.

Bozor munosabatlari mezonida boshqaruv qarori menejmentning bosh omili hisoblanadi, qaysiki, unda korxonada, tarmoq taraqqiyotining butun iqtisodiy va ijtimoiy muammolari kesishadigan va bir joyda to'planadi. Boshqaruv qarorlarining samarasiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi:

- rahbariyatning yoki guruhning shaxsiy sifatleri;
- qarorni ishlab chiqishdagi sharoitning axborot ta'minoti;
- tashkiliy xarakter omillari (qarorni ishlab chiqishda mutaxassislarni taklif qilish, usullar tizimi va qabul kilingan qarorni bajaruvchilarga etkazish shakli, nazorat tizimi va h.k.);
- texnik omillar (EHM texnik vositalaridan foydalanish va h.k.);
- qarorni ishlab chiqish, qabul qilish va amalga oshirishdagi vaqtinchalik omillar.

Bundan kelib chiqqan holda boshqaruv qarorlariga asosiy talablar quyidagilardir:

1. Qabul qilinadigan qarorning demokratligi;
2. Ilmiy asoslash;
3. Aniq yo'nalganlik;
4. Aniq yo'naltirilganlik;
5. Vaqt bo'yicha qisqalik va aniqlik;
6. Qarorni bajarish operativligi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Sport menejmentida qaror qabul qilish texnologiyasi qanday?
2. Qarorlarning bajarilishini nazorat qilish qanday?
3. Biznes reja va uni bajarilish nazoratini tashkillashtirish nima?
4. Tadbirkorlik faoliyatini yuritish qanday izohlanadi?
5. Samarali ko'rsatkichlarni ommaviylashtirishda nimani tushunasiz?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
2. Gulyamov Z.T., Nabiullin R.X., Kamilova G.Z. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti. Darslik. –T.: O'zDJTI, 2015.
3. Meskon M., Al'bert M., Xedouri F. Osnovi menejmenta. – M.: ANX, 1995.

Elektron ta'lim resurslari:

Internet saytlari

1. www.bilim.uz
2. www.ekonomika.ru
3. www.menejment.com
4. www.edu.uz-Vazirlik sayti

5.4. Sport menejmentida boshqaruv qarorlarini qabul qilish

Reja:

1. Sport menejmenti amaliyotida boshqaruv qarorlari.
2. Sport murabbiylarining faoliyat harakatinnig umumiy sxemasi.
3. Sport menejmentida qaror qabul qilishda rahbarning vazifalari.
4. Sport menejmentida qarorlar qabul qilish xususiyatlari.
5. Sport menejmentida boshqaruv qarorlarining bosqichlari.
6. Bozor iqtisodiyoti sharoitida sport menejmentida qaror qabul qilish xususiyatlari, bosqichlari va bosqichlari, uslublari.

Tayanch so'z va iboralar:

Tizim, jarayon, bosqich, mohiyat, vaziyat, egiluvchan tizim, boshqarishga yondashish, tizimli yondashish, vaziyatli yondashish, strategik yondashish, ishlab chiqarish vaziyatlari, tizim kontseptsiyalari.

Sport menejmentida boshqaruv qarorlarini to'g'ri qabul qilish katta ahamiyat kasb etadi. Savollarning murakkabligi va mazmuniga qarab, boshqaruv qarorlarini tayyorlash va qabul qilishda, iqtisodiy tahlil, eksport baholar kabi usullardan foydalanishdan rahbar faoliyat harakatinnig ketma-ketligini umumiy sxemasi mavjud, uni bilish konkret qarorlarini ko'rib chiqishga yordam beradi. Qaror qabul qilishdan oldin rahbar quyidagilarni aniqlab olishi shart:

- harakat maqsadi va unga erishish yo'llari.
- muammoning muhim taraflarini;
- kerakli moddiy, pullik va mehnat zaxiralarini;
- bajaruvchilarning vazifalarini;
- vazifa bajarilishini tashkil etish tartibini.

Menejmentga qarorlarni qabul qilish xos, chunki har bir rahbar faoliyati, u qabul qilgan qarorlarda aks etadi. Boshqaruv qarorlari jamoa demokratiyasi va o'zini boshqarish printsipli asosida jamoani qaror qabul qilishda qatnashuvida amalga oshadi. O'zini boshqarish asosida ishlab chiqarish kuchlarining birlashtirishi va ular fikrlarning rivojiga olib keladi.

Tashkilot faoliyati bilan bog'liq boshqaruv qarorlari bevosita rahbar tomonidan ishlab chiqiladi, bu qarorlar tashkilot mezonini va qonunchilikka zid kelmasligi kerak. Jamoa "ittifoqi" qabul qilinadigan qarorlarni ishlab chiqilishining barcha bosqichlarida faol ishtirok etadi. Har bir murakkab qarorlarni qabul qilish jarayoni o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- maqsadni aniqlanishi, muammoni tushunish va kerakli axborotni yig'ish;
- yig'ilgan axborotni tasniflash, tahlil qilish va baholash, ya'ni axborotni qayta ishlash;
- qarorlarni turli variantlarini ishlab chiqish;
- variantlarni tahlil qilish, muhokama qilish va baholash;
- oxirgi va optimal variantni qabul qilish;
- har bir qarorni kerakli shaklda hujjatlashtirish;
- qarorlarni muxrlab qo'yish;
- qarorni bajaruvchiga qo'yilishi;
- qabul qilingan qarorlar bajarilishini tashkil qilish;
- qarorni bajarilishini nazorati va hisobi.
- har bir bosqichni qurib chiqamiz:

Birinchi bosqichda jamoadagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayoni tahlil qilish asosida amalga oshadi. Bu bosqichda rahbar va jamoa orasidagi o'zaro munosabatiga bog'liq, rahbarni bu bosqichda ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlash maqsadida rahbar ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni echishga katta e'tibor berishi kerak;

Ikkinchi bosqichda yig'ilgan axborot tasniflanadi, tahlil qilinadi va baholanadi. Bu bosqich murakkab jarayon bo'lib, malaka, bilim va tadbirkorlikni talab qiladi;

Uchinchi bosqichda axborotni yig'ish davom etib, uning haqiqiy imkoniyatlari baholanib, bir necha o'zaro almashuvchan variantlar, ya'ni al'ternativalar ishlab chiqiladi. Al'ternativ variantlar mas'ul shaxslar tomonidan ishlab chiqilib, bevosita rahbar nazorati ostida bo'ladi.

To'rtinchi bosqichda al'ternativ qarorlarning tahlili va har tomonlama muhokamasida qarorlar ishlab chiqiladi. Qanchalik al'ternativ ko'p bo'lsa, shunchalik qarorni optimal variantini tayyorlash samarali bo'ladi. Boshqaruv qarorlarning turli variantlarini tahlil va baholash odatda, ularning tahlili va hisobini EHMda taqqoslash orqali keladi. Keyin diqqat bilan har bir variantning bahosini ko'rib chiqadi, shuning asosida oxirgi va optimal variant tanlanadi.

5-6-bosqichlarda, shuningdek, kam ahamiyatli mazmunga ega bo'lgan, tanlangan qarorni aniq tasvir beriladigan bosqichdir. Bu jarayonda hujjatning ikki qismi ko'rib chiqiladi: analitik va konstruktiv. Analitik qismida muammoni kelib chiqish sabablari, konstruktivlikda esa, muammoni echish uchun vositalar va zaxiralar, asosiy yo'llar va uslublar quriladi. Qaror ishbilarmon xususiyatiga ega bo'lishi kerak. Boshqaruv qarorlari amaliyotda umumiy so'zlar bilan ko'pincha ishlanadi (majbur qilmoq, talab qilmoq, ko'rsatmoq, nazarda tutmoq va h.k.).

Oxirgi va eng zarur bosqich bu qabul qilingan qarorni batafsil jarayonini tashkil etish bilan bevosita bog'liqdir. Boshqaruv qarorlarini tayyorlash va qabul qilish jarayonini aniq tizimli yondashishni nazorat qilishni talab qiladi:


- axborotning yagona kompleks tizimini yaratish. U ishlab chiqarish jarayonining tarkibiy qismlarini qamrab oladi, o'z vaqtida va aniq korxonaning iqtisodiy, ijtimoiy-ruhiy ahvolini tavsiflash;

- muammolarni echishni tezlashtirish va ijtimoiy-ruhiy muhitlar uning o'zgarishi bilan bog'liq;

- alohida bo'lmagan va shu bilan birgalikda barcha variantli echilish tahlili;

- ishlab chiqarishga ta'sir qiladigan kuchlarni aniqlashgina emas, balki ular samaradorligini ham tahlil qilish uchun operativ, hisob-kitob va statistikadan foydalanish.

Boshqaruv qarorlarini qabul qilish va amalga oshirish sxemasi



Boshqaruv qarorlarining asosi deb optimal variantga eng yaqin bo'lgan, eng zo'r variant qabul qilinadi. Bu variant mehnatni, moliyaviy-texnik zaxiralarni va vaqtni eng kam sarf qilingan holda, korxonadagi mavjud holat haqidagi mantiqiy axborotlarni yig'ib, tahlil qilish orqali kelib chiqadi.

Optimal qarorni yoki unga yaqin qarorni tanlashda kerakli usul va uslubni qo'llash darkor. Boshqaruv amaliyotida qarorlarni qabul qilish va ular bilan ishlashning quyidagi usullari mavjud:

- tizimli-iqtisodiy va ijtimoiy tahlil, statistik javoblar va baholar usuli;
- variantli qatorlarning, ya'ni reja - ishlab chiqarish kabi modellarni tahlili, rivojlanish tamoyillarini va ishlab chiqarishning mavsumiy xarakterini aniqlash usuli;
- tajriba javoblarini statistik tahlilini o'z ichiga olgan, tajribaviy modellashtirish usuli. Yechilayotgan muammolarni, jarayonlarni modellashtirish usuli, EHM va iqtisodiy-matematik uslublar orqali bajarilsa, xo'jalik yurituvchi

sub'ektning faoliyatidagi kamchilik va yutuqlari optimal ravishda kuzatish mumkin;

- matematik dasturlash usuli;

- maqsadlarni baholash va kutilayotgan xavf nazariyasi usuli. Bu usul o'qitish va motivatsiya nazariyasini hisobga olib tabiatni o'lchash va bashorat qilish uchun ishlatiladi;

- modellashtirish va tadbirkorlikka oid o'yinlar usuli. Bu usul EHM ishlatilishini taqozo etadi;

- noaniqlik sharoitida individual qaror qabul qilishga har xil yondashishlarni o'z ichiga olgan qidirishlar nazariyasi;

- xarajatlar usuli. Bu usul ya'ni, axborotlar yig'ish, tahlil qilish va ishlatish juda ko'p mablag' talab etadi, bunda boshqaruvchi agar bu usul optimal javob topishga yordam bersa, xarajatlar oldida to'xtashi kerak emas;

- noma'lum va noaniq vaziyatlarni baholash va tahlil qilish, odatda, mavjud ishonchli ma'lumotlar orqali amalga oshiriladi. Bu holda qabul qilinadigan qaror korxonaga o'z oldiga qo'ygan maqsadga bog'liq. Ba'zan qaror qabul qilish iqtisodiy-ijtimoiy tizimining rivojlanish qonuniyatiga va tendentsiyasi, shuningdek, tahliliy hisob-kitoblar asosida amalga oshirish mumkin bo'ladi. Boshqa hollarda, albatta, muammoning chuqur tahlili va har tomonlama birlashuvi kerak bo'ladi, ya'ni muammoning turlicha qarab kerakli tahlil va hisob-kitoblar o'tkaziladi;

- qaror qabul qilish jarayonini soddalashtirish boshqaruv jarayonidagi mehnat doirasini pasaytiradi. Agar tizimli tahlil doimo o'tkazilsa, qarorlarni ishlab chiqish usuli borgan sari soddalashib, aniq holatga keladi. Soddalashgan holdagi qarorlar qabul qilish va ularning samarasini baholash ko'pincha korxonaga faoliyatining tahlili takrorlanuvchi holatida qo'llaniladi.

- mutaxassislar bahosi, mutaxassislar tahlili asosida olinadi. Bu narsa xatolarni oldini olish uchun qilinadi. Shundan so'ng mutaxassislar mavjud qarorlar ro'yxati mavjud fikrlar, takliflar va xulosalar bilan tanishib chiqadilar va o'zlarining yakuniy xulosalarini etadilar;

Bir guruh mutaxassislar tomonidan qandaydir qiyin muammoni ijodiy muhokama qilish. Bu usul jamoa tajribalari va jamoaning bilimlari boshqaruvning echimlariga asoslanishi va shu bilan birga, yaxshi g'oyalarning yuzaga kelishiga muhit yaratish hamda muhokamadagi ishtirokchilarning yaxshi tanlanganligi al'ternativ echimni topishga va muammoni tug'ri hal qilishga katta ta'sir ko'rsatadi.

Qabul qilingan qarorlarning maqsadga muvofiq holda bajarilishi uchun ishlab chiqarish jarayonida maxsus maqsadga yo'naltirilgan dasturlar, tarmoqli

grafiklarni, matritsali boshqaruv tizimini ishlab chiqarish zarur. Bu marosimlarning 3 ta guruhga ajratish mumkin:

1. Qarorlarni o'z vaqtida bajaruvchilarga etkazib berish;
2. Kadrlar va resurslar optimal joylashtirish operativ zaxiralarni shakllantirish;
3. Qarorlarni bajarilishini nazorat qilish.

Birinchi guruh marosim. Qarorlarni o'z vaqtida bajaruvchilarga etkazib berish. Bu erda uni o'z holiga tashlash mumkin emas. Qarorlarni bajaruvchilarga bir oy-ikki oyda etib borishini kuzatish mumkin. Bu holda u o'z faolligini va mazmunini yo'qotadi, chunki u kech etib boradi.

Bajaruvchilarning fikrlarini keng tarqalgan shakllaridan biri ularni qaror qabul qilishga jalb qilish. Shu asosda ishlab chiqarishning ishtirokchilari qaror kontseptsiyasi va masalalar echimlari bilan tanishadilar. Ba'zan shu maqsadda ishlab chiqarishning yangilari va sardorlaridan komissiya tuziladi. Kelgusidagi ijro etuvchilar qarorlarni tayyorlashda ishtirok etishadi va bu echimlarni xaqiqatga yaqinroq qilishadi. Chunki ular ishlab chiqarish jarayonini chetdagilarga qaraganda yaxshiroq bilishadi.

Shuningdek, jamoa ishchilari muhokama, anjuman yoki loyiha rejalashtirishni qabul qilishda qatnashishganida ijobiy natijalarga erishadilar. Lekin bu jamoatchilik faqatgina ayrim shartlar bajarilganda amalga oshiriladi. Qachonki, yakkaboshchilik va aniq ishchi xodim javobgarlikka ega bo'lganda.

Ikkinchi guruh marosimi - bu kadrlar va zaxiralar manyovri shuningdek, operativ rezervlar. Har bir echim moddiy ta'minotga muhtoj bo'lib, odamlarning qayta mo'ljalga olishi va ularning qayta tayyorlashga va almashtirishga to'g'ri keladi.

Shuning uchun ishlab chiqarishdagi yirik dasturlarning amalga oshirish va ishlab chiqarishni qayta ko'rish ishlarining uslub va formalarini keskin o'zgarishiga olib keladi. Bu kadrlar tuzilmasiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchi guruh marosimlari - bu nazorat, ya'ni chuqur malakali tahlil. Tizimli nazoratsiz yuqori natijalarga erishib bo'lmaydi. Boshqaruvning yuqori darajasida, bunday nazoratni tashkilot aniq maqsadga va kerakli mexanizmga erishish uchun talab qiladi.

Iqtisodiyotni boshqarishdagi echimlarning mohiyati ko'pgina obyektiv omillarga bog'liq. Ulardan eng asosiysi - ishlab chiqarish vositalariga turli mulkchilik; ishlab chiqarish va mehnatni chuqur taqsimlanishi va ixtisoslashuviga; mehnat va material texnik resurslarni boshqarish; sohalararo, ishlab chiqarishlararo aloqalarni kengayishi; Qo'shma korxonalar tuzish; marketingni amalga qo'llash; korxonalar va sohalarni tashqi iqtisodiy aloqalarga chiqish, boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi tavakkalchiliklar.

Takrorlash uchun savollar:

1. Boshqaruv qarorlarining muvofiqlashtirish bosqichlari nimalardan iborat?
2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida sport menejmentida qaror qabul qilish xususiyatlari qanday?
3. Sport menejmentida qarorlarning bajarilishi qanday amalga oshiriladi?
4. Sport menejmentida boshqaruv qarorlari qanday ko'rinishlarga ega?
5. Sport menejmentida tezkor va strategik qarorlar nima bilan farqlanadi?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
2. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T.: O'zbekiston, 2009. – 24 b.
3. Gulyamov Z.T., Nabiullin R.X., Kamilova G.Z. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti. Darslik. –T.: O'zDJTI, 2015.
4. Meskon M., Al'bert M., Xedouri F. Osnovi menejmenta. – M.: ANX, 1995.

Elektron ta'lim resurslari:

Internet saytlari

1. www.bilim.uz
2. www.ekonomika.ru
3. www.menejment.com
4. www.edu.uz-Vazirlik sayti
5. www.ziyo.edu.uz-Vazirlik sayti
6. www.performance.edu.uz-Vazirlik sayti

VI. SPORT TURLARINI RIVOJLANTIRISHDA SPORT MENEJMENTNING ROLI

6.1.Sport menejmentining maqsadlari

Reja:

1. Sport menejmentida maqsadli dasturlar.
2. Sportda menejment maqsadning ilmiy asoslanganligi.
3. Sportda menejmentning maqsadli turlari.
4. Sport menejmentning davriy maqsadlari.
5. Maqsadli boshqaruv usuli pog'onalari.
6. Maqsadli boshqaruv usuli afzalliklari.

Tayanch so'z va iboralar:

Maqsad, menejment maqsadi, joriy maqsadlar, istiqbol maqsadlar, uzluksiz maqsadlar, fursatli maqsadlar, bir martali maqsadlar, innovatsion maqsadlar, xodim maqsadi, maqsadning tobeligi, maqsadlar shajarasi.

Maqsad - bu muddao, murod, ya'ni u yoki bu niyatda erishmoq uchun ko'zda tutilgan mushtarak orzu. Aynan shu maqsad kishi faoliyatini, o'z orzularini ushalishiga yo'naltiradi. Maqsadimiz:

- sportda bo'lajak harakatimizni oldindan aniqlab beradi;
- sportda faoliyatimizning ustuvor yo'nalishini belgilaydi;
- faoliyatimizni sportning aniq yo'nalishiga, turiga (futbol, basketbol, kurash va h.k.) yo'naltiradi;
- sportda u yoki bu faoliyatimizning zarurlik darajasini belgilab beradi;
- sportda pirovard natijamizning baholash me'yorini belgilaydi va h.k.

Sportda menejment maqsadning ilmiy asoslanganligi va to'g'ri belgilanganligi boshqaruv uchun juda muhimdir. Chunki u aynan shu maqsadga binoan quyidagilarni amalga oshiradi:

- sportda boshqaruv funktsiyalarni belgilaydi;
- sportda boshqaruv usullarini tanlaydi;
- sportda boshqaruvning tuzilmaviy tarkibini shakllantiradi.
- sportda lavozimlarni belgilash va kadrlar (ishchi xodim)ni tanlash kabi muhim masalalarni hal etadi.

Sport menejmentida boshqaruv maqsadi quyidagi talablariga javob berishi lozim:

- sportda maqsad bir ma'noli va aniq bo'lishi kerak;

- sportda maqsad real va bajarilishi mumkin bo'lishi kerak;
- sportda maqsad miqdoran o'lchovga ega bo'lishi kerak;
- sportda maqsad barcha bajaruvchilarga tushunarli bo'lmog'i darkor;
- sportda maqsad bo'limlar va mas'ullar bo'yicha diferentsiallashtirilgan bo'lishi kerak;
- sportda maqsad ko'p qirrali bo'lishi kerak.

Sportda menejmentning boshqaruv maqsadlari juda ham xilma-xildir. Bu esa ularni muayyan tarzda turkumlashni taqozo etadi.

6.1.1-jadval

Sportda menejmentning maqsad turlari

№	Sport menejmentida maqsad turkumlari	Sport menejment maqsadlari
1	Sport menejment boshqaruvining umumjamiyat miqyosidagi munosabatlarni aks ettirishga qarab	O'zbekiston Respublikasi miqyosida ko'zlangan maqsadlar: Barkamol avlod kelajagini barpo etish; sportdan ko'zlangan mamlakat maqsadlari;
2	Sportda menejment boshqaruvining pog'onalariga qarab shakllanishi	- Sportda hududiy boshqaruv maqsadlari - sportdan ko'zlangan mamlakat maqsadlari; - sportdan ko'zlangan viloyat maqsadlari; - sportdan ko'zlangan tuman maqsadlari; - sportdan ko'zlangan qishloq maqsadlari; - sportdan ko'zlangan ishlab chiqarish maqsadlari; - sportdan ko'zlangan xalq xo'jaligi maqsadlari; - sportdan ko'zlangan tarmoq maqsadlari; - sportdan ko'zlangan korxonalar maqsadlari; - sportdan ko'zlangan yakka shaxs maqsadlari.
3	Sportda menejment boshqaruvining maqsadlarini amalga oshirish muddatiga qarab	- sportdan ko'zlangan joriy maqsadlar; - sportdan ko'zlangan istiqboldagi maqsadlar. - sportdan ko'zlangan uzluksiz maqsadlar; - sportdan ko'zlangan fursatli maqsadlar;
4	Jismoniy tarbiya va sport menejmentida boshqaruv davrlarga	- sportdagi bir martalik maqsadlar; - sportdagi pirovard maqsadlar; - sportdagi oraliq maqsadlari.

	qarab	
5	Sport menejmenti boshqaruvidagi murakkablik darajasiga qarab	- sportdagi oddiy, a'naviy maqsadlar; - sportdagi muammoli maqsadlar; - sportdagi innovatsion maqsadlar.

Mazkur turkumlanishdan ko'rinib turibdiki, maqsadlar o'zaro bog'liq bo'lib, muayyan ierarxiyaga, ya'ni yuqori va quyi maqsadlarga bo'lishi, bir maqsad boshqa bir maqsadga bo'ysunishi mumkin.

Joriy maqsadlar deganda, bir yil ichida, yil choragi, bir oy va undan ham kamroq muddat mobaynida amalga oshiriladigan maqsadlar tushiniladi.

Maqsadlarini belgilashda joriy maqsadlar nuqtai nazaridan yondashuv, ya'ni har bir bo'linma maqsadlari, ularni bajarish muddatlari, aniq ijrochilar, aniq maqsadli tadbirlar, resurslar manbai, belgilangan tadbirlar bajarilishini asoslab berilishi barcha bo'g'inlar va darajalarda boshqaruv ishonchliligini oshirish kafolatini beradi, butun boshqaruvning apparati harakatlarining puxta bo'lishini belgilaydi.

Istiqbol maqsadlar deganda, 5 yil yoki undan ko'proq davr mobaynida amalga oshiriladigan maqsadlar tushiniladi. Masalan, yurtimizda, uning jismoniy tarbiya va sport tarmoqlarida ishlab chiqilgan dasturlarda qo'yilgan maqsad ma'lum muddatni o'z ichiga oladi.

Uzluksiz maqsadlar deganda, har kuni qabul qilinadigan va amalga oshiriladigan odatiy maqsadlar tushiniladi. Masalan, mehnat unumdorligini o'stirish, intizomni mustahkamlash, mahsulot tannarxini pasaytirish kunda talab qilinadigan maqsadlardir.

Fursatli maqsadlar deganda, biron-bir muammoni hal etish zaruriyati tug'ilgan hollarda paydo bo'ladigan maqsadlar tushiniladi. Masalan, korxonani qayta uskunalash, jihozlarni yangilash iqtisodiy zaruriyatiga qarab paydo bo'ladi. Boshqarish jarayonida bir martalik maqsadlarga ham zaruriyat tug'uilishi mumkin. Bunday maqsadlar korxonaga uchun kutilmagan, favqulotda vujudga kelgan muammoni echish uchun o'rtaga qo'yiladi.

Boshqaruvga maqsadli yondashuv namoyandalari fikrlarini inobatga olgan holda, jismoniy tarbiya va sportdagi barcha maqsadlarni quyidagi to'rt guruhga bo'lish mumkin:

- Sport rivojida dinamika ko'zda tutilmagan oddiy an'anaviy statik holatdagi maqsadlar.
- Sport rivojidagi muammoli maqsadlar.
- Sport rivojidagi xodimlar malakasini, mahoratini oshirish bo'yicha maqsadlar.

Birinchi guruhdagi maqsadlar - har kuni qabul qiladigan va amalga oshiriladigan odatiy maqsadlar bo'lib, ularning bajarilishini ta'minlash tegishli bo'g'indagi rahbarning bevosita burchiga kiradi.

Ikkinchi guruhdagi maqsadlar - odatiy maqsadlardan farq qiladi. Bu maqsadlar korxonaga va uning ishchi xodimiga qiyinchiliklar tug'diradi.

Masalan, sport tovarlariga bo'lgan talabning to'satdan keskin pasayishi, uning sotilish hajmini kamayishiga olib keladi. Ushbu masalani hal etish maqsadi qo'yiladigan bo'lsa, u muammoli maqsadga aylanadi. Chunki sport tovarlarini sotish hajmini qisqa muddat ichida ko'paytirish korxonada ishchi xodimidan jiddiy choralar ko'rib, shijoat bilan harakat qilishni va quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi:

- Sport tovarlariga bo'lgan talabning keskin pasayish sabablarini aniqlash.
- Ko'p omilli korrelyatsion- regression tahlilini amalga oshirish.
- To'liq marketing tadqiqotini o'tkazish.

Sport tovarlariga bo'lgan ehtiyojning keskin pasayishiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarini tahlil qilish.

Obyektiv axborotlar yig'indisi va texnologiyasi asosida eng maqbul, asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilishni taqozo etadi.

Innovatsion maqsadlar - bu yangi sport tovarlarini ishlab chiqarish, yangi texnologiyalarni joriy qilish va ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini jismoniy tarbiya va sportga tadbiriq etish bo'yicha qo'yiladigan navbatdagi guruh maqsadlaridir.

Maqsad qanchalik murakkab bo'lsa, u menejment boshqaruvi uchun shunchalik muammoli yoki innovatsion bo'lishi mumkin. Biroq, bir maqsadning o'zi biron uchun oddiy, boshqa uchun muammoli, hatto innovatsion bo'lishi ham mumkin.

Menejerlar, rahbarlardan ba'zilar o'sha maqsadni echish usullarini mukammal biladi, ya'ni uning bilimi, mahorati etarli bo'lib, uni hech qanday qiynalmay echadi. Boshqa rahbar esa bu maqsadni o'zi uchun murakkab va muammoli darajada tasavvur qiladi. Shuni eslatib o'tish joizki, hozirgi kunda butun jahonda har qanday murakkab muammolarni (milliard AQSH dollari yoki evro hajmidagi loyihalarni) hal etilishida asosiy va so'nggi so'zni aytish menejerlar zimmasiga yuklatilgan.

Navbatdagi maqsadlar guruhi - bu korxonada ishchi xodimi (xodim)lari malakasini oshirish sohasidagi maqsadlar bo'lib, ular uzoq muddatli reja asosida muntazam ravishda amalga oshirilib boriladi. Korxonada umumiy maqsadning samaradorligi o'z o'rnida yakka, ya'ni har bir xodim maqsadining qanchalik to'g'ri aniqlanganligi va naqadar samarali ijro etilishiga bog'liq bo'ladi. Shu sababli har bir xodim oldiga qo'yiladigan maqsadga nisbatan quyidagi talablarga

javob berishi lozim: xodim maqsadi yuqori ierarxik pog'onalar, bo'limlar maqsadiga mos bo'lishi va unga bo'ysunishi kerak. Obrazli qilib aytganda, ayrim xodimlarning maqsadlari yuqori pog'onadagi maqsadlar qanoti ostida bo'lishi va ular bir-birlariga zid kelmasligi lozim.

Quyidagi hollarda yakka maqsadlar korxonaning umumiy maqsadini samarali bo'lishiga xizmat qiladi: xodimning o'z oldiga qo'yadigan maqsadi optimal hajmda bo'lib, tajribaga asoslangan va uzog'i bilan 4-5 tagacha bo'lishi kerak.

Agarda ularning soni ko'payib ketsa, kutilgan natijaga erishish qiyinlashadi, oqibatda korxonaning umumiy maqsadiga putur etishi mumkin. Yakka maqsadning pirovard natijasi va aniq muddati belgilangan bo'lishi kerak, aks holda u mavhumlikka yuz tutadi. Rejalashtiriladigan maqsad har bir xodimning harakati evaziga erishiladigan, shu bilan birga amalga oshiriladigan darajada bo'lishi kerak.

Agar maqsad juda murakkab va ustiga-ustak amalga oshishi gumon bo'lsa, unda menejment boshqaruvi ijobiy natijalarga erishishdan mahrum bo'ladi.

Har qanday maqsadning amalga oshirilgandagi samaradorligi pirovard natijaning ko'zlangan marraga mos kelishi, unga to'g'ri baho berilishi va ishchi xodimni rag'batlantirish darajasiga bog'liq. Erishilgan natijaga adolat yuzasidan baho berish va uni tegishli ravishda rag'batlantirish odat tusiga kirgan bo'lsa, u holda bu korxonada o'rnatilgan boshqarish usuli o'zini oqlab, ravnaq topib beraveradi va muammolarning kamayishiga erishish osonlashadi.

Menejmentda maqsadlarning ko'pgina omillarga bog'liq ekanligini inobatga olgan holda, uning quyidagi sifatlarini esdan chiqarmaslik lozim:

- ishchi xodimning har bir maqsadga tobe bo'lishi;
- ishchi xodim maqsadning jamoa maqsadlariga mos bo'lishi;
- maqsadlarni amalga oshirishda har bir ishchi xodimning o'zaro munosabatda va hamjihatlikda bo'lishi;

Maqsadga tobe bo'lish deganda, ishchi xodim tomonidan maqsadni qo'yish va uni amalga oshirishning mavjud shart-sharoitlariga bog'liqligi, yohud strategik maqsadning qator taktik maqsadlariga, istiqbol maqsadining esa o'rta va qisqa muddatli maqsadlarga bog'liqligi va bir maqsadning boshqa maqsadga bo'ysunishi tushuniladi.

Personal maqsadning jamoa maqsadlariga mos bo'lishi deganda, uning o'z mohiyati, amalga oshirish davri, pog'onalari, bo'g'inlar va h.k.lar bo'yicha bir qator lokal va xususiy maqsadlarga mos kelishi tushuniladi.

Maqsadlarni amalga oshirishda har bir ishchi xodimning o'zaro munosabatda va hamjihatlikda bo'lishi deganda, uning muhimligi jihatdan

zanjirlanishi, tartiblanishi tushuniladi. Maqsadning bu jihati barcha lokal, xususiy va yakka maqsadlarni amalga oshirish bo'yicha aniq amaliy tadbirlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Maqsadning muayyan ierarxiyaga ega ekanligi, ya'ni bir maqsadning boshqa bir maqsadga bo'ysunishi, bir-biri bilan o'zaro munosabatda bo'lishi ularni qandaydir bir tartibga solish zaruriyatini tug'diradi. Bunday vazifani bajarish uchun menejment fanida "maqsadlar shajarasi" deb atalgan usul qo'llaniladi.

"Maqsadlar shajarasi" – bu maqsadlar bilan ularga erishish vositalari o'rtasidagi aloqaning grafik tasviridir. "Maqsadlar shajarasi" – menejment boshqaruvining ierarxik ko'rinishidagi bir necha pog'onalardan tashkil topgan bo'lishi mumkin, masalan:

- eng yuqori pog'onadagi bosh maqsad.
- bir pog'ona pastdagi birinchi darajali kichik maqsadlar majmuasi.
- yana bir pog'ona pastdagi ikkinchi darajali kichik maqsadlar va h.k. dan tashkil topgan maqsadlar majmuasi.

Masalan, yurtimizda davlat va iqtisodiyotni qayta ko'rishning bosh maqsadi quyidagicha aniqlab berilgan: "Pirovard maqsadimiz ijtimoiy o'rnatilgan barqaror, bozor iqtisodiyotiga ochiq tashqi siyosatga ega bo'lgan kuchli demokratik huquqiy davlatni va fuqorolik jamiyatini barpo etishdan iboratdir". Bu maqsad ko'p qirralik va uning amalga oshirilishi siyosiy, ma'naviy iqtisodiy, huquqiy sohalaridagi asosiy maqsadlarga qay darajada erishilishiga bog'liq. Har bir yo'nalish bo'yicha ham bosh maqsadga mos keluvchi birinchi darajali, keyin esa ikkinchi darajali maqsadlar qo'yiladi.

Ikkinchi darajali maqsadlarning har biri o'z navbatida, quyi bo'g'in maqsadlariga bo'linadi.

Shunday qilib, maqsadning tobe bo'lishlik, yoyiq bo'lishlik va zanjirlash mumkinligi kabi sifatlari umumiy maqsadni lokal, xususiy va yakka maqsadlarga ajratishga, ularni ustuvorlik darajasiga qarata bilish imkoniyatini yaratishga yordam beradi.

Boshqarishda maqsadli yondashuv usuli, maqsadli menejment – bu boshqarishning muayyan tizimi bo'lib, unda bir necha bosqich bir-biri bilan bog'langan bo'ladi:

- maqsad (pirovard natija);
- maqsadga erishtiruvchi chora va tadbirlar;
- rejalashtirish;
- tashkillash;
- motivtsiyalash;
- nazorat.

Bu usulning mohiyati quyidagicha izohlanadi: har bir rahbar, yuqori pog'onadan boshlab, to quyi pog'onagacha o'zining aniq maqsadiga, amalga oshirish rejasiga ega bo'lishi shart.

Maqsadli yondashuv usuli 5 pog'onadan iborat:

- korxonaning uzoq muddatli va strategik maqsadini aniqlash;
- faoliyat sohalari bo'yicha korxonaning umumiy maqsadlarini aniqlash;
- xususiy, yakka maqsadlarini rejalashtirish va ularning bajarilishi usullarini ishlab chiqish;
- natijani baholash;
- tuzatishlar kiritish.

Birinchi pog'ona maqsadlari korxonaning strategik rejalashtirishiga taalluqli. Ularni korxonaning yuqori pog'onasidagi menejerlari shakllantiradi. Menejerlar korxonani istiqbolini belgilashga mas'ul bo'lishadi hamda o'rta bo'g'in menejerlari ishni boshqaradilar. Ular Prezident, bosh ijrochi direktor yoki vitse-prezident deb atalishlari ham mumkin.

Ikkinchi pog'ona maqsadlari oliy va o'rta daraja menejerlari tomonidan belgilanadi. Ular nisbatan uzoq muddatli bo'lmagan, aniq davrga mo'ljallangan maqsadlardir. Odatda, bu maqsadlar korxonaning aniq faoliyat sohalari miqyosida bo'ladi. Bular turkumiga ma'lum funktsional vazifalar kiradi: ishlab chiqarish, moliyaviy ta'minot, mehnatni boshqarish, marketing, rentabillikni ta'minlash kabi funktsional sohalarda maqsadlari kiritiladi.

Uchinchi pog'ona maqsadlari - maqsadli boshqaruvning o'zagi hisoblanadi. Bunda maqsadni amalga oshirish bo'yicha amliy tadbirlar ishlab chiqiladi, rejalar tuziladi. Bu pog'ona menejerlarning vazifasi - har bir xodim oldidagi maqsadni aniqlash va ularni amalga oshirish bo'yicha aniq usul va vositalarni ishlab chiqishdan iborat.

To'rtinchi pog'onada korxonaning erishgan natijasiga, ya'ni maqsadning qay darajada bajarilganligiga baho beriladi. Bu vazifani korxonaning yuqori pog'onadagi rahbarlari bajaradi.

Nihoyat, maqsadli yondashuv usulining so'nggi pog'onasida oldindan qabul qilingan rejalariga ayrim tuzatishlar kiritish masalasi turadi. Bunday tuzatishlarga, odatda, hisobga olinmagan omillar natijasida ayrim murakkab maqsadlarning amalga oshmaganligi sabab bo'lishi mumkin.

Maqsadli boshqaruv usuli bir qator afzalliklarga ega. Yaxshi tashkil etilgan maqsadli boshqaruv usuli: korxonani boshqaruv tizimini takomillashtirishda yordam beradi. Har bir xodim va butun korxonaning yuqori natijalarga erishishga imkon tug'diradi. Har bir xodim rejasini barcha bo'g'inlar rejalari, shuningdek, korxonaning strategik rejasini bilan uzviy bog'liqligini

ta'minlaydi. Rahbarlardan aniq va bajarilishi mumkin bo'lgan maqsadlarni qabul qilishni talab qiladi va h.k.

Xulosa qilib aytganda, maqsadli boshqaruv qoidalarini jismoniy tarbiya va sport menejmentiga keng joriy etilishi, ularni ayniqsa, menejmentning asosiy kategoriyalari, ya'ni printsiplar, funktsiyalar, usullar, texnologiyalar va tizimlar bilan uzviy ravishda bog'lab olib borilishi sportchilarni turli xil qiyin vaziyatlarda ham o'z maqsadlridan og'ishmagan holda ishonch bilan harakat qilishlariga xizmat qiladi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Boshqarish maqsadi qanday turlarga bo'linadi?
2. Boshqarish maqsadi nima?
3. Joriy va istiqboldagi maqsadlar o'rtasidagi farq nimada?
4. Muammoli va innovatsion maqsadlarning afzalliklari nimada?
5. Sport menejmentida boshqaruvining maqsadlarini nimalarda ko'rish mumkin?
6. Sportda menejmentning maqsad turlari qanday guruhlarga bo'linadi?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
2. Gulyamov Z.T., Nabiullin R.X., Kamilova G.Z. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti. Darslik. –T.: O'zDJTI, 2015.
3. Meskon M., Al'bert M., Xedouri F.. Osnovi menejmenta. – M, 1995.

Elektron ta'lim resurslari:

Internet saytlari

1. www.bilim.uz
2. www.ekonomika.ru
3. www.menejment.com
4. www.edu.uz-Vazirlik sayti
5. www.ziyo.edu.uz-Vazirlik sayti
6. www.performance.edu.uz-Vazirlik sayti

6.2. Xalqaro sport aloqalarining rivojlanishida menejment va marketingning o'рни

Reja:

1. Sport menejmentining xalqaro sport aloqalarini rivojlanishidagi o'рни.
2. Xalqaro sport aloqalarining davlatlararo munosabatlari.
3. Xorij mamlakatlar bilan sport aloqalarining rivojlanishi.
4. Davlatlararo, hukumatlararo va nodavlat xalqaro tashkilotlar.
5. Milliy sport tashkilotlari, ittifoqlar va sport menejmenti.
6. Xalqaro sport birlashmalari va sport menejmenti.
7. Xalqaro nodavlat sport tashkilotlarning asosiy belgilari.

Tayanch so'z va iboralar:

Xalqaro, sport aloqalari, davlatlararo munosabat, xorij mamlakatlar, xalqaro sport tashkilotlari, huquqiy status, "Xalqaro tashkilot", xalqaro huquq, me'yorlar, xalqaro tashkilot huquqi, a'zolik darajasi, davlatlararo, hukumatlararo, nodavlat, milliy jamoat tashkilotlari, ittifoqlar, guruh, siyosiy, iqtisodiy, madaniyat, ilmiy-texnikaviy, maqsad, xalqaro hukumatlararo tashkilot, maslahatchilik statusi, ta'sislik dalolatnomasi.

Xalqaro sport aloqalari davlatlararo munosabatlarning ajralmas qismi hisoblanadi, shuning uchun ham ular xorij mamlakatlar bilan aloqalarni rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Xalqaro sport tashkilotlarining huquqiy statusi xususiyatlarini o'rganishda shuni inobatga olish lozimki, xalqaro sport tashkilotlari birinchi navbatda, "Xalqaro tashkilot" hisoblanadi, shuning uchun uning faoliyatiga xalqaro huquq me'yorlari va aynan xalqaro tashkilot huquqi ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro tashkilotlar a'zolik darajasiga qarab, davlatlararo, hukumatlararo va nodavlat toifalarga bo'linadi. Xalqaro nodavlat tashkilotlar milliy jamoat tashkilotlari ittifoqlar, guruh va har xil davlatlardan alohida shaxslar siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy va insonning boshqa faoliyat sohalarida xalqaro hamkorlikka ko'maklashish maqsadida shakllanadi. Bunday tashkilot va muassasalar davlatlararo kelishuvga asoslanmagan va tijoratdan foyda olishni maqsad qilib qo'ymagan bo'ladi.

Xalqaro jismoniy tarbiya sport birlashmalari nodavlat, jamiyat tashkilotlari kategoriyasiga kiradi. Xalqaro jismoniy tarbiya sport birlashmalari tarkibiga sport milliy tashkilotlari kiradi, ayrim hollarda jismoniy tarbiya sohasidagi faoliyatga aloqador Xalqaro birlashmalar, hatto alohida shaxslar ham a'zo bo'lishi mumkin. Sport birlashmalarining nodavlat tashkilotlar qatoriga kirishi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasidagi 1968 yil 23 maydagi 1296 qaror bilan

asoslangan: “Xalqaro nodavlat tashkilot deb davlatlararo kelishuvga asosan, ta’sislanmagan har qanday Xalqaro tashkilot tan olinadi”.

Xalqaro nodavlat tashkilotlarning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

- o’z faoliyatidan foyda chiqarish maqsadining yo’qligi;
- juda bo’lmaganda bir davlat tomonidan tan olinishi yoki Xalqaro hukumatlararo tashkilot tarkibida maslahatchilik statusiga ega bo’lishi;
- bittadan ko’p davlatlardan pul mablag’i olib turishi;
- juda bo’lmaganda ikki davlat doirasida faoliyat ko’rsatishi;
- ta’sislik dalolatnomasi asosida tuzilganligi.

Xalqaro tashkilotlar umuman, sport tashkilotlari xususan, uzoq yillik xalqaro munosabatlar jarayonining rivojlanishi asosida shakllanib kelgan. Avvaliga Xalqaro sport munosabatlari asosan milliy sport tashkilotlarining ikki tomonlama aloqalarida ko’proq sport musobaqalari shaklida ifodalanib kelgan. Davlatlarning sport aloqalari madaniy va ilmiy hamkorlik kelishuvlari doirasida shartnomali munosabatlar asosida amalga oshirib kelingan. Sportdagi almashuv dalolatnomalari, hukumatlararo kelishuvning bunday hollarida umumiy katta kelishuvning ajralmas qismi bo’lib hisoblangan.

Sekin-asta ikki tomonli aloqalar bir necha davlatlarning milliy sport tashkilotlarining ko’p tomonlama bog’lanish tavsifini ola boshladi. Xalqaro tashkilotlar tuzish ehtiyoji yuzaga kela boshladi, chunki ular xalqaro sport aloqalarini va sport musobaqalarini o’tkazish tartibining mutonasibligini tashkiliy amalga oshirishga yanada imkon yaratadi. Yana sportchilar, mutaxassislar orasidagi muloqot madaniyati va shakli tubdan takomillashib bordi, yangicha muloqot albatta ilgari alohida mavjud bo’lgan milliy sport tashkilotlariga xos bo’lmagan, aksincha sportning ma’lum turini rivojlantirishdagi umumiy manfaatlarni ifodalovchi Xalqaro sport tashkilotlarida ushbu masala dolzarblikka aylandi.

Xalqaro sport tashkilotlari bir necha xil nomlarda ifodalanishi mumkin, masalan: liga, federatsiya, assotsiatsiya, guruh, blok, birlashma va boshqalar.

Odatda, Xalqaro sport tashkilotlari (bunga sport federatsiyalari kirmaydi) Xalqaro kelishuvlar (konventsionalar, kelishuvlar, traktatlar, dalolatnoma va boshqalar) asosida yaratiladi. Bular kelishuv ta’sischilarning dalolatnomasi matnini ishlab chiqish va qabul qilish uchun, ya’ni Xalqaro tashkilotning ta’sis konferentsiyani o’tkazishni taqozo etadi. Xalqaro sport tashkilotlari boshqa Xalqaro tashkilot qaroriga ko’ra, oddiylashgan tartibda ham tashkil qilinishi mumkin.

Umuman olganda, Xalqaro sport federatsiyalarining paydo bo’lishi XIX asrga to’g’ri keladi, ayniqsa, uning keng rivojlanishi XX asr boshlariga to’g’ri keladi. Masalan, Gimnastika Xalqaro federatsiyasiga 1881 yilda asos solingan,

hamda Evropa gimnastika ittifoqi tuzilgandi, faqat 1897 yilga kelib hozirgi mavjud Xalqaro birlashma tashkil etildi. Navbatdagi Velosipedchilarning Xalqaro ittifoqi 1900 yilda tuzildi, 1910 yilga kelib chang'ida sirpanish sporti kongressida ushbu yo'nalishda Xalqaro komissiya va 1924 yilda Xalqaro federatsiya ta'sis etildi. Bunday misollarni sportning qolgan boshqa yo'nalishlari bo'yicha ko'plab keltirish mumkin.

Xalqaro sport federatsiyalarining rasmiy nomlari frantsuz yoki ingliz tillarida qayd etiladi, nomlarning bosh harflari federatsiyalarning qisqartirilgan nomidan tashkil topadi.

Umuman olganda, ko'pchilik Xalqaro sport federatsiyalarining tizimi (strukturasi) bir biriga o'xshagan bo'ladi va ma'lum darajada boshqa xil sport federatsiyalarining tizimlarini aks ettiradi (shu bilan bir qatorda, sportdan tashqari birlashmalarning ham). Odatda, ko'pchilik Xalqaro sport federatsiyalarining asosiy vakolatli organi uning umumiy majlisi hisoblanadi (kongress, assambleya va boshqalar). Odatda, xalqaro sport birlashmalarining rahbar organlari kongressida ma'lum muddatga saylanadi yoki milliy va hududiy sport tashkilotlarining vakolatxonasi pitsipida tuziladi.

Xalqaro sport federatsiyalari o'z ishlarini nizomlari asosida tashkil qiladi. Nizom sport turlari bo'yicha xalqaro organi va tegishli milliy sport tashkilotlari tomonidan aniqlangan barcha rahbariyat faoliyatini muvofiqlashtiradi. Federatsiya nizomda ko'p narsa umumiy hisoblanadi, undagi tafovutlar asosan, sport turlari bilan bog'liq bo'ladi. Nizomda federatsiyaga tegishli quyidagi masalalar aks ettirilgan bo'ladi:

- federatsiyaning faoliyat maqsadi va vazifalari;
- rahbar organlarning tizimi va kompetentsiyasi;
- qabul qilish va tarkibdan chiqarish qoidalari;
- qaror chiqarish tartiblari;
- moliyaviy masalalar;
- chop etish faoliyati;
- federatsiyaning faoliyati bilan bog'liq kengashlar, kongresslar o'tkazish va boshqa masalalar.

Xalqaro sport federatsiyalarining ish yuritishdagi asosiy hujjati ularning nizomi hisoblanadi, masalan: Xalqaro Kurash Assotsiatsiyasi, nosiyosiy va notijorat xalqaro tashkilot hisoblanadi, O'zbekiston hududida biron-bir Xalqaro Kurash Federatsiyasi orqali assotsiatsiya tarkibiga kirgan va Kurash milliy federatsiyalaridan tashkil topgan.

Xalqaro Kurash Assotsiatsiyasi (IKA) rasmiy ravishda o'z tarkibiga kirgan barcha Milliy Kurash Federatsiyalari va Kurash Kontinental Federatsiyalarining huquq va manfaatlarini bir xil darajada hurmat qiladi.

Xalqaro Kurash Assotsiatsiyasi o'zining amaliyoti va qarorlarida milliylik, diniylik, jinsiy belgilar, siyosiy, madaniy va boshqa biron e'tiborlik kamsituvchanlik yondashuv amaliyotidan foydalanmaydi. Xalqaro Kurash Assotsiatsiyasining rahbar organi Kongress va Ijroiyy Qo'mitadan iborat.

Xalqaro Futbol Federatsiyasi (FIFA)ning Nizomida ham quyidagilar belgilangan: FIFA tegishli mamlakatlarda futbolni nazorat qiluvchi, Xalqaro Federatsiya tarkibiga qabul qilingan va tan olingan Milliy futbol federatsiyalaridan tashkil topgan.

Har bir davlat doirasida faqat birgina milliy futbol federatsiyasi tan olinadi. Buyuk Britaniyaning to'rtta futbol assotsiatsiyasidan har biri FIFA ning alohida a'zosi deb tan olingan.

Xali mustaqillikni qo'lga kiritmagan, tumanlardagi milliy futbol federatsiyalari o'zi bog'liq bo'lgan boshqa mamlakatning milliy futbol federatsiyasi ruxsati asosida FIFAgaga kirish uchun murojaat qilishi mumkin.

Xalqaro Futbol Federatsiyasining asosiy maqsadlari sportning futbol turini targ'ibot qilish va keng rivojlantirishdan iboratdir. Xali futbol etarli darajada rivojlanmagan yoki yaxshi o'zlashtirilmagan mamlakatlarda FIFA o'zining maqsad va vazifalarini Nizom asosida quyidagi tartibda amalga oshiradi:

- maqsadga muvofiq deb hisoblangan futbol o'yinini har qanday yo'llar bilan targ'ibot qilish va rivojlantirish.

- milliy federatsiyalar, konfederatsiyalar, hamda ularning o'yinchi-lari va rasmiy shaxslari orasida har qanday pog'onada futbol o'yinlarini tashkil qilishda do'stona munosabatlarni mustahkamlash va mumkin bo'lgan barcha usullar bilan futbolni qo'llab quvvatlashdan iborat.

Futbolning har qanday ko'rinishini nazorat qilish, o'z vaqtida Nizom qoidalarining buzilishini oldini oluvchi tegishli va maqsadga muvofiq qadamlarni qabul qilish, nojo'ya yoki shunga o'xshash usullarni o'yin amaliyotiga kirib kelishini va suiste'mol qilinishlarini oldini olishdan iboratdir: davlatga yoki alohida shaxsga nisbatan millatchilik, diniy yoki siyosiy mavzularda kamsitishlik (diskriminatsiya) man etiladi.

Davlatga, alohida shaxsga nisbatan millatchilik, diniy yoki siyosiy mavzularda kamsitishlik mavjud, hamda sportda qonun asosida kamsitishlik ruxsat etilgan har qanday mamlakatlardagi Milliy federatsiyalar FIFA tarkibiga kiritilmaydi yoki uning a'zosi bo'lib hisoblanib kelgan bo'lsa, qatordan chiqarib yuboriladi. Xalqaro musobaqalarda qatnashish yoki ularni tashkil qilish haqida Milliy federatsiya tomonidan FIFAgaga murojaat etilganda Xalqaro Futbol Federatsiyasining barcha qoida shartlarini hurmat etishga kafolat beriladi.

Ikki yoki undan ortiq Milliy federatsiyalar orasida yuzaga keladigan har qanday kelishmovchiliklar FIFA Nizomi va me'yoriy hujjatlari asosidagi muvofiqlashtirish printsiplari ta'minlanadi.

Xalqaro sport federatsiyalari mustaqil tashkilot hisoblanadilar, o'z faoliyatlarida ular hech qanday boshqa xalqaro birlashmalarga itoat etmaydilar, faqat Olimpiya O'yinlarini o'tkazish tartibini va dasturini belgilovchi Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi bundan istisnodir. Lekin ushbu holatda ham Federatsiyalar o'zlarining sport turlari bo'yicha texnikaviy rahbarlikka to'liq mas'uldirlar.

Umuman olganda, Xalqaro sport tashkilotlarini muhim Xalqaro huquq institutlari qatoriga kiritish mumkin, ular o'z faoliyatlarini xalqaro huquqshunoslikning umum tan olingan me'yorlariga asoslaydilar, tinchlikni saqlash va Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish manfaatlariga xizmat qiladilar.

Shuni ta'kidlash lozimki, Xalqaro sport faoliyatida alohida e'tiborga loyiq muhim masalalar mavjud. Jumladan, xalqaro sport federatsiyalari nafaqat professional sport (yuksak ko'rsatkichli sport)ni rivojlantirish maqsadida tuziladi va faoliyat ko'rsatadi, balki amalda "sport barcha uchun", "ommaviy sport" uchun ham xizmat qiladi. Nizomlarda sport turlariga qarab tegishli satrlar bo'ladi: FIFAni oladigan bo'lsak, "FIFA tomonidan yoki uning ijrochi qo'mitasi tomonidan mos deb qabul qilingan holatlarda har qanday yo'l bilan futbol o'yini rivojiga hissa qo'shish". Nizomlarda har xil mamlakatlarda u yoki bu tegishli sport turining rivoji va faoliyati haqida albatta tegishli yozuvlar mavjud, lekin tadqiqodchilarning fikrlariga ko'ra, ko'pchilik hollarda nizomdagi ushbu yozuvlar keng omma orasida sportni rivojlantirishga tegishli hissa qo'shmayotganligi qayd etiladi. Amalda "sport barcha uchun" vazifasini bajarishning qiyinchiliklari bir necha sabablarga bog'liqdir, ulardan asosiysi moliyaviy etishmovchilikdir. Odatda, har qanday xalqaro sport federatsiyalarining moliyaviy mablag'lari har bir Milliy federatsiyaning yillik a'zolik badalidan tashkil topadi va eng birinchi navbatda "yuksak ko'rsatkichli sport" ehtiyojlariga sarflanadi. Shuning uchun "sport barcha uchun", "ommaviy sport" rivojini qo'llash hukumatning mahalliy organlari va mahalliy (milliy) sport tashkilotlarining zimmasiga yuklatilgan bo'ladi.

Sport marketingi juda murakkab va dinamik tizim bo'lib, marketing nazariyasi, marketing printsiplarini sport mahsulotlarini ishlab chiqarish, sport jarayonlari va boshqa maxsus sport amaliyotlariga tadbiiq etish bilan bog'liq bo'lan faoliyatdir.

Webster lug'ati sportni istirohat manbai yoki jismoniy faollik deb ta'riflaydi. Sport bizni kundalik ro'zg'ordan chalg'itadi va yaxshi kayfiyat beradi. Lekin u baribir boshqa istirohat turlari – kinematograf, opera yoki kontsertdan farq qiladi. Gap shundaki, sportda kutilmagan voqea ro'y berishi

mumkin va u voqealarni ishtirokchilar nazorat etmaydilar. Kinokomediya borayotganimizda biz kulishga, qo'rqinch kinoga ketayotganimizda qo'rqishga tayyor turamiz. Lekin sport musobaqasiga borayotganimizda qanday hissiyotlar bizni kutayotganligini bilmaymiz. Agar biz muxlislik qilayotgan jamoa g'alaba qozonsa, biz xursand bo'lamiz, aks holda hafagarchilikka tushamiz. Natija va tomoshabinlar hissiyotlari noma'lumligidan sport prodyuserlari murakkab muammolarga duch kelishadi: hissiyotlar noma'lumligini susaytirishga harakat qilishadi, sport musobaqalarini qiziqarli tomoshaga aylantirishga urinishadi.

Masalan, tennis musobaqalarini tashkillashtiruvchilar, bu musobaqalarni an'anaviy istirohat voqealariga o'xshatish maqsadida tennis kortlarini turli ranglarga bo'yashgan, sportchilarga bir-birlari bilan janjallashishlariga ruxsat berishgan, setdagi o'yinlar sonini kamaytirishgan. Alan Bryu aytganidek, sport va istirohat orasida farq qolmadi.

Sport va istirohat orasidagi bog'liqlikni bilmaydigan sport tashkilotlari marketing sohasida so'qirdilar. Teodor Levitt ushbu fenomenni biznesni tovar va xizmatlar orqali ta'riflash, biroq mijozlar izlayotgan xususiyatlar deydi. Sport tashkilotlari so'qirlikdan tuzalishlari mumkin, buning uchun o'z resurslarini mijozlarini qondirishga sarflashlari lozim.

Sport sanoati uchta asosiy usuldan iborat: sport talabgorlari, sport mahsulotlari va sport ta'minlovchilar. Uning maqsadi – uch xil talabni qondirishdir: tomoshabinlar, ishtirokchilar va homiylar.

Agar sport hodisasi – sport sanoati yuragi bo'lsa, tomoshabinlar – uning qoni. Tomoshabinlar talabgorlardir, ular voqealarni iste'mol qilishadi. Ularsiz sport sanoati mavjud bo'lolmaydi.

Tomoshabinlar ikkiga bo'linadi: jismoniy va yuridik. Ikkala toifa tomoshabinlar ham sport musobaqasini ikki xil tomosha qilishadi: shaxsan yoki mediatranslyatsiya orqali. Korporativ va xususiy tomoshabinlar orasida inqirozlar bo'lib turadi. Stadionlardagi oddiy tomoshabinlar korporativ mijozlar chiptalarni qimmatga sotib olib, ularga halal beradi, deb o'ylashadi.

Sport musobaqalari uchun ommaviy axborot vositalari ham juda muhimdir. Bunda korporativ mijoz vositachilik qiladi. Masalan, CBS telekompaniyasi golf turnirini translyatsiyasi huquqini sotib olgan, bu turnir bilan millionlab jismoniy teletomoshabinlar tomosha qilishadi.

Avvaliga sport musobaqalari bevosita tomoshabinlar uchun mo'ljallangan bo'lsa, keyinchalik ular teletomoshabinlarga mo'ljallana boshlandi. Masalan, o'yinlar grafigi ESPN telekanali grafigiga moslashtirildi.

Shunday qilib, sport marketingida korporativ va ular vositasida jismoniy, xususiy tomoshabinlar, sport mahsulotlari talab bozorini qondirish eng bosh masalasidir. Bunda nafaqat sport voqealari, balki sport tovarlari, sport yulduzlari

foydalanadigan sport anjomlari ham bosh mezondir. Bular hammasi sport marketingini yurgizishda eng asosiy omillardir.

Bozor - iqtisodiy qonuniyatlarga binoan, faoliyat ko'rsatadigan va rivojlanadigan murakkab jarayon hisoblanadi. Bozor sotuvchiga xaridorni, xaridorga esa sotuvchini topishga yordam beradi. Bozorda tovar ekvivalent ravishda pulga ayraboshlanadi. Bozor oldi-sotdi munosabatlariga kiruvchi millionlab jismoniy va yuridik shaxslarni qamrab oladi.

Bozor iqtisodiyotiga asoslanib rivojlanayotgan mamlakatlarda marketing mustahkam pozitsiyani egalladi. Marketing bo'yicha ko'p sonli ilmiy-amaliy ishlanmalar chop etilgan, butun dunyo ilg'or universitetlari marketing bo'yicha minglab mutaxassislarni chiqarmoqda. Hozirgi kunda ko'plab marketing xizmati, marketing va konsalting firmalari mavjud. Rivojlangan mamlakatlarda har yili marketingga milliard dollarlab xarajatlar qilinadi. Uzoqni ko'zlovchi tadbirkorlar va menejerlar marketingning biznesdan ajralmasligini va raqobatlar mavjud bo'lgan sharoitda uning roli beqiyos ekanligini yaxshi tushunishadi.

Iqtisodiyotning barqarorlashuvi va o'sishi sharoitida tadbirkor bozor talablariga mos harakat qilishga majbur, iste'molchilar talabini hisobga olishi, raqobat kurashi uslublarini o'zlashtirishi, tovarni sotish va siljitishda marketing instrumentlarini qo'llash, tijorat faoliyatida marketing strategiyasiga tayanishi kerak.

Shu fikrni qayd etish joizki, marketing fani AQSHda paydo bo'lib, dunyoning boshqa davlatlariga tarqala boshladi. 90-yillarga kelib marketing Yaponiya, Italiya, Germaniya va boshqa mamlakatlarda rivojlanib, bu sohada chuqur ilmiy izlanishlar olib borildi. Bu mamlakatlarda marketing sohasida ancha yangiliklar yaratildi. Bizning mamlakatimizda esa marketing fani 80-yillarning boshlaridan o'qitila boshladi. Marketing markazlari bo'lmaganligi, marketing sohasida mahalliy tajriba etarli emasligi sababli dastlabki davrlarda marketingni xorijiy adabiyotlardan o'rgana boshladik.

Dunyo amaliyotida marketing birdaniga paydo bo'lgan emas. Bu – ishlab chiqarish va sotishning maqsadi, vazifalari va rivojlanish uslublariga menejerlarning ko'p yillik evolyutsion qarashlari natijasidir. Masalan, qadim-qadim zamonlarda etikdo'z ustaxonasining peshtog'iga bir juft ta'mirlangan etikni osib qo'yib, marketing atamasi va marketing kontseptsiyasi keyinchalik paydo bo'lganligiga qaramasdan, bozorga tovar siljitishning ayrim usullaridan foydalangan.

Mashhur iqtisodchi Adam Smit XVIII asrning ikkinchi yarimidayoq o'zining "Jamiyat boyligi" nomli kitobida ishlab chiqaruvchining iste'molchining talabini qondirishdan boshqa qayg'usi yo'qdir - deb yozgan edi.

Marketing tadqiqotlari AQSHda boshlanib o'tgan asrning 80-yilaridan boshlangan. Avvalo marketing u yoki bu mahsulotga bo'lgan talabni o'rganishdan boshlangan. Keyinchalik marketing tadqiqotlari qanday mahsulot ishlab chiqarish, ishlab chiqarishni tashkil qilish masalalariga bag'ishlandi.

XX asrning 50-yillaridan marketing fani oliy bilimgozlarda o'qitila boshlandi. Marketing sohasida mutaxassislariga bo'lgan talab ham shu yillardan oshib bordi.

Oliy bilimgozlarda marketing mutaxassislarini tayyorlash boshlandi. 50-yillarning o'rtalaridan boshlab marketing tadqiqotlari iste'molchilarni o'rganish, ularning bozorlardagi xatti harakatlarini tahlil qilish, tovar oborotining hajmini tahlil qilish, reklama faoliyatini tadqiq qilish, tovarlarning bozordagi harakatining eng samarali usulini aniqlash, talab va taklif munosabatlariga qarab narxni o'zgartirish masalalariga bag'ishlanadi.

60-yillardan boshlab reklama faoliyatini rivojlantirish, firma, kompaniya, tovarlarning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar avj oldi. Ilmiy izlanishlar natijasi tezlik bilan amaliyotga joriy qilina boshlandi. Yirik firma va kompaniyalar o'z tarkiblarida marketing xizmatini tashkil qila boshladilar. Marketolog mutaxassislar eng ko'p maosh oladigan nufuzli kishilarga aylandilar.

AQSHda ko'plab marketing xizmati ko'rsatadigan firmalar paydo bo'ldi. Ularning soni 90-yillarning o'rtalariga kelib, 700 mingtadan oshib ketdi. Marketing asoslarini firma, kompaniyalarning rahbarlari ham o'rgana boshladilar. Ayniqsa, tovarlarni sotish bilan shug'ullanadigan mutaxassislar bozorlarni tadqiq qilish usullariga o'qitiladigan bo'ldilar. AQSHda marketing muammolariga bag'ishlangan ko'plab jurnallar chop etila boshlandi. 50-yillardan boshlab marketing G'arbiy Evropa, YAponiya, Lotin Amerikasi mamlakatlariga tarqala boshladi.

Marketing sohasida etakchilik vaqti bilan Germaniya, YAponiya, Italiya mamlakatlariga o'tdi. Katta shaharlar tashqarisida supermarketlar tashkil qilish, mahsulot sotish hajmi kamaya borganda marketing tadbirlarini amalga oshirish Italiya marketolog olimlari tomonidan ishlab chiqilib, amaliyotga keng qo'llanildi.

Yapon marketingi ham iste'molchilarning xohishlarini hisobga olib uni to'la qondirishni asos qilib oldilar.

Amerika marketingida potentsial iste'molchini mahsulotni sotib olishga ko'ndirish, asosiy masala bo'lsa, yapon marketingida marketing tovarlar va xizmatlar orqali iste'molchilarga xizmat qilish bosh vazifa deb qaraladi. Shu maqsaddan kelib chiqib YAponiyada quyidagi shior paydo bo'lgan: "Tovarlar

va xizmatlar o'zlari uchun o'zlari so'zlasinlar". AQSHda esa ushbu shior "tovarlar va xizmat uchun sotuvchilar gapirsinlar" degan shiorga amal qiladi.

Yaponiyada asosiy e'tibor ichki va tashqi bozorni tadqiq va tahlil qilish, talabni oldindan taxmin qilish, yangi bozorlarga kirib borish usullari, reklama faoliyatiga tegishli muammolarga qaratildi. Mahsulotni sotish va taqsimlash borasida ham Yaponiyaga xos yo'l-yo'riqlar ishlab chiqildi.

Yaponiyada ishlab chiqilgan tovarlarni sotish yo'l-yo'riqlari quyidagicha:

1. Marketing bo'limi rahbarligida o'zining tovarlarini sotish tizimini tashkil qilish.

2. O'z mahsulotlarini sotish bilan shug'ullanadigan maxsus savdo kompaniyasini tashkil qilish.

3. Tovar ishlab chiqaruvchi kompaniya nazoratida bo'ladigan ko'tara va chakana savdo tarmoqlarini tashkil etish.

Yaponiya avtomobil kompaniyalari "Tayota avto", "Tayota avto Seylz" va boshqalar ko'proq ikkinchi usuldan foydalanadilar.

Uchinchi usul ko'proq kosmetika, farmatsevtika va maishiy, elektron texnikalarni ishlab chiqaruvchi kompaniyalarda qo'llaniladi. Yaponiya marketingining o'ziga xos xususiyatlaridan biri, talabni hisobga olib turib taklifni shakllantirishda komp'yuter texnikasidan foydalanishdir.

Ko'pchilik yapon firmalarining marketing bo'limlarining kundalik faoliyat natijalari komp'yuterlarda qayd qilinadi. Yirik supermarketlar komp'yuterlar bilan jihozlangan tovarlarga bo'lgan talablar va mahsulotlar assortimenti to'g'risida xabarlarni mintaqaviy omborlarga etkazib beruvchi tizimlar bilan jihozlangan.

Kompyuter yordamida supermarketlarda va maxsus omborlarda saqlanadigan tovarlar zaxirasi va tovarlarga berilgan buyurtmalar bo'yicha ularni etkazib bergan vaqtini keskin kamaytirishga erishadilar. Ayniqsa, tovarlarni taqsimlaydigan mintaqaviy markazlarni tashkil qilish va ularni yirik rahbarlik tashkilotlariga birlashtirilishi barcha tovarlarni taqsimlovchi markazlarning faoliyatini ijobiy tomonga burdi. Komp'yuterlar orqali iste'molchilarga ularning barcha talablarini qondirishga qaratilgan ommaviy tizim yaratildi va tizim bir yo'la talabni hisobga olib jamiyat va ishlab chiqaruvchilarga aniq buyurtmalar berish imkonini yaratdi.

Marketing fani ishlab chiqarishni samarali tashkil qilib, mahsulotlarni taqsimlash, uni tezlikda iste'molchilarga sotishda katta rol o'ynaydi. Xorij mamlakatlarida sport marketingining maqsadi - bu qat'iy fanning va bozorda samarali faoliyat ko'rsatishning mujassamlashishidir. Bu atama dastlab 1902 yilda AQSHda paydo bo'lgan, 20 yildan keyin esa bu atamadan jahonning

ko'pgina mamlakatlari foydalana boshladilar. Marketing (market) so'zi ingliz tilidan tarjima qilinganda "bozordagi faoliyat" ma'nosini anglatadi.

Marketing - murakkab, dinamik, ko'p qirrali tushunchadir, bu esa marketingga tamoman universal tavsif berish mumkin emasligidan dalolatdir. So'nggi yillarda chop etilgan marketingga doir adabiyotlarda marketingning juda ko'p ta'riflari berilgan. Ulardan ba'zi birlarini keltirishni lozim topdik.

Taniqli Amerika olimi - marketolog F.Kotler marketingning ta'rifini quyidagicha ifodalaydi: "Marketing - tovarlarni yaratish, taklif etish va ayriboshlash asosida ayrim olingan kishi va guruhlarning talab va ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan iqtisodiy va boshqaruv jarayonidir".

Boshqaruv muammolari bo'yicha etakchi nazariyotchi olimlardan biri Peter Drukkerning ta'rifi esa quyidagicha: "Marketingning maqsadi sotishga qaratilgan harakatlarni yo'q qilishdan iboratdir. Uning maqsadi xaridorlarni shunday o'rganish va tushunishdan iboratki, tovar va xizmatlar uning talabiga aynan mos tushib, pirovardida o'zini-o'zi sotadi".

Frantsuz marketing maktabida qo'llaniladigan ta'rif ham Peter Drukker ta'rifiga juda yaqin turadi. Unga ko'ra: "Marketing - bu sotishni ta'minlash va sotuvga tovarlar va xizmatlarni iste'molchilarning talabiga mos holda chiqarish orqali ularning talabini qondirish maqsadida o'tkaziladigan chora-tadbirlar majmuidir".

Amerika Marketing Assotsiatsiyasining 1985 yilda marketingga bergan ta'rifi esa quyidagicha: "Marketingning mohiyati insonlar va tashkilotlar talabini qondirish maqsadida tovar va xizmatlar ishlab chiqarishni rejalashtirish va uni amalga oshirish, narx belgilash, tovarlar harakati va sotilishini uyushtirishdir".

Keltirilgan ta'riflardan ko'rinib turibdiki marketing -serqirra jarayondir. Shu bilan bir qatorda, marketing bozor munosabatlari sub'ektlarining biznes falsafasi, fikrlash strategiyasi va taktikasi faoliyati ekan, desak xato qilmagan bo'lamiz. Demak, marketing bir vaqtning o'zida "ham mushohada va ham harakat jarayoni" ekan. Hozirgi bozor iqtisodiyoti yuqori darajaga ko'tarilgan mamlakatlarda marketing tamoyillari oddiy tovar ishlab chiqarishdan boshlab, to murakkab texnologiyalargacha bo'lgan jarayonlarda yaqqol ko'rinmoqda. Bugungi bozor iqtisodiyoti tobora chuqurlashib borayotgan sharoitda firmalar, korxonalar va boshqa bozor sub'ektlarining raqobatga bardosh berib, samarali faoliyat ko'rsatishining birdan-bir yo'li marketing imkoniyatlaridan keng foydalanish ekanligi hech kimga shubha tug'dirmaydi.

Respublikamizda ham so'nggi yillarda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan tovarlarga talab va taklifni o'rganish bo'yicha marketing tadqiqotlarini o'tkazish mexanizmini ishlab chiqish borasida talaygina ishlar amalga oshirildi.

Bu esa bizning davlatimizda ham marketingning bozor qonun-qoidalariga muvofiq xo'jalik yuritish tizimining asosiy vositasiga aylanish davri boshlanganligidan dalolatdir.

Bu erda marketingning quyidagi asosiy tamoyillariga amal qilish talab etiladi:

1. Iste'molchilar ehtiyoji bo'yicha qarorlar qabul qilganda, talabning holati dinamikasi va bozor konyukturasini diqqat bilan o'rganish. Bu tamoyilga amal qilish mavjud talab va kutilayotgan talab darajasi bo'yicha bozor holatini, raqobatchilarning bozordagi faoliyatini, mijozlarning bozordagi hulq-atvori va ularning mazkur korxonaga tovariga munosabatlarini yaxshi bilishni ko'zda tutadi. Bu erda marketingning bosh vazifasi mijozlarning nimani xohlashlarini tushunib etishdan iboratdir.

2. Ishlab chiqarishning talab strukturasi va bozor talabiga maksimal darajada mosligini ta'minlashga sharoit yaratish.

Marketingning hozirgi zamon kontseptsiyasi korxonaning butun faoliyati (ishlab chiqarish, ilmiy-texnik, sotish va hokazo) iste'molchilar talabi va uning kelgusidagi o'zgarishi bilan bog'liq bilimlarni o'z ichiga oladi. Marketing iste'molchilar talabi mavjud bo'lgan tovarlarni yaratish, ishlab chiqarish va sotish jarayonlari demakdir. Marketing xizmati korxonaning ishlab chiqarish, ilmiy texnikaviy, moliyaviy siyosatini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu erda talabning holati va o'sish darajasini tahlil qilish asosida u yoki bu mahsulotni ishlab chiqarish zaruriyati bor yoki yo'qligi haqida xulosa qilinadi.

3. Asosiy iste'molchilarga mazkur korxonaning tovarlari haqida ma'lumot berish va ularning aynan shu korxonaga tovarlarini sotib olishlariga asosan, reklama va ruxsat etilgan boshqa vositalar orqali ta'sir ko'rsatish.

Marketingning turlari. Hozirgi kunda marketing iste'molchilar talabini qondirish bilan bog'liq bo'lgan hamma faoliyat turlarida qo'llaniladi. Ana shularning ayrimlari bilan tanishamiz.

Agar marketing ayrim olingan korxonaga darajasida qo'llanilsa, mikromarketing deb ataladi. Ayrim olingan davlat yoki Xalqaro miqyosida qo'llanilgan hollarda makromarketing deyiladi.

Shaxs marketingi deganda, aniq shaxsga nisbatan jamoatchilik fikrini qo'llab-quvvatlash va o'zgartirish bilan bog'liq faoliyat yuritish tushuniladi. Ko'pgina shaxslar, xususan, siyosiy faoliyat bilan shug'ullanuvchilar, artist, shifokor, sportchi, tadbirkorlar o'zining dong'ini taratish va biznesini rivojlantirish maqsadida ishchi xodim marketingdan foydalanadilar.

G'oyalar marketingi asosan, chekish va spirtli ichimliklar iste'mol qilish darajasini kamaytirish, giyohvand moddalar iste'molini to'xtatish, atrof-muhitni himoya qilish bilan bog'liq ijtimoiy g'oyalarga qaratiladi.

Joy marketingi deganda, xaridorlarning ayrim olingan hudud, joylarga nisbatan mijozlar munosabatini o'zgartirish, tashkil etish va saqlab qolish bilan bog'liq faoliyat tushuniladi. Masalan, qadimiy shaharlarimiz hisoblanmish Samarqand, Xiva, Buxoro shaharlariga xorijiy mamlakatlardan sayohlarning tashrifini yanada ko'paytirish maqsadida sayohlik tashkilotlar marketing faoliyatini yuritadilar.

Bozorni qamrab olish hajmi bo'yicha ommaviy marketing, differentsiyalashtirilgan va maqsadli marketinglar to'g'risida fikr yuritish mumkin.

Ommaviy marketing - hamma xaridorlar uchun mo'ljallangan, ko'p miqdorda ishlab chiqariladigan bir tur tovarlarning marketingidir. Masalan, bir vaqtlar "Koka-kola" kompaniyasi hamma bozorlarda sotiladigan bir turdagi mahsulot ishlab chiqargan. Bunday yondashuv mahsulotlarni eng past narxda sotishga imkon beradi.

Differentsiyalashtirilgan marketing deganda hamma xaridorlar uchun mo'ljallanib, lekin har xil xususiyatga ega bo'lgan, bir necha xil mahsulotlarning ishlab chiqarilishi va marketingi bilan tavsiflanadigan marketing turi tushuniladi. Masalan, hozirgi kunda "Koka-kola" kompaniyasi har xil qadoqlangan bir necha tur spirtsiz gazlashtirilgan ichimliklar ishlab chiqarmoqda.

Maqsadli marketing - marketingning shunday turiki, bunda mahsulotlar ma'lum bir bozor segmenti uchun ishlab chiqariladi va ularning marketingi ana shu bozor segmentiga mo'ljallab tashkil etiladi.

Shuningdek, marketingning turi talabning holatiga qarab, ham har xil bo'ladi.

O'zgartiruvchi marketing - iste'molchilarning talabi salbiy bo'lgan hollarda qo'llaniladi. Uning maqsadi iste'molchilarning salbiy munosabatini ijobiy tomonga o'zgartirishdan iboratdir. Masalan, tamaki firmalari tarkibida nisbatan kantserogen moddalari kam bo'lgan sigaretalar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va reklama tadbirlarini kuchaytirish yo'li bilan iste'molchilarni jalb qilishga harakat qiladilar.

Rag'batlantiruvchi marketingdan tovar va xizmatlarga talab bo'lmay qolgan hollarda qo'llaniladi. Rag'batlantiruvchi marketingning asosiy instrumenti - narxlarni keskin pasaytirish, reklamani kuchaytirish va tovarni siljitishning samarali uslublaridan foydalanishdir.

Rivojlantiruvchi marketing tovarlarga yashirin talablar mavjud bo'lgan holatlarda qo'llaniladi. Masalan, zararsiz sigaretalar va yoqilg'ini tejaydigan avtomobillarga bo'lgan talabni yashirin talabga kiritish mumkin. Bu erda rivojlantiruvchi marketingning asosiy instrumenti bo'lib, o'zgargan talabga mos

yangi tovar ishlab chiqarish, reklamadan foydalanish, aniq iste'molchilar guruhiga mo'ljallangan tovarlar ishlab chiqarish va hokazolar hisoblanadi.

Remarketing - tovarning haddan tashqari ko'payishi natijasida unga bo'lgan talab pasaygan vaqtlarda qo'llaniladi.

Demarketing – talab juda yuqori bo'lgan sharoitda qo'llaniladigan marketing turidir. Uning vazifasi talabni vaqtinchalik cheklashga qaratiladi. Demarketingning asosiy instrumenti narxni oshirish va reklama tadbirlarini to'xtatib qo'yishdan iboratdir.

Qo'llab-quvvatlovchi marketing - talab va taklif bir-biriga mos kelgan sharoitda, mavjud talabni uzoqroq muddatga saqlab qolishda foydalaniladigan marketing turidir.

Aks ta'sir etuvchi marketing - inson hayoti uchun zararli bo'lgan mahsulotlarni iste'mol qilmaslikka undash kerak bo'lgan paytlarda qo'llaniladigan marketing turidir. Masalan, insonlarni narkotik moddalarni va spirtli ichimliklarni iste'mol qilishdan voz kechishga chaqirish maqsadida narxning keskin oshirilishi, ularning zarari haqida doimiy axborotlar berib turishda mazkur marketing turidan foydalaniladi.

Marketingning mohiyatini chuqurroq anglab etish uchun marketing munosabatlarining ishtirokchilari, obyektlari, sub'ektlari, maqsadlari, kontseptsiyalari, turlari va funksiyalari haqidagi bilimlarga ega bo'lish kerak. Marketingning obyektlari deganda moddiy tovarlar, xizmatlar, g'oyalar tushuniladi. Ko'pincha bu obyektlarni "Tovarlar" tushunchasiga birlashtiriladi.

Marketing sub'ektlari deganda esa, ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar, marketing bo'yicha mutaxassislar, vositachilar va hokazolar tushuniladi.

Marketing sohasidagi adabiyotlarda asosan, marketingning to'rtta maqsadi keltiriladi. Bular quyidagilar hisoblanadi:

1. Mumkin bo'lgan maksimal yuqori iste'molga erishish.
2. Iste'molchilarning talabini maksimal qondirilishiga erishish.
3. Iste'molchilarga keng assortimentdagi tovarlarni tanlashiga imkoniyat yaratish.
4. Aholi turmush darajasi sifatini oshirish.

Mumkin bo'lgan maksimal yuqori iste'molga erishish. Ko'pchilik rahbarlar marketingning maqsadi - ishlab chiqarishning maksimal o'sishi va korxonaning boyishida asosiy omil yuqori iste'molga erishishni rag'batlantirishda deb biladilar. Bu fikrni boshqacha ifodalasak, odamlar qancha ko'p sotib olsa va qancha ko'p iste'mol qilishsa, shuncha baxtli bo'ladilar degan ma'noni anglatadi. Lekin ba'zi bir kishilar moddiy boyliklar massasining ortishi katta baxtga erishishdan dalolatdir, degan fikrga shubha bilan qaraydilar. Demak,

marketingning maqsadi faqat mumkin bo'lgan maksimal iste'molga erishishdangina iborat emas ekan.

Iste'molchilarning talabining maksimal qondirilishiga erishish. Bu nuqtai nazarga muvofiq marketing tizimining asosiy maqsadi mumkin bo'lgan maksimal yuqori iste'molga erishish emas, balki iste'molchilarning talabini maksimal qondirishdan iboratdir. Bu degani tovar massasi iste'moli ko'p bo'lsada, u biron-bir ahamiyatga ega bo'lmasligi mumkin. Ularning ahamiyatligi, tovar massasining ko'pligi bilan emas, balki bu tovar massalarining qanchalik darajada iste'molchilarning talabini qondira olishi bilan o'lchanadi. Afsuski, iste'molchilarning talabining qondirilish darajasini o'rganish to hozirgi kungacha muammoligicha qolmoqda.

Iste'molchilarga keng assortimentdagi tovarlarni tanlashga imkoniyat yaratish. Ba'zi bir bozor mutaxassislari marketing tizimining asosiy maqsadi tovarlar xilma-xilligini maksimal ta'minlash va iste'molchilarning keng assortimentdagi tovarlarni tanlashga imkoniyat yaratishdan iboratdir deb hisoblaydilar. Tizimning maqsadi iste'molchining talabiga to'liq mos keladigan tovarni topishiga yordam berishdan iborat bo'lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, sport rivojida hozirgi zamon sport menejmenti va marketingining ahamiyati kuchayib borayapti.

Takrorlash uchun savollar

1. Xalqaro sport aloqalarining davlatlararo munosabatlari qanday?
2. Davlatlararo, hukumatlararo va nodavlat xalqaro tashkilotlar tushunchalari nimalardan iborat?
3. Milliy jamoat tashkilotlari, ittifoqlar tushunchalari nimalardan iborat?
4. Xalqaro sport birlashmalari tarkiblari qanday?
5. Xalqaro nodavlat tashkilotlarning asosiy belgilari qanday?
6. Sport marketingi nima?
7. Xorij mamlakatlarida sport marketingi qanday shakllangan?
8. Xorij mamlakatlarida sport marketingining maqsadi?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
2. Gulyamov Z.T., Nabiullin R.X., Kamilova G.Z. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti. Darslik. –T.: O'zDJTI, 2015.
3. Akramov R. S veroy v iskrenniy futbol. –T.: Yangi asr avlodi, 2012.
4. Prchinkin A.V. Menedjment v sfere fizicheskoy kulturi i sporta. –M.: Sovetskiy sport, 2010.

Elektron ta'lim resurslari:
Internet saytlari

1. www.bilim.uz
2. www.ekonomika.ru
3. www.menejment.com
4. www.edu.uz-Vazirlik sayti
5. www.ziyo.edu.uz-Vazirlik sayti

6.3. Olimpiya harakati rivojida sport menejmentining o'rni

Reja:

1. Olimpiya harakatidagi sport menejmentining mohiyati.
2. O'zbekistonda Olimpiya harakati sport menejmentining rivoji.
3. O'zbekistonda Olimpiada tashkilotlari.
4. O'zbekistonda Olimpiya harakati tufayli yuzaga kelgan yangi sport turlari.
5. Sport menejmentining Olimpiya harakati va sport turlarining rivojidagi o'rni.

Tayanch so'z va iboralar:

Olimpiya harakati, sport menejmenti, mohiyati, rivoji, Olimpiada tashkilotlari, yangi sport turlari, Olimpiya qo'mitasi, qo'mita Nizomi, Olimpiada kengashi, Olimpiada ijroiysi, Olimpiada prezidenti, Olimpiada ijrochi direktori, Xalqaro Olimpiada Qo'mitasi, XOQ, Olimpiada xartiyasi, Milliy Olimpiada, jamoat akademiyasi, Olimpiya muzeyi, madaniyat dasturi, Olimpiya dasturlari.

Sovet Ittifoqining tugatilishi munosabati bilan 15 ta ittifoqdosh Respublikalar o'rnida Milliy olimpiya qo'mitalari tuzila boshladi, ular jamoatchilik sport tashkilotlari sifatida er yuzida jismoniy tarbiya va sport rivojiga katta xizmat qilib kelayaptilar. Olimpiya harakatidagi sport menejmentining mohiyati faoliyat usuliga ko'ra, jamoaning rahbar organi Olimpiya qo'mitasi hisoblanadi. Qo'mita o'zining Nizomi asosida ish yuritadi. Nizomga ko'ra qo'mita tarkibi quyidagicha:

- Olimpiada kengashi;
- Olimpiada ijrokomi;
- Olimpiada prezidenti;
- Olimpiada ijrochi direktori;

- Olimpiada ijrochi direktori O'zbekiston Olimpiada qo'mitasi prezidenti tavsiyasiga ko'ra, Olimpiada ijroiya tomonidan tayinlanadi, Respublika Olimpiada qo'mitasi a'zosi sifatida keng vakolatlarga ega hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Olimpiada qo'mitasining maqsad va vazifalari.

Xalqaro Olimpiada Qo'mitasining Olimpiada xartiyasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Olimpiada o'yinlariga, o'smirlar Olimpiada o'yinlariga va shu bilan bir qatorda, barcha regional, kontinental va jahon sport kompleksi musobaqalariga tavsiya etadi.

Olimpiya harakatlari bilan bog'liq bo'lgan fundamental printsiplar va olimpiada qadriyatlarini, xususan sport sohasi va ta'lim, Olimpiada ta'lim dasturi bilan bog'liq bo'lgan Olimpia maktablari, jismoniy tarbiya va sportga ixtisoslashgan pedagogik institutlar va universitetlar, Olimpiada ta'limiga bag'ishlangan jismoniy tarbiya va sport institutlari, universitetlari ochish g'oyalarini qo'llab quvvatlash. Bular qatoriga Milliy Olimpiada jamoat akademiyalari, Olimpiya muzeylari va Olimpiya harakatlari bilan bog'liq bo'lgan boshqa madaniyat dasturlari, Olimpiya harakatlari bilan bog'liq bo'lgan dasturlar kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Olimpiada qo'mitasi tomonidan Xalqaro Olimpiada Qo'mitasining Olimpiada xartiyasini bajarilishini ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasida ommaviy sport va yuksak ko'rsatkichli sportni rivojlanishiga ko'maklashish.

O'zbekiston Respublikasida sport boshqaruvida ishtirok etuvchi rahbarlarni, menejrlarni, mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlashda qatnashish, ilmiy amaliy konferentsiyalar, kengash va seminarlarni shunday tashkil etishish, ular yurtimizda Olimpiya harakatlarini maksimal darajada tashviqot qilish.

Sportning sof, toza, musaffo bo'lishi uchun kurash, shu jumladan, Butunjahon dopingga qarshi kurash Kodeks talablariga og'ishmay amal qilish va bajarish.

Xalqaro Olimpiada Qo'mitasining Olimpiada xartiyasini bajarilishini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Olimpiya harakatini har tomonlama rivojlantirish, targ'ibot va himoya qilish.

Jismoniy tarbiya va sport vositasida O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini Olimpiya ta'limiga, jismoniy va ma'naviy tarbiyasiga ko'maklashish. O'zbekiston sportining Xalqaro miqyosda mavqesini mustahkamlash va obro'sini oshirish. Sportdagi har qanday kamsitishlik va zo'ravonlikka qarshi kurash.

O'zbekiston Respublikasi Olimpiya qo'mitasining nizomiy maqsadlarini amalga oshirish uchun:

Xalqaro Olimpiada Qo'mitasining tan olishi asosida va XOQning Olimpiada xartiyasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Olimpiya o'yinlarida, XOQ tomonidan o'tkaziladigan o'smirlar Olimpiya o'yinlarida va barcha mintaqaviy, kontinental va Butunjahon sport musobaqalarida qatnashuvini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasini Olimpiya harakatlarini sport musobaqalarida qatnashuvini ta'minlaydi, XOQ a'zolarining manfaatlarini himoya qiladi va davlat hukumat federal tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi, o'zbekistonlik har qanday tashkiliy huquqiy shaklga ega bo'lgan va mulkchilik shakliga ega bo'lgan va qonun doirasida tuzilgan Xalqaro sport birlashmalari sport musobaqalarida qatnashuvini ta'minlaydi.

XOQning Olimpiada xartiyasi qoidalarining bajarilishiga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan, siyosiy, huquqiy, diniy va iqtisodiy har qanday zo'ravonliklarga qarshilik qiladi, o'zining mustaqilligini saqlashga har qanday imkoniyatlarni ishga soladi.

O'zbekiston Respublikasining barcha sport turlari bo'yicha terma jamoalarini tayyorlash, shakllantirish, tasdiqlash, Olimpiya o'yinlari va boshqa Xalqaro sport marosimlari, komplekslarini amaldagi sport federatsiyalari va mutasaddi davlat tashkilotlari bilan kelishgan holda musobaqalarda qatnashuvini ta'minlaydi, Olimpiada o'yinlarida ishtirok etishi shart hisoblanadi. Sportchilar, murabbiylar, rasmiy shaxslar, sport turlari bo'yicha terma jamoa a'zolarini (Olimpiya delegatsiyasi) yuboradi.

Xalqaro Olimpiada Qo'mitasi va Olimpiada xartiyasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Olimpiya o'yinlarida, XOQ tomonidan o'tkaziladigan o'smirlar Olimpiya o'yinlarida va barcha mintaqaviy, kontinental va Butunjahon sport musobaqalarida sport delegatsiyasiga rahbarlik qilish, jamoani shakllantirish va tashkil qilish ishlari bilan shug'ullanadi.

Musobaqalar vaqtida foydalaniladigan forma va ekipirovkalardan tashqari barcha rasmiy forma va ekipirovkalarni aniqlash, belgilash va tasdiqlash huquqiga ega.

Sport delegatsiyasini ekipirovkasini, manzilga etib borishi va yashashini ta'minlaydi, delegatsiya a'zolariga o'lim havfini, mehnatga yaroqsizlikni, kasallikni oldini oluvchi, tegishli sug'urtani rasmiylashtiradi, davolanish va dori-darmon sotib olish xarajatlarini qoplaydi, shu bilan bir qatorda, delegatsiya a'zolarining xulqiga javob beradilar.

Butunjahon dopingga qarshi kurash qo'mitasining tegishli Butunjahon dopingga qarshi qo'mita kodeksiga mos keluvchi dopingga qarshi kurash siyosat va XOQ qoidalarini joriy etadi va amalda qo'llaydi, shu bilan bir qatorda, a'zolikka aloqador masalalarda, moliyalashtirish, o'tkazilgan test natijalari

bo'yicha qarorlar qabul qiladi, hamda Butunjahon dopingga qarshi kurash qo'mita kodeksida ko'zda tutilgan MOKning roli va mas'uliyatini inobatga oladi.

Olimpiada hamjihatligi masalalarida ishtirok etadi. XOQ amalga oshiradigan Olimpiada marosimlarida ishtirok etadi, ushbu marosimlar qatoriga regional o'yinlar, XOQ so'roviga ko'ra, komissiyalar ishida qatnashadi, Olimpiada kongresslarini tayyorlashda XOQ tomonidan tan olingan, MOQ assotsiatsiyasi tarkibiga o'rnatilgan tartibda kiradi.

Olimpiada marosimlarini O'zbekiston Respublikasida tashkil etishga ariza beriladigan bo'lsa, tegishli shahar (manzil) aniqlanadi.

Olimpiada marosimlarini O'zbekiston Respublikasi yoki boshqa davlatlarida tashkil etiladigan bo'lsa, o'rnatilgan tartibda nomzodlarni tavsiya etadi.

Olimpiada ramzi, bayrog'i, shior va madhiyasi, "olimpiadachi" va "olimpiada" nomlarini olimpiada harakatini rivojlantirish maqsadida XOQ o'rnatgan tartibda va uning oldindan belgilagan ruxsati asosida foydalanadi.

Xalqaro Olimpiada Qo'mitasining va XOQning Olimpiada xartiyasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi tomonidan Olimpiya harakati, o'smirlar Olimpiya o'yinlari va Olimpiya o'yinlariga takliflar kiritadi.

Ta'lim muassasalariga Olimpiya harakati, o'smirlar Olimpiya o'yinlari va Olimpiya o'yinlari haqida bilimlar tarqatadi, faoliyati Olimpiya ta'limotini rivojlantirishga yo'naltirilgan tashkilotlarni tuzishga va shakllantirishga yordam beradi va hamkorlik qiladi.

Olimpiya harakati bilan bog'liq bo'lgan Olimpiya jamiyat akademiyasi, Olimpiya muzeyi, va Olimpiya harakati, o'smirlar Olimpiya o'yinlari va Olimpiya o'yinlari bilan bog'liq bo'lgan madaniy dasturlarni yaratadi va qo'llab quvvatlaydi.

Sportning madaniy tarbiyaviy salohiyatini va shular bilan bog'liq bo'lgan ma'naviy, estetik va boshqa insonparvarlik qadriyatlarni amalga oshirishga ko'maklashadi, sportda halol kurash ideallari va printsiplarini, ma'naviy-ma'rifiy va boshqa insonparvarlik qadriyatlarini qo'llab-quvvatlaydi va rag'batlantiradi.

Sportni rivojlantirish siyosatida, yuksak yutuqlarga yo'naltirilgan har xil jismoniy tarbiya va sport federal dasturlarini amalga oshirishda ishtirok etadi.

Yagona umumo'zbekiston sport tasnifi, jismoniy tarbiya va sport, sog'lomlashtirish va sport marosimlarini ishlab chiqish va tashkil etishda ishtirok etadi. Sport unvonlari bilan taqdirlash va boshqa jismoniy tarbiya va sport me'yoriy aktlari, fuqarolarni jismoniy tarbiyalash muammolari bilan

bog'liq bo'lgan ilmiy izlanishlar va yuksak yutuqlarga yo'naltirilgan har xil jismoniy tarbiya va sport federal dasturlarini rivojlantirish bilan shug'ullanadi.

Olimpiya harakati, o'smirlar Olimpiya o'yinlari va Olimpiya o'yinlari bilan bog'liq bo'lgan, yuksak yutuqlarga yo'naltirilgan har xil jismoniy tarbiya va sport dasturlari doirasidagi XOQ a'zolari faoliyatini muvofiqlashtiradi. Sportning milliy turlarini, xalq sport o'yinlarini o'tkazishni saqlashga va rivojlantirishga ko'maklashadi. Nogironlar orasida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini o'tkazishga ko'maklashadi.

Sportchi, murabbiy, sport arbitrlari va hakamlari, jismoniy tarbiya va sport veteranlarining manfaatlarini himoya qiladi.

O'zbekiston Respublikasida ommaviy sport va yuksak yutuqlarga yo'naltirilgan sportni rivojlantirishni maqsadidagi ko'maklashuvlarni tashkil etishdagi jamg'armalarda va mehribonlik tashkilotlarida qatnashadi.

Xalqaro Olimpiada Qo'mitasi va Olimpiada xartiyasi talablariga binoan, XOQga tegishli olimpiya ramzlaridan foydalanish huquqlari, shior, bayroq, madhiya, O'zbekiston Respublikasi hududidagi "Olimpiya o'yinlari"ni himoya qilish choralarini ko'radi. XOQ o'ziga tegishli olimpiya ramzlaridan foydalanish huquqlari, shior, bayroq, madhiya va O'zbekiston Respublikasining boshqa belgilariga ega.

XOQ va Olimpiada xartiyasi XOQga tegishli olimpiya ramzlari, shior, bayroq, madhiya foydalanish huquqlariga ega hamda O'zbekiston Respublikasi hududidagi "Olimpiya o'yinlari", shu bilan bir qatorda, XOQ o'ziga tegishli olimpiya ramzlaridan reklama va tijorat sifatida foydalanadi.

O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida ayollar va yoshlarning olimpiya harakatidagi, ommaviy sport va yuksak yutuqlarga yo'naltirilgan sportning rivojidadagi ishtiroklarini har tomonlama rag'batlantiradi, qo'llab-quvvatlaydi va ko'maklashadi, shu bilan bir qatorda, XOQ rahbar organlari ishida va umumo'zbekiston va mintaqaviy jismoniy tarbiya va sport marosimlarida ishtirok etadi.

Qonun doirasida o'rnatilgan tartib asosida tadbirkorlik faoliyatining nizomiy maqsadlariga erishishni amalga oshiradi, yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan xo'jalik jamiyatlari tashkil etadi, lotareyalar, madaniy jismoniy tarbiya va sport marosimlari o'tkazadi, shu jumladan, reklama xarakteridagi xizmatlarni ko'rsatadi.

Qonun doirasida o'rnatilgan tartib asosida tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshiradi, Xalqaro nodavlat tashkilotlariga kiradi, bevosita Xalqaro bog'lanishlar va aloqalarni qo'llab-quvvatlaydi. Tegishli kelishuv va shartnomalarni tuzadi.

Qonun doirasida o'rnatilgan tartib asosida muruvvatlik yordami, homiylik va fuqoro hamda jismoniy va huquqiy shaxslardan yordam oladi.

Qonun doirasida o'rnatilgan tartib asosida mehr-muruvvat yordamini ko'rsatadi, fuqaro hamda jismoniy va yuridik shaxslarga yordam ko'rsatadi. XOQ a'zolaridan kirish, a'zolik va maqsadlik badallar olish huquqiga ega.

Butuno'zbekiston, mintaqaviy sport musobaqalarini va boshqa Olimpiya harakatlari maqsadi va shartlariga mos keladigan marosimlarni o'tkazadi.

O'zbekiston Respublikasining qonunlarida ko'zda tutilgan davlat, hukumat va mahalliy o'z-o'zini boshqaruvchi organlarning tegishli tartibi va hajmida qarorlar chiqaradi va ishtirok etadi.

Ommaviy axborot vositalarini ta'sis etadi va nashriyot faoliyatini amalga oshiradi. O'z faoliyati haqida erkin ravishda axborotlar tarqatadi. Jamoat hayotining har xil masalalari bo'yicha tashabbuslar bilan chiqadi, davlat hukumat organlariga takliflar kiritadi.

O'zbekiston Respublikasining hududlarida yoki xorij mamlakatlarida qonun doirasida o'rnatilgan tartib asosida o'zining filiallari va vakolatxonalarini ochadi.

O'zbekiston Respublikasidagi terma jamoalarini Olimpiya o'yinlariga tayyorlash amaliyoti jarayonida qator boshqaruv menejment funksiyalarini amalga oshirishga to'g'ri keladi. Xususan, XOQ xodimlari jamoalarni shakllantirish bilan shug'ullanadilar, buning uchun sportchilarga litsenziya olish, jamoaga sportchilarni tanlab olish qoidalari va tartiblarini ishlab chiqish va sportchilarni ekipirovka qilish, joylashtirish, ovqatlantirish masalalarini hal etadilar, transport, yig'inlarni tashkil etish, sportchilarga sport inventarlari va jihozlarga buyurtma berish va sotib olishni tashkil etadilar.

XOQ federatsiyalar bilan kelishgan holda shartnomalar tuzadi, ularga asosan, Olimpiya o'yinlari va boshqa sport musobaqalariga jamoalarni tayyorlash va ishtirokini ta'minlash bo'yicha ma'lum moliyaviy mas'uliyatlarni o'z ustiga oladi, o'z navbatida, federatsiyalar ma'lum sport natijalariga erishishni o'z zimmlariga oladilar.

Mustaqillik davrida yurtdoshlarimizning sportdagi ayniqsa, Olimpiya harakatidagi yutuqlari haqida ko'p misollar keltirish mumkin. Birgina Respublika olimpiya zaxiralari bolalar va o'smirlar ixtisoslashtirilgan maktabi misolida yoshlarimizning yutuqlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, mustaqillik jismoniy tarbiya va sport rivojiga nimalar berganini yaqqol ko'rish mumkin.

**Respublika olimpiya zaxiralari bolalar va o'smirlar ixtisoslashtirilgan
maktabi sportchilari qo'lga kiritgan yutuqlar**

Yil	Musobaqaning nomi	Oltin	Kumush	Bronza
1996	Suzish XXVII Olimpiya o'yinlari	13	16	
1999	XIII Osiyo va Okeaniya birinchiligi (Dehli)	2	1	
2000	XXVII Olimpiya o'yinlari (Sidney)	25	27	
2001	Florida shtati Ochiq birinchiligi (AQSH)	3		1
2001	Florida shtati Mutlq birinchiligi (AQSH)			2
2003	"Bregrad" Xalqaro musobaqalari (Frantsiya)	2	1	1
2004	XXVIII Olimpiya o'yinlari (Afina)	32, 42	47	
2004	Germaniya birinchiligi (Gannover)	6		
2004	"Bregrad" Xalqaro musobaqalari (Frantsiya)	5	1	
2004	Quy Saksoniya birinchiligi (Germaniya)	5	2	1
2005	Bergtsaben Xalqaro musobaqalari (Germaniya)	1	3	
2005	Selingor Osiyo yubiley turniri (Malayziya)	3	2	
2005	IV Suv sporti bo'yicha Osiyo birinchiligi	2	4	
2006	Suzish bo'yicha "Milo" Osiyo birinchiligi		1	1
2006	Tatariston ochiq birinchiligi		2	
2007	Osiyo birinchiligi (Indoneziya)		2	
2007	YOsh hisobidagi Osiyo birinchiligi (Xitoy)		2	1
2007	Ierusalim kubogi	1	1	1
2008	SPEEDO kubogi (Isroil)	5	5	3
2008	Qozog'iston ochiq birinchiligi	1		
2008	Ozorbayjon ochiq birinchiligi	3	3	1
2008	"Bragard" Xalqaro musobaqalari	4	3	2
2008	Isroil kubogi Xalqaro turnir	2	5	3
2009	Ozorbayjon Xalqaro turniri	10	3	2
2009	I Osiyo YOshlar o'yini (Singapur)			1
2009	Osiyo birinchiligi (YAponiya)	1	6	5
2009	III Osiyo o'yinlari (V'etnam)	1	1	
2009	VIII Osiyo birinchiligi (Xitoy)			1

2010	Qozog'iston birinchiligi (Qozog'iston)		1	3
2010	Xalqaro musobaqalar (Ozarbayjon)	22	7	2
	SUVGA SAKRASH			
2007	“Jastar” Qozog'iston ochiq birinchiligi		1	1
2008	Malayziya ochiq birinchiligi		1	
2009	Malayziya yoshlar gurixi birinchiligi	3		
2010	Belorussiya ochiq birinchiligi		1	1
2010	Malayziya ochiq birinchiligi	5	3	2
	SUV POLOSI			
2004	Evro Osiyo kubogi		1	
2004	Qozog'iston ochiq birinchiligi		1	
2005	Osiyo birinchiligi (Tayland)	1		
2005	Evro Osiyo kubogi	1		
2005	Ayollar Qozog'iston ochiq birinchiligi	1		
2007	Osiyo birinchiligi (Indoneziya)			1
2007	Evro Osiyo kubogi (Qozog'iston)	1		

Olimpiya harakatidagi jismoniy tarbiya va sport menejmentining mohiyati faoliyat usuli, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar darajasi, ishlab chiqarish kuchlari, jumladan, jismoniy tarbiya va sport rivojlanishiga bog'liq holda o'zgaradi. Ishlab chiqarish rivojlanishi va iqtisodiy murakkablashuvi bilan ularni boshqaruv masalalari ham murakkablashadi va mustaqil fan sifatida ajralib chiqadi. Ishlab chiqarish vositalarini mulkchilikning turli shakllari mavjud bo'lgan sharoitda tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasida raqobat vujudga kelib, ishlab chiqarishni boshqarish, foydani ko'paytirishga yo'naltiriladi. SHuning uchun hozirgi kunda jismoniy tarbiya va sport menejmentida ham tarixiy ravishda shakllangan menejmentning barcha xususiyatlari o'z aksini topayapti.

Mamlakatimizda Olimpiya harakatiga xizmat qiladigan jismoniy tarbiya va sportning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish yuzasidan katta ishlar amalga oshirildi. Xususan, yuqorida aytganimizdek, Toshkent, Namangan, Jizzax, Farg'ona, Buxoro, Xorazm, Andijon, Samarqand, Guliston va boshqa shaharlarda xalqaro standartlarga javob beradigan qator sport majmualari qurildi. Toshkent shahrida “O'zbekiston”, “YUnusobod”, “Jar”, “Milliy bank”, Namangan shahrida “Pahlavon”, Jizzax, Samarqand, Andijon Farg'ona, Urgench, Qarshi, Chirchiq shaharlarida olimpiya zaxiralari kollejlari sport majmualari va boshqalar shular jumlasidandir.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, professional sportdagi kabi Olimpiada sportlarida ham jismoniy tarbiya va sport menejmenti, jumladan, uning yo'nalishi notijorat ko'rinishdagi tadbirkorlik katta ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro Olimpiada qo'mitasii, Milliy Olimpiada Qo'mitalari, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Olimpiya Qo'mitasi, XOQning Olimpiada xartiyasi ko'pchilik holatda notijorat ko'rinishdagi tadbirkorlik jamoatchilik tashkilotlari hisoblanganliklari uchun ular o'zlarining yuridik statuslari bo'yicha notijorat tadbirkorlikni amalga oshiradilar, shuning uchun ushbu faoliyatlarda moliyaviy foyda olish asosiy maqsad hisoblanmaydi. Lekin shu bilan bir qatorda, iqtisodiy nuqtai nazardan notijorat ko'rinishdagi tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatlari FSU ishlab chiqarishdan iborat bo'lganligi uchun ularning muhim tarkibiy qismi tamoshabop xizmat hisoblanadi. Ushbu xizmatlarning sotilishi, albatta, tegishli moliyaviy tushumlarga imkon bermaydi, Olimpiada musobaqalarini tayyorlash va o'tkazish xarajatlarini qoplay olmaydi. Shuning uchun ham Olimpiya sportidagi tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatlaridagi xarajatlarni qoplash uchun tamoshabinlarga chiptalar sotib olinadigan daromadlarga orqa qilinmaydi va boshqa manbalardan foydalaniladi. Ularning asosiylari televizion huquqni sotish daromadi, reklama homiylik dasturlarini joriy etish daromadi, litsenziyali dasturlarini sotish daromadi, har xil sport musobaqalari, marosimlar va o'yinlarga sotilgan chiptalardan tushgan daromad, suvenirilar va boshqa tovarlar sotish, har xil sayohlik va boshqa maishiy xizmatlar ko'rsatishdan tushgan daromadlar.

Olimpiya sportidagi notijorat ko'rinishdagi tadbirkorlik sub'ektlarining, ular faoliyatining muhim xususiyatlaridan biri jismoniy tarbiya va sport menejmenti elementlaridan bo'lmish marketing dasturidir. Odatda, marketing dasturlari olimpiadalar orasidagi to'rt yillik Olimpiya tsiklini o'z ichiga oladi, ularning maqsadi sportchilarni navbatdagi Olimpiya o'yinlariga tayyorgarligi va ishtirok etishlaridagi iqtisodiy masalalarni hal etishdan iboratdir. Marketing dasturlarining yuqori samaradorligini qayd etish o'rinlidir, Xalqaro Olimpiada Qo'mitasi, Milliy Olimpiada Qo'mitalari, XOQning Olimpiada xartiyasi va umuman, Olimpiada o'yinlaridagi marketing dasturlarining ijrosidan yildan-yilga yuqori iqtisodiy natijalar olinayotgani ko'zga tashlanib turadi.

Xalqaro Olimpiada Qo'mitasi har bir Milliy Olimpiada Qo'mitalari uchun o'zlarining tadbirkorlik faoliyatlari davridagi barcha harakat me'yorlarini belgilaydi. XOQning Olimpiada xartiyasiga ko'ra har bir Milliy Olimpiada Qo'mitalari Xalqaro Olimpiada Qo'mitasi oldida mavjud qoidalarga rioya qilish bo'yicha katta mas'uliyatga ega, 12/17 qoidalar Xalqaro Olimpiada Qo'mitasining va XOQning Olimpiada xartiyasi, XOQga tegishli shior, bayroq, madhiya, olimpiya ramzlaridan foydalanish tartiblarini belgilaydi. Xalqaro Olimpiada Qo'mitasining o'zi yuqorida keltirilgan olimpiya atributlaridan foydalanishi uchun XOQning Ijroiysi bilan oldindan kelishgan bo'lishi lozim.

Xalqaro Olimpiada Qo'mitasi Xalqaro olimpiya o'yinlari mezbonlari Olimpiada Qo'mitalariga nisbatan Olimpiya o'yinlarini tayyorlash va o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan o'zining direktiv munosabatlarini tadbirkorlik sub'ekti sifatida amalga oshirib keladi. Xususan, Xalqaro Olimpiada Qo'mitasi olimpiya o'yinlari mezbonlari Olimpiada Qo'mitalari uchun tijorat kontraktlari tuzishda rioya qilinishi lozim bo'lgan qo'llanmalar yaratadi. Qo'llanmalar olimpiya o'yinlari mezbonlari Olimpiada Qo'mitalarining o'yin tumorni tasdiqlashga topshirishga mas'ullaydi, olimpiya o'yinlari mezbonlari Olimpiada Qo'mitalarining rasmiy hisobotida ko'riladigan masalalar ro'yxatini belgilaydi. Xalqaro Olimpiada Qo'mitasi talabiga binoan, har bir Milliy Olimpiada Qo'mitasi, olimpiya o'yinlari mezbonlari Olimpiada Qo'mitalari o'zlari tuzgan har qanday shartnomalarning haqiqiy va to'liq nusxalarini topshirishlari lozim. Xalqaro Olimpiada Qo'mitasining Olimpiada xartiyasi Milliy Olimpiada Qo'mitalarining o'z hududlarida o'tkaziladigan vaqtdagi XOQning barcha tijorat operatsiyalarining himoyasini kafolatlaydi. Xartiyadagi 12, 13, 14, 15, 16 va 17 qoidalarining rasmiy tushuntirilishidagi 12 bandga ko'ra, XOQga tegishli deviz, bayroq, gimn, olimpiya simvollaridan Milliy Olimpiada Komitetlarining o'z hududlarida XOQ tomonidan yoki uning vakolatlangan shaxsi tomonidan foydalanilishi mumkin.

Sog'lomlashtirish jismoniy tarbiya va ommaviy sport insonlar salomatligini saqlash va mustahkallashdagi, aholining har xil guruhlarini sog'lom turmush tarziga jalb qilishda, qulay imkoniyatlar yaratishda tadbirkorlikning bosh ijtimoiy funktsiyasi hisoblanadi. Bu uning iqtisodiy funktsiyasiga va amalga oshirilishidagi tashkiliy shakliga o'z ta'sirini o'tkazadi. Sog'lomlashtirish jismoniy tarbiya va ommaviy sport sohasidagi tadbirkorlikning G'arbiy Evropa ko'rinishi xususiyatlari, ko'pchilik tadbirkorlik sub'ektlarining aksariyat holatlarda, sport klubining iqtisodiyotning qaysi sektoriga tegishli bo'lishiga qaramasdan, tashkiliy huquqiy shaklda faoliyat ko'rsatishidan iborat. XI asrning boshlariga kelib Evropa ittifoqi mamlakatlarida 700 ming sport klublari va ularda 40 mln. nafar insonlar shug'ullanib keldilar.

O'zbekiston Respublikasi sportchilari Olimpiya O'yinlarida ilk marotaba mustaqil jamoa sifatida Amerikaning Atlanta shahrida 1996 yilda ishtirok etdilar. O'zbekiston hukumati sportchilarimizni Xalqaro musobaqalar, Olimpiya, Osiyo O'yinlarida muvaffaqiyatli qatnashishlari uchun barcha sharoitlarni yaratib bermoqda. Buning mevasi olimpiya o'yinlarida O'zbekiston sportchilari qo'lga kiritgan 12 oltin, 8 kumush, 17 bronza medallaridir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yurtimizda Olimpiya harakatlariga, Olimpiya O'yinlariga berilayotgan katta e'tibor sportning barcha turlarining rivojiga hamda ko'plab Olimpiya chempionlari etishib chiqishi sabab bo'layapti.

Ayniqsa, sport menejmentining ushbu jarayondagi keng ishtiroki yurtimizda Olimpiya harakatlari va Olimpiya O'yinlarining rivojiga katta turtki bo'ladi.

Takrorlash uchun savollar

1. Olimpiya harakati nima va uning tashkilotlarini bilasiz?
2. Olimpiya harakatidagi sport menejmentining mohiyati nimada?
3. Olimpiya qo'mitasi va qo'mita Nizomi nima?
4. O'zbekistonda Olimpiya harakati va sport menejmentining rivoji qanday?
5. O'zbekistonda Olimpiya harakati tufayli yuzaga kelgan yangi sport turlari qanday?
6. XOQ nima va Milliy Olimpiada nimani bildiradi?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T.: O'zbekiston, 2009. – 24 b.
2. Gulyamov Z.T., Akbarov F.S. Osnovi menejmenta i ego osobennosti v usloviyax formirovaniya rinka v Uzbekistane. – T.: TGAI, 2006.
3. Gulyamov Z.T., Nabiullin R.X., Kamilova G.Z. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti. Darslik. –T.: O'zDJTI, 2015.
4. Akramov R. S veroy v iskrenniy futbol. –T.: YAngi asr avlodi, 2012.

Elektron ta'lim resurslari:

Internet saytlari

1. www.ekonomika.ru
2. www.menejment.com

VII. PROFESSIONAL SPORT MENEJMENTI

7.1. Professional sportning mazmuni va mohiyati

Reja:

1. Professional sportning mohiyati va shakllanishi.
2. Professional sporti menejmentining xususiyatlari.
3. Sport menejmenti faoliyatida tadbirkorlik va biznes.
4. Professional sportning tashkiliy tizimi.
5. Professional sporti umumiy sportning bir turi.
6. Professional sport musobaqalarini tashkil etish.
7. Jahondagi professional sportning modellari.
8. Professional sport menejmentida legionerlarning o'рни.

Tayanch so'z va iboralar:

Professional sport, umumiy sport, sport musobaqalari, musobaqalarni tashkil etish, musobaqalarni o'tkazish, musobaqalarda qatnashish, asosiy faoliyat, tur, sifat, jarayonlar, ishtirok etish, marosim, musobaqalar, tashkilotchilar, moddiy rag'batlantirish, xizmat haqi, ko'zda tutish, tashkiliy tizim, sport turi, federatsiya, professional sport tashkilotlari, sport birlashmalari, mehnat shartnomalari, Amerikanacha, Evropacha, Aralash modellar, legioner.

Professional sport umumiy sportning bir turi bo'lib, sport musobaqalarini tashkil etish, ularni o'tkazish, ularda qatnashish hamda sportchi o'zining asosiy faoliyat turi sifatida barcha jarayonlarda ishtirok etib, marosim va musobaqalar tashkilotchilari tomonidan moddiy rag'batlantirilishi yoki xizmat haqi olishini ko'zda tutadi.

Professional sportning tashkiliy tizimi sport turi bo'yicha rasmiy tan olingan federatsiyaga kiruvchi professional sport ligalari, assotsiatsiyalar, ittifoqlar, professional sport klublari, professional sport guruhlar va professional sport, professional jismoniy tarbiya va sport birlashmalari bilan mehnat shartnomalari tuzgan sportchi professionallardan iborat bo'ladi.

Jahonda professional sportning uchta modeli mavjud: amerikanacha, evropacha va aralash.

Birinchi model uchun eng asosiy qonun foyda olishdan iboratdir, sportchilar ish haqi darajasini differentsiyalash, guruh a'zolari ish haqi fondining limitini oldindan belgilash, homiylarsiz faoliyat ko'rsatish, televizion huquqlarni sotuv narxining o'ta balandligi, yangi kirib kelayotgan klublarga qo'yiladigan

katta badallar, sotilgan chiptalardan olingan daromadni taqsimlash tizimi, sport inshootlaridan foydalanilganda to'lanadigan ijara haqining pastligi va soliq imtiyozlari asosiy omillardan hisoblanadi.

Amerikancha modelda sport tashkilotlari va ularning moliyaviy imkoniyatlarini doimiy ravishda boshqarib borishga katta e'tibor beriladi. SHunday holatlar ham uchrab turadiki, agarda guruhlar ko'zga tashlanarli darajada katta tafovut bilan boshqa guruhlar ustidan g'alaba qozonaversalar, tegishli liga rahbarlari kuchli guruhni tarqatib yuborishdek, keskin choralar ko'rganlar. (Masalan, 1920 yilda Milliy xokkey ligasida shunday bo'lgan). Amerikada guruhlarning nisbatan teng kuchli bo'lib, faoliyat ko'rsatishiga harakat qilinadi, bunday holatni ta'minlovchi mexanizm draft tizimi deb ataladi, u albatta, super klublarning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaydi. Evropadan farqli o'laroq, AQSHda turli sport jamoalari orasidagi moliyaviy imkoniyalarda katta tafovut uchramaydi. Bunga quyidagicha erishiladi:

- musobaqalarni tashkil etishning konstant (bir xillik) printsipi;
- AQSH sport ligalarining draft tizimi orqali guruhlarning mohirlik darajasini ma'lum me'yorda ushlab turishi (AQSH da homiylik asosan, olimpiya va studentlik sporti bilan bog'liq, 2008 yildan boshlab draft tizimi Rossiya va boshqa davlatlarda ham qo'llana boshladi);
- chempionlarni pley – off tizimi orqali aniqlash.

Amerika sportida guruhlarning amaldagi chempionatlarda qaysi o'rinni egallaganliklari deyarli katta ahamiyatga ega emas, chunki pley – off tizimida hatto autsayderlar ham g'alaba qozonishi mumkin. Amerika professional ligalarida Evropa, Osiyo, Rossiya, O'zbekiston va boshqa davlatlarga o'xshab, tez- tez uchrab turadigan, chempionat o'yinlari tugashidan ancha ilgari, muddatdan oldin biron-bir guruhning chempion bo'lish holatlari uchramaydi. Shuning uchun keyingi yillarda Rossiya va boshqa davlatlarda basketbol va xokkey federatsiyalari milliy chempionatlariga qiziqishni kuchaytirish, o'yinchilar mas'uliyati va musobaqalar keskinligini oshirish maqsadida pley – off tizimidan foydalanishga harakat qilmoqdalar.

Amerika modelidan farqli o'laroq, Evropa modeli musobaqalar o'tkazishda rotatsion printsipga asoslangan: oxirgi o'rinni egallagan guruh oliy ligadan chiqib ketadi, o'rniga sport ko'rsakichlariga ko'ra, tanlangan boshqa guruh keladi. Tashkiliy tomondan professional liga sport turi bo'yicha milliy federatsiya tarkibiga kiradi. Ushbu xususiyatlar guruhlarini shakllantirishda, homiylik ishtirokini ta'minlashda (Evropa klublari 50 %gacha daromadlarini homiylik qo'llab- quvvatlashlari evaziga oladilar) va mahalliy hukumatning moliyaviy qo'llab- quvvatlashlarida o'z aksini topadi. Evropada professional klublar o'z televizion huquqlarini sotishdan Amerikadagidan ko'ra, kamroq

daromad oladilar. Na Amerika, na Evropa professional sportida milliy terma jamoalar uchun sportchilar tayyorlash masalasi ko'rilmaydi. Musobaqalarni tashkil etishdagi Evropa sistemasi milliy chempionatda ustinlik qiluvchi bir necha kuchli guruhlarni paydo bo'lishiga olib keladi.

Jahon professional sporti tadbirkorlik faoliyati qonunlari asosida rivojlanadi. Sport tomoshalari va ularga ko'mak hisoblanuvchi atributlar tovarga aylanib, sotiladigan va sotib olinadigan bo'ldi. XX asrning ikkinchi yarmida jahon sportining tezlik bilan tijoratlashuviga ko'p jihatdan Xalqaro va olimpiya sportining tijoratlashgani sabab bo'ldi. Xalqaro sport tashkilotlari va Xalqaro olimpiya qo'mitasining professional sportchilarni ilgarigi havaskorlar musobaqalarda ishtirok etishga ruxsat berganliklari ham katta omil bo'ldi.

Keyingi yillarda Rossiyada, jumladan, O'zbekistonda ham professional sporti menejmentining faol shakllanishi va rivojlanishi ko'zga tashlanib turadi, bu ko'p jihatdan O'zbekistonning ma'lum sport turlari bo'yicha Xalqaro arenada o'z mavqelarini mustahkamlab kelayotganliklari bilan bog'liq.

Masalan, Rossiyani oladigan bo'lsak, 2001 yilgi yozgi mavsumda jahon birinchiligidagi musobaqalarda oltin medallar (83 medaldan 34 tasi oltin) bo'yicha birinchi o'rinni egallagan va AQSH (64 medaldan 23 tasi oltin) hamda Hitoy (47 medaldan 21 tasi oltin) guruhlarini ortda qoldirgan. 2008 yilgi Pekin O'yinlaridan oldin ko'rsatkichlar susaygan, 2007 yilgi jahon birinchiligidagi musobaqalarda oltin medallar AQSH 101 (45 oltin, 26 kumush va 30 bronza), Hitoy 92 (38, 28, 26), Rossiya esa uchinchi o'rinda 81 (29, 31, 21).

2005 yilda MASK futbol jamoasi UEFA kubogi musobaqalarida g'alabaga erishdi. 2008 yilda uning yutig'ini takrorlash "Zenit" Sank – Peterburg guruhsiga nasib etdi, shu yilning o'zida u CHempionlar Ligasi g'olibi "Manchester YUnayted" jamoasini 2:1 hisob bilan mag'lub etib, Superkubok sohibligiga muyassar bo'ldi. 2006 yilda MASK basketbol jamoasi Evropadagi eng kuchli jamoa degan sharaflilik nomga ega bo'ldi. 2007 yilda Rossiya tennischilari keyingi to'rt yil ichida uchinchi marotaba Federatsiya Kubogi sovrindori bo'ldilar.

2007 yilda rossiyalik basketbolchilar va voleybolchi qizlar Evropa chempionlari bo'lishdi, Rossiyaning basketbolchi qizlari jahon chempionatining oltin medaliga sazovor bo'ldilar, Futbol jamoasi esa Angliya terma guruhini 2:1 hisobda mag'lub etib, Evropa birinchiligining final bosqichiga chiqdi va bronza medaliga sazovor bo'ldi. 2008 yilda MASK basketbol jamoasi ikkinchi marotaba Evropa chempioni bo'ldi, xokkey terma jamoasi 15 yillik tanaffusdan so'ng yana jahon chempioni bo'ldilar va ular 2009 yilda o'z yutuqlarini ikkinchi marotaba takrorladi. Nihoyat, 2009 yilda rossiyalik sportchilar Serbiyadagi Universiadasida 1 – jamoa o'rnini egalladilar.

Shunday xulosa qilish mumkinki, Rossiya sportchilarining ulkan g'alabalari asosan, sportning ko'proq tijoratlashgan turlari bilan bog'liq bo'lgan, ular tarkibida ham sportchi, ham murabbiy sifatida legionerlar ko'p bo'lishgan. Sportning boshqa turlarida natijalar bir muncha yaxshi bo'lmaganligini ko'rish mumkin. Jumladan, Rossiya terma guruhining Vankuver – 2010 qishki Olimpiya o'yinlaridagi mag'lubiyati tasodifiy hol emas. Rossiya terma guruhi norasmiy hisob bo'yicha faqat 11-o'ringa erishdilar, xolos. Atigi 15 ta medalga erishdilar, ulardan 3 tasi oltin, 5 – tasi kumush va 7 ta bronza edi. Birinchi o'rinni 14 ta oltin medal bilan Kanada terma guruhi, ikkinchi o'rinni 10 ta oltin medal bilan Germaniya va uchinchi o'rinni 9 ta oltin medal bilan AQSH egalladi.

Professional sporti menejmentinig shakllanish va rivojlanish jarayoni faqatgina tashqi omillari ta'sirida bo'lib qolmay, balki o'z navbatida, ichki bozor, ijodiy qadriyatlar, jamiyatdagi xukumronlik kuchlari, tarixiy an'analar va boshqa omillar ta'sirida bo'lib, evolyutsion ravishda jahon miqyosida shakllanib kelgan va amaldagi professional sporti modellarining faol funksiyasi bo'lib kelgan. AQSHning etakchilik o'rmini egallab kelgan jahon professional sporti modellarining baynalminallashuv jarayonlarini ham inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

Quyidagi jadvalda professional tijorat sporti menejmenti modellarining nisbiy tahlili berilgan.

7.1.1 - jadval

Professional tijorat sporti menejmenti modellarining nisbiy tahlili

Modellar tavsifnomasi	AQSH	Evropa	Rossiya	O'zbekiston
Sport turlari	Sportning milliy turlari.	Sportning an'anaviy	Sportning an'anaviy	Sportning milliy turlari.
Musobaqalarning asosiy turlari	Sportning an'anaviy professional turlari.	professionunal turlari	professionalturlari	Rotatsion
Menejment	Konstantli (iqtisodiy, shou-biznes, sport	Rotatsion (Oxirgi o'rindagi chiqib ketadi)	Rotatsion (Oxirgi o'rindagi chiqib ketadi)	(Oxirgi o'rindagi chiqib ketadi)
Huquqiy asoslar	Mustaqil, boshqa sport	Havaskor sport federatsiyasi bilan birlashgan	Havaskor sport federatsiyasi bilan birlashgan	Havaskor sport federatsiyasi bilan birlashgan
Hukumat		Maxsus	Xususiy	Xususiy huquqiy

munosabati	turlaridan tizimlari-dan ajralgan	qonunchilik-ni mavjudligi	huquqiy tayanchni yaratish	tayanchni yaratish an'anasi
Moliyalash	Maxsuss qonunchilik-ni yo'qligi, Nizom asosida	Xuquqiy va iqtisodiy mexanizmlar orqali	an'anasi Federal, regional, mahalliy tizimlar orqali	mahalliy tizimlar orqali
Mulkchilikning asosiy shakllari	Imtiyozlar yaratish	Asosan homiyar hisobidan	Turli xil	Turli xil
Tanlov tizimi	(soliq, ijara va b.)	Korporativ Xususiy, xissadorlik jamiyati	Mulkchilik-ni turli shakllari Ixtisoslashgan sport maktablari, professio-nal sport va legionerlar	Mulkchilik-ni barcha shakllari Ixtisoslashgan sport maktablari, professio-nal sport va legionerlar
Baynalmi-nallashish darajasi	Draft sistemasi orqali o'rta va oliy sport maktablarida va xorij "yulduz"lari Nisbatan yopiq tizim	Yuksak ko'rsakichli sport doirasi va xorij "yulduz"lar Xisobidan Legioner va trenerlarning keng ishtiroki, yuksak darajadagi bay-nal-minallashuv	Yuksak darajadagi baynalmi-nall ashuv, yangi sport turlarining rivoji, legionerlar ishtiroki, xorij profes-sional sport tajribasi	Yuksak darajadagi baynalmi-nall ashuv, yangi sport turlarining rivoji, legionerlar ishtiroki, professio-nal sport tajribasi

Jahon professional sportida guruhlar (jamoalar)ga nisbatan mulkchilikning asosan, uch xil shakli amalda qo'llanib kelinayapti, ular AQSH va Evropada turli xil nisbatda tarqalgan. Ular qatoriga shaxsiy (individual yoki guruhli), korporativ va hissadorlik. Korporativ mulkchilik shaklida klubning egasi bo'lib, firma yoki kompaniya hisoblanadi, hissadorlik jamiyatida

aktsiyalar egalari jamoaga ham egalik qiladilar. Hissadorlik jamiyatlariga rahbarlik xususiyati asosan, Evropa professional sportiga mansubdir. Rossiya va O'zbekistonga keladigan bo'lsak, keyingi 15 yil davomida professional klublar egalarini almashtirish va jamoalarga optimal egalik shakllarini qidirish jarayoni davom etayapti va ushbu jarayon xali oxiriga etgan emas.

Yurtimizdagi hozirgi zamon iqtisodiy sharoitlar, ya'ni bozor iqtisodiyotini rivojlanib borayotgani, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining oqibatlari va boshqalar professional tijorat sportini boshqarish munosabatlarini tubdan o'zgartirib borayapti. Professional tijorat sportini shakllanish va rivojlanish jarayoni yangidan-yangi tashkiliy -iqtisodiy printsiplarni va sub'ektlar faoliyatining yangi huquqiy shakllarini qidirishni taqozo etadi. Sportning o'yin turlariga keladigan bo'lsak, bozor munosabatlariga o'tish sharoitida ko'pgina klublar o'z egalarini almashtirishga majbur bo'ldilar.

Yangi rahbarlar (egalar) uchun professional tijorat sportini boshqarish munosabatlarini va mulkchilik shakllarini isloh qilish, moliyalashtirish manbalarini qidirish, katta daromad olishga intilish asosiy masala bo'lib qoldi. Federatsiyalar va ligalar darajasida ushbu jarayon jamoalarni, milliy birinchiliklarni samarali boshqarish tizimini yaratish, tomoshabin va televideniyaning jalb etishga yo'naltirilgan musobaqalar o'tkazish jadvallari tuzishga qaratildi. Eng e'tiborga sazovorligi 1990 yillarga kelib, egalari xususiy mulk sohibi bo'lgan klublarning yuzaga kelishi bo'ldi ("Asmaral" va "Rotor" futbol klublari). Klublarga egalik qiluvchilarning tarkibi tobora kengayib bordi, masalan, yangi sharoitda moliyalashtirish imkoniyatini yaratib beruvchi davlat xukmronlik tizimlari; homiylarning kuchli moliyaviy qo'llashiga tayangan hissadorlik jamiyatlari va korxonalar; jamiyatning siyosiy va moliyaviy qatlamlariga tegishli shaxslarni jalb etuvchi kengashlar. Professional tijorat sportini boshqarib borish va mulkchilik shakllarini isloh qilishning eng asosiy xususiyatlaridan biri davlat sektorining yo'naltiruvchi rolini saqlab qolishdan iborat bo'ldi, shu bilan bir qatorda, u professional tijorat sport tizimini iqtisodiy tomondan qo'llab-quvvatlovchi omil sifatida o'z mavqeini yo'qotib bora boshladi. Professional tijorat sportiga va klublarga egalik qilayotgan hissadorlik jamiyatlari barcha jahon bozorlarida yuksak reytingga ega bo'lgan yirik tijorat tizimiga aylandilar.

Professional tijorat sporti menejmenti sohasida moliyalashtirish manbaining yangilarini faol qidiruvchi, klublar, federatsiyalar, ligalar va musobaqalar faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llarini topuvchi jarayonlar shakllana boshladi. Musobaqalardan daromadlarni oshib borishi, teletrantsiyalar huquqini sotishdan kelgan daromadlarni ortib borishi, tomoshabinlarni jalb qila bilish va dastur (birinchi galda mavsumli

abonementlar) chiptalarini sotish ishlaridan, lotoreyalar va totalizatorlar o'tkazish, stadionlarda tamoshabinlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, reklama - homiylik va litsenzion faoliyatlaridan iboratdir. Buning uchun quyidagi omillar mavjud bo'lishi lozim:

- yuksak raqobatli kurash sharoitini oldindan yarata bilish, g'olibni oldindan bilib bo'lmaslik;

- bir necha yillar davomida jadvalning mo'ta'dilligi;

- mavsum davomida musobaqalar sonining optimal sonini aniqlash;

- transport xarajatlariga bo'ladigan mablag' va vaqtni tejash;

- jamoalar homiylari va sportchilar uchun imtiyozli sharoitlarni yaratish.

Hozirgi kundagi professional sport rivojini legionerlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, chunki legionerlar professional sportchi sifatida o'z faoliyatlarida shaxsiy manfaat bilan jamoa manfaatini kuchli ravishda bog'lab olib borish zarurligini kuchli xis eta oladigan shaxsdirlar.

Yurtimizda mustaqillik yillaridan boshlab, ayniqsa, bozor iqtisodiyotini rivojlanishi, professional sportni kirib kelishi tufayli xorijlik sportchilarning bizning klublarimizdagi ishtiroki ortib borayotganini ko'rish mumkin. O'z navbatida, bizning sportchilarimiz xorijdagi professional klublarga taklif etilayotganliklarini kuzatish mumkin.

Yangi asrning boshidagi butun dunyo professional sportining rivoji legioner professional sportchilar orqali jadal rivojlana boshladi.

Professional sport menejmentini ommalashib borishi esa yurtimizda legionerlarni taklif etishni odat tusiga kiritdi, futbol va boshqa guruhlarimizga legioner trenerlar va legioner sportchilarni taklif etilishini rivojlantirdi.

Rossiyada ham legionerlardan foydalanishning avj ola boshlashi professional sportni rivojlanishiga katta hissa qo'shib kelayapti. Rossiyada, masalan, 2008 yilga kelib, Prem'er liga futbol klublarida 5 nafar xorijlik murabbiy, 200 nafar xorijlik futbolchilar taklif etildilar. Rossiyaning bazi futbol klublarida xorijlik legionerlarning soni yurtdosh o'yinchilar sonidan ham oshib ketgan edi. Legioner murabbiylar va sportchilarning jalb etilishi nafaqat milliy birinchilikka bo'lgan qiziqishni kuchli darajada oshirdi, shu bilan bir qatorda, jamoalarning o'yin sifati ham osha boshladi, natijada musobaqalarning tomoshabopligi ham yuksalib bordi.

Bularning isboti sifatida MASK futbol jamoasining UEFA kubogi musobaqalarida g'alabaga erishganini, 2008 yilda uning yutig'ini "Zenit" Sank – Peterburg guruhiga takrorlagani va shu yilning o'zida Chempionlar Ligasi g'olibi "Manchester Yunayted" jamoasini 2:1 hisob bilan mag'lub etib, Superkubok sohibi bo'lganini ta'kidlash mumkin. MASK basketbol jamoasi Evropadagi eng kuchli jamoa degan sharaflil nomga ega bo'ldi. Rossiya

tennischilari keyingi to'rt yil ichida uchinchi marotaba Federatsiya Kubogi sovrindori bo'ldilar.

2007 yilda rossiyalik basketbolchilar va voleybolchi qizlar Evropa chempionlari bo'lgani, Rossiyaning basketbolchi qizlari jahon chempionatining oltin medaliga sazovor bo'lganligi, Futbol jamoasi esa Evropa birinchiligining final bosqichiga chiqib, bronza medaliga sazovor bo'lganliklari shular jumlasidandir. Natijada 2008 yilda MASK basketbol jamoasi ikkinchi marotaba Evropa chempioni bo'ldilar, xokkey terma jamoasi 15 yillik tanaffusdan so'ng yana jahon chempioni bo'ldilar va ular 2009 yilda o'z yutuqlarini ikkinchi marotaba takrorlashdi.

7.1.2 - jadval

Basketbol bo'yicha Rossiyadagi xorij legionerlari

Davr	Erkaklar	Ayollar	Erkak jamoa trenerlari	Ayol jamoa trenerlari
2004\2005	75	41	8	4
2005\2006	67	60	13	5
2006\2007	64	56	13	6
2007\2008	77	57	18	8
2008\2009	57	33	9	5
2009\2010	55	31	8	5
2010\2011	53	30	7	4
2011\2012	54	32	8	6
2012\2013	56	31	10	5
2013\2014	58	33	9	7
2014\2015	57	33	11	6

Professional sportda legionerlardan foydalanish musobaqalar-ning tomoshabopligini oshirib boradi va etakchi jamoalarga nufuzli Xalqaro musobaqalarda yuqori o'rinlarni egallash imkonini beradi, lekin shuni doim nazarda tutish lozimki, ushbu holat ma'lum darajada mahalliy sportchilarning o'yin vaqtlarini kamayishiga, hatto yo'qolishiga olib keladi, ayniqsa, yosh sportchilarga taalluqli bo'lishi salbiy holat hisoblanadi.

Legionerlarning ishtirokini so'zsiz inkor etmagan holda, Rossiya basketbol federatsiyasi 2009 yilda o'ziga xos "legioner intervensiyasiga" yo'l qo'ymaslikka qaror qildi. Buning uchun Rossiya basketbol federatsiyasi yaqin bir necha yillar davomida sportchi - legionerlar sonini qisqartirishga qaror qildi, natijada Rossiya basketbol birinchiligida qatnashadigan xorijlik o'yinchilar soni

ham kamayib borganini ko'rish mumkin. Ushbu dinamikani quyidagi jadvaldan ko'rish mumkin:

7.1.3 - jadval

Rossiya basketbol birinchiligidagi legionerlar

Davr	Klubdagi legionerlar soni	Har bir o'yinga biriktirilgan legionerlar soni	O'yinchilar tarkibidagi legionerlar
2004\2005	Cheklanmagan	3	3
2005\2006	Cheklanmagan	4	3
2006\2007	7	3	3
2007\2008	6	5	3
2008\2009	6	3	3
2009\2010	5	4	3
2010\2011	5	3	2
2011\2012	6	2	3
2012\2013	5	4	2
2013\2014	6	3	3
2014\2015	5	3	2

Jadvaldan shu narsa ko'rinib turibdiki, birinchilikka taklif qilingan xorijlik o'yinchilar limiti qisqartirib borilgan, har o'yinga 5 nafar xorijlik sportchi taklif qilingan bo'lsa, murabbiy maydonga 3 nafardan ortig'ini tushura olmagan, 2012 boshlab ushbu nisbatning 5 nafarga 2 nafar bo'lishi ko'zda tutilgan.

Xorijlik etuk murabbiylarning yurtimizda ustozlik qilishi albatta, katta ijobiy samara beradi, lekin ushbu faoliyatning o'ziga yarasha kamchilik tomonlari ham mavjud. SHunday aniq an'ana ko'zga tashlanib turadiki, odatda, xorijlik etuk murabbiylar yurtimizga o'zlarining butun bir jamoasi bilan kelib ishlaydilar, buning ustiga ularning pedagogik mahorati har doim ham olayotgan ish haqlariga mos kelmaydi. Ushbu holat bir tomondan katta mablag' talab qilsa, ikkinchi tomondan, mahalliy mutaxassislar ma'lum darajada o'zlarining aniq istiqbollarini yo'qota boshlaydilar va ularning pedagogik mahoratini jadal o'sib borishiga to'siqlar paydo bo'la boshlaydi. Shuning Rossiya basketbol federatsiyasi 2009 yilda qabul qilgan qarorga ko'ra, har bir klubda bir vaqtning o'zida faqatgina bitta xorijlik murabbiy ishlashi mumkin. U ham bo'lsa, Evropa birinchiliklarida 1\3 o'rinlar, jahon chempionatlaridagi o'z yurtining milliy terma guruhi bilan 1\5 o'rinlarni yoki o'zining klub guruhi bilan Evropa Kuboklarida g'olib bo'lishi yoki finalga chiqqan bo'lishi lozim.

Takrorlash uchun savollar:

1. Professional sportning alohida xususiyatlari qanday?
2. Sport musobaqalarini tashkil etish, ularni o'tkazish, ularda qatnashish professional sportda qanday?
3. Professional sportning tashkiliy tizimi qanday?
4. Professional sport tashkilotlar xususiyatlari qanday?
5. Jahondagi professional sportning uchta modeli nimalardan iborat?
6. Professional sport rivojida legionerlarning o'rni qanday?
7. Professional sportning rivoji nimalarga bog'liq?
8. Professional sport menejmentining istiqboli qanday?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
2. Gulyamov Z.T., Akbarov F.S. Osnovi menejmenta i ego osobennosti v usloviyax formirovaniya rinka v Uzbekistane. –T.: TGAI, 2006.
3. Gulyamov Z.T., Nabiullin R.X., Kamilova G.Z. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti. Darslik. –T.: O'zDJTI, 2015.
4. Akramov R. S veroy v iskrenniy futbol. –T.: Yangi asr avlodi, 2012.
5. Axmatov. M.S. Uzluksiz ta'lim tizimida ommaviy sport sog'lomlashtirish ishlarini samarali boshqarish. – T., 2005.

Elektron ta'lim resurslari:

Internet saytlari

1. www.bilim.uz
2. www.ekonomika.ru
3. www.menejment.com
4. www.edu.uz-Vazirlik sayti
5. www.ziyo.edu.uz-Vazirlik sayti
6. www.performance.edu.uz-Vazirlik sayti

7.2. Professional sporti menejmentida korporativ boshqaruvning xususiyatlari

Reja:

1. Professional sporti menejmentida korporativ boshqaruv.
2. Sport klublarining xilma - xil faoliyat yo'nalishlari.
3. Shaxs va sport tashkilotlarning o'zaro hamkorlikdagi ish yuritishi.
4. Professional sportda hissadorlar (aktsionerlar).
5. Professional sportda o'yinchi va murabbiylar.
6. Professional sportda havaskorlar (bolel'shiki).

7. Professional sportda homiylar va investorlar.
8. Professional sportda davlat tizimi vakillari.

Tayanch so'z va iboralar:

Professional sporti, menejment, korporativ boshqaruv, sport klublari, xilma-xil faoliyat, yo'nalishlar, shaxs, sport tashkilotlari, o'zaro hamkorlik, ish yuritish, korporativ boshqaruv tizimi, manfaatdor shaxs, sport turlari, jismoniy tarbiya jamiyatlari, sport klublari, ta'sischi, hissadorlar (aktsionerlar), o'yinchi, murabbiylar, havaskorlar, homiylar, investorlar, davlat tizimi, vakillar.

Professional sporti menejmentida korporativ boshqaruv deganda, sport klublarining xilma - xil faoliyat yo'nalishlariga tegishli bo'lgan ko'pchilik shaxs va tashkilotlarning o'zaro hamkorlikdagi ish yuritishi tushuniladi.

Professional sporti menejmentida korporativ boshqaruv tizimiga quyidagi manfaatdor shaxs va tashkilotlar kiradi:

- jismoniy tarbiya jamiyatlari, sport klublari ta'sischi;
- hissadorlar (aktsionerlar);
- o'yinchi va murabbiylar;
- havaskorlar (bolel'shiki);
- homiylar va investorlar;
- davlat tizimi vakillari.

Jahon professional sporti menejmentida korporativ boshqaruvning yagona modeli mavjud emas, shuning uchun quyidagi asosiy yo'nalishlarni ajratish mumkin:

- ingliz – amerikancha model (AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada). Boshqarish organi bo'lib rahbarlar kengashi hisoblanadi, uning qo'lida “nazorat” va ”boshqaruv” funktsiyalari mujassamlashgan;

- nemischa model (Germaniya, Niderlandiya). Boshqarish organi ikki bo'g'inli tizimdan iborat bo'lib, unga mustaqil (holis) rahbarlar va menejerlardan tashkil topgan to'g'ri nazorat kengashi kiradi. Uning asosiy xususiyati shundaki, “nazorat” va ”boshqaruv” funktsiyalari mujassamlashmagan bo'lib, alohida ajratilgan bo'ladi: nazorat kengashi kompaniyaning amaldagi faoliyatini bevosita boshqaruvchi ijrochi organ ustidan bevosita nazorat funktsiyasini amalga oshiradi.

Korporativ boshqaruv tizimining printsiplari va uning sport klublari mexanizmlarining har xil tashkiliy-huquqiy shakllari o'xshashdir. Hissadorlar va ta'sischi boshqaruvdagi huquqlari tashkilotning yuqori boshqaruv

organlari ishida bevosita qatnashish imkoniyatlari orqali amalga oshiriladi va quyidagilarga xizmat qiladi:

- hissadorlik jamiyatlarida – hissadorlarning umumiy majlisi;
- mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda – ishtirokchilarning umumiy majlisi;
- jamoat birlashmalarida – majlis (konferentsiya).

Majlis , odatda, yiliga 1 marotabadan kam bo'lmasligi lozim, uning mavqei (kompetentsiyasi) qonunchilik darajasida hal etilgan, shu bilan bir qatorda, korporativ rivojlanishning boshqaruvi va sport tashkilotlarining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan quyidagi kompetentsiya bandlarini keltirish mumkin:

- kengash a'zolarini saylash va chaqirib olish, jamiyat rahbarini saylash;
- jamiyatning asosiy faoliyat yo'nalishlarini aniqlash;
- jamiyatning tashkiliy tizimini belgilash;
- ulush, aktsiya (shu bilan bir qatorda, boshqa klublar tomonidan chiqariladigan va o'z klubi tomonidan chiqariladigan) olish masalalarini hal etish;
- nizomga o'zgarishlar kiritish;
- tashkilotlar (farm - klublar), filiallar va vakolatxonalar faoliyatini yurgizish yoki to'xtatish;
- sport tashkilotlarining faoliyatini to'xtatish;
- moliyaviy zaxiralarni (shu jumladan, foydani) taqsimlash tartibini aniqlash va zararlarni qoplash tartibi.

Professional klublarini korporativ boshqaruvi odatda, vasiylik kengashlari tuzish bilan bog'liq bo'ladi, uning tarkibiga nazar tushgan insonlar jalb qilinadi (siyosatchilar, tadbirkorlar, amaldorlar), bunday insonlar pirovardida klub siyosatini belgilaydilar, hatto uning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan muhim masalalarni hal etadilar.

Vasiylik kengashi - jamoaviy nazoratchi va maslahatchi organ hisoblanadi, u o'z sport klubi nizomi asosida ish yuritadi va juda keng vakolatlarga ega. Kengash sport klublari faoliyatini nazorat qilish va ushbu maqsadda auditor tashkilotlarini jalb qilish vakolatiga ega, shuningdek, pul mablag'laridan maqsadga muvofiq foydalanishini tekshirish, sport klublari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish, ayniqsa, tashkiliy-huquqiy shaklni o'zgartirish, nizomga o'zgarishlar kiritish, bosh murabbiyni almashtirish, o'yinchilar sotib olish va shunga o'xshashlar. Vasiylik kengashiga odatda, lavozimdagi shaxs rahbarlik qiladi, u keng xukumronlik vakolatiga ega bo'lishi lozim (tuman va shahar hokimlari yoki ularning muovinlari), yana yirik tadbirkor ham bo'lishi mumkin, ular amalda klubning egasi hisoblanadilar.

Zamonaviy professional sporti menejmentining xususiyatlari professional sportining mazmuni va mohiyatidan kelib chiqqan holda AQSH, Kanada, Avstraliya va qator evropalik, Lotin amerikalik va osiyolik davlatlarda shakllana boshlagan. Xorij mamlakatlaridagi eng professionallashtirilgan sport turlari quyidagilardan iborat: futbol, xokkey, basketbol, tennis, boks.

Xorijdagi zamonaviy sport menejmenti bilan shug'ullanadigan mutaxassislarining fikrlaricha, chet ellarda professional sportning har xil turlarini boshqarish, har bir mamlakatning milliy an'analari va tarixi, moliya manbalarining yangi turlarini paydo bo'lishi, sportda vujudga kelayotgan yangiliklar, o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Tarixan professional sport menejmentining uchta modeli shakllangan:

- professional sport menejmentining amerikacha modeli;
- professional sport menejmentining evropacha modeli;
- professional sport menejmentining lotin amerikacha modeli.

Zamonaviy professional sporti menejmentining xususiyatlari professional sportining mazmun va mohiyatidan va undagi iqtisodiy munosabatlardan kelib chiqadi. Professional sportning boshqa turdagi jismoniy tarbiya va sport faoliyatlaridan ajralib turadigan va professional sporti menejmentining xususiyatlarini belgilovchi ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat:

- professional sportining mustaqilligi;
- professional sportning o'zini-o'zi boshqarish xususiyatiga ega ekanligi;
- professional sportdagi mulkchilikni davlat tasarrufida emasligi yoki xususiy mulkchilikda bo'lishi;
- professional sportda xarajatlarni o'z hisobidan qoplashi;
- professional sport rivojini o'z mablag'i (foydasi) hisobiga amalga oshirish.

Professional sportining ushbu xususiyatlari undagi menejmentga ham o'ziga yarasha maxsus xususiy talablarni qo'yadi, masalan, faoliyatning biznesga, tadbirkorlikka yo'naltirilgan bo'lishi. Professional sport menejmentidagi biznes, tadbirkorlik xususiyatlari asosan quyidagi ko'pgina omillar orqali belgilanadi:

- professional sporti shakllanayotgan yurt, hudud va kontinentning xususiyatlari;
- professional sporti mavjud u yoki bu davlatning ijtimoiy va siyosiy tizimining xususiyatlari;
- aholining professional sportiga moyilligi yoki uning mentalitet xususiyatlari va boshqalar.

Ushbu va shunga o'xshash omillarning majmuasi professional sportining rivojiga bo'lgan yondashishni va professional sporti menejmenti modelini

aniqlashga yordam beradi. Hozirgi zamon professional sporti menejmenti nuqtai - nazaridan sport rivojining ikki turini ko'rish mumkin: tijorat professional sporti, professional sporti tijorati.

Birinchi, ya'ni tijorat professional sportining asosini maksimal daromad va foyda olish tashkil etadi, sof sport faoliyati va sport yutuqlari esa tijorat maqsadiga erishishning yo'li hisoblanadi. Ushbu usul ko'proq amerikalik professional sportida xukum suradi.

Ikkinchi usul ko'proq Xalqaro va Evropa professional sportiga xos bo'lib, birinchi o'ringa asosan, professional sportining rivojiga katta e'tibor beriladi. Bu erda professional sporti biznesining etakchi va asosiy sharti shundan iboratki, menejmentning barcha xizmatlari sport natijalariga, sport kurashining shijoatini oshirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Demak, hozirgi zamon professional sport menejmentida tijorat va tadbirkorlikning ikki yo'nalishini kuzatish mumkin: 1) tadbirkorlik professional sporti va 2) professional sporti tadbirkorligi. Ikkala usulning ham bozor iqtisodiyoti qonunlari asosida amalga oshirilishi ma'lum darajada ularni o'zaro birlashishga olib keladi. SHuning uchun ham ularning daromad manbalari bir xil deyish mumkin va ular asosan, quyidagilardan iboratdir: aboniment va chiptalar sotilishidan tushgan daromad, professional sport musobaqalarini ommaviy axborot vositalarida translyatsiya qilish huquqini sotishdan kelgan tushumlar, homiyar va reklama beruvchilar mablag'lari va boshqalar. Lekin shu bilan bir qatorda, ular orasida o'ziga xos tafovutlar ham mavjud.

7.2.1-jadval

Professional sportda tadbirkorlik faoliyati

Ko'rsatkichlar	Tijorat sport tadbirkorligi	Sport tijorat Tadbirkorligi
Maqsad	Foyda olish	Professional sportini rivojiga sharoit yaratish
Daromadlar tarkibi	“Bozor manbalari” asosiy daromad hisoblanadi	“Bozor manbalari” bilan bir qatorda davlat moliyaviy manbalaridan ham foydalaniladi
Marketing turi	An'anaviy	Ijtimoiy \ etik

Professional sportda maqsadli tarkiblardagi nomutanosiblik-lardan tashqari daromadlar tarkiblarida tafovutlar bo'ladi, masalan, professional sport tadbirkorligi olib borayotgan tashkilotlar ko'p jihatdan va ko'p holatlarda davlat tomonidan beriladigan moliyaviy manbalardan foydalanadilar, odatdagi davlat yordami dotatsiya yoki federal subsidiya, mintaqaviy va munitsipial

organlarning moliyaviy qarzlardan iborat bo'ladi. Tadbirkorlik professional sport namoyandalari esa, sof bozor manbalaridan daromad olib bilish imkoniyatlarini namoyish qilib keladilar. Hozirgi davrda ular uchun eng asosiysi, eng qulay va eng ko'p daromad keltiradigan musobaqalarni televidion translyatsiya qilish huquqini sotishdan olinadigan daromad bo'lib turibdi. Lekin yuqorida aytganimizdek, ikkala usul namoyandalarining bozor iqtisodiyoti qonunlari asosida hamkorlikda amalga oshirib kelayotgan faoliyatlari asosiy an'anaga aylanib borayapti.

Takrorlash uchun savollar:

1. Professional sporti menejmentida korporativ boshqaruv nima?
2. Sport klublarining xilma - xil faoliyat yo'nalishlari qanday?
3. Shaxs va sport tashkilotlarning o'zaro hamkorlikdagi ish yuritishi qanday?
4. Professional sporti menejmentida korporativ boshqaruv tizimi qanday?
5. Manfaatdor shaxs va sport tashkilotlarining turlari qanday?
6. Jismoniy tarbiya jamiyatlari, sport klublari ta'rischilari kimlar?
7. Professional sportda xissadorlar kimlar?
8. Professional sportda o'yinchi va muoabbiylar kimlar?
9. Havaskorlarning professional sporti rivojidadagi o'rni qanday?
10. Professional sportda homiyalar va investorlar kimlar?
11. Professional sportda davlat tizimi vakillarining roli qanday?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T.: O'zbekiston, 2009. – 24 b.
2. Gulyamov Z.T., Akbarov F.S Osnovi menejmenta i ego osobennosti v usloviyax formirovaniya rinka v Uzbekistane. T.TGAI. 2006 g.
3. Gulyamov Z.T., Nabiullin R.X., Kamilova G.Z. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti. Darslik. –T.: O'zDJTI, 2015.
4. Akramov R. S veroy v iskrenniy futbol. –T.: YAngi asr avlodi, 2012.
5. Axmatov. M.S. Uzluksiz ta'lim tizimida ommaviy sport sog'lomlashtirish ishlarini samarali boshqarish. – T., 2005.
6. Prchinkin A.V. Menejment v sfere fizicheskoy kulturi i sporta. –M.: Sovetskiy sport, 2010.

Elektron ta'lim resurslari:

Internet saytlari

1. www.bilim.uz
2. www.ekonomika.ru
3. www.menejment.com

4. www.edu.uz-Vazirlik sayti
5. www.ziyo.edu.uz-Vazirlik sayti

7.3. Professional sport menejmentini rivojlantirish omillari

Reja:

1. Zamonaviy professional sport menejmentining AQSHda shakllanishi.
2. Zamonaviy professional sport menejmentining Kanada shakllanishi.
3. Zamonaviy professional sport menejmentining Avstraliyada shakllanishi.
4. Zamonaviy professional sport menejmentining evropalik, Lotin amerikalik va osiyolik davlatlarda shakllanishi.
5. Xorij mamlakatlaridagi eng professionallashtirilgan sport turlari.
6. Sport menejmentida professional sportchilarni motivatsiyalash.
7. Professional sportni rivojlantirishda tadbirkorlik va biznes omillari.

Tayanch so'z va iboralar:

Menejment, professional sport menejmenti, omillar, evolyutsiya, zamonaviy, motivatsiya funksiyasi, insonlar, sportchilar, rag'batlantirish, mexanizm, "Ijtimoiy rivojlantirish", "Kutish nazariya" motivatsion modellar, ilm, professional, omillar, moddiy rag'batlantirish, rekord, sovrindor, o'rin, stipendiya, qo'shimcha moddiy imtiyozlar, tijoratli startlar, gonorarlar, Olimpiya sporti, pul mablag'i.

Jismoniy tarbiya va sport menejmentining professional sporti rivojiga amaliy xizmat ko'rsatuvchi kategoriyasi bu boshqaruv tsiklidir.

Boshqaruv tsikli to'rtta vazifani ado etadi, bular – rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiya va nazoratdir. Bu vazifalar moddiy boyliklar yaratish mablag' bilan ta'minlash, marketing va boshqalarga doir boshqaruv faoliyatining hamma turlarini o'z ichiga oladi.

Rejalashtirish - bu vazifa mohiyat e'tibori bilan qarorlar tayyorlash jarayonidir. Rejalashtirish bosqichlari: a) maqsadni o'rta qo'yish, b) mavjud imkoniyatlar shart – sharoitlarni aniqlash, v) muqobil shartlarni belgilab olish, g) eng yaxshi yo'lni tanlash, d) rejani ishga solish va bajarish.

Tashkil etish – tashkil etish vazifasi menejer va ijrochilar faoliyatini tartibga solishga qaratilgan. Bu avvalo, menejning o'z imkoniyatlariga baho berishi, o'ziga bo'ysunadigan xodimlarni o'rganib chiqish, har bir xodimning salohiyati, nimalarga qodirligini aniqlab olish, kuchlarni joy-joyiga qo'ya bilishdir va hokazo. Mana shu tashkilotchilik boshidan oxirigacha korxonaning juda aniq strukturalari doirasida o'tadi.

Motivatsiya – tayyorgarlik choralarini ko'rib bo'lganidan keyin menejer ta'minlash kerak bo'lgan, sportchilarning yuksak marralarga intilishini ta'minlaydigan, ularni ich-ichidan uyg'ontirish uchun xizmat qiladigan asosiy omildir. SHu maqsadda quyidagilardan foydalaniladi: a) rag'batlantirishdan, ya'ni tashqi omillar (moddiy va ma'naviy), xodimni jo'shqin faoliyatga undashdan, b) asl motivatsiya, ya'ni xodimda mehnatga ichki (ruhiy) rag'batlar hosil qilishdan. Bu o'rinda quyidagilar muhim bo'lib hisoblanadi: mehnatda manfaatdorlik, mehnat faoliyatiga ehtiyoj sezish, mehnat faoliyatidan qanoat tuyg'usini his qilish muhimdir. Mana shu boshqaruv vazifasini muvaffaqiyat bilan ado etish uchun menejer muloqot olib borish, aloqalar bog'lashning turli jihatlarining yaxshi bilimi, o'zida tegishli malaka va ko'nikmalarni rivojlantirib borishi shart. Boshqaruv tsiklining aylanib turishi, ma'lumki, menejer doimo boshqaruv vazifalarini ado etib borish bilan band bo'ladi. Agar o'z jamoasi (klubi) yutug'ini ta'minlab berishni istasa, boshqaruv ishining hamma tavsilotlariga jiddiy kirishmog'i lozim.

Menejment, ayniqsa, sport menejmenti evolyutsiyasida XIX asrga kelib motivatsiya funktsiyasini kiritilishi insonlarni, jumladan, sportchilarni rag'batlantirish mexanizmini yaratishda eng muhim bo'lgan yuksak siljish bo'ldi. Olimlar tomonidan motivatsiyaning bir qancha muhim modellari yaratildi: A.Maslouning "Insonlar ehtiyojini qondirish" modeli, D.Gertsbergning "Ijtimoy rivojlantirish", "Kutish nazariya"si va boshqalar shular jumlasidandir. Sport menejmentidagi motivatsion modellar ilmi hozirgi kundagi katta dolzarb masalalardan hisoblanadi, shuning uchun biz ushbu yo'nalishni kitobning boshqa maxsus boblarida ko'ramiz.

Butun dunyoda professional sportning rivojlanishi ushbu yo'nalishdagi sportchilarning keng miqyosda moddiy rag'batlantirilishi bilan bog'liqdir, rekordlar va sovrindor o'rinlar uchun berilgan stipendiyalar, qo'shimcha moddiy imtiyozlar, tijoratli startlar uchun gonorarlar shular jumlasidandir. Professional sportchilar ishtirokidagi Olimpiya sportlarida 1988 yildan boshlab har xil davlat sportchilarining katta miqdorda va doimiy ravishda oshirib borilayotgan pul mablag'i bilan rag'batlantirilib kelinayotgani yaqqol ko'zga tashlanib turadi. O'sha yili ko'pgina davlatlar o'z jahon va olimpiya chempionlari uchun quyidagi imtiyozlarni ta'sis etdilar:

Janubiy Koreya 137 ming AQSH dollari va umrbod har oyda olinadigan 1200 dollar miqdorida pensiya.

Malayziya XOQ 30 ming AQSH dollari miqdorida moddiy imtiyoz.

Braziliya 1 kg oltin, Germaniya 15 ming marka, Frantsiya 32.500 AQSH dollari, Pol'sha 10 ming AQSH dollari, SSSR da 1, 2, 3 o'rinlar uchun 12, 6, 4 ming rubl' miqdorida moddiy rag'batlantirish birinchi marotaba amalga

oshirildi. 1996 yilga kelib, Atlanta o'yinlarida ushbu raqam 5 barobarga oshirilib, 50 ming AQSH dollariga etkazildi.

2008 yilga kelib, Rossiya hukumati o'zining Olimpiya chempioni va sovrindori yuksak unvonlariga hamda medallarga qo'shimcha mukofotlar ta'sis etdi: oltin medal uchun 100 ming evro, kumush uchun 60 ming, bronzaga 40 ming evro. SHu bilan bir qatorda har bir medal sohibi davlatdan qimmatbaho avtomobil' olgan, mahalliy hukumat, sport jamiyatlari, federatsiyalari va homiylardan qo'shimcha rag'batlantirish mablag'lari olganlar.

Pekin o'yinlari oldidan Rossiya Prezidenti iltimosiga ko'ra, Rossiya olimpiachilarini qo'llash Jamg'armasi tuzildi, unga 11 nafar yirik tadbirkorlar ta'sischi bo'lib kirdilar (A.Usmonov, V.Potanin, R.Abramovich, O.Deripaska, V.Lisin va boshqalar). Jamg'arma dasturiga ko'ra, har bir olimpiya sportchisi ularning murabbiylari har oyda 15 ming rubldan olib turdilar.

Rasman eng kamtarin gonorar oluvchilar AQSH sportchilaridir: oltin medal uchun 25 ming AQSH dollariga erishish mumkin, lekin shu bilan bir qatorda, sportchini ko'pmillionli reklama shartnomasi ham kutadi, chunki Olimpiada g'alabaga erishish unga o'ta taniqli inson bo'lishiga kafolat beradi. Pekin Olimpiadasi oldidan eng katta sovrinni Xitoy hukumati va'da qildi, oltin medalga 1 million AQSH dollari tayinlandi.

Professional sport o'z ishqibozlarini faqatgina o'zining katta daromati bilan jalb qilib qolmay, yana boshqa muhim motivatsion omillarni ko'zda tutadi: hayotda o'z o'rnini topish, o'z imkoniyatlarini namoyish qila olishi, "dunyoni ko'rish" imkoniyati, ko'pchilik bilan muloqat qila olish imkoniyati. SHunday bo'lsaham, motivatsiya masalasida moddiy rag'batlantirish arzigulik asosiy omillik ahamiyatiga ega bulib qolaveradi.

Professional sportni rivojlantirish uning moliyaviy bazasini shakllantirish va uni kuchaytirish bilan bevosita bog'liqdir. Har qanday sohada, jumladan, professional sportda ham moliyaviy bazani shakllantirish va kuchaytirish biznes tijorat ishi, tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liqdir.

Haqiqiy biznesning asosi tadbirkorlikdir. Tadbirkor bo'lish degan so'zni tagida biror ishni boshlash, bajarish, uddalash, ya'ni aniq tayinli ish bilan shug'ullanish degan ma'no yotadi, bunday tushuncha aynan professional sportga xosdir. Biroq biznes "sehrlitayoqcha" yoki "ochil dasturxon" degani, deb tushunganlar yanglishadilar.

Professional sport menejmentida tadbirkorlik faoliyati deganda – ishni tashkil etishga ta'sir ko'rsatadigan shart-sharoitlar va omillar borligi tushuniladi. Tadbirkorlik faoliyatining maqsad va vazifalari bevosita bozor tamoyillaridan kelib chiqadi. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitlarida sotuvchilar o'z tovarlarini imkoni boricha ko'proq foyda beradigan qilib sotishga xaridorlar

esa, bu tovarlarni imkoni boricha, arzonroq qilib harid qilishga intiladi. Ularning manfaatlari bozordagi baholar mexanizmi orqali muvozanatlashadi. Shu munosabat bilan bozor iqtisodiyotining qanday tamoyillari tadbirkorlarga xos bo'lib hisoblanadi, degan savol tug'iladi. Avvalo, xususiy mustaqillik, ya'ni avtonomiya tamoyili. Iqtisodiyotdagi hamma erkin harakat qiladigan iqtisodiy sub'ektlardan kelib chiqadi. Shuning uchun tadbirkor kishi amaldagi qonunlar doirasida o'z istamiga qarab ish yuritishi mumkin.

Erkinlik tamoyili, birinchidan, tadbirkorlar uchun muayyan imkoniyatlar bo'lishini, xo'jalik faoliyati erkinligini va qanday bo'lmasin biror ish bilan shug'ullanish erkinligini ko'zda tutadi.

Ikkinchidan, boshqa imkoniyatlar ham nazarda tutiladi, shartnomalar tuzish erkinligi, birlashish va raqobat qilish erkinligi bor.

Uchinchidan, tadbirkor ishi o'z mulkidan o'z xohishiga qarab, foydalanish huquqiga ega bo'ladi. Umumiy vaqtda tadbirkor qonun bilan belgilab qo'yilgan haq-huquqlarini e'tiborga olish kerak.

Takrorlash uchun savollar:

1. Zamonaviy professional sport menejmentiining qanday shakllanishlarini bilasiz?
2. Xorij mamlakatlaridagi professional sport turlari qanday?
3. Professional sport menejmentining modellari qanaqa?
4. Sport menejmentida professional sportchilarni motivatsiyalashning ahamiyati nimada?
5. Professional sportda biznes tijorat ishi, tadbirkorlik faoliyati qanday?
6. Professional sportda biznesning o'z strategiya va taktikasi nimalarda namoyon bo'ladi?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T.: O'zbekiston, 2009. – 24 b.
2. Gulyamov Z.T., Akbarov F.S. Osnovi menejmenta i ego osobennosti v usloviyax formirovaniya rinka v Uzbekistane. – T.: TGAI, 2006.
3. Gulyamov Z.T., Nabiullin R.X., Kamilova G.Z. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti. Darslik. –T.: O'zDJTI, 2015.
4. Akramov R. S veroy v iskrenniy futbol. –T.: Yangi asr avlodi, 2012.
5. Axmatov M.S. Uzluksiz ta'lim tizimida ommaviy sport sog'lomlashtirish ishlarini samarali boshqarish. – T., 2005.
6. Prchinkin A.V. Menejment v sfere fizicheskoy kulturi i sporta. –M.: Sovetskiy sport, 2010.

**Elektron ta'lim resurslari:
Internet saytlari**

1. www.bilim.uz
2. www.ekonomika.ru
3. www.menejment.com
4. www.edu.uz-Vazirlik sayti
5. www.ziyo.edu.uz-Vazirlik sayti
6. www.performance.edu.uz-Vazirlik sayti

VIII. SPORT MENEJMENTIDA STRATEGIK KONTSEPTSIYALAR

8.1. Sport menejmentida strategik boshqaruv

Reja:

1. Sport menejmentida strategiya va strategik boshqaruv tushunchasi.
2. Sport menejmentida strategik rejalashtirish va uning bosqichlari.
3. Sport menejmentida strategiyani tanlash va uni amalga oshirishni rejalashtirish.
4. Sport menejmentida biznes-rejani ishlab chiqish.
5. Sport menejmentida strategik kontseptsiyalar.

Tayanch so'z va iboralar:

Strategiya, maxsus strategiya, funktsional strategiya, mujassamlashtirilgan strategiya, diversifikatsiyalashgan strategiya, strategik boshqaruv. Bajaruvchanlikni nazorat qilish asosida boshqarish usuli. Ekstrapolyatsiya, prognoz, strategik reja, muvofiqlashtirilish, ustuvorlik, biznes-reja, kontseptsiya, mezon, strategik rejalashtirish, strategiya, vazifa, maqsad, ichki muhitni tahlil etish, motivatsiya, tartibga solish, koordinatsiyalash, nazorat, boshqarish tadqiqoti, o'sish strategiyasi.

Sport menejmentida strategiyani tanlash va uni amalga oshirishni rejalashtirishda kontseptsiyalardan qanday unumli foydalanib kelinayotgani barchaga ma'lumdir. Sport menejmentida ham boshqaruv kontseptsiyalari yaxshi samara berishi hech kimda shubha tug'dirmaydi, shuning uchun biz quyida soha rivojiga hissa qo'sha oladigan boshqaruv kontseptsiyalari asosini ko'ramiz. Har qanday kontseptsiya strategiya asosida shakllanishini hisobga olgan holda, biz jismoniy tarbiya va sport menejmentida strategiyaning o'zi nima, strategiyada rejalashtirish, strategiyani tanlash va boshqa shu kabi savollarga javob topishimiz lozim.

Strategiya grekcha ("strategos") so'z bo'lib, "general san'ati" degan ma'noni bildiradi. Bu atamaning harbiy sohadan kirib kelganiga taajjublanmaslik kerak.

Strategiya atamasi:

- "yirik harbiy operatsiyalar va umuman, urush olib borish san'ati";
- "ijtimoiy-siyosiy kurashga rahbarlik qilish san'ati va ilmi" ma'nosida talqin etilgan.

Harbiy sohada hozir ham bu atama yuqori qo'mondonlik tomonidan harbiy jarayonlarni rejalashtirish san'ati ma'nosida ishlatiladi.

Sport menejmentida ham istiqbolni aniq bashorat, tasavvur qilish uchun strategiya zarurdir. Sport menejmentida strategiya bu:

- sport istiqbolini tadqiq qilish, turli stsenariyalarni tahlil qilish san'ati;
- sport istiqbolida raqobat kurashida afzallik beruvchi g'oya;
- sport tashkilotlarining umumfaoliyati (fondi, quvvati, xarajati, foydasi va h.k.)ni nazorat qiluvchi keng qamrovli tizimdir.

Sport tashkilotlarining bosh strategiyasi sportchilar, guruhlar va tashkilotlarning vazifalarini ro'yobga chiqarishning asosiy usulidir. Bundan tashqari, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida quyidagi strategiyalar ham bo'lishi mumkin:

- sport tashkilotlarining maxsus strategiyasi;
- sport tashkilotlarining funksional strategiyasi;
- sport tashkilotlarining mujassamlashtirilgan strategiyasi;
- sport tashkilotlarining diversifikatsiyalashgan strategiyasi.

Sport tashkilotlarining maxsus strategiyasi bu sodir bo'lishi mumkin bo'lgan turli holatlarni, masalan, sportchilar, jamoalarning musobaqalarda ko'zlangan marraga chiqa olmasligi, tushkunlik holatlarini bartaraf etish maqsadida uzoq muddatga tuziladigan strategiyadir. Sport tashkilotlarining funksional strategiyasi jamoa, bo'lim xizmatlari oldidagi vazifalarni amalga oshirish yo'llarini ifodalaydi. Bu ishchi strategiyadir.

Sport tashkilotlarining mujassamlashtirilgan strategiyasi bu jamoaning yaxlit faoliyatini o'zida jamlagan mo'ljaldir.

Sport tashkilotlarining diversifikatsiyalashgan strategiya sport mahsulotlari korxonasi faoliyat sohasi va ishlab chiqaradigan mahsulotlar turlarini ko'paytirish kabi vazifalarini amalga oshirish yo'llarini ifodalaydi.

Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining strategiyasi korxonaning o'zidagi holatdan kelib chiqib belgilanadi va quyidagi muhim jihatlar tahlil qilinadi:

- sport tashkilotlarining marketingi;
- sport mahsulotlari korxonalarida ishlab chiqarish;
- sport tashkilotlarining moliyasi;
- sport tashkilotlarinida ishchi xodim (xodim)rlar;
- sport tashkilotlarining tadqiq faoliyati;
- sport tashkilotlarining ta'minoti.

Sport tashkilotlarining istiqboldagi strategiyasini asoslash maqsadida uning istiqboldagi taraqqiyotini aniqlash bo'yicha savollar tuziladi va xodimlarning quyidagi holatlarga nisbatan fikri aniqlanadi. Bu erda qoniqarsiz

javoblar salmog'i qanchalik yuqori bo'lsa, strategiyani aniq belgilash shunchalik xavf ostida qoladi.

Xo'sh, sport menejmentida strategik boshqaruvning o'zi nima?

Sportda strategik boshqaruv – bu sportchilar, jamoa, tashkilotlarning istiqbol maqsadi va imkoniyatini ishchi xodim (xodim)lar manfaati bilan uyg'unlashtirishni nazarda tutuvchi uzoq muddatli boshqaruv usulidir. Boshqacha qilib aytganda, jismoniy tarbiya va sportda strategik boshqaruv – bu strategik maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan boshqaruv faoliyatidir.

Ayrim sport tashkilotlari strategik boshqaruv jarayoni bilan etarli darajada yoki chuqur shug'ullanmaydilar. Bunga sabab quyidagilardir:

- sport tashkilotlarida menejment tizimi, usuli, funktsiya va texnologiyalari va kategoriyalari joriy etilmagan;

- sport tashkilotlarining yuqori pog'onadagi rahbarlari joylardagi jismoniy tarbiya va sport ishlarining ahvolini to'liq tavsiflovchi axborotga ega emas. Bunday holat mavjud hisob-kitob, axborot tizimining mukammal emasligi oqibatida bo'lishi mumkin. Tabiiyki, bunday sharoitda boshqaruvchilar raqobatbardosh jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari, bozor talabi, tannarx, baho haqidagi ma'lumotlarga ega bo'la olmaydi;

- sport tashkilotlarining ko'pchilik menejerlari korxonalar faoliyatini bilish nuqtai nazardan o'zini yuqori baholaydi. Ular, odatda, tanqidiy ma'lumotlarni tan olishmaydi va ularga o'zgartirish kiritishga urinishadi va h.k.

Odatda, sport tashkilotlarida yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklarga yo'l qo'ygan rahbariyat inqirozga yuz tutgandagina strategik boshqaruvga e'tibor berishga majbur bo'ladi yoki o'z mas'uliyatini oshiradi.

Sport tashkilotlarida strategik boshqaruv usulining paydo bo'lishi va amaliyotga qo'llanish zaruriyati obyektiv sabablar bilan bog'liq bo'lib, bunda, eng avvalo, jamoaga ta'sir qiluvchi tashqi muhitning o'zgaruvchanligi muhim rol o'ynaydi.

Sport tashkilotlarida strategik boshqaruv usulining rivojlanishi quyidagi bir necha bosqichni o'z ichiga oladi:

Sport tashkilotlarida bajaruvchanlikni nazorat qilish asosida boshqarish usuli. Bu bosqichda jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida salbiy o'zgarishlarga nisbatan munosabat kutilmagan voqealar sodir bo'lgandan keyingina paydo bo'ladi. Rahbariyat ushbu holatni bartaraf etishga kirishganda, fursat boy berilgan bo'ladi, lekin o'ziga yarasha ma'lum chora-tadbirlar amalga oshirila boshlanadi. Bu reaktiv moslashuv bo'lib, zamon bilan birga qadam tashlamaydigan rahbarlarga xosdir. Ammo tez sur'at bilan sodir bo'ladigan

rivojlanish, o'zgarishlar sharoitida bunday usul hech ham qo'l kelmasligi barchaga ayon.

Sport tashkilotlarida ekstrapolyatsiya qilish asosida boshqarish usuli. Bunda o'zgarish sur'ati tezlashadi. Ammo istiqbolni faqat oldingi davr o'zgarishlari tendentsiyasiga asoslanib ekstrapolyatsiya qilish yo'li bilan belgilashi ilg'or ko'rsatkichlarga etaklamasligi mumkin.

Sport tashkilotlarida o'zgarishlarni oldindan bashorat qilish asosida boshqarish usuli. Bu usul yurtimizda, xorijiy mamlakatlarda bo'layotgan yangiliklar, o'zgarishlar sur'ati tezlashib, kutilmagan hodisa sodir bo'lishini nazarda tutib ishlab chiqilgan strategiyani joriy etishni ko'zda tutadi.

Sport tashkilotlarida jadal, shoshilinch, icham qarorlarni qabul qilish asosida boshqarish usuli. Bunday usul bozor talablariga javoban, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari faoliyatini tezkorlik bilan o'zgartirish lozim bo'lgan hollarda qo'llaniladi. Bozor munosabatlari barcha sohalarga shiddat bilan kirib kelayapti. SHunday sharoitda jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida turli-tuman vazifalar tezkor paydo bo'ladi. Ular faqat uzoqni ko'zlagan holda rejalashtiriladi va boshqarilish amalga oshiriladi.

Umuman olganda, sportda strategik boshqaruv evolyutsion tarzda strategik rejalashtirish asosida tashkilot faoliyatining yangi zaminni paydo qiladi va uning tub mohiyatini aks ettirgan holda sportda yangi marralarni zabt etishga imkon yaratadi.

Yurtimizda va xorijiy mamlakatlarda sportni rivojlanishiga nazar tashlasak, sport mollari, tovarlar, jismoniy tarbiya va sport xizmati ko'rsatayotgan tashkilotlar, shaxslar, hududlar va g'oyalar keyingi yillarda jadal sur'atlarda shakllanib, rivojlanib bormoqda. Ma'lumki, ularning negizida ishlab chiqarilgan sport jihozlari, buyumlari, asbob-uskunalar hamda ularni bozor talablari asosida rivojlantirib maqsad qilib qo'yilgan. Shuningdek, sport tovarlari ishlab chiqarish, ularni iste'molchilarga etkazib berish bilan bog'liq bo'lgan xizmatlarning turlari ham ortib bormoqda. Jismoniy tarbiya va sport menejmentini keng yo'lga qo'yish sport jarayoni bilan aloqador xaridor tashkilotlar, jamiyatlar, shaxslar bilan ishlash, ayniqsa, sport mollariga ehtiyoj sezgan hududlar bilan ishlashni, avvaldan qo'yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda qo'l keladi. Shuni ham e'tirof etish kerakki, hozirgi kunda jismoniy tarbiya va sport infratuzilmasini rivojlantirish, sport tovarlarini ishlab chiqarishni kengaytirish, sifatini oshirish, assortimentini yangilab borish dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

Sport menejmentida xalq xo'jaligining har bir tarmog'ini rivojlantirishda keng joriy qilingan va rivojlanib borayotgan kontseptsiyalardan samarali

foydalansa bo'ladi. Jismoniy tarbiya va sport menejmentida ham boshqaruv kontseptsiyalari yaxshi samara berishi hech kimda shubha tug'dirmaydi, shuning uchun biz quyida soha rivojiga hissa qo'sha oladigan boshqaruv kontseptsiyalari asosini ko'ramiz. Har qanday kontseptsiya strategiya asosida shakllanishini hisobga olgan holda, biz jismoniy tarbiya va sport menejmentida strategiyaning o'zi nima, strategiyada rejalashtirish, strategiyani tanlash va boshqa shu kabi savollarga javob topishimiz lozim.

8.1.1-jadval

Sport boshqaruvining shakllari

Boshqaruvdagi tijorat yo'l	Boshqaruvdagi notijorat yo'l
<p>Sport buyumlari ishlab chiqarish, mashq va musobaqalarni rejalash, xizmat ko'rsatish, ishchi xodim (shaxs) larni boshqarish, hududlarda aloqadorlikni ta'minlash va g'oyalarni ilgari surish.</p> <p>Sport buyumlarining hajmi aniqlash, xizmatni tashkil qilish, daromadlarni belgilash va ularni taqsimlash.</p> <p>Talabgorlik mablag'i (jismoniy tarbiya va sport invertarlari, buyumlari xarid qilish, abonementar, musobaqalarda chipta va h.q tarqatish).</p> <p>Aholi ehtiyoji asosida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari, musobaqalari o'tkazish hisobiga daromadlar olish.</p> <p>Sport ishqibozlarini turli mashg'ulot va musobaqalarga jalb etish.</p>	<p>Davlat va jamoat, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida, hududlarda, bepul xizmat tashkil qilish.</p> <p>Aholi hisobidan moliyaviy xarajat belgilanmagan (aholining salomlatligini tiklanish va h.q)</p> <p>Dotatsiyalar (davlat, homiyar va h.q) hisobidan jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari, musobaqalari o'tkazish.</p> <p>Iqtisodiy jihatdan foyda ko'zlanmagan jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari, musobaqalari o'tkazish (yoshlar, nogironlar va h.q)</p> <p>Sport ishqibozlari va homiyarlari hisobidan mashg'ulotlar, musobaqalar o'tkazish.</p>

Sport menejmentining soha tashkilotlarida har tomonlama o'sishni ta'minlashda strategik tanlov katta ahamiyat kasb etadi. Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida ushbu variant odatda, amaldagi natijalardan qoniqish hosil qilmasdan, ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlaridan keng foydalangan holda, jahon standartlariga intilish holatlarida qo'l keladi.

Sport tashkilotlari tizimidagi ba'zi ortiqcha bo'limlarni aniqlash, ular tarkibini tartibga solish yoki ixchamlashtirish ularning samaradorligini oshirishdagi menejmentning vazifalaridan hisoblanadi. Bunda asosan, tashkilotlarda yillar davomida shakllanib, hozirgi kunda o'z mohiyatini, zaruriyatlik darajasini yo'qotgan tizimlarni ixchamlashtirish, qisqartirish yoki kerak bo'lsa, korxonaning yo'nalishini o'zgartirish va ixchamlashtirish ko'zda tutilgan bo'ladi. Yuqorida ko'rganimizdek, sportchilarni A.Maslou keltirgan ehtiyojlar pog'onasi modelida keltirilgan barcha zaxira turlari bilan to'liq ta'minlab borishga erishishni tashkil qilish jismoniy tarbiya va sport menejmenti oldida turgan eng dolzarb masala hisoblanadi. Haqiqatdan ham, turli xil yirik sport musobaqalarini tashkil qilishda ishtirokchilar uchun, avvalo, sifatli oziq - ovqat, ichimliklar turlari va hajmini, shunga o'xshash boshqa mahsulotlar bilan ta'minlashni tashkil etishda jismoniy tarbiya va sport menejmenti etakchi rolni o'ynashi lozim. Shu o'rinda jismoniy tarbiya va sport rivojida, uni boshqarishda ikki usul, ya'ni tadbirkorlik va tijorat, hamda notijorat menejmenti xizmat qilishini ko'rish mumkin.

Jismoniy tarbiya va sport menejmentida soha boshqaruvidagi ko'pgina tarmoqlarda yangicha tizimlar shakllanib, rivojlanib bormoqda. Bu Xalqaro sport taraqqiyotida, ayniqsa, qit'alar, mamlakatlarning yirik musobaqalarida ko'proq uchraydi.

Sport menejmentining soha boshqaruvidagi mavjud tizimlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, ular an'anaviy ravishda shakllanib va rivojlanib kelayotgan ishlab chiqarish korxonalarining shakliga o'xshab ketadi. Ya'ni, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari tizimlarining mavjud sanoat va boshqa korxonalar tarkibiga alternativ holatda yuzaga kelgan deyish mumkin, masalan:

8.1.2 - jadval

Sport tashkilotlarining al'ternativ shakllari

Mavjud sanoat va va boshqa korxonalar tizimlari	Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari tizimlari
O'zbekiston Respublikasidagi mavjud sanoat va boshqa tarmoq korxonalari vazirliklari. Mavjud sanoat va boshqa korxonalar. Hissadorlik jamiyatlari Davlat tasarrufidagi oliy o'quv yurtlari.	O'zbekiston Respublikasi madaniyat va sport ishlari vazirligi. Sport tovarlari va boshqa shunga o'xshash korxonalar. Turli sport jamoalari. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti. Jismoniy tarbiya va sport kollejlari.

Ya'ni, sport uyushmalari assotsiatsiyalari o'rtasida guruhlarni etuk sportchilar bilan ta'minlash, ularning talab va ehtiyojlarini qondirish, sportchilar bilan shartnoma tuzish kabi faoliyatlar jarayonida xilma-xil usullar, muloqotlar, munosabatlar, kelishuvchilik kabi faoliyatlar rivojlanib bormoqda.

Ko'p holatlarda sport tashkilotlari tizimlarida uchraydigan eskirib qolgan, zamon talabiga javob bermaydigan ba'zi ortiqcha bo'limlarni aniqlashda, ular tarkibini tartibga solishda yoki ixchamlashtirishda va ularning samaradorligini oshirishda menejment strategiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

8.1.3 -jadval

**Sport menejmentining soha boshqaruvidagi o'rni
(sport assotsiatsiyalari misolida)**

Sport assotsiatsiyasi faoliyati turlari	Jismoniy tarbiya va sportda o'zaro aloqadorlik turlari	Jismoniy tarbiya va sport xaridorlarning turlari
Musoboqalashuv sporti	Mashg'ulot, inventar, asbob uskunalari, moliyaviy ta'minot. Natijalar, mashhurlik.	YUqori malakali sportchilar
Ko'ngilxushlik uchun jismoniy tarbiya va sport	Jalbetish, joylash, qiziqtirish, o'rgatish (mablag' topish)	Ko'ngillilar, sportchilar
Sport assotsiatsiyasiga a'zolik	Mashg'ulot va musobaqalarni ta'minlash	Assotsiatsiya a'zolari
Xodimlar ta'minoti	Ish haqi, huquq, jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga sharoit yaratish.	Rahbar, murabbiylar, Xodimlar boshqarmasi yoki bo'lim boshlig'i.
Kelishuv asosidagi erkin holdagi ishlar	Jamoatchilik mas'uliyat, ijtimoiy huquq. Murabbiylar xizmati	Rahbarlar
Ajratish dotatsiya	Jamoatchilik, faoliyat moliyalashtirish	Muassasa tashkilotlar
Sport tomoshalari	Musobaqalar tomoshalar kirish chiptalari	Matbuot tomoshabinlar

Bunda asosan, tashkilotlarda yillar davomida shakllanib, hozirgi kunda o'z mohiyatini, zaruriyatlik darajasini yo'qotgan tizimlarni ixchamlashtirish, qisqartirish yoki kerak bo'lsa, korxonaning yo'nalishini o'zgartirish va ixchamlashtirish ko'zda tutilgan holatlardagi tuzilmali takomillashtirish yoki tizimli takomillashtirishga erishiladi.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, sport tashkilotlari o'z faoliyatlarini yuritishda menejmentga xos xususiyatlarga ega bo'lgan turli xil ish shakllari, xizmatlar, daromad qilish yo'llaridan foydalanishga harakat qiladilar. Ular o'z faoliyatlarini tashkil qilishlarida, albatta, menejment funksiyalari orqali boshqaruvning eng to'g'ri yo'lini tanlagan bo'ladilar.

Takrorlash uchun savollar

1. Sport menejmentida strategiya nimada?
2. Strategik boshqaruv nimani bildiradi?
3. Strategik rejalashtirishning qanday bosqichlarini bilasiz?
4. Sport menejmentida strategiya qanday tanlanadi?
5. Sport menejmentida strategik kontseptsiyalar.
6. Biznes-reja nima uchun kerak?
7. Sport menejmentida strategik kontseptsiyalarning turlari qanday?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
2. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. Prezident Islom Karimovning 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2009 yil 14 fevral'.
3. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T.: O'zbekiston, 2009. – 24 b.
4. Gulyamov Z.T., Nabiullin R.X., Kamilova G.Z. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti. Darslik. –T.: O'zDJTI, 2015.
5. Meskon M., Al'bert M., Xedouri F. Osnovi menejmenta. –M.: ANX, 1995.

Elektron ta'lim resurslari:

Internet saytlari

1. www.bilim.uz
2. www.ekonomika.ru
3. www.menejment.com
4. www.edu.uz-Vazirlik sayti

5. www.ziyo.edu.uz-Vazirlik sayti
6. www.performance.edu.uz-Vazirlik sayti

8.2. Sport menejmentida sportni strategik rejalashtirish kontseptsiyalari

Reja:

1. Sport menejmentida strategik kontseptsiyalar rejasi.
2. Sport tashkilotlarining joriy, yillik kontseptsiyalari rejasi.
3. Sport tashkilotlarida strategik rejaning asosiy shakllari.
4. Sport tashkilotlarining joriy, yillik kontseptsiyalar mezonlari.
5. Strategik rejalashtirishning bosqichlari.
6. Sport tashkilotlarida strategiyani tanlash.
7. Sport tashkilotlarida muqobil strategiyalarni aniqlash.
8. Sport tashkilotlarida qiyomiga etkazilgan strategiyaga baho berish.
9. Sport tashkilotlarida strategik rejalashtirishning turli usullari.

Tayanch so'z va iboralar:

Sport tashkilotlari, strategik rejalashtirish, kontseptsiya, markaziy masala, maqsad, ta'minlovchi strategiya, turli variantlar, tanlangan strategiyalar, maqsadiga monand, umumiy strategiya, shakllantirish, strategiya doirasi, yaroqlilik darajasi, yangi mazmun, tashqi xavf, strategik variantlar, muqobil reja, cheklangan o'sishni, barqaror texnologiya, yaroqlilik darajasi, strategik variant, boshlang'ich nuqta, o'ta muhim va zaruriyat, aniq maqsad, tashqi muhitga moslashtirish, samarali boshqarish, tarkib.

Sport menejmentida strategik kontseptsiyalar uzoq yillarga mo'ljallangan vazifalar majmui bo'lib, u sport tashkilotlari ko'lamidagi boshqa joriy, yillik rejalar uchun boshlang'ich nuqta xizmatini o'taydi. Sport tashkilotlarida strategik rejaning asosiy shakllari besh, o'n yil va undan ko'proq muddatga mo'ljallangan rejalaridir.

Sport tashkilotlarida strategik rejaning o'ta muhim va zarurligi quyidagilar bilan izohlanadi:

- sport tashkilotlarining aniq maqsadini belgilashga va shakllantirishga imkon beradi;
- sport tashkilotlarini tashqi muhitga moslashtirishga yordam beradi;
- sport tashkilotlarida samarali boshqarish tarkibi va tizimini yaratishga imkon beradi va h.k.

Sport tashkilotlarida strategik reja odatda, rahbariyat tomonidan ishlab chiqilishi lozim. Uni hayotga tatbiq qilishda jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining barcha xodimlari ishtirok etishadi.

Sport tashkilotlarida strategik rejalashtirish jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: maqsad va vazifalar, tashqi muhitni tahlil qilish, kuchli va kuchsiz tomonlarni tahlil qilish, strategiyani baholash, strategiyani amalga oshirishni boshqarish, muqobil variantni tahlil qilish va strategiyani tanlash.

Sport tashkilotlarida strategik rejalashtirish sifati ham ana shu bosh maqsadning qanchalik to'g'ri tanlanganligi va qabul qilinganligiga bog'liq. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti sohadagi tadqiqotlar maqsadning quyidagi mezonlarga mos kelishi lozimligini taqozo etadi:

- sportni boshqarish aniq o'lchovga ega bo'lishi;
- sportni boshqarish davrining aniq bo'lishi;
- sportda boshqarishni amalga oshirish mumkinligi;
- sportda boshqarishni muvofiqlashtirilishini ta'minlash mumkinligi;
- sportni boshqarishda ustuvorlikka ega bo'lish.

Birinchi mezon maqsadning aniq me'yoriy o'lchovga ega bo'lishini talab qiladi. Jismoniy tarbiya va sportni boshqarishdagi bunday maqsadlarni aniq qo'yish bilan rahbar tashkilotlardagi barcha bo'g'inlarning istiqboldagi rivojlanishi bo'yicha aniq miqdoriy mo'ljallarni belgilaydi.

Strategik rejalashtirishdagi ikkinchi mezon – bu istiqbol qilinayotgan vaqtni aniq belgilash lozimligidir. Bu mezonga binoan, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlaridagi strategik rejalashtirish uzoq muddatli, o'rta muddatli va qisqa muddatli bo'lishi mumkin.

Sportni boshqarishda maqsadga erishishning uchinchi mezoni, ya'ni istiqbol rejalarining amalga oshirish mumkinligi ikki jihat nuqtai nazaridan muhimdir:

- sport tashkilotlarida mo'ljallangan maqsadning amalga oshmasligi sportning rivojlanishiga katta zarar etkazishi, hattoki tashkilotni bankrotlikka olib kelishi mumkin;

- sport tashkilotlarida amalga oshirish mumkin bo'lmagan maqsadning jamoa oldiga qo'yilishi band bo'lgan ishchi xodim (xodim)larning muvaffaqiyatga intilishini bo'g'ib qo'yadi, shaxsiy manfaatdorligini so'ndiradi va mashg'ulot bilan shug'ullanish, ishlab chiqarish samaradorligining pasayishiga olib keladi.

Sport tashkilotlarida strategik rejalashtirishdagi maqsadning to'rtinchi mezoni – bu maqsadning muvofiqlashtirilishini yuksak natijalarga erishishdir. Bu erda gap jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida qo'yilgan bir maqsadning boshqa maqsadlarning amalga oshishiga xalaqit bermasligi to'g'risida ketyapti. Masalan, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya institutida futbolni rivojlantirishni bosh maqsad qilib qo'yib, qolgan boshqa sport turlarini ikkinchi darajali masalalar qatoriga surib qo'yilsa, pirovardida yurtimizdagi barkamol avlod

tarbiyasiga, qolaversa, futbolning o'zini rivojiga ham putur etadi. Bosh maqsad va qo'shimcha maqsadlarning bir-biriga muvofiq kelmasligi turli bo'g'inlar ishida turli qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin.

Sport tashkilotlarida maqsadga erishishning beshinchi mezonini - bu strategik rejalashtirilayotgan obyekt bilan bog'liq bo'lib, uning ustuvorligiga e'tibor beriladi.

Sport taraqqiyotining bosh yo'nalishi va uning maqsadini to'g'ri tanlash quyidagi ikki omilga bog'liq:

- sportning tashqi muhit omili;
- sportning ichki muhit omili.

Sport tashkilotlarida strategik rejalashtirishni amalga oshirishda bu omillarni inobatga olish juda ham zarurdir. Chunki aynan ularni hisobga olish tashkilotlarga xavf soluvchi yoki paydo bo'lishi mumkin bo'lgan xavfning oldini olish imkonini beradi.

Sportdagi tashqi muhit omillari quyidagilardan iborat:

- xorij mamlakatlaridagi iqtisodiy holat yoki moliyaviy-iqtisodiy inqiroz;
- xorij mamlakatlaridagi siyosiy holat yoki inqiroz;
- xorij mamlakatlaridagi bozor injiqliklari;
- xorij mamlakatlaridagi texnologik yuksalish yoki ilmiy-texnik taraqqiyotning pasayishi;
- xorij mamlakatlaridagi sport, iqtisodiyot va boshqa sohalardagi raqobat;
- xorij mamlakatlaridagi ijtimoiy holat yoki inqiroz;
- xorij mamlakatlari bilan erishilgan xalqaro iqtisodiy, siyosiy va sport sohasidagi aloqalar.

Sport tashkilotlarida strategik boshqaruvni rejalashtirishda har bir omillar guruhini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Masalan, bozor injiqliklari omillarini tahlil qilganimizda, demografik o'zgarishlar, aholi daromadi darajasi va uning taqsimlanishi, jismoniy tarbiya va sport tarmog'idagi raqobat darajasi va boshqalar tahlil qilinadi.

Sport tashkilotlarida strategik boshqaruvni rejalashtirishda tashqi muhit omillarini hisobga olish:

- sportning strategik boshqaruvini rejalashtirishda chet eldagi raqobatdoshlarga qarshi hukumat himoyasini aniqlash;
- sport tashkilotlarida strategik boshqaruvni rejalashtirishda ichki bozorni mustahkamlash;
- sport tashkilotlarida strategik boshqaruvni rejalashtirish xalqaro munosabatlarni faollashtirish va kengaytirish imkonini beradi.

Shunday qilib, jismoniy tarbiya va sport menejerlari tashqi muhit ta'sirini doimo diqqat markazida saqlashlari, o'z korxonalarini faoliyatiga oid har qanday

qarorni katta hajmdagi axborotni o'rganish, tahlil qilish asosida qabul qilishlari kerak.

Sport tashkilotlarida strategik rejalashtirish jarayonida jamoa faoliyatini tahlil qilishdan maqsad quyidagi ikkita savolga javob topishdir:

- sport tashkiloti tashqi imkoniyatlardan foydalanish uchun o'zining kuchli tomonlariga egami?

- sport tashkilotining tashqi omillar, o'zgarishlar va xavfga bardosh berolmaydigan qanday kuchsiz tomonlari bor?

Har ikkala savolga javob topish uchun jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining quyidagi jihatlarini kuzatish tavsiya etiladi:

- sport tashkilotlarining moliyaviy ahvoli.

- sport tashkilotlarida marketing monitoringi.

- sport tashkilotlarida ish faoliyatining tashkil etilganlik darajasi.

- sport tashkilotlarida ishchi xodim (mehnat zaxiralari).

- sport tashkilotlarida madaniyat va ma'rifat ishlarining holati, nufuzi va ishchi xodimning tashkiliy xulq darajasi.

Sport tashkilotlarini tahlil qilish va kompleks baholash u yoki bu bo'g'indagi zaif tomonlarni aniqlashga va shunga mos ravishda chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi.

Sport tashkilotlarida strategiyani tanlash – bu strategik rejalashtirishning markaziy masalasi hisoblanib, u bir necha bosqichlardan iborat bo'ladi:

- sport tashkilotlarida muqobil strategiyalarni aniqlash;

- sport tashkilotlarida aniqlangan muqobil strategiyani qiyomiga etkazish;

- sport tashkilotlarida qiyomiga etkazilgan strategiyaga baho berish.

- sport tashkilotlarida strategik rejalashtirishning turli bosqichlarda turli usullar qo'llaniladi.

Birinchi bosqichda - jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari oldiga qo'yilgan maqsadni amalga oshirishni ta'minlovchi strategiya belgilab olinadi. Bunda eng muhimi shu maqsadga erishishning turli variantlari ishlab chiqiladi. Eng yaxshi variantni tanlash imkoniyati yaratiladi.

Ikkinchi bosqich - tanlangan strategiyalar qayta ishlanadi va jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining rivojlanish maqsadiga monand keluvchi ko'p qirrali umumiy strategiya shakllantiriladi.

Uchinchi bosqichda – jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida tanlab olingan umumiy strategiya doirasidagi muqobil variantlar tahlil qilinadi va uning bosh maqsadni echishdagi yaroqlilik darajasi baholanadi. Aynan shu bosqichda jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida umumiy strategiya aniq va yangi mazmun bilan to'ldiriladi.

Aniqlangan tashqi xavf va imkoniyat jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining ichki imkoniyati va kuchsiz tomonlari bilan taqqoslanadi. So'ngra jismoniy tarbiya va sport tashkiloti rahbariyati "Strategik variantlardan qaysi birini tanlash kerak?" degan savolga javob izlashga kirishadi. Jismoniy tarbiya va sport menejmentida muqobil rejaning quyidagi turlarini e'tirof etiladi:

- sport tashkilotlarida cheklangan o'sishni ta'minlash.
- sport tashkilotlarida har tomonlama o'sishni ta'minlash.
- sport tashkilotlari tizimidagi ba'zi bo'limlar yoki ularning bir qismini ixchamlashtirish.

- sport tashkilotlarida har uchala strategik muqobillikni o'zida aks ettiruvchi variant.

Cheklangan o'sish. Bu strategiyani barqaror texnologiyaga ega bo'lgan jismoniy tarbiya va sport tashkilotlar rahbarlari tanlashadi. Bunda rivojlanishdagi maqsad jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida monitoring asosida aniqlangan erishilgan daraja holatiga asoslanib o'rnatiladi. Agar rahbariyat jismoniy tarbiya va sport tashkilotlaridagi mavjud holatdan qoniqadigan bo'lsa, u holda istiqbolda ham shunday strategiyani tanlagan bo'ladi. Bu eng oddiy va inqiroz ehtimoli kam yo'ldir.

Sport tashkilotlarida har tomonlama o'sishni ta'minlash. Bu strategik tanlov nazariyasi va amaliyotida eng ko'p uchraydigan variantdir. Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida ushbu variantni odatda erishilgan daraja ko'lamidan qoniqmagan, to'xtab qolishni istamagan, balki undan ham yuqori darajaga erishishni mo'ljallaydigan rahbarlar tanlaydilar.

Sport tashkilotlari tizimidagi ba'zi bo'limlar yoki ularning bir qismini ixchamlashtirish. Bu juda kam tanlanadigan muqobildir. Bunda asosan, tashkilotda yillar davomida an'anaviy ravishda shakllanib kelgan va hozirgi kunda o'z mohiyatini, zaruriyatlik darajasini yo'qotgan tizimlarni ixchamlashtirish, qisqartirish yoki korxonani kichraytirish, uning ishlab chiqarish hajmini kamaytirish nazarda tutiladi. Sport tashkilotlari odatda, faqat nochor holatdagina bu yo'lni tanlashga majbur bo'ladilar, ushbu holatning belgilari quyidagilardan iborat:

- jahondagi yoki yurtimizdagi iqtisodiy tanazzul davrida;
- sport tashkiloti juda og'ir sharoitga tushib, uning ahvoli yomonlashib borayotgan sharoitda;
- sport tashkilotlarida faoliyat turlarini kamaytirish hisobiga.

To'rtinchi muqobil jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida yuqoridagi har uchala strategik muqobilni o'zida aks ettiruvchi variant. Bunday strategiya odatda, yirik jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida amalga oshiriladi.

Sport tashkilotlarining umumiy strategiyasini ishlab chiqish, tegishli muqobilni rejalashtirish va uni baholashda bir qator uslubiy yondashuvlar qo'llaniladi.

Ishlab chiqilgan strategiya amalga oshirish uchun jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari rahbarlari unga reja, dastur, loyihalarni ishlab chiqishlari, uni asoslashlari, byudjet masalalarini hal qilishlari, xullas, strategiyaning ijrosini boshqarishlari lozim bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida strategiyani amalga oshirish uchun jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida quyidagi rejalar tizimi ishlab chiqiladi:

Zamonaviy korxonalarda to'rtta yo'nalishdan iborat bir-biri bilan bog'langan rejalar ishlab chiqilishi lozim:

1. Sport tashkilotlari faoliyatning asosiy yo'nalishlari bo'yicha bosh reja. U istiqbolli strategiya hisoblanadi.

2. Sport tashkilotlarining bir yildan besh yilgacha bo'lgan muddatdagi rivojlanishi rejasi.

3. Sport tashkilotlarining taktik rejalari jamoa faoliyatidagi joriy tadbirlarni ma'lum tartibga va qonun-qoidalariga solib turadi.

4. Sport tashkilotlaridagi dasturlar va reja-loyihalar maqsadli xarakterga ega bo'lib, ular yangi sport turlarini rivojlantirish, yangi sport mahsulot loyihasi va texnologiyasini ishlab chiqish, sarflarni kamaytirish kabilarni amalga oshirishni ta'minlaydi.

Takrorlash uchun savollar

1. Sport menejmentida strategik kontsepsiyalar rejasi nimadan iborat?
2. Strategik rejalashtirishning bosqichlari qanday?
3. Sport tashkilotlarida strategiyani tanlashning usullari?
4. Sport tashkilotlarida muqobil strategiyalarni aniqlash?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
2. Gulyamov Z.T., Nabiullin R.X., Kamilova G.Z. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti. Darslik. –T.: O'zDITI, 2015.
3. Meskon M., Al'bert M., Xedouri F. Osnovy menejmenta. – M.: ANX, 1995.
4. Prchinkin A.V. Menejment v sfere fizicheskoy kulturi i sporta. –M.: Sovetskiy sport, 2010.

Elektron ta'lim resurslari:

Internet saytlari

1. www.bilim.uz
2. www.ekonomika.ru
3. www.menejment.com
4. www.edu.uz-Vazirlik sayti

IX. XORIJIY MAMLAKATLARDA SPORT TASHKILOTLARINING MENEJMENTI

9.1. Xorijiy mamlakatlarda sport menejmentining shakllanishi va rivojlanishi

Reja:

1. Xorijiy mamlakatlarda sport menejmentining xususiyatlari.
2. O'zbekistonlik sportchilarning xalqaro darajaga chiqish orzulari.
3. Mustaqillik yillarida sportchilarimizning Osiyo, Jahon, Olimpiya musobaqalarida qatnashishi.
4. Jahondagi rivojlangan davlatlar sportchilari darajasiga ko'tarilish masalalari.
5. Xorijiy mamlakatlardagi sport klublarining menejmenti.
6. G'arb sport jamoalarining xususiyatlari.
7. Buyuk Britaniya misolida xorij sport menejmenti xususiyatlarini o'rganish.

Tayanch so'z va iboralar:

Xalqaro daraja, olimpiada, mustaqillik yillari, Osiyo, Jahon Olimpiya musobaqalari, sportchilari darajasi, sport klublari, menejment, G'arbdagi sport, terma jamoalar, G'arb sport sanoati, biznes qonuni, sport sanoati biznesi, bozor iqtisodiyoti, foydani chiqarish, Buyuk Britaniya sport menejmenti.

O'zbekistonlik sportchilarimizning an'anaviy orzulari jahon birinchiliklarida, Olimpialarda agarda sovrindor bo'linmasa ham, ularda ishtirok etish sharafiga ega bo'lish orqali o'zlarini baxtli his etish va yurtimiz dovrug'ini jahonga taratishdir. Mustaqillik yillarida shaxsan mamlakatimiz birinchi prezidenti I.Karimov tashabbuslari bilan O'zbekistonda sport misli ko'rilmagan darajada rivojlandi, ko'pgina sportchilarimiz muntazam ravishda Osiyo, Jahon birinchiliklarida va Olimpiya musobaqalarida qatnashib, oltin, kumush va bronza medallari sohibi bo'lib kelayaptilar. Lekin jahondagi rivojlangan davlatlar sportchilari darajasida sportning barcha turlari bo'yicha sovrindorlar qatorida bo'lish orzusida yashar ekanmiz, hali ko'pgina jiddiy ishlarni amalga oshirishimiz lozim, faqatgina yaxshi niyatning o'zi bilan chegaralanib bo'lmaydi. Jumladan, xorijiy mamlakatlarda sport klublarining menejmentini

o'rganish, ularning tajribalaridan o'z faoliyatimizda unumli foydalanish katta ahamiyat kasb etadi.

Sportdagi yutuqlarimizga nazar tashlaydigan bo'lsak, sportning yakkakurash turlarida ko'proq g'oliblikni qo'lga kiritayotganligimizni guvohi bo'lamiz. Ayniqsa, yurtimizda uzoq tarixdan boshlab, an'anaviy ravishda rivojlanib kelayotgan "Erkin kurash", "Milliy kurash", "YUnon-rim kurashi", "Boks", "Badiiy gimnastika", "Ot sporti", "Suzish", "Eshkak eshish" kabi sport turlarida erishayotgan g'alabalarimiz diqqatga sazovordir. Lekin sportning jamoa turlarida ushbu jarayon qiyin kechayotgani hali oldimizda katta muammolar turganini ko'rsatadi, sabab nimada ekan? Shu narsa ma'lumki, jamoada qatnashadigan ko'pgina o'yinchilar o'z guruhlarida milliy terma jamoaga nisbatan yaxshiroq o'yin ko'rsatayotganliklarini sezamiz. Nima uchun o'z guruhda yaxshi o'yin ko'rsatayotgan sportchilar terma jamoa tarkibida oqsaydilar? Balki o'yinchilarimiz sportga katta sanoat a'zosidek kiraolmayapgandirlar? Balki asossiz ravishda hukm surib kelayotgan murabbiylar, hatto sportchilarning shaxsiy ambitsiyalari xalaqit qilayotgandir? Yoki murabbiylar aybdormikanlar, o'yinchilar ularning ko'rsatmalari asosida harakat qilmaydilar? Nima uchun G'arbdagi sport terma jamoalarida ushbu holat sezilmaydi yoki kam seziladi va yumshoq tarzda namoyon bo'ladi?

Barchamizga ma'lumki, G'arb sport sanoati biznes qonuni asosida yashaydi, uning asosini sportga tikilgan har qanday miqdordagi mablag' albatta, foyda keltirishi lozimligi tashkil etadi. Bizning sport jamoalarimizga sport sanoati biznesi degan tushunchalar endigina kirib kelayapti, shuning uchun hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti afzalliklari sport jamoasi rahbarlari tomonidan hali chuqur o'zlashtirilgan emas, afsuski, hanuzgacha biz o'zimizning kamchiliklarimizni, muvaffaqiyatsizliklarimizni davlat tizimlariga qo'yishga harakat qilamiz, go'yoki davlat etarli darajada yangi sport maktablari qurib bermayapti, mavjud sport inshootlari holatini talab darajasida ta'minlamayapti, sport targ'ibotiga etarli kuch tashlamayapti va boshqalar. Lekin bizning sportimizda xususiy kapitalning o'rnini qay darajada kuchayib borayotganini hammamiz bilamiz. Faqat gap shundaki, har doim ham biz tikilgan mablag'dan kelayotgan foydani his qilayotganimiz yo'q.

Foydani chiqarish uchun sport menejmenti kerak, u tikilgan mablag' evaziga olinishi lozim bo'lgan foydani hisoblab beradi, bizni asossiz tavakkalchilikdan holi qiladi. Ayniqsa, sport jamoalarida ishtirokchilarning samarali faoliyatini tashkil qilish jismoniy tarbiya va sport menejmentining eng muhim va eng asosiy vazifalaridan biri ekanligini esdan chiqarmaslik lozim. O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya institutida sport menejmentiga ixtisoslashgan kafedra tashkil etilgan, kafedra yosh, sohaning o'zi ham biz

uchun hali yangi, G'arb oliy o'quv yurtlari darajasiga chiqish uchun hali ko'p ishlarni amalga oshirish lozim.

Sport klublari iqtisodiy nuqtai nazardan ancha moslanuvchan tashkiliy tizimga kiradi, ular tadbirkorlikning mafkurasini tezda o'zlashtira oladi va zamonaviy bozor sharoitlari talablariga moslasha oladi. SHuning uchun ham aynan Sport klublari sog'lomlashtirish jismoniy tarbiya va sport, fitnes sanoati sohasidagi zamonaviy yangi yo'nalish tadbirkorligining tashkiliy asosi bo'lib qoldi.

9.1.1-jadval

Evropa mamlakatlarida mavjud sport klublari

Mamlakat	Aholi soni, mln. nafar	Klublar soni, mingta	Klubdagilar soni
Buyuk Britaniya	49,5	160	309
Shvetsiya	8,8	29	303
Portugaliya	11,0	10	1100
Niderlandiya	16,2	30	540
Lyuksemburg	0,436	1,5	290
Italiya	56,7	72	787
Vengriya	10,1	5,385	1875
Gretsiya	11,0	12	916
Germaniya	82,5	88	937
Frantsiya	58,0	170	341
Finlyandiya	5,2	8	650
Daniya	5,3	14	378
Bel'giya	10,2	17	600
Avstriya	8,0	11,3	708

Fitnes sanoati sog'lomlashtirish jismoniy tarbiya va sport yo'nalishi bo'lib qoldi, hozirgi davrda u baynalminal ko'rinishga aylandi. Uning etakchilari har xil mamlakatlarda faoliyat ko'rsatayotgan yirik fitnes klub birlashmalari hisoblanadi. Ular ichida eng yiriklaridan hisoblanadigani IHRSA (International Health, Racquet and Sports club Association), transmilliy kompaniyasidir. U IHRSAga a'zo bo'lishga intilayotgan fitnes klublar sonini ortib borishi bilan xarakterlanadi, IHRSA safining eng tez o'sib borish darajasi AQSHga xosdir. Keyingi 20 yil ichida Amerikada IHRSA o'z tarkibida fitnes klublar sonini uch martadan ortiqqa ko'paytirdi.

Birgina Buyuk Britaniyani oladigan bo'lsak, unda jami 12 oliy o'quv yurtlarida sport menejmenti sohasi bo'yicha magistratura mavjudligini ko'ramiz. Bular:

1. De Monfor (De Montfort University),
2. Leychester (Leicester University),
3. Markaziy Lankashira (Central Lancashire University),
4. London Metropoliten (London Metropolitan University),
5. Nortumbrii (Northumbria University),
6. SHeffild Xallam (Sheffield Hallam University),
7. Luton (Luton University),
8. Lids Metropoliten (Leeds Metropolitan University),
9. Lafboro (Loughborough University),
10. Koventri (Coventry University),
11. Edinburg (Edinburgh University),
13. Bolton (Bolton Institute), universitetlari.

Masalan, Koventri universiteti Xalqaro biznes boshqaruvi (XBB) ni sport menejmenti (Master of Business Administration in Sport Management) hisobida joriy etgan. O'qish muddati Angliyadagi barcha magistrlik dasturlaridagidek bir yil davom etadi, Oktyabr /Iyun oylarida ikki semestr o'qish va Iyun/Sentyabr oylarida bir semestr dissertatsiya yoziladi. O'qish rejasi bloklardan tashkil topgan bo'lib, unga sport menejmenti, sport marketingi, sport inshootlarini boshqarish, ishchi xodimga rahbarlik, moliya, sport iqtisodiyoti, sport jurnalistikasi, homiylar bilan ishlash va boshqalar kiritilgan.

Magistraturada o'qish narxi jami 8500 funt sterlingni tashkil etadi. Musobaqalarda yuksak natijalarga erishgan sportchilar Koventri universiteti magistraturasida o'qishni xohlasalar, ularga 4000 funt sterling miqdorida stipendiya to'lanadi.

Britaniya oliy o'quv yurtlari magistraturalarida sport menejmenti sohasida o'qish narxi bir muncha arzonroqdir va 7500 funt sterlingni tashkil etadi.

Kanadada sport menejmenti magistrlik darajasini N'yu Bransvik (University of New Brunswick), Brok (Brock University), Monreal (Universite de Montreal) va Al'bert (University of Alberta) universitetlarida olish mumkin.

Al'bert universitetida Xalqaro biznes boshqaruviga o'qitish dam olishni tashkil etish va sport menejmentiga ixtisoslangan holda olib boriladi. O'quv dasturining asosiy yo'nalishi buxgalteriya hisobi, biznes taraqqiyotining rivoji, sport iqtisodiyoti, moliya, boshqaruv, marketing, tashkiliy xulq modeli va boshqalarni tashkil etadi. O'qish muddati ikki yil davom etadi, birinchi va ikkinchi kurslar orasida albatta, amaliyot darslari bo'ladi. O'qish narxi 39200 Kanada dollarini tashkil etadi.

Avstraliya oliy o'quv yurtlarida ham sport menejmenti sohasida mutaxassislar tayyorlanadi, ayniqsa, Sausern Kross (Southern Cross University)

universiteti ushbu sohaga chuqur ixtisoslashgan. Bir yillik dastur asosida o'qish narxi 19800 avstraliya dollarini tashkil etadi.

Evropada ushbu yo'nalishda bilim olish asosan, Nanta va Marsel frantsuz oliy tijorat maktablarida amalga oshiriladi. Nant (Audencia Nantes) oliy tijorat maktabida sport tashkilotlarini boshqarish (Mastere Specialise in Management of Sport Organisations) dasturi to'liq frantsuz tilida olib boriladi, o'qish narxi 8200 evroni tashkil etadi.

Evromed-Marsel' (Euromed-Marseille Ecole de Management) magistrlik kurslarida Xalqaro sport menejment (Master in International Sports Management) ingliz tilida o'qitiladi, o'qish narxi 8000 evroni tashkil etadi. Frantsuz oliy maktablarida sport bilan bog'liq bo'lgan to'rt oylik amaliyotni hisobga olganda o'qish bir oylik muddatni tashkil etadi.

Evromed-Marsel' (Euromed-Marseille Ecole de Management) magistrlik kurslariga Xalqaro sport menejment (Master in International Sports Management) ixtisosligi bo'yicha o'qishga kirish yuqorida sanab o'tilgan barcha oliy o'quv yurtlaridan bir muncha farq qiladi. Ulardagi talablar oliy ma'lumotli bo'lish, tillarni yaxshi bilish, boshqa o'quv yurtlari tomonidan talab qilinadigan tavsifnoma, taqriz va yo'llanmalardan iborat bo'lsa, Marselda qo'shimcha uch yillik amaliy ish tajribasi va maxsus dasturdan o'tish talab qilinadi.

Rossiyada Moskva davlat universitetining Iqtisodiyot fakul'teti-da "Sport menejmenti" mutaxassisligi bo'yicha o'qishlar tashkil etilgan.

Keyingi yillarda sportning jadal sur'atlar bilan o'sib borayotganini Rossiya misolida ham ko'rish mumkin. Rossiyada nafaqat professional sportga e'tibor berilayapti, balki ommaviy jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish harakatlariga ham keng yo'l ochib berilayapti. Davlat va xususiy biznes jismoniy tarbiya va sport rivojiga katta mablag' ajratayapti, lekin har doim ham u tegishli natijalarga olib kelayotgani yo'q, iqtisodiy va ijtimoiy samara etarli darajada emas. Ba'zi sport klublarining rahbarlari moliyaviy va iqtisodiy inqiroz natijasida o'z jamoalarini tarqatib yuborishga majbur bo'layaptilar. Davlat rahbarlari esa ko'pmillionlik ishqibozlar bilan birgalikda Rossiya sportchilarining olimpiada, jahon va Evropa birinchiliklarida uchragan mag'lubiyatlariga aybdorlarni qidirmoqdalar.

Shu sababli ko'pgina mutaxassislar savodli sport menejmenti zarurligini tan olayaptilar, ushbu masalada faqatgina professional menejerlar sport investitsiyalarini samarali boshqara olishlari mumkinligini tan olmoqdalar. Shuning uchun ham ko'pgina sport tashkilotlari tomonidan aynan menejment mutaxassislariga qiziqish ortib borayapti.

9.1.2-jadval

Sport menejmenti bo'yicha Xalqaro biznes dasturlari

№	Davlat	Oliy o'quv yurtining nomi	O'qitish tili	Milliy valyuta AQSH dollarida
1	Buyuk-britaniya	CoventryUniversity	Ingliz	8500/15576
		De Montfort University	Ingliz	8500/15576
		LeicesterUniversity	Ingliz	8500/15576
		CentralLancashireUniversity	Ingliz	8500/15576
		LondonMetropolitanUniversity	Ingliz	8500/15576
		NorthumbriaUniversity	Ingliz	8500/15576
		SheffieldHallamUniversity	Ingliz	8500/15576
		LutonUniversity	Ingliz	8500/15576
		LeedsMetropolitanUniversity	Ingliz	8500/15576
		LoughboroughUniversity	Ingliz	8500/15576
		EdinburghUniversity	Ingliz	8500/15576
		Bolton Institute	Ingliz	8500/15576
2	Kanada	UniversityofAlberta	Ingliz	39200/29573
3	Avstraliya	SouthernCrossUniversity	Ingliz	19800/1418
4	Frantsiya	AudenciaNantes	Frantsuz	8200/10080
5	Frantsiya	Euromed-Marseille	Ingliz	8000/9834
6	Rossiya	Moskva davlat universiteti	Rus	4000/5000

Hozirda ommaviy axborot vositalari orqali taniqli sportchilar, murabbiylar qatorida sport dunyosining yanada ham muhim namoyandalarining nomlari tilga olinayapti. Ular qatoriga birinchi navbatda, bosh top menejerlar, sport skautlari, agentlar va u yoki bu sport klubi, terma jamoalarining har xil faoliyatlari bo'yicha spikerlar kiradi. Nomlari keltirilgan mutaxassislarining faoliyati orqali zamonaviy jahon sportida ko'p muhim masalalar hal bo'layotganini va musobaqalarda sportchilarning yuksak ko'rsatkichlariga katta hissa qo'shilayotganining guvohi bo'lib turibmiz. Menejerlar, skautlar, agentlar va spikerlar mas'uliyatlariga reklama homiylarini topishdan tortib, to o'yinchilar bilan sport, xo'jalik, maishiy va boshqa masalalar bo'yicha shartnoma tuzishgacha bo'lgan juda katta hajmdagi ishlar kiradi.

Shunday qilib, sport menejmenti yaqin kunlarda ham unga etarli, jiddiy e'tibor berilmaganligiga qaramasdan, u butun jahonda, jumladan, O'zbekistonda ham jismoniy tarbiya va sportni shakllanishi, harakati va rivojining muhim omili bo'lib kelayapti. Masalan, sobiq Ittifoq davrida menejment umuman tan olinmasdan, qoralanib kelingan, biron - bir ilmiy izlanishlarda uning nomi tilga olinadigan bo'lsa, faqat uning kamchiligi tomonidan yondashish lozim bo'lardi. Menejmentni kapitalistik tuzumga xos usul deb tushuntirilardi, shuning uchun

undan xalq xo'jaligining hech bir tarmog'ida foydalanilgan emas. SHuning uchun jismoniy tarbiya va sport ham bundan istisno bo'lmagandi.

Shunday vaziyat va an'ana vujudga kelgandiki, uni boshqarishda murabbiylarning o'zlari, uslubchilar va instruktorlar shug'ullanib kelishgan. Ya'ni, ular o'rindoshlik hisobida sport klublari, sport federatsiyalari va boshqa shunga o'xshash tizimlarni boshqarib kelishgan. Shunisi qiziqarli ediki, ularning rasmiy lavozim yo'riqnomalarida bunday vazifalarni bajarish ko'zda tutilmagandi. Rossiya bozor iqtisodiyotining boshqaruvda jismoniy tarbiya va sport menejmenti professional faoliyatining shakllanishi bozor iqtisodiyotining kirib kelishi bilan bog'liq bo'ldi. Bozor iqtisodiyoti sharoitidagi jiddiy va qattiq iqtisodiy raqobat jismoniy tarbiya va sportni menejmenti oldiga alohida, murakkab talablarni qo'ya boshladi. Endi menejerlik funktsiyalarini murabbiylar va o'yinchilar elkasiga oddiygina yuklash bilan ish bitmaydigan bo'lib qoldi. Sabab zamonaviy, murakkab bozor iqtisodiyoti sharoitda mavjud jismoniy tarbiya va sport boshqaruv tizimlari faoliyatining juda ham past samaradorligi edi.

Zamonaviy jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari asosan, o'zlarining ichki boshqaruv tizimlarga ega bo'lib, ular u yoki bu sport turining aniq xususiyatlariga asoslangan. Ushbu tizimlarda departament, boshqaruv tizimlari, bo'limlar, guruhlar, jamoalar va boshqalar mavjud, ya'ni boshqaruv faoliyatining turli ko'rinish, xillariga duch kelinadi. Buning ustiga rahbarlik va ijrochilik, o'zaro munosabatdagi tizimlar ham mavjud. Demak jismoniy tarbiya va sport boshqaruv tizimlarining har xil pog'onalarida o'ziga xos vazifalarni bajaruvchi menejerlar bo'lishi mumkin.

Sport menejmentini hozirgi kunda shartli ravishda ikki asosiy guruhga bo'lish mumkin:

- strategik darajadagi menejment.
- taktik darajadagi menejment.

Sport menejerlarining aniq lavozimlari va professional faoliyatlariga qarab, ularni shartli ravishda quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin: klub prezidenti, bosh menejer, sport federatsiyasining rahbari, sport kompleksining rahbari, ishchi xodim bo'yicha menejer, reklama va marketing bo'yicha menejer, sport tovarlari, inventorlari va xizmatlarini sotish bo'yicha menejer, sportchi menejeri (agent).

Hozirgi kunda aniq sport klubi, terma jamoa, alohida sportchining yutuqlari bevosita jismoniy tarbiya va sport menejmentining ishiga bog'liq bo'lib qolgan. Bundan tashqari, jismoniy tarbiya va sport menejmentining malakasiga qarab sport tashkilotining aniq moliyaviy daromadi shakllanadi. Bu erda ham jismoniy tarbiya va sport menejmentining cho'qqisi hisoblangan top

darajadagi menejerlar asosiy muhim rolni o'ynaydilar. YAkuniy muvaffaqiyat sport tashkilotining butun boshqaruv tizimi ishini menejerlar qanday tashkil qila olishiga bog'liq.

Sportning top darajasida menejment amalga oshiradigan uchta tayanch funktsiyadarni ko'rish mumkin:

Boshqaruv qarorini qabul qilish. Faqat professional menejerlarga jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining rivojlanish yo'nalishini u yoki bu darajada aniqlab bera oladilar, zaxiralarni taqsimlash, zudlik bilan o'zgarishlar kiritish bilan bog'liq bo'lgan tegishli masalalarni hal etadi. Shu bilan bir qatorda, aynan menejer u yoki bu xodimni ishga qabul qilishda so'nggi qarorni qabul qiladi. Qaror qabul qilishdagi bunday eksklyuziv huquq aynan menejerga tegishlidir, shuning uchun u ishchi xodim xulqi bilan bog'liq bo'lgan, keyinchalik yuzaga chiqadigan barcha o'zgarishlarga to'liq javobgar hisoblanadi.

Axborot funktsiyasi. Ushbu yo'nalishda jismoniy tarbiya va sport menejeri sport tashkilotlarining ichki va tashqi muhiti bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni mujassamlashtiradi, uni me'yoriy ko'rsatma sifatida ijrochilarga tarqatadi, so'ngra tashkilotning yaqin oradagi va istiqbol maqsadlarini ishchi xodimga tushuntiradi.

Rahbar funktsiyasi. Sport tashkilotining ichki va nazoratdan tashqari munosabatlarini shakllantiruvchi jismoniy tarbiya va sport menejeri uning a'zolarini maqsadga erishishga rag'batlashtiradi, rasmiy vakil sifatida ish yuritayotgan tashkilotning boshqa sport jamoalari bilan o'zaro aloqa va harakatlarida ularning faoliyatlarini boshqaradi

Bozor iqtisodiyoti doimiy ravishda noaniqlik va tavakkachilik bilan bog'liq bo'lganligi uchun u jismoniy tarbiya va sport menejerlaridan na faqat nazariy bilimlarni, o'z sohasi bo'yicha jiddiy tajriba, mas'uliyat va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda mustaqil fikrlashni talab qiladi. Bunday menejerlarning mahorati jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarini boshqarish texnologiyasi, bozor qonunlari, hamda butun jamoa ishini hamjihatlik bilan tashkil qilabilish va tashkilot rivojini bashorat qila olishni chuqur o'zlashtirganligi orqali namoyon bo'ladi.

Hozirda Rossiyada, jumladan, O'zbekistonda ham o'n minglab sport tashkilotlari mavjud. Professional darajasida tayyorgarlik ko'rgan jismoniy tarbiya va sport menejerlarining soni taxminan mingtaga yaqin, hatto yuz atrofida deyish ham mumkin. Bu shuni anglatadiki, bizning yurtimizda jismoniy tarbiya va sport menejmenti sohasida mehnat bozori endigina shakllanib kelayapti. Bugun O'zbekiston zamonaviy sportiga nafaqat sortchilar va murabbiylar, balki jamoani muvaffaqiyatli va o'rinli boshqara oladigan, barcha moliyaviy xo'jalik

faoliyatni yurgiza oladigan professional menejerlar, agentlar, iqtisodchi va marketologlar kerakligi haqida gapirmasa ham bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xususiy jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari sifatli menejmentsiz oddiygina raqobatga ham chidashlari qiyin, davlat tizimlari esa yirik Xalqaro musobaqalarga jiddiy va zamon darajasida, savodli tayyorlanishlari mumkin bo'lmaydi.

Keyingi yillarda jismoniy tarbiya va sport menejmentining iqtisodiyotga ta'siri ortib borayapti. O'zbekiston hukumatining bevosita rahbarligida jismoniy tarbiya va sport menejmentini samarali ijtimoiy-iqtisodiy tarmoqqa singdirilishi o'z navbatida, mintaqalarda jismoniy tarbiya va sportni faol rivojlanishiga olib kelayapti.

Yaqin 10 yil ichida Rossiya mintaqalarida keng miqyosdagi jismoniy tarbiya va sport marosimlarini o'tkazish ko'zda tutilgan, jumladan, "Osiyo Bolalari" sport o'yinlari (YAkutiya, 2012), XXVII Butunjahon yozgi universiada (Qozon, 2013), IAAF engil atletika bo'yicha Jahon chempionati (Moskva, 2013), 2014 yilda Sochida o'tkaziladigan Qishki Olimpiada o'yinlarigacha 74 ta test musobaqalarini o'tkazish ko'zda tutilgan, 2018 yilgi Futbol bo'yicha jahon chempionati va boshqalar. SHuning uchun bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport tarmog'i nafaqat professional sportchi va murabbiylarga muhtoj, balki yuqori malakaga ega bo'lgan, sport tashkilotlarini boshqarishda yuksak maqsadlarga erishishga yo'l ochib beraoladigan professional boshqaruvchilar sport menejerlariga ham katta ehtiyojni his etmoqda. Hozirgi kunda katta sport industriyasi obyektlarida, iqtisodiyotning ham davlat, ham xususiy sektorlarida, sport obyektlarini boshqarishda, ichki Rossiya va Xalqaro sport marosimlarini boshqarishda, ya'ni chempionatlarni, festivallarni, o'yinlarni, turnirlarni va boshqalarni boshqarishda jismoniy tarbiya va sport menejmentiga ehtiyoj kattaligini Rossiya hukumati tan olgan.

Sport menejmenti - bu hozirda mustaqil professional faoliyat turiga aylangan. Shuning uchun Moskva davlat universiteti "Sport menejmenti" Dasturining maqsadi yirik sport sanoati obyektlarini boshqarayotgan rahbarlarning tayanch bilimlarini yangilash va jismoniy tarbiya va sport menejmenti sohasida zamonaviy malakaga ega bo'la oladigan tinglovchilarni shakllantirishdan iborat. Ushbu Dastur uch xil toifadagi tinglovchilarni tayyorlashga mo'ljallangan:

- sport sohasidagi davlat muassasalarining hamma darajasidagi rahbar va mutaxassislar.

- sport sanoatidagi menejerlar va davlat - xususiy kompaniyalar mutaxassislari.

- sport sanoatsi obyektlarini boshqarish bo'yicha tayanch ma'lumotga ega bo'lgan tadbirkorlar va mutaxassislar va jismoniy tarbiya va sport sohasida o'z biznesini boshlashni xohlovchilar.

Dastur quyidagi masalalarni hal etishga mo'ljallangan:

Rossiya sport sanoati rivojining asosiy yo'nalishi uning dolzarb va istiqbolli yo'nalishlari bo'yicha bilimlarni shakllantirish.

Sport loyihalari va obyektlarini jadal hamda strategik boshqarish masalalarida bilimlarni yangilash va professional malakani shakllantirish.

Tayanch funktsional sport tashkilotlari, sport sanoati obyektlari va loyihalarini boshqarishda eng yangi usullar va texnologiyalardan foydalanishga erishish, ya'ni umumiy menedjment, ishchi xodim, moliya, marketing, risk-menedjment, PR, Project-Management, Event-Management va boshqalar ko'zda tutiladi.

Rossiyada "Sport menejmenti" o'quv rejasida darslar dastur modullari asosida tashkil etilganini ko'rish mumkin. Dastur modullariga "Sport xo'jalik iqtisodiyotining tarmog'i", "Sport tashkilotining menejmenti", "Rol' RR i SMI v sorte", "Event- i Rroject- Menedjment", "Yakuniy nazorat (guruh loyihalari himoyasi)" va boshqalar kiritilgan. Modullarni o'qitish jarayoniga strategik menedjment va sport menejmeni sohasidagi nazariyotchi va amaliyotchi mutaxassislar, professor va dotsentlar jalb qilingan. Bundan tashqari, o'quv jarayonida sport turlari bo'yicha federatsiyalar rahbarlari, sport klublari rahbarlari sport sanoatining turli doiralarida ishlovchi sport menejerlari qatnashadilar. Sport sohasida o'z biznesini ochmoqchi bo'lganlar yoki jismoniy tarbiya va sport sohasida xususiy biznesni boshqaruvchilar uchun o'quv dasturiga rahbariyat bilan kelishgan holda "Sport sanoatida marketing", "Moliyaviy menejment" kabi maxsus darslar kiritiladi.

Moskva Davlat universitetining "Iqtisodiyot fakul'tet"ida Sport menejmenti Evropacha maktabi mavjud. Ma'lumki, evropalik har bir ozmi ko'pmi tanilayotgan sportchining o'z menejeri bor. Ko'pchilik tasavvur qilishi qiyin bo'lgan savol turadi: "U menejerlar kim o'zi?". Ularning amalga oshiradigan ishlari sportchini muvaffaqiyatli va o'rinli boshqara olish, barcha moliyaviy xo'jalik faoliyatni yurgiza olish, professional menedjmentni namoyish qilish, agentlik, iqtisodchi va marketolog vazifasini o'tash ekanligini gapirma ham bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yakka sportchi menedjmentsiz oddiygina raqobatga ham chidashi qiyin. Evropada bunday menejerlarni o'n yillab tayyorlab kelinmoqda, Rossiyada esa bu sohani o'zlashtirishga endigina kirishilmoqda.

Sport menedjmentiga kengroq qaraydigan bo'lsak, birinchi sport menejerlari rimliklar bo'lganini ko'ramiz, ular asosan, gladiatorlarga egalik qilganlar.

Keyinchalik o'tapolvon xitoy yakudzalarining agentlari paydo bo'ldi, ular Uzoq Sharqdagi eng yaxshi jangchilarning kurashlarini uyushtiradilar, kerak bo'lsa, ularni o'qitganlar (o'qitish hozirgi kungacha davom etmoqda). Lekin haqiqiy sport boshqaruvchilari faqat XIX asr oxirida yuzaga keldi, chunki shu davrda butun jahonni sport va sport tanlovlari bilan umumiy mashg'ul bo'lish qamrab olgandi. Shu davrning o'zida sport atrofidagi doiralarda sport ma'murlar (ma'muriy boshqaruvchilar) yoki agentlar paydo bo'la boshladilar, ular amaldagi menejerlar edilar.

Ma'murlar unvonli sportchilarni, ayniqsa, kuchli bokschi va kurashchilarni har xil assotsiatsiya va ittifoqlarning ma'muriy tizimlari bilan aloqa qilishdan chetlatardilar. Menejerlar esa, aksincha, ma'murlar orasidan ajralib chiqib, mo'tadil ravishda sportchilarga xukumronlik qila boshladilar. Ular sportchilarning aniq masalalarini hal eta boshladilar: sportchi qaerda, kim bilan musobaqalashadi, qaysi axborot tizimlarida interv'yu berish mumkin yoki undan uzoqroq bo'lish lozim, qaysi firma, korxonaning inventaridan foydalanish mumkin. Asta-sekin, tekis ravishda menejerlarning daromadi sportchilarnikidan ham ortib bordi. Hozirda jismoniy tarbiya va sport menejmentining yo'nalishlari yana ham kengayib bormoqda: "Jismoniy tarbiya va sportda ma'muriyatchilik", "Sport turizmi", "Sport mahsulotlarining sanoat menejmenti", "Yengil atletika sporti menejmenti", "Sport iqtisodiyoti", "Sport marketingi" va boshqalar. Jismoniy tarbiya va sport menejmentining rivoji shu daraja jadallashayaptiki, hozirda ba'zan bir sportchining o'zi bir vaqtning o'zida bir necha menejerni yollayapti, ularning har biri o'z sohasi va malakasi doirasida xo'jayinini "erkalashga" harakat qiladi. Masalan, biri sportchini vaqtida, to'g'ri va etarli kalloriyada ovqatlantirishga harakat qiladi, ikkinchisi, liboslarni to'g'ri tanlash, topib kelish, har xil sharoitga qarab kiyintirish, uchinchisi, o'z zimmasiga butun buxgalteriya, iqtisodiyot va marketingni oladi, to'rtinchisi yuridik va tashkiliy ishlarni hal etadi.

Menejerlar tayyorlashning aniq shakllangan tizimi bo'lmaganligi sababli ular o'z vazifalariga har xil darajada tayyorgarchilik bilan keladilar. An'anaviy g'arb usuli yoki amaliyotini oladigan bo'lsak, 70-80- yillarda ilgari murabbiy yoki sportchi iqtisodiyot fakul'tetini tugatib, sport biznesining qaymoqli joyiga o'zlarini urganlar. Shuni eslatib o'tish lozimki, 30-yillar ilgari G'arbdagi har qanday sport jamoasi, guruhlar yoki sportchilar menejerlarini tashqi ko'rinishlari murabbiy yoki o'yinchilardan deyarli farq qilmasdi. Shuning uchun o'sha davrlarda keng tarqalgan "triko va sport shapkachasi" degan qanotli so'zlarga o'rganib qolingandi.

Ittifoq davrida Rossiyada sport menejerlari vazifasini asosan, harbiy xizmatchilar yoki boshqa mudofaa vazirliklari vakillari bajarib kelishgan. 80-

yillarga kelib Evropada sport menejerlarini Xalqaro biznes boshqaruvi dasturlari yoki davlat ta'lim etalonlari asosida tayyorlaydigan o'quv yurtlari paydo bo'la boshladi. Ularning yuqorida nomlari keltirilgan oliy o'quv yurtlariga nisbatan printsiptal alohidaligi va o'xshashliklari ham bor: masalan, ularning printsiptal alohidaligi AQSH va Kanadada beysbol, boks va gol'f sohalarida maxsus sport menejerlarini tayyorlaydilar. O'xshashligi esa, Angliya yoki Shveytsariyada Xalqaro biznes boshqaruvi dasturlarini tugatib, sport menejerlari o'z vatani futbol guruhida xo'jalik hisobi mas'uliyatini o'z zimmalariga oladilar. Ko'rinib turibdiki, yuqorida nomlari keltirilgan o'quv yurtlarida murabbiy yoki shunga o'xshash mutaxassislar tayyorlanayotgani yo'q, aksincha, faqat sportning aniq yo'nalishi bo'yicha menejerlar tayyorlanayapti. Sport menejerlari tayyorlovchi o'quv yurtlari Evropaning deyarli barcha mamlakatlarida mavjud, lekin birmuncha oldinda yuradigan mamlakatlar qatoriga Angliya, Frantsiya, SHveytsariya va Germaniya kiradi.

Angliyani oladigan bo'lsak, u Evropada sport menejmenti ta'lim sohasi bo'yicha eng ilg'or davlat hisoblanadi. Angliyada sport biznes boshqaruvi va biznes menejmenti Master of Business Administration in Sport Management universiteti va 11 ta boshqa institutlarning tegishli fakul'tetlarida o'qitiladi. Masalan, Koventri institutida bir yillik dastur asosida 2 semestr davomida yakuniy dissertatsiya yozish bilan bir qatorda, hamkor (o'rindosh) fanlar o'zlashtiriladi. Bular qatoriga marketing bazasi, ishchi xodimni boshqarish, pul menejmenti va boshqalar kiradi, tor ixtisoslashgan fanlar ham shular qatoriga kiradi, masalan: sport jurnalistikasi, sport iqtisodiyoti, homiy va boshqa tashkilotlar bilan ishlash, sport o'yinlarini boshqarish va hatto sport kastingi. Bunday o'qishning narxi 8500 / 15000 funtov sterlingni tashkil etadi. Sportda o'zining shaxsiy kar'erasida yuksak natijalarga erishgan talaba / sportchilar stipendiya olishga da'vogarlik qiladilar, stipendiya hajmi 4000 funt sterlingni tashkil etadi. Lekin stipendiyaga erishish oson emas, chunki har bir da'vogarning nomzodi maxsus komissiya tomonidan alohida ko'rib chiqiladi.

Sport menejerlarini tayyorlashda De Monfor (De Montfort University), Lankashir markazi (Central Lancashire University) va London Metropolitan (London Metropolitan University) institutlarining nomlari ham yuqori o'rinlarda turadi.

Sport menejerlarini tayyorlashda frantsuzlar tarbiyasi Britaniya maktablaridan qolishmaydi. Eng kuchlilardan biri Evromed-Marsel' maktabi hisoblanadi, o'qish narxi har bir kurs uchun 8000 Evroni tashkil etadi. Dastur tarkibi Britaniyanikiga yaqin hisoblanadi, birdan-bir tafovut o'qishga qabul shartlarining og'irligidadir. Xalqaro biznes boshqaruvi dasturlari uchun qo'yilgan yuksak madaniyat va tarbiya, frantsuz va boshqa tillarni bilish, umumiy va

professional natijalar, tavsifnoma kabi umumiy talablardan tashqari, GMAT (Graduate Management Assessment Test) / test topshirish va soha bo'yicha kamida 3 yil ishlaganligi va ishni o'zlashtirganligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etish lozim.

Audensiya Nant (Audencia Nantes) pullik maktabida talaba bo'lish birmuncha osonroq, ushbu o'quv yurti sport tashkilotlarini boshqarish (Mastere Specialise in Management of Sport Organisations) ustozlik dasturini tavsiya etadi. Bu maktabda darslar nafaqat frantsuz, balki boshqa tillarda olib boriladi, chunki tilga bo'lgan talab boshqa o'quv yurtlaridagidek qat'iy emas. Ikkala frantsuz maktablarida ham bir xil hajmda va bir xil mazmunda sport tashkilotlarida to'rt oylik amaliyot ko'zda tutilgan.

SHveysariyada sport menejmentining shakllanishi va rivojlanishini ko'radigan bo'lsak, u eng avvalo, Shveysariyani butun dunyoga mashhur qilgan "Mehmonxona va mehmonxona xo'jaligi menejmenti" asosida yuzaga kelganini ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun ham hozirgi kungacha menejment sohasida mutaxassislar tayyorlayotgan ko'pgina o'quv yurtlarining asosiy faoliyat yo'nalishlarini mehmonxona va mehmonxona xo'jaligi uchun menejerlar tayyorlashdan iborat.

Sport menejerlari va murabbiylar tayyorlash borasida shveysariyalik Xalqaro biznes boshqaruvi dasturlari mualliflarining ko'nikmalari britaniyalik va frantsiyalik hamkasblarinikiga qaraganda, sezilarli darajada kam bo'lishiga qaramasdan, ular sport boshqaruvi masalalarini aniq istiqbol yo'nalishlarida o'rganib, rivojlantirib borayaptilar. Masalan, eng boshidan ixtisoslashishga e'tibor qilingan holda, tennis, futbol, chang'ida sirpanish va shunga o'xshash sohalarga jiddiy e'tibor berib kelinayapti. Mutaxassislarni tayyorlash odatda, bakalaviariat etalonlari asosida olib boriladi, ushbu dastur oldindan o'tkaziladigan 2 yillik amaliyotni ham o'z ichiga oladi. Shu bilan bir qatorda, qisqartirilgan dastur asosida o'qitib, sertifikat berib, keyinchalik diplom orti tayyorgarligini davom ettirish ham ko'zda tutilgan.

Shveysariyada sport menejmenti sohasida bakalavriatga o'qishga kirish unchalik qiyin emas. Rossiyaliklar yoki MDH mamlakatlari vakillarini barcha mehmonxona va sport menejmenti maktablarida yaxshi kutib oladilar, bu borada – Glion Hotel School i Les Roches o'quv yurtlarining dong'i taralgan. O'qishga joylashish uchun 18 yoshga to'lgan abituriyentlar eng avvalo, TOEFL bo'yicha 500 ball yoki IELTS bo'yicha 5,5 ball to'plashlari lozim. Diplom o'qishlariga 24 yoshdan katta bo'lgan shaxslar qabul qilinadilar. SHveysariyada sport menejmenti sohasida bakalavriaturada o'qishning eng qiyin, yakkayu-yakka muammosi, bu ham bo'lsa, o'qish haqi diapazonining kattaligidir, u 17 / 33 ming shveysariya frankini tashkil etadi.

Germaniyada jismoniy tarbiya va sport menejmenti, sport ta'limi haqida ko'p eshitilmasa ham, Evropada eng yirik hisoblangan sport menejerlarini tayyorlaydigan markaz joylashgan. 1989 yildan Kyol'nda joylashgan eng oliy darajadagi Sport maktabiga qarashli Sport iqtisodiyoti va sport menejmenti (Institut fuer Sportoekonomie und Sportmanagement) oliy o'quv yurti odatdagi Xalqaro biznes boshqaruvi dasturlariga o'xshashga intilmaydi. U erda an'anaviy institut bilimi va tarbiyasi beriladi, oliy o'quv yurti maskanidan sport tashkilotlarida to'lovli va notijorat faoliyatlarning huquqiy zamin sohasini chuqur o'zlashtirgan iqtisodchilar chiqadilar. Eng kuchli printsipial narsa, ushbu oliy o'quv yurtida ilmiy izlanishlarga juda katta e'tibor berilgan: o'qish davomida talabalar jismoniy tarbiya va sport boshqaruvi sohasida ilmiy izlanishlar bilan shug'ullanadilar.

Fraysburgdagi (Institut fuer Sprachen und Wirtschaft) tillar va iqtisodiyot oliy o'quv yurtida Sport iqtisodiyoti va sport menejmenti (Institut fuer Sportoekonomie und Sportmanagement) oliy o'quv yurtidagiga nisbatan maxsus (Sport iqtisodiyoti va sport menejmenti va boshqa fanlar)ni o'qitish aytarli darajada keng qamrovli emas. Bu erda an'anaviy Xalqaro biznes boshqaruvi dasturlari taklif qilinadi va shu doirada talabalar sport marketingi tayanchi, homiylik, sport tadbirkorligi nazariyasi, rejalashtirishda ma'muriy boshqaruvni takomillashtirish va shunga o'xshash yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib boradilar. Lekin nemislar o'z dasturlarini umumta'lim fanlari bilan kengaytirmasalar, o'zlarini germaniyaliklar deb hisoblay olmaydilar. Talabalarga o'z xohishlariga qarab, ingliz, frantsuz, ispan tillari doirasida bilim olish yoki o'zining anglash doirasini kengaytirish imkoniyatlari beriladi. O'zaro munosabatlar, sport psixologiyasi va madaniyat tarixi masalalariga ham keng o'rin berilgan. Ushbu o'quv jarayonning narxi 15 ming evroni tashkil etadi.

Qiziq bir misol, rossiyalik Aleksandr Lankashir instituti dasturi bo'yicha "Business Administration in Sport Management" biznes maktabi talabasi: u biznes saboqni Rossiya Federatsiyasida olgan, iqtisodchi, uzoq vaqt boks va basketbolni havas qilib yurgan. Ma'lum vaqt o'tgach, Sasha amaliy sportda yuksak natijalarga erisha olishiga ko'zi etmaydigan bo'lib qoldi, lekin sportni tashlashni xohlamasdi, shuning uchun sportda boshqa yo'l bilan "ishtirok etmoqchi" bo'ldi. U iqtisodiyot va menejmentda biror arziydigan yangilik yaratmagan, lekin o'zining ilgari olgan bilimlarini, izlanishlarini sport sohasiga joriy etishga harakat qila boshladi. Lekin uning yuqorida keltirilgan imkoniyat salohiyatiga qaramasdan, sport psixologiyasi kerak bo'lib qoldi. Sasha ilgari sportchi bo'lgan, u o'zining ilgarilari intuitsiya darajasida bilgan narsalarini hozirda ilmiy darajada tushuntirish imkoniyatiga ega bo'la boshladi, bu esa sportchilarning kastingiga katta yordam beradi. Albatta, dasturda boshqa xalqlar

vakillari uchun mutloq keraksiz fanlar ham mavjud, masalan, muruvvatlik faoliyati, chunki Rossiya Federatsiyasida homiylik butunlay boshqacha o'ziga xos tizim asosida amalga oshiriladi.

Sport menejmentining asoslarini o'rgatadigan har qanday dastur 3 / 9 oylik amaliyotni ko'zda tutgan bo'ladi. Evropada amaliyot o'tish, albatta, Rossiya oliy o'quv yurtlarinikidan tubdan farq qiladi. Xorijdagi amaliyot tanlangan soha bo'yicha o'sishga mo'ljallangan amaliy ishdir, ish ham qattiq talab qilinadi, oylik maosh ham to'lanadi. O'zini yaxshi tomondan ko'rsata olganlar keyinchalik doimiy ish bilan ta'minlanishlari ham mumkin, lekin boshlanishda ko'ngildagidek yuqori lavozimni havas qilishga o'rin yo'q.

Boshqa davlatlar fuqarolari uchun Evropa mamlakatlarida ish berish ko'pincha ehtimoldan holi darajasida bo'ladi, chunki uy-joy, ayniqsa, fuqarolik masalalari jiddiy muammo tug'diradi. Shunga qaramasdan, xorij mamlakatlaridagi amaliyot qiyinchiliklari rossiyaliklarni yo'ldan qaytarmaydi, chunki G'arb sport klublarida olingan bilim va tajriba Rossiya bozorida yuksak baholanadi.

Demak sport yuqori malakali menejmlarni tayyorlashda birinchi navbatda xorijdagi (Angliyada, AQSH, Rossiya va boshqa mamlakatlar) o'z biznes maktablari yoki fakul'tetlariga ega bo'lgan katta oliy o'quv yurtlari tajribasiga tayanish maqsadga muvofiqdir, ular: N'yu Palts Xalqaro menejment universteti (AQSH), Plexanov nomidagi iqtisodiyot Akademiyasi (Rossiya), De Montfort University, Leicester University, Central Lancashire University, London Metropolitan University, Northumbria University, Sheffield Hallam University, Luton University, Leeds Metropolitan University, Loughborough University, Coventry University, Edinburgh University, Bolton Institute.

Takrorlash uchun savollar:

1. Xorijiy mamlakatlarda sport menejmentining xususiyatlari qanday?
2. O'zbekistonlik sportchilarimizning xalqaro darajaga chiqishida sport menejmentining roli qanday?
3. Mustaqillik yillarida O'zbekiston sportchilarining Osiyo, Jahon, Olimpiya musobaqalarida qatnashishlari qanday bo'ldi?
4. G'arb sport sanoatida biznes qonuni nima beradi?
5. Sport menejmentida bozor iqtisodiyoti afzalliklari ahamiyatlimi?
6. Buyuk Britaniya misolida G'arb sport menejmentining qaysi xususiyatlariga e'tibor berish lozim?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T.: O'zbekiston, 2009. – 24 b.

2. Gulyamov Z.T., Akbarov F.S. Osnovi menejmenta i ego osobennosti v usloviyax formirovaniya rinka v Uzbekistane. – T.: TGAI, 2006.
3. Gulyamov Z.T., Nabiullin R.X., Kamilova G.Z. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti. Darslik. –T.: O’zDJTI, 2015.
4. Akramov R. S veroy v iskrenniy futbol. –T.: YAngi asr avlodi, 2012.
5. Prchinkin A.V. Menejment v sfere fizicheskoy kulturi i sporta. –M.: Sovetskiy sport, 2010.

Elektron ta’lim resurslari:

Internet saytlari

1. www.ekonomika.ru
2. www.menejment.com
3. www.edu.uz-Vazirlik sayti
4. www.ziyo.edu.uz-Vazirlik sayti

9.2. Xorij mamlakatlarida sport marketingining kontseptsiyasi

Reja:

1. Marketingni sport amaliyotiga kirib kelishi.
2. Sport tovarlari ishlab chiqarishni uslublari, maqsadlari va vazifalariga menejmentning munosabati.
3. Sport tovarlarini ishlab chiqarishni va sotishda marketing roli.
4. Marketing kontseptsiyasining paydo bo’lishi.
5. Adam Smitning “Jamiyat boyliklari” asarining ahamiyati.
6. Marketing kontseptsiyasining shakllanishiga ilmiy-texnik yondashish.
7. Marketing evolyutsiyasining bosqichlari.
8. Sport tovarlarini ishlab chiqarishni takomillashtirishda marketing kontseptsiyalari.

Tayanch so’z va iboralar:

Marketing, sport tovarlari, ishlab chiqarish, sotish, rivojlantirish, uslublar, maqsadlar, vazifalar, menejmentning munosabati, marketing kontseptsiyasi, Adam Smit, “Jamiyat boyliklari” asari, ishlab chiqaruvchi, iste’molchi, talab, qondirish, tashvish, marketing kontseptsiyasi, shakllanish, ilmiy-texnik yondoshish, marketing evolyutsiyasi, XX asr marketingi, takomillashtirish, tovarni takomillashtirish.

Marketing dunyo amaliyotida to’satdan paydo bo’lgan emas. U ishlab chiqarishni va sotishni rivojlantirish uslublari, maqsadlari va vazifalariga menedjerlarning ko’p yillik qarashlari natijasidir. Qadim o’tgan zamonlarda

etikdo'z o'z ustaxonasi peshtog'iga bir juft ta'mirlangan etikni osib qo'yib, tovarni siljitishning ayrim uslublaridan foydalangan, zero marketing kontseptsiyasi ancha keyin paydo bo'lgan. XVIII asrning ikkinchi yarmida taniqli iqtisodchi Adam Smit o'zining "Jamiyat boyliklari" asarida ishlab chiqaruvchining iste'mol-chining talabini qondirishdan bo'lak tashvishi yo'qdir, - deb yozgan edi.

Marketing kontseptsiyasining shakllanishiga ilmiy-texnik taraqqiyot, ularning tez sur'atlar bilan yangilanib turishi, ishlab chiqarishni samarali boshqarish va hokazolar katta ta'sir ko'rsatdi. Marketing evolyutsiyasining birinchi bosqichi XX asrning boshidan 30-yillarning o'rtalarigacha, ikkinchi bosqichi esa 30-yillarning o'rtalaridan 80-yillarning o'rtalarigacha, uchinchi bosqichi esa 80-yillarning o'rtalaridan to hozirgi kungacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Marketing evolyutsiyasining birinchi bosqichida ketma-ket ikki kontseptsiya paydo bo'ldi: ishlab chiqarishni takomillashtirish va tovarni takomillashtirish kontseptsiyalari.

Ishlab chiqarishni takomillashtirish kontseptsiyasini qo'llash ikki holatda o'rinli bo'ladi. Birinchisi, talab taklifdan yuqori bo'lgan holatda. Bu holatda korxonalar rahbariyati asosiy e'tiborni ishlab chiqarishni yuksaltirishga qaratadi. Ikkinchisi, tovarning tannarxi yuqori bo'lganda, chunki uni kamaytirish uchun ishlab chiqarish samaradorligini oshirish talab etiladi. Demak bu kontseptsiyada tovar ishlab chiqarilsa bas, hech qanday marketing tadbirlari qo'llanmasa ham tovarning xaridorlarga sotilishi ta'minlanadi.

Tovarni takomillashtirish kontseptsiyasining mohiyati shundan iboratki, iste'molchilar yuqori sifatli, yaxshi ekspluatatsion xususiyatlarga va tavsiflarga ega bo'lgan tovarga nisbatan hayrixohlik bilan qaraydilar. Demak firma yoki korxonalar boshqaruvchilari tovar sifatini yaxshilashga, ekspluatatsion xususiyatlarini oshirishga, o'rab-joylash, baho va dizayn yordamida tovarning xaridorgirligini oshirishga, umuman, bu tovarning sifati a'lo darajada ekanligiga iste'molchini ishontirishga o'z kuch-qudratini sarflamog'i zarur. Boshqacha aytganda, bu kontseptsiya "uzoqni ko'rolmaydigan marketing"ga olib kelishi mumkin. Masalan, "O'zbekiston havo yo'llari" kompaniyasining rahbariyati mijozlarga faqat samolyot kerak deb o'ylab, boshqa qulayliklar va xizmatlarni tashkil etishni o'ylashmasa, u holda mijozlarini yo'qotib qo'yishi ham mumkin.

Marketing evolyutsiyasining ikkinchi bosqichida tijorat faoliyatini jadallashtirish va marketingning umumiy kontseptsiyalari (marketing-miks) vujudga keldi. Bu kontseptsiyalarda asosiy e'tibor tovarni sotishga va iste'molchilarga qaratilgan.

Tijorat faoliyatini jadallashtirish kontseptsiyasi tovarni siljitish, sotish va sotilishlarini rag'batlantirish sohasida etarli darajada, hatto agressiv harakatlar amalga oshirilmasa, iste'molchilar korxonaning tovarlarini kerakli miqdorda sotib olmaydilar, – deb hisoblaydi. Ko'pgina firmalar sotishda qiyinchiliklar tug'lsa, ortiqcha ishlab chiqarish belgilari ko'rina boshlasa, mazkur kontseptsiyani mo'ljal qiladilar. Bunday firma va kompaniyalarning maqsadi - bozor talab qilayotgan tovarlarni ishlab chiqarish emas, balki ishlab chiqarilgan tovarlarni sotishdan iboratdir.

Ko'pchilik hollarda tijorat faoliyatini jadallashtirish va marketing kontseptsiyalarini bir-biri bilan chalkashtiradilar. Marketing sohasi bo'yicha yirik mutaxassis T.Levitt ularni bir-biridan quyidagicha farqlaydi: tijorat faoliyatini jadallashtirish kontseptsiyasi - bu diqqat-e'tiborni sotuvchi zaruriyatiga qaratish, marketing kontseptsiyasi esa butun diqqat-e'tiborni xaridorga qaratishdan iboratdir.

Marketing funktsiyalari uning amaldagi faoliyatini ifodalaydi, asosan, marketingning to'rtta funktsiyasi mavjud: analitik, ishlab chiqarish, sotish, nazorat.

Analitik funktsiyaning asosiy mazmuni keng qamrovli marketing tadqiqotlarini (marketing research) o'tkazishdan iboratdir. Bu tadqiqotlar asosan, uchta yo'nalishda olib boriladi: bozorni kompleks tadqiq qilish, firmaning ishlab chiqarish va sotish imkoniyatlarini o'rganish, marketing strategiyasini ishlab chiqish.

Marketing analitik funktsiyasining so'nggi natijasi har qaysi bozorda firmaning maqsadli rivojlanishi va bunga erishish strategiyasini shakllantirishdan iborat bo'ladi. Masalan, firma o'zining global rivojlanishining asosiy harakatlantiruvchi vositasi sifatida har xil bozorda "qaymog'ini olish" yoki "bozorni butunlay qamrab olish" strategiyalaridan foydalanib, diversifikatsiya strategiyasini tanlashi mumkin va hokazolar. Umuman, u yoki bu strategiyani tanlash firmaning imkoniyatlari, bozordagi mavjud holat, kompaniyaning o'z oldiga qo'ygan maqsadi kabilar bilan aniqlanadi.

Ishlab chiqarish funktsiyasi ma'lum assortimentdagi tovarlarni yaratish, jihozlarni yangilash, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish, tovar sotilgandan keyingi xizmatni tashkil etish va hokazolarni o'z ichiga oladi.

Sotish funktsiyasi tovar harakati tizimini tashkil etish, narx siyosati, tovarni siljitish bo'yicha chora tadbirlar ishlab chiqish, kadrlarni ishga qabul qilish, o'qitish, malakasini oshirish uchun qayta tayyorlash kabi masalalarni o'z ichiga oladi.

Marketing nazorat funksiyasi firmaning marketing dasturini amalga oshirish jarayonida, ya'ni qo'yilgan maqsadga erishishdagi marketing faoliyatining yutuq va kamchiliklarini aniqlash uchun o'tkaziladi. Agar kamchiliklar aniqlansa, bu kamchiliklarni tugatish chora-tadbirlari ishlab chiqiladi.

Inson birinchi navbatda, muhim, zaruriy ehtiyojini qondirishga harakat qiladi. Bu vazifa hal etilgandanoq, inson navbatdagi muhim ehtiyojni qondirishga harakat qiladi. Maslou piramidasida ko'rsatilganidek, inson uchun birinchi zaruriy ehtiyoj fiziologik (oziq-ovqat, kiyim-kechak, yashash uchun joy) ehtiyoj hisoblanadi.

Ishlab chiqarish ehtiyojlari deganda esa, korxonaning ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan predmet va xizmatlar tushuniladi.

Xohish (istak) - bu ehtiyojning aniqlashtirilgan shaklidir. Masalan, oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoj umumiy bo'lsa, olma mevasiga bo'lgan ehtiyoj aniqlashtirilgan ehtiyojdir. Bir mamlakatda yashovchi iste'molchilar ehtiyojlarini xilma-xil turdagi va assortimentdagi tovarlar sotib olish yo'li bilan qondiradilar.

Talab - bu bozorda aks etgan, pul bilan ta'minlangan ehtiyojdir (uning bir qismidir). Talab hajmi ma'lum vaqt davomida va ma'lum narx darajasida iste'molchi xarid qilishi mumkin bo'lgan mahsulotlar va xizmatlar miqdoridir. Talabning hajmi va tarkibi aholi tarkibi va zichligiga hamda ularning daromadlariga bog'liqdir. Talab - bu bozorni harakatlantiruvchi kuchdir desak xato qilmagan bo'lamiz.

Tovar - bu iste'molchilarning ma'lum bir ehtiyojlarini qondirish maqsadida bozorga sotib olish, foydalanish, iste'mol qilish uchun taklif etilgan mehnat mahsulidir. Tovar - butun marketing faoliyatining asosidir. Agar tovar iste'molchilarning talabini qondira olmasa, u holda hech qanday sotishni tashkil etish harakatlari, qo'shimcha xarajatlar tovarning va firmaning bozordagi pozitsiyasini yaxshilay olmaydi. Marketingning birinchi qat'iy qoidasi "Agar sizda tovar bo'lmasa, sizda hech narsa yo'q"dan iboratdir.

Ayriboshlash - bu taklif etib, taklif etilgan narsa o'rniga kerakli narsani olish harakatidir.

Xohish bo'yicha ayriboshlashning amalga oshirilishi quyidagi shartlarning bo'lishini taqozo etadi:

1. Tomonlar eng kamida ikkita bo'lishi kerak.
2. Ikkala tomonning har biri qarama-qarshi tomonni qiziqtiradigan, talabini qondiradigan narsaga ega bo'lishi kerak.

3. Har bir tomonning ayriboshlashni amalga oshirishi uchun istagi bo'lishi kerak.

4. Har bir tomon ikkinchi tomonning taklifini qabul qilishda va qabul qilmaslikda erkin bo'lishi kerak.

5. Har bir tomon o'z tovarining kommunikatsiyasini va etkazib berilishini ta'minlay bilishi kerak.

Agar ayriboshlash ilmiy fan sifatida marketingning asosiy tushunchasi bo'lsa, u holda marketing doirasining asosiy o'lchov birligi bitim hisoblanadi.

Bitim - ikki tomon orasidagi savdo operatsiyasi bo'lib, u kamida ikki sub'ektning manfaatini o'zida mujassamlashtiradi. Masalan, xaridor magazinchiga besh ming so'm berib, choynak xarid qiladi. Bitimlar ikki xil bo'ladi: pul bitimi va barter bitimi. Pul bitimida tovar pulga ayraboshlanadi, barter bitimida esa tovar tovarga ayraboshlanadi.

Bozor (market) - sotuvchi bilan xaridor o'rtasida tovarni pulga ayriboshlash munosabati. Ayriboshlash obyektining moddiy shakli jihatidan olganda iste'mol tovarlari va xizmatlar, ishlab chiqarish vositalari, investitsiya, qimmatbaho qog'ozlar, ilmiy g'oyalar, texnikaviy ishlanmalar va mehnat (ish kuchi) bozorlari mavjud. Umuman olganda, marketing tushunchasi u yoki bu yo'sinda bozorga munosabati mavjud bo'lgan inson faoliyatidir.

Marketing falsafasi marketing jarayonining rivojlanish yo'lini aks ettiradi. Marketing falsafasining kelib chiqishini anglash uchun iqtisodiy rivojlanish tarixiga murojaat qilamiz. Ma'lumki, 1880 yillarda pul tovar munosabatlariga asoslangan ishlab chiqarish Angliya, Germaniya, Frantsiyada shakllanib mahsulot ishlab chiqarish ko'paya bordi. Natijada bozorlar mahsulotlarga to'lib-toshib, taklif talabdan oshib ketdi. Bu vaziyat iqtisodda turg'unlik davrining boshlanishi edi. Tovar ishlab chiqaruvchilarning oldida ishlab chiqarilgan tovarlarni qanday qilib sotish muammosi paydo bo'ldi. Olimlar, iqtisodchilar vaziyatni tahlil qilish, ishlab chiqarishni shakllantirish maqsadida "nimani sotish mumkin bo'lsa shuni ishlab chiqarish kerak", - degan g'oyani taklif qildilar. Bu marketingning birinchi falsafasi bo'lib tarixga kirdi. Albatta, nimani sotish mumkin bo'lsa, shuni ishlab chiqarish uchun iste'molchilarning talabini o'rganish lozim bo'ladi. SHunday qilib birinchi marta ishlab chiqarish iste'molchilarning talabi bilan bog'liq bo'ldi.

Marketingning birinchi falsafasi 1930 yillargacha, ya'ni G'arbiy Evropa, Amerikada buyuk depressiya davrining boshlanishiga qadar samarali natija berdi. XX asrning 20-yillarining oxirlariga kelib, yana iqtisodiy inqiroz boshlandi. Bu davrda ro'y bergan inqirozning sababi yana taklifning talabdan oshib ketishi edi. YAna vaziyatni tahlil qilib olimlar, iqtisodchilar quyidagi

taklifni berdilar “mahsulotni qancha sotish mumkin bo’lsa, shuncha ishlab chiqarish kerak”.

E’tibor bering birinchi falsafa “nimani sotish mumkin bo’lsa, shuni ishlab chiqarish lozim edi”. Ikkinchi falsafa esa “nimani, qancha ishlab chiqarish bo’ldi”. Endi nafaqat talabni, balki uning miqdoriy ko’rsatkichini ham aniqlash lozim bo’lib qoldi. Masalan, avtomobil ishlab chiqaradigan korxonada bir yo’la avtomobillarni (yuk, engil, yo’lovchi tashuvchi, maxsus avtomobillarni) qancha miqdorda ishlab chiqarish masalasini ham hal qilishi lozim edi.

Marketingning ikkinchi falsafasi ham birinchisidagidek, taxminan 50 yil xizmat qildi. 30-yillardan boshlab biror korxonani qurish dan avval talabni o’rganib qanday mahsulotga ehtiyoj bor, keyin shu mahsulotga bo’lgan ehtiyojni aniqlab uni quradigan bo’ldilar. Hozirgi kunda ham tadbirkorlar sarmoya tiqib biror korxonani qurishdan avval ehtiyojni o’rganish, uni qondiradigan mahsulotni ishlab chiqaradigan korxonani quradi.

80-yillarga kelib ishlab chiqarish yangi texnika va texnologiya bilan jihozlandi. Mahsulotning sifati ham miqdori ham oshib ketdi. Ishlab chiqarish yuqori darajada avtomatlasha boshladi. Bir yo’la marketing tadqiqotlari ham taraqqiy etdi. Shunga qaramay, o’sha mumtoz masalani echish lozim bo’ldi. Zamon o’zgarishi bilan echiladigan masala mazmunan bir bo’lgani bilan uni echish usuli yangicha bo’ldi. Yana o’sha vaziyat yuzaga keldi, ya’ni taklif talabdan o’zib ketgan, iqtisodiy rivojlanish sur’atlari sekinlashgan, ishlab chiqarishga tikilgan sarmoya harakati ham sustlashgan edi. Olimlar, iqtisodchilar vaziyatni tahlil qilib marketingning uchinchi falsafasini taklif qildilar. Bu falsafaning mazmuni quyidagicha: “shunday mahsulotni ishlab chiqarish kerakki, unga talab yuqori bo’lib, uni kam xarajatlar bilan ishlab chiqarib, yuqori darajadagi foydani ko’zlab sotish mumkin bo’lsin”. Bu falsafa hozirgi kunda ham katta samara bilan xizmat qilmoqda. Uning mazmuni quyidagicha: mutaxassislar erkak, ayol, yoshlarning oilada, ishda, dam olish, o’qish va boshqa vaziyatlarini o’rganib iste’molchilarning mahsulotni iste’mol qilish va ulardan foydalanish jarayonini engillatishni ko’zlab tovarlarning yangi turlarini ishlab chiqardilar.

Yangi tovarlar eskisidan bir qancha afzalliklarga ega bo’lganligi uchun ularga talab paydo bo’lib, u sekin-asta o’sib boradi. Masalan, eski oynai jahon apparatlarini boshqarish bevosita ularni yoqib o’chiradigan, bir dasturdan boshqa dasturga o’tkazadigan, tovushni baland, past qiladigan tugmalari orqali amalga oshiriladi. Hozirgi zamon oynai jahon apparatlari esa masofadan turib boshqaradigan moslamalari bo’lganligi uchun tomoshabin o’tirgan joyidan xohlagan operatsiyani bajaradi. Yoki hozirgi zamon oynai jahon apparatlarida bir yo’la ikkita yoki ekranni to’rt bo’lakka bo’lib, dasturdagi ko’rsatuvlarni

tomosha qilish mumkin. Yana hozirgi zamon televizion apparatlarida tomoshabin lozim topsa, ekrandagi rasmning nusxasini rangli tasvirda olish imkoni bor.

Hozirgi zamon engil avtomobillarini oladigan bo'lsak, ular mikroprotssessorlar bilan jihozlangan bo'lib, avtomobilni boshqarishda, uning texnik holatini nazorat qilishda haydovchiga bir qator engilliklar tug'diradi.

Avtomobilga o'rnatilgan mikroprotssessor bankdagi benzin miqdorini, avtomobilning qismlarini va ularning holatini nazorat qilib turib, biror nosozlik paydo bo'la boshlasa, haydovchini darrov ogohlantiradi. Eng zamonaviy engil avtomobildagi o'rnatilgan mikroprotssessorlar yo'lning yuzasiga qarab optimal tezlikni, avtomobilni er yo'ldoshlari yordamida berilgan yo'nalishda boshqarib borish imkonini beradi. Hatto, kutilmaganda avtomobil oldidan biror to'siq chiqib qolsa, uni zudlik bilan to'xtatadi. Bu imkoniyatlar haydovchiga juda katta qulayliklar yaratib, uni qattiq charchatmaydi va har xil yo'l qoidalarining buzilishini oldini oladi, harakat xavfsizligini keskin oshiradi.

Marketingning uchinchi falsafasi mahsulot ishlab chiqarish mazmuniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu falsafa tufayli iqtisodiy inqirozlar ham ro'y bermay qo'ydi. Hozirgi paytda ishlab chiqariladigan tovarlarning turlari va ularning ko'rsatkichlari ham keskin ko'payib ketdi. Undan tashqari, tovarlarning turi, assortimenti ham tez-tez o'zgarib turadigan bo'ldi. Marketingning uchinchi falsafasi marketing tadqiqotlarining yanada chuqurroq, yanada kengroq olib borishni taqoza qildi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Nima sababdan marketing sport amaliyotiga kirib kelgan?
2. Sport tovarlari ishlab chiqarishni va sotishni marketing roli?
3. Sport tovarlarini ishlab chiqarish uslublari, maqsadlarini shakllanishida sport menejmentning roli qanday?
4. Marketing kontseptsiyasining paydo bo'lishida sport menejmentning roli qanday?
5. Adam Smitning "Jamiyat boyliklari" asari sport marketingiga nima berdi?
6. Marketing evolyutsiyasining bosqichlari ?
7. Sport tovarlarini ishlab chiqarishni takomillashtirish kontseptsiyalari?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T.: O'zbekiston, 2009. – 24 b.
2. Gulyamov Z.T., Akbarov F.S. Osnovi menejmenta i ego osobennosti v usloviyax formirovaniya rinka v Uzbekistane. – T.: TGAI, 2006.

3. Gulyamov Z.T., Nabiullin R.X., Kamilova G.Z. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti. Darslik. –T.: O’zDJTI, 2015.
4. Prchinkin A.V. Menejment v sfere fizicheskoy kulturi i sporta. –M.: Sovetskiy sport, 2010.

Elektron ta’lim resurslari:

Internet saytlari

1. www.bilim.uz
2. www.ekonomika.ru
3. www.menejment.com
4. www.edu.uz-Vazirlik sayti
5. www.ziyo.edu.uz-Vazirlik sayti

9.3. Xorijda sport aloqalarini rivojlanishda sport menejmentining ahamiyati

Reja:

1. Xalqaro sport aloqalari davlatlararo munosabatlarning ajralmas qismi.
2. Xalqaro sport tashkilotlarining shakllanishida sport menejmentining o’rni.
3. Davlatlararo, hukumatlararo va nodavlat toifalar.
4. Ittifoqlar, guruh va har xil davlatlardan alohida shaxslar orqali Xalqaro hamkorlikka ko’maklashish.
5. Xalqaro sport birlashmalari, nodavlat jamiyat tashkilotlari.
6. Sport birlashmalarining nodavlat tashkilotlar qatoriga kirishi.
7. Xalqaro nodavlat tashkilotlarning asosiy belgilari.
8. Ikki davlat doirasida sport faoliyati ko’rsatishi.

Tayanch so’z va iboralar:

Xalqaro sport aloqalari, davlatlararo munosabatlar, xalqaro sport tashkilotlari, huquqiy status, “Xalqaro tashkilot” Xalqaro huquq, tashkilot huquqi, a’zolik darajasi, davlatlararo, hukumatlararo, nodavlat, toifalar, xalqaro nodavlat tashkilotlar, milliy jamoat tashkilotlari, ittifoqlar, guruh, alohida shaxslar siyosiy, iqtisodiy, madaniyat, ilmiy-texnikaviy, xalqaro hamkorlik, ko’maklashish, xalqaro sport birlashmalari, tarkib, BMT, Bosh Assambleya.

Xalqaro sport aloqalari davlatlararo munosabatlarning ajralmas qismi hisoblanadi, shuning uchun ham ular xorij mamlakatlar bilan aloqalarni rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Xalqaro sport tashkilotlarining huquqiy statusi xususiyatlarini o’rganishda shuni inobatga olish lozimki, xalqaro sport

tashkilotlari birinchi navbatda, “Xalqaro tashkilot” hisoblanadi, shuning uchun uning faoliyatiga xalqaro huquq me’yorlari va aynan xalqaro tashkilot huquqi ta’sir ko’rsatadi.

Xalqaro tashkilotlar a’zolik darajasiga qarab, davlatlararo, hukumatlararo va nodavlat toifalarga bo’linadi. Xalqaro nodavlat tashkilotlar milliy jamoat tashkilotlari ittifoqlar, guruh va har xil davlatlardan alohida shaxslar siyosiy, iqtisodiy, madaniyat, ilmiy-texnikaviy va insonning boshqa faoliyat sohalarida xalqaro hamkorlikka ko’maklashish maqsadida shakllanadi. Bunday tashkilot va muassasalar davlatlararo kelishuvga asoslanmagan va tijoratdan foyda olishni maqsad qilib qo’ymagan bo’ladi.

Xalqaro jismoniy tarbiya sport birlashmalari nodavlat, jamiyat tashkilotlari kategoriyasiga kiradi. Xalqaro jismoniy tarbiya sport birlashmalari tarkibiga sport milliy tashkilotlari kiradi, ayrim hollarda jismoniy tarbiya sohasidagi faoliyatga aloqador Xalqaro birlashmalar, hatto alohida shaxslar ham a’zo bo’lishi mumkin. Sport birlashmalarining nodavlat tashkilotlar qatoriga kirishi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasidagi 1968 yil 23 maydagi 1296 qaror bilan asoslangan: “Xalqaro nodavlat tashkilot deb davlatlararo kelishuvga asosan ta’xislanmagan har qanday Xalqaro tashkilot tan olinadi”.

Xalqaro nodavlat tashkilotlarning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

- o’z faoliyatidan foyda chiqarish maqsadining yo’qligi;
- juda bo’lmaganda bir davlat tomonidan tan olinishi yoki Xalqaro hukumatlararo tashkilot tarkibida maslahatchilik statusiga ega bo’lishi;
- bittadan ko’p davlatlardan pul mablag’i olib turishi;
- juda bo’lmaganda ikki davlat doirasida faoliyat ko’rsatishi;
- ta’xislik dalolatnomasi asosida tuzilganligi.

Xalqaro tashkilotlar umuman, sport tashkilotlari xususan, uzoq yillik xalqaro munosabatlar jarayonining rivojlanishi asosida shakllanib kelgan. Avvaliga xalqaro sport munosabatlari asosan, milliy sport tashkilotlarining ikki tomonlama aloqalarida ko’proq sport musobaqalari shaklida ifodalanib kelgan. Davlatlarning sport aloqalari madaniy va ilmiy hamkorlik kelishuvlari doirasida shartnomali munosabatlar asosida amalga oshirib kelingan. Sportdagi almashuv dalolatnomalari, hukumatlararo kelishuvning bunday hollarida umumiy katta kelishuvning ajralmas qismi bo’lib hisoblangan.

Asta-sekin ikki tomonli aloqalar bir necha davlatlarning milliy sport tashkilotlarining ko’p tomonlama bog’lanish tavsifini ola boshladi. Xalqaro tashkilotlar tuzish ehtiyoji yuzaga kela boshladi, chunki ular xalqaro sport aloqalarini va sport musobaqalarini o’tkazish tartibining mutonasibligini tashkiliy

amalga oshirishga yanada imkon yaratardi. Yana, sportchilar, mutaxassislar orasidagi muloqot madaniyati va shakli tubdan takomillashib bordi, yangicha muloqot albatta, ilgari alohida mavjud bo'lgan milliy sport tashkilotlariga xos bo'lmagan, aksincha, sportning ma'lum turini rivojlantirishdagi umumiy manfaatlarni ifodalovchi Xalqaro sport tashkilotlarida ushbu masala dolzarblikka aylandi.

Xalqaro sport tashkilotlari bir necha xil nomlarda ifodalanishi mumkin, masalan: liga, federatsiya, assotsiatsiya, guruh, blok, birlashma va boshqalar.

Odatda, xalqaro sport tashkilotlari (bunga sport federatsiyalari kirmaydi) xalqaro kelishuvlar (konventsiyalar, kelishuvlar, traktatlar, dalolatnoma va boshqalar) asosida yaratiladi. Bular kelishuv ta'sischilarning dalolatnomasi matni ishlab chiqish va qabul qilish uchun, ya'ni xalqaro tashkilotning ta'sis konferentsiyani o'tkazishni taqozo etadi. Xalqaro sport tashkilotlari boshqa xalqaro tashkilot qaroriga ko'ra, oddiylashgan tartibda ham tashkil qilinishi mumkin.

Umuman olganda, xalqaro sport federatsiyalarining paydo bo'lishi XIX asrga to'g'ri keladi, ayniqsa, uning keng rivojlanishi XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Masalan, Gimnastika xalqaro federatsiyasiga 1881 yilda asos solingan, unda Evropa gimnastika ittifoqi tuzilgandi, faqat 1897 yilga kelib hozirgi mavjud xalqaro birlashma tashkil etildi. Navbatdagi Velosipedchilarning xalqaro ittifoqi 1900 yilda tuzildi, 1910 yilga kelib chang'ida sirpanish sporti kongressida ushbu yo'nalishda Xalqaro komissiya va 1924 yilda Xalqaro federatsiya ta'sis etildi. Bunday misollarni sportning qolgan boshqa yo'nalishlari bo'yicha ko'plab keltirish mumkin.

Xalqaro sport federatsiyalarining rasmiy nomlari frantsuz yoki ingliz tillarida qayd etiladi, nomlarning bosh harflari federatsiyalarning qisqartirilgan nomidan tashkil topadi.

Umuman olganda, ko'pchilik xalqaro sport federatsiyalarining tizimi bir-biriga o'xshagan bo'ladi va ma'lum darajada boshqa xil sport federatsiyalarining tizimlarini aks ettiradi (shu bilan bir qatorda, sportdan tashqari birlashmalarning ham). Odatda, ko'pchilik xalqaro sport federatsiyalarining asosiy vakolatli organi uning umumiy majlisi hisoblanadi (kongress, assambleya va boshqalar). Odatda, xalqaro sport birlashmalarining rahbar organlari kongressda ma'lum muddatga saylanadi yoki milliy va hududiy sport tashkilotlarining vakolatxonasi printsiplida tuziladi.

Xalqaro sport federatsiyalari o'z ishlarini nizomlari asosida tashkil qiladi. Nizom sport turlari bo'yicha xalqaro organi va tegishli milliy sport tashkilotlari tomonidan aniqlangan barcha rahbariyat faoliyatini muvofiqlashtiradi. Federatsiya nizomda ko'p narsa umumiy hisoblanadi, undagi tafovutlar asosan, sport turlari bilan bog'liq bo'ladi. Nizomda federatsiyaga tegishli quyidagi masalalar aks ettirilgan bo'ladi:

- federatsiyaning faoliyat maqsadi va vazifalari;
- rahbar organlarning tizimi va kompetentsiyasi;
- qabul qilish va tarkibdan chiqarish qoidalari;
- qaror chiqarish tartiblari;
- moliyaviy masalalar;
- chop etish faoliyati;
- federatsiyaning faoliyati bilan bog'liq kengashlar, kongresslar o'tkazish va boshqa masalalar.

Xalqaro sport federatsiyalarining ish yuritishdagi asosiy hujjati ularning Nizomi hisoblanadi, masalan:

Xalqaro Kurash Assotsiatsiyasi, nosiyosiy va notijorat xalqaro tashkilot hisoblanadi, O'zbekiston hududida biron-bir Xalqaro Kurash Federatsiyasi orqali assotsiatsiya tarkibiga kirgan va Kurash milliy federatsiyalaridan tashkil topgan.

Xalqaro Kurash Assotsiatsiyasi rasmiy ravishda o'z tarkibiga kirgan barcha Milliy Kurash Federatsiyalari va Kurash Kontinental Federatsiyalarining huquq va manfaatlarini bir xil darajada xurmat qiladi.

Xalqaro Kurash Assotsiatsiyasi o'zining amaliyoti va qarorlarida milliylik, diniylik, jinsiy belgilar, siyosiy, madaniy va boshqa biron e'tiborlik kamsituvchanlik yondashuv amaliyotidan foydalanmaydi.

Xalqaro Kurash Assotsiatsiyasining rahbar organi Kongress va Ijroiyo Qo'mitadan iborat.

Xalqaro Futbol Federatsiyasi (FIFA)ning Nizomida ham quyidagilar belgilangan:

FIFA tegishli mamlakatlarda futbolni nazorat qiluvchi, Xalqaro Federatsiya tarkibiga qabul qilingan va tan olingan Milliy futbol federatsiyalaridan tashkil topgan.

Har bir davlat doirasida faqat birgina milliy futbol federatsiyasi tan olinadi.

Buyuk Britaniyaning to'rtta futbol assotsiatsiyasidan har biri FIFA ning alohida a'zosi deb tan olingan.

Xali mustaqillikni qo'lga kiritmagan, tumanlardagi milliy futbol federatsiyalari o'zi bog'liq bo'lgan boshqa mamlakatning milliy futbol federatsiyasi ruxsati asosida FIFAgga kirish uchun murojaat qilishi mumkin.

Xalqaro Futbol Federatsiyasining asosiy maqsadlari sportning futbol turini targ'ibot qilish va keng rivojlantirishdan iboratdir. Xali futbol etarli darajada rivojlanmagan yoki yaxshi o'zlashtirilmagan mamlakatlarda FIFA o'zining maqsad va vazifalarini Nizom asosida quyidagi tartibda amalga oshiradi:

maqsadga muvofiq deb hisoblangan futbol o'yinini har qanday yo'llar bilan targ'ibot qilish va rivojlantirish.

Milliy federatsiyalar, konfederatsiyalar, hamda ularning o'yinchilari va rasmiy shaxslari orasida har qanday pog'onada futbol o'yinlarini tashkil qilishda do'stona munosabatlarni mustahkamlash va mumkin bo'lgan barcha usullar bilan futbolni qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Futbolning har qanday ko'rinishini nazorat qilish, o'z vaqtida Nizom qoidalarining buzilishini oldini oluvchi tegishli va maqsadga muvofiq qadamlarni qabul qilish, nojo'ya yoki shunga o'xshash usullarni o'yin amaliyotiga kirib kelishini va suiste'mol qilinishlarini oldini olishdan iboratdir:

Davlatga yoki alohida shaxsga nisbatan millatchilik, diniy yoki siyosiy mavzularda kamsitishlik man etiladi.

Davlatga, alohida shaxsga nisbatan millatchilik, diniy yoki siyosiy mavzularda kamsitishlik mavjud hamda sportda qonun asosida kamsitishlik ruxsat etilgan har qanday mamlakatlardagi Milliy federatsiyalar FIFA tarkibiga kiritilmaydi yoki uning a'zosi bo'lib hisoblanib kelgan bo'lsa, qatordan chiqarib yuboriladi. Xalqaro musobaqalarda qatnashish yoki ularni tashkil qilish haqida Milliy federatsiya tomonidan FIFAgaga murojaat etilganda Xalqaro Futbol Federatsiyasining barcha qoida shartlarini hurmat etishga kafolat beriladi. Ikki yoki undan ortiq Milliy federatsiyalar orasida yuzaga keladigan har qanday kelishmovchiliklar FIFA Nizomi va me'yoriy hujjatlari asosidagi muvofiqlashtirish printsiplari ta'minlanadi.

Xalqaro sport federatsiyalari mustaqil tashkilot hisoblanadilar, o'z faoliyatlarida ular hech qanday boshqa xalqaro birlashmalarga itoat etmaydilar, faqat olimpiya o'yinlarini o'tkazish tartibini va dasturini belgilovchi Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi bundan istisnodir. Lekin ushbu holatda ham Federatsiyalar o'zlarining sport turlari bo'yicha texnikaviy rahbarlikka to'liq mas'uldirlar.

Umuman olganda, xalqaro sport tashkilotlarini muhim xalqaro huquq institutlari qatoriga kiritish mumkin, ular o'z faoliyatlarini xalqaro huquqshunoslikning umumtan olingan me'yorlariga asoslaydilar, tinchlikni saqlash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish manfaatlariga xizmat qiladilar.

Shuni ta'kidlash lozimki, xalqaro sport faoliyatida alohida e'tiborga loyiq muhim masalalar mavjud. Jumladan, Xalqaro sport federatsiyalari nafaqat professional sport (yuksak ko'rsatkichli sport)ni rivojlantirish maqsadida tuziladi va faoliyat ko'rsatadi, balki amalda "sport barcha uchun", "ommaviy sport" uchun ham xizmat qiladi. Nizomlarda sport turlariga qarab tegishli satrlar bo'ladi: FIFAni oladigan bo'lsak, "FIFA tomonidan yoki uning ijrochi qo'mitasi tomonidan mos deb qabul qilingan holatlarda har qanday yo'l bilan futbol o'yini

rivojiga hissa qo'shish". Nizomlarda har xil mamlakatlarda u yoki bu tegishli sport turining rivoji va faoliyati haqida albatta, tegishli yozuvlar mavjud, lekin tadqiqotchilarning fikrlariga ko'ra, ko'pchilik hollarda nizomdagi ushbu yozuvlar keng omma orasida sportni rivojlantirishga tegishli hissa qo'shmayotganligi qayd etiladi. Amalda "sport barcha uchun" vazifasini bajarishning qiyinchiliklari bir necha sabablarga bog'liqdir, ulardan asosiysi moliyaviy etishmovchilikdir. Odatda, har qanday Xalqaro sport federatsiyalarining moliyaviy mablag'lari har bir Milliy federatsiyaning yillik a'zolik badalidan tashkil topadi va eng birinchi navbatda, "yuksak ko'rsatkichli sport" ehtiyojlariga sarflanadi. Shuning uchun "sport barcha uchun", "ommaviy sport" rivojini qo'llash hukumatning mahalliy organlari va milliy sport tashkilotlarining zimmasiga yuklatilgan bo'ladi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Nima uchun xalqaro sport aloqalari davlatlararo munosabatlarga bog'liq?
2. Xalqaro sport tashkilotlarining huquqiy statusi qanday?
3. "Xalqaro tashkilot" nima?
4. Xalqaro nodavlat tashkilotlar, milliy jamoat tashkilotlarining xususiyatlari qanday?
5. Davlatlararo sport birlashmalari, nodavlat, tashkilotlarining xususiyatlari qanday?
6. Xalqaro sport birlashmalari tarkibiga nimalar kiradi?
7. Xalqaro nodavlat tashkilotlarning asosiy belgilari nimalarda?
8. Bittadan ko'p davlatlardan pul mablag'i olib turishi tartibi qanday?
9. Ikki davlat doirasida faoliyat ko'rsatish xalqaro faoliyatga kiradimi?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T.: O'zbekiston, 2009. – 24 b.
2. Gulyamov Z.T., Akbarov F.S. Osnovi menejmenta i ego osobennosti v usloviyax formirovaniya rinka v Uzbekistane. – T.: TGAI, 2006.
3. Gulyamov Z.T., Nabiullin R.X., Kamilova G.Z. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti. Darslik. –T.: O'zDJTI, 2015.
4. Prchinkin A.V. Menejment v sfere fizicheskoy kulturi i sporta. –M.: Sovetskiy sport, 2010.

Elektron ta'lim resurslari:

Internet saytlari

1. www.bilim.uz

2. www.ekonomika.ru
3. www.menejment.com
4. www.edu.uz-Vazirlik sayti
5. www.ziyo.edu.uz-Vazirlik sayti
6. www.performance.edu.uz-Vazirlik sayti

XULOSA

Menejment fanining asrlar davomida shakllanib, rivojlanib borishi uning hayotimizning barcha jabhalariga, iqtisodiyot tarmoqlariga, jumladan, sport sohasiga ham kirib kelib, uni boshqarish masalalarida katta ijobiy samaralar berib kelayapti. Jumladan, yuqorida qayd qilganimizdek, AQSH, Angliya, Germaniya, Yaponiya, Xitoy, Rossiya va boshqa shu kabi sport jadal rivojlangan davlatlarda bir necha yillardan beri sport menejmentiga katta e'tibor berib kelinayapti, hatto ushbu masalalar bilan nufuzli oliy o'quv yurtlari va universitetlar shug'ullanib kelayaptilar. Shunga yarasha ushbu davlatlar sportchilari tegishli yuqori natijalarga erishib kelayaptilar.

O'zbekistonda ham ushbu sohada ma'lum ishlar olib borilayapti, sport boshqaruvida, sportchilarimizni yirik musobaqalarga tayyorlashda menejment tavsiyalaridan foydalanib kelinayapti, jumladan, O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti, boshqa Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining jismoniy tarbiya va sport fakul'tet va kafedralari, Olimpiya o'rinbosarlari bilim yurtlari va pedagogika bilim yurtlarining jismoniy tarbiya bo'limlarida katta miqdorda malakali sport mutaxassislari tayyorlanib kelinayapti. Yuqorida nomlari qayd etilgan barcha o'quv yurtlarida sport menejmenti har xil hajmda va har xil ko'rinishda o'qitilib kelinayapti, lekin olib borilayotgan ishlarni etarli darajada deb bo'lmaydi, ayniqsa, sport menejmenti bo'yicha darsliklar, o'quv qo'llanmalarini etishmasligi ushbu soha bo'yicha ko'plab adabiyotlar chop etishni taqozo etayapti.

Hozirgi kunda kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lida belgilab olingan va izchil ravishda amalga oshirilayotgan ulkan vazifalar sport rivojiga mustahkam zamin yaratmokda. Jumladan, barkamol avlod Davlat dasturida yoshlarning jismoniy jihatdan sog'lom bo'lib etishishlariga katta e'tibor berilgan. Ushbu vazifani amalga oshirish jismoniy tarbiya tashkilotlariga, ayniqsa, shu soha oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlariga juda katta mas'uliyatlarni yuklaydi. Shuning uchun sport jarayonlariga rahbarlik qilish, soha uchun etuk mutaxassis - kadrlar tayyorlash, ularni o'qitish, qayta o'qitish, kerak bo'lsa, malakasini oshirib borish o'ta muhim masalalarni hal etishda ushbu o'quv qo'llanma qo'l keladi.

Ushbu o'quv qo'llanma "Sport menejmenti" fani bo'yicha Davlat standarti va Namunaviy dasturga mos ravishda yaratilgan bo'lib, Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya va sport sohasida menejerlar tayyorlashda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga egadir. Jismoniy tarbiya va sport tashkilotining, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarini rahbarlari, murabbiy,

menejer, maktab direktori, klub prezidenti, menejment fanini o'zlashtirmaganlaricha, ularning faoliyati to'laqonli ravishda amalga oshayapti, deyish qiyin. Ushbu predmetning bosh maqsadi etib, yurtimizda va xorijda rivojlanib kelayotgan menejment, jumladan, jismoniy tarbiya va sport menejmentining asosiy kategoriyalari, ya'ni uning printsiplari, funktsiyalari, usullari, axborot texnologiyasi va tashkiliy tizimlarini nazariy va amaliy tomondan chuqur ochib berilgan.

“Sport menejmenti” o'quv qo'llanmasi sport tashkilotlarida ish yuritishda zarur bo'ladigan ijtimoiy boshqaruvning nazariy asoslarini egallash, bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos keladigan menejmentning amaliy ko'nikmalarini hosil qilish, xo'jalik mexanizmini takomillashtirish, moliyaviy, moddiy, mehnat zaxiralaridan unumli foydalanishda asosli qarorlar qabul qila olishini ta'minlaydi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari o'z oldilariga qo'ygan ommaviy jismoniy tarbiya, sog'lomlashtirishni rivojlantirish va sportda yuksak natijalarga erishishda faqatgina asosli boshqaruv qarorlarigina umumiy va aniq maqsadlarga muvaffaqiyatli erishish imkonini yarata oladi.

Ushbu o'quv qo'llanmaning yana bir katta ahamiyati shundaki, u Sport menejmenti fanining nazariy va amaliy yutuqlarini zamonaviy bozor iqtisodiyoti va jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida soha mutaxassislari faoliyatiga ilmiy boshqarish, o'z-o'zini boshqarish elementlarini kiritish, hamda sport biznesi va tadbirkorligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Sport menejmenti o'quv qo'llanmasini yozilishida falsafa, boshqaruv nazariyasi va amaliyoti, kibernetika, psixologiya, shifokorlik politologiya, marketing, iqtisodiyot, iqtisodiyot nazariyasi, iqtisodiyot ta'limi tarixi, ekonometriya, iqtisodiy - matematik modellar va usullar, matematika, operatsiyalar tahlili va boshqa fanlar yutuqlaridan foydalanildi.

Sport menejmenti o'quv qo'llanmasining hozirgi kundagi ahamiyati shundaki, sport sohasiga menejerlar tayyorlashda eng avvalo, bitiruvchilar qanday sifat belgilarini o'zlarida mujassamlashtirgan bo'lishlari lozim, degan savolni hal etishga yordam beradi. Shundan kelib chiqqan holda, menejment mutaxassisligini bitiruvchilar birinchi navbatda, jismonan va aqlan sog'lom bo'lishlari, menejment va uning yaqinidagi boshqa fanlarni yaxshi o'zlashtirgan bo'lishlari, hamda mustaqil fikrlay oladigan va o'z fikrlarini erkin holda, har xil ko'rinish (yozma, og'zaki va boshqa)larda ifodalay oladigan bo'lishlari shart. Ayniqsa, mustaqillik ijodiy va mantiqiy fikrlash, oqillik sezgirlikni rivojlangan

bo'lishi kabi sifatlar menejer xususiyatlarining ajralmas qismi ekanligi ham ushbu o'quv qo'llanmada aks ettirilgan.

Ushbu o'quv qo'llanmada mustaqil ishlash bo'yicha mavzular, tayanch so'z va iboralar va ularning mazmuni, nazorat savollari ham keltirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

O'zbek va rus tillaridagi adabiyotlar

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
2. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. Prezident Islom Karimovning 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2009 yil 14 fevral'.
3. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 16 yilligiga bag'ishlangan yig'ilishda so'zlagan ma'ruzasi (2008 yil 5 dekabr').
4. Asosiy maqsadimiz – yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo'lini qat'iyat bilan davom ettirishdir. Prezident I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 15 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2007 yil 8 dekabr'.
5. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O'zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2007 yil 31 avgust.
6. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –T.: O'zbekiston, 2017.
7. 2008 yilda O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalari va yo'nalishlarini amalga oshirish chora-tadbirlari dasturi // Xalq so'zi, 2008 yil 12 fevral'.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2008 yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risida”gi Qarori. 2009 yil 13 fevral'.
9. Postanovlenie Prezidenta RUz №PP-672 ot 20 iyulya 2007 g. «O merax po dal'neyshemu uglubleniyu protsessov privatizatsii i aktivnomu privlecheniyu inostrannykh investitsiy v 2007-2010 godax, «Sobranie zakonodatelstv Respubliki Uzbekistan», 2007g., N 29-30, st. 300.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank tizimini yanada rivojlantirish va bo'sh pul mablag'larini bank aylanmasiga jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. 2007 yil 7 noyabr'.
11. Ukaz Prezidenta RUz. №UP-4053 ot 18 noyabrya 2008 g. «O merax po dalneysheму povisheniyu finansovoy ustoychivosti predpriyatiy real'nogo sektora ekonomiki».
12. Ukaz Prezidenta Respubliki Uzbekistan №UP-4058 ot 28 noyabrya 2008g. «Programma mer po podderjke predpriyatiy realnogo sektora ekonomiki, obespecheniyu ix stabilnoy raboti i uvelicheniyu eksportnogo potentsiala».
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2008 yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risida"gi Qarori. 2009 yil 13 fevral' // "Xalq so'zi" gazetasi, 17 fevral'.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyovning Oliy majlisiga murojaatnoma. // Xalq so'zi, 23 dekabr', 2017 yil.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 fevraldagi "madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni.
17. Aaker D.A. Strategicheskoe rinochnoe upravlenie / D. A. Aaker; per. s angl. pod red. Yu. N. Kapturevskogo. - SPb: Piter, 2002.
18. Avdasheva S.B. Teoriya organizatsii otraslevix rinkov/ S. B. Avdasheva N. M. Rozanova. - M.: Magistr, 1998.
19. Agaptsov S.A. Indikativnoe planirovanie kak osnova strategicheskogo razvitiya promishlennogo predpriyatiya / S. A. Agaptsov, A.I.Mordvintsev, P. A. Fomin, L. S. SHaxovskaya. - M.: VYssh. shk., 2002.
20. Azoev G. L. Konkurentsia: analiz, strategiya i praktika / G. L. Azoev. - M.: TSentr ekonomiki i marketinga, 1996.
21. Alimova N.F. Upravlenie kommercheskoy ekspluatatsiey na osnove sistemi pokazateley ekonomicheskoy effektivnosti deyatelnosti aviakompaniy: avtoref. dis. ... kand. ekon. nauk / N.F.Alimova. - M., 2000. -26 s.
22. Bekmurodov A.SH., G'afurov U.V. O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash: natijalar va ustuvor yo'nalishlar. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2007. - 102 b.
23. Bekmurodov A.SH., Safarov B.J. Qishloq joylarida savdo va xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish yo'nalishlari. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2007. - 23 b.

24. Berkinov B.B., Tashmatov R.X. O'zbekistonda fermer xo'jaliklari va ularga xizmat ko'rsatuvchi bozor infratuzilmalarini rivojlantirish istiqboli / Ilmiy-ommabop risola. – T.: TDIU, 2008. - 37 b.
25. Borodin V. M. Teoreticheskie osnovi optimizatsii upravleniya
26. Gulyaev V.G. Organizatsiya turistichekoy deyatel'nosti. – M.: Nolidj, 2006.
27. Gulyamov Z.T., Akbarov F.S. Osnovi menejmenta i ego osobennosti v usloviyax formirovaniya rinka v Uzbekistane. –T.: TGAI, 2006.
28. Gulyamov Z.T. Menejer kar'erasini rivojlantiruvchi omillar. –T.: TGAI, 2001.
29. Gulyamov Z.T. Ismatova D. O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotini rivojlanishida bozor jamg'armasining tutgan urni. –T.: TGAI, 2001.
30. Gulyamov Z.T. Ismatova D. O'zbekiston Respublikasida bozorni rivojlanishida banklarning ahamiyati. –T.: TGAI, 2001.
31. Gulyamov Z.T. Kamaev D. Problemy razrabotki effektivnoy metodiki strategicheskogo planirovaniya. –T.: TGAI, 2002.
32. Gulyamov Z.T. Jumabaev S. Analiz praktiki ispol'zovaniya sovmestnogo ispol'zovaniya kodov. –T.: TGAI, 2002.
33. Dolgov S.I. Globalizatsiya ekonomiki: novoe slovo ili novoe yavlenie. – M.: Ekonomika, 1998. – 215 s.
34. Dolinskaya M.G. Marketing i konkurentosposobnost' promishlennoy produktsii / M. G. Dolinskaya, I. A. Solov'ev. – M., 1991.
35. Dunaev O.N. Strategicheskij menedjment: ucheb. posobie/ O. N. Dunaev, E. YU. Kuznetsova; IPK UGTU. – Ekaterinburg, 2000. – 220 s.
36. Dey D. Strategicheskij marketing / D. Dey. – M.: EKSMO - press, 2002.
37. Donal'd Dj. Bauesoks, Deyvid Dj. Klass Logistika. Integrirovannaya tsep' postavok. – M., 2005.
38. Egorov A.YU. Kompleksniy analiz v sisteme marketingovoy deyatelnosti / A. YU. Egorov. – M., 2004.
39. Efremov V.S. Strategiya biznesa. Kontseptsii i metodi planirovaniya: ucheb. posobie. – M.: Finpress, 1998. – 192 s.
40. Jarikov E.S. Uroki psixologa dlya rukovoditelya. – M., 2011.
41. Zinnurov U.G. Problemy otsenki konkurento-sposobnosti tovaroproizvoditeley / U. G. Zinnurov, L. R. Il'yasova. –Ufa: Ekonomika i upravlenie, 1997. – № 4.
42. Zubkov V. Vijivet li v Rossii svoya aviatsiya? / V. Zubkov. –M.: Rossiyskaya Federatsiya segodnya, 2003. – № 16. – S. 2-3.

43. Zurabov A. Ne predstavlyayu, chtobi Rossiya ostalas' bez svoix kril'ev. –M.: Rossiyskaya Federatsiya segodnya, 2003. – № 16. – S. 22-25.
44. Ikramov M.A., Saakyan A.K. Menedjment. RIS SZTU. Sank-Peterburg, 2009.
45. Ikramov M.A., Saakyan A.K., Xodjaeva M.YA. Osobennosti formirovaniya kontseptsii upravleniya aviapredpriyatiem v usloviyax perexodnogo perioda. – Sankt-Peterburg, 2010.
46. Isxodnaya informatsiya i opisanie zadach konferentsii / Dokumentatsiya Vsemirnoy aviatransportnoy konferentsii «Проблемы и возможности liberalizatsii». Monreal'. 24-29 marta 2003 g.

Xorij tilidagi adabiyotlar:

1. Ampuero, M. Solving the Measurement Puzzle: How EVA and the Balanced Scorecard Fit Together // Goranson J., Scott J. The Cap Gemini Ernst & Young Center for Business Innovation. Issue 2 “Measuring Business Performance”, 2008. – P. 46.
2. Ansoff, H. L. Corporate Strategy / H.L. Ansoff. - N.Y.: McGraw-Hill, 2005.
3. Airline industry trends since September 11th: Aviation information and Research / IATA. - 2003. - 27 p.
4. Ansoff, H. L. The State of Practice in Planning Systems / H. L. Ansoff // Sloan Management Rev. - 1977. - Vol. 1. - P. 24.
5. Annual report 2002 / Fraport, 2003. - 132 p.
6. Annual report 2002 / Lufthansa, 2003. – 175 p.
7. Annual review of civil aviation 2002 // IS AO J. - 2003. - № 6. - P. 2-44.
8. Bowen, Brent D., Airline Quality Rating, National Institute for Aviation Research / Brent D. Bowon, Dean E Headle, Jacqueline R. Luedtke Nat. Inst. Rep. Wichita; Kansas, 2001.
9. Bradley M. The Rationale behind Interfirm Tender Offers: Information or Synergy/M.Bradley, A.Desai, E.H.Kim//Journal of Financial Economics.- 1983. -Vol. 11.-№2.-P. 183-206.
10. Chandler A. D., Jr. Strategy and Structure: Chapters in the History of the Industrial Enterprise / A. D. Chandler. - Cambridge, MA: MIT Press, 2002.
11. Das T. K., A Resource-based Theory of Strategic Alliances/T. K. Das, B. Sh. Teng // - J. of Management. - 2000. - Vol. 26, № 1. - P. 37-38.
12. Drucker P.R. Entrepreneurship in Business Enterprise / P.R. Drucker // J. of Business Policy. - 2010. -Vol.1, №1. - P. 3-12.
13. Drucker P.R. The Theory of the Business/ P.R. Drucker// Harvard Business Rev. - 1994. - Sept., Oct. - P. 98-104.

14. Dutta B.K. A Competitive Scenario Modeling System / B. K. Dutta, W. R. King // Management Science. - 1980. -Vol. 26, № 3.
15. Freeman R. E. Straregis Under Management: A Stakeholder Approach / R. E. Freeman. - L.: Pitman, 2004.
16. Fred R. David. Fundamentals of Strategis Manegement. / R. D. Fred. - Merrill Publ. Co 1986. - p. 14.
17. Gunther A. The airline industry / A. Giinther, P. Hoffmann, A. Lorenz; Intern. Business Studies Univ: of Applied Sciences. - Dresden, 2001.
18. Oliver E. Willimson. Transaction cost Economics: the Governance of contractual relations// Journal of Law and Economics, 1979. -22(2), oct..- P.246-2
19. Hamel G. Competing for the Future / G. Hamel S. K. Prahalad / Boston: Harvard Business School Press, 2004.
20. ICAO Digest of Statistics. - 2005. - № 524. - 68 p.
21. ICAO Digest of Statistics. - 2005. - № 522. - 54 p.
22. Kreps D.M. A course in microeconomic theory / D.M.Kreps. - PrincetonUniv. Press, 2010.

R.NABIULLIN

**JISMONIY TARBIYA VA
SPORT MENEJMENTI
(SPORT MENEJMENTI
ASOSLARI)**

O'quv qo'llanma

Musahhih:
Aripjanova D.U.

Dizayner:
Imomov Sh.A.

Kompyuter verstkasi:
Dalabayeva N.I.

Nashr.lits. AIN^o 283, 11.01.16. Bosishga ruxsat etildi 27.01.2018.
Bichimi 60×84 ¹/₁₆. «Times New Roman» garniturasida raqamli bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 23,25. Nashriyot bosma tabog'i 23,75.
Adadi 100. Buyurtma № 27

«ILMIY TEXNIKA AXBOROTI - PRESS NASHRIYOTI»

100017. Toshkent sh, M-5, 45/4

355

NABIULLIN RISHAT XISMATULLOVICH

“O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan xalq maorifi xodimi”, “Jismoniy tarbiya va sport a‘lochisi” iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

1971-yilda Toshkent davlat universitetini imtiyoz bilan bitirgan.

1971-1991 yillarda Toshkent davlat universitetida o‘qituvchi,dekan,birinchi prorektor, 1991-1996 yillarda Toshkent davlat sharqshunoslik institutida o‘quv ishlari bo‘yicha, birinchi prorektor, 1996-1999 yillarda “O‘rta Osiyo trans” xalqaro yuk tashish korxonasi raxbari, 1999-2004 ko‘p tarmoqli ishlab chiqarish korxonasi bosh raxbari lavozimida mehnat qilgan.

2005 yildan hozirgi vaqtga qadar O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida moliya va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor vazifasida ishlab kelmoqda. “Sport menejmenti va iqtisodiyot” kafedrasida professori sifatida talabalarga iqtisodiyot nazariyasi, sport menejmenti va iqtisod fanidan dars beradi, Yunon-rum kurashi bo‘yicha sport ustasi, bir necha karra universitada musobaqalari hamda O‘zbekiston va xalqaro turnirlari g‘olibi.